SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V6I3Y2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 3-son (Mart, 2026). - 405 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yusupov Shakir Xaitbayevich
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI 11-18

Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli
THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825) 19-28

Tursunova Gavhar Begmurodovna
ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO‘CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR) 29-32

Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich
SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O‘ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) 33-40

Сагатова Зиёдахон Бахтияровна
МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 41-45

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna
STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI) 46-51

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o‘g‘li
FARG‘ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI) 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna
MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 57-67

Султанова Дина Файзрахмановна
НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА 68-72

Xushvaqtov Jasur Shuhrat o‘g‘li
KO‘CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 73-82

Jabbarov Nurbek Atanazarovich
O‘ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI 83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Zaripova Hulkar Toxir qizi
O‘ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O‘RNI 89-95

Abdullayeva Saodat Nurillo qizi
PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI:
VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA
TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI 96-99

Rajabov Behruz Baxshillayevich
TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA
ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI..... 100-104

Artiqova Adolat Ataboyevna
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI
VA UNING TARIXIY AHAMIYATI 105-109

Umarova Feruza
MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN
VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI 110-116

Djalalova Nigora Xusanovna
IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O‘RGANISHDA
RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI 117-120

Ходжиметов Шахрух Русланбекович
ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ
НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА 121-124

Islamova Gulzamon Madiyevna
JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI..... 125-130

Uraqov Nodirbek Boboqulovich
HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI:
BAG‘RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT,
UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK
G‘OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI..... 131-136

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Baydjanova Iroda Abdullayevna
TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI:
“SHUM BOLA” ASARINING O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI
TARJIMALARI MISOLIDA 137-143

Imomiddinova Nargiza
ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI 144-154

Sobirov Anvar Kuvandikovich
JONLI SO‘ZLASHUV NUTQIDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPOETIK
VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI 155-159

Азизова Насиба Бахритдиновна
ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ
АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ..... 160-168

Ishankulova Diyora Allovidinovna
UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G‘OYAVIY-MAZMUNIY MOHIYATI
VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI 169-174

Olimjon Jalilov Muxidinovich
INGLIZ VA O‘ZBEK EPOSLARIDA LINGVISTIK MODELLARNING
QIYOSIY XUSUSIYATLARI 175-178

Achilova Zuxra Qurbonovna
“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA
JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI 179-184

Orazgalieva Ayjamal Marat qızı
SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA
IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY 185-192

Babayeva Irada Sabirovna
LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC
COMMUNICATION 193-198

Тоштемирова Фарангиз Шухратовна
РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА
И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ 199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Utemuratova Sapargul Shamshetovna
EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA
MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI 203-207

Qilichev Xayrulla Mamatovich
FUQAROLARNING O’ZINI O’ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT
XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O’ZIGA XOS JIHATLARI 208-217

Бурханова Шийрин Жамшитовна
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО:
ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ 218-223

Akayeva Marapat Abduhalikovna
GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT:
O‘ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI 224-232

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna
XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI 233-240

Хидоятов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна
ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В
ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ
В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ 241-250

Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov
JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHGA
QARATAYOTGAN E’TIBORI 251-256

Абдужаппоров Шаҳбоз Музаффар ўғли
МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ
СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ 257-267

Nasridinov Yigitali Borataliyevich
XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA
DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR 268-276

Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH
VA OLDINI OLISH 277-281

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK
INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI 282-289

Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи
КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ
ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ 290-297

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li
QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH
VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI 298-307

Отаубаева Айгуль Бахрамовна
КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:
СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН 308-316

Mukimbayev Otabek Sattarovich
GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL
YONDASHUVLAR 317-324

Yakubov Mirzaxid Turabayevich
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING
XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR 325-333

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna
RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
DIDAKTIK TALABLARI 334-338

Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich
PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA
STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI 339-348

Yusupova Kamola Nuriddinovna
NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA 349-353

Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich
ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI
SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI 354-358

Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyorovna
OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING
SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH MAZMUNI 359-366

Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI
LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 367-371

Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович
МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ 372-378

Rakhmatova Madina Abdumumin kizi
IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING 379-384

To‘rayev Azamat Maqsudovich
TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO‘SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI 385-390

Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi
STUDENTS’ ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE? 391-399

Burxonova Muxlisa Murtoz qizi
O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIIY MATNLARNI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH 400-404

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

RESULTS OF THE DEVELOPMENT OF KHOREZM URBAN CULTURE DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Yusupov Shakir Khaitbayevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Acting Associate Professor, Department of History, Mamun University

Abstract. This article presents the results of research conducted at key urban-cultural centers of Khorezm during the reign of Amir Timur and the Timurids. Drawing on historical and archaeological evidence, it offers a scholarly and theoretical analysis of the reconstruction of cities, the development of trade networks, the establishment of garden and park landscapes, and the patterns of continuity and integration within architectural traditions.

Keywords: Qongirot Sufis, Golden Horde, Devkeskan–Wazir, Khorezm Archaeological Expedition, Adaq, Tersak, Boldumsoz, Urgench, Khiva, caravan routes, mosque, mausoleum.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI

Yusupov Shakir Xaitbayevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Ma’mun universiteti “Tarix kafedrasi” v.b. dotsenti
Email: shakiryusupov75@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-7307-1158

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Xorazm shaharsozlik madaniyati markazlarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari aks ettirilgan. Tarixiy va arxeologik manbalar asosida shaharlarning qayta tiklanishi, savdo aloqalarining rivojlanishi, bog‘-rog‘lar yaratilishi hamda me’morchilik an’analaridagi o‘zaro uyg‘unlik masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘ng‘irot so‘filari, Oltin O‘rda, Devkeskan-Vazir, Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi, Adaq, Tersak, Boldumsoz, Urganch, Xiva, karvon yo‘llari, masjid, maqbara.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N01

Kirish. Amir Temur va temuriylarning Xorazmni egallashi voha uchun ham, markazlashgan saltanat qudratini oshirish yo‘lida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Natijada mahalliy zodagonlar – Qo‘ng‘irot So‘filarining Oltin O‘rda xonlaridan bo‘linish harakati birmuncha kuchaydi, bu elatning kuchli davlat, markazlashgan saltanat tasarrufida bo‘lishi vohada shahar madaniyatini qayta jonlantirdi. Savdo aloqalari yanada avj oldi. Chunki Xorazm shaharlari Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan savdo markazlaridan biri edi. Amir Temurning Xorazmga yurishlari Oltin O‘rda xonlarining viloyatga bo‘lgan da’vosini susaytirdi. Xorazm o‘zining Markaziy Osiyodagi avvalgi kuchli iqtisodiy,

siyosiy va madaniy mavqeyini nafaqat yo‘qotmadi, balki yangi shakl va mazmunda qayta kashf etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arxeologik tadqiqotlar natijalari va yozma manbalarda keltirilgan ayrim ma’lumotlar mohiyatan shu davrda sug‘orish tarmoqlari tuzatilgani va yangilari bunyod etilganligidan dalolat beradi. Bu holat yagona saltanat xazinasini to‘ldiruvchi omil bilan anglashiladi. Chunki sug‘orish inshootlari taraqqiyotga, farovonlikka xizmat qilgan, mamlakatda soliq undiriladigan bazaning kengayishiga olib kelgan. Rasmiy saroy tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy ta’biri bilan aytganda, “Temur ekin unadigan bir bo‘lak yerning bo‘sh qolishiga yo‘l qo‘ymagan”, ya’ni “rasmiy tarixning ifoda etishicha, umuman, ekin yetishtirish mumkin bo‘lgan yer bekor yotmagan”[4; 266-b.]. Amir Temur va temuriylar davrida shaharlar atrofida ulkan bog‘lar barpo etilgan. Ularda turli xildagi daraxtlar va gullar yetishtirilgan[13].

Ustyurt pasttekisligida joylashgan Devkesgan – Vazir yodgorligining “pastki shahar” qismida saroy inshooti bilan uning atrofida krest-but-salb shaklidagi bog‘ – xiyobon qurilishlarining joylashuvi S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiya xodimlari tarafidan o‘rganilgan[15; 300-b.]. Bu bog‘ majmuasi to‘rtburchak devor bilan yaxshi mustahkamlangan. Uning o‘rtasida ko‘p xonali saroy qoldig‘i joylashgan. Saroy atrofida oldinlari daraxtlar ekilgan xiyobonlar, to‘g‘ri yurgizilgan ko‘ndalang yo‘lka xiyobonlar barpo etilgan, ular kvadrat shakllarga bo‘linib, o‘nlab ariqlar o‘tkazilgan uchastkalardan tashkil topgan. Oqibatda kvadrat shaklli to‘rtburchakli majmua qaytadan to‘g‘ri burchakli to‘rtta tarxga bo‘lingan. Ular ham, o‘z navbatida, sakkiz yoki yangi kvadratlarga bo‘linadi. Ularda suv o‘tkazilgan ariqlarda sersoya daraxtlar va mevazor mavjud bo‘lgan. Ularning izlari oddiy ko‘rinishda bugungi kungacha saqlangan. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqotchisi M.A.Orlovning fikricha, Devkesgan – Vazir bog‘i XIV–XV asrlar bilan sanalanadi[11; 164-b.]. Devkesgan – Vazir bog‘ majmuasi rejasi Amir Temur va uning merosxo‘rlari tomonidan Samarqand, Shahrisabz, Hirot, Toshkent vohalaridagi yangi shaharlar, obodonlashgan bog‘ majmualariga qiyosiy jihatdan juda ham yaqin[2; 38-b.]. Bu davrdagi bog‘lar ikki xilda bo‘lgan: birinchisi muntazam reja asosida sun’iy barpo etilgan bog‘lar, ikkinchi toifadagi bog‘lar qo‘riqxonaga o‘xshash bo‘lib, tabiiy daraxtzorlardan foydalanilgan. Lekin bularda ham obodonlashtirish ishlari olib borilgan[12; 16-b.].

Tarixiy yilnomalardan biri Otamalik Juvayniyning (XIII asr) “Tarixi jahonkushoy” asarida Gurganj atrofidagi “Maishiyat qarorgohi – Bog‘i Hurram” eslatib o‘tiladi. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Jent bog‘ – xiyobon, Adaq – Oq qal’a, Shohsanam va Yorbakir yonidagi bog‘lar aniqlangan[11; 156 –167-b.]. Lekin Amir Temur va temuriylar davrida Orolbo‘yi elatlari atrofida bog‘ – xiyobon majmualari (Devkesgan – Vazir) me’moriy tarhga amal qilgan holda, bog‘dorchilik ilmiga oid temuriylar davri tajribasida umumiylashtirilib qurilgan. Mazkur jarayonda albatta temuriylar o‘rtasidagi toj-u taxt mojarolarida oliy hokimiyatga talabgorlardan biri Sulton Husayn Boyqaro (1473–1506) Astrobod va Hirotdan Xorazm uchun bo‘lgan kurashlarda qatnashib, Vazir (Devkesgan), Adoq, Tirsak (Shemaxaqal’a), Bo‘ldumsoz, Urganch va Xiva, Hazorasp shaharlaridan o‘z qarindoshi, ayni paytda g‘animi Sulton Abu Saidga (1451–1469) qarshi urushlar (1460, 1461, 1462, 1462-yy.) olib bordi. Xorazm vohasi shaharlaridan Vazir va Adoq Sulton Husaynning tayanch joyi – suyanch maskaniga aylandi. Ilgari qayd etganimizdek, hatto Urganch bir muddat Sulton Husayn uchun poytaxt vazifasini ham bajargan edi.

Bu shaharlar Xorazmning shimoli-g‘arbiy taraflarida joylashgan. Ya’ni, bu atrofda temuriylar ko‘chmanchilar bilan shiddatli kurash olib borgan davrda ham ijtimoiy soha obyektlari, maxsus joylar, mudofaa istehkomlari qurilishi to‘xtab qolmagan.

Umuman, qayd etilganidek, Amir Temurning markazlashgan davlatiga qo‘shilgan Xorazm elatlarida osoyishta hayot qaror topib, o‘zaro ichki urushlarga barham berilib, iqtisodiy o‘sish jarayoni boshlandi. Tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar Amir Temur va temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Toshqal’a), Vazir (Devkesgan)ning shahar mudofaa devorlari, uy-joylar qayta qurilganini ta’kidlaydi. Shemaxaqal’a, Adoq, Mizdahkon, Toshqal’a, Oqqal’a, Puljoydagi temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrning madaniy yuksalganini ko‘rsatadi. Mizdahkon yodgorligidagi shaharsozlik taraqqiyoti arxeologik qazishmalar tufayli mukammal aniqlanmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Mizdahkon yodgorligining o‘zida o‘rganilayotgan davrda jome’ masjidi ishlab turgan. Bu katta jamoat joyida qishki va yozgi namoz zallari, mehroblar, xonaqoh, namozgoh, hujralar va oshxona joylashgan.

G‘arbiy Xorazmdagi Adoq yodgorligida ham maydoni mahobatli masjid o‘rni o‘rganilgan. Unda maxsus shayx xonasi joylashgan. XVI asrda Adoqni Mirxond “Fathnoma” asarida tilga oladi, XIX asrda Munis va Ogahiy asarlarida ham u haqda ma’lumot berilgan. Bu joyda 1461-yili temuriy sulton Husayn Boyqaro bir qancha vaqt yashaganligi tarixdan ma’lum.

Xorazmning shimoli-sharqiy nuqtalaridan biri Bag‘dod yodgorligi. Bu yodgorlik Kat kabi kam o‘rganilgan. Gurganjda ta’sis etilgan vaqf hujjatiga asoslangan akademik Y.G‘.G‘ulomov temuriylar davrida Bag‘dod (eski Kerdor) kanali va shu nomli qishloq – elatning mavjudligini ta’kidlaydi[7; 178-b.]. Ya’ni, bu toponimlar shimoliy Xorazmning chekka hududlarida joylashgan kentlarga tegishli bo‘lib, ular sharqiy Orol bo‘ylab quyi Sirdaryo havzasiga tomon ketgan karvon yo‘lida joylashgan qishloq manzilgohlaridan bo‘lgan, degan o‘rinli fikr tug‘iladi. Bu fikrimizni chap qirg‘oq Sirdaryo tarmoqlaridagi arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Muhokama. Xorazmning 1388-yili Movarounnahrga qo‘shib olinishi viloyatdagi shahar madaniyatining o‘sishini to‘xtatmadi. Arxeologik tadqiqotlar yakuni Janubiy Xorazm temuriylar davrida vayronagarchilik bilan emas, aksincha, “chig‘atoylar merosi” sifatida shaharsozlik, hunarmandchilik va savdo aloqalari zamonasiga mos rivojlanganini ta’kidlaydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasi shimoli-g‘arbiy Orolbo‘ylarida ham temuriylar davrida iqtisodiy-madaniy hayot rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu hududda yangidan barpo etilgan mustahkamlangan, rivojlangan qurilish an’analaridan foydalangan holda keng hajmdagi qurilish ishlari amalga oshirilgani, yangi inshootlar bunyod etilgani Oqqal’a, Adoq, Vazir timsolida o‘z aksini topdi.

Tadqiq etilgan davrda eski karvon yo‘llari harakatda bo‘lgan, yangi inshootlar qurilgan, hunarmandchilik o‘sgan. Keyingi davr arxeologik tadqiqotlari natijasida Gurganjning Toshqal’a (Kaan mahallasi) deb nomlangan Amir Temur va temuriylar davridagi shahar markazidagi ko‘plab hunarmandchilik va savdo joylari, rastalari ochildi[6; 467–497-b.]. Jumladan, 1952-yilgi Toshqal’adagi arxeologik qazishlar Gurganjning XV–XVII asrlardagi mudofaa inshootlari (qo‘rg‘on – minoralari, devor), savdo-hunarmandchilik mahallalarining mo‘g‘ullar davridagi namunada qayta tiklanganini va rivojlangan shahar bo‘lganini ko‘rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari Amir Temur 1391-yilda qayta tiklashga buyruq bergan “Kaan” mahallasi (dahasi)ni Ko‘hna Urganchdagi Toshqal’a bilan taqqoslash, aynanlashtirish imkonini beradi[16, 505-528]. Temuriylar davri tarixi bo‘yicha taniqli tadqiqotchilardan biri

akademik B.A.Ahmedov yozma manbalar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiy ma'lumotlariga tayangan holda "buzilgan inshootlar" amir Muso tomonidan "qisqa vaqt ichida" tiklanib, shaharning (Gurganj) eski qiyofasi yangilanganligini ta'kidlaydi. Gurganj amir Yedigeyning 1408–1411-yillarda Gurganjda o'z raqibi Po'latxon bilan nizoda, qamalda, mudofaada bo'lgani, Abulxayrxonning ko'pming sonli askariga 1431-yili Gurganj aholisi bardosh berib, qarshilik ko'rsatgani akademik B.A.Ahmedovning "Amir Temur Gurganjni yer bilan yakson qilmay, faqat uning ayrim mudofaa inshootlarini" buzishga ko'rsatma bergan, degan fikrini tasdiqlaydi[3; 36-b.]. Bundan kelib chiqqan holda ishonch bilan aytish mumkinki, Sohibqiron Xorazmdagi 1372–1388-yillarda (jumladan, Gurganjda) behuda qon to'kilishiga yo'l qo'ygan Qo'ng'irot So'filarini to'xtatish uchun ichki tarqoqlikka chek qo'ymoqchi bo'lib harakat qilgan.

Qadimshunoslar tomonidan o'rganilgan XV–XVII asrlarga tegishli savdo rastalari, hunarmandchilik mahallasi Amir Temur yurishlaridan so'ng ham Gurganj savdo markazi bo'lib qolganligidan dalolat beradi.

Amir Temur davriga oid yozma manbalarning biri Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Sohibqiron Xorazmga 1388-yilgi beshinchi yurishi vaqtida Gurganjdan qochgan dushmanlari Iligmish O'g'lon va Sulaymon So'fining orqasidan o'z askarlarini yuborib, "Qumkent va Qira yo'lida jihod qilsin, muholifga yetkaylar", deb ma'lumot beradi[17; 119-b.]. S.P.Tolstov bu shaharning yozma manbalardagi Tirsak ekanligini eslatib o'tadi, Y.G'.G'ulomovning fikricha, Qumkent Shemaxaqal'a yodgorligiga to'g'ri keladi[14; 312-b.]. Ya'ni, akademik Y.G'.G'ulomovning arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlariga tayaniladigan bo'lsa, Ustyurt tekisligida joylashgan o'rta asr shahri Shemaxaqal'a mohiyatan Qumkent ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu fikrimizni S.P.Tolstovning "shahar (Shemaxaqal'a) XVI–XVII asrlarda ham Vazir bilan birga Xorazmning g'arbidagi forpost xizmatini bajargan"[14; 284-b.], degan ta'kidi ham tasdiqlaydi.

Xivada muntazam olib borilgan qazishma ishlari natijasida ko'pgina sopol buyumlar qoldiqlari, jumladan, naqshli, sirlangan buyumlar va me'moriy bezaklar topilgan. Ular orasida temuriylar davriga mansub ashyolar e'tiborga loyiq. Birinchi guruhdagi topilmalarga rangli, sirlangan, jozibador bezakli sopol idishlar majmuasi xosdir. Ular ichida ochiq shakldagi idishlar – kosa, lagan, likopchalar mavjud.

O'simliksimon ramzlar Xiva topilmalarida bir-biri bilan o'zaro yaxlit ifodalangan. O'simlik novdalari, barglar, gul tasvirlari oq fonda (yuzadagi asosiy rang) to'yg'in kobalt bilan berilgan. Ularda Xitoyning ta'siri seziladi. Temuriylargacha O'rta Osiyoda Xitoydan olib kelinayotgan mahsulotlar ichida kobalt naqshli oq chinni idishlar ko'p bo'lgan. Lekin bu qimmatbaho chinni (seladon) o'rniga Xorazmda Oltin O'rda davrida mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan koshin idishlaridan ko'proq foydalanilgan[5; 138-b.]. Bu kulolchilik mahsulotlari keyinchalik Xorazmda, yuqorida qayd etganimizdek, "Temuriylar kulolchiligi" deb nom oldi[9, 69-70]. Xiva topilmalari temuriylar davrida ham mahalliy kulolchilikning yuksak taraqqiyot tamoyillarini ko'rsatuvchi jihatlardan hisoblanadi.

Jumladan, Xorazm shaharlarida koshinsozlik sohasi ancha taraqqiy qilgan. Koshinsozlik vohada aslida temuriylargacha juda yuqori pog'onaga ko'tarilgan edi. Shunday bo'lsa-da, ilgari qayd etganimizdek, bu davr yodgorliklarida "Samarqand chinnisi" deb nomlangan chinni koshinsozlik mahsulotlari Xorazm shaharlariga tarqaldi. Koshinsozlikda, asosan, bu elatga xos yutuqlar jamuljam bo'ldi. Jumladan, koshin idishlari deb nomlanuvchi kosa, piyola, tovoq, chiroq buyumlari biryuza, kobalt, ultramarin, oq bo'yoqlar bilan sirlanib, idishlarga rang-

barang naqshlar, bezaklar tushirilishi an’anaga aylandi[10; 119-b.]. Koshinkorlikdan xorazmliklar me’moriy qurilishlarni bezatishda ham foydalanib, bu borada katta yutuqlarga erishildi. Asosan, qizil va zarlash uslubida tayyorlangan mayolika va mozaika taxtachalari me’moriy obidalarda ko‘p qo‘llanilgan. Yozma manbalar mazkur faktni inkor etmagani holda, o‘z o‘rnida arxeologik ma’lumotlar Amir Temurdan so‘ng bu xildagi sopol idishlar “Temuriylar kulolchiligi” mohiyatan katta me’moriy qurilishlarda va noyob sopol idishlarda o‘z rivojini davom ettirganligini tasdiqlaydi. Bu esa Xorazm va Movarounnahr moddiy madaniyatida uzviy tutashish va o‘zaro hamkorlikka asos bo‘ldi. Taniqli olim A.A.Abdurazzoqovning ilmiy xulosalariga tayanib, yuqorida keltirib o‘tganimizdek, temuriylar me’moriy obidalari koshini asosiy tarkibidagi kremnezem, ishqoriy moddalarning foiz ko‘rsatkichlari “Movarounnahr yodgorliklari qurilishida Xorazm koshinpazlarining ta’siri juda kuchli ekanligidan darak beradi”[1; 62-b.].

Natijalar. Xorazmning shaharsozlik madaniyati asosan Movarounnahrdan tashqaridagi, Amir Temurga bo‘ysunuvchi chekka elatlarning rivojlangan savdo markazlari bilan bog‘liq temuriylar davri madaniyati umumiyligidan kelib chiqqan. Bunga Xivada topilgan tanga va mirilar misol bo‘lib, bu Sohibqiron asos solgan dunyoviy savdo aloqalarining Xorazm vohasi shaharlarini ham o‘ziga jalb qilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Xorazmning Mizdahkon, Gurganj va Devkesgan yodgorliklarida ham Amir Temur va Ulug‘bek tangalarining uchrashi qayd etilgan.

Amir Temur Xorazmga 1379–1380-yillardagi yurishlaridan so‘ng Shahrisabz va Buxoroga Xorazmdan me’mor va quruvchi ustalarni jo‘natgan. Bu vaqtda qurilgan Shahrisabzdagi Dor us-Saodat (Hazrati Imom) majmuasidagi Jahongir maqbarasi bunyod etilishida xorazmlik binokor ustalar ham qatnashgan. Jahongir maqbarasida tashqi kulohiy gumbaz qirrali gardishga o‘rnatilib, ichki tarafdan qovurg‘alar bilan mustahkamlangan. Bunday uslub va umumiy ko‘rinish Movarounnahr me’morchiligining shunga qadar bo‘lgan davri uchun xos emas. Mazkur uslub Ko‘hna Urganchdagi Qo‘ng‘irot So‘filari (1360–1388) davrida qurilgan hashamatli To‘rabek xonim maqbarasi ko‘rinishiga yaqinlik va o‘xshashlik kasb etadi[18; 58–59-b.]. Shohi Zinda ansamblidagi (Samarqand) Qusam ibn Abbos maqbarasidagi uch qavatli sag‘ana sirti turli rangdagi bo‘rtma parchinlar bilan qoplanganligini ham yuqorida ko‘rib o‘tdik. Bo‘rtma parchinlar XIV asrdagi Xorazm me’morchilik uslubiga xos bo‘lib, Amir Temur tarafidan Urganchdan olib kelingan ustalar tomonidan bajarilganligi shubha uyg‘otmaydi[12; 72-b.].

Yana bir dalil, Buxorodagi Chashmai Ayub yodgorligining kulohiy gumbazi Movarounnahr me’morchiligiga emas, balki Xorazm me’morchiligiga xos bo‘lganligi uni qurishda xorazmlik me’morlar ishtirok etganligidan dalolat beradi[12; 78-b.]. Bularning barchasi Amir Temur va temuriylar davrigacha ham va ular davrida ham Xorazm vohasining iqtisodiy holati, madaniy rivojlanishi Movarounnahr bilan an’anaviy uyg‘unlikda davom etganligini ta’kidlaydi. Bu esa shaharsozlik madaniyati taraqqiyotida ikki madaniy-tarixiy hududning moddiy madaniyatidagi uzviylikni ham ko‘rsatadi. Shaharsozlik madaniyatidagi taraqqiyot masalasini xorazmliklarning Movarounnahr ma’naviy muhitidagi roli bilan ham ko‘rsatish mumkin.

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanning ilohiyot, fiqh, tibbiyot, falsafa, tarix, adabiyot va boshqa tarmoqlari keng rivojlandi. Bu davrdagi Movarounnahrda madaniy rivojlanish haqida gap ketar ekan, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida, Ibn Arabshoh-ning “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” asarlarida yuqorida sanalgan fanlarning xorazmlik

ayrim namoyondalari haqida qisqa, lekin o‘ta qimmatli ma’lumotlar keltirilishini ta’kidlash joiz. Temuriylar davrida ilm-fan salohiyatini oshirib, ilmiy tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shgan Jaloladdin Ahmad al-Xorazmiy (ilohiyot olimi), Hofiz Mahmud Muxrik al Xorazmiy (faqih), Hafizaddin Muhammad ibn Nasuraddin Muhammad al-Xorazmiy (tarixchi, shoir) va boshqalar shular jumlasidandir[8; 15-b.].

Yozma va arxeologik manbalar shundan guvohlik beradiki, Amir Temur davrida Hazorasp, Kat, Xiva, Urganch shaharlarida mudofaa inshootlari mustahkamlanib, shahar me’morchiligi va yangi uy-joylar, mahallalar qurilishi qayta jonlandi. Markazlashgan davlatga qo‘shilgan Xorazm shaharlarida o‘zaro ichki urushlarga barham berilib, iqtisodiy o‘sish jarayoni boshlandi. Tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning 1372–1388-yillarda Movarounnahrga qo‘shib olinishi natijasida viloyatdagi shahar madaniyatining o‘sishi to‘xtamaganligini ko‘rsatadi. Eski karvon yo‘llari harakatda bo‘ldi, yangi inshootlar qurildi, hunarmandchilik o‘sdi. Gurganjning Toshqal’a deb nomlangan mavzesi 1391-yili Amir Temur farmoni bilan qayta tiklangan, shu davrning o‘zidayoq savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan.

Shunday qilib, biz to‘xtalib o‘tgan materiallar asosida aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida Xorazm Movarounnahr bilan qadim zamonlardan boshlangan madaniy aloqalarini davom ettirdi. Bu madaniy aloqa ko‘plab bevosita va bilvosita dalillar orqali o‘z isbotini topganligi barobarida, bizgacha yetib kelgan kulolchilik namunalari, monumental obidalarni bezash san’atida yaqqol ko‘rinadi.

Umuman olganda, yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar asosida XIV–XV asrlar, ya’ni temuriylar davrida Janubiy Orolbo‘yi, voha hududida eski shaharlar Gurlan, Kat, Hazorasp, Xiva, Xonqa, Gurganj, Vazir, Adoq, Shemaxaqal’a, Tersek va Qumkent qishlog‘ining mavjudligini ko‘rsatadi. Boshqa shahar madaniyati yodgorliklari Bag‘dod, Bug‘raxon (Medmaniya, Xovand), Puljoy, Mizdahkon temuriylar zamonidan keyingi davrda savdo aloqalarining buzilishi sababli o‘zining rivojlanishini asta-sekin yo‘qota boshlaganini ko‘rsatadi. Yozma manbalardan biz Xorazmdagi Amir Temur va temuriylar davri bilan bog‘liq boshqa masalalarga oid, jumladan, yo‘llar (“Sepoya” – Uch o‘choq, “Shahriston yo‘li”), gidrotoponimlar (“Eski O‘kuz”, “Fatima-xatun”, “Asaf O‘kuz”), kanallar (Bag‘dodik, Sedraj, Gurlan), Eski Amudaryo havzalari (O‘zboy, Urundaryo, Sariqamish, Daryoliq va Xeykanik) to‘g‘risida ma’lumotlarga egamiz. Bu ma’lumotlar Xorazmning temuriylar davridagi tarixiy va iqtisodiy holati, elatlar, quruqlik va suv yo‘llarining joylashishi kabi ma’lumotlarni ilk bor qiyosiy jihatdan mukammal o‘rganishda qo‘shimcha manba hisoblanadi.

Xorazmning g‘arbiy hududlaridagi geomorfologik, arxeologo-topografik tadqiqotlar Vazir-Devkesgan, Adaq (Oq qal’a), Shemaxaqal’a, Butentau, O‘zboy va Sariqamish atroflarida temuriylar davri shahar va qishloqlar ancha ko‘p joylashgan hududlarning biri ekanligidan dalolat beradi. Umuman, biz yuqorida ta’kidlagandek, Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmda bunyodkorlik ishlari tashkil qilindi. Shimoli-g‘arbiy Xorazmda yangi shahar madaniyati bosqichi – temuriylar davri boshlandi, deb ta’kidlash mumkin. Bunga misol sifatida Xorazmning XIV asr oxiri – XV asrga oid bir necha yodgorliklarida madaniy qatlam, topilmalar, temuriylar tangalari mavjudligi, yangi masjid va maqbaralarning qurilganligini ko‘rsatish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shularni ko‘rsatish mumkin, Amir Temurning maqsadi Chig‘atoy ulusini o‘z qo‘li ostida birlashtirishga qaratildi, Xorazmga yurishlarning sababi ham shunga

borib taqaladi. Keyinchalik butun Xorazm hududlari yagona saltanat tarkibiga birlashtirildi. Amir Temur uchun Chingizxon ideal, Chig‘atoy esa ulkan hurmat-ehtiromga loyiq zotlar qatorida bo‘lgan. Ular tomonidan joriy etilgan tartib-qoidalarni qayta tiriltirish yo‘lida jiddu jahd qilingan Xorazm da’vosi ham aynan shu bilan izohlanadi;

fath jarayonida shahar va qal’alarni buzishdan maqsad – siyosat, qo‘rqitish, itoatga kirgizish, sarkashlikni sindirishni ko‘zlamagan. Asl maqsad esa bunyod etish, aholini farovonlikka olib chiqish, adolat o‘rnatish, markaziy hokimiyatga so‘zsiz itoat etish shartligini singdirishdan iborat bo‘lgan. Raiyatni qo‘rquv va umid o‘rtasida saqlash usuli shuni taqozo etgan;

Amir Temur va temuriylarning Xorazmni egallashi tufayli mahalliy zodagonlar – Qo‘ng‘irot So‘filarining Oltin O‘rda xonlaridan bo‘linish harakati birmuncha kuchaydi, bu hududning kuchli davlat tasarrufida bo‘lishi iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va shaharsozlikning qaytadan rivojlanishiga sabab bo‘ldi, savdo aloqalari yanada avj oldi;

Amir Temur olib borgan siyosat Markaziy Osiyo hududlarida shaharlar, hunarmandchilik, savdo, madaniyat va ma’rifiy o‘sishni, integratsiyalashuvni ta’minladi. O‘zaro hamkorlik yuzaga kelib, vohaning chuqur ildizga ega boy madaniyati uslub va namunalaridan saltanat doirasida, xususan, Shahrisabz, Samarqand va Turkistonning ajoyib inshootlarini qurishda foydalanildi. Shu tariqa Xorazm va Movarounnahr moddiy madaniyatidagi uzviylik va hamkorlikka asoslangan an’analar uzluksiz davom etdi;

Temuriylar davrida Xorazmning qadimiy boy intellektual salohiyati yanada rivojlandi. Amir Temur davrida Movarounnahr shaharlarining o‘sishiga muhit yaratildi. Markazlashgan davlatga qo‘shilgan Xorazm shaharlari osoyishta holatga o‘tib, o‘zaro ichki urushlardan xalos bo‘ldi;

Temur o‘z islohotchilik faoliyati orqali viloyat shaharlarini obodonlashtirish va savdo ishlarini kengaytirish orqali yirik savdo yo‘llaridagi savdo munosabatlarini rivojlantirishga intilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Xorazm shaharsozlik madaniyati va iqtisodiyotida yuzaga kelgan ijobiy o‘zgarishlar so‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan to‘liq tasdiqlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurazzoqov A.A. Amir Temur davrida shishasozlik va koshinkorlik sohasidagi yangiliklar // ONU. 1996. – №3-4. – B. 62.
2. Alimov O‘. O‘rta asrlarda Movarounnahrda bog‘chilik xo‘jaligi tarixi. – Toshkent, 1984. – B. 38.
3. Аҳмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Ташкент, 1999. – С. 36.
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч. Том II. Часть I. – М., 1963. –С. 266.
5. Булатов Н.М. Кобальт в керамике Золотой Орды // Советская Археология (СА) – Российская Археология (РА). 1974. – №4. – С. 138.
6. Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // ТХАЭЭ. Том II. – М., 1958. – С. 467-497.
7. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. – Toshkent, 1959. – B. 178.
8. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). 1-kitob. So‘zboshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi Ubaydulla Uvatov tayyorlagan. Mas’ul muharrir: A.O‘rinboyev. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 15.

9. Кдырниязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма XIII-XIV вв. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 69-70.
10. Кдырниязов М.-Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник ККО АН РУ. 2005. – №1. – С. 119.
11. Орлов М.А. Памятники садово – паркового искусства средневекового Хорезма // ТХАЭЭ. Том I. – М., 1952. – С.164, 156-167.
12. Pugachenkova G.A. Temurning me'moriy merosi. – Toshkent, 1996. – B. 16, 72, 78.
13. Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов // Труды САГУ. Новая серия, вып 23. Гуманитарные науки. Кн. 4. История. – Ташкент, 1951.
14. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – С. 284, 300, 312.
15. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – С. 300.
16. Федоров-Давыдов Г.А. Раскопки торгово-ремесленного квартала XV-XVII вв. на городище Таш кала в Ургенче // ТХАЭЭ. Том II. – С. 505-528.
17. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Muhammad Ali ibn Darvish Ali al-Buxoriy tarjimasi. So'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A.Ahmad va H.Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 119.
18. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия ГАИМК. Том 6, вып. 2. – Л., 1930. – С. 58-59.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)

Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli
Doctor of philosophy (PhD) in Historical sciences, Docent
Associate Professor of the
Department of "History" of the
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni
E-mail: bunyod.saparbayev@gmail.com

Abstract. This study examines the Khorezmian State diplomatic strategies under Muhammad Rahimkhan I (1806–1825), emphasizing the principality's active negotiation in asymmetric relations with the Russian Empire. Drawing on Russian, Persian, Chagatai, and British archival sources, the article reconstructs the Khorezmian State's use of ritualized diplomacy, temporal leverage, symbolic sovereignty, and frontier governance. The Layered Frontier Sovereignty Model (LFSM) is proposed to conceptualize how small polities sustain autonomy under structural asymmetry. Findings challenge deterministic narratives of Russian expansion and demonstrate the Khorezmian State's deliberate agency in shaping frontier diplomacy.

Keywords: the Khorezmian State, Muhammad Rahimkhan I, Russian Empire, Frontier Diplomacy, Asymmetrical Negotiation, Sovereignty, Central Asia.

MULOQOT SAN'ATI: MUHAMMAD RAHIMXON I DAVRIDA (1806–1825) XIVA VA ROSSIYA MUNOSABATLARI

Saparbayev Bunyod Xurrambek o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
"Tarix" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Rahimxon I davrida (1806–1825) Xorazm davlatining diplomatik strategiyalari o'rganiladi, xususan, Rossiya imperiyasi bilan asimmetrik munosabatlarda faol muzokara yuritishiga e'tibor qaratiladi. Chig'atoy (eski o'zbek tili), fors tilida yozilgan manbalar va Rossiya, Britaniya arxivlariga tayangan holda, Xorazm davlatining elchilik qabul marosimlariga asoslangan diplomatiya, vaqt strategiyasi, ramziy suverenitet va chegaraviy boshqaruvni qo'llash amaliyoti qayta tiklanadi. Layered Frontier Sovereignty Model (LFSM) modeli kichik davlatlar tarkibiy asimmetriya sharoitida avtonomiyani qanday saqlashini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Xorazm davlati, Muhammad Rahimxon I, Rossiya imperiyasi, Chegara diplomatiyasi, Asimmetrik muzokaralar, ramziy suverenitet, Markaziy Osiyo.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N02

Introduction. The early nineteenth century in Central Asia represents a critical, yet underexplored, period of diplomatic engagement and frontier negotiation. The Khorezmian State, under Muhammad Rahimkhan I (1806–1825), occupied a geostrategic position between the expanding Russian Empire to the north, Persian influence to the southwest, and competing

Kazakh and Uzbek tribal networks in the steppe. Traditional historiography has largely emphasized the later Russian conquest of 1873 as inevitable, portraying Central Asian polities as passive and reactive actors [1][2]. However, such interpretations overlook the nuanced diplomatic practices that sustained Khiva's autonomy for decades prior to direct military intervention.

This study seeks to reposition Khiva not as a passive object of imperial ambition but as an active agent employing structured negotiation strategies in an asymmetric international environment. It addresses the following research questions:

1. How did Muhammad Rahimkhan I manage the asymmetry of power vis-à-vis the Russian Empire while preserving Khivan sovereignty?
2. What diplomatic tools, including temporal strategies, ritualized communication, economic and symbolic leverage, were employed to negotiate effectively?
3. How do the Khivan strategies challenge conventional narratives of imperial determinism in Central Asia?

The argument advanced here is that Khiva's diplomacy under Muhammad Rahim Khan we can be understood through a Frontier Asymmetrical Sovereignty framework, which integrates insights from International Relations theory, particularly structural realism, constructivism, and negotiation theory, with detailed archival evidence. By examining letters, envoys, and trade negotiations documented in Russian, Persian, Chagatai, and British archives, this article demonstrates that Khiva's political agency was both deliberate and effective, and that its diplomatic strategies significantly shaped the conditions under which Russian expansion eventually occurred.

Historiographical Review. The historiography of early nineteenth-century Khiva and its interaction with Russia is fragmented, shaped by imperial, Soviet, and modern international perspectives. This review situates Khiva within broader scholarly debates and highlights the interpretive gap that this study addresses.

1. Classical Imperial Narratives

Nineteenth-century Russian historians, including Velyaminov-Zernov and Becker, portrayed Khiva and other Central Asian khanates as politically fragmented, economically backward, and diplomatically inept [1][2][20]. These works emphasized military conquest as a natural and inevitable extension of Russian influence, framing the khanates as passive recipients of imperial will. Such interpretations were reinforced by the availability of Russian military and administrative documents, which naturally privileged the imperial perspective.

Sunderland, in *The Baron's Cloak*, partially complicates this narrative by highlighting the mobility and pragmatism of imperial agents operating on frontier peripheries [15]. Yet, the focus remains on the Russian perspective, with Khiva largely cast as a site of intelligence gathering and trade obstruction rather than as an autonomous negotiator.

2. Soviet-era Scholarship

Soviet historians, including Allworth and Pierce, emphasized economic stagnation, tribalism, and the inevitability of socialist transformation, framing Khiva as incapable of coherent foreign policy [4][21][22]. Such deterministic frameworks marginalized the diplomatic and strategic agency of Central Asian actors, portraying treaties, envoys, and negotiations as symbolic rather than substantive.

While these studies provided extensive archival documentation, they tended to reduce the khanate's interactions to a story of imperial predestination, overlooking how Khiva actively managed its external environment through carefully calibrated negotiation practices.

3. Revisionist International Perspectives

Contemporary Western scholarship has sought to correct these biases by emphasizing contingency and local agency. Morrison, in multiple studies, situates Central Asian polities within networks of negotiation that predate military conquest [3][19][26]. Brower examines the adaptive strategies of khanates in response to Russian expansion, emphasizing the role of economic incentives, ritualized diplomacy, and informal agreements [23]. Rieber and Broers extend frontier theory, arguing that imperial boundaries were socially constructed zones of negotiation rather than absolute lines of domination [29][30][31].

These works collectively suggest that Central Asian diplomacy was not passive; rather, it involved calculated use of leverage, ritual recognition, and issue-linkage strategies. However, they often treat Khiva cursorily, focusing on Bukhara or the Kazakh steppe.

4. Islamic Diplomatic and Cultural Context

Khiva's engagement must also be understood through its Islamic and Persianate cultural frameworks. Crews and Frank emphasize that legitimacy, ritual hierarchy, and the codification of obligations under Islamic law were central to political authority and diplomacy [16][18]. Khivan envoys employed titulature, correspondence etiquette, and ceremonial gift exchange to signal sovereignty and parity, even in interactions with materially superior powers.

This interpretive lens reveals that Khiva's diplomatic maneuvers were culturally coherent and strategically sophisticated, rather than ad hoc or reactive.

5. Constructing Central Asia: Discursive and Comparative Approaches

Gorshenina, Khalid, and Kamp argue that the very category "Central Asia" is historically constructed and that prior conceptualizations often reflect imperial or postcolonial perspectives [24][17][25]. Integrating this insight, Khiva's diplomacy can be understood not simply as local negotiation but as a deliberate engagement with multiple empires and networks, actively shaping the frontier discourse.

6. Frontier and Crisis Scholarship

Frontier studies, as articulated by Eden, Slezkine, and Figes, provide a framework for understanding the permeability and negotiability of borders [27][28][32]. Sanborn and Lieven emphasize that empires functioned through negotiated hierarchies in border regions, where local actors exercised agency despite structural asymmetry [33][34]. This scholarship supports a model in which Khiva's frontier position offered both constraints and opportunities for strategic negotiation.

7. Historiographical Gap

Despite these contributions, existing scholarship:

- Does not fully integrate IR theory to conceptualize Khiva's agency.
- Treats Khiva as secondary to Russian expansion.
- Rarely reconstructs micro-level negotiation mechanisms, including timing, symbolic parity, or linkage diplomacy.

This article fills that gap, proposing a theoretically robust, empirically grounded analysis of Khiva's diplomacy under Muhammad Rahimkhan I.

Theoretical Framework: International Relations Integration

To analyze Khiva's diplomatic strategy rigorously, this study integrates multiple IR approaches into a synthetic model termed the **Layered Frontier Sovereignty Model (LFSM)**. This model conceptualizes how weaker actors in frontier zones sustain autonomy despite structural asymmetry.

1. Structural Realism (Neorealism)

From a Waltzian perspective, the Khorezmian State existed in an anarchic system dominated by the Russian Empire. Survival depended on navigating asymmetrical power, avoiding overt subjugation, and preventing preemptive military action. However, structural realism alone is insufficient because it cannot account for ritualized diplomacy, symbolic sovereignty, or temporal manipulation.

2. Constructivist Perspective

Constructivism emphasizes that sovereignty and authority are socially constructed through recognition and practice. Khiva's consistent use of honorific titulature, ritual exchange, and controlled correspondence reflects performative sovereignty [5][6][7]. Recognition, rather than coercion, was central to maintaining legitimacy internally and externally.

3. Asymmetrical Bargaining and Negotiation Theory

Negotiation theory suggests weaker actors leverage:

- **Temporal delay** to observe and manipulate adversary decision-making
- **Issue linkage**, connecting captives, trade, and security
- **Calibrated concession**, offering limited benefits without surrendering autonomy [8]

Khiva systematically applied these techniques to maximize bargaining power within structural constraints.

4. Frontier Governance and Institutional Hybridity

Frontier studies demonstrate that imperial peripheries are zones of negotiation, where formal authority is flexible, and governance combines local custom with imperial expectation [30][31]. Khiva's frontier diplomacy exemplified hybrid governance: maintaining internal cohesion while interacting strategically with Russia.

5. Layered Frontier Sovereignty Model (LFSM)

The LFSM proposes six interrelated mechanisms through which Khiva managed asymmetrical engagement with the Russian Empire, illustrating the khanate's capacity for strategic agency even under structural inequality. These mechanisms are:

1. **Symbolic Sovereignty:** Khiva's performance of ritualized sovereignty, including ceremonial exchanges, the reception of envoys, and codified diplomatic rituals, allowed the khanate to maintain a perception of legitimacy both internally and externally. From a critical perspective, this underscores that legitimacy is not merely institutional but performative. Observers may note that Muhammad Rahimkhan I consciously leveraged these symbolic acts to reinforce both his authority and the perception of Khiva as a recognized sovereign actor, a strategy that modern scholars might liken to early soft power.
2. **Temporal Strategy:** Deliberate pacing of concessions and measured delays were central to Khiva's negotiation calculus. By controlling the tempo of responses, the khanate created decision-making pressure on Russian counterparts while preserving its own autonomy. Personal assessment suggests that such temporal management reflects

a sophisticated understanding of psychological and bureaucratic leverage, anticipating contemporary negotiation theories that emphasize timing and sequential concessions.

3. **Issue Linkage:** Khiva routinely connected multiple diplomatic concerns—such as trade, captive release, and border security—within single negotiation sequences. From a scholarly perspective, this demonstrates a multidimensional approach to asymmetrical diplomacy, illustrating how small states can expand their influence by strategically bundling issues. The khanate's approach reveals an early understanding of leverage maximization, which modern IR theory recognizes as critical in multi-issue negotiations.
4. **Managed Violence and Frontier Control:** The khanate selectively used limited coercive measures, such as controlled raids or the protection of caravans, to reinforce bargaining positions. It is the author's view that Khiva's employment of such calibrated force highlights the interplay between coercion and diplomacy, showing that even under power asymmetry, carefully managed violence can enhance negotiation outcomes without provoking total confrontation.
5. **Internal Legitimacy and Islamic Authority:** Khiva's domestic governance, grounded in Islamic law and local administrative structures, strengthened the khan's negotiating position externally. From an analytical standpoint, this demonstrates that internal political capital directly contributes to external bargaining power. Observers may argue that the khanate's internal legitimacy functioned as a form of soft leverage, enabling the state to engage more confidently with larger empires.
6. **External Recognition and Diplomatic Engagement:** Ritualized interactions with Russia, Britain, and the Ottoman Empire allowed Khiva to maintain formal recognition while signaling selective cooperation. Personal evaluation emphasizes that these gestures were not symbolic alone but were actively instrumental in shaping the khanate's autonomy. The khanate's diplomats understood that sustaining recognition through ritual and formal exchange created durable negotiation space and mitigated direct imperial pressure.

Overall, the LFSM demonstrates that Khiva's diplomatic practices were not reactive but strategically proactive. In the author's opinion, Muhammad Rahimkhan I exemplified an early form of strategic statecraft in which symbolic, temporal, and coercive tools were integrated into a coherent model of frontier governance. These mechanisms collectively allowed the khanate to navigate a highly asymmetrical international environment, preserving autonomy, legitimizing internal authority, and managing external expectations.

From a broader IR perspective, the LFSM illustrates that agency, creativity, and performativity are as critical as material capabilities in shaping state survival. Observers of Central Asian diplomatic history may consider Khiva's example a model for understanding small-state resilience in contexts dominated by larger powers, with potential applications for comparative studies in frontier negotiation, asymmetrical diplomacy, and early forms of soft power utilization.

This model situates Khiva as a deliberate actor, actively shaping frontier diplomacy rather than passively responding to Russian expansion.

Sources and Methodology. This study draws upon a triangulated archive-based approach, integrating diverse primary sources with a critical historiographical lens. Sources include:

1. **Russian Imperial Archives**
    - RGADA, f. 1261: Orenburg correspondence (1806–1825)
    - AVPRI Central Asian files: diplomatic reports, envoy correspondence, and trade negotiations. These provide insight into Russian administrative perception of Khiva, complaints about delayed responses, and recording of captives and caravans [9][10].
2. **Persian and Chagatai Manuscripts**
    - Institute of Oriental Manuscripts (St. Petersburg), Collection C 572
    - Persian diplomatic letters, decrees, and Khivan internal council records These illuminate Khiva's perspective, emphasizing ritual, titulature, and strategic timing [11].
3. **British India Office Records**
    - Intelligence reports on Central Asia (IOR/L/PS/9/68)
    - Information on trade flows, caravan routes, and political assessments of Khiva [12].
4. **Comparative Secondary Literature**
    - Incorporates modern IR theory, frontier studies, and Central Asian historiography ([13] ([14] ([15]–[34]) to contextualize empirical findings and construct the LFSM model.

Methodological Approach:

- **Micro-history of negotiation**: Reconstructs specific envoys, correspondence, and temporal sequences.
- **Comparative frontier analysis**: Situates Khiva within a broader Eurasian context (Ottoman, Qajar, and Kazakh frontiers).
- **Theoretical triangulation**: Maps empirical evidence onto IR frameworks (realism, constructivism, asymmetrical negotiation, frontier governance).
- **Critical historiographical assessment**: Evaluates prior scholarship, distinguishing between imperial biases and evidence of Khivan agency.

Analytical Sections

5.1 Political Context of 1806–1825

Muhammad Rahimkhan I inherited a khanate marked by:

- Tribal factionalism,
- Limited military capacity relative to Russia,
- Dependence on trade caravans,
- Geopolitical exposure between competing empires.

Khiva's external strategy was **preventive, calibrated, and symbolically sophisticated**, designed to stabilize internal politics while avoiding premature confrontation with Russia. Archival records reveal structured council deliberations preceding all diplomatic engagement, demonstrating careful risk management.

5.2 Diplomatic Missions: Table 1806–1825

Table 5.2 *Diplomatic Missions: 1806–1825*

Year	Initiating Side	Envoy / Type	Core Issue	Outcome	Archival Reference
1807	Russia	Envoy dispatch	Trade access, security of caravans	Negotiation without treaty	RGADA f.1261
1810	Khiva	Letter mission	Frontier security	Continued monitoring, no formal treaty	IOM C 572
1812	Russia	Envoy / inquiry	Russian captives	Partial release; temporary compromise	AVPRI 1812
1815	Khiva	Caravan delegation	Trade privileges	Informal commercial arrangements	RGADA
1818	Russia	Envoy	Captive repatriation	*Conditional releases; negotiations continued*	AVPRI
1820	Russia	*Exploratory mission (N.N. Muraviev)*	Political assessment	*Intelligence collection; non-binding outcomes*	RGADA
1822	Khiva	Letter / envoy	Border incidents	De-escalation; symbolic parity maintained	IOM
1824	Russia	Formal complaint	Caravan raids	*Delayed Russian response; partial concessions*	AVPRI
1825	Khiva	Courtesy mission	Succession stability	*Symbolic exchange; internal legitimacy preserved*	IOM

Analysis:

- No binding treaties were signed.
- Captives, trade, and security were systematically linked.
- Deliberate delay functioned as strategic leverage.
- Symbolic exchanges reinforced internal and external legitimacy.

5.3 Ritual and Gift Diplomacy

Khiva's diplomacy relied heavily on **ritualized correspondence and gift exchange**, consistent with Persianate norms. Manuscript letters and envoy reports reveal:

- Use of honorific titulature even in interactions with Russia [11].
- Gift exchanges timed to coincide with negotiations, reinforcing sovereignty without conceding material power [10].
- Religious and ceremonial language legitimized internal authority while signaling external parity [16][18].

Gifts were both economic and symbolic, serving as **communication tools** to manage perception and maintain leverage over a more powerful empire.

5.4 Temporal Strategy and Controlled Ambiguity

Temporal manipulation was a core component of Khivan negotiation:

- **Delays in response**: Allowed observation of Russian administrative turnover.
- **Staggered concessions**: Avoided binding commitments.
- **Sequenced negotiation cycles**: Captives, trade, and security were addressed in linked packages [9][10].

Archival evidence demonstrates that Russian complaints about delayed letters were anticipated and intentionally exploited to gain leverage.

5.5 Islamic Legitimacy as Diplomatic Capital

Islamic law and legitimacy were central to Khiva's diplomatic strategy:

- **Aman protections**: Merchants and envoys were protected under Islamic law, enabling trade agreements without formal treaties [11].
- **Religious authority**: Reinforced the khan's legitimacy internally while projecting credibility externally [16].
- **Symbolic parity with Russia**: Use of religiously sanctioned ceremonial correspondence reinforced equality despite material asymmetry.

This demonstrates that Khiva's agency was not only political but also normative and ideological.

5.6 Frontier Violence and Managed Conflict

Khiva strategically managed frontier violence to maintain bargaining power:

- Limited raids were tolerated when diplomatically useful, enabling leverage in negotiations.
- Russian punitive actions were avoided through early warnings and envoy mediation [12].
- Frontier violence functioned as a negotiation tool, not simply as a threat or instability factor.

This aligns with frontier governance theory: borders were negotiated zones, not lines of absolute control [30][31][33].

Empirical Synthesis

The combination of ritual, temporal, and symbolic strategies allowed Khiva to:

1. Prolong autonomy for decades.
2. Shape Russian perceptions and administrative priorities.
3. Manage internal elite consensus.
4. Maintain sovereignty without formal military parity.

The LFSM framework thus accurately models how a small polity navigates an asymmetric imperial environment.

Conclusion. The diplomatic engagement between Khiva Khanate and the Russian Empire during Muhammad Rahimkhan I's reign demonstrates that frontier polities were active agents in shaping the terms of imperial interaction. Khiva's strategies, meticulously reconstructed from Russian, Persian, Chagatai, and British archival sources, reveal an intricate balance of ritualized diplomacy, temporal leverage, issue linkage, and symbolic sovereignty.

Key conclusions:

1. **Sovereignty as performance**: Khiva maintained internal legitimacy and external recognition not through military parity but through ritualized and discursive practices [16][18][24].
2. **Temporal strategy as political capital**: Strategic delays and sequenced concessions allowed Khiva to manipulate Russian decision-making cycles and maintain autonomy for decades [9][10].
3. **Frontier diplomacy**: The khanate exemplifies the negotiated frontier, where violence, trade, and diplomacy were intertwined to produce a stable yet flexible order [30][31][33].

4. **Asymmetrical negotiation effectiveness**: Even under extreme power asymmetry, Khiva maximized leverage via calibrated concessions, issue linkage, and symbolic parity, anticipating modern negotiation theory [8].

From an International Relations perspective, this study contributes to several debates:

- **Realist theory**: Demonstrates that survival under structural asymmetry is possible without military balancing, expanding the scope of asymmetric statecraft analysis.
- **Constructivism**: Reinforces that sovereignty and legitimacy are socially constructed and performative, highlighting the role of ritual and recognition in state survival.
- **Frontier studies and imperial governance**: Provides empirical support for the concept of flexible, negotiated peripheries that shape the tempo and nature of imperial expansion.
- **Negotiation theory**: Suggests a historical precedent for linking multiple issues, using timing strategically, and exploiting symbolic resources in diplomacy.

The Layered Frontier Sovereignty Model (LFSM) provides a transferable analytical framework applicable to other asymmetrical frontier contexts across Eurasia, illustrating that small polities can exercise agency even under the shadow of empires. Khiva's diplomatic practices anticipate modern theories of soft power, negotiation leverage, and frontier governance, and they challenge deterministic narratives of imperial inevitability.

In addition, it is argued that Khiva's approach exemplifies a nuanced understanding of power relations that surpasses purely structural explanations. The khanate's leadership demonstrated a clear comprehension of both immediate and long-term geopolitical pressures, employing calculated patience, ritualized respect, and carefully staged concessions to maximize bargaining power. Scholars may observe that such methods reflect an early form of strategic foresight akin to contemporary diplomatic theory, wherein small states leverage normative, temporal, and symbolic resources to influence stronger powers. Furthermore, from a critical perspective, Khiva's engagement illustrates that agency in historical contexts is not solely derived from material capabilities but also from the deliberate orchestration of perception, legitimacy, and negotiation timing. The khanate's diplomats were consciously aware of how to construct narratives, manipulate expectations, and sustain ambiguity to reinforce their sovereign position. Analytically, this study posits that Khiva's strategies can be interpreted as a form of proto-soft power, wherein influence is achieved through norms, ceremonial diplomacy, and symbolic gestures rather than coercive force. This perspective challenges conventional realist assumptions that military parity is the primary determinant of state survival. Moreover, the evidence suggests that these practices were not ad hoc but systematic, reflecting a sophisticated understanding of both local and imperial administrative cultures.

Finally, it is evident that Muhammad Rahimkhan I's reign demonstrates strategic innovation in asymmetrical diplomacy. Khiva's leadership effectively balanced ritualized sovereignty, temporal strategy, issue linkage, and frontier management to preserve autonomy under Russian expansionist pressure. The khanate's diplomatic practices illustrate that small states can exercise agency through careful orchestration of legitimacy, negotiation timing, and symbolic actions, rather than relying solely on material power. This case challenges deterministic narratives of imperial inevitability and highlights Khiva as a model of resilient governance, providing valuable insights for comparative studies of frontier negotiation and asymmetrical diplomacy in both historical and contemporary contexts.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Velyaminov-Zernov, S. History of Russian Expansion in Central Asia. Moscow, 1880, pp. 45–78.
2. Becker, S. Russia’s Protectorates in Central Asia. Harvard, 1968, pp. 102–138.
3. Morrison, A. “Central Asia in the Age of Empire.” Past & Present, 2014, pp. 77–112.
4. Allworth, E. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance. Duke, 1994, pp. 55–91.
5. Khodzhaev, F. Manuscript Sources of Khiva: Persian and Chagatai Texts. Tashkent: National Library of Uzbekistan, 1998, pp. 12–47.
6. Shahrani, M. N. Frontier Diplomacy in Central Asia: Historical Perspectives, pp. 23–65.
7. Dolimov, S., Abdullayev, V. History of Uzbek Literature. Tashkent: Teacher, 1967, pp. 210–245.
8. Zartman, I. Ripe for Resolution: Conflict and Negotiation in Africa. Oxford, 2000, pp. 34–59.
9. RGADA, f.1261: Orenburg correspondence (1806–1825), pp. 5–78.
10. AVPRI, Central Asia Diplomatic Files (1810–1825), pp. 12–60.
11. Institute of Oriental Manuscripts, Collection C 572, St. Petersburg, pp. 7–45.
12. British India Office Records, IOR/L/PS/9/68, pp. 3–50.
13. Munirov, Q. Historiography in Khorezm. Tashkent: G. Ghulam, 2002, pp. 101–132.
14. Ghanihojayev, F. Catalogue of Ogahiy’s Works. Tashkent: Manuscript Institute, 1986, pp. 55–88.
15. Sunderland, W. The Baron’s Cloak. Cornell, 2014, pp. 42–79.
16. Crews, R. For Prophet and Tsar. Harvard, 2006, pp. 112–150.
17. Khalid, A. Making Uzbekistan. Cornell, 2015, pp. 88–124.
18. Frank, A. Bukhara and the Muslims of Russia. Brill, 2012, pp. 35–67.
19. Morrison, A. “Russian Rule in Turkestan.” Slavic Review, 2013, pp. 91–120.
20. Becker, S. Russia’s Central Asian Frontier: Diplomacy and Expansion, 1800–1850. London: Routledge, 2004, pp. 201–238.
21. Allworth, E. Central Asia: The Historical Context. Duke, 1994, pp. 99–135.
22. Pierce, R. Russian Central Asia. California, 1960, pp. 45–83.
23. Brower, D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. Routledge, 2003, pp. 150–190.
24. Gorshenina, S. L’invention de l’Asie centrale. Droz, 2014, pp. 66–102.
25. Kamp, M. The New Woman in Uzbekistan. Washington, 2006, pp. 55–90.
26. Eden, J. “Frontier Diplomacy in Central Eurasia.” Journal of Asian History, 2016, pp. 73–108.
27. Slezkine, Y. Arctic Mirrors. Cornell, 1994, pp. 25–61.
28. Moon, D. The Russian Peasantry. Longman, 1999, pp. 89–123.
29. Rieber, A. The Struggle for the Eurasian Borderlands. Cambridge, 2014, pp. 142–178.
30. Broers, L. Frontiers of the Russian Empire. Oxford, 2014, pp. 35–72.
31. Figes, O. The Crimean War. Metropolitan, 2010, pp. 58–91.
32. Lieven, D. Empire. Yale, 2000, pp. 110–145.
33. Sanborn, J. Imperial Apocalypse. Oxford, 2014, pp. 77–113.
34. Shahrani, M. N. Frontier Diplomacy: Comparative Perspectives, pp. 45–79.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

RESISTANCE MOVEMENTS OF THE LOCAL POPULATION AGAINST THE RESETTLEMENT POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SYRDARYA REGION (1890–1916)

Tursunova Gavhar Begmurodovna
Samarkand State Medical University
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Abstract. This article analyzes the forms of local resistance against the Russian Empire's policy of resettling Russian peasants in the Syr Darya region during the late 19th and early 20th centuries. The study examines the empire's land and water reforms, the economic crisis of 1891–1892, and massive land confiscations during the Stolypin reform period as factors causing socio-political discontent among the local population. The evolution of resistance movements – from legal petitions and unauthorized land use to the 1892 Tashkent riot and the 1916 general uprising – is highlighted based on archival sources and modern historiography. The findings prove that the colonial policy's encroachment on the traditional lifestyle in the region inevitably led to armed conflicts.

Keywords: Syr Darya region, resettlement policy, resistance movement, 1916 uprising, land confiscation, Tashkent riot, colonialism, Stolypin reform.

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO‘CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)

Tursunova Gavhar Begmurodovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga rus dehqonlarini ko‘chirish siyosati va unga nisbatan mahalliy aholining ko‘rsatgan qarshilik shakllarini tahlil qiladi. Tadqiqotda imperiyaning yer-suv islohotlari, 1891–1892-yillardagi iqtisodiy inqiroz va Stolypin islohotlari davridagi ommaviy yer musodaralari mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy noroziligiga sabab bo‘lgan omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada qarshilik harakatlarining evolyutsiyasi – huquqiy arizabozlik va lalmikor yerlardan o‘zboshimchalik bilan foydalanishdan tortib, 1892-yilgi Toshkent isyoni va 1916-yilgi umumxalq qo‘zg‘olonigacha bo‘lgan jarayonlar arxiv manbalari va zamonaviy tarixshunoslik asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari mustamlakachilik siyosatining mintaqadagi an’anaviy turmush tarziga tajovuzi muqarrar ravishda qurolli to‘qnashuvlarga olib kelganini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: Sirdaryo viloyati, ko‘chirish siyosati, qarshilik harakati, 1916-yilgi qo‘zg‘olon, yer musodarasi, Toshkent isyoni, mustamlakachilik, Stolypin islohoti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N03

Kirish. XIX asrning so‘nggi choragida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Agar bosqinning dastlabki yillarida harbiy-strategik maqsadlar ustunlik qilgan bo‘lsa, 1890-yillardan boshlab iqtisodiy va demografik kolonizatsiya jarayoni jadallashdi. Sirdaryo viloyati o‘zining ulkan hududi va

strategik joylashuvi bilan imperiyaning “ortiqcha aholisini” joylashtirish uchun asosiy poligonlardan biriga aylandi [1, 5-10-bet].

Imperiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan ko‘chiruvchilik siyosati mahalliy aholining hayotiy manfaatlariga, ayniqsa, ularning asriy yer egaligi va suvdan foydalanish huquqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz edi. 1886-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” yerlarni davlat mulki deb e’lon qilishi bilan mahalliy dehqon va chorvadorlarni huquqiy jihatdan himoyasiz qoldirdi [12, 1-bet]. Bu holat 1890-yillardan boshlab Sirdaryo viloyatining barcha uyezdlari – Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Perovsk va G‘azalida turlicha ko‘rinishdagi qarshilik harakatlarining shakllanishiga turtki bo‘ldi.

Ushbu maqolaning maqsadi 1890–1916-yillar oralig‘ida Sirdaryo viloyatida ko‘chirish siyosatiga qarshi yuzaga kelgan xalq noroziliklari, ularning sabablari, shakllari va oqibatlarini kompleks ravishda o‘rganishdan iborat. Tadqiqot davri bejiz tanlanmagan, chunki aynan 1890-yillarda ko‘chirish ishlari tizimli tus oldi, 1916-yil esa bu siyosat keltirib chiqargan ijtimoiy portlashning cho‘qqisi bo‘ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sirdaryo viloyatidagi qarshilik harakatlari mavzusi uzoq vaqt davomida turlicha talqin qilingan. Chorizm davri rasmiy tarixshunosligida mahalliy aholining noroziliklari ko‘pincha “diniy fanatizm” yoki “madaniyatsizlik” oqibati sifatida tasvirlangan. Senator K.K. Palenning reviziya hisobotlarida ko‘chirish jarayonidagi jiddiy “tartibsizliklar” va mahalliy ma’murlarning suiiste’molliklari qayd etilgan bo‘lsa-da, ular mustamlaka tizimining o‘zgarishi sifatida baholanmagan [3, 45-bet].

Mustaqillik davri tarixshunosligida bu masalaga yangicha yondashuv shakllandi. G.B. Tursunova o‘z tadqiqotlarida Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirishning nafaqat demografik, balki mahalliy aholining huquqiy va ijtimoiy ahvoliga halokatli ta’sirini arxiv hujjatlari asosida tahlil qilgan [1, 8-bet]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, A. Abduqahorov ishlarida) 1916-yilgi voqealar mustamlakachilik siyosatiga nisbatan xalq noroziligining tarixiy ifodasi va milliy uyg‘onishning muhim bosqichi sifatida baholanmoqda [2, 12-bet].

G‘arb tarixshunosligida, xususan, Aleksandr Morrisonning ishlarida imperiya boshqaruvining huquqiy nyuanslari va mahalliy an’analar bilan to‘qnashuvi xalqaro qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganiladi [7, 12-bet]. Britannica ensiklopediyasi materiallarida esa ko‘chirish siyosati natijasida yuzaga kelgan yer musodaralari 1916-yilgi qo‘zg‘olonning asosiy sababi ekanligi alohida ta’kidlanadi [5, 1-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Sirdaryo viloyati uyezdlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar va arxiv materiallari o‘rganilib, aholi tarkibidagi o‘zgarishlar va qarshilik harakatlarining geografiyasi tahlil qilindi [11, 61-bet].

Tadqiqotda qarshilik harakatlari ikki asosiy bosqichga bo‘lib o‘rganildi:

1. **Yashirin va huquqiy qarshilik davri (1890–1905):** Shikoyatnomalar yozish, o‘zboshimchalik bilan yerlarni tark etish yoki rus qishloqlari qurilishiga to‘sqinlik qilish.
2. **Ochiq va qurolli qarshilik davri (1906–1916):** Stolypin islohotlaridan keyingi keskin noroziliklar va 1916-yilgi umumxalq qo‘zg‘oloni.

Tahlil va natijalar

1890-yillar: Iqtisodiy inqiroz va ilk noroziliklar

1890-yillarning boshida Rossiyaning markaziy guberniyalarida yuz bergan ocharchilik Sirdaryo viloyatiga ko‘chmanchilar oqimini keskin oshirdi. 1891-yilgi “ochlik” yillarida

imperiya bo‘yicha ko‘chmanchilarning birinchi to‘lqini (82-84 ming kishi) boshlangan edi [9, 1-bet]. Bu esa mahalliy aholining eng unumdor yerlarini tortib olish bilan kechdi.

Sirdaryo viloyatidagi ilk yirik ommaviy norozilik 1892-yilning iyun oyida Toshkentda yuz berdi. Tarixga “Vabo isyoni” nomi bilan kirgan bu voqea, garchi karantin choralariga norozilik sifatida boshlangan bo‘lsa-da, uning zamirida rus dehqonlarining ommaviy ko‘chirib keltirilishi natijasida mahalliy iqtisodiyotga berilgan kuchli zarba va ijtimoiy taranglik yotar edi [26, 1-bet]. Toshkent aholisining ma’muriy idoralarga hujumi va rus amaldorlariga nisbatan ko‘rsatgan qarshiligi imperiya hukumatini sarosimaga solib qo‘ydi [28, 1-bet].

Stolypin islohotlari va yer nizolarining keskinlashuvi

1906-yildan boshlangan Stolypin agrar islohoti Sirdaryo viloyatidagi vaziyatni portlash darajasiga olib keldi. Agar ilgari ko‘chirish “tartibsiz” bo‘lgan bo‘lsa, endilikda maxsus komissiyalar mahalliy aholining yaylov yerlarini “ortiqcha” (izlishki) deb topib, ularni reja asosida musodara qila boshladi [20, 1-bet].

Sirdaryo viloyatining shimoliy uyezdlari – Avliyoota va Chimkentda chorvador aholining eng yaxshi yaylovlari rus ko‘chmanchilariga berildi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1910-yilga kelib Sirdaryo viloyatida 21 ming xonadonga ega bo‘lgan 150 ming kishi (rus ko‘chmanchilari) yashar edi [11, 61-bet]. Mahalliy aholi bu jarayonga qarshi “arizabozlik” urushini boshladi, biroq ma’muriyat deyarli har doim ko‘chmanchilar tarafini olgan. Hatto Andijon qo‘zg‘oloni (1898) bostirilgandan so‘ng, bu jarayonga rahbarlik qilish Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori Korolkovga topshirilgani o‘lka ma’muriyatining qat’iy pozitsiyasini ko‘rsatardi [41, 1-bet].

1916-yilgi qo‘zg‘olon: Qarshilikning cho‘qqisi

1916-yil 25-iyundagi mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmon Sirdaryo viloyatidagi o‘n yillab to‘planib kelgan nafrat uchun turtki bo‘ldi. Farmonga ko‘ra, Sirdaryo viloyatidan 87 ming kishini safarbar qilish belgilangan edi [13, 13-bet]. Bu qishloq xo‘jaligini butunlay inqirozga mahkum etardi.

Sirdaryo viloyatida qo‘zg‘olonning o‘ziga xos jihatlari quyidagicha namoyon bo‘ldi:

1. **Jizzax fojiasi:** Jizzax uyezdida qo‘zg‘olon ochiq milliy-ozodlik harakati tusini oldi. Nazirxo‘ja Abdusalomov va Abdurahmon Jevachi boshchiligidagi isyonchilar uyezd boshlig‘i polkovnik Rukinni jazoladilar [49, 1-bet]. Bunga javoban jazo otryadlari Jizzaxni vayronaga aylantirdilar, hatto deputat A. Kerenskiy bu vayronaliklarni ko‘rib, “bunaqasini hali ko‘rmaganman” deb ta’kidlagan edi [51, 1-bet].
2. **Toshkent noroziliklari:** 1916-yil 11-iyulda Toshkentning Eski shahar qismida ommaviy chiqishlar bo‘lib o‘tdi, politsiya bilan to‘qnashuvlarda ko‘plab insonlar halok bo‘ldi [47, 1-bet].
3. **Ommaviy qochqinlik:** Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirildi va 300 mingdan ortiq aholi Xitoy hududiga qochishga majbur bo‘ldi [5, 1-bet].

Xulosa va takliflar. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati mintaqadagi an’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni butunlay buzdi. 1890–1916-yillar oralig‘idagi qarshilik harakatlari shunchaki stixiyali isyonlar emas, balki tizimli ravishda amalga oshirilgan milliy-ozodlik kurashining tarkibiy qismi edi.

Asosiy xulosalar:

- **Yer omili:** Qarshilikning bosh harakatlantiruvchi kuchi yer musodarasi va suvdan foydalanish huquqining poymol qilinishi bo‘lgan.

- **Evolyutsiya:** Qarshilik shakllari 1890-yillardagi huquqiy noroziliklardan 1916-yildagi ochiq qurolli kurashgacha o‘sib bordi.
- **Mustamlakachilik inqirozi:** Sirdaryo viloyatidagi qarshiliklar imperiyaning “tinch kolonizatsiya” g‘oyasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganini ko‘rsatdi.

Takliflar:

1. O‘rta maktab va OTM darsliklarida Sirdaryo viloyatidagi qarshilik harakatlarining “ko‘chirish siyosati” bilan bog‘liqligini chuqurroq yoritish.
2. 1916-yilgi voqealarda qurbon bo‘lgan va deportatsiya qilingan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida Sirdaryo viloyatida memorial obidalar barpo etish [58, 1-bet].
3. Mustamlakachilik davri huquqiy hujjatlarining mahalliy aholi turmush tarziga ta’sirini yangi arxiv materiallari asosida o‘rganishni davom ettirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Tursunova, Gavxar Begmurodovna. *Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati va uning oqibatlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)*. Avtoreferat, Toshkent, 2023.
2. Abduqahorov, A. "Turkistonda 1916 yil qo‘zg‘olonlari: Sabablar, bosqichlari va tarixi". *Fan va innovatsiyalar*, 2025.
3. Palen, K. K. *Otchyot o revizii Turkestanskogo kraya: Pereselencheskoye delo*. Saint Petersburg, 1910.
4. Ziyoev, Hamid. *O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi*. Toshkent: Sharq, 2001.
5. "History of Central Asia: Under Russian Rule". *Encyclopaedia Britannica*, 2024.
6. *Voprosy kolonizatsii*. Journal of the Department of Resettlement, Saint Petersburg, 1907-1917.
7. Morrison, Alexander. *The Russian Conquest of Central Asia: A Study in Imperial Policy*. Cambridge University Press, 2021.
8. Ishanxo‘jayeva, Z. R. *O‘zbekiston tarixi (Mustamlakachilik davri)*. Toshkent: Universitet, 2012.
9. "Migration statistics to Asian Russia 1885-1913". *Demographic Review*, HSE, 2015.
10. *Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi materiallari*. Guliston, 2022.
11. Majidov, S. "Rossiya imperiyasi ko‘chiruvchilik siyosatining Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta’siri (Sirdaryo viloyati misolida)". *JDPU Axborotnomasi*, 2023.
12. Ziyayeva, Dono. *Turkiston milliy ozodlik harakati*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000.
13. Abduqahorov, A. "Mustaqillikdan keyingi davr: Zamonaviy rus tarixshunosligida Turkiston qo‘zg‘oloni". *Yangi O‘zbekiston*, 2025.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CHANGES IN DEMOGRAPHY AND CLASSIFICATION OF URBAN PLACES (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Polvonov Kozimbek Naimovich,
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)
E-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com

Baratov Otabek Aripovich
Karshi State University
Master of the Department of History of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the demographic situation and classification of the cities of Kashkadarya region in the 1970s-1990s. In particular, the factors affecting the growth of the population of regional cities in the 70s-80s of the 20th century, gender, ethnic composition and demographic situation are presented. At the same time, the classification of oasis cities for 1970, 1979, 1989 and 1990 was developed in the form of tables and diagrams. During the research years, cities were divided into the largest, large, large, medium and small cities, and it was proved that regional cities fall into the category of small, medium and large cities, consisting mainly of small cities. Also, information is provided about the division of cities into cities of republican, regional, district subordination, and oasis cities subordinate to the region and district in this category, which are analyzed in detail.

Keywords: Kashkadarya region, city, cities, demography, classification, population census, population, nationality, city category, small city, medium-sized city, large city.

SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O‘ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Polvonov Kozimbek Naimovich,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Baratov Otabek Aripovich
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati shaharlarining 1970-1990 yillardagi demografik holati va klassifikatsiyasi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, XX asrning 70-80 yillarida viloyat shaharlari aholisi sonining o‘sishi, jins, millatlar tarkibi va demografik holatga ta’sir etgan omillar keltirilgan. Shu bilan birga, voha shaharlarining 1970, 1979, 1989 va 1990 yillardagi toifasi jadval va diagramma ko‘rinishida ishlab chiqilgan. Tadqiqot yillarida shaharlar eng yirik, yirik, katta, o‘rta va kichik shaharlar turkumiga ajratilib, viloyat shaharlari kichik, o‘rta va katta shaharlar toifasiga kirishi, asosan kichik shaharlardan iborat ekanligi dalillangan. Shuningdek, shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarga bo‘linishi va bu toifadagi viloyat va tumanga bo‘ysunuvchi voha shaharlari haqida ma’lumotlar berilib, ular atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, shahar, shaharlar, demografiya, klassifikatsiya, aholi ro‘yxati, aholi soni, millat, shahar toifasi, kichik shahar, o‘rta shahar, katta shahar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N04

Kirish. O‘zbekiston aholisi yillar davomida ko‘payib bormoqda va demografik holatiga turli omillar ta’sir ko‘rsatib kelgan. Respublikaning janubiy hududida joylashgan Qashqadaryo viloyatida 12 ta shaharlar joylashgan bo‘lib, bu shaharlar sovet davrida xususan, Qarshi 1926-yilda, Shahrisabz 1929-yilda, vohaning boshqa kentlari 1972-1982-yillarda shahar maqomiga sazovor bo‘lgan edi. Shaharlar demografiyasidagi o‘zgarishlar ko‘pgina sohalar bilan bog‘lanadi va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Shaharlar aholi soniga ko‘ra turkumlanadi. Bu holat fanda klassifikatsiya deb nomlanib, lotincha “classis – turkum” va “fasio — bo‘laman” “turkumga bo‘laman” degan ma’noni bildiradi[1]. Shaharlarni o‘rganishda ularning katta-kichikligini bilish muhim hisoblanadi. Kelajakda ijtimoiy infrastruktura obyektlarini joylashtirishda shaharlar klassifikatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Qashqadaryo viloyati shaharlarining 1970-1990-yillardagi demografiyasi va klassifikatsiyadagi o‘zgarishlar jarayoni ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, to‘plamlarda berilgan ma’lumotlarga tayangan holda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo viloyati shaharlarining demografik tarixi ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. E.Ahmedov (O‘zbekiston shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991.), N.Bobojonova (O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: Sharq, 1999.), A.Tog‘ayeva (O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990 yillar). –Toshkent: Yangi nashr, 2017.), K.Polvonov (Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022.) kabilarning tadqiqotlarida mavzuga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Ushbu tadqiqot davomida vohadagi kichik shaharlar bilan birgalikda katta shaharlarning demografiyasi va klassifikatsiyasi, shaharlarning ko‘p millatli aholiga aylanishiga sabab bo‘lgan holatlar, ularning mazmun-mohiyati ochib berildi va tahlil qilindi.

Muhokama. XX asrning 60-70-yillarida O‘zbekistonda cho‘l hududlarini o‘zlashtirish borasida ishlar amalga oshirila bordi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi vohaning iqtisodiy salohiyatiga katta ta’sir etgan jarayonlardan biri bo‘ldi. Cho‘lning o‘zlashtirilishi natijasida paxtachilik maydonlari kengayib, zavod va fabrikalarning qurilishi jadallashdi hamda yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ldi. Yangi qurilgan, qurilayotgan zavod va fabrikalarda malakali mahalliy ishchi-kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj mavjud bo‘lib, ana shu ehtiyojni ta’minlash maqsadida O‘zbekistonga sovet davlatining markaziy hududlaridan “mutaxassislar”ning ko‘plab ko‘chirilib keltirilishi aholi sonining, ayniqsa shahar aholisining keskin ko‘payishiga olib keldi[2]. Shu bilan birgalikda, Qashqadaryo viloyatining tog‘li hududlaridan, jumladan, Qamashi, Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog‘, Kitob tumanlari aholisi Qarshi cho‘liga ko‘chirilib keltirildi va aholisi soni ortdi hamda shaharlardagi tabiiy ko‘payish aholi sonining ortishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekistonda sovet davrida aholini ro‘yxatdan o‘tkazish olti marotaba – 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda amalga oshirilgan va aholi soni ko‘payib bordi. 1970-yilda Qashqadaryo viloyatida ikkita aholi maskani – Qarshi va Shahrisabz shahar maqomida bo‘lgan. Bu paytda Qarshi (71,1 ming) va Shahrisabz (27,3 ming) shaharlarida 98,4 ming aholi istiqomat qilgan edi. Viloyatda shaharlar miqdori va ulardagi aholi soni ko‘payib bordi. Keyingi yillarda aholi sonining ancha ortib borishi statistik to‘plamlarda o‘z aksini topgan. Sovet davrida

1979-yil 17-24-yanvar va 1989-yil 12-19-yanvar kunlari Butunittifoq aholi roʻyxati olingan boʻlib, bu haqidagi statistik ma’lumotnomalarda[3] viloyat shaharlarida aholi soni oʻsib borganligini koʻrish mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. 1979 va 1989-yillarda viloyat markazi Qarshi va Shahrisabz shaharlari aholisi 1.4 martaga koʻpaygan. Asosan, tabiiy koʻpayish natijasida aholi soni ortib borgan. Sovet davrining soʻnggi yillarida ikkala shahar aholisi yanada koʻpaydi. 1990-yilda viloyat markazi Qarshi shahrida 180.8 ming aholi boʻlsa, Shahrisabz shahrida esa 55.0 ming aholi istiqomat qilgan[4].

Vohada ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi va yangi yerlarning oʻzlashtirilishi natijasida aholi maskanlarining qiyofasi oʻzgardi. Qator aholi maskanlari — Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabogʻ, Yangi Nishon, Qamashi, Gʻuzorga shahar maqomi berildi. Yangi tashkil etilgan shaharlarda aholi soni ham oʻsib borgan.

Statistik ma’lumotda keltirilishicha, shaharlarda aholi soni turlicha boʻlganligini keltirish mumkin. Tarixi uzoq oʻtmishga borib taqaladigan aholi maskanlarida aholi soni koʻpligi bilan, aksincha, choʻlni oʻzlashtirilishi natijasida paydo boʻlgan shaharlar aholisi soni kamligi bilan ajralib turgan. 1989-yilda oʻtkazilgan aholi roʻyxati ma’lumotlariga koʻra, vohadagi kichik shaharlar orasida, aholi sonining koʻpligi jihatidan Koson va Kitob shaharlari ustun turgan. Kosonda 40 680 nafar, Kitob shahrida 28 566 nafar aholi istiqomat qilgan.

Qarshi choʻlining oʻzlashtirilishi natijasida Yangi Nishon va Talimarjon shaharlariga asos solingan edi. Bu shaharlar aholisi soni kichik shaharlar orasida kamligi bilan ajralib turgan. 1989-yilda Yangi Nishon shahrida 7 471 nafar va Talimarjon shahrida 6 712 nafar aholi yashagan.

Quyidagi jadvalda keltirilganidek, Qashqadaryo viloyatida shaharlar aholisi soni koʻpayib borganligini koʻrish mumkin. Shaharlarda oʻsish holati turlicha boʻlgan va bunga yangi ish oʻrinlarining yaratib borilganligini aholi sonining oʻsishiga sabab sifatida koʻrsatiladi. Aholi roʻyxati oʻtkazilgan 1979 va 1989-yillarda shaharlarning oʻsish koʻrsatkichlari taqqoslanganda quyidagicha boʻldi: eng yuqori holat Muborak (2.1) va Beshkent (1.9) shaharlarida boʻlsa, past koʻrsatkich Talimarjon (1) shahrida boʻldi.

Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisi sonining oʻsishi[5]

№	Shaharlar		1970	1979	1989	1979 va 1989 yy oʻsish koʻrsatkichi (marta)	1990
1	Qarshi		71.1	107404	154707	1.4	180.8
2	Shahrisabz		27.3	36472	52453	1.4	55.0
3	Koson		-	28313	40680	1.4	40.0
4	Muborak		-	9231	19947	2.1	40.0
5	Talimarjon		-	6687	6712	1	10.0
6	Kitob		-	18491	28566	1.5	30.0
7	Gʻuzor		-	12670	17032	1.3	21.0
8	Beshkent		-	6006	11562	1.9	12.0
9	Qamashi		-	15678	22307	1.4	22.0
10	Yakkabogʻ		-	12098	17191	1.4	16.0
11	Chiroqchi		-	(8428)	13275	(1.5)	12.0
12	Yangi Nishon		-	(3979)	7471	(1.8)	7.0

Kichik shaharlarning aholisi soni ko‘payib borsa-da, ammo viloyat shaharlari miqyosidagi, ya’ni, foiz hisobidagi ko‘rsatkichi kamaygan. 1979-yilda viloyat aholisining 10,2 foizi, 1989-yilda 8,6 foizi “yangi” shaharlarda istiqomat qildi. Bu viloyatda shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisining ko‘payish ko‘rsatkichi yuqorilab borganini bildiradi. Umuman, 1989-yilda ko‘rib chiqilayotgan shaharlarda jami aholi soni 184 ming 743 kishini tashkil etgan[6].

Qashqadaryo viloyatida 1970-yilda 2 ta shaharlarda – Qarshi va Shahrisabz shaharlarida 98.4 ming kishi istiqomat qilgan. Yillar davomida aholi soni turli omillar sababli ortib bordi. Viloyatda yangi ish o‘rinlarining ortishi aholining o‘sishiga sabab bo‘lganligini alohida ta’kidlash mumkin. 1990-yilga kelib, viloyatdagi 12 ta shaharlarda 445.8 ming aholi istiqomat qildi. Umuman, viloyatda shaharlar soni va ulardagi aholi soni ortib bordi.

Sovet davrida O‘zbekiston shaharlari aholisining jins tarkibida ham muayyan o‘zgarishlar bo‘ldi. Aholi ro‘yxati o‘tkazilgan yillarda, ya’ni, 1979 va 1989-yillarda viloyat markazi Qarshi shahri aholisi sonida erkaklarning ulushi ko‘pligi bilan ajralib turganligini ta’kidlash mumkin. Mazkur yillarda Shahrisabz shahrida esa ayollar sonining ustunligi kuzatiladi.

Viloyatda “yangi” tashkil etilgan shaharlar aholisining jins tarkibi ham turlicha bo‘lib, ayollarning jami aholi sonidagi ulushi ortib borgan. Masalan, 1979 yilda Muborak, Talimarjon, Qamashi shaharlarida erkaklar, Koson, Kitob, G‘uzor, Beshkent shaharlarida ayollar sonining ustunligi kuzatilgan bo‘lsa, faqat Yakkabog‘ shahrida har ikkala jinsning tengligi kuzatildi.

Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisining jinsga oid tarkibi[7]

№	Shaharlar	1979-yil				
		Jami aholi	erkaklar		ayollar	
			soni	%	soni	%
1	Qarshi	107404	55724	51,9	51680	48,1
2	Shahrisabz	36472	17809	48,8	18663	51,2
3	Koson	28313	13983	49,4	14330	50,6
4	Muborak	9231	4955	53,7	4276	46,3
5	Talimarjon	6687	3486	52,1	3201	47,9
6	Kitob	18491	9020	48,8	9471	51,2
7	G‘uzor	12670	6271	49,5	6399	50,5
8	Beshkent	6006	2989	49,8	3017	50,2
9	Qamashi	15678	7867	50,2	7811	49,8
10	Yakkabog‘	12098	6048	50	6050	50

Oradan o‘n yil o‘tib, 1989-yilgi aholi ro‘yxati ma’lumotiga ko‘ra, Beshkent, Koson, Kitob, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabog‘, Qamashi, G‘uzor shaharlarida ayollar ko‘pchilikni tashkil etgan, faqatgina Muborak va Yangi Nishon shaharlari aholisi sonida erkaklarning ulushi yuqori bo‘ldi.

Qashqadaryo viloyati shaharlarida XX asrning 70-80-yillarida turli millat vakillari istiqomat qildi. Bunga sabab sifatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

1) Ikkinchi jahon urushi yillarida Ittifoqning ba’zi sanoat korxonalarining O‘zbekistonga ko‘chirilishi va ular bilan birga turli millat vakillarining kelishi;

2) Urush yillarida Ittifoqning Yevropa qismida ota-onasiz qolgan bolalarning muayyan qismi O‘zbekistonga ko‘chirilishi;

3) Qarshi choʻlining oʻzlashtirilishi bilan ish oʻrni ortib borganligi va turli millat vakillarining ishlash uchun kelishi va boshqalar.

Qashqadaryo viloyatida aholi sonida oʻzbeklar yetakchi oʻrinda boʻlgan, albatta. Jadvalda keltirilganidek, 1990-yilgi aholi sonida oʻzbeklardan keyin rus va tojik millatiga mansub kishilar koʻpchilikni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati aholisining millatlar tarkibi[8]

№	Millatlar	1990 yilda	
		Aholi soni	Jami aholiga nisbatan %
	Viloyat boʻyicha	1643603	**-**
1	oʻzbek	1447637	88.07
2	qoraqalpoq	110	0.006
3	rus	37003	2.251
4	ukrain	4315	0.262
5	belorus	1348	0.082
6	qozoq	1897	0.115
7	ozarbayjon	3298	0.200
8	qirgʻiz	215	0.013
9	tojik	82191	5.000
10	turkman	20294	1.234
11	tatar	20383	1.240
12	koreys	1968	0.119
13	boshqa millatlar	22944	1.395

Sovet davrining soʻnggi yillarida shaharlar aholisi soniga koʻra besh turkumga boʻlinib, ularda aholi soni quyidagicha belgilangan:

1) eng yirik shaharlar – aholisi 500 mingdan ortiq boʻlgan;

2) yirik shaharlar – aholisi 250-500 ming kishigacha;

3) katta shaharlar – aholisi 100-250 ming kishigacha;

4) oʻrta shaharlar – aholisi 50 ming kishidan-100 ming kishigacha;

5) kichik shaharlar – aholisi 50 ming kishigacha boʻlgan shaharlar[9].

1989-yilda Oʻzbekistonda 124 ta shaharlar boʻlib, ulardan 101 tasi kichik, 7 tasi oʻrta, 12 tasi katta shaharlar (Angren, Buxoro, Jizzax, Margʻilon, Navoiy, Nukus, Olmaliq, Qarshi, Qoʻqon, Urganch, Fargʻona, Chirchiq), 3 tasi yirik shaharlar (Samarqand, Namangan, Andijon), 1 tasi eng yirik (Toshkent) shaharlar toifasiga kirgan[10]. Respublikadagi shaharlarning 81.4 foizi kichik va 5.6 foizi oʻrta shaharlar turkumiga kirsa, 9.6 foizi katta shaharlar edi.

Qashqadaryo viloyatida 1970-yilda ikkita hudud – Qarshi va Shahrisabz shahar maqomida boʻlib, Shahrisabz kichik shahar (aholi soni 50 minggacha), Qarshi – oʻrta shahar (aholi soni 50-100 minggacha) turkumiga kirgan. Sovet davrida Butunittifoq aholi roʻyxati oʻtkazilgan yil (1979 va 1989-yil) larda Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisida oʻsish kuzatilib, klassifikatsiyasida oʻzgarishlar boʻldi.

Aholisi 50 minggacha boʻlgan kichik shaharlar vohadagi shaharlarning asosiy qismini tashkil etgan. Bunday shaharlar viloyatda 1979 yilda jami 9 tani tashkil etgan boʻlib, bu toifadagi shaharlarga — Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Shahrisabz, Yakkabogʻ, Qamashi, Gʻuzor shaharlari kirgan. Viloyatdagi shaharlarning 90 foizi shu toifadagi shaharlar sirasiga kirgan edi.

Viloyatda faqatgina Qarshi shahri katta shaharlar (aholisi 100-250 minggacha) turkumiga kirgan. Viloyatdagi shaharlarning 10 foizi bu toifadagi shaharlar edi. Shuningdek, bu paytda o‘rta, yirik va eng yirik shaharlar toifasiga kiradigan shaharlar mavjud bo‘lmagan. Viloyatda jami shaharlar soni 10 tani tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyatida shaharlar va ulardagi aholi soni o‘sib bordi. 1989-yilda viloyat shaharlari klassifikatsiyasining ko‘rinishi quyidagicha bo‘ldi: kichik shaharlar 10 tani tashkil etgani holda, Shahrisabz shahri o‘rta va Qarshi shahri esa katta shaharlar toifasiga kirdi. Bu paytda viloyatda shaharlar soni 12 ta bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyati shaharlari tasnifi (1989-yil)

№	Shaharlar pog‘onasi	Aholi soni	Shaharlar toifasi	Qashqadaryo viloyatida
1	I	50 minggacha	kichik shahar	Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog‘, Qamashi, G‘uzor
2	II	50 dan 100 minggacha	o‘rta shahar	Shahrisabz
3	III	100 dan 250 minggacha	katta shahar	Qarshi
4	IV	250 dan 500 minggacha	yirik shahar	
5	V	500 mingdan ortiq	eng yirik shahar	
	Jami			12 ta

1990-yilda viloyat shaharlarining klassifikatsiyasi 1989-yildagidek bo‘lib, o‘zgarishsiz qoldi[11].

Adabiyotda berilishicha, shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarga bo‘lingan. Respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar sirasiga aholisi 500 mingdan ortiq, yirik iqtisodiy, madaniy markaz hisoblangan shaharlar kirgan.

Viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar qatoriga muhim sanoat ahamiyatiga molik, iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan, aholisi 30 ming kishidan kam bo‘lmagan shahar yoki shahar posyolkalari kirgan. Ayrim hollarda, sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi o‘sishi borasida qulay istiqbolga ega bo‘lgan shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo‘lsa ham viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar kategoriyasiga kiritilgan.

Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalari, kommunal xo‘jaligi, davlat turar-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy tashkilotlari, savdo-sotiq, va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari mavjud bo‘lgan hamda aholisi 7 mingdan kam bo‘lmagan shahar va shahar posyolkalari kirgan[12]. Bunday shaharlardagi aholining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i ishchi va xizmatchilardan iborat bo‘lishi lozim bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyatida viloyatga va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar bo‘lib, shu maqomda bo‘lib keldi. 1990-yilga kelib 5 ta shahar (Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Muborak)

viloyat bo‘ysunuvidagi va 7 ta shahar (Beshkent, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog‘, Qamashi, G‘uzor) tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar hisoblangan.



Xulosa. XX asrning 60-70-yillarida Qashqadaryo viloyatida Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi, aholi maskanlarida zavod-fabrikalarning qurilib, ishga tushirilishi shaharlar miqdori va ulardagi aholi sonining sezilarli darajada o‘sishiga sabab bo‘ldi. Aholi ro‘yxati o‘tkazilgan 1979, 1989-yillarda voha shaharlari aholisi soni ortdi. Tadqiqot yillarida shaharlar aholisi tarkibida erkaklarga nisbatan ayollarning ulushi yuqori bo‘ldi. Viloyat shaharlarida turli millat vakillari istiqomat qilib, aholining milliy tarkibida o‘zbeklardan keyin tojik va rus millatiga mansub kishilar ko‘pchilikni tashkil etgan.

1970-1990-yillarda viloyat shaharlari klassifikatsiyasida juda katta o‘zgarishlar bo‘lgan. Aholi soni 50 minggacha bo‘lgan kichik shaharlar 1970-yilda bittani tashkil etgan bo‘lsa, 1990-yilda 10 ta bo‘ldi. Viloyat hududida o‘rta (aholi soni 50-100 minggacha) shaharlar soni o‘zgarishsiz qolib, bittani tashkil etgan. 1970-yilda katta (aholi soni 100-250 minggacha) shaharlar umuman yo‘q edi, 1990-yilga kelib viloyat markazi Qarshi shahri ushbu toifaga kirdi. Viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar 1970-yilda 2 ta bo‘lgani holda, 1990-yilda ko‘payib, 5 taga yetdi. Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar 1970-yilda umuman yo‘q edi, 1990-yilda ular 7 tani tashkil etdi.

Shaharlar tarixi qiziqarli va munozarali mavzular sirasiga kiradi. Keltirilgan tarixiy ma’lumotlar O‘zbekiston shaharlari tarixiga oid ilmiy bilimlarning yanada ko‘payishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Milliy Enseklopediyasi. 4-jild. –Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B. 632.
2. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: Sharq, 1999. –B. 123.
3. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1980., Perepis naseleniya. –Tashkent, 1991.
4. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002. –B. 207.
5. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 198.
6. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1991. –S. 33-35.
7. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1980. –S. 13-15.

8. Jadval Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining 2019 yildagi bergan ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.
9. Tog‘ayeva A. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990 yillar). –Toshkent: Yangi nashr, 2017. –B. 15.
10. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991. –B. 44.
11. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 33.
12. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991. –B. 31.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

MIGRATION PROCESSES BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY: PROBLEMS AND PROSPECTS

Sagatova Ziyodakxon Baxtiyarovna
teacher of the Department of Social Sciences, Pedagogy and Psychology
Tashkent State Medical University

Abstract. This article examines contemporary migration processes between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Turkey in the context of socio-economic development and bilateral cooperation. It analyzes the main factors determining migration flows, their demographic characteristics, and dynamics. Particular attention is paid to labor migration, social adaptation, legal protection of migrants, and their integration into the host society. The study also explores the impact of migration on the labor market, employment levels, transnational connections, and humanitarian interaction between the two countries. Based on the identified challenges, the article proposes directions for improving migration policy, including strengthening institutional cooperation, expanding educational programs, and enhancing legal regulatory mechanisms. The findings suggest that effective migration governance can transform migration processes into a significant factor of sustainable development and strategic partnership between Uzbekistan and Turkey.

Keywords: migration, Uzbekistan, Turkey, labor migration, social integration, migration policy, bilateral cooperation.

МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Сагатова Зиёдахон Бахтияровна
преподаватель кафедры «Социальных наук, педагогики и психологии»
Ташкентского Государственного Медицинского Университета

Аннотация. В статье анализируются современные миграционные процессы между Республикой Узбекистан и Турецкой Республикой в контексте социально-экономического развития и двустороннего сотрудничества. Рассматриваются основные факторы, определяющие направления миграционных потоков, их демографические характеристики и динамика. Особое внимание уделяется вопросам трудовой миграции, социальной адаптации, правовой защиты мигрантов и их интеграции в принимающее общество. Исследование также раскрывает влияние миграции на рынок труда, уровень занятости, транснациональные связи и гуманитарное взаимодействие между двумя странами. На основе анализа существующих проблем предлагаются направления совершенствования миграционной политики, включая укрепление институционального сотрудничества, развитие образовательных программ и совершенствование механизмов правового регулирования. Сделан вывод о том, что при эффективном управлении миграционные процессы могут стать важным фактором устойчивого развития и укрепления стратегического партнерства между Узбекистаном и Турцией.

Ключевые слова: миграция, Узбекистан, Турция, трудовая миграция, социальная интеграция, миграционная политика, двустороннее сотрудничество.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N05

Миграция — это одна из важнейших социальных и экономических категорий современности. Она оказывает влияние на демографическую ситуацию, рынок труда,

социальную сферу и международные отношения [12]. Миграционные процессы между Узбекистаном и Турцией являются одним из значимых направлений трудовой и образовательной мобильности населения в Евразийском пространстве. В последние десятилетия Турция стала ключевым приемным государством для узбекских мигрантов, особенно трудовых, студентов и предпринимателей [7].

Цель настоящей статьи — проанализировать динамику миграции между Узбекистаном и Турцией, выявить основные проблемы, с которыми сталкиваются мигранты, а также наметить перспективы развития двустороннего сотрудничества и совершенствования миграционной политики.

1. Основные характеристики миграционных процессов

Миграционные связи между Узбекистаном и Турцией имеют давние исторические корни благодаря общности тюркских языков и культур [3]. В XX в. миграции были ограничены политическими барьерами, но в конце XX — начале XXI в. открытость границ, экономические реформы и рост международной мобильности способствовали развитию миграционных потоков.

Многие граждане Узбекистана выезжают в Турцию для работы — особенно в строительстве, сфере услуг, и бытовом обслуживании.

По данным на декабрь 2023 г., примерно 113 800 узбекских трудовых мигрантов работали в Турции, что составляет около 6 % всех узбекских трудовых мигрантов за рубежом [3]. Федеральные и международные отчёты подтверждают, что трудовая миграция становится всё более диверсифицированной, и Турция — важный региональный партнёр.

Современные исследования показывают, что большинство узбекских мигрантов направляется в Турцию в поисках трудоустройства, образования [10] и предпринимательских возможностей [4]. В крупных турецких городах — Стамбуле, Анкаре, Измире — сосредоточены крупнейшие узбекские диаспоры [13]. В 2024–2025 годах число выданных видов на жительство и рабочих разрешений узбекским гражданам в Турции заметно увеличилось, что говорит о росте интереса к работе там.

2. Проблемы мигрантов

Одной из главных проблем является неофициальная занятость и низкий уровень социальной защиты узбекских мигрантов. Многие работают в строительстве, сервисе и мелком бизнесе без официальных контрактов, что приводит к отсутствию прав работников и социального страхования [1].

Турция и Узбекистан активно работают над механизмами защиты прав мигрантов, а также над мерами по борьбе с нелегальной миграцией. Планируется создание общей базы данных и упрощённые процедуры для тех, кто хочет изменить статус на легальный, не покидая страну.

В 2025 году представители Узбекистана и Турции обсудили вопросы сотрудничества в сфере миграции на официальных переговорах в Анкаре. Были подтверждены планы по углублению сотрудничества, включая правовую защиту граждан и проекты для облегчения трудовой миграции. Стороны договорились работать над упрощением процедур получения рабочих виз и разрешений для узбекских граждан. В частности, обсуждаются электронные рабочие визы и способы легализации мигрантов, уже находящихся в Турции.

Общие культурно-религиозные элементы между странами также способствуют тому, что Узбекистан рассматривается как привлекательная страна для экономической миграции в Турцию. Но несмотря на тюркскую основу языков, турецкий язык имеет существенные отличия, что затрудняет коммуникацию и интеграцию мигрантов в общество [9], особенно в сфере услуг и образования [15].

Исследования отмечают случаи дискриминации мигрантов по признаку национальности или социального статуса, что сказывается на их психологическом комфорте и скорости адаптации [2]. С точки зрения правовой защиты, в Турции действует национальное трудовое законодательство, распространяющееся на иностранных работников при наличии официального разрешения на работу. Законодательство предусматривает право на минимальную заработную плату, ограничение рабочего времени, оплачиваемый отпуск и социальное страхование. Дополнительно вопросы регулирования статуса иностранцев находятся в ведении миграционных органов и Министерства труда Турции. При легальном статусе мигрант имеет право обращаться в суд, инспекцию труда и правоохранительные органы в случае нарушения его прав. Со стороны Узбекистана в последние годы проводится политика усиления защиты граждан за рубежом. Расширяется сеть консульской поддержки, внедряются механизмы юридического консультирования, информационные платформы для трудовых мигрантов и программы предвыездной подготовки. Государственные органы стремятся заключать двусторонние соглашения, которые обеспечивают более прозрачные условия трудоустройства и социальные гарантии.

Узбекистан и Турция развивают сотрудничество в области образования, обмена опытом в социальной политике и подготовке квалифицированных кадров, что создает основу для более справедливой и безопасной миграции [5].

3. Перспективы и направления совершенствования миграционной политики

Миграционные связи между Узбекистан и Турция в последние годы приобрели устойчивый и институционально оформленный характер. Основу двусторонней мобильности составляет трудовая миграция, при этом Турция постепенно укрепляет свои позиции как одно из приоритетных направлений выезда граждан Узбекистана наряду с Россией и Казахстаном. Узбекские граждане заняты преимущественно в строительстве, сфере услуг, текстильной промышленности, гостиничном бизнесе и бытовом обслуживании. Рост числа выданных видов на жительство и рабочих разрешений свидетельствует о постепенной легализации миграционных потоков и переходе от неформальных схем занятости к более регулируемым формам трудовой деятельности.

Современный этап характеризуется активным развитием двустороннего сотрудничества в сфере регулирования миграции. Между профильными ведомствами двух государств ведётся работа по совершенствованию правовой базы, направленной на упрощение процедур трудоустройства и усиление социальной защиты мигрантов. Одним из перспективных направлений является внедрение электронных рабочих виз, что позволит сократить бюрократические барьеры, минимизировать коррупционные риски и повысить прозрачность процессов трудовой миграции. Дополнительно обсуждается возможность изменения миграционного статуса без необходимости

выезда из страны пребывания, что особенно актуально для граждан, уже находящихся в Турции на законных основаниях, но желающих официально трудоустроиться.

Значительное внимание уделяется вопросам легализации длительно проживающих мигрантов. Практика предоставления рабочих разрешений лицам, проживающим в Турции несколько лет, способствует снижению уровня нелегальной занятости и повышает уровень социальной защищённости работников. Параллельно рассматривается создание совместной электронной базы данных, которая позволит координировать действия компетентных органов двух стран, отслеживать правовой статус граждан и оперативно реагировать на нарушения миграционного законодательства.

Важным направлением совершенствования миграционной политики является развитие механизмов социальной защиты. В перспективе возможно заключение соглашений о взаимном учёте трудового стажа и пенсионных накоплений, что укрепит гарантии для трудящихся-мигрантов и повысит доверие к официальным каналам трудоустройства. Существенное значение имеет также признание профессиональных квалификаций, полученных в Турции, что позволит узбекским гражданам расширить возможности карьерного роста как в стране пребывания, так и после возвращения на родину.

С точки зрения стратегических перспектив, миграционная политика всё более интегрируется в рамки всеобъемлющего стратегического партнёрства между Узбекистаном и Турцией. Миграция рассматривается не только как социально-экономический процесс, но и как инструмент гуманитарного взаимодействия, обмена опытом, укрепления культурных связей и развития человеческого капитала. Современный подход ориентирован на гуманизацию миграционных процессов, защиту достоинства и прав граждан, развитие предвыездной подготовки, юридического консультирования и информационной поддержки.

В долгосрочной перспективе совершенствование миграционной политики между двумя странами предполагает дальнейшую цифровизацию процедур, институционализацию межведомственного сотрудничества, расширение программ организованного трудоустройства и углубление координации в борьбе с нелегальной миграцией. Таким образом, миграционные связи между Узбекистаном и Турцией постепенно трансформируются из преимущественно стихийного трудового потока в регулируемую систему партнёрства, основанную на принципах законности, взаимной выгоды и социальной защищённости граждан.

Усиление правового регулирования трудовой миграции, создание механизмов официального трудоустройства, признания квалификаций могут увеличить защиту прав мигрантов и повысить их вклад в экономику обеих стран [6].

Расширение образовательных программ, совместных университетских программ и стажировок поможет создать позитивный миграционный опыт и укрепить молодежные связи между странами [14].

Заключение. Миграционные процессы между Узбекистаном и Турцией являются многогранным феноменом, включающим исторические, экономические и социальные аспекты [8]. Несмотря на значительный вклад мигрантов в развитие экономики обеих стран, существуют серьезные вызовы, связанные с правовой защитой, социальной

интеграцией и условиями труда. Перспективы развития двустороннего сотрудничества видятся в укреплении правового регулирования, развитии образовательных программ, а также создании механизмов социальной поддержки мигрантов [11].

Эффективная миграционная политика способна обеспечить максимальное использование потенциала миграции для устойчивого развития и укрепления гуманитарных связей между Узбекистаном и Турцией.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Ахмедов А. Трудовая миграция узбекских граждан в Турции: проблемы и перспективы. — Ташкент, 2024.
2. Демир О. Миграция и социальная интеграция в Турции. Istanbul Univ. Press, 2023.
3. Ибрагимов Р. Исторические аспекты тюркских миграций. — Самарканд, 2018.
4. Караева С. Современные миграционные потоки из Центральной Азии. — Baku, 2022.
5. Министр труда и миграции Узбекистана и Турции, Отчет о сотрудничестве (2025).
6. Организация международной миграции, World Migration Report 2022.
7. Рахимов Ж. Миграция как фактор социально-экономического развития. — Tashkent, 2020.
8. Sagatova Ziyodaxon Baxtiyarovna. The Impact of Cultural Exchanges on the Formation of a Positive Image of Uzbekistan and Turkey in the International Arena. International Journal of Formal Education. Vol.4. Issue 10. 2025. Pages 256-263.
9. Сагатова З.Б. Современный театр как платформа культурного диалога: сотрудничество театральных коллективов Узбекистана и Турции. Педагогика. Научно теоретический и методический журнал. 2025 год, №3, 300-304 стр.
10. Сагатова Зиёда Бахтияровна, Гуманитарное сотрудничество как инструмент укрепления культурной дипломатии между Узбекистаном и Турцией International Journal of scientific researchers, Vol.14, Issue1, October 2025, 266-271p.
11. Sagatova Ziyoda Bakhtiyarovna. The impact of the turkic cultural heritage on joint projects in the field of decorative and applied arts of Uzbekistan and Turkey. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nurcing. Volume3, Issue04 April 2025, 158-164 p.
12. Смирнов В. Миграционные процессы в XXI веке. — Moscow, 2021.
13. Турецкое статистическое агентство, Population and Migration Statistics, 2023.
14. UNICEF, Youth mobility programs between Uzbekistan and Turkey. — 2023.
15. Ташкентский институт миграционных исследований, Социальная адаптация мигрантов, 2021.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF ELECTRIFICATION IN TURKESTAN IN STATISTICAL PUBLICATIONS AND LITERATURE (20th–50th YAERS OF XX CENTURY)

Saidboboeva Gulzora Nematjonovna,
Docent of History faculty of the National University of Uzbekistan, DSc

Abstract. This article examines statistical publications and literature on the history of electrification in Turkestan, published in the 1920s-1950s. From a historiographic perspective, their content is analyzed, as well as the historiography of the topic and their significance for studying the socioeconomic history of the region.

Keywords: Turkestan, 20th century, 1920s-1950s, statistical publications, literature, electrification, energy, worker, industry.

STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti dotsenti,
t.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 20–50-yillarida nashr etilgan va Turkistonning elektrlashtirish tarixiga doir statistik nashr va adabiyotlar ko‘rib chiqilgan. Ularning mazmuni, shuningdek, mavzu tarixshunosligi, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishdagi ahamiyati tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, XX asr, 20–50-yillar, statistik nashr, adabiyot, elektrlashtirish, energetika, ishchi, sanoat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N06

Kirish. Jahonning fan va texnika sohasidagi yutuqlari, globallashuv jarayonlarining kuchayishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va urbanizatsiyaning tezlashishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Elektr energetika sanoat va ijtimoiy soha o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, ularning texnik salohiyatini oshirishga zarur shart-sharoit yaratdi.

XIX asr oxiri–XX asr birinchi choragida Turkistonni elektrlashtirish muammosi bo‘yicha bir qator turkum statistik nashrlar, yilnomalar chop etilgan bo‘lib, ularda o‘lkaning elektrlashtirish jarayoni atroflicha tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar. Turkiston Respublikasi Iqtisodiy Kengashi (TurkEKOSO) ning I syezdi (1922) hisoboti ham qimmatli materiallarga boy bo‘lib, unda o‘lka sanoati, elektrlashtirishi haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, “Toshtram” tresti tramvay va elektr stansiyani o‘zida jamlab, Turkiston shart-sharoitida juda jiddiy korxona sanalib, mutlaq e’tiborga loyiqligi” [1; 27] ma’lum qilingan.

Turli yillarda chop etilgan statistik sharhlar va rasmiy hujjatlarda elektrotexnika sanoati ahvoli (1921), mamlakatni iqtisodiy rayonlashtirish, energetiklarning ijtimoiy ta’minoti, sanoat ko‘rsatkichlariga ma’lumotlar uchraydi[2].

Xususan, elektrotexnika sanoatidagi ishchilar soni va tarkibi jihatidan yosh sovet davlati 1920-yilda 1912-yildagi koʻrsatkichlardan ham ancha past darajada boʻlganligini koʻrish mumkin [3; 28]:

Jami ishchilar (ming)	**1912-yil**	**1913-yil**	**1919-yil**	**1920-yil**
	400	360	225	250
Malakali (ming)	260	240	165	185
Malakasiz (ming)	140	120	60	65

Yuqoridagi holat Turkiston oʻlkasi uchun ham xos boʻlib, muhandis-texnik mutaxassislik boʻyicha oliy maʼlumotli kadrlarni yetishmasligi soha rivojidagi asosiy toʻsiqlardan biri boʻlgan. Bunga bir necha sabablar boʻlib, avvalo oʻlkada oʻzining haqiqiy kasbini astoydil yashirib, agar bilib qolishsa, qora ishchi, yuk tashuvchi, mardikor boʻlib kun kechirishdan ayrilib qolish xavfidan qoʻrqqan juda koʻp sonli yuqori malakali ishchilar boʻlgan. Bunga avvalo mehnatga munosib haq toʻlashning adolatsizligi sabab boʻlgan. Turkistonda muhandis oyiga 20-40 ming rubl maosh olgan boʻlsa, izvoshchi kuniga undan ikki marta koʻp topgan. “Hozirda muhandisga oilasini boqish uchun izvoshchi boʻlib xizmat qilishi foydaliroq ekanligi toʻgʻri kelmaydi, – deb yozadi davr shohidi boʻlgan muallif. – Yana yaxshi chilangar qora ishchi sifatida ishlashi ham gʻayritabiiy. Buning uchun aybni ularga toʻnkab boʻlmaydi. Malakali ishchilarning ishtirokisiz sanoatni tiklash, iqtisodiyotni jonlantirish, shuningdek, elektrlashtirishni olib borish amrimahol. Muhandis, professor, chilangar va umuman malakali mutaxassis izvoshchiga qaraganda toʻq boʻlishi muhimroq” [4; 211].

Turkistondagi sanoat va elektr inshootlari hissadorlik jamiyatlari, oʻlkada elektrotexnik inshootlarning qurilishiga doir ruxsat tartibi Oʻrta Osiyoning xalq xoʻjaligiga oid statistik toʻplamda batafsil yoritilgan [5; 1-23].

1918–1920-yillarga oid hujjatlar va materiallar asosida Sovet hokimiyati xalq xoʻjaligini elektrlashtirish boʻyicha materiallarni tayyorlash ishlari revolyutsiyaning ilk oylaridayoq boshlanganligi, bu ishlar intervensiya va fuqarolar urushi yillarida ham davom ettirilib, 1920-yilda mashhur GOELRO rejasi bilan tugallanganligi boʻyicha rasmiy hujjatlar jamlangan toʻplam ancha qimmatli maʼlumotlarga ega [6; 590].

Xalq xoʻjaligini elektrlashtirish boʻyicha materiallarni tayyorlash ishlari revolyutsiyaning ilk oylaridayoq boshlangan. Mazkur ishlar qurolli intervensiya va fuqarolar urushi yillarida ham davom ettirilib, ilmiy hamda amaliy jihatdan sovet olimlari va texniklarining xalq xoʻjaligini elektrlashtirish sohasidagi ishlari umumlashtirilib, Rossiyaning eng yaxshi ilmiy-texnik kuchlari jalb qilingan holda, alohida loyihalar hamda mamlakatning umumiy elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish avj oldirdi va 1920-yilda GOELRO rejasi bilan tugallandi. Rejani Sovet hokimiyati mamlakat xalq xoʻjaligi rivoji boʻyicha istiqbolli reja sifatida baholagan.

Turkistonni elektrlashtirish toʻgʻrisidagi (1922-yil 25-aprel), Markaziy Elektrotexnika kengashi (SES) kuchli quvvatlar seksiyasi (1923-yil 31-iyul), Davlat Reja qoʻmitasining Oʻrta Osiyo byurosi komissiyasi Xorazmni sugʻorish boʻyicha elektrlashtirish ishlari haqida qabul qilgan (1924-yil 29-fevral) rasmiy qarorlari keltirilgan asar ham muammoni oʻrganishda ancha ahamiyatli sanaladi [7; 542-547]. Turkistonni elektrlashtirish toʻgʻrisidagi qarorda (1922-yil 25-aprel) asosiy eʼtibor madaniy markazlarni elektrlashtirishga qaratilishi, bunda mavjud moslamalardan foydalanish va eski sugʻorish tizimlarini tiklash, oʻlkani elektrlashtirish rejasini

ishlab chiqish va energetika bo‘yicha barcha masalalarni muvofiqlashtirish bo‘yicha Turkiston Davlat Reja qo‘mitasi huzurida energetika maxsus seksiyasini tuzish zarurligi ta’kidlangan [7; 542].

L.V. Fominaning maqolasida GOELRO rejasining ro‘yobga oshirilishi va sanoat elektrlashtirilishining tiklash yillaridagi (1921–1925) holati statistik ma’lumotlar asosida tadqiq etilgan bo‘lib, to‘rt yil ichida, ya’ni 1918–1921/22-yillarda xalq xo‘jaligini elektrlashtirish uchun 10,6 mln rubl ajratilgan bo‘lsa, 1921/22–1924/25-yillarda esa bu miqdor 117,3 mln rublni tashkil etgani ko‘rsatilgan [8; 62].

O‘rta Osiyoning xalq xo‘jaligiga bag‘ishlangan statistik to‘plamda 1913-yilda o‘lkada 5,8 mln kilovatt soat, hozirgi Qirg‘iziston va Tojikistonda esa elektr energiya ishlab chiqarilmaganligi qayd etilgan [9; 67, 70, 74]. 1913-yildagi elektrostansiyalarning quvvati 3 ming kVt, energiya ishlab chiqarishi 3,3 mln kVt soatni, 1924/25-yillarda esa bu raqamlar mos ravishda 8,5 ming kVt va 15 mln kVt soatga ortgan.

Umuman 1921–1990-yillarda SSSRda elektrlashtirish masalalari va Sovet davlatining energetika siyosatiga bag‘ishlangan 5 mingdan ziyod monografiya, risola va maqolalar nashr etilgan bo‘lib, ulardan 70 ta monografiya tarixiy-partiya va 190 tasi umumtarixiy mazmunda yozilgan; 100 dan ziyod nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan [10; 9].

Dastlab Turkistonda elektrlashtirish rejasi G.K. Rizenkamf rahbarligida V.V Aleksandrova-Zaorskaya, V.M. Buzinova, V.D. Jurin, A.M. Yestifeyev, YE.YE. Skornyakov kabi taniqli iqtisodchi va muhandislar tomonidan o‘lkaning alohida rayonlarini elektrlashtirish bo‘yicha komissiya tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ma’ruzalaridan tashkil asarlar ham ancha qimmatli materiallarga boy [11; 37].

Shuningdek, G.K. Rizenkamfning yirik asari 1910–1918-yillarda Turkistonning sug‘orish masalalarini o‘rgangan ko‘plab rus olimlari, muhandis, irrigator, gidrotexniklarining uzoq yillik tadqiqotlarining natijalarini o‘zida bayon etgan [12; 147].

GOELRO rejasining ikkita dasturiy (A va B) bo‘limlari mazmuni haqida G.M. Krjijanovskiy, B.A. Aleksandrovlarning asarlarida batafsil ma’lumot keltirilib, temir yo‘llarni elektrlashtirish, urushgacha bo‘lgan elektrlashtirish ko‘rsatkichlariga erishish, 10-15 yil ichida 30 dan ziyod tuman elektr stansiyalarini bunyod etish rejalashtirilganligi bayon etilgan [13].

1939-yilda chop etilgan “Nauka v Uzbekistane za 15 let” nomli to‘plamda energetikaning taraqqiyoti masalalari ham berilgan bo‘lib, ularda ilk bor elektr stansiyalar Toshkentda tramvay qatnovi boshlangan davr (1914-yil)ga to‘g‘ri keladi deya, yanglish berilgan [14; 120].

Tarixchi V.Y. Nepomnin asarida o‘lkadagi sanoat o‘zgarishlari partiya rahbarligida amalga oshirilganligi ta’kidlansa, O‘zbekiston tarixi qisqacha bayon etilgan K.Y. Jitov o‘z kitobida mustamlaka va sovet hukumati o‘lkadagi iqtisodiy islohotlarida paxtachilik hamda sug‘orish tizimlariga ko‘proq e’tibor qaratganini, S. Ziyodullayev va I. Manoxin ishlab chiqarish maqsadlari uchun elektr energiyasi deyarli ishlab chiqarilmaganligini yozadi [15].

B.A. Desyatchikovning o‘tgan asrning 40-yillari oxiri–50-yillari boshida elektrlashtirish tarixiga doir qator asarlarida O‘zbekistonni elektrlashtirish butun Sovet Ittifoqini elektrlashtirish rejasining uzviy bir qismi ekanligi, elektrlashtirish g‘oyasining chuqur ma’nosi faqat xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlari – sanoat, qishloq xo‘jaligi va transportda chuqur o‘zgarish yasashdagina emas, balki sovet mamlakati hududini, hamma respublika, viloyat va

tumanlarni ham keng ko‘lamda yagona elektrlashtirish rejasi ichiga olishdir, deb ta’kidlanadi [16].

A.V. Vinter asarida Rossiyada 50-yillarga qadar gidroelektrostansiyalar qurilishi tarixi batafsil yoritilgan bo‘lib, XX asr boshlarida (1913-yil) Rossiya imperiyasi aholi jon boshiga hisoblaganda AQShdan 17, Germaniyadan esa 6 baravar kam elektr energiya to‘g‘ri kelishi qayd etilgan [17; 4].

Texnik olim G‘. Rahimov o‘z kitobida elektrlashtirish, elektr energiyasi va toki, elektr stansiyalari, ularning iste’molchilari haqida tayanch tushunchalar berilgan, Y. Kostikov va A.S. Dansigerning risolalarida insoniyat uchun uzoq yillardan beri xizmat qilib kelayotgan yoritish asbobi – elektr chiroq va uning afzalliklari, V.A. Yarotskiy asarida elektromagnit telegrafi tarixi, O‘. To‘laganov asarida esa elektr lokomotivlar haqida ma’lumot berilgan [18].

Muhandis I.N. Oranskiy asarida qishloq xo‘jaligida elektr energiyani taqsimlash, qishloq joylarida elektr tarmoqlarini qurishning texnik masalalariga doir ma’lumotlar ochib berilgan [19; 67].

Sovet davrida chop etilgan yana qator asarlar mafkura tizgini ostida yozilgan bo‘lishiga qaramay, elektrlashtirishga oid muhim ma’lumotlarni o‘zida jamlagani bilan ahamiyatlidir [20].

Turkistondagi elektrlashtirish tarixi “Plan elektrifikatsii RSFSR” nomli to‘plamda ham berilgan bo‘lib (1955-yil), xususan, mazkur jarayonning Oktabr to‘ntarishidan avvalgi holati, Toshkentdagi barcha elektr stansiyalar va ularning quvvati haqida kengroq va ancha ma’lumotlarga boyligi bilan avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi. To‘plamdagi Turkistonni elektrlashtirish rejasi, muqaddima, iqtisodiy lavha elektrlashtirish tarixi va istiqbollari haqida tasavvur berish imkonini beradi [21].

C. Qoraboyevning risolasida “og‘ir industriyani har tomonlama rivojlantirish va butun xalq xo‘jaligini elektrlashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va madaniy revolyutsiyani amalga oshirish asosida mamlakatni sotsialistik industrlashtirish ko‘zda tutilgan”ligi, aynan paxtachilikni rivojlantirishda ham u asosiy omil ekanligi [22; 4], 1928-yilga kelibgina O‘zbekiston sanoati yalpi mahsulot ishlab chiqarish jihatidan 1913-yildagi darajaga yetganligi ko‘rsatilgan [22; 17].

Masalaga doir umumiy adabiyotlar doirasiga M.G. Vahobov, X.Sh. Inoyatov asarlarini kiritish mumkin [23]. Ularda o‘lkaning mustamlaka va sovet davridagi iqtisodiy, sanoat ko‘rsatkichlari, mintaqaga rus va chet el kapitalining kirib kelishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarga ko‘rsatgan ta’siri va qisman o‘lkada elektr stansiyalarning vujudga kelishi kabi masalalar yoritilgan.

Toshkent shahri bo‘yicha turli yillarda chop etilgan qisqacha ma’lumotnoma-yo‘lko‘rsatkich va boshqa ilmiy adabiyotlarda uning sanoat tarixiga bag‘ishlangan qismlarida elektrlashtirish tarixiga doir ma’lumotlar ham qisman bayon etilgan [24]. Bu asarlar shaharning sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini qamrab olgan, faktologik materiallarining boyligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. XX asrning 20-yillaridan boshlanib, 50-yillariga qadar davom etgan elektrlashtirish tarixshunosligi sohadagi umumiy o‘zgarishlar tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar, elektrlashtirishda ilg‘or sanalgan xorijiy mamlakatlarning statistikasi asosida emas, imperiya va sovet davrining ulkan tafovutlarga ega ko‘rsatkichlari asosida taqqoslangan, jarayon asosan sotsialistik qurilishning ajralmas bir qismi sifatida baholangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Отчет 1-го съезда экономических совещаний Туркреспублики / Составлен по стенографическим отчетам А.Н. Апухтиным, под ред. члена организационной комиссии съезда Д.П. Красновского. – Ташкент: Издание ТЭС, 1922.
2. *Qarang:* Русская электротехническая промышленность к началу 1921 г. – М.: Гос. техническое изд-во, 1921. – 28 с.; Экономическое районирование России. Доклад Госплана III Сессии ВЦИК. – М.: Издание ВЦИК, 1922. – 83 с.; Материалы Всероссийских промышленных переписей 1920 г. Вып. I. Список промышленных заведений г. Ташкента. – Ташкент, 1922. – 142 с.; Материалы Народного Комиссариата социального обеспечения. Ч. 1. – Ташкент, 1922. – 109 с.; Промышленная Россия 1923–1924 г. Справочная книга. Издание газеты «Экономическая жизнь». – Л., 1924. – 645 с.; Промышленность СССР в 1924 году. Ежегодник ВСНХ. Отчет III съезду Советов СССР. – М.: Центральное Управление печати, 1925. – 686 с.; Прилуцкий М.П. Бюллетень Волховской гидроэлектрической силовой установки №9. – Л., 1927. – С. 3.
3. Русская электротехническая промышленность к началу 1921 г. – М.: Гос. техническое изд-во, 1921.
4. Киуайн. Электрофикация Туркестанского края // «Военная мысль». – Ташкент, 1921. Август–декабрь.
5. Народное хозяйство Средней Азии в цифрах. – Ташкент: ЦСУ, 1930.
6. *Батафсил қаранг:* К истории плана электрификации Советской страны. Сборник документов и материалов 1918–1920 гг. / Под ред. И.А. Гладкова. – М.: Политиздат, 1952.
7. Развитие электрификации Советской страны 1921–1925 гг. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956.
8. Фомина Л.В. Осуществление плана ГОЭРЛО и электрификация промышленности в восстановительный период (1921–1925 гг.) // Очерки по истории народного хозяйства СССР. Статистический сборник. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1959.
9. Народное хозяйство Средней Азии в 1963 году. Стат. сборник. – Ташкент: «Узбекистан», 1964.
10. Шамрай Н.Г. Проблемы электрификации страны и их исследование в историко-партийной литературе: 1917–1985 гг.: Автореф. дис... д-ра ист. наук. – М., 1990.
11. Электрификация Туркестанского района. Составлено Государственной Комиссией по Электрификации России. – М., 1920.
12. Ризенкамф Г.К. Проблемы орошения Туркестана. Вып. 1. – М., 1921.
13. Кржижановский Г.М. Об электрификации (Речь на 8-м съезде Советов). – М.: Государственной изд-во, 1921. – С. 11; Александров Б.А. Сталинский план преобразования природы в действии. – М., 1952. – С. 153.
14. Наука в Узбекистане за 15 лет (1924–1939). – Ташкент, 1939.
15. Непомнин В.Я. Из истории Советского Узбекистана. – Ташкент: Объединенное издательство ЦК КП(б) Уз. «Правда Востока» и «Кзыл Узбекистан», 1946. – 39 с.; Житов К.Е. Краткий очерк истории Узбекской ССР. Ташкент: Гос. изд-во УзССР, 1947. – С. 34; Зиядуллаев С., Манохин И. Социалистическая промышленность Советского Узбекистана. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – С. 10.
16. Десятчиков Б.А. Ўзбекистонни электрлаштириш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 83 б.; Его же. Электрификация Узбекистана за 25 лет. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – 79 с.; Его же. Итоги и перспективы электрификации Узбекистана // «Звезда Востока». 1957, №1. – С. 96-105; Его же. Десятчиков Б.А. Итоги и перспективы электрификации Узбекистана. Окончание // «Звезда Востока». 1957, №2. – С. 133-140.

17. Винтер А.В. От первенцев советского гидроэлектростроительства к великим стройкам коммунизма. – М., 1951.
18. *Qarang*: Раҳимов Ғ. Электр. – Тошкент: Ўздавнашр, 1946. – 47 б.; Костиков Ю. Сиҳрли лампа. – Тошкент: Ўздавнашр, 1947. – 124 б.; Данцигер А.С. Электр лампа. – Тошкент: Ўздавнашр, 1953. – 45 б; Яроцкий В.А. Электромагнит телеграфи буюк рус кашфиётдир. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1955. – 44 б.; Тўлаганов Ў. Ҳозирги замон локомотивлари (паровоз, тепловоз, электровоз). – Тошкент: Ўздавнашр, 1958. – 32 б.
19. *Qarang:* Оранский И.Н. Қишлоқ хўжалик электр тармоқлари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948.
20. Воеводин П.И. Электричество – важнейший рычаг в строительстве социалистического хозяйства (К 10-летию плана ГОЭЛРО). – М., 1931. – 53 с.; Надточеев Д.И. Ленинская политика первоочередная всемерного развития тяжелой индустрии и борьба партии за ее осуществлении. – М.: «Знание», 1955. – 48 с.; Лященко П.И. История народного хозяйства СССР. Т. III. Социализм. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956. – 643 с.; Гладков И.А. От плана ГОЭЛРО к плану шестой десятилетки. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. – 351 с.; Струмлин С.Г. Планирование в СССР. – М.: Гос. Изд-во полит. литературы, 1957. – 95 с.; Кржижановский Г.М., Стеклов В.Ю. Ленинский план электрификации в действии. – М.: «Знание», 1959. – 47 с.
21. План электрификации РСФСР (Доклад VIII съезду Советов Государственной комиссии по электрификации России). Второе издание. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955.
22. Қорабоев С. Оғир саноат – Ўзбекистонда пахтачиликни ривожлантиришнинг моддий-техника базаси. Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1958.
23. Вахабов М.Г. Ташкент в период трех революций. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – 284 с.; Иноятов Х.Ш. Октябрьская революция в Узбекистане. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1958. – 319 с.
24. Хаиров А.Д. Ташкентская городская Дума в период трёх революций в Туркестане. Ташкент, 1948; Ташкент. Краткий справочник-путеводитель / Под общ. ред. Р.Г. Гуламова. – Ташкент: Гос. изд-во УзССР, 1957. – 184 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF THE FERGANA VALLEY, LOCATION AND ETHNO-DEMOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF ETHNOS (XIX - EARLY XXI CENTURIES)

Shamshidinov Bakhriddin Sharobiddin o‘g‘li
Andijan State Technical Institute
Assistant of the Department of Languages and Humanities

Abstract. In this article, based on historical-comparative methods, the ethnic composition of the population of the Fergana Valley from the beginning of the 19th century to the beginning of the 21st century, the territorial distribution of ethnic groups, and their ethnodemographic characteristics are analyzed. The dynamics of ethnic processes in the valley, changes during the period of Russian colonialism, the Soviet regime, and the years of independence are considered. The features of the location and demographic indicators of the main ethnic groups - Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, Russians, and others - are explained.

Keywords: Fergana Valley, ethnic composition, ethnodemography, Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, ethnic processes, population dynamics.

FARG‘ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi aholisining XIX asr boshlaridan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan davrdagi etnik tarkibi, etnoslarning hududiy joylashuvi va etnodemografik xususiyatlari tarixiy-qiyosiy metodlar asosida tahlil qilingan. Vodiydagi etnik jarayonlarning dinamikasi, Rossiya mustamlakachiligi davri, Sovet tuzumi va mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan. Asosiy etnoslarning — o‘zbek, tojik, qirg‘iz, rus va boshqa xalqlarning — joylashuv xususiyatlari va demografik ko‘rsatkichlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, etnik tarkib, etnodemografiya, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, etnik jarayonlar, aholi dinamikasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N07

Kirish. Farg‘ona vodiysi — Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashaydigan mintaqalaridan biri sifatida etnik xilma-xilligi va murakkab etnodemografik tuzilmasi bilan ajralib turadi. Ko‘hna ipak yo‘lining asosiy tugunlaridan biri bo‘lgan ushbu vodiy, tarix davomida turli xalqlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi vazifasini o‘tab kelgan. Sir-Daryo va uning irmoqlari sug‘organ bu unumdor o‘lka qadimdan dehqonchilik va hunarmandchilikning markaziga aylangan[1].

XIX asrdan boshlab vodiyning etnik xaritalashi keskin o‘zgarishlarga duch keldi: avval Rossiya imperiyasining bosqini, keyin esa Sovet davrida amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy

chegaralash jarayonlari mintaqaning etnosayosiy manzarasini tubdan yangilab yubordi. Ushbu maqola mazkur jarayonlarni tizimli tarzda yoritishga va zamonaviy etnodemografik vaziyatni tarixiy kontekstda baholashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Manbalar bazasi

Tadqiqot uchta asosiy manba turkumiga tayanadi. Birinchi turkum — rus va sovet davri aholi roʻyxatga olish materiallari: 1897 yilgi Butunrossiya roʻyxati, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillardagi SSSR roʻyxatlari. Ikkinchi turkum — mustaqillik davrida oʻtkazilgan milliy roʻyxatlar: Oʻzbekiston (1989, 2021), Tojikiston (2000, 2010), Qirgʻiziston (1999, 2009, 2019). Uchinchi turkum — arxiv hujjatlari: Oʻzbekiston Markaziy Davlat arxivi, Oʻzbekiston Milliy universiteti etnologiya kafedrasi ekspeditsiya hisobotlari, Rossiya Federal arxivi (RGIA) fondi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanildi: (1) tarixiy-demografik tahlil — vaqt oʻtishi bilan etnik guruhlar dinamikasini kuzatish; (2) qiyosiy-regional metod — vodiyning turli tumanlari boʻyicha etnik tarkibni solishtirish; (3) kartografik tahlil — etnoslarning joylashuvini fazoviy oʻrganish; (4) etnografik polevoy tadqiqotlar ma’lumotlari — 2015–2020 yillarda vodiyning 12 tumanida oʻtkazilgan ekspeditsiyalardan olingan natijalar. “Etnik guruh” tushunchasiga Bart (1969) yondashuvi asos qilib olindi: etniklikni emas, balki etnik chegaralarni oʻrganish. Sovet tasnif tizimida “millat” (natsionalnost) kategoriyasi va mustaqillik davridagi “milliy mansublik” tushunchalari oʻrtasidagi metodologik farq ham inobatga olindi. Sovet roʻyxatlari ma’muriy maqsadlarda tuzilganligi sababli, ulardagi “tojik” va “oʻzbek” kategoriyalari ayrim hollarda sun’iy ravishda shakllanganligi eslatib oʻtiladi.

XIX ASR BOSHLARIDA FARGʻONA VODIYSINING ETNIK TARKIBI

Qoʻqon xonligi davrida aholining etnik tuzilmasi

XIX asr boshlarida Fargʻona vodiysi Qoʻqon xonligi tarkibida boʻlib, vodiyning etnik tarkibi nisbatan barqaror va an’anaviy tuzilmaga ega edi. Aholining asosiy qismini oʻzbeklar tashkil etar, ular asosan vodiyning oʻrta va past qismlarida — Qoʻqon, Andijon, Margʻilon, Namangan atrofidagi vohalarda — zich joylashgan edi. Tojiklar esa koʻproq tog‘ oldi rayonlari va Isfara, Xoʻjand atrofidagi shahar markazlarida yashagan.

Qirgʻiz aholisi vodiyning tog‘lik va tog‘ oldi hududlarini — Qoradaryo, Norin daryolari boʻylarini va Alay vodiysi etaklarini — maskan tutgan edi. Ular asosan chorvachilik bilan shugʻullanib, yaylov va qishlovlarda koʻchib yurgan. Shuningdek, vodiyda ozchilik sifatida arablar, yahudiylar (asosan Margʻilon va Qoʻqonda), hindu savdogarlari va kichik afgʻon jamoalari ham mavjud boʻlgan[2].

Shahar va qishloq aholisidagi etnik tafovutlar

Shaharlar — Qoʻqon, Namangan, Andijon, Margʻilon — oʻzlarining koʻp qatlamli etnik tarkibi bilan ajralib turgan. Qoʻqon xonligi poytaxti Qoʻqonda savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shugʻullanuvchi oʻzbek, tojik va yahudiy aholisi bir-biriga yaqin mahallalarda yashagan. Tojik tili shahar madaniyati va hukmron doiralarda keng qoʻllanilgan, bu esa tojik-oʻzbek madaniy simbioziga zamin yaratgan. Qishloq aholisi esa etnik jihatdan birmuncha monolitroq boʻlib, oʻzbek qabilalari — ming, yuz, qipchoq, qirgʻiz, qatagʻan va boshqalar — oʻzlarining an’anaviy vatanlarida oʻrnashib olgan edi.

ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA ETNIK JARAYONLAR (1876—1917)

Fargʻona viloyatining tashkil etilishi va aholining etnik ahvoli

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, Farg‘ona viloyati tuzilgandan keyin vodiyning etnik manzarasi yangi omillar ta’sirida o‘zgara boshladi. Ruslarning kirib kelishi dastlab nisbatan sekin kechdi: ma’muriy apparat xodimlari, harbiy xizmatchilar va kazaklar asosan yangi shaharchalarda (“russkaya chast”) joylashdi. 1897-yilgi Rossiya imperiyasi umumiy aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyati aholisining 97 foizidan ortig‘ini mahalliy xalqlar tashkil etgan.

Ushbu ro‘yxat ma’lumotlari quyidagi etnik tasvirni ko‘rsatadi: o‘zbeklar va “sartlar” (o‘sha davrda ham o‘zbek, ham o‘troq tojik aholiga nisbatan qo‘llanilgan atama) umumiy aholining taxminan 75—80 foizini, qirg‘izlar 15 foizni, tojiklar 5—7 foizni, ruslar va boshqa yevropaliklar esa 2—3 foizni tashkil etgan[3].

Ko‘chirish siyosati va etnik o‘zgarishlar

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya mustamlaka ma’muriyati Markaziy Osiyoga, jumladan Farg‘ona vodiysiga rus va ukrain dehqonlarini ko‘chirib o‘tkazish siyosatini yuritdi. Biroq vodiyning zich aholisi va dehqonchilik uchun yaroqli yerlar etishmasligi tufayli bu jarayon Sibir va Qozog‘istonga nisbatan ancha sustroq kechdi. 1916-yilgi Farg‘ona qo‘zg‘oloni esa mustamlaka siyosatiga qarshi norozilikning ifodasi bo‘lib, u vodiyning etnodemografik vaziyatiga ayrim ta’sir ko‘rsatdi.

SOVET DAVRIDA ETNODEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR (1917—1991)

Milliy-hududiy chegaralash va uning oqibatlari

1924—1936-yillardagi milliy-hududiy chegaralash Farg‘ona vodiysining etnodemografik tarixida buyruq nuqtani belgiladi. Vodiy uch sovet respublikasi — O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston — o‘rtasida taqsimlandi. Ushbu chegaralash jarayonida etnik prinsipga emas, ko‘proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga tayanildi, bu esa keyingi o‘n yilliklarda son-sanoqsiz chegara nizolariga zamin yaratdi.

Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlari O‘zbekiston SSRga o‘tdi. Tojik aholisi zich yashaydigan Xo‘jand (Leninobod) Tojikiston SSRga berildi. O‘sh viloyati Qirg‘iziston SSRga kiritildi, biroq unda o‘zbek aholisi soni tojik va qirg‘iz aholisidan kam emas edi[4].

Industrializatsiya va etnik migratsiya

Sovet industrializatsiyasi davrida (1930—1960-yillar) Farg‘ona vodiysida sanoat korxonalari qurilishi bilan bog‘liq holda aholining migratsion harakati kuchaydi. Rossiya, Ukraina va boshqa Sovet respublikalaridan malakali mutaxassislar, muhandislar va ishchilar kirib keldi. Bu davr vodiydagi yevropalik aholining eng ko‘p bo‘lgan davri hisoblanadi. Masalan, 1959-yilgi ro‘yxat ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida ruslar umumiy aholining 12—15 foizini tashkil etgan[5].

1989-yili Farg‘ona voqealari va etnodemografik ta’siri

1989-yil may-iyun oylarida Farg‘ona shahri atrofida bo‘lib o‘tgan etnoslaro to‘qnashuvlar, birinchi navbatda o‘zbek va mesketin turklari o‘rtasida, vodiyning etnik tarixida fojiali iz qoldirdi. Ushbu voqealar natijasida mesketin turklari deyarli to‘liq O‘zbekistondan ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Shuningdek, bu voqealar Sovet tuzumining so‘ngi yillaridagi etnoslaro munosabatlardagi keskinlikning ko‘zgusi bo‘ldi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA ETNIK TARKIB VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLAR (1991—XXI ASR BOSHLARI)

Mustaqillikdan keyingi migratsiya va etnik o‘zgarishlar

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin vodiyning etnik manzarasi yana bir keskin siljishga duch keldi. Ruslar, ukrainlar va boshqa yevropalik aholining Rossiya va Yevropaga ko‘chib ketishi jadallashdi: 1989—2000-yillar orasida rus aholisi deyarli ikki baravar kamaydi. Milliy davlatchilik va o‘zbek tilining davlat tili maqomini olishi ushbu ko‘chish jarayonini tezlashtirdi.

Ayni paytda Afg‘onistondan, xususan tojik va o‘zbek millatiga mansub qochoqlar oqimi vodiyga ayrim ijtimoiy ta’sir ko‘rsatdi, biroq bu oqim nisbatan cheklangan miqyosda bo‘ldi[6].

2000-yillarda aholining etnik tarkibi

XXI asr boshlarida Farg‘ona vodiysi (O‘zbekiston qismi) aholisining etnik tarkibi quyidagicha tasvirlanadi: o‘zbeklar 90—92 foiz, tojiklar 4—5 foiz, qirg‘izlar 1—2 foiz, ruslar va boshqa yevropaliklar 1—2 foiz. Qirg‘iziston (O‘sh va Jalolobod viloyatlari) tarkibidagi vodiy qismida o‘zbeklar 40—45 foizni, qirg‘izlar 50—55 foizni tashkil etadi. 2010-yildagi O‘sh voqealari ushbu mintaqadagi etnoslaro munosabatlar hali ham nozikligini yana bir bor namoyon etdi[7].

Etnodemografik xususiyatlar: tug‘ilish, o‘lim va yosh tuzilmasi

Farg‘ona vodiysi aholisi Markaziy Osiyoning eng yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichiga ega mintaqalaridan biri sifatida ajralib turadi. O‘zbek va tojik aholisida an’anaviy oilaviy qadriyatlar va ko‘p bolalilik me’yorlari saqlanib qolgan. Yosh tuzilmasi nuqtai nazaridan vodiy aholisi ancha yosh: 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar aholining 30—35 foizini tashkil etadi. Bu holat mehnat bozoriga katta bosim o‘tkazib, ichki va tashqi migratsiyani rag‘batlantiradi.

ETNOSLAR JOYLASHUVINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Hududiy etnik konsentratsiya

Farg‘ona vodiysida etnoslarning joylashuvi aniq hududiy qonuniyatlarga ega. Vodiyning markaziy past tekislik qismi (Andijon, Namangan, Farg‘ona shaharlari atrofi) o‘zbek aholisining asosiy vatani hisoblanadi. Tojik aholisi ko‘proq tog‘ oldi zonalarda — Isfara, Konibodom, Asht rayonlarida — joylashgan. Qirg‘izlar vodiyni o‘rab turgan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida — Alay, Sufi-Qo‘rg‘on, Nookat tomonlarida — yashaydi. Shaharlarda esa etnik aralashuv ko‘proq kuzatiladi[8].

Shahar va qishloq joylashuvidagi etnik tafovut

Tarixan shaharlar etnik xilma-xilligining markazlari bo‘lgan, biroq mustaqillikdan keyin ko‘pchilik shaharlar o‘zbek aholisining ulushi ortishi bilan birga etnik jihatdan yanada monolitlashdi. Qishloq joylarda esa etnik gomogenlik kuchliroq namoyon bo‘lib, ayrim rayonlarda deyarli toza o‘zbek, tojik yoki qirg‘iz qishloqlari mavjud.

Xulosa. Farg‘ona vodiysining etnik tarixi XIX asrdan XXI asr boshlarigacha bo‘lgan davrda uch katta bosqichni qamrab oladi: Qo‘qon xonligi davrining nisbatan barqaror an’anaviy etnik tuzilmasi; Rossiya mustamlakachiligi va Sovet tuzumi davrida yuz bergan tubdan va ko‘p hollarda zo‘rlik bilan o‘tkazilgan o‘zgarishlar; va mustaqillik yillaridagi yangi etnodemografik reallik. Ushbu davr davomida vodiyning etnik manzarasini shakllantirgan asosiy omillar: hududiy chegaralash siyosati, industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya to‘lqinlari, demografik o‘sishning turli sur’atlari va etnoslaro munosabatlardagi keskinliklar bo‘ldi.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi — uchta mustaqil davlat o‘rtasida taqsimlangan, etnik jihatdan nozik va murakkab mintaqa sifatida — barqarorlik va rivojlanish yo‘lida o‘z etnodemografik xususiyatlarini hisobga olgan holda mutavozin siyosat yuritishni talab etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. — Л.: АН СССР, 1927.
2. Набиев Р.А. Фарғона водийсида этнодемографик жараёнлар. — Тошкент: Фан, 2003.
3. Абашин С.Н. Национализмы в Средней Азии. — СПб.: Алетейя, 2007.
4. Россия империяси 1897 йилги умумий аҳоли рўйхати материаллари. Фарғона вилояти.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Аҳоли рўйхати маълумотлари. 1989, 2000.
6. Олимов М., Олимова С. Таджикистан на пороге перемен. — М.: Центр стратегических и политических исследований, 1999.
7. Элебаева А., Омуралиев Н. Межэтнические конфликты в Кыргызстане. — Бишкек, 2000.
8. Ҳасанов О. Ўзбекистон демографияси. — Тошкент: Академия, 2010.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

FFECTIVE DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN THE REGIONAL ECONOMY

Khudayberganov Dilshod Tukhtabayevich
Professor of the Department of Tourism,
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni
Doctor of Economic Sciences, Professor
E-mail: dilshodx@bk.ru

Achilova Firuza Kurbanovna
Independent Researcher,
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
E-mail: achilovaf@gmail.com

Abstract. This article discusses the need for effective development of the service sector in the development of the regional economy, its existing opportunities and priority areas for their implementation. It also presents conclusions and proposals for the effective development of the service sector in the regional economy.

Keywords: region, regional economy, service, service sector, direction, research.

MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Turizm kafedrasi professori, i.f.d., professor

Achilova Firuza Kurbanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
i.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyoti taraqqiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va ularni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, xizmat, xizmatlar sohasi, yo‘nalish, tadqiqot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N08

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli transformatsiya va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida xizmatlar sohasi mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida

xizmatlar sektorining ulushi muttasil oshib bormoqda. Xususan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yetakchi drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasining samarali rivojlanishi hududiy bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, turizm, transport-logistika, savdo, moliyaviy xizmatlar, ta’lim va axborot-kommunikatsiya xizmatlari kabi yo‘nalishlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Soha bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar xizmatlar sektorining mintaqa iqtisodiyotidagi o‘rni, strukturaviy xususiyatlari va rivojlanish mexanizmlari masalalarini turli nuqtai nazardan yoritadi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga qo‘shayotgan ulkan hissasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli global tadqiqotlarda keng tahlil qilingan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda xizmatlar sektorining mintaqaviy iqtisodiy o‘sishdagi roli keng yoritilgan. Jumladan, Philip Kotler xizmatlar marketingi nazariyasini ishlab chiqib, xizmatlar sifati va iste’molchi ehtiyojlariga moslashuv raqobatbardoshlikning asosiy omili ekanligini asoslagan.

Michael Porter esa hududiy raqobat ustunliklari va klaster nazariyasi orqali xizmatlar tarmoqlarini mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish drayveri sifatida talqin etadi. Uning fikricha, xizmatlar sohasi sanoat va innovatsion faoliyat bilan integratsiyalashgan holda hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Shuningdek, Manuel Castells axborotlashgan jamiyat nazariyasida xizmatlar sektorining raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, zamonaviy iqtisodiyotda bilim va axborotga asoslangan xizmatlar mintaqalar rivojlanishining strategik omiliga aylanmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan World Bank tadqiqotlarida ham xizmatlar sektorining bandlik, daromad va iqtisodiy diversifikatsiyaga ta’siri statistik jihatdan asoslab berilgan.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan xizmatlar sohasining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni keng tadqiq etilgan. Jumladan, bir qator olimlarimiz iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida xizmatlar sektorini rivojlantirishning institutsional va tarkibiy omillarini tahlil qilgan, ilmiy ishlarida bandlik va mehnat bozori rivojida xizmatlar sohasining ahamiyatini asoslab, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi rolini ko‘rsatib bergan.

Shuningdek, respublikamiz olimlari tomonidan xizmatlar sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish, turizm va kichik biznesni rivojlantirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Umuman olganda, xorijiy va milliy tadqiqotlar xizmatlar sohasini mintaqaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Biroq mintaqalar kesimida samarali rivojlantirish yo‘nalishlarini kompleks yondashuv asosida ishlab chiqish masalasi hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash va ilmiy asoslash maqsadida kompleks

metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional va funksional yondashuvlar uyg‘unligiga asoslandi.

Avvalo, xizmatlar sohasining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida tizimli tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu yondashuv xizmatlar sektorini hududiy iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish, uning boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.

Statistik tahlil usullari orqali xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari — yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi, xizmatlar hajmi va tarkibiy o‘zgarishlari o‘rganildi. Rasmiy statistik ma’lumotlar tahlilida qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, mintaqalar kesimida xizmatlar sektorining rivojlanish darajasini baholashda iqtisodiy-taqqoslash, guruhlash hamda indeks usullari qo‘llanildi. Bu usullar xizmatlar sohasining hududlar bo‘yicha tafovutlarini aniqlash va samarali rivojlanish omillarini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash va ekspert baholash usullaridan ham foydalanildi. Ushbu usullar asosida xizmatlar sektorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda strategik takliflar ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot barqaror rivojlanish konsepsiyasi, raqamli iqtisodiyot tamoyillari hamda hududiy iqtisodiy integratsiya nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Natijada mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Mintaqada xizmatlar sohasi moddiy mahsulot yaratmasdan, iste’molchilar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat turlaridan tarkib topadi. Chunki, uning tarkibi savdo, transport, moliya, axborot texnologiyalari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm va boshqa xizmat turlari hisobiga taraqqiy qiladi. Shu bois, mintaqa iqtisodiyotida mazkur sohani rivojlantirish yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiya jozibadorligini kuchaytirish va iqtisodiyot diversifikatsiyasini ta’minlash uchun zarur bo‘ladi. Bu borada mintaqada xizmatlar sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, institutsional islohotlar, investitsiya jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va hududiy ixtisoslashuv asosida xizmatlar sektori barqaror iqtisodiy o‘sishni taqozo qiladi.

Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo‘nalishlari turli olib borilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Xususan, tadqiqotlarga asosan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy ustuvor vazifa uni liberallashtirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hisoblanadi [1]. Ushbu jihat bevosita iqtisodiyotga o‘tish sharoitiga xos bo‘lib, iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasini uyg‘unlikda taraqqiy qilishini taqozo qiladi. Boshqa xil tadqiqotlarning yo‘nalishi esa xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uning iqtisodiy asoslariga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, ushbu tadqiqot xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini taklif qilib, unda iqtisodiy mexanizmning asosiy va yordamchi elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolari ko‘rib chiqiladi [2].

Yana bir tadqiqotlarda xizmatlar sohasining zamonaviy rivojlanishini raqamli iqtisodiyot sohasini taraqqiy qildirish aks ettiradi. Ya’ni, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish

sharoitida xizmat koʻrsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish bugungi kunda milliy iqtisodiyot oldida turgan vazifalardan biri sifatida raqamli texnologiyalar asosida sifat va samaradorlikni oshirish yoʻnalishlarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi [3]. Ushbu tadqiqotga bogʻliq holda yana bir tadqiqotda xizmatlar sohasining taraqqiyoti bevosita geoaxborot va multimedia texnologiyalari asosida kengayib boradi. Jumladan, yangi yoʻnalishni shakllantirishda geoaxborot va multimedia texnologiyalaridan foydalanish muhim rol oʻynaydi [4]. Boshqa tadqiqotlarda esa mamlakatimizda xizmat koʻrsatish sohasi rivojlanishining tarkibi tadqiq qilinadi. Unga asosan, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatish sohasining rivojlanishining xususiyatlari, muammolari, afzalliklari va kamchiliklari hamda oʻrni muhokama qilinadi [5].

Navbatdagi boshqa xil tadqiqotlarga koʻra, xizmatlar sohalari raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligini oshirish va hududlarning obyektiv mavjud afzalliklarini oshirish hamda biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish bevosita innovatsion rivojlanish bilan bogʻliq boʻladi. Chunki, xizmatlar sohasi mintaqaviy bozorlarning eng dinamik va tez rivojlanayotgan segmenti va mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligi xususiyatlarini aks ettiradi. Bu borada xizmatlar sohalarining innovatsion rivojlantirishga, aholining jamoat tovarlariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan xavflarni diversifikatsiya qilishda xizmatlar sohalari aktivlari orqali rentabellikning oʻsishi hududlarning muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi [6].

Oʻrganilgan boshqa tadqiqotning metodologik asosini esa fundamental fan va ilmiy bilimlarning maxsus usullari, zamonaviy iqtisodiy nazariyaning konseptual qoidalari hamda xizmat koʻrsatish sohalarining faoliyati va rivojlanishi muammolari bilan shugʻullanuvchi xorijiy olimlarning ilmiy amaliyotlari tashkil etadi. Unga asosan, xizmat koʻrsatish sohasining asosiy tendensiyalari va gʻayritabiiy rivojlanishini shakllantirish xizmat koʻrsatish mohiyatiga asoslangan holda oʻziga xos belgilar va tasniflash xususiyatlariga ega boʻladi [7]. Boshqa yana bir tadqiqotlar esa qishloq joylarida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirishni ilmiy-nazariy tadqiq qiladi. Unga binoan, bu tadqiqotda Oʻzbekistonning qishloq joylarida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda maqsadli davlat dasturlari va xalqaro tajribalarga e’tibor qaratilgan [8].

Darhaqiqat, xizmat koʻrsatish sohasidagi asosiy muammolar, ya’ni ishchi kuchi va bandlikning oshishi moliyaviy xizmatlar, togʻ-kon, ijaraga berish, muhandislik va korxonalarga xizmat koʻrsatish xizmatlari, savdo, avtomobillar, uy-roʻzgʻor buyumlari va maxsus kiyim-kechak buyumlarini ta’mirlash xizmatlari, mehmonxonalar va restoranlar faoliyati xizmatlari kabi turlar va ularning taraqqiyotiga bevosita bogʻliq boʻladi. Bu borada xizmat koʻrsatish sohasining katta eksport salohiyatiga ega boʻlishi va ularning qismlarining pasayishi va milliy iqtisodiyotdan ishlab chiqarish majburiyatlarining qisqarishigacha davom etadigan tendensiyaga ega boʻladi. Unga asosan, eng chekka hududlarda sugʻurta xizmatlari, intellektual mulk bilan bogʻliq royalti va boshqa xizmatlar, biznes xizmatlari, madaniy va dam olish xizmatlari va davlat xizmatlari kabilarni ta’minlash mumkin boʻladi.

Fikrimizcha, mintaqada xizmatlar sohasini quyidagi strategik yoʻnalishlar asosida keng taraqqiy qildirish maqsadga muvofiq:

- institutsional islohotlar. Bu borada mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish avvalo me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni talab qiladi. Bunda litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, soliq imtiyozlari joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini

kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, jahon banki tadqiqotlariga koʻra, biznes yuritish shart-sharoitlari yengillashtirilgan hududlarda xizmatlar sohasi oʻsish surʼati yuqori boʻladi.

- raqamlashtirish va innovatsiya. Chunki, zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi raqamli texnologiyalarsiz samarali rivojlana olmaydi. Raqamlashtirish orqali onlayn xizmatlar koʻlami kengayadi, vaqt va xarajatlar tejaladi hamda shaffoflik oshadi. Masalan, Amazon va Alibaba Group elektron savdo platformalari xizmatlar bozori transformatsiyasiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Shu bois, mintaqalarda elektron toʻlov tizimlari, onlayn bronlashtirish, raqamli marketing va CRM tizimlarini joriy etish xizmatlar samaradorligini oshiradi.

- infratuzilmani rivojlantirish. Unga koʻra, xizmatlar sohasining rivoji zamonaviy infratuzilmasiz taraqqiy qila olmaydi. Bunda transport kommunikatsiyalari, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, logistika markazlari hamda savdo va xizmat koʻrsatish obyektlari muhim oʻrin tutadi. Infratuzilma qanchalik rivojlangan boʻlsa, xizmatlar sifati va hajmi shunchalik yuqori boʻladi.

Shuningdek, mintaqada asosiy tarmoqlar boʻyicha rivojlantirish quyidagi yoʻnalishlardan iborat boʻladi:

- savdo va elektron tijorat. Bu borada savdo xizmatlari mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy drayveri boʻlib hisoblanadi. Elektron tijoratni rivojlantirish mahalliy mahsulotlarni yangi bozorlarga olib chiqish, logistika tizimini takomillashtirish va kichik biznes ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

- turizm va mehmondoʻstlik. Unga binoan, turizm xizmatlari mintaqaning iqtisodiy oʻsish nuqtasiga aylanishi mumkin. Buning uchun turistik infratuzilmani yaxshilash, milliy brendni shakllantirish va xizmat sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu boʻyicha World Tourism Organization maʼlumotlariga koʻra, turizm sohasida bitta ish oʻrnining yaratilishi esa qoʻshimcha 1,5-2 nafar yangi ish oʻrnini vujudga keltiradi.

- transport va logistika xizmatlari. Yaʼni, transport xizmatlari iqtisodiyotning “qon tomiri” boʻlib hisoblanadi. Mintaqada logistika markazlarini tashkil etish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish mumkin boʻladi.

- moliyaviy xizmatlar. Bu boʻyicha bank, sugʻurta va mikromoliya xizmatlarini kengaytirish tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlaydi, investitsiya faolligini oshiradi va pul aylanmasini tezlashtiradi. Moliyaviy texnologiyalar yechimlarini joriy etish esa xizmatlar bozorini modernizatsiya qiladi.

Yuqoridagilar asosida, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish yoʻnalishlarini amalga oshirish tizimi taklif etildi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlarini amalga oshirish tizimi

Ushbu 1-rasmda keltirilgan sxema xizmatlar sohasini strategik rivojlantirishning kompleks asosini ifodalaydi. Ushbu modelning tizimli tahlilini amalga oshirdik. Bu borada sxemaning markazida strategik yo‘nalish xizmatlar sohasini rivojlantirishda asosiy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm xizmatlar sektorini rivojlantirish va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish kabi yo‘nalish bilan uzviy bog‘langan. Ya’ni, strategiya bir vaqtning o‘zida tarmoq ichida sifatli o‘sishni va tarmoqlararo integratsiyani ta’minlaydi.

Yuqori bloklar tahliliga keladigan bo‘lsak, xizmatlar industriyasi xizmatlar sohasining institutsional va iqtisodiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu industriya xizmatlar infratuzilmasi, xizmat turlari tasnifi va innovatsion yondashuvlar bilan bog‘langan. Xizmatlar turlari tasnifiga keladigan bo‘lsak, ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar, moliyaviy xizmatlar va axborot xizmatlari va boshqalarga ajratishni anglatadi. Tasnif esa strategik rejalashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Infratuzilma va farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni xizmatlar infratuzilmasi asoslaydi. Bu o‘z ichiga transport tarmoqlari, kommunikatsiya tizimlari, bank-moliya muassasalari va axborot texnologiyalari kabi unsurlarni qamrab oladi. Ushbu infratuzilma orqali aholi turmush farovonligini oshirishga erishiladi. Bu borada xizmatlar sohasi rivojlanishi bandlikni oshiradi, daromadlarni ko‘paytiradi, hayot sifatini yaxshilaydi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ya’ni, sxema natijaviy maqsad sifatida aholi farovonligini ko‘rsatadi.

Ilmiy-tadqiqotning o‘rniga keladigan bo‘lsak, ilmiy-tadqiqot bloki innovatsiyalar, raqamlashtirish, yangi xizmat turlarini yaratish va samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar xizmatlar sektorini rivojlantirishga va xizmat turlari tasnifini takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holatda nuqtali chiziqlar ilmiy yondashuvning barcha jarayonlarga bilvosita ta’sirini ko‘rsatadi.

5. Kompleks yondashuv sifatida quyi qismdagi unsurlar keltirilgan. Bu borada xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish bevosita tarmoqlararo integratsiyani anglatadi. Ushbu integratsiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, ijtimoiy, turizm va boshqa sohalarni o‘z ichiga birlashtiradi. Ya’ni, bu borada xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan bog‘langan va ularni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur sxemaning umumiy mantig‘iga keladigan bo‘lsak, bu ilmiy-tadqiqot, xizmatlar sektorini rivojlantirish, strategik boshqaruv, kompleks integratsiya, iqtisodiyot tarmoqlari rivoji va aholi farovonligi kabi zanjirni ko‘rsatadi. Ushbu sxema xizmatlar sohasini tizimli, strategik, innovatsion va tarmoqlararo integratsiyalashgan asosda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yerda eng asosiy g‘oya sifatida shuni aytish lozimki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini birlashtiruvchi va aholi farovonligini ta’minlovchi drayver soha ekanligini tasdiqlaydi.

Shular bilan birgalikda, kadrlar salohiyatini oshirish borasida xizmatlar sohasida inson kapitali hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, kasbiy ta’lim dasturlarini yangilash, dual ta’lim tizimini joriy etish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Oliy ta’lim muassasalari va biznes o‘rtasidagi hamkorlik qilish esa samarali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kichik biznes va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan mintaqaviy xizmatlar bozorining asosiy ishtirokchilari kichik biznes subyektlari bo‘lib namoyon bo‘ladi. Ularni qo‘llab-quvvatlash orqali raqobat muhiti yaxshilanadi, xizmatlar turlari ko‘payadi va bozorda innovatsiyalar joriy etiladi. Soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar bu jarayonni rag‘batlantiradi.

Investitsiyalarni jalb qilish borasida esa xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarur. Investitsiya muhitini yaxshilash mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi.

Eksportbop xizmatlarni rivojlantirish yuzasidan mintaqalarda IT-autsorsing, transport-logistika, turizm va ta’lim xizmatlarini eksport qilish imkoniyati mavjud. Bu borada xizmatlar eksporti bevosita valyuta tushumini oshiradi, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi va xalqaro imidjni mustahkamlaydi.

Barqaror va inklyuziv rivojlanish yuzasidan xizmatlar sohasini rivojlantirishda ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va hududiy muvozanatni ta’minlash lozim. Unga ko‘ra, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida xizmatlar ko‘rsatish atrof-muhit muhofazasiga xizmat qiladi. Shularga muvofiq, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo‘nalishlari

№	Rivojlantirish yo‘nalishi	Asosiy mazmun	Kutilayotgan natija
1	Institutsional islohotlar	Huquqiy bazani takomillashtirish va litsenziyalashni soddalashtirish	Biznes muhitini yaxshilash va investitsiya hajmini oshirish
2	Raqamlashtirish	Elektron xizmatlar va onlayn platformalar	Xizmatlar tezligi va shaffofligini oshirish
3	Innovatsion xizmat turlari	IT, logistika va konsalting	Qo‘shimcha qiymat yaratish
4	Turizmni rivojlantirish	Infratuzilmani modernizatsiya qilish	Valyuta tushumi va bandlikni oshirish
5	Kadrlar tayyorlash	Malakali mutaxassislar tayyorlash	Xizmat sifatini oshirish
6	Investitsiya jalb qilish	Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash	Yangi ish o‘rinlarini yaratish
7	Logistika va transport xizmatlari	Zamonaviy logistika markazlari	Savdo aylanmasini kengaytirish
8	Moliyaviy xizmatlar rivoji	Bank, sug‘urta va mikromoliya xizmatlari	Tadbirkorlik faolligini oshirish
9	Hududiy ixtisoslashuv	Mintaqa imkoniyatlariga mos xizmat turlari	Raqobatbardoshlikni kuchaytirish
10	Davlat-xususiy sheriklik	Sheriklik mexanizmlarini joriy etish	Infratuzilmani yaxshilash

Mazkur keltirilgan 1-jadvalga asosan, institutsional islohotlar holatini ko‘rsatib chiqadigan bo‘lsak, bu borada mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini rivojlantirish avvalo huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishni amalga oshirishdan boshlanadi. Soliq imtiyozlari, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish biznes yuritishni yengillashtiradi. Bu orqali xususiy sektor faolligi oshadi, investitsiya muhiti yaxshilanadi va raqobat muhiti shakllanadi. Raqamlashtirish va elektron xizmatlar ta’siri bo‘yicha, raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirishning asosiy drayveri bo‘lib hisoblanadi. Elektron to‘lov tizimlari, onlayn buyurtmalar va “yagona darcha” platformalari xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtiradi. Masalan, olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli infratuzilmasi rivojlangan hududlarda xizmatlar sektori yalpi hududiy mahsulotning 50-60 % gacha qismini tashkil etadi.

Innovatsion xizmat turlarini joriy etish bo‘yicha IT xizmatlari, autsorsing, logistika va konsalting kabi sohalar yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadi. Masalan, Singapur iqtisodiyotida xizmatlar ulushi 70 foizdan ortiqni tashkil etadi va bu innovatsion xizmatlar hisobiga amalga oshgan. Turizm xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha ushbu turizm sohasi mintaqaviy iqtisodiyot uchun muhim drayver bo‘lib hisoblanadi. Mehmonxona, restoran, gid xizmatlari va transport infratuzilmasi rivojlanishi mahalliy aholi bandligini oshiradi. UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, turizm sohasida har 1 ta ish o‘rni yana 1,5 ta qo‘shimcha ish o‘rni yaratadi.

Kadrlar salohiyatini oshirish yuzasidan xizmatlar sohasi inson kapitaliga tayanadi. Kasb-hunar markazlari, oliy ta’lim muassasalari va qayta tayyorlash dasturlari xizmat sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Malakali kadrlar innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Investitsiya va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashda xususiy sektor faolligini oshirish orqali yangi xizmat turlari paydo bo‘ladi. Davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar berish muhim ahamiyatga ega. OECD tahlillariga ko‘ra, xizmatlar

sohasiga investitsiya kiritish iqtisodiy o‘sish sur’atlarini 1,2-1,5 barobarga oshiradi. Logistika va transport xizmatlarini modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan mintaqada logistika markazlari, transport terminallari va raqamli boshqaruv tizimlari rivojlantirilishi tashqi va ichki savdoni rag‘batlantiradi. Bu esa mintaqaning tranzit salohiyatini oshiradi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy xizmatlar infratuzilmasi tarkibida bank, sug‘urta va mikromoliya xizmatlari tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Elektron banking va mobil to‘lov tizimlari xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi. Hududiy ixtisoslashuvga ko‘ra, har bir mintaqaning resurs salohiyati, geografik joylashuvi va mehnat bozori xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xizmat turlarini ixtisoslashtirish lozim. Masalan, sanoat rivojlangan hududlarda logistika va injiniring xizmatlari, turistik hududlarda esa mehmonxona va madaniy xizmatlar ustuvor bo‘lishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari bo‘yicha ushbu loyihalar orqali infratuzilma obyektlarini qurish va boshqarish samarali amalga oshiriladi. Bu budjet xarajatlarini qisqartiradi va xizmat sifatini oshiradi.

Umuman olganda, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Institutsional islohotlar, raqamlashtirish, investitsiya jalb qilish, kadrlar tayyorlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilganda yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Unga asosan, xizmatlar sohasi yalpi hududiy mahsulot ulushini oshiradi, aholi bandligi, daromadlar o‘sishi va mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi. Bu borada Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslar, agrar salohiyat va tarixiy-madaniy merosga boy hudud sifatida xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Viloyat markazi Qarshi va turizm markazi Shahrisabz xizmatlar bozorining asosiy drayverlari bo‘lib hisoblanadi. Shahrisabz shahri YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy obidalarga ega. Madaniy turizm, ziyorat turizmi va agroturizmni rivojlantirish mehmonxona va xostellar sonini ko‘paytirish, gid va ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish, milliy hunarmandchilik va suvenir bozorini rivojlantirish orqali valyuta tushumini oshirish imkonini beradi. Viloyat neft-gaz va energetika sohasi bilan ajralib turadi. Sanoat korxonalariga logistika, texnik servis, konsalting, ta’mirlash va autsorsing xizmatlarini rivojlantirish orqali yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish mumkin. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud sifatida agroservis markazlari, mahsulotni saqlash va qayta ishlash hamda agrologistika xizmatlari yo‘nalishlarini kuchaytirish zarur. Bu esa fermerlar daromadini oshiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi.

Axborot texnologiyalari xizmatlarini joriy etish elektron savdo, onlayn to‘lov tizimlari va davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Yoshlar bandligini ta’minlashda IT-parklar va startap loyihalar muhim ahamiyatga ega. Bank, sug‘urta va mikromoliya xizmatlarini kengaytirish tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Qarshi shahrida zamonaviy savdo markazlari va xizmat ko‘rsatish komplekslarini tashkil etish ichki bozor faolligini oshiradi.

Qashqadaryo viloyatining hududi strategik joylashuvga egaligi bilan ajralib turadi. Yuk tashish, omborxona va logistika markazlarini tashkil etish orqali mintaqaning tranzit imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish uchun turizm, sanoatga xizmat ko‘rsatish, agroservis, raqamli texnologiyalar va logistika yo‘nalishlariga ustuvor ahamiyat berish lozim. Bu yalpi hududiy mahsulot ulushini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, aholi daromadini ko‘paytirib, iqtisodiy barqarorlikni

ta’minlaydi. Kompleks va innovatsion yondashuv orqali Qashqadaryo viloyati xizmatlar sohasida yuqori sur’atlarda o‘sishga erishishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa shuki, mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Institutsional islohotlar, raqamlashtirish, infratuzilma rivoji, kadrlar salohiyati va investitsiyalarni jalb qilish bevosita asosiy strategik yo‘nalishlar bo‘lib hisoblanadi. Bu bo‘yicha xizmatlar sohasi iqtisodiyot diversifikatsiyasini ta’minlaydi, aholi bandligini oshiradi, investitsiya jozibadorligini kuchaytiradi va mintaqaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois, xizmatlar sohasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, Qashqadaryo viloyati mintaqasi iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- aholi daromadlarining narxlari indeksining o‘sishidan oshib ketadigan sur’atlarda sohaning barqaror o‘sishini ta’minlash;
- asosiy ixtiyoriy ko‘rinishdagi xizmatlar ta’minoti va mavjudligini ta’minlash;
- iqtisodiy faol aholiga o‘z daromadlari uchun asosiy ehtiyojlarni qondirishni ta’minlashga imkon beradigan iqtisodiy ongni shakllantirish;
- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish va anglash ehtiyojlarini rag‘batlantirish uchun jamoat institutlarini shakllantirish;
- iqtisodiyotning postindustrial rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan xizmatlarning o‘rtacha darajasidan o‘sishini ta’minlash;
- milliy transport va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish;
- yoritish xizmatlarini rivojlantirish borasida investitsiyalar jalb qilish va qo‘shimcha yoritish tizimini rivojlantirish;
- yuqori samarali va natijador bo‘lgan sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish;
- iqtisodiyotning innovatsion-ilmiy rivojlanishi va farovonligini rag‘batlantirish;
- intellektual kuchga bo‘lgan huquqni himoya qilish fuqarolik jamiyatida “intellektual” kuch toifasini institutlashtirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xudayberganov D.T. Mintaqada xizmat turlaridan samarali rivojlantirish yo‘nalishlari. // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари, 8(3), 2023. - 94 b. ISSN:2181-1342 (Online).
2. Мардонов Б. Пути совершенствования экономических механизмов развития сферы услуг (на примере Узбекистана). // Вопросы экономической политики, №3 (2024). - с. 5-12.
3. Ochilov A.O., Xudoyorov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo‘llari. // “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy-elektron jurnali, №2, 2024. - 33 б.
4. https://cedr.uz/2024/10/04/mintaqalarning-ijtimoiy-iqtisodiyrivojlanishini-raqamlitexnologiyalar-asosida-tahlil-qilishuslublari/
5. Tokhirov R.S., Numonov F.N. Dependence and level of influence of the services sector on the economy of Uzbekistan. // Экономика и социум, №7(110), 2023. - p. 318.
6. Pavlova A.V., Novikova A.V., Pogulich O.V., Chudnovskiy A.D., Zakirova C.S., Kaptelinina E.A., Gafurova E.S. Matveeva E.S. (2016). Organizational and Economic Mechanism of Services Spheres Innovative Development Maintenance as a Component of Management

of Regional Economy. // International Review of Management and Marketing, 6(2S), 288-293. Retrieved from https://econjournals.com/index.php/irmm/article/view/2063
7. https://otherreferats.allbest.ru/economy/01330564_0.html#google_vignette
8. Erkin Y. (2025). Goals and Tasks of Developing The Service Sector in Rural Areas and Creating New Jobs in The Sector. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 38(4), 70-74. https://doi.org/10.51699/economics.v38i4.779

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC METHODOLOGY OF THE INSTITUTIONAL MECHANISM IN THE ECONOMY OF THE HORSE BREEDING INDUSTRY

Sultanova Dina Faizrakhmanovna
Urgench State University
Independent researcher
E-mail: dina.sultaniva.1971@yandex.ru

Abstract. The article is devoted to the study of the institutional mechanism in the economy of the horse breeding industry at the regional level in the Republic of Uzbekistan. The author develops a scientific methodology for studying the institutional mechanism based on the principles of a systematic approach and dialectical logic, using methods of analysis, synthesis, induction, deduction, comparison, classification, and econometric modeling. The article is highly practical for government agencies, business entities, investors, and educational institutions, offering recommendations for improving the institutional environment and increasing the efficiency of the industry.

Keywords: methodology; institutional mechanism; dialectical logic; systematic approach.

НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА

Султанова Дина Файзрахмановна
Ургенчский государственный университет
независимый исследователь

Аннотация. Статья посвящена изучению институционального механизма в экономике отрасли коневодства на региональном уровне в Республике Узбекистан. Автор разрабатывает научную методологию исследования институционального механизма, основанную на принципах системного подхода и диалектической логики, с использованием методов анализа, синтеза, индукции, дедукции, сравнения, классификации и эконометрического моделирования. Статья имеет высокую практическую значимость для государственных органов, хозяйствующих субъектов, инвесторов и образовательных учреждений, предлагая рекомендации по совершенствованию институциональной среды и повышению эффективности отрасли.

Ключевые слова: методология; институциональный механизм; диалектическая логика; системный подход.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N09

Коневодство в Республике Узбекистан исторически играло значимую роль, являясь не только частью национального культурного наследия, но и важной составляющей аграрного сектора. В условиях современных экономических преобразований и глобализации, эффективное функционирование и развитие этой отрасли требует всестороннего анализа, в том числе с позиций институциональной экономики. Институциональный механизм, охватывающий формальные и неформальные правила, нормы, организации и механизмы их принуждения, оказывает

существенное влияние на принятие решений субъектами коневодства, распределение ресурсов, формирование стимулов и, в конечном итоге, на экономическую эффективность отрасли.

Актуальность изучения институционального механизма в экономике отрасли коневодства Узбекистана определяется рядом ключевых факторов. Во-первых, отрасль сталкивается с вызовами, связанными с необходимостью модернизации, повышением конкурентоспособности продукции на внутренних и внешних рынках, привлечением инвестиций и адаптацией к меняющимся экономическим условиям. Во-вторых, переходный характер экономики Узбекистана обуславливает незавершенность формирования адекватной институциональной среды, что может создавать как значительные возможности, так и существенные барьеры для развития отдельных секторов, включая коневодство. В-третьих, особые характеристики коневодства — длительный производственный цикл, высокая капиталоемкость, зависимость от природно-климатических условий, а также значимая культурная и социальная роль — делают эту отрасль особенно чувствительной к качеству и эффективности институционального регулирования. Следовательно, детальный анализ институциональных аспектов является необходимым условием для разработки обоснованных стратегий развития и обеспечения устойчивости коневодства в республике.

Изучение институционального механизма в коневодстве Узбекистана является актуальным по следующим причинам:

- Адаптация к рыночным условиям и преодоление институциональных ловушек: Переход к рыночной экономике сопряжен с трансформацией прежних институтов. Неадаптированные институты могут создавать "институциональные ловушки", препятствующие развитию. Изучение позволяет выявить эти барьеры и разработать механизмы их преодоления, формируя институты, способствующие рыночной ориентации отрасли [2].

- Сохранение и развитие культурного наследия: Коневодство является неотъемлемой частью культурного и исторического наследия Узбекистана.

- Формирование научно обоснованной государственной политики: Результаты исследования являются основой для разработки эффективной государственной политики в области коневодства, направленной на стимулирование его развития, поддержку субъектов отрасли и создание благоприятных условий для их деятельности. Это включает законодательное регулирование, субсидирование, налоговые льготы и другие меры поддержки [5].

Целью данной работы является разработка и обоснование научной методологии исследования институционального механизма в экономике отрасли коневодства Республики Узбекистан для повышения ее эффективности и устойчивого развития.

Предметом исследования являются совокупность формальных (законы, нормативные акты, стандарты, контракты) и неформальных (традиции, обычаи, нормы поведения, этические принципы) институциональных форм, правил и механизм их взаимодействия, регулирующие экономические отношения в отрасли коневодства Республики Узбекистан.

Объектом исследования является отрасль коневодства Республики Узбекистан, рассматриваемая как сложная социально-экономическая система, включающая в себя хозяйствующие субъекты (коневодческие хозяйства, фермерские объединения, племенные заводы), производственные процессы, рынки продукции и услуг коневодства, а также институциональную среду, в которой функционирует данная система.

Методологической основой исследования являются принципы системного подхода, позволяющие рассматривать коневодство как целостную систему с взаимосвязанными элементами, а также принципы диалектической логики, обеспечивающие анализ развития и изменения институциональных форм. В работе применяются общенаучные методы: анализ и синтез для разложения сложных явлений на составляющие и их последующего объединения; индукция и дедукция для формулирования общих выводов на основе частных наблюдений и проверки гипотез; сравнение для выявления общих черт и различий, классификация и систематизация для упорядочивания данных, абстрагирование и обобщение для формирования теоретических концепций.

Теоретической основой исследования послужили фундаментальные положения неоинституциональной экономической теории, в частности, работы Р. Коуза и О. Уильямсона по теории трансакционных издержек [6, 7], Д. Норта по теории институциональных изменений [2], а также концепции прав собственности (А. Алчиан, Г. Демсец) [8] и теории агентских отношений (Б. Холмстром, П. Милгром) [9]. Также использованы труды отечественных и зарубежных ученых, посвященные институциональным преобразованиям в аграрном секторе и специфике развития животноводства и коневодства.

Экономическая методология данного исследования базируется на неоинституциональном подходе. Он позволяет анализировать, как институты (формальные правила, такие как законы и контракты, и неформальные, такие как обычаи и традиции) влияют на экономическое поведение акторов в отрасли коневодства. Применяются следующие методы:

Институциональный анализ: Детальное исследование формальных институтов (законодательство Республики Узбекистан, постановления Кабинета Министров, ветеринарные правила, стандарты племенного учета, контракты купли-продажи, аренды, страхования) и неформальных институтов (традиции разведения определенных пород, обычаи торговли, неписаные правила взаимоотношений между заводчиками и потребителями, доверие), их генезиса, эволюции и функционирования в отрасли коневодства [10].

Трансакционный анализ: Оценка величины и структуры трансакционных издержек (издержки поиска информации, ведения переговоров, заключения контрактов, мониторинга и принуждения к исполнению), возникающих при осуществлении экономических операций в коневодстве (например, при покупке-продаже лошадей, получении ветеринарных услуг, аренде пастбищ) [6]. Анализ того, как различные институты влияют на эти издержки.

Анализ прав собственности: Изучение системы прав собственности на ключевые ресурсы отрасли (племенное поголовье, земли, инфраструктура коневодческих

комплексов, продукция коневодства) и их влияния на инвестиционную активность, эффективность использования ресурсов и уровень инноваций. Определение того, насколько четко определены и защищены эти права [8].

Анализ агентских отношений: Исследование проблем, возникающих в отношениях "принципал-агент" (например, владелец лошади – тренер, заказчик – поставщик кормов, государство – коневодческое хозяйство) в условиях информационной асимметрии и оппортунистического поведения, и как институты помогают их разрешать или усугубляют [9].

Сравнительный институциональный анализ: Сопоставление институциональных механизмов, регулирующих коневодство в Республике Узбекистан, с институциональными решениями и передовым опытом в странах с развитым коневодством (например, Казахстан, Кыргызстан, Турция, некоторые европейские страны), с целью выявления наилучших практик и возможности их адаптации [11].

Методы социологических исследований: Проведение глубинных интервью с руководителями коневодческих хозяйств, фермерами, ветеринарами, представителями государственных органов и ассоциаций коневодов, а также анкетный опрос для сбора эмпирических данных о функционировании институтов, восприятии институциональной среды и выявлении неформальных правил.

Эконометрическое моделирование: В случае наличия достаточных статистических данных, применение эконометрических методов для количественной оценки влияния институциональных факторов (например, наличие определенных законов, уровень бюрократии, степень защиты прав собственности) на экономические показатели отрасли (например, продуктивность, рентабельность, объемы инвестиций).

Научная новизна работы состоит в создании комплексной методологии институционального анализа. Впервые для Республики Узбекистан предложена и обоснована интегративная методология институционального анализа отрасли коневодства, объединяющая различные подходы неоинституциональной теории и учитывающая особенности аграрного сектора и переходной экономики страны.

Выявление уникальных институциональных особенностей. Идентифицированы и систематизированы специфические формальные и неформальные институты, характерные именно для коневодства Узбекистана, с учетом его культурно-исторического контекста, что позволит глубже понять механизмы функционирования отрасли.

Идентификация институциональных барьеров и ловушек: Выявлены конкретные институциональные ловушки и барьеры, препятствующие устойчивому развитию отрасли (например, нечеткость прав собственности на племенной скот, информационная асимметрия, неэффективные механизмы защиты контрактов), и предложены научно обоснованные пути их преодоления.

Практическая значимость исследования состоит в следующем:

1. Для государственных органов: Результаты работы могут быть использованы Министерством сельского хозяйства, Государственным комитетом по ветеринарии и развитию животноводства, другими регулирующими органами Республики Узбекистан для совершенствования законодательной и нормативно-правовой базы, касающейся

коневодства. Рекомендации могут служить основой для разработки целевых программ развития отрасли и государственной поддержки на региональном уровне [8].

2. Для хозяйствующих субъектов: Разработанные методологические подходы и выводы помогут руководителям коневодческих хозяйств, фермерам, частным заводчикам лучше понимать институциональную среду, минимизировать трансакционные издержки, оптимизировать контрактные отношения и повышать экономическую эффективность своей деятельности.

3. Для инвесторов: Исследование предоставит потенциальным инвесторам, как отечественным, так и зарубежным, ценную информацию об институциональных рисках и возможностях в отрасли коневодства Узбекистана, способствуя более обоснованному принятию решений и привлечению капиталов.

4. Для образовательных учреждений: Результаты исследования могут быть включены в учебные программы по институциональной экономике, аграрной экономике, управлению в АПК и ветеринарии в высших и средних специальных учебных заведениях Узбекистана, обогащая образовательный процесс современными практическими примерами.

5. Для развития других отраслей: Предложенная методология институционального анализа может быть адаптирована и применена для изучения и совершенствования институциональных механизмов в других отраслях животноводства и аграрного сектора Республики Узбекистан.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Мамбетбаева, Г. Н. Развитие коневодства в Узбекистане: современное состояние и перспективы. // Аграрный вестник Урала. 2018. № 1 (167). С. 83-88.
2. Норт, Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М.: Фонд экономической книги "Начала", 1997.
3. Тухлиев, И. С., Маматов, Р. С. Аграрная экономика Узбекистана: проблемы и решения. Ташкент: НИЦ "Узбекистан", 2015.
4. Каримов, И. А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. Ташкент: Узбекистан, 1997.
5. Коуз, Р. Фирма, рынок и право. М.: Дело, 1993.
6. Уильямсон, О. И. Экономические институты капитализма: Фирмы, рынки, отношенческая контрактация. СПб.: Лениздат, 1996.
7. Бабаджанов, А. Х. Состояние и перспективы развития коневодства в Хорезмской области. // Проблемы современной аграрной науки. 2020. С. 13-16.
8. Ибрагимов, Ф. Ф. Роль государственного регулирования в развитии животноводства в Узбекистане. // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. № 5. С. 21-27.
9. Олейник, А. Н. Институциональная экономика. М.: ИНФРА-М, 2005.
10. Холмстром, Б., Милгром, П. Теория фирмы: стимулы, контракты, права собственности. // Вехи экономической мысли. Т. 5. Теория отраслевых рынков. СПб.: Экономическая школа, 2003. С. 272-300.
11. Эггертссон, Т. Экономическое поведение и институты. М.: Дело, 2001.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

IMPROVEMENT OF PUBLIC VALUATION METHODOLOGY BASED ON THE LIFE CYCLE APPROACH OF REAL ESTATE

Khushvaqtov Jasur Shuhrat oglu
Independent researcher at Termez State University

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the issues of improving the methodology for real estate valuation based on the life cycle approach. The study examines the suitability of valuation approaches for the phases of the real estate life cycle, from the land plot stage to planning, construction, operation and final disposal. Based on international valuation standards, the features of the application of market, income, cost and residual methods at different stages are analyzed based on empirical data. The results of the study show that important turning points in the life cycle - obtaining zoning and building permits, completion of the development process, commissioning and abandonment of the facility - are of decisive importance in choosing a valuation methodology. The conclusions obtained serve as a methodological basis for improving the practice of mass valuation of real estate, increasing the reliability of valuation results and providing a reasonable explanation for sharp changes in value.

Keywords: real estate valuation, life cycle, valuation methodology, value change, valuation of developing real estate.

KO‘CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xushvaqtov Jasur Shuhrat o‘g‘li
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xjasur@tersu.uz
http://www.orcid.org/0009-0009-0666-1313

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘chmas mulkni baholash metodologiyasini hayotiy sikl yondashuvi asosida takomillashtirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko‘chmas mulkning yer uchastkasi bosqichidan boshlab rejalashtirish, qurilish, foydalanish va yakunda tasarrufdan chiqarishgacha bo‘lgan hayotiy sikl fazalarida baholash yondashuvlarining maqbulligi o‘rganilgan. Xalqaro baholash standartlariga tayangan holda bozor, daromad, xarajat va qoldiq usullarining turli bosqichlarda qo‘llanish xususiyatlari empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari hayotiy siklning muhim burilish nuqtalari – zonalashtirish va qurilish ruxsatnomalarini olish, rivojlanish jarayonining yakunlanishi, obyektni foydalanishga topshirish hamda undan voz kechish holatlari baholash metodologiyasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar ko‘chmas mulkni ommaviy baholash amaliyotini takomillashtirish, baholash natijalarining ishonchliligini oshirish va qiymatdagi keskin o‘zgarishlarni asosli tushuntirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ko‘chmas mulkni baholash, hayotiy sikl, baholash metodologiyasi, qiymatning o‘zgarishi, rivojlanayotgan ko‘chmas mulkni baholash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N10

Kirish. Ko‘chmas mulkni baholash zamonaviy iqtisodiyotda investorlar, banklar, sug‘urta kompaniyalari, auditorlik tashkilotlari hamda davlat moliya institutlari faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Ko‘chmas mulk qiymati investitsiya qarorlarini qabul qilish, kreditlashni

ta’minlash, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va soliqqa tortish bazasini aniqlashda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli baholash natijalarining ishonchliligi va metodologik asoslanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko‘chmas mulkni baholash metodologiyasi erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanib, asosan bozor, daromad va xarajat yondashuvlari orqali amalga oshiriladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuvlardan qaysi birini tanlash ko‘chmas mulkning turi, undan foydalanish maqsadi, mavjud axborotlar hajmi hamda eng muhimi – ko‘chmas mulkning hayotiy sikl bosqichiga bevosita bog‘liqdir. Aynan shu jihat baholash amaliyotida turli baholovchilar tomonidan bir xil obyekt uchun turlicha qiymatlarning aniqlanishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘chmas mulk o‘zining hayotiy sikli davomida – yer uchastkasi bosqichidan boshlab, rejalashtirish, qurilish, ekspluatatsiya va yakunda buzish yoki qayta rivojlantirish bosqichlarigacha – turli iqtisodiy, huquqiy va texnik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Ushbu bosqichlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan muhim burilish nuqtalari, jumladan zonalashtirish va qurilish ruxsatnomalarining olinishi, obyektni foydalanishga topshirish yoki undan voz kechish holatlari baholash metodologiyasini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada baholash metodologiyasidagi bunday o‘zgarishlar ko‘pincha ko‘chmas mulk qiymatining sezilarli darajada oshishi yoki kamayishiga sabab bo‘ladi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada ko‘chmas mulkni baholash metodologiyasini hayotiy sikl kontekstida tahlil qilish, baholash yondashuvlarining turli fazalarga mosligini empirik ma’lumotlar asosida aniqlash hamda qiymatdagi sezilarli yillik o‘zgarishlarning asosiy sabablarini ochib berish maqsad qilib qo‘yilgan. Tadqiqot natijalari baholash metodologiyasini tanlashda hayotiy sikl yondashuvining muhimligini asoslab berib, baholash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Ko‘chmas mulkni baholash nazariyasi iqtisodiy baholashning alohida sohasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol rivojlandi. Dastlabki tadqiqotlar ko‘chmas mulk qiymatini aniqlashda klassik uch yondashuv – bozor, daromad va xarajat yondashuvlarining iqtisodiy mohiyatini izohlashga qaratilgan. Xususan, P. Wyatt ko‘chmas mulk qiymatini iqtisodiy kontekstda shakllanuvchi ko‘p omilli ko‘rsatkich sifatida talqin qilib, baholash natijasi asosan bozordagi kutilmalar va risklarni hisobga olish darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [3].

Xalqaro baholash standartlari kengashi tomonidan ishlab chiqilgan IVS standartlarida ko‘chmas mulk qiymati bozor tamoyillariga asoslangan holda aniqlanishi, bunda baholovchi mavjud axborotlar to‘liqligiga qarab bir yoki bir nechta yondashuvlardan foydalanishi lozimligi qayd etiladi [2]. TEGoVA tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa baholash standartlarida ham baholash metodologiyasini tanlash aktivning funksional holati va foydalanish maqsadiga bog‘liq ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi [4].

Ko‘chmas mulkning daromadlilikka asoslangan qiymatini aniqlash masalalari French tomonidan chuqur o‘rganilib, diskontlangan pul oqimlari modeli investitsion ko‘chmas mulkni baholashda eng ishonchli vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi [6]. Hlavinkova esa daromad yondashuvi bozor ishtirokchilarining kutilmalarini aks ettirish orqali kapital qiymatni aniqlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi [5].

RICS tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan mulk hayotiy sikli konsepsiyasi ko‘chmas mulk qiymati vaqt o‘tishi bilan funksional holat, foydalanish samaradorligi va investitsiya

bosqichiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi [9]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, yer uchastkasidan foydalanishdan boshlab obyektni buzishgacha bo‘lgan davr yagona iqtisodiy jarayon sifatida qaraladi. Shuning uchun baholash metodologiyasini tanlash ham statik emas, balki dinamik jarayon bo‘lishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ko‘chmas mulkni baholash nazariyasi va hayotiy sikl yondashuviga asoslandi. Jarayonda xalqaro baholash standartlari (IVS, RICS) va ilmiy manbalar tahlil qilindi. Empirik ma’lumotlar sifatida real baholash hisobotlari tanlanib, obyektlar hayotiy sikl bosqichlari bo‘yicha guruhlandi. Taqqoslash, statistik va sezgirlik tahlillari orqali baholash metodologiyasining almashuvi va uning qiymatdagi sezilarli yillik o‘zgarishlarga ta’siri aniqlab berildi.

Natija va muhokamalar. Ko‘chmas mulkning hayotiy sikli davomida baholash metodologiyasining o‘zgarishiga olib keladigan asosiy farazlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Baholash standartlari global sharoitlarga moslashtirilishi zarur bo‘lib, shu sababli ular, odatda, juda umumiy xarakterga ega. Ko‘chmas mulkni baholash subyektiv jarayon hisoblanadi. Har bir baholovchi ko‘chmas mulk qiymati bo‘yicha turlicha fikrga ega bo‘lishi va baholashda turli yondashuvlardan foydalanishi mumkin. Hozirgi kunda bozor qiymati asosan o‘xshash obyektlar bilan taqqoslash, xarajatlar hamda ko‘chmas mulkning daromadliligini tahlil qilish asosida aniqlanadi [1].

Xalqaro baholash standartlariga muvofiq [2], ko‘chmas mulkni baholashda uchta asosiy va umumiy qabul qilingan yondashuv mavjud: qiyosiy yondashuvi, daromad yondashuvi va xarajat yondashuvi. Alohida (yakka) baholash yondashuvlaridan foydalanish, ayniqsa, o‘zining eng yuqori va eng samarali foydalanishiga mos keladigan, yetarli daromad keltirayotgan yoki bozorda keng muomalada bo‘lgan obyektlar uchun maqsadga muvofiqdir.

Takomillashtirish ishlari boshlangan, biroq hali yakuniga yetmagan rivojlanayotgan ko‘chmas mulk obyektlarini baholashda faqat bitta baholash yondashuviga tayanish yetarli bo‘lmaydi. Qurilish jarayonida bo‘lgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan ko‘chmas mulkni baholashda, odatda, qoldiq usuli qo‘llaniladi.

Ikki nafar mustaqil baholovchi tomonidan aniqlangan qiymatlar o‘rtasidagi eng ko‘p uchraydigan farqlardan biri baholash metodologiyasini belgilovchi asosiy farazlarning turlicha talqin qilinishi bilan bog‘liq. Bunga qurilish uchun mo‘ljallangan yer uchastkasi misol bo‘la oladi. Masalan, bir baholovchi hududdagi o‘xshash bitimlarni hisobga olib, qiyosiy yondashuvdan foydalanishi mumkin. Boshqa baholovchi esa obyektning rivojlanish imkoniyatlarini yuqoriroq baholab, qoldiq usulini qo‘llashi ehtimol.

Har ikkala baholovchi ham tegishli baholash standartlariga muvofiq harakat qilgan bo‘lsa-da, ushbu baholash metodlari asosida aniqlangan qiymatlar o‘rtasidagi farq sezilarli darajada bo‘lishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi – baholash metodologiyasini to‘g‘ri tanlashda qo‘llaniladigan ilg‘or bozor amaliyotini umumlashtirishdan iborat.

IVS 400 Real Property Interest standartiga muvofiq [2], ko‘chmas mulkni baholashda uchta asosiy baholash yondashuvi qo‘llaniladi va ularning barchasi bozor tamoyillariga asoslanadi.

Bozor yondashuvi – aktiv qiymatini aniqlashda narx ma’lumotlari mavjud bo‘lgan aynan o‘sha yoki o‘xshash aktivlar bilan taqqoslashga asoslanadi [2]. Taqqoslash tamoyili iqtisodiy o‘rinbosarlik konsepsiyasiga tayanadi, ya’ni oqilona va xabardor xaridor bir xil darajada qoniqarli bo‘lgan muqobil obyektni sotib olish xarajatidan ortiq mablag‘ni ko‘chmas mulk

uchun to‘lamaydi [3]. Amaliyotda ko‘chmas mulkni baholashda asosan taqqoslanadigan bitimlar usuli qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv yaqinda bozorda amalga oshirilgan va narxlari ma’lum bo‘lgan o‘xshash ko‘chmas mulk obyektlari bilan taqqoslashga asoslanadi. Mazkur ma’lumotlar asosida baholanayotgan obyekt narxini individual aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Ushbu usul kamida uchta o‘xshash obyekt bo‘yicha amalga oshirilgan savdo bitimlari yoki takliflar mavjud bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Qiyosiy yondashuv bozor sharoitida real shakllanayotgan narxlar haqida eng aniq tasavvur beradi.

Daromad yondashuvi – investitsiya maqsadida foydalanilayotgan ko‘chmas mulk obyektlarini baholashda qo‘llaniladi [3]. Ushbu yondashuvda baholash ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olinishi kutilayotgan sof daromadni, mulkka egalik qilish bilan bog‘liq investitsiya risklarini hisobga olgan holda kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv to‘g‘ri qo‘llanilgan taqdirda, ko‘chmas mulkning daromad keltirish qobiliyatiga asoslangan qiymatini aniqlashda ishonchli natija beradi. Daromad yondashuvi kelgusida olinishi kutilayotgan daromadlarni kapitalizatsiya qilish yoki diskontlash orqali obyektning kapital qiymatini aniqlashni nazarda tutuvchi baholash usullarini o‘z ichiga oladi [4]. Daromadlilikni aniqlashning eng keng tarqalgan usullariga quyidagilar kiradi: doimiy daromadni hisoblash, baholash normasi asosida daromadlilikni aniqlash hamda o‘zgaruvchan daromadlilikni hisoblash usullari [5].

Xarajat yondashuvi – xarajatlarga asoslangan baholash modeli bo‘lib, baholanayotgan holatga yetkazish uchun ko‘chmas mulkni qayta qurish yoki yangidan barpo etish bilan bog‘liq barcha joriy xarajatlarni, shu jumladan yer uchastkasini sotib olish xarajatlarini hisobga oladi [6]. Ushbu yondashuv aktiv qiymati uni qayta tiklash yoki xuddi shunday foydalilikka ega bo‘lgan boshqa obyekt bilan almashtirish xarajatlari orqali ifodalanishi mumkinligini e’tirof etadi. Agar baholanayotgan aktivning foydaliligi yangi obyektga nisbatan past bo‘lsa, yangi obyektni yaratish qiymati jismoniy eskirish, funksional va iqtisodiy ma’naviy eskirishni hisobga olgan holda tuzatilib boriladi. Soddaroq qilib aytganda, xarajat yondashuvi yer qiymati va bino o‘rnini bosuvchi qurilish qiymatining yig‘indisidan iborat bo‘lib, u taqqoslanadigan obyektlar bilan bog‘liq holda aniqlanadi [4].

Asosiy baholash yondashuvlaridan foydalanish, ayniqsa, o‘zining eng yuqori va eng samarali foydalanishiga mos keladigan, yetarli daromad keltirayotgan hamda bozorda faol muomalada bo‘lgan obyektlar uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu uchta asosiy baholash yondashuvi IVS 410 Development Property standartida belgilangan qo‘shimcha baholash usuli bilan to‘ldiriladi [2].

Qoldiq usul – uchta asosiy baholash yondashuvini o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu usulda loyiha yakunlangandan keyingi kutilayotgan qiymatdan, loyihani tugallash uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lum yoki prognoz qilinayotgan xarajatlar hamda loyiha yakunlanishi bilan bog‘liq risklar chegirib tashlanadi. Natijada qoldiq qiymat aniqlanadi [3]. Ushbu usul asosida hisoblangan qoldiq qiymat rivojlanayotgan ko‘chmas mulkning joriy holatdagi bozor qiymatiga teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin. Ushbu usul rivojlanish loyihalarini baholashda qo‘llaniladigan mumkin bo‘lgan usullardan biri bo‘lib, joriy bozor holatiga mos farazlarga asoslanadi.

Shuningdek, o‘zaro taqqoslanadigan ko‘chmas mulk obyektlarini baholashda ommaviy baholash modellari va “avtomatlashtirilgan baholash modellari (AVM)”dan foydalanish ham

mumkin. Bunday maqsadlar uchun bir qator baholash usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor modellari va taqqoslanadigan savdo bitimlari modellari kiradi [7].

Baholash yondashuvini to‘g‘ri tanlash ko‘chmas mulkning turi, mavjud ma’lumotlar hamda boshqa ko‘plab farazlarga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, qaysi baholash usuli eng maqsadga muvofiq ekanini bozor amaliyoti belgilab beradi. Shu sababli amaliyotda baholashning barcha yondashuvlari va usullari keng qo‘llaniladi.

Har qanday ko‘chmas mulk aktivi, undan foydalanish maqsadi yoki hajmiga qaramay, vaqt o‘tishi bilan ma’lum bir rivojlanish jarayonidan o‘tadi. Bu jarayon dastlabki g‘oyaning paydo bo‘lishidan boshlanib, rejalashtirish, qurilish, foydalanish hamda oxir-oqibat tasarrufdan chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bunday rivojlanish bino va inshootlarning xizmat muddati cheklanganligi bilan bog‘liq. Xizmat muddatining chegaralanganligi esa ularni ma’lum vaqtdan keyin yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada jarayonning bosqichma-bosqich eskirishi yuz beradi va bu holat “hayotiy sikl” deb yuritiladi.

Britaniya standartlari instituti hayotiy siklni ko‘rib chiqilayotgan obyektning ketma-ket va o‘zaro bog‘liq bosqichlari majmui sifatida ta’riflaydi [8].

Ko‘chmas mulkning hayotiy siklini hal qilinadigan muammolar nuqtai nazaridan asosiy bosqichlarga ajratish mumkin. Har bir bosqich o‘ziga xos xususiyatlar va faoliyat turlari bilan tavsiflanadi. Yer, mulk, infratuzilma va qurilish sohasida malaka va standartlar bo‘yicha dunyodagi yetakchi professional tashkilotlardan biri bo‘lgan Royal Institution of Chartered Surveyors (RICS) tasnifiga ko‘ra, ko‘chmas mulk hayotiy siklining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

Yer – mazkur bosqich, odatda, ko‘chmas mulk hayotiy siklining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Yer uchastkasidan foydalanish imkoniyatlari ko‘pincha hududni rejalashtirish hujjatlari, bosh reja yoki yer foydalanishini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Investorlar ushbu bosqichda ko‘chmas mulkni keyingi rivojlantirish maqsadida sotib oladilar. RICS mulk hayotiy sikli doirasida bu bosqich yashil hududlari va mulklarni sotib olish yoki boshqarish jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatlarni o‘z ichiga oladi [9].

Investitsiya – rejalashtirish – ushbu bosqichning asosiy mazmuni kelgusidagi investitsiya niyatini bir yoki bir nechta variantlarda shakllantirish va aniqlashdan iborat. Ishlab chiqilgan variantlar doirasida loyiha amalga oshirilishining maqbulligi va alohida variantlarning moliyaviy samaradorligi baholanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi – amalga oshirishning barcha muqobil variantlarini tahlil qilish, investitsiya loyihasining hayotga tatbiq etilish imkoniyatlarini baholash hamda investitsiya qarorini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan barcha asoslarni yaratishdir.

Bundan tashqari, mazkur rejalashtirish bosqichi ruxsatnomalar olish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Hududiy rejalashtirish va qurilish ruxsatnomalarining muvaffaqiyatli olinishi ko‘chmas mulk hayotiy siklidagi muhim bosqich hisoblanadi. RICSga ko‘ra, bino dizayni unga to‘lanadigan narxga, demakki, uning qiymatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ayniqsa, investitsiya qarorlarini qabul qilishda ushbu omil alohida e’tiborga olinishi lozim [9].

Investitsiya – qurilish – ushbu bosqichda pudratchi tanlanadi, unga qurilish maydonchasiga kirish huquqi beriladi va amaliy yakuniga qadar qurilish ishlari amalga oshiriladi. Qurilish bosqichi, odatda, qurilish ruxsatnomasini olish va investitsiya qarorini qabul qilish bilan boshlanadi. Bu bosqich ko‘chmas mulk hayotiy siklida investitsiya

mablag‘larining eng katta qismi sarflanadigan davr hisoblanadi. Investitsiya bosqichi qurilish ishlari tugallanishi va obyekt foydalanishga topshirilishi bilan yakunlanadi.

Foydalanish va ekspluatatsiya – ko‘chmas mulkning hayotiy siklidagi eng uzoq davom etadigan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda obyekt kutilgan daromadni keltiradi. Qurilmaning xizmat muddati hamda investitsiyaning ekspluatatsiya bosqichi rekonstruksiya yoki ta’mirlash ishlari orqali uzaytirilishi mumkin. Agar yirik investitsiyalar doirasida avvalgi bosqichlarning ayrim elementlarini o‘z ichiga olgan o‘zgarishlar amalga oshirilsa, yangi investitsiya siklining boshlanishi haqida gapirish mumkin. Masalan, yangi ruxsatnomalar talab qilinadigan to‘liq rekonstruksiya bunga misol bo‘la oladi.

Buzish – xizmat muddati cheklanganligi sababli vaqt o‘tishi bilan ko‘chmas mulk texnik talablarga javob bermaydigan yoki undan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan holatga keladi. Baholash standartlari baholovchini aktivlarning barqarorligi bilan bog‘liq aniq qiymatni belgilashga majbur qilmaydi. Yangi ko‘chmas mulk loyihasini amalga oshirish uchun esa yangi investitsiya siklini boshlash talab etiladi. Eski bino va inshootlarni tasarrufdan chiqarish jarayoni yangi investitsiya siklining investitsiya bosqichiga kiradi.

1-rasm. Ko‘chmas mulkning hayotiy sikli[1].

Baholash metodologiyasining butun hayotiy sikl kontekstidagi maqbulligini to‘g‘ri baholash uchun ko‘chmas mulk bo‘yicha yetarli miqdordagi baholash hisobotlari va bitimlar mavjud bo‘lishi zarur.

Baholash hisobotlari odatda buxgalteriya ehtiyojlari uchun (adolatli qiymatni aniqlash maqsadida) yoki garov bilan ta’minlangan kreditlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun (bozor qiymatini belgilash maqsadida) tayyorlanadi. Ko‘chmas mulkning adolatli qiymati bilan bozor qiymati o‘rtasida ma’lum darajada kichik tafovutlar mavjud bo‘lsa-da, ushbu farqlar baholash metodologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi va mazkur tadqiqot doirasida muhim ahamiyat kasb etmaydi.

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi.

Tadqiqotlar natijasida tanlangan obyektlar hayotiy sikl bosqichlariga muvofiq guruhlarga ajratildi. Shundan so‘ng, har bir obyektni baholashda qaysi baholash metodologiyasi qo‘llanilgani tahlil qilindi.

Baholash metodlarining hayotiy sikl bosqichlariga nisbatan qo‘llanish chastotasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Hayotiy sikl bosqichlari bo‘yicha baholash usullaridan foydalanish chastotasi[1]

Hayotiy sikl bosqichi	Daromad yondashuvi	Qiyosiy (bozor) yondashuvi	Qoldiq usul	Bir nechta usul
Yer / Tabiiy resurs	0	14	4	2
Investitsiya – rejalashtirish	0	13	13	0
Investitsiya – qurilish	0	0	16	0
Foydalanish va ekspluatatsiya	146	26	22	18
Buzish / Ikkinchi darajali yer	0	6	2	0

Keyinchalik baholash metodologiyasidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan muhim bosqich qaysi biri asosiy omil sifatida qabul qilingani tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida hayotiy sikl baholash metodologiyasining mosligiga qarab alohida bosqichlarga ajratildi. Har bir bosqichning batafsil tavsifi esa quyida bayon etiladi.

I-faza ko‘chmas mulkning hayotiy sikli boshlanishi bilan boshlanadi va hududiy rejalashtirish ruxsatnomasini olish bilan yakunlanadi. Ushbu fazaga xos bo‘lgan ko‘chmas mulkning tipik namunasi – qurilish uchun mo‘ljallangan yer uchastkasi yoki qayta rivojlantirish rejalashtirilgan buzish hududidir. Bu bosqichda ko‘chmas mulkning salohiyati hali to‘liq rivojlantirilmagan bo‘ladi. Mazkur bosqichda obyekt hech qanday daromad keltirmaydi yoki daromad miqdori juda cheklangan bo‘ladi. Shu sababli daromad yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Yer reyestri, ko‘chmas mulk e’lonlari hamda ommaviy axborot vositalari kabi ochiq manbalarda odatda taqqoslanadigan bitimlar haqida yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘ladi. Shu bois ushbu fazada qiyosiy yondashuv eng mos baholash usuli hisoblanadi. Biroq bu davrda ko‘chmas mulk sezilarli rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, qoldiq usul qiyosiy yondashuvni to‘ldiruvchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Shunga qaramay, mazkur bosqichda kelgusidagi loyiha ko‘lami hali aniq belgilanmagan bo‘ladi va ruxsat berish jarayonining yakuniy natijasini ishonchli tarzda oldindan prognoz qilish qiyin. Qoldiq usulning yuqori sezgirligini inobatga olgan holda, uni mazkur fazada asosiy baholash usuli sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

II-faza hududiy rejalashtirish ruxsatnomasini olish bilan boshlanadi va tayyor obyekt foydalanishga topshirilishi bilan yakunlanadi. Mazkur fazaga xos bo‘lgan ko‘chmas mulkning tipik ko‘rinishi rivojlanayotgan ko‘chmas mulk obyektidir. Ushbu davr investitsiya xarajatlari o‘zlashtiriladigan hamda qisqa vaqt ichida ko‘chmas mulk qiymati tez sur’atlarda o‘zgaradigan bosqich hisoblanadi.

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi.

Hududiy rejalashtirish uchun beriladigan ruxsatnoma, odatda, rivojlanish loyihasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va loyihaning rejalashtirilgan ko‘lamini aniq belgilab beradi. Zonalashtirish jarayoni doirasida tayyorlangan loyiha hujjatlari esa investitsiya xarajatlarini ancha aniqroq hisoblash imkonini yaratadi. Qurilish jarayonida qiymatning tez o‘zgarishi sababli, ushbu fazada ko‘chmas mulkni baholashning yagona maqbul usuli qoldiq usul hisoblanadi.

Shu bilan birga, qoldiq usulning asosiy kirish parametrlariga nihoyatda sezgir ekanligini alohida qayd etish zarur. Ushbu sezgirlikni ko‘rsatish maqsadida muallifning ichki ma’lumotlar bazasidan ofis ko‘chmas mulkini baholashga oid bitta baholash hisobotidan foydalanildi va unda asosiy kirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezgirlik tahlili amalga oshirildi.

2-jadval.

Qoldiq usul bo‘yicha sezgirlik tahlili[1]

Asosiy kirish ko‘rsatkichi	Asosiy kirishdagi o‘zgarish	Qoldiq qiymatdagi o‘zgarish
Baholangan ijara daromadi	−10 %	−24,4 %
Ijaraga beriladigan maydon	−10 %	−10,0 %
Kapitalizatsiya stavkasi	−10 %	−25,4 %
Qurilish xarajatlari	+10 %	−15,4 %
Qo‘shimcha (soft) xarajatlar	+10 %	−2,0 %
Moliyaviy xarajatlar	+1 % p.a.	−4,5 %
Qurilish muddati	+1 yil	−8,9 %
Rivojlanish foydasi	20 %	−5,9 %

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, baholangan ijara daromadi, kapitalizatsiya stavkasi yoki qurilish xarajatlari kabi o‘zgaruvchilardagi nisbatan kichik o‘zgarishlar ham qoldiq qiymatga nomutanosib darajada katta ta’sir ko‘rsatadi. Qurilish ruxsatnomasi olinmaguncha va obyektni real amalga oshirish ishlari boshlanmaguncha qiyosiy yondashuvidan foydalanish ham mumkin. Biroq ushbu muhim bosqichdan keyin qiyosiy yondashuvdan foydalanish muammoli bo‘lib qoladi.

III-faza hayotiy sikl davomida eng uzoq davom etadigan bosqich bo‘lib, RICS tomonidan belgilangan “Foydalanish va ekspluatatsiya” bosqichiga mos keladi. Ichki ma’lumotlar bazasidagi ko‘chmas mulk obyektlarining taxminan 75 foizi aynan ushbu fazaga to‘g‘ri keladi. Mazkur faza tayyor obyekt foydalanishga topshirilishi bilan boshlanadi va undan foydalanish to‘xtatilishi bilan yakunlanadi. Ushbu bosqichda ko‘chmas mulk, odatda, o‘zining eng yuqori va eng samarali foydalanishiga mos bo‘ladi hamda yetarli daromad keltiradi.

Mazkur bosqichda ko‘chmas mulkni baholash, asosan, taqqoslanadigan bitimlar haqidagi mavjud ma’lumotlarga yoki kelgusidagi daromadlarni modellashtirishga asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Umuman olganda, turar joy ko‘chmas mulkini baholashda qiyosiy yondashuv ko‘proq qo‘llanilsa, ofislar, savdo obyektlari hamda omborxonalar kabi tijorat ko‘chmas mulkini baholashda daromad yondashuvi ustun hisoblanadi. Shu bilan birga, zarur va yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ikkala baholash yondashuvini birgalikda qo‘llash ham mumkin.

IV-faza esa ko‘chmas mulkdan foydalanish muddati yakunlangandan keyin boshlanadi. Bu davrda obyektlar odatda texnik jihatdan eskirgan yoki yomon holatda bo‘ladi va iqtisodiy

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi.

jihatdan jozibador bo‘lgan boshqa foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Agar obyektni yanada samarali tarzda ishlatish imkoniyati mavjud bo‘lsa, IV-faza bilan I-faza o‘rtasida uzluksiz o‘tish yuz beradi va ko‘chmas mulk yangi hayotiy siklni boshlaydi.Bu holda ekologik utilizatsiya demontaj va chiqindilarni yo‘q qilish xarajatlari yangi hayotiy siklning I-fazasi tarkibiga kiradi.

Mazkur fazada ko‘chmas mulk endi yetarli daromad keltirmaydi. Shu sababli, ushbu bosqichda qo‘llaniladigan baholash yondashuvi, amalda, I-fazada qo‘llaniladigan baholash yondashuvi bilan deyarli bir xil hisoblanadi.



2-rasm. Hayotiy sikl kontekstida baholash metodologiyasining mosligi[1]

Xulosa va tavsiyalar. Ko‘chmas mulkni baholash investorlar, banklar, auditorlar va boshqa moliyaviy institutlar faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Baholash metodologiyasi erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanadi. Qaysi baholash yondashuvini tanlash ko‘chmas mulkning turi, mavjud ma’lumotlar hamda boshqa ko‘plab farazlarga bog‘liq bo‘lib, amaliyotda bozor tajribasi odatda eng maqbul baholash usulini aniqlashda asosiy yo‘l ko‘rsatadi.

Ko‘chmas mulkning hayotiy sikli davomida baholash metodologiyasini belgilovchi bir qator muhim bosqichlar mavjud bo‘lib, ular baholash jarayonida burilish nuqtalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu bosqichlarga erishilishi baholash amaliyotida metodologiyaning o‘zgarishiga olib keladi. Baholash metodologiyasining almashuvi esa yangi farazlar yoki asosiy kirish ko‘rsatkichlarining paydo bo‘lishini anglatadi va ko‘pincha qiymatning sezilarli darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘chmas mulkning hayotiy siklida keyingi bosqichga o‘tishi bilan baholash metodologiyasidagi o‘zgarishlar qiymatdagi eng sezilarli yillik o‘zgarishlarga olib keladi. Ushbu o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan omillar alohida tahlil qilindi. Ko‘chmas mulkni baholash nuqtai nazaridan eng muhim bosqichlar sifatida rivojlanish jarayonining keyingi bosqichga o‘tishi, ko‘chmas mulkni foydalanishga topshirish, zonalashtirish yoki qurilish ruxsatnomasini olish hamda ko‘chmas mulkdan voz kechish holatlari tan olindi.

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur bosqichlar ko‘chmas mulkning hayotiy sikli davomida baholash metodologiyasini qo‘llashning maqbullik chegaralarini ajratib turuvchi mezonlar sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Heralova, R. Building’s value assessment using the utility and the LCC. CESB 2007 PRAGUE International Conference – Central Europe Towards Sustainable Building. Prague 2007, volume 1, pp. 126-131.
2. International valuation standards council, International valuation standard 2017. EKOPRESS, s.r.o., 2018.
3. Peter Wyatt, Property Valuation in an economic context, First edition. Blackwell Publishing Ltd, 2007.
4. The European Group Of Valuers Associations, European valuation standards 2016, eighth edition. Tegova 2016.
5. Hlavinkova, V. The market valuation of real estate. Brno University of Technology, 2012, vol. 1, pp. 19-22.
6. French, N. The discounted cash flow model for property valuations: Quarterly in advance cash flows. Oxford Brookes University Oxford, United Kingdom. Journal of Property Investment and Finance, volume 31, Issue 6, 2013, pp. 610-614.
7. The Appraisal Foundation. Identifying Comparable Properties in Automated Valuation Models for Mass Appraisal. APB Valuation Advisory, The Appraisal Foundation, Washington, DC, 2013, pp. 1-5.
8. British Standards Institution; ISO 15686-5:2017, Buildings and constructed assets – Service life planning – Part 5: Life-cycle costing
9. Royal Institution Of Chartered Surveyors (RICS); Sustainability and the RICS property lifecycle, first edition, June 2009.
10. British Standards Institution; Standardized Method of Life Cycle Costing for Construction Procurement; first edition;
11. IFRS Foundation, IFRS Standards required 1 January 2018.
12. CBRE, Czech Republic Property Investment Q4 2017 Snapshot, February 2018.
13. CBRE, Czech Republic Property Investment Q4 2018 Snapshot, February 2019.
14. To‘lakov, U. T. O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etishning strategik va uslubiy jihatlari / U. T. To‘lakov // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2026. – 4-tom, № 1. – B. 223–228.
15. To‘lakov, U. T. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va ommaviy baholashda ekonometrik modellashtirish / U. T. To‘lakov // Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – 2-tom, № 3. – B. 807–847.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE IMPACT OF ENERGY RESOURCES ON THE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Jabbarov Nurbek Atanazarovich
Trainee-teacher of the Department of Tourism
of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract. This article is devoted to the theoretical significance of assessing the impact of energy resources on industrial development in Uzbekistan. The study systematizes scientific approaches to energy economics and energy security and provides a theoretical analysis of the relationship between energy consumption and industrial production. Furthermore, modern econometric approaches used to evaluate the impact of energy resources on industrial growth are reviewed, and conclusions relevant to current economic conditions are formulated.

Keywords: energy economics, industrial production, energy security, fossil energy resources, renewable energy sources, energy efficiency, industrial growth.

O‘ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Jabbarov Nurbek Atanazarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Turizm kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
E-mail: jabbarov.nurbek@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan O‘zbekiston sanoatiga energiya resurslarining ta’sirini baholashning nazariy asoslarini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda energiya iqtisodiyoti va energiya xavfsizligi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy qarashlar umumlashtirilib, sanoat ishlab chiqarishi va energiya iste’moli o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: energiya iqtisodiyoti, sanoat ishlab chiqarishi, energiya xavfsizligi, qazib olinadigan energiya resurslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, sanoat o‘sishi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N11

O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi va barqarorligi energiya resurslariga bevosita bog‘liqdir. Energiya tizimi iqtisodiyotning “qon tomir tizimi” sifatida barcha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini harakatga keltiradi. Shu bois, sanoat korxonalari va tarmoqlarda energiya resurslarining samarali boshqarilishi iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Azizbek Ulug‘bekovich Nigmanovning tadqiqotida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida energiya sarfi va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik batafsil tahlil qilingan. Maqolada energiya iste’moli iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi va energiya samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Korxonalar energiya resurslarini tejash va samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, shu bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [2].

Farhodjon Iminovning ishida sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlash yondashuvlari keltirilgan. Muqobil energetika manbalarini joriy etish va energiyani tejash strategiyalari sanoat sektorining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy darajadagi strategiyalar energiya samaradorligi va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan [3].

Yusupov B. E. muqobil energiya manbalarini sanoatga integratsiya qilish orqali energiya qaramligini kamaytirish va texnik-iqtisodiy samaradorlikni oshirish nazariyasi asosida tahlil qilgan. Muqobil energiya manbalarini joriy etish, ayniqsa quyosh va shamol energiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish va barqaror o‘sishga hissa qo‘shadi [4].

R. Allanazarov va M. Samadqulovning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida energiya samaradorligi va sanoat iqtisodiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan. Barqaror rivojlanish tamoyillari asosida energiya resurslarini boshqarish sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, energiya resurslarini samarali boshqarish korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishiga olib keladi [5].

Energiya resurslari va davlat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ham muhim ahamiyatga ega. Mushafiq va boshqalar tomonidan olib borilgan adabiyot sharhida energiya samaradorligi iqtisodiy siyosat va o‘sish modellariga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Energiya intensivligi kamaytirilishi, davlatning soliq mexanizmlari, subsidiyalar va bozor mexanizmlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi [6].

Fenerich va boshqalar sanoat muhitida energiya samaradorligi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, energiya boshqaruvi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi [7].

Muhokama. O‘zbekiston sanoatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jihatdan energiya resurslari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Har qanday sanoat tarmog‘ining barqaror faoliyati uzluksiz va ishonchli energiya ta’minotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli sanoat taraqqiyotini bosqichma-bosqich tahlil qilish jarayonida energiya manbalarining tarkibi, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda sanoat ishlab chiqarishiga ko‘rsatgan ta’sirini alohida ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sanoatning dastlabki shakllanish davrlarida energiya asosan an’anaviy yoqilg‘i manbalariga tayangan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda tabiiy gaz va elektr energiyasi yetakchi o‘rinni egallagan. So‘nggi yillarda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari sanoat barqarorligini ta’minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda [8]. Bu jarayon energiya iqtisodiyotining nazariy jihatlarini chuqurlashtirishni, energiya va sanoat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli ravishda o‘rganishni talab etadi. Shuningdek, sanoat rivojlanishining har bir bosqichida energiya omilining roli turlicha namoyon bo‘lgan: ayrim davrlarda energiya ishlab chiqarish hajmini oshirishning asosiy sharti bo‘lgan bo‘lsa, boshqa davrlarda energiya xavfsizligi va samaradorligi ustuvor vazifaga aylangan. Ayniqsa, zamonaviy bosqichda energiya diversifikatsiyasi, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik sanoat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi [9].

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston sanoati rivojlanishining tarixiy bosqichlari hamda har bir davrda energiya resurslarining sanoat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri tizimlashtirilgan holda keltiriladi.

1-jadval.

O‘zbekiston sanoati rivojlanish bosqichlari va energiya omilining roli[1].

Davr	Sanoat rivojlanish xususiyatlari	Asosiy energiya manbalari	Energiya omilining sanoatga ta’siri	Nazariy izoh
1920–1940-yillar (industrializatsiya bosqichi)	Og‘ir sanoat, paxta tozalash, dastlabki mashinasozlik korxonalari tashkil etildi	Ko‘mir, mazut	Markazlashgan energiya ta’minoti sanoatni joylashtirishda asosiy omil bo‘ldi	Energiya – ishlab chiqarish omili sifatida klassik iqtisodiy modelda ko‘rilgan
1941–1990-yillar (SSSR davri kengayish bosqichi)	Metallurgiya, kimyo, energetika va mashinasozlik sanoati rivojlandi	Tabiiy gaz, ko‘mir, gidroenergiya	Arzon va barqaror energiya sanoat hajmining tez o‘sishiga xizmat qildi	Energiya iste’moli va sanoat o‘sishi o‘rtasida o‘sish gipotezasi ustun
1991–2000-yillar (o‘tish davri)	Iqtisodiy pasayish, sanoat ishlab chiqarish qisqarishi	Asosan tabiiy gaz	Energiya ta’minotidagi uzilishlar sanoat hajmiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi	Energiya xavfsizligi tushunchasi dolzarb bo‘la boshladi
2001–2016-yillar (modernizatsiya bosqichi)	Sanoatni diversifikatsiya qilish, avtomobilsozlik, neft-gaz kimyosi rivoji	Tabiiy gaz, elektr energiyasi	Energiya samaradorligini oshirish sanoat rentabelligini yaxshiladi	Energiya–YaIM o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha empirik tadqiqotlar faollashdi
2017–2023-yillar (islohotlar va liberallashuv bosqichi)	Yangi sanoat zonalari, xususiy sektor ulushi oshishi	Gaz, quyosh va shamol energiyasi loyihalari	Energiya bozorini isloh qilish sanoat raqobatbardoshligini oshirdi	Energiya diversifikatsiyasi va barqaror o‘sish konsepsiyasi
2024-yildan hozirgi davr (yashil transformatsiya bosqichi)	Yashil sanoat, energiya samarador texnologiyalar	Quyosh, shamol, gidro va gaz	Qayta tiklanuvchi energiya sanoat barqarorligini ta’minlash omiliga aylandi	Barqaror rivojlanish va energiya xavfsizligi integratsiyasi

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekiston sanoati rivojlanishining har bir tarixiy bosqichi energiya resurslari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Dastlabki industrializatsiya davrida energiya ishlab chiqarish omili sifatida qaralgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda energiya xavfsizligi va energiya samaradorligi sanoat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi sanoatning barqaror va ekologik muvozanatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa energiya resurslarining sanoatga ta’sirini baholashning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishi energiya iste’molining ko‘payishiga olib keladi. Shu bois energiya resurslari va sanoat o‘sishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy va empirik

[1] Ma’lumotlarga tayanib muallif ishlanmasi

jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya iqtisodiyoti nazariyasida energiya resurslarini yetkazib berish, ularni qayta ishlash, taqsimlash va samarali foydalanish jarayonlari iqtisodiy o‘sishning ajralmas qismi sifatida qaraladi [10]. Ilmiy adabiyotlarda energiya iste’moli va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Xususan, o‘sish gipotezasi energiya iste’molidan sanoat o‘sishiga bir yo‘nalishli ta’sir mavjudligini ta’kidlaydi. Saqlash gipotezasi esa sanoat rivojlanishi energiya iste’molining oshishiga olib kelishini ilgari suradi. Teskari aloqa gipotezasi ikki tomonlama bog‘liqlikni asoslaydi, neytrallik gipotezasi esa ular o‘rtasida sezilarli sababiy bog‘liqlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Sanoat tarmoqlarida energiya resurslarining ta’sirini baholashda zamonaviy ekonometrik usullar, jumladan, kointegratsiya tahlili, ARDL modeli, panel regressiya va Granger sabab-oqibat testi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar energiya iste’moli va sanoat ishlab chiqarishi o‘rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi [11]. Nazariy jihatdan shuni ta’kidlash mumkinki, energiya resurslarining sanoatga ta’sirini baholash energiya siyosatini shakllantirish, investitsiya qarorlarini qabul qilish hamda sanoatda energiya samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qazib olinadigan energiya resurslari bilan bir qatorda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sanoat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi [12].

Natijalar. O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishini ta’minlash va barqaror rivojlanish yo‘lida energiya tizimidan samarali foydalanish muhim omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda energiya resurslarini tejash, muqobil energiya manbalarini joriy etish va elektr energiyasini samarali ishlab chiqarish orqali YAIMni oshirish bo‘yicha sezilarli natijalar kuzatilmoqda.

Energiya intensivligi, ya’ni ishlab chiqarish birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2024-yillar davomida O‘zbekiston YAIM hajmi taxminan 55 % ga oshgan bo‘lsa, shu davrda energiya sarfi bir YAIM birligi uchun 7,4 % ga kamaygan. Bu iqtisodiyotning kam energiya sarfi bilan yuqori natija ko‘rsatishga o‘tayotganini bildiradi. Energiya samaradorligi oshgani sayin ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va iqtisodiy raqobatbardoshlik kuchayadi [13].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, energiya sarfi 1 birlikka oshganda YAIM per capita taxminan 3,79 birlikka o‘sadi. Bu ijobiy korrelyatsiya uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishda energiya tizimi va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, energiya sarfi va YAIM o‘sishidagi o‘zaro bog‘liqlik, energiya resurslarini oqilona boshqarish va diversifikatsiya qilish zaruratini ko‘rsatadi.

OECD va IEA ma’lumotlariga ko‘ra, 1990–2024-yillar davomida O‘zbekiston energiya intensivligini 70 % dan ortiq kamaytirgan. So‘nggi o‘n yillikda bu ko‘rsatkich yana 40 % ga pasaydi. Shu davrda CO_2 emissiyalarining YAIMga nisbati ham sezilarli darajada kamaygan. Bu tendensiya iqtisodiyotning xizmat sektori va texnologik yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lib, energiya tizimidan samarali foydalanish natijasida iqtisodiy o‘sish ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashmoqda [14].

2016–2024-yillarda O‘zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 mlrd kWh dan 81,5 mlrd kWh ga yetdi, ya’ni ∼38 % ga oshdi. Shu davrda aholi boshiga ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 2,200 kWh ga yetdi. Bu o‘sish elektr energiyasini ishlab chiqarish

samaradorligi va modernizatsiya darajasining oshganini ko‘rsatadi. Samarali energiya tizimi YAIM o‘sishiga ijobiy hissa qo‘shadi [15].

Xulosa. O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining barqaror va samarali yo‘nalishi energiya tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, energiya tizimidan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy o‘sishga, barqaror rivojlanishga va ekologik barqarorlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston energiya intensivligini pasaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Energiya samaradorligini oshirish natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan, YAIM hajmi esa o‘sishda davom etmoqda. Statistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiya sarfi va YAIM o‘sishi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud bo‘lib, iqtisodiy o‘sish energiya tizimining samarali ishlashiga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishi va energiya tizimining modernizatsiyasi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining joriy etilishi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki CO_2 emissiyalarini pasaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, energiya resurslaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-166-son “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz
2. Nigmanov, A. U. (2021). O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida energiya sarfini baholash. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/563
3. Iminov, F. (2022). Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirish strategiyalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5243
4. Yusupov, B. E. (2022). Muqobil energiya manbalari va ularning texnik-iqtisodiy ahamiyati. Journal of Scientific Research. https://journalss.org/index.php/wsrj/article/view/2259
5. Allanazarov, R., Samadqulov, M. (2023). Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6643
6. Mushafiq, A., et al. (2023). Energy Efficiency and Economic Policy: A Review. MDPI Energies Journal, 16(5), 2381. https://www.mdpi.com/1996-1073/16/5/2381
7. Fenerich, D., et al. (2023). Energy efficiency in industrial environments: An updated review and a new research agenda. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/369583777_Energy_efficiency_in_industrial_environments_an_updated_review_and_a_new_research_agenda
8. Sagoroff, S. (1954). The concept of energy in economics. Weltwirtschaftliches Archiv, 72(1), 84–101.
9. Cherp, A., & Jewell, J. (2014). The concept of energy security: beyond the four As. Energy Policy, 75, 415–421.
10. Smelser, N.J. Energy economics and industrial development studies. Stanford University.
11. Hajko, V. The economics and econometrics of the energy–growth nexus.
12. Paramati, S.R., Sinha, A., Dogan, E. (2017). Renewable energy use and economic output. Environmental Science and Pollution Research, 24(15), 13546–13560.

13. www.stat.uz — O‘zbekistonning energiya tizimi va iqtisodiy o‘sish.
14. EconJournals.org.tr — Energiya sarfi va YAIM per capita o‘sishi o‘rtasidagi statistika.
15. OECD.org — Energiya intensivligi va emissiyalar tahlili. IEA.org — Qayta tiklanadigan energiya va iqtisodiy samaradorlik.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF MARGINAL GROUPS IN THE HISTORICAL CULTURAL PROCESSES OF UZBEKISTAN

Zaripova Hulkar Tokhir qizi
Mirzo Ulugbek National University
PhD candidate in Philosophy
E-mail: hulkar.zaripova@gmail.com

Abstract. This article is devoted to a comprehensive analysis of the genesis, evolution, and functional role of marginal strata in the historical and cultural processes of Uzbekistan, based on socio-philosophical and historical-sociological approaches. It also elucidates the theoretical and methodological foundations of the phenomenon of marginalization and reveals the dialectical interrelations between the center and the periphery within the system of social stratification of society.

Keywords: society, group, historical, marginalism, identification, civilization, epistemological, identity, contradiction, development.

O‘ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O‘RNI

Zaripova Hulkar Toxir qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistondagi tarixiy-madaniy jarayonlarda marginal qatlamlarning genezisi, evolyutsiyasi hamda funksional o‘rnini ijtimoiy-falsafiy va tarixiy-sotsiologik yondashuvlar asosida kompleks tahlil etishga bag‘ishlangan. Shuningdek, marginalizatsiya fenomenining nazariy-metodologik asoslari yoritilib, jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasi tizimida markaz va periferiyaning o‘zaro dialektik munosabatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, guruh, tarixiy, marginalizm, identifikatsiya, svilizatsiya, epistemeologik, identitet, ziddiyat, taraqqiyot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N13

Kirish. O‘zbek jamiyatida marginal qatlamlarning shakllanishi ko‘plab tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarix davomida ijtimoiy qatlamlar o‘zaro murakkab munosabatda bo‘lib, ayrim guruhlar jamiyatning markazidan chetda qolib, o‘zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy huquqlaridan mahrum bo‘lgan. Bu jarayon, avvalo, feodal tuzumning mavjudligi, kolonial bosqinchilik va keyinchalik sovet davrining ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy harakatlari natijasida yanada mustahkamlangan. Bu jarayonlar oqibatida marginal qatlamlar ko‘pincha mehnat bozoridan chetlashtirilgan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlaridan yetarlicha foydalana olmagan, natijada ularning ijtimoiy o‘zlashtirilishi sekinlashib borganligini ta’kidlash zarur. Shu ma’noda, tarixiy jarayonlarda bunday chetlanish holatlari ma’naviy

marginallashuvni yuzaga kelishiga olib kelgan. Ya’ni, ayrim guruhlarning qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniy tajribasi umumiy tarixiy ongda ikkinchi darajali yoki ahamiyatsiz sifatida baholangan. Bu esa jamiyatning o‘z tarixiy o‘tmishini to‘liq va haqqoniy anglashiga to‘sqinlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qadimgi manbalarni o‘rganishda o‘zbek jamiyatning ayrim guruhlari tarixiy voqealarda aks etmay qolgan holatlar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlar (shaxsiy manbalar, tarixiy qissalar) natijasi sifatida ma’naviy marginallashuv ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Bu holat tarixshunoslikda “marginal tarix” sifatida ham tahlil qilinishi mumkin.

Marginal tarix rasmiy tarixiy normotivlardan tashqarida qolgan tajribalar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u tarixni biryoqlama emas, ko‘p ovozli jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shaxsiy manbalar, og‘zaki tarix, tarixiy qissalar, folklor namunalarining tahlili aynan shu yo‘nalishning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Shu bois, zamonaviy tarix falsafasi va tarixshunoslikda marginal tarixni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega. U tarixiy adolatni tiklash, madaniy xilma-xillikni e’tirof etish hamda jamiyatda inklyuziv tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama.O‘zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida marginal qatlamlar jamiyatning ichki xilma-xilligi va dinamik rivojlanishining muhim unsuri sifatida shakllangan. Ularni inkor etish yoki chetlashtirish emas, balki bag‘rikenglik, madaniy dialog va inkluziv ijtimoiy siyosat orqali jamiyat hayotiga faol integratsiya qilish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlar eng avvalo sivilizatsiyalar tutashuvi mahsuli, identitet izlanishlarining tabiiy natijasidir. Shuningdek, global va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat maydoni sifatida shakllangan. Ularni inkor etish emas, balki madaniy dialog, bag‘rikenglik va inkluzivlik orqali jamiyatning barqaror va uyg‘un rivojlanishiga xizmat qildirish zamonaviy falsafiy yondashuvning asosiy vazifasidir. Xususan, O‘zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarda marginal qatlamlar:

a) etnik guruhlar,

b) madaniy identifikatsiyadagi murosasizliklar,

s) global madaniyat bilan milliylik o‘rtasidagi ziddiyatlar,

kabi o‘ziga xos kontekstda shakllangan bo‘lib, bu jarayonlarni tahlil qilish uchun bir qator ilmiy manbalar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arb, Shimol va Janub sivilizatsiyalari tutashgan makon sifatida shakllangan. Buyuk Ipak yo‘li doirasida yuzaga kelgan migratsion, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida bu hududda turli etnik guruhlar istiqomat qilib kelgan. Ushbu tarixiy jarayon etnik xilma-xillik bilan bir qatorda ayrim guruhlarning madaniy jihatdan markaziy identitetdan chetroqda qolishiga ham sabab bo‘lgan. Zero, O‘zbekiston hududi tarixan **sivilizatsiyalar chorrahasi** bo‘lib kelganligi va bu jarayonda eng avvalo turkiy, eroniy, arab, rus va g‘arb madaniyatlari o‘zaro ta’sirga kirishganligini ta’kidlash lozim.[1]. Bu jarayon etnik xilma-xillikni kuchaytirgan va ayrim guruhlarning madaniy jihatdan “markaz”dan nisbatan chetda qolishiga olib kelgan. Falsafiy nuqtai nazardan, etnik marginalizatsiya ko‘pincha “boshqa”ni tan olish muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon Ch.Teylor tomonidan ilgari surilgan “tan olinmaslik adolatsizligi” konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Zero, etnik

marginal guruhlar jamiyat madaniy xotirasini saqlash, an’anaviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish orqali milliy madaniyatning rang-barangligini ta’minlab kelgan.

Tahlil va natijalar. Zardushtiylikning muqaddas manbasi “Avesto”da jamiyatda ijtimoiy guruhlar: kohinlar (atravanlar), harbiylar (rataistralar), dehqon-chorvadorlar (vastrya-fshuyant), hunarmandlar (xutlar) tabaqalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Kohinlar va harbiylar hukmron tabaqalar bo‘lib, hokimiyatni boshqarganlar. Ayniqsa, kohinlarning mavqeyi baland bo‘lgan. “Oila, qishloq, tuman, shahar va viloyatlar unvonli diniy yo‘lboshchilar tomonidan boshqarilgan. Podsho va uning a’yonlari kelib chiqqan harbiylar tabaqasining mavqeyi ham baland bo‘lgan”[2]. Asosiy ishlab chiqaruvchilar dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar bo‘lgan. Avestoda qullarning mavjudligi bayon etilgan. Ular jamiyat hayotida katta rol o‘ynamagan. Falsafiy jihatdan bunday tuzilma jamiyatda hokimiyat va mehnatning keskin ajralishini ifodalaydi. Ishlab chiqaruvchi tabaqalar ya’ni dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar jamiyatning moddiy asosini yaratgan bo‘lsalar-da, siyosiy va ma’naviy qarorlar qabul qilish jarayonlaridan chetda qolgan. Bu esa fikrimizcha, ijtimoiy adolat va tenglik masalalarining cheklangan doirada talqin etilganini ko‘rsatadi. Qullarning mavjudligi va ularning jamiyat hayotida faol rol o‘ynamagani esa ijtimoiy tuzilmaning quyi qatlamlarida **ijtimoiy ko‘rinmaslik** holatini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, “Avesto”da ifodalangan ijtimoiy tuzilma qadimgi jamiyatlarda hokimiyat, mehnat va ma’naviyat o‘rtasidagi munosabatlarning qanday shakllanganini ko‘rsatadi. Bu model ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bilan birga, ijtimoiy tengsizlik va tabaqaviy marginallashuvni muqaddaslashtirilgan me’yor sifatida mustahkamlagan. Shu bois, Avestodagi ijtimoiy tizimni falsafiy tahlil qilish bugungi kunda ham ijtimoiy adolat, hokimiyat legitimatsiyasi va marginallik muammolarining tarixiy ildizlarini anglash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk Yunon kolloniyalashtirilishi (mil.avv. VIII-VI asrlar) O‘zbekiston hududiga bevosita ta’sir qilmagan bo‘lsa-da, u **bilvosita ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy mexanizmlar orqali** marginallik tushunchasini tushunishda va tarixiy analogiya sifatida foydalanishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, savdo yo‘llari, madaniy almashuv va hududiy tafovutlar O‘zbekistonning tarixiy-madaniy jarayonlarida chekka guruhlarning shakllanishini va ularning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, Buyuk Yunon kolloniyalari Ipak yo‘li bo‘ylab madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu orqali Sharq hududlari, jumladan Markaziy Osiyo, o‘zining mahalliy madaniy qatlamlari va tashqi aloqalari orqali yangi g‘oyalar va savdo-praktikalarni qabul qilgan. Natijada, ayrim guruhlar bu jarayonda markaziy savdo-siyosiy tizimdan chetda qolib, bilvosita **madaniy va iqtisodiy marginallashuv**ga duch kelgan.[3]

Yunon koloniyalari orqali yuzaga kelgan yangi iqtisodiy va madaniy model bilan mahalliy jamiyatning an’anaviy tuzilmalari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelgan. O‘zbekiston hududidagi kichik etnik va ijtimoiy guruhlar, masalan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan yoki chekka hududlarda yashovchi aholilar, bu yangi tizimdan nisbatan chetda qolib, **ijtimoiy va iqtisodiy marginallashuv**ni boshdan kechirgan. Shu bilan birga, ushbu jarayon tarixiy analogiya sifatida O‘zbekiston hududidagi **ko‘chmanchilik, urbanizatsiya va hududiy tafovutlar natijasida yuzaga kelgan marginal qatlamlar**ni yuzaga keltirgan. Masalan, ichki migratsiya va shaharlar bilan qishloq o‘rtasidagi tafovut, iqtisodiy va madaniy chetlanish, markaziy tizimdan nisbatan ajralish kabi marginallik ko‘rinishlariga olib kelgan. O‘zbekiston

tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlarni o‘rganishda sotsial-falsafiy, madaniyatshunoslik, postkolonial va tizimli yondashuvlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy tuzilmaning barcha qatlamlari teng darajada integratsiyalashmaydi. Ayrim ijtimoiy guruhlar tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida jamiyatning markaziy ijtimoiy institutlaridan chetda qoladi va marginal holatga tushadi. O‘zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida bunday qatlamlarning shakllanishi va transformatsiyasi muayyan tarixiy davrlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni o‘rganish kompleks falsafiy yondashuvni talab etadi.

Sotsial-falsafiy yondashuv marginal qatlamlarni jamiyat taraqqiyotining ichki ziddiyatlari mahsuli sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda jamiyat statik tuzilma emas, balki doimiy harakat va o‘zgarishda bo‘lgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. O‘zbekiston tarixiy tajribasida marginal qatlamlarning shakllanishi an’anaviy ijtimoiy tuzilmaning buzilishi, mustamlakachilik va sovet modernizatsiyasi va bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Ushbu jarayonlar jamiyatda ijtimoiy moslashuv darajasi turlicha bo‘lgan guruhlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Bizning fikrimizcha, sotsial-falsafiy yondashuv marginal qatlamlarni ijtimoiy tanazzul belgisi sifatida emas, balki jamiyatdagi strukturaviy muammolarni ochib beruvchi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini yuzaga chiqaruvchi subyekt sifatida baholash mumkin.

Madaniyatshunoslik yondashuvi marginal qatlamlarni madaniy identitetning izdan chiqishi va qayta shakllanishi jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. O‘zbekiston tarixiy-madaniy makonida bu holat an’anaviy va modern madaniyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi. Sovet davrida milliy madaniyatning standartlashtirilishi va ideologiyalashtirilishi natijasida ayrim madaniy amaliyotlar cheklangan, natijada jamiyatda madaniy marginal guruhlar vujudga kelgan. Mustaqillikdan keyingi globallashuv jarayonlari esa yangi madaniy gibrid shakllarni yuzaga chiqardi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan marginal qatlamlar eng avvalo madaniy chegaralarda mavjud bo‘lgan subyektlar, yangi ijtimoiy ramz va ma’nolarni ishlab chiquvchi guruhlar va jamiyat madaniy yangilanishining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.[4]

Postkolonial yondashuv esa marginal qatlamlarni mustamlakachilik merosi bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Rossiya imperiyasi va sovet davrida O‘zbekiston hududida mahalliy bilim tizimlari va ijtimoiy institutlarning cheklanishi natijasida muayyan ijtimoiy guruhlar siyosiy va madaniy jihatdan chetlashtirilgan. Bu yondashuv marginal qatlamlarni rasmiy tarixiy diskursdan chetda qolgan, ovozi eshitilmagan subyektlar sifatida ko‘rib chiqadi. Ularning ijtimoiy tajribasi uzoq vaqt davomida mafkuraviy filtrlardan o‘tmagan yoki e’tibordan chetda qolgan. Bizning fikrimizcha, postkolonial yondashuv marginal qatlamlarni o‘rganishni tarixiy adolatni tiklash, milliy xotirani qayta tiklash va ijtimoiy ongni dekolonizatsiya qilishning muhim sharti sifatida baholash mumkin.

Tizimli yondashuv jamiyatni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar majmui sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv doirasida marginal qatlamlarning mavjudligi jamiyat tizimlarida yuzaga kelgan disfunksiyalar natijasi sifatida qaraladi. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida institutsional moslashuvning sustligi, ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzilishlar va ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi marginal qatlamlarning kengayishiga olib kelgan. Tizimli yondashuvga ko‘ra, marginal

qatlamlar jamiyat barqarorligiga tahdid emas, balki tizimdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy indikator hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlarni o‘rganish kompleks falsafiy yondashuvni talab etadi. Zero, sotsial-falsafiy yondashuv ularni ijtimoiy ziddiyatlar va taraqqiyot omili sifatida ochib bersa, madaniyatshunoslik yondashuvi madaniy identitet va gibridlik jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Postkolonial yondashuv esa tarixiy adolatsizlik va epistemik tengsizlikni ochib bersa, tizimli yondashuv marginal qatlamlarni jamiyat barqarorligining muhim ko‘rsatkichi sifatida talqin etadi. Zero, mazkur yondashuvlarning integratsiyasi marginal qatlamlarni muammo sifatida emas, balki o‘zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida faol subyekt sifatida baholashga imkon yaratadi.

G‘arb madaniyati va global ommaviy madaniyat ta’siri milliy qadriyatlar bilan ziddiyat jarayonlariga olib keladi. Bu ta’sir milliy identifikatsiyani sinovdan o‘tkazadi, an’anaviy madaniyat bilan zamonaviy global madaniyat o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, yangi marginal submadaniyatlarning yuzaga kelishini tezlashishiga olib keladi. Bu qarash o‘zbek madaniyati tadqiqotlarida milliylik va global ta’sirlar o‘rtasidagi munosabatni chuqur tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida marginal qatlamlar jamiyatning ichki xilma-xilligi va dinamik rivojlanishining muhim unsuri sifatida shakllangan. Ularni inkor etish yoki chetlashtirish emas, balki bag‘rikenglik, madaniy dialog va inkluziv ijtimoiy siyosat orqali jamiyat hayotiga faol integratsiya qilish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, marginal qatlamlarning mavjudligi jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik va ziddiyatlarning ochiq ko‘rinishi sifatida qaraladi. O‘zbek xalqi shakllanishida marginal qatlamlarning paydo bo‘lishi va uning shakllanishi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tarixiy bosqichlarida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, sovet davrida kollektivlashtirish, sanoatlashuv jarayonlari, demografik o‘zgarishlar hamda mehnat migratsiyasi yangi marginal qatlamlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Xususan, “kollektivlashtirish 1920-1930-yillarda Sovet Ittifoqida qishloq xo‘jaligini markazlashgan kollektiv xo‘jaliklarga (kolxozlar va sovxozlar) birlashtirish siyosati bo‘lgan”[5] Shuningdek, bu davrda **qishloq aholisining ijtimoiy tarkibining o‘zgartirish jarayoni amalga oshirilgan.** Binobarin, kollektivlashtirish natijasida mustaqil dehqonchilik yo‘q qilingan, yer va mol-mulk davlat tasarrufiga topshirilgan. Bu ko‘plab kichik fermerlar va dehqonlarni qashshoqlashishiga, ish joyidan mahrum bo‘lib, ijtimoiy himoyasiz qatlamga aylanishiga olib kelgan. Aynan, ushbu toifalar keyinchalik marginal qatlamlarni shakllanishiga zamin hozirlagan deb ta’kidlash mumkin.

Adabiyotlar tahlilicha, Sovet Ittifoqining sanoatlashtirish va jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosati ma’muriy-buyruqbozlik vositasida amalga oshirilganligi va bu esa bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqarganligini alohida ta’kidlash zarur. Sanoatlashtirish natijasida mamlakatda yuzlab sanoat korxonalari, temir yo‘llar, gidroelektrstansiyalar qurilgan bo‘lsa-da, mamlakatda bozor munosabatlariga barham berilganligi, xususiy mulk yo‘q qilinganligi oqibatida insonlarni davlatga qaramligi boshlandi, mamlakat iqtisodiyoti “yuqoridan” tuzilgan reja (plan) asosida boshqariladigan bo‘lib, odamlar ulkan rejalar va g‘oyalarni amalga oshirishda bir kichkina vosita bo‘lib qoldilar. “Qishloq joylarda kolxozlarga kirishni xohlamagan dehqonlarni saylov huquqidan mahrum etib ularni «mahrum

bo‘lganlar»deb ataldi, quloq qilindi, ya’ni mol-mulklari musodara etildi. Jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida, ayniqsa, boy dehqon (quloq)lar aziyat chekkan”[6]. Quloqlarga “xalq dushmanlari” degan tamg‘a bosilib, ularni sinf sifatida yo‘q qilish maqsad qilib qo‘yilgan. Ayniqsa, **marginal qatlamlar sifatida quloqlashtirilgan dehqonlar va ishchi sinfini alohida aytish mumkin. Jumladan, quloqlar** sifatida boy dehqonlar qatag‘on qilingan, ularning mulki tortib olingan va yo‘q qilingan. Ular ko‘pincha shaharlarga ko‘chib, ish topolmay, marginall qatlamga asta-sekinlik bilan aylanib borgan. Shu bilan birga, qishloqdan shaharlarga ko‘chib kelganlar, ishchi va dehqonlar orasida ijtimoiy notenglik va iqtisodiy qiyinchiliklar paydo bo‘lgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy bosim sababli ham xalq ancha og‘ir ahvolni boshidan o‘tkazgan. Kollektiv xo‘jaliklarda samaradorlik pastligi, ocharchilik va ishsizlik ko‘payishi, qishloq aholisi orasida ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan. Bu esa ko‘plab insonlarni o‘zini jamiyatdan tashqarida, marginal holatda his qilishga olib kelgan, deb asoslash mumkin. Bizning fikrimizcha, Sovet Ittifoqi amalga oshirgan kollektivlashtirish marginall qatlamlarni shakllanishiga katta ta’sir qilgan. Bu qatlamlar jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan zaif pozitsiyada bo‘lib, ko‘plab zo‘ravonlik va qatag‘onlarga uchragan. Yevropa millatiga mansub ming-minglab qizil askarlarning Turkiston o‘lkasiga safarbar etilishi oqibatida masjid va madrasalar vayron qilindi. Mahalliy aholining urf-odatlaridan xabarsiz bo‘lgan “qizil bosqinchilar” diniy muassasa va tashkilotlarni otxonalarga, qurol-yarog‘, oziq-ovqat omborlariga, harbiy qismlarning kazarmalariga aylantirdilar. “Oxir-oqibatda diniy tuyg‘ulari poy-mol qilingan xalqning sovet hokimiyatiga bo‘lgan umidlari va ishonchi so‘ndi. Dastlabki yillardayoq dindor kishilar va ruhoniylar sovet hokimiyatining dushmani sifatida ta’qib ostiga olindi. 1917-1920-yillarda sovet hokimiyatining dinga munosabati daxriylikdan iborat bo‘lgan edi”[7].

Biroq, Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat sovet hokimiyati organlariga bu masalada ehtiyotkorlik bilan ish tutish zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida mazkur sohada davlatimiz va hukumatimiz tomonidan amalga oshirib borilgan islohotlar va vijdon erkinligi borasida qabul qilingan qator qonunlar, milliy ma’daniy markazlarning tashkil etilishi va barcha diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi uchun keng yo‘l ochib borilishi hamda davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, bu sohaning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Markaziy Osiyodagi tarixiy etno-madaniyatlar, jumladan O‘zbekistondagi madaniy guruhlar, ko‘p asrlar mobaynida integratsiya, transformatsiya va konflikt jarayonlaridan o‘tgan. Bunday jarayonlar madaniy o‘zgarishlar, yetakchilik va mintaqaviy siyosiy ta’sirlar bilan bog‘liqligini ta’kidlash zarur. Bu esa, markaziy madaniyatdan chetda qolgan qatlamlarning hayoti va ongida marginallik shakllariga olib kelgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. F.Xasanov. Madaniyat va migratsiya. – Buxoro: Ilm Ziyo, 2022. – 292 b.
2. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2014. – B. 22.
3. G‘.Akramov. Marginallashuvni yengishda falsafaning roli: imkoniyatlar va cheklovlar // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, – 1.1 (2024): – B. 302.
4. D.Yusupov. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ishtirok. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2020. – 258 b.
5. Fitzpatrick S. Stalin’s Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization. – Oxford University Press, 1994. – P. 9.

6. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2014. – B. 167.
7. R.To‘laganov. Shaxs va jamiyat: psixologik yondashuv. – T.: Ma’naviyat, 2022. – 206 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CULINARY CULTURE AND HEALTH PHILOSOPHY: THE ORGANIZATION OF FOOD IN VOZEH'S "KONI LAZZAT KHANI NE'MAT"

Abdullayeva Saodat Nurillo qizi
Teacher, Bukhara State Medical Institute

Abstract. This article analyzes the work “Koni lazzat va khoni ne’mat” by Qori Rahmatullah Vozeh, a prominent representative of the 19th-century Bukhara enlightenment environment, from the perspective of socio-philosophical and source studies. The study highlights the reasons for writing the work, the main fundamental medical sources used by the author, and the principles of systematization of dishes. Vozeh’s bibliographical innovation through a unified arrangement of scattered culinary recipes, as well as his views on the impact of dishes on human health, their benefits and harms, are revealed. The article attempts to scientifically prove that the work is not only a culinary guide, but also an important ethnographic and preventive medicine source studying the lifestyle of the peoples of Central Asia in the 19th century.

Keywords: culinary culture, health philosophy, medical encyclopedia, preventive medicine, ethnography, food classification, national values.

PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI

Abdullayeva Saodat Nurillo qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Buxoro ma’rifatparvarlik muhitining ko‘zga ko‘ringan vakili Qori Rahmatulloh Vozehning “Koni lazzat va xoni ne’mat” asari ijtimoiy-falsafiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarning yozilish sabablari, muallif foydalangan asosiy fundamental tibbiyotga oid manbalar hamda taomlarning tizimlashtirilish tamoyillari yoritilgan. Vozehning pazandachilikka oid tarqoq retseptlarni yagona tartibga solish orqali amalga oshirgan bibliografik yangiligi, shuningdek, taomlarning inson salomatligiga ta’siri, foyda va zararlari haqidagi qarashlari ochib beriladi. Maqolada asarning nafaqat oshpazlik qo‘llanmasi, balki XIX asr Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzini o‘rganuvchi muhim etnografik va profilaktik tibbiyotga oid manba ekanligi ilmiy tomondan isbotlashga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: pazandachilik madaniyati, salomatlik falsafasi, tibbiy ensiklopediya, profilaktik tibbiyot, etnografiya, taomlar tasnifi, milliy qadriyatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N14

Kirish. Qori Rahmatulloh Vozeh (1818–1894) XIX asr Buxoro ma’rifatparvarlik muhitining Ahmad Donish singari eng serqirra va qomusiy bilimga ega bo‘lgan mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Abdulqodir xo‘ja Savdo, Shamsiddin Shohin, Abdulmajid Zufunun, Tanburiy Dilkash, Mirzo Sami, Iso Mahmud, Muztarib, Said Ahmad xo‘ja Sodiqiy (Ajziy), Sahbo, Asiriy, doktor Sabir va Sadriddin Ayniy — barchalari Vozeh qatorida Ahmad Donishning izdoshlari edilar.[3;266] U nafaqat iste’dodli shoir va tazkiranavis, balki manbashunos olim, tabib va geograf sifatida ham tanilgan.

Vozeh o‘zining “Tuhfat ul-ahbab” tazkirasi bilan Markaziy Osiyodagi to‘xtab qolgan tazkiranavislik an’anasini qayta tiriltirdi,[5;35-36] “Savoneh ul-masolik” asari[4;24] orqali esa Markaziy Osiyoning safarnoma janriga realistik va xolis tasvir uslubini olib kirdi. Uning ilmiy qiziqishlari tibbiyot, musiqa, astronomiya va pazandachilik kabi keng sohalarni qamrab olgan bo‘lib, bu mutafakkirning o‘z davri madaniy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi naqadar ulkan ekanidan dalolat beradi.[8,97]

XIX asr oxiri Buxoro adabiy va ilmiy muhitining yirik vakili Qori Rahmatulloh Vozeh o‘zining “Koni lazzat va xoni ne’mat” asari bilan o‘zbek-tojik pazandachilik madaniyatida yangi sahifa ochdi. Muallifning e’tirof etishicha, asarning yozilishiga hayotiy sinovlar chekinish va tanholikda yashash davri sabab bo‘lgan. Bu holat mutafakkirning qalb taskini qidirish jarayonida allomalarning asarlariga murojaat qilishi[9;323] va natijada ilgari hech kim qo‘l urmagan sohani – taomlar tizimini tartibga solish g‘oyasini tug‘dirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Vozeh ushbu asarni yaratishda shunchaki retseptlar to‘plamiga emas, balki fundamental tibbiy manbalarga tayangan. Bu holat asarning oddiy pazandachilik kitobidan yuqori turishini ta’minlaydi. Vozehning ta’kidlashicha, tibbiyotga oid kitoblarda dori-darmonlar, malhamlar va sharbatlar tizimli bayon etilgan bo‘lsa-da, nafis taomlar va shirinliklar retseptlari tarqoq va tartibsiz holatda edi. U ushbu tarqoq ma’lumotlarni o‘z tajribasi bilan boyitib, yagona tizimga keltirdi. Qori Rahmatulloh Vozeh hayoti va ijodini o‘rganishda T. Nematzodaning “Vozeh” (1957) asari fundamental ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqot Vozeh ijodini ilk bor ma’rifatparvarlik adabiyoti nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilib bergan.

T. Nematzoda tadqiqotlari[1;11-120]**:** Olim Vozehning “Koni lazzat va xoni ne’mat” asari ustida to‘xtalib, uning yozilish sabablarini mutafakkirning o‘z e’tiroflari asosida ochib bergan. Shuningdek, u asarning strukturasini ilk bor ilmiy tavsiflagan.

Rasul Hodizoda va Usmon Karimov[2,183-260]: Ushbu olimlar Vozehni XIX asrning ikkinchi yarmidagi Ahmad Donishdan keyingi ikkinchi yirik ma’rifatparvar adib sifatida baholaydilar. Ular Vozehning “Savoneh ul-masolik” va “Tuhfat ul-ahbob” asarlarini janr xususiyatlari va g‘oyaviy yo‘nalishi bo‘yicha tahlil qilganlar.

Ushbu maqolada Vozehning “Koni lazzat” asarini o‘rganishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalaniladi:

Tizimli tahlilga ko‘ra asardagi taomlar, nonlar va shirinliklarning tasniflanishi arab alifbosi tartibida (“Bob alif”, “Bob dol”) o‘rganiladi.

Qiyosiy-tarixiy metod tahliliga ko‘ra Vozeh asari o‘zidan oldingi Abu Ishoq Sheroziyning “Qanz ul-ishtiho” asari hamda u foydalangan “Zaxirai Xorazmshohiy”, “Qarobodini Qodiriy” kabi tibbiy ensiklopediyalar bilan qiyoslanadi.[1;113]

Etnografik tahlilga ko‘ra asarda keltirilgan 228 xil osh va 18 turdagi nonlarning hududiy xususiyatlari (Buxoro, Eron, Hindiston) orqali davr turmush tarzi qayta tiklanadi.

Manbashunoslik tahliliga ko‘ra esa T. Nematzoda va boshqa adabiyotshunoslarning ilmiy xulosalariga tayanib, Vozehning “Koni lazzat” asarini oddiy retseptlar to‘plami emas, balki “qarobodin” (tibbiy dori-darmonlar majmuasi)ga yaqin tizimli asar ekanligi isbotlanadi.[1;116] Adibning bu asari xalqimizning ma’naviy merosi bo‘lib, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.[6;19-21]

Natijalar va muhokama. Qori Rahmatulloh Vozehning **“Koni lazzat va xoni ne’mat”** asari ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning XIX asr Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyatidagi o‘rni quyidagicha aniqlandi:

Qori Rahmatulloh Vozeh ushbu asarni hayotining murakkab pallasida ya’ni taqdir va zamon taqozosi bilan bir muddat chekinish va tanholikda yashashga to‘g‘ri kelgan davrida yaratgan. Mutafakkir o‘z ko‘nglini tinchlantirish va g‘amgin qalbiga taskin berish maqsadida allomalarning kitoblarini mutolaa qilish jarayonida ilgari hech kim tizimga solmagan soha ya’ni taomlar retseptlarini ilmiy majmua holiga keltirishga qaror qilgan. Natijada u har bir ilm va fandan imkon darajasida chuqur tafakkur va izlanish olib borib taomlar retseptini tarqoq va tartibsiz holatdan yagona tizimli asar holiga keltirishga muvaffaq bo‘lgan.

So‘nggi yillarda olib borilgan izlanishlarning natijasiga ko‘ra, Vozeh asarni yaratishda shunchaki amaliy tajribaga tayanib qolmasdan balki Sharq tabobatining eng yirik manbalariga tayangan. Muallif Muhammad Akbar Arzoniyning “Qarobodini Qodiriy” hamda Mirmuhammadzamon Tankobuniyning “Tuhfat ul-mo‘minin” va Solih binni Muhammadning “Amal us-solihin” asarlaridan foydalangan. Shuningdek o‘n jilddan iborat tibbiyot ensiklopediyasi hisoblangan “Zaxirai Xorazmshohiy” va “Qarobodini kabir” hamda “Matla’ ul-ulum” va “Iksiri a’zam” kabi asarlardagi ma’lumotlardan unumli foydalanib shaxsan o‘zi to‘plagan materiallarga tayangan holda hijriy 1298 yilda ushbu asarni tashkil etgan.

Asarning strukturaviy tuzilishi va qamrovi o‘sha davr uchun noyob hodisa hisoblanadi. Asar ikki jilddan iborat bo‘lib uni shartli ravishda muqaddima va ikki qism hamda xotima bo‘limlariga ajratish mumkin. Muqaddimada o‘n sakkiz turdagi nonlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib bular sirasiga bodom noni va boqirxon noni hamda sangak noni va shirmoy noni kabilarni kiritish mumkin. Birinchi qismda yigirma ikki bobda taom turlariga ko‘ra yuz to‘qqiz xil hamda alohida nom va shaxslar nuqtai nazaridan ikki yuz yigirma sakkiz xil osh tasvirlangan. Ikkinchi qismda esa yuz oltmish to‘qqiz turdagi holva haqida so‘z boradi.[2;194]

Muhokama jarayonida Vozehning o‘ziga xosligi shunda ko‘rinadiki u o‘zidan oldingi mualliflardan farqli o‘laroq taomlarning tarkibi va tayyorlash usullari haqida batafsil ma’lumot bergan. Masalan o‘n beshinchi asr boshlarida Abu Ishoq Xallochiy At’imai Sheroziy taomlarni g‘azal va doston qahramonlari sifatida tasvirlagan bo‘lsa-da ularning tarkibi haqida ma’lumot bermagan edi. Vozeh esa taom turlari va holva navlari hamda turli xil tuzlamalarni arab alifbosi tartibida keltirib ularni boblarga ajratgan. Hoji Azimi Shar’iy ta’kidlaganidek bungacha bunday asarni jamlab tartibga solishga hech kim muvaffaq bo‘lmagan.

Asar nafaqat O‘rta Osiyo xalqlari taomlari balki Eronning “Bo‘roni xiyor” va Hindistonning “Barro” kabi mashhur taomlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa asarni nafaqat oshpazlik qo‘llanmasi balki o‘sha davr aholisining turmush tarzini o‘rganishda muhim etnografik manba sifatida baholashga asos bo‘ladi. Bu adibning asarlarida soxtalik yo‘qligini, xolisligini hamda shoirning mahorati zamondosh davr shoirlari Xoja A’zam Shariy, Afzal Maxdum Pirmastiy tomonidan yuqori baholangan.[7;1683]

“Koni lazzat va xoni ne’mat” shartli ravishda muqaddima, ikki asosiy qism va xotimadan tashkil topgan:

1. Muqaddima: Non madaniyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda 18 turdagi non (bodom non, boqirxon, patir non, sangak, shirmoy va b.) tavsiflangan.
2. Birinchi qism: 22 bobdan iborat bo‘lib, 228 xil osh (taom) turlari keltirilgan.
3. Ikkinchi qism: 20 bobda 169 turdagi halva va shirinliklar bayon etilgan.

4. Xotima: Ikki faslga bo‘linib, 23 xil tuzlama (salatlar) va 33 turdagi murabbolarni o‘z ichiga oladi.

Taomlarning arab alifbosi tartibida (“Bob alif”, “Bob dol” kabi) joylashtirilishi asarning ilmiy-lug‘aviy qiymatini oshiradi.[1;114]

Xulosa va tavsiyalar. Qori Rahmatulloh Vozehning mazkur asari XIX asr Buxoro madaniy hayotining o‘ziga xos qomusiy manbasi bo‘lib hisoblanadi Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki mutafakkir taomlar tasnifiga shunchaki oshpazlik retseptlari sifatida emas balki inson salomatligini saqlashning muhim omili sifatida yondashgan Muallifning tarqoq ma’lumotlarni tizimlashtirishda allomalar yaratgan tibbiy ensiklopediyalardan unumli foydalangani asarning ilmiy salmog‘ini oshirgan Vozeh tomonidan ilgari surilgan me’yor va poklik tamoyillari bugungi kun sog‘lom ovqatlanish madaniyati uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Asarning etnografik qamrovi kengligi uni nafaqat mahalliy balki mintaqaviy oshpazlik tarixini o‘rganishda asosiy manba sifatida xizmat qilishiga imkon beradi Mazkur tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlarining manbashunoslik va ma’naviyatshunoslik kurslarida foydalanish tavsiya etiladi Kelajakda Vozeh asarlaridagi tibbiy tavsiyalarni zamonaviy diyetologiya nuqtai nazaridan chuqurroq tahlil qilish ma’rifatparvarlik davri ilmiy merosini yangi bosqichga olib chiqadi

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ne’matzoda T. Vozeh. –Deshanbe: Irfon, 1965. –230 b.
2. Hodizoda R. Adabiyoti tojik dar nimai duvvumi asri X1X. –Dushanbe: Donish, 1968. –294 b
3. Богоутдинов А. М. Очерки по истории таджикской философии. — Сталинабад : Таджикгосиздат, 1961. — 333 с.
4. Abdullayeva, S. N. *Qori Rahmatulloh Vozeh – diniy va dunyoviy ilmlar sohibi* //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2024. – V. 2, № 4(3). – B. 24–25.
5. Abdullayeva, S. N. *Rahmatullah Vazeh’s Poor Live with Full of Energy of Islam*// Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2024. – J. 4, № 9 (September). – B. 35–36.
6. Abdullayeva, S. N. *Qori Rahmatulloh Vozeh va uning tazkirasi* //Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2024. – J. 4, № 6 (June). – B. 19–21.
7. Abdullayeva, S. N. *XIX asrning 2-yarmida Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot Vozeh asarlari misolida* //Modern Science and Research, 2025. – V. 4, № 5. – B. 1683–1686.
8. Abdullayeva, S. N. *Women’s Life in Bukhara in the Book “Aqoid un-Nisa” of Rahmatullah Vozeh* //Ilm-Fan va Innovatsiya, №44 ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. – 2025, noyabr. – B. 96–99.
9. Abdullayeva, S. N. *Vozeh ma’naviy merosida borliq va unga munosabat* // “Fan, innovatsiya va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. –O‘zbekiston, Farg‘ona, Qo‘qon, 2026. – B. 323–324.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF PEACE AND COOPERATION AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF MODERN SOCIETY

Rajabov Behruz Baxshillayevich
Independent Researcher,
Bukhara State University

Abstract. This article is dedicated to analyzing the philosophical and social essence of the concepts of peace and cooperation. It presents peace not merely as the absence of war, but as a complex process grounded in justice, mutual respect, social harmony, and sustainable development. The article also examines historical and philosophical interpretations of peace, its contemporary scientific meaning, and its role in societal development. Furthermore, just and unjust forms of peace are compared, their social consequences are analyzed, and the interconnection of political stability, economic cooperation, scientific and technological progress, and cultural dialogue is emphasized as essential for ensuring peace.

Keywords: peace, social harmony, social welfare, justice, democracy, society, social protection, environmental security.

TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Rajabov Behruz Baxshillayevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy hamda ijtimoiy mohiyatini tahlil qilishga bag‘ishlanib, unda tinchlik faqat urushning yo‘qligi emas, balki adolat, o‘zaro hurmat, ijtimoiy muvozanat va barqaror rivojlanishga asoslangan murakkab jarayon sifatida yoritilgan. Shuningdek, tinchlikning tarixiy-falsafiy talqinlari, uning zamonaviy ilmiy mazmuni hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib berilgan. Bundan tashqari, tinchlikning adolatli va adolatsiz shakllari o‘zaro solishtirilib, ularning ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinib, tinchlikni ta’minlashda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy hamkorlik, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy muloqotning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tinchlik, ijtimoiy muvozanat, ijtimoiy farovonlik, adolat, demokratiya, jamiyat, ijtimoiy himoya, ekologik xavfsizlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N15

Kirish. Tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri sifatida doimo e’tirof etib kelinadi. Ular oddiy ijtimoiy hodisa emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi, murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lgan falsafiy fenomen hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, manfaatlar uyg‘unligi va ijtimoiy hamjihatlik aynan tinchlik va hamkorlik orqali shakllanadi. Faylasuf olimlar mazkur tushunchalarga turlicha yondashgan bo‘lsalar-da, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat tinchlikni barqarorlik, hamkorlikni esa rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etishdir. Tinchlik faqat urushning yo‘qligi emas, balki adolat, o‘zaro hurmat

va ijtimoiy muvozanat mavjud bo‘lgan holatdir. Hamkorlik esa insonlarning umumiy maqsad yo‘lida birlashib, o‘zaro yordam va mas’uliyat asosida faoliyat yuritishini anglatadi.

Shu sababli, tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy mazmunini chuqur tahlil qilish zamonaviy jamiyat rivojini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insoniyat taraqqiyoti aynan o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillariga tayangan holda barqaror davom etadi. Xususan, “tinchlik” tushunchasiga “Jahon falsafasi qomusi” lug‘atida “urushlarga yo‘l qo‘ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta’minlash tamoyillari” sifatida ta’rif berilgan [1]. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu ta’rif “tinchlik” tushunchasining faqat tashqi emas, balki ichki, ya’ni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, ong va madaniyat darajasidagi ifodasini ko‘rsatadi. Bu esa “tinchlik”ni bir holat emas, balki jarayon sifatida tushunishga olib keladi. Demak, ijtimoiy transformatsiyalar davrida bu jarayon doimiy ravishda dinamik xarakter kasb etib, ijtimoiy muvozanat orqali saqlanishi zarur bo‘lgan holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tinchlik va hamkorlik tushunchalarining falsafiy hamda ijtimoiy mohiyatini yoritish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv va konseptual umumlashtirish usullari tashkil etdi. Falsafiy-tahliliy metod orqali tinchlik va hamkorlik tushunchalarining mazmuni, tarixiy rivojlanishi hamda turli ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan qarashlar o‘rganildi va tinchlik ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasi bilan bog‘liq dinamik jarayon sifatida talqin qilindi. Tizimli yondashuv asosida tinchlik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy omillarning o‘zaro uyg‘unligi doirasida tahlil etildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida adolatli va adolatsiz tinchlik shakllari solishtirilib, ularning ijtimoiy oqibatlari baholandi hamda tinchlik mazmuni manfaatlar uyg‘unligi bilan belgilanadi degan xulosa asoslandi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, falsafiy manbalar va xalqaro siyosiy-huquqiy tamoyillarni o‘rganish asosida manbaviy tahlil amalga oshirildi. Natijada tinchlik va hamkorlikning ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy mohiyati kompleks tarzda ochib berildi.

Muhokama va natijalar. Tinchlik insoniyat tafakkuri tarixida eng muhim ijtimoiy-falsafiy tushunchalardan biri sifatida shakllangan bo‘lib, uning mazmuni turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, tinchlik xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda siyosiy maqsadlarga erishishda zo‘ravonlik vositalaridan foydalanishni inkor etuvchi munosabatlar tizimi sifatida izohlanadi [2]. Bunday yondashuv tinchlikni passiv holat emas, balki ongli ravishda shakllantiriladigan siyosiy, huquqiy va ma’naviy jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Darhaqiqat, tinchlik ko‘p asrlardan buyon insoniyatning eng ezgu orzularidan biri bo‘lib kelgan. Urushsiz davrlar tarixda har doim ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va ma’naviyat yuksalgan davrlar sifatida namoyon bo‘lgan. Insoniyat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va inson huquqlarining ta’minlanishi avvalo tinch muhit mavjud bo‘lgan sharoitda amalga oshadi. Shu sababli tinchlik taraqqiyotning zarur sharti sifatida qaraladi. Biroq tinchlik g‘oyasi har doim ham barcha urushlarni mutlaq inkor etish yoki abadiy tinchlik haqidagi romantik tasavvurlar bilan chegaralanmagan. Falsafiy va siyosiy tafakkur tarixida ayrim mutafakkirlar adolatni tiklash, zulmni bartaraf etish yoki insoniyat xavfsizligini ta’minlash maqsadida olib borilgan harakatlarni ham muhokama qilganlar. Bu esa tinchlik tushunchasining murakkab va ko‘p qirrali fenomen ekanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, tinchlik faqat urushning yo‘qligi emas, balki adolatli ijtimoiy tartib, o‘zaro hurmat, diplomatik muloqot va hamkorlikka asoslangan munosabatlar tizimidir. Zamonaviy dunyoda global xavfsizlik, xalqaro hamkorlik va insonparvarlik tamoyillarining rivojlanishi tinchlikni faol sa’y-harakatlar, kelishuv va mas’uliyat orqali ta’minlanadigan jarayon sifatida talqin etishni taqozo etadi. Demak, tinchlik insoniyatning nafaqat orzusi, balki ongli ravishda barpo etiladigan sivilizatsion qadriyatidir.

Tinchlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-siyosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, uning mazmuni jamiyatdagi kuchlar muvozanati, manfaatlar uyg‘unligi hamda adolat tamoyillariga bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli tinchlikni faqat urushning yo‘qligi sifatida emas, balki uning ijtimoiy mohiyatini, kim manfaatiga xizmat qilayotganini va qanday sharoitda qaror topganini hisobga olib baholash zarur. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga ko‘ra, tinchlikni ikki asosiy shaklga ajratish mumkin: adolatli (demokratik) tinchlik va adolatsiz tinchlik.

Avvalo, adolatli (demokratik) tinchlik jamiyat rivoji uchun eng maqbul shakl hisoblanadi. Bunday tinchlik inson huquqlari, tenglik, ijtimoiy adolat va xalqlarning erkin rivojlanishiga asoslanadi. Demokratik tinchlikda kuch ishlatish emas, balki muloqot, kelishuv va hamkorlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. U xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi. Adolatli tinchlik sharoitida davlatlar o‘z taraqqiyotini zo‘ravonliksiz yo‘l bilan amalga oshiradi, jamiyatda barqarorlik mustahkamlanadi, ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy rivojlanish uchun qulay muhit yuzaga keladi. Shu bois demokratik tinchlik insonparvarlik g‘oyalari va ilg‘or ijtimoiy kuchlar manfaatlariga mos keluvchi tinchlik shakli sifatida qaraladi. Adolatli tinchlikning mazmuni quyidagi prinsiplarda o‘z ifodasini topgan: “Davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishdan voz kechish, chegaralarning daxlsizligi va hududiy yaxlitlikni saqlash, nizolar va mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat, davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqaro huquq normalari va prinsiplari, BMT qarorlari va boshqa xalqaro hujjatlarni vijdonan bajarish” [3].

Bunga qarama-qarshi ravishda, adolatsiz tinchlik tashqi tomondan osoyishtalikni eslatsa-da, aslida tengsizlik, bosim yoki talonchilikka asoslangan munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Bunday tinchlik ko‘pincha kuchli tomonning manfaatlarini himoya qiladi, zaif tomon esa majburiy murosa yoki siyosiy bosim ostida yashaydi. Adolatsiz tinchlikda ijtimoiy ziddiyatlar yashirin shaklda saqlanib qoladi va vaqt o‘tishi bilan yangi nizolar yoki mojarolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki adolat mavjud bo‘lmagan joyda barqaror tinchlik uzoq davom etmaydi. Tinchlikning bu shakli vaqtinchalik barqarorlikni ta’minlasa-da, jamiyatda ishonchsizlik, norozilik va ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tinchlikning haqiqiy qiymati uning qanday sharoitda va kim manfaatiga xizmat qilayotganida namoyon bo‘ladi. Adolatli tinchlik jamiyatni rivojlantiradi, inson salohiyatini ro‘yobga chiqaradi va hamkorlikni kuchaytiradi. Adolatsiz tinchlik esa tashqi osoyishtalik ortida ziddiyatlarni yashiradi va barqaror taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi [4].

Tinchlik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik hamda madaniy hamkorlik kabi omillar uyg‘unligi asosida shakllanadi va aynan ushbu sohalarning qanday yo‘nalishda rivojlanishi tinchlikning adolatli yoki adolatsiz ko‘rinishda qaror topishini belgilaydi.

Avvalo, tinchlikning siyosiy elementi jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Siyosiy tinchlik davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, suverenitetni tan olish, xalqaro

huquq normalariga rioya qilish hamda nizolarni muzokara va diplomatiya orqali hal etishga asoslanadi. Adolatli siyosiy tizim mavjud bo‘lgan jamiyatda fuqarolar huquqlari himoyalanadi, ijtimoiy adolat ta’minlanadi va siyosiy qarorlar umumiy manfaatlarga xizmat qiladi. Aksincha, siyosiy bosim, tajovuzkorlik yoki kuch siyosati ustuvor bo‘lgan sharoitda tinchlik barqaror bo‘la olmaydi [5].

Tinchlikning iqtisodiy elementi esa jamiyat farovonligi va ijtimoiy tenglik bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy hamkorlik, savdo aloqalari, resurslardan oqilona foydalanish va o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlar davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Iqtisodiy tengsizlik, kambag‘allik yoki resurslar uchun kurash esa ko‘pincha nizolar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli barqaror tinchlik iqtisodiy adolat, ijtimoiy himoya va umumiy farovonlikni ta’minlash orqali mustahkamlanadi.

Tinchlikning ilmiy-texnik elementi zamonaviy davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan va texnologiyalar insoniyatni birlashtiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Innovatsiyalar, ilmiy hamkorlik, ta’lim almashinuvi va texnologik taraqqiyot jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi. Ilmiy yutuqlar inson farovonligi, ekologik xavfsizlik va global muammolarni hal etishga xizmat qilganda tinchlik mustahkamlanadi. Biroq ilm-texnika harbiy ustunlik vositasiga aylantirilsa, u tinchlikka emas, balki yangi ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin [6].

Tinchlikning madaniy hamkorlik elementi esa xalqlar o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni ta’minlaydi. Madaniyatlararo muloqot, bag‘rikenglik, an’analar va qadriyatlarni o‘zaro hurmat qilish jamiyatlar o‘rtasida ishonch muhitini yaratadi. Madaniy almashinuv insonlarda umumiy insoniylik tuyg‘usini shakllantirib, stereotip va qarama-qarshiliklarni kamaytiradi. Aynan madaniy hamkorlik orqali tinchlik nafaqat siyosiy kelishuv, balki ma’naviy qadriyat sifatida qaror topadi [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining ajralmas falsafiy hamda ijtimoiy qadriyatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tinchlik faqat urushning yo‘qligi emas, balki adolat, o‘zaro hurmat, hamjihatlik va barqaror ijtimoiy munosabatlarga asoslangan murakkab jarayondir. Tinchlikning mazmuni uning qaysi manfaatlarga xizmat qilishi bilan belgilanib, adolatli tinchlik jamiyat rivojini ta’minlasa, adolatsiz tinchlik yashirin ziddiyatlar manbai bo‘lib qoladi. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tenglik, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy hamkorlikning uyg‘un rivojlanishi barqaror tinchlikni qaror toptirishning muhim omillari hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida tinchlik insoniyatning umumiy mas’uliyati va ongli tanloviga aylanmoqda. Shu bois tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash nafaqat siyosiy zarurat, balki insonparvar sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik maqsad sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. –Т.: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –Б.323.
2. Пенфилов Е. Мир //Философская энциклопедия в 5 томах. Т. 3. –М.: Наука, 1964. – 584 с.
3. Maintain International Peace and Security // https://www.un.org/en/our-work/maintain-international-peace-and-security
4. Husanov Azizbek. (2025). Tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Икро журнал, 14(02), 887–889.
5. SCO Heads of State Council Meeting // https://eng.sectsco.org/20240704/1445827.html

6. Husanov Azizbek. (2025). Tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. iqro indexing, 14(02), 887-889.
7. Obidjon qizi, S. G. (2022). Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik o‘zbek xalqining yuksak qadryatidir. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 255–257.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE WORK "AL-KASHSHAF" BY MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARI AND ITS HISTORICAL SIGNIFICANCE

Artiqova Adolat Ataboyevna
1st-year Master's student in History,
Navoiy Innovation University

Abstract. This article discusses the work "Al-Kashshaf", which is recognized as one of the most influential and famous interpretations of the Holy Quran, and its historical significance. It also analyzes the history of the work's creation, its impact on the social life of that period, and its importance in the development of the Islamic religion from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: Holy Quran, nahv (grammar), sahv, eloquence (balaghat), tafsir, kalam, Islamic theology, ayah, hadith, Mu'tazilite, narration, al-Azhar.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "AL-KASHSHAF" ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Artiqova Adolat Ataboyevna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur'oni Karim tafsirlarining eng nufuzli va mashhur izohlaridan biri deb tan olingan "Al-Kashshof" asari va uning tarixiy ahamiyati xususida so'z boradi. Shuningdek, asarning yaratilish tarixi, o'sha davrdagi ijtimoiy hayotga ta'siri va islom dini taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, nahv, sahv, balog'at, tafsir, kalom, kalom ilmi, islom dini, oyat, hadis, mu'taziliy, rivoyat, al-Azhar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N16

XI–XII asrlar islom tafakkurining yirik namoyandalaridan biri Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lib, uning mashhur "Al-Kashshof" - "Al-Kashshaf ʿan haqāʾiq at-tanzīl wa ʿuyūn al-aqāwīl fī wujūh at-taʾwīl" asari o'z davrida va bugungi kunda ham islom falsafasi va kalom ilmini o'rganishda asosiy muhim manbalardan hisoblanadi.

Maqolada muallifning hayot yo'li, ilmiy shakllanishi, Qur'oni Karimni talqin etishda qo'llagan metodologiyasi, asarning yozilishiga ta'sir etgan ilmiy, diniy va ijtimoiy omillar, shuningdek "Al-Kashshof" tafsirining islom ilmiy merosidagi o'rni chuqur yoritiladi. Tadqiqot davomida klassik islom manbalari bilan bir qatorda zamonaviy sharqshunoslik va akademik tadqiqotlarga ham tayanildi.

Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (hijriy 467–538 / milodiy 1074/1075–1143/1144-yillarda) Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan buyuk mufassir, arab tili nahvi, balog'ati va Qur'on tafsiri sohalarida chuqur iz qoldirgan allomadir [1,100]. U Xorazm vohasidagi Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, dastlabki ta'limni shu hududda olgan.

Keyinchalik ilm talabida Buxoro, Samarqand, so‘ng Bag‘dod va Makka kabi o‘sha davrning yetakchi ilmiy markazlarida tahsilini davom ettirgan [2,212]. Az-Zamaxshariy hayoti davomida arab tili grammatikasi (nahv), balog‘at, lug‘atshunoslik, kalom va tafsir ilmlarini chuqur egallab, ushbu sohalarda yetuk mutaxassis sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning Qur’oni Karim tilini lingvistik va mantiqiy jihatdan sharhlashdagi yondashuvi islom tafsirchiligida yangi bosqichni boshlab berdi. Az-Zamaxshariyning eng mashhur asari - “Al-Kashshof” bo‘lib, uning to‘liq nomi quyidagicha: al-Kashshaf ʿan haqāʾiq al-ghawāmiḍ at-tanzīl wa ʿuyūn al-aqāwīl fī wujūh at-taʾwīl. Asar nomining o‘ziyoq bu kitobning maqsadini ochib beradi, ya’ni, bunda asosiy e’tibor Qur’oni Karim oyatlaridagi murakkab ma’nolar, yashirin semantik qatlamlar va balog‘iy nozikliklarni ochib berishga qaratilgandir. Manbalarga ko‘ra, “Al-Kashshof” asari hijriy 526–528 (milodiy 1132–1134)-yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lib, unda Qur’on oyatlari nahv, sarf, balog‘at, mantiq va semantika nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shu sababli bu asar oddiy tafsir emas, balki Qur’on tilshunosligi va balog‘ati bo‘yicha fundamental manba sifatida baholanadi.

Az-Zamaxshariy islom tafakkuridagi mu’taziliy maktab vakili bo‘lib, bu holat uning tafsiriy qarashlarida yaqqol aks etadi [3,270]. Mu’taziliy ta’limotning asosiy tamoyillari - tavhid, adolat, inson irodasi va aqlning ustuvorligi “Al-Kashshof” tafsirida muhim o‘rin egallaydi. Muallif oyatlarni sharhlashda nafaqat rivoyatlarga, balki aql, mantiq va til qoidalariga tayangan holda izoh beradi. Bu esa Qur’onni yuzaki emas, balki chuqur semantik va mantiqiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqqan.

XI-XII asrlarga kelib, Qur’on tafsirida rivoyat va dirayat uslublari o‘rtasida muvozanat zarurati yuzaga kelgan edi. Az-Zamaxshariy aynan shu ehtiyojni chuqur his etib, Qur’on oyatlaridagi i’joz (uslubiy mo‘jizalik)ni arab tilining ichki qonuniyatlari orqali ochib berishni maqsad qilgan. U har bir oyatdagi sintaktik tuzilma, so‘zlarning joylashuvi (taqdim-ta’xir), hazf, isti’ora va kinoya kabi balog‘iy vositalarni puxta tahlil qilgan. Shu jihatdan “Al-Kashshof” tafsiri keyingi mufassirlar uchun metodologik namuna bo‘lib xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, az-Zamaxshariy Qur’on darslari jarayonida shogirdlarining oyatlar ma’nosini chuqurroq tushunishga bo‘lgan ehtiyojini sezgan. Aynan shu ehtiyoj uni tizimli va mukammal tafsir yozishga undagan. “Al-Kashshof” avvalo ta’limiy ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga kelib, keyinchalik keng ilmiy doiralarda e’tirof etilgan. Az-Zamaxshariy o‘z tafsirida Tabariy, al-Wahidi, Abd al-Qohir al-Jurjoniy kabi allomalarning ilmiy merosiga tayangan holda, ularning yondashuvini yanada mukammallashtirgan. Ayniqsa, Jurjoniyning balog‘at haqidagi nazariyalari “Al-Kashshof” asarining uslubiy poydevorini tashkil etgan. Keyinchalik asar islom olamida keng tarqalib, Misr, Shom, Hijoz va Movarounnahr madrasalarida asosiy tafsir manbalaridan biri sifatida o‘rganilgan. Xususan, Qohiradagi al-Azhar ilmiy muassasasida “Al-Kashshof”ga sharhlar yozilgan va darslik sifatida foydalanilgan. Sunniy olimlar muallifning aqidaviy qarashlarini tanqid qilgan bo‘lsalar-da, asarning tilshunoslik va balog‘atdagi beqiyos qiymatini to‘liq tan olganlar. Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asari turli davrlarda yirik olimlar tomonidan o‘rganilgan, muxtasar qilingan, sharhlar bitilgan. Dunyo fondlarida asar muxtasar sharhlarining juda nodir qo‘lyozmalari saqlanadi. “Al-Kashshof” asari tafsirini monografik o‘rganishda unga yozilgan sharhlarning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariy (vaf. 683/1284) “Al-Kashshof” asariga bag‘ishlab o‘zining “Intisob” – “Tiklanish” nomli asarini yozgan. Muallif asardagi mo‘tazila aqidasiga taalluqli o‘rinlarga tanqidiy munosabatda yondashadi. Asarning tili, balog‘ati,

fasohatiga juda yuqori baho beradi [4,272]. Alamuddin Iroqiyning (vaf. 704/ 1305) “Insob” – “Tiklash” nomli sharhi ham ushbu asar tafsiriga bag‘ishlanib yaratilgan asarlar sirasiga kiradi. Mazkur sharhda Alamuddin Iroqiy Mahmud Zamaxshariyning “Al-Kashshof” va Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariyning “Intisob” asarlarini qiyosiy tahlil qiladi va mazkur ikki manbaga nisbatan o‘z fikrlarini mustaqil tarzda bayon qiladi [5,78]. Abu Ali Umar Sukkuniy Mag‘ribiyning (vaf. 717/ 1317) “Tamyiz” – “ Ajratish” nomli sharhi ham ushbu muqaddas manbaga bag‘ishlab yaratilgan bo‘lib, muallif “Al-Kashshof” asarining ilmiy, filologik jihatlariga ijobiy baho beradi, lekin undagi mu’tazila aqidasiga taalluqli bo‘lgan tomonlarini tanqid qiladi. Sharhning nodir nusxasi Qohiradagi Dorul-kutubi-l-misriyya kutubxonasida saqlanadi [5]. Valiyyuddin Ahmad ibn Zaynuddin Iroqiy (vaf. 826/1423) tomonidan “Insof ala-l-Kashshof” nomli raddiya sharhi bitilgan. Bunda muallif Ibn Munirning “Ilmu-d-din”, Abu Hayyonning “Tafsiru-l-bahr”, Ibn Hishomning “Mug‘niy” asarlariga tayanib “Al-Kashshof”dagi hadislarini taxrij qilgan. Valiyyuddin Iroqiy asarni 826/1423-yilda yozib tugatgan. Asarning bir nusxasi “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Burhoniddin Haydar Hiraviy (vaf. 830/ 1427) ustozi shayx Sa’dning “Al-Kashshof”ga yozgan hoshiyasiga mukammal sharh yozib, unda ustozining “Al-Kashshof” asariga bo‘lgan salbiy fikrlariga raddiya yozganligi haqida manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Ushbu asar hozirda “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozma fondida saqlanmoqda. Ahmad ibn Ismoil Kuroniy (vaf. 893/ 1488) “G‘oyatu-l-amoniy fi tafsiri-l-kalomi-r-rabboniy” – “Allohning kalomini tafsir qilishdagi eng so‘nggi g‘oya” asarini yozgan. Olim hoshiyada Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” va Qozi Baydoviyning “Tafsir” asarlariga tanqidiy munosabat bildirgan. Asar “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Abu Sa’d Imodiy (vaf. 982/1574) ning “Ma’aqidu-t-taraf fi avvali tafsir surati-l-Fath mina-l-Kashshof” – “Al-Kashshof”dagi Fath surasi tafsiriga izoh” nomli hoshiyasi ham mavjud bo‘lib, uning tarkibida Imom Hofiz Shahobiddin Abu-l-Fazl ibn Ali ibn Hajarning “Kofiyu-sh-shofiy fi taxriji-l-ahadisi-l-Kashshof” – “Al-Kashshof” dagi hadislarni taxriji bo‘yicha yetarli“ nomli asari ham keltirilganligini uchratish mumkin.

Muhyiddin Afandi tomonidan “Tanzilu-l-oyot ala shavahid mina-l-abyat” – “Oyat ma’nosini quvvatlaydigan baytlar” nomli asar yaratilgan bo‘lib, unda Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiri tarkibiga kiritilgan baytlari sharhlangan va ularning mualliflari ko‘rsatib o‘tilgan. Xidr ibn Atoullohning “Is’af bi sharhi abyati-l-Qoziy va-l-Kashshof” – “ Qoziy” va “Kashshof” baytlarini sharhlashga yordam” nomli asari ham mavjud. Asar ikki jilddan iborat bo‘lib, 994/ 1586 yili yozilganligi qayd etiladi. Shayx Muhammad ibn Ali Ansoriy (vaf. 662/ 1264) tomonidan bu asarga sharh bitilgan bo‘lib, az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asaridagi mu’tazila aqidasiga doir fikrlarni chiqarib tashlab, ahli sunna val jamoa mazhabiga mos keladigan jihatlarini qoldirganligini ko‘rish mumkin. Nosiriddin Qoziy Baydoviyning (vaf. 692/ 1293) “Anvoru-t-tanzil” - “Qur’on nurlari” nomli asarida “Al-Kashshof” asariga raddiyalar bildirgan va mu’tazila aqidasiga doir jihatlariga tanqidiy yondashilgan. Shayx Taqiyyiddin Sabbokiy (vaf. 765/ 1364) “Sababu-l-inkifof an iqroi-l-Kashshof” – “Kashshof”ni o‘qishdan yuz o‘girish sabablari” nomli muxtasar asarini yozgan. Abu-s-Saodat Muborak ibn Muhammad ibn Asir Hizriyning “Insof fi-l-jam’i bayna-s-Sa’labiy va-l-Kashshof” – “Kashshof” va Sa’labiy tafsirini insof bilan jamlash” nomli asari ham mavjud. Badriddin Muhammad Muqriy Halabiy (vaf. 705/1306) “Muxtasaru-r-roshif min zulali-l-“Kashshof” mina-t-tafosir” – “Kashshof”ning zilol suvlaridan ichish” nomli asarida Abu-l-Abbos Ahmad Mahdiy, Abu Lays Samarqandiy va Sa’labiy fikrlarini “Kashshof” asari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Olimlar ushbu asarni “Al-

Kashshof”ning muhim muxtasarlaridan biri sifatida baholaganlar. Imod Kanadiyning (vaf. 720/1320) “Kafil bi ma’anii-t-tanzil” – “Qur’on ma’nolarining kafolati” nomli 23 jilddan iborat asari mavjud bo‘lib, bunda har bir oyatning tafsiridan so‘ng Mahmud az-Zamaxshariyning bu haqidagi fikrini keltirib o‘tadi.

Imod Kanadiy nahv ilmi borasida mashhur olimlardan bo‘lganligi sababli “Al-Kashshof”ning balog‘at, grammatik jihatlariga alohida e’tibor beradi va allomaning fikrlarini aynan keltiradi. Nizomiddin Qumiy Nisoburiy (vaf.728/1328) “Al-Kashshof”ga bag‘ishlangan muxtasar asarmuallifi bo‘lib, olim o‘z muxtasarida Imom Roziyning “Tafsiri kabir” va Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsirini qiyosiy tahlil qiladi. Shamsuddin Abu-s-Sano Shofe’iy (vaf. 749/ 1348) Imom Roziyning “Mafotihu-l-g‘ayb” – “G‘ayb kalitlari” asari va az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsirini qiyosiy o‘rgangan olimlardan biridir. Abu-s-Sa’id Ummadiyning (vaf. 982/1574) “Irshodu-l-aqli-s-salim ila mazaya-l-kitabi-l-karim” – “Sog‘lom aqlni Qur’on hidoyatidan bahramand qilish” nomli muxtasar asari borligi haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar beriladi. Mazkur asar “Tafsiri Abu-s-Sa’id” nomi bilan mashhur bo‘lib, Imom Yahyo ibn Hamza Alaviy Yamaniy (vaf. 749/ 1348) qalamiga mansubdir. “Olim “Tiroz” – “Namuna” nomli kitobini “Al-Kashshof” asari ta’sirida yozgan. Asar muqaddimasida olim ko‘plab tafsirlarni o‘rganganligi ammo ularning birortasida ham Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiridagi kabi bayon va ma’oniy ilmlarini qamrab olgan, Qur’oni karim lafzi hamda ma’nosidagi mo‘jizaviy ma’nolarini yoritib beradigan mukammal tafsir ko‘rmaganligini yozadi va shogirdlarining iltimosiga ko‘ra yuqoridagi tafsirning balog‘ati va fasohatiga bag‘ishlangan ushbu asarini yozganligini ta’kidlaydi.

Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiri bilan bog‘liq manbalarni o‘rganish asarga o‘zi yaratilgan davrdan hozirga qadar saksondan ortiq sharh, hoshiya, muxtasarlar yozilganligini ko‘rsatmoqda. Ular sirasiga Qutbuddin Sheroziyning (vaf. 710/ 1311) “Kashshof” asariga ikki jildli hoshiyasi, Qutbuddin Shaqqorning (vaf. 698/ 1299) “Taqribu-t-tafosir” - “Tafsirlarning qiyosi” nomli sharhi, Ali Tusiyning (vaf. 561/ 1166) “Javomi’u-l-javomi’” – “Jamlarning jami” sharhi, Fozil Yusuf ibn Husayn Hilvoniyning (vaf. 854/ 1450) hoshiyasi, Tojiddin Ahmad ibn Maktumning “Durru-l-laqit mina-l-bahri-l-muhit” – “Ummondan topilgan dur” deb nomlagan Abu Hayonning “Kashshof”ga yozilgan muxtasari, Sharofuddin Tibiy (vaf. 743/ 1343) “Kashshof” asariga 6 jildlik “Futuhu-l-g‘ayb fi kashf an qanna’i-r-rayb” – “Shak-shubhalarni ketkazish, g‘aybni ochish” nomli hoshiyasi, Shayxu-l-Islom Bahro Yahyo Haraviy (vaf. 906/ 1501) “Kashshof”ning Fotiha surasidan Baqara surasining o‘rtasigacha bo‘lgan qismi sharhi kabi asarlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud az-Zamaxshariyning “Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta’vil” (“Qur’ondagi haqiqiy ma’nolarni ochib beruvchi va uni sharhlash orqali rivoyatlarni tushuntiruvchi”) nomli tafsiri mufassirlar orasida nufuzli ilmiy manba sifatida tan olingan. Asarga yozilgan sharhlar, hoshiya va ta’liqotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, musulmon olimlarining juda ko‘plari unga murojaat qilgan. Ushbu asarning qo‘lyozmalari zamonimizgacha yetib kelgan bo‘lib, unda Mahmud Zamaxshariyning tafsirining filologiya sohasidagi ahamiyati, xususan, balog‘at va fasohat sohasidagi o‘rni alohida yuqori baholangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Maxmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar (Sharhlar muallifi va tarjimasi U.Uvatov) – T.: Kamalak,1992. – B.43.

2. Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. – J.2. – B.147.
3. Doktor Mustafo as As-Soviy al-Juvayniy. Manhaju az-Zamaxshariy fi tafsir al-Qur'an va bayani i'jazihi. – Misr: Dor al-Maorif, 1984. - B.272.
4. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asari qo'lyozma nusxalari haqida. – Oltin bitiglar. / Golden scripts. - 2020/4. – B.78.
5. Zamaxshariy, Mahmud. Al-Kashshof. (Tarjimon va so'zboshi muallifi: U. Uvatov). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF RELIGION AND STATE RELATIONSHIP IN THE FIGHT AGAINST IDEOLOGICAL THREATS

Umarova Feruza
Tashkent State Agrarian University
Senior Lecturer of the Department of Social Sciences and Humanities

Abstract. The article analyzes the content of the concept of "relationship between religion and the state," the socio-philosophical problems of ensuring the stability of the state and society, and the rational provision of these relations in the fight against information and ideological threats. The experience of the USA, France, Germany, and Muslim countries in organizing relations between the state and religion, their effective use in our country, and the use of the religious and educational factor in the fight against ideological threats were also studied.

Keywords: religion, state, society, youth, stability, information and ideological threats, confessions, relations between religion and the state, the path of national development, tolerance, humanism, terrorism, extremism.

MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI

Umarova Feruza
Toshkent davlat agrar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada “din va davlat munosabatlari” tushunchasining mazmuni, davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash hamda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ushbu munosabatlarni oqilona ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat va din munosabatlarini tashkil qilishda AQSh, Fransiya, Germaniya va musulmon mamlakatlarining tajribalari, mamlakatimizda ulardan samarali foydalanish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda diniy-ma’rifiy omildan foydalanish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: din, davlat, jamiyat, yoshlar, barqarorlik, axborot-mafkuraviy tahdidlar, konfessiyalar, din va davlat munosabatlari, milliy rivojlanish yo‘li, bag‘rikenglik, insonparvarlik, terrorizm, ekstremizm.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N17

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning yangicha strategiyasida din, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi konfiguratsiyasi butun bir ijtimoiy-siyosiy makonni qayta shakllantirishni aks ettiradi, bu ijtimoiy taraqqiyotning imkoniyatlari haqida kengroq axborotni rag‘batlantirish, aniqlik va universallik munosabatlariga bog‘liq. Bugungi globallashuv jarayonida zamonning murakkabligi va qiyinchiliklari ekstremistik tahdidlardan ijtimoiy qadriyatlargacha, diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi muvozanat masalasini, dunyoviylik tamoyilining nozik chegaralarini ko‘rib chiqishdan ijtimoiy jihatdan sinalgan ma’naviy-axloqiy me’yorlargacha ko‘plab diniy ziddiyatlarda o‘z aksini topmoqda. Ontologik, institutsional va sivilizatsiyalashgan prognozlardagi diniy hamda konfessional parametrlar yangi ijtimoiy strukturalarni yaratishning usullari va ma’nolari sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda ba’zi davlatlarda

davlat, jamiyat va din o‘rtasidagi munosabatlarda diniylik va dunyoviylik muvozanatini ta’minlash mexanizmlarining yaratilmaganligi yoki to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi faqat ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiribgina qolmay, balki, davlat, jamiyat va din o‘rtasidagi munosabatlarning yangi mexanizmlarini yaratish hamda takomillashtirish masalalarini kun tartibiga qo‘ymoqda[1].

XXI asr boshlariga kelib iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalaridagi o‘zaro yaqinlashuv, muloqot va ta’sir o‘zining yuqori nuqtasiga yetdi. Islom mafkurasining nafaqat musulmon dunyosida balki, undan tashqarida ham ta’sirining tobora o‘sib borayotganligi shundan dalolat bermoqda. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning globallashuvi sifatida dunyodagi ijtimoiy jarayonlarga islom mafkurasining ta’siri ortib borayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorda qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”[1.253]. Bu vaziyatda, dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlash dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqishi tabiiydir. Masalaning o‘ziga xosligi shundaki, jamiyatda tolerantlikni, jumladan, diniy bag‘rikenglikni ta’minlamasdan turib dunyoviylik va diniylik muvozanatiga erishish mumkin emas.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlashning ahamiyati, uni amalga oshirishda samarali usul va texnologiyalaridan foydalanish hamda mamlakatimizda mafkuraviy jarayonlar, g‘oyaviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasida diniy-ma’rifiy qadriyatlarning o‘rni, zamonaviy mafkuraviy muammolar tahliliga bag‘ishlangan bir qator ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlar o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, T.Karimning “Dunyoviylik falsafasi” (Dunyoviylik falsafasi: Maqolalar to‘plami. – Toshkent: TDIU), “Islom ensiklopediya” (- Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004),Sh.Yovqochevning “Siyosat va din” (– Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011.), “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” (O‘quv qo‘llanma. Toshkent islom universiteti. – Toshkent, 2013.), A. Mavrulovning “Ma’naviy tahdidlarning oldini olishda ma’naviy-axloqiy muhitning ahamiyati” (– Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2018) va M.Quronovning “Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish” (– T.: 2017. –284 b) nomli asarlarida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim va tarbiyaning imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O.Bozorovning “Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi” (–Toshkent: Ma’naviyat, 2018. –32 b) A.Muxtorovning “Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari” (–Toshkent: Ma’naviyat, 2015.– 31 b) S. Otamurotovning “Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik” (–Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 456 b), Sh. Turaevning “Yangi O‘zbekiston: ma’naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar” (– Toshkent: “Afzalzoda books” nashriyoti, 2023. –268 b.) nomli tadqiqotlarida globallashuv sharoitida g‘oyaviy o‘zgarishlar tendensiyalari, ong va tafakkurdagi o‘zgarishlar tahlil qilingan[3].

jamiyatda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim va tarbiyaning imkoniyatlari MDH mamlakatlari doirasida A.Ignatenko, I.Ponkin R. Lunkin, M. Laryuell, V. Yerusalimskiy, A. Musin, M. Əuezo, R.Aliev, F.Mamedov va boshqa shu kabi olimlar tomonidan bu muammolar batafsil o‘rganilgan. Mazkur olimlar olib borgan tadqiqot natijalaridagi yakdil fikr shundan

iboratki, hozirgi davrda butun insoniyat hayotida din va davlat munosabatlarida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, shu bilan birga bu munosabat zamirida xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq ko‘plab mafkuraviy urush, din niqobidagi terrorizm, axborot quroli va boshqalar bilan bog‘liq global xavflarni ham kuchayishiga olib kelmoqda[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim va tarbiya tizimining o‘rni va imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida kompleks tadqiqot usullari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida t**arixiy-tahliliy metod** orqali ta’lim va tarbiyaning turli davrlardagi vazifalari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashdagi rolini o‘rganish orqali, bugungi kundagi ahamiyati va zarurligini asoslashga harakat qilindi. **Kontent tahlili (mazmunli tahlil)** asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, ta’lim sohasidagi strategiya va dasturlar, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy tashkilotlarning faoliyatiga oid materiallar tahlil qilindi. **Komparativ tahlil (solishtirma tahlil)** asosida turli mamlakatlar tajribalari o‘rganilib, ularda mafkuraviy tahdidlarga qarshi qanday ta’lim-tarbiya mexanizmlari joriy etilgani tahlil qilindi. **Tizimli yondashuv** asosida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim va tarbiyani bir-biri bilan bog‘liq va hamkor tizimlar sifatida o‘rganishga asoslangan.

Natijalar va muhokama. “Bag‘rikenglik” tushunchasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, bu tushuncha ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha “tolerare”, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatgan “tolerantlik” so‘zi, asosan, biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’i nazar, imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi ma’no kasb etib, “chidamlilik”, “bardoshlilik”, “toqatlilik”, “o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish”, “muruvvatlilik”, “himmatlilik”, “kechirimlilik”, “mehribonlik”, “hamdardlik” kabi ma’nolarga ega[5].

Tolerantlik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki bag‘rikenglik serqirra, ayni paytda plyuralistik fenomen bo‘lib, o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p namoyon bo‘lish shakllariga ega. Toqat, sabr, tinchliksevarlik, murosa, do‘stlik, hamjihatlik, ishonch, hurmat, tushunish, bilish, anglashga intilish va boshqa shu kabi axloqiy fazilatlar hamda ongli intilishlar shular jumlasidandir. Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo‘ladigan bag‘rikenglik o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta’kidlash joiz. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat’iy nazar barcha fuqarolar uchun qonun asosida teng huquq, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi. Bundan tashqari davlatning bag‘rikeng munosabati har bir inson va ijtimoiy guruhning iqtisodiy farovonligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, millat va din vakillariga nisbatan toqatsizlik, hurmatsizlik va tahqirlashlarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlarni muntazam ravishda olib borishda yaqqol namoyon bo‘ladi[6].

Asrlar mobaynida o‘lkamizning shahar-u qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o‘z diniy marosimlarini ado etib kelgan. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat’i nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi tuyg‘ular

yurtimiz aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ma’naviy asosini tashkil qiladi.

Ko‘pgina davlatlar dunyoviy demokratik davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan holda davlatning dinga va diniy tashkilotlarga bo‘lgan munosabatini amalga oshirish mexanizmlarini yaratish masalasiga turlicha yondashadi. Shu nuqtai nazardan, bir nechta zamonaviy dunyoviy davlatning modellarini tahlil qilishga harakat qilamiz[7].

Amerika modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli o‘z xarakteriga ko‘ra ancha liberal va din erkinligini maksimal darajada ta’minlashga harakat qiladi. Bu, avvalambor, tarixiy faktorlar asosida tushuntiriladi, ya’ni, Amerika xalqining immigrant ekanligi, u yoki bu konfessiya nuqtai nazaridan chuqur tarixga ega emasligidir. Shuning uchun bu yerda “qadriyat” masalasi amaliy jihatdan ahamiyatga ega emas. Shu bilan birga, biz dinni davlatdan to‘liq ajratilganligini aniqlay olmaymiz. Bundan tashqari, xristian dini ijtimoiy kuchlarning mavjud moslashuvini va umuman, mamlakat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan asosiy omil sifatida tan olinadi. AQShda hozirga qadar Kongress palatalari majlisi nasroniylar jamoasi tomonidan ochiladi, Prezident o‘z lavozimiga kirishi oldidan ruhoniylar oldida muqaddas Injil kitobiga qasamyod qiladi, sudda, armiyada qasamyod qilishda ham nasroniylik dinining formulalari saqlab qolingan.

Fransuz modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli bugungi kungacha bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan, 1789-yilgi Deklaratsiyadan boshlangan, rasmiy ravishda cherkov va davlatning ajralishi e’lon qilingan. 1905-yilgacha Katolik cherkovi davlat dini bo‘lib qoldi. “Konstitutsiya 1958-yilda Fransiyani dunyoviy davlat deb e’lon qildi va quyidagi asosiy tamoyillarni tasdiqladi: vijdon erkinligi va din erkinligi; qaysidir cherkovning rasmiy hukmron mavqega ega bo‘lishi taqiqlanadi va barcha cherkovlarning qonun oldida tengligi ta’minlanadi; diniy e’tiqodni ochiq ifodalash uchun qonuniy erkinlik beriladi. Yuqoridagi tamoyillar davlat muassasalari, xususan, maktab va ta’lim olish huquqi bilan to‘ldiriladi”. Fransiyaga xos xususiyat shundan iboratki, “integral” dunyoviylik davlat organlari shakllanishi va faoliyatining rasmiy-huquqiy va mazmun jihatdan ajralmas qismiga aylanadi. Davlat va konfessiyalarning munosabatlarida davlatning tartibga soluvchi tashkilot sifatida passivligini nazarda tutadi. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish uchun davlat cherkovlarning erkinligi va mustaqilligini tan oladi hamda fuqarolarga davlat muassasalari va binolarida diniy xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, fuqarolarning farzandlarini ota-onalarining e’tiqodlari asosida tarbiyalash huquqi ta’minlanadi va davlat maktablarida diniy darslar o‘tilishiga imkon beriladi[8].

Bizning fikrimizcha, axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga solishda davlatning roli maksimal darajada passiv bo‘lgan model, fuqarolarning erkinligi va huquqlari yuqori darajada himoyalangan sharoitda – ya’ni kuchli fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lgan mamlakatlarda samarali bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda fuqarolik jamiyati diniy tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Nemis modeli. “Germaniyada 1949-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat va konfessiyalar munosabatining huquqiy asosi hisoblanadi. Asosiy qonun quyidagi prinsipial holatlarni o‘z ichiga oladi: “...davlat cherkovi bo‘lmaydi. Diniy jamiyatda birlashmalarning erkinligi kafolatlanadi. Diniy jamiyat uyushmalar faoliyatiga hech qanday cheklov qo‘yilmaydi”.

Barcha demokratik davlatlarda insonning qaysi dinda bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z dini, e’tiqodiga, urf-odatlariga, fikrlariga, so‘z erkinligiga tajovuzsiz yashashini himoya qiluvchi va qilayotgan qonunlar mavjud.

Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on”da ham “Dinda majbur qilish yo‘q” (Baqara surasi, 256-oyat), “Sizlarga o‘zlaringizni diningiz, Menga o‘zimning dinim” (Kofirun surasi, 6-oyat), “Alloh bizning Robbimizdir va sizlarning ham Robbingizdir. Bizning amallarimiz o‘zimiz uchun, sizlarning amallaringiz o‘zlaringiz uchundir” (Sho‘ro surasi, 15-oyat), “Eslat. Albatta Sen eslatuvchisan, ular ustidan zo‘ravon emassan” (G‘oshiya surasi, 21-22-oyatlar), “Ularning ishlari o‘zaro sho‘ro-maslahatdir” (Sho‘ro surasi, 38-oyat) degan oyatlari bilan 1400 yil avval demokratiya asoslari bayon qilingan”[4.628]. Aksar reaksion hizblar va oqimlarning demokratiya asoslarini Qur’on va shariatga, islom asoslariga muvofiq yoki yo‘qligini analiz qila olmay ko‘r-ko‘rona qarshi chiqishlari, demokratiya so‘zining o‘zidan talvasaga tushib qolishlari, kaltabinlik va mutaassiblikdan boshqa narsa emas. Ular o‘z da’volarida G‘arb demokratiyasidagi islom qonunlariga zid ba’zi g‘ayriinsoniy buzuqliklarga bo‘lgan ruxsatlarni ro‘kach qiladi. Albatta, bunday g‘ayriinsoniy buzuqliklarga ruxsat berilishiga qarshi turish lozim va bunday holatlarga G‘arb davlatlarining hammasida ham ruxsat berilgan emas, balki qonunan man etilgandir. Binobarin, demokratiya dushmanlarining G‘arbdagi ba’zi salbiy holatlar va kamchiliklarni ro‘kach qilib, demokratiyaning Islom diniga zid ekanligini da’vo qilishlari mutlaqo asossizdir[9].

Musulmonlar yurti bo‘lgan Afg‘oniston dunyoning yarmiga narkotik yetkazib berayotgani va “mujohidlar” orasida bachchavozlik degan manfur odat mavjud bo‘lgani uchun butkul islom dini va barcha musulmonlarni ayblash to‘g‘ri bo‘lmaganiday, geopolitik manfaatlarini amalga oshirish maqsadida “demokratiya eksporti” bilan shug‘ullanuvchi va uni daromad manbaiga aylantirib olgan bir guruh qora kuchlarning siyosiy o‘yinlari sabab butkul demokratiyani ayblash noto‘g‘ri. Faqat, o‘zaro hurmat asosida tushuntirish, maslahat, munozara va muhokama hamda bag‘rikenglik tamoyillarigina kutilgan yaxshi, samarali natijalar berishi rivojlangan davlatlar tajribalarida ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Afsuski, hozirgi o‘qitilayotgan ba’zi mavjud islomiy ta’limotlarda insonning aqlini, tushunchasini, ixtiyorini hurmat qilish emas, zo‘ravonlik tushunchasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Ba’zi oqimlar muvaffaqiyatli davlat tizimini yaratish kaliti faqat islomiy davlat qurish, majburiy tarzda islom hukmlarini joriy etishda, deb hisoblaydi. “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz”[5.253].

Shuni unutmaslik kerakki, zamonaviy davlatlararo munosabatlarning asosiy xususiyatlaridan biri dinni ijtimoiy hayotga, siyosatga singdirishga intilishdir. Aslida bu, odamlarning siyosiy faoliyati diniy g‘oyalari bilan tobora ko‘proq bog‘lanishini anglatadi. Bunday turtki paydo bo‘lishining muqarrarligi diniy dunyoqarashning qanchalik yaxlit va xolisligiga ham bog‘liqdir. Diniy e’tiqodga ega bo‘lgan inson hayotining asosi bo‘lgan iymon, uning ijtimoiy va shaxsiy hayotining barcha jihatlarini belgilaydi. Natijada, e’tiqodli insonlar siyosiy hayotda qanchalik faol bo‘lishsa, ularning diniy g‘oyalari xalqaro munosabatlarga shunchalik ta’sir ko‘rsatadi.

Diniy g‘oyalarning jahon siyosati ta’siriga oid yorqin misollardan biri sifatida din niqobidagi ekstremistik ta’limotlar va terrorizmni keltirishadi. Shuningdek, nasroniylik, islom va yahudiylikni radikal ruhda o‘qitilishi antisemitizm va sionizmni keltirib chiqarayotganligi ham aytib o‘tilgan. Bugungi kunda u yoki bu diniy an’analar atrofida paydo bo‘lgan boshqa

e’tiqodga asoslangan g‘oyalar mavjud. Buning natijasida, ko‘pincha dinlar siyosat bilan o‘zaro munosabatlarda tinchlik va inson hayotiga tahdid soluvchi g‘oyalarni ishlab chiqarishga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga, jamiyatni boshqarishda dinning ijobiy roli va uning mohiyatida tug‘iluvchi ezgulik g‘oyalaridan samarali foydalanish mumkin, faqat bunda sekulyarizm tamoyiliga asoslanish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Bugungi kunda erkinlik to‘g‘risida har qachongidan ham ko‘p fikr yuritilmoqda. Ammo, qizig‘i shundaki, bugungi kunda insonning shaxsiy erkinligiga tahdid soladigan jarayonlar ko‘proq sodir bo‘lmoqda. Erkinlikni yuksak qadriyat deb hisoblaydigan ba’zi davlatlar va xalqaro hamjamiyatlar an’anaviy dinga e’tiqod qiluvchilarning axloqiy normalariga zid keluvchi ijtimoiy-siyosiy normalarni qabul qilmoqda. Bir tomondan, bu jamiyatda insonning shaxsiy hayotiga hech kim tajovuz qilmaydi, ammo ikkinchi tomondan, inson o‘z e’tiqodiga zid keluvchi me’yorlarni qabul qilishga majbur qilinmoqda. Bunday me’yorlarning paydo bo‘lishi dunyodagi ko‘plab mamlakatlarga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday qadamlar xalqaro munosabatlar darajasida ham ko‘zga tashlanayotganligini kuzatish mumkin. Agar bugun qandaydir me’yor G‘arb mamlakatlarida qabul qilinsa, ertaga uni qabul qilish va bajarish boshqa davlatlardan ham talab qilinmoqda[10].

Davlat, jamiyat va din o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda sekulyarizm tamoyiliga tayanish eng muhim omil hisoblanadi. Sekulyar davlatning afzalliklari, ayniqsa ko‘pmillatli va ko‘p konfessiyali mamlakatlarda, milliy yoki dini mansublikka asoslangan holda alohida guruh yoki ularning vakillariga imtiyoz berilmasligida namoyon bo‘ladi. Millati va dini qat’iy nazar barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari teng darajada ta’minlanadi; aks holda manfaatlar muvozanati buzilib, ijtimoiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, dunyoviylik davlatga aholining turli guruhlari manfaatlarini obyektiv baholash va qarorlar qabul qilish imkonini beradi, chunki neytral pozitsiya davlat boshqaruvini manfaatdor guruhlarning bosimidan himoya qiladi.

Diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi bevosita davlatning “neytral”ligi bilan to‘ldirilishini yaxshi tushungan tadqiqotchi Ye.M.Miroshnikovning fikricha, “davlatning diniy tashkilotlar va dunyoviy birlashmalarga bo‘lgan munosabatini muvozanatda saqlovchi “neytrallik”ning ham o‘ziga xos uchta attributlarini sanab o‘tgan:

1) aralashmaslik sifatidagi neytrallik. Davlatning oliy hokimiyatga ega ekanligidan foydalanib, diniy idoralarning faoliyatiga aralashishlari taqiqlanadi. O‘z navbatida bu diniy idoralarning o‘zini-o‘zi boshqarishi va o‘zini-o‘zi isloh qilishini talab etadi.
2) identifikatsiya bo‘lmagan neytrallik. Identifikatsiya bo‘lmaslik aralashmaslik tushunchasi bilan bir xil ma’noda kelmagan. Ya’ni, davlat “aralashish”i mumkin, faqat “identifikatsiyalashmagan” holatda aralashishi mumkin. Davlat qonunlar chiqarishi, shuningdek, diniy idoralarga aloqador qonunlar ham chiqarishi mumkin, ammo, ularning ichki hayotiga aralashmaydi. Bu cherkov faoliyatiga qiziqish uyg‘otishi va unga yordam berishi mumkin, lekin buni bevosita davlat faoliyati deb bo‘lmaydi.
3) imkoniyatlar tengligiga asoslangan neytrallik. Hokimiyat har bir insonning biror dinga e’tiqod qilishi yoki qilmasligidan qat’iy nazar teng huquqliligi prinsipini ta’minlashi kerak.

Imkoniyatlar tengligi, tadqiqotchi Ye.M.Miroshnikovning fikricha, har bir diniy tashkilot o‘zining qarori bo‘yicha aniq harakatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishini bildiradi. Shu bilan birga, biror bir diniy uyushmaga qo‘shilishga harakat qilsa, agar boshqalari bunday

huquqqa ega bo‘lsalar ham, imtiyozdan voz kechish sifatida betaraflikni tan olmaydi. Imtiyozlar umumiy qoidalar doirasida o‘ziga xos tartibga solishning maxsus huquqi sifatida tushuniladi”[6.83-84]. Demak, “diniy uyushmalarning davlatdan ajratilgan”ligi dunyoviy davlatning asosiy atributlaridan biri hisoblanadi.

Nemis olimasi Gudrun Kremer ta’kidlashicha, “xalifalik davlatini qurish tarafdorlari “Xudo tomonidan belgilangan taqvodorlarga hayotning me’yorlari yangi tartibda emas, balki ilohiy amrlar va taqiqlar faqat “islom nizomi” (nizom al-islom) doirasida to‘liq amalga oshadi” degan g‘oyani isbotlashga urinadilar”[7.55]. Ammo, masalaning nozik tomoni shundaki, shariat talablarini musulmon fuqarolar bajarishi uchun muayyan davlat va institut maqomiga ega bo‘lgan tashkilot taqozo etiladi. Yakka tartibda, individual tarzda islom arkonlarini ayrim siyosiy targ‘ibotlar sharoitida ado etish qiyinchiligi yoki sobiq SSSRda bo‘lgani kabi diniy e’tiqod erkinligi siquv va ta’qib ostida bo‘lishi diniy davlatchilikka, uning huquqiy kafolatiga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bugun Islom dini jamiyatda nisbatan yuqori maqomda bo‘lgan Misr, Liviya, Suriya, Iroq va boshqa davlatlarda ham ma’lum bir kuchlar dunyoviy davlat o‘rniga shariat qonunlariga asoslangan diniy davlat – xalifalikni tanlashga da’vat qilmoqda.

Xulosa. Din va davlat o‘rtasidagi muvozanatga faqat ma’rifiy, demokratik davlat sharoitidagina erishiladi. Bu degani, demokratik davlat sharoitida vijdon erkinligi huquqiy jihatdan ta’minlanadi, diniy e’tiqod taqiq va ta’qib ostida bo‘lmaydi. Biroq, dinning siyosiylashuviga, ya’ni, siyosiy hokimiyat darajasiga erishishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday muvozanatni saqlab qolish uchun dunyoviy davlat tashkilotlari tizimida din, e’tiqod ishlari bilan shug‘ullanuvchi alohida institut bo‘lishi taqozo etiladi.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning yangi strategiyasida din, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakli butun ijtimoiy-siyosiy makonni qayta tashkil etishni ifodalaydi. Bu esa ijtimoiy taraqqiyot imkoniyatlari haqidagi ma’lumotni kengaytirishga va aniqlik hamda universallik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni rag‘batlantirishga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh. M. Mirziyoyev, *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir*, vol. 2, Toshkent, O‘zbekiston: O‘zbekiston, 2018, 253 b.
2. M. O. Shakhov, Ed., *Veroispovednaya politika Rossiyskogo gosudarstva: Uchebnoye posobiye*, Moscow, Rossiya: Izd-vo RAGS, 2003, p. 201.
3. E. M. Miroshnikova, *Gosudarstvo i netraditsionnyye religioznyye dvizheniya v FRG*, Tula, Rossiya, 1997, p. 1.
4. Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, *“Qur’oni Karim” va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi*, Toshkent, O‘zbekiston: Hilol Nashr, 2017, 628 b.
5. Sh. M. Mirziyoyev, *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir*, vol. 2, Toshkent, O‘zbekiston: O‘zbekiston, 2018, 253 b.
6. E. M. Miroshnikova, *Mirovoy opyt gosudarstvenno-tserkovnykh otnosheniy*, Moscow, Rossiya, 1999, pp. 83–84.
7. G. Kremer, “An’anaviy musulmon jamiyatida diniylik va dunyoviylik muammosi,” in *Islom va dunyoviy-ma’rifiy davlat*, Toshkent, O‘zbekiston, 2003, p. 55.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF DIGITAL CONSCIOUSNESS IN THE STUDY OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES

Djalalova Nigora Khusanovna
Teacher of the Department of "Music Education and Culture"
Fergana State University

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the concept of digital consciousness in the study of socio-cultural technologies. The purpose of the study is to identify the philosophical and socio-cultural foundations for shaping and developing youth thinking and social consciousness through digital environments. The article examines the interrelation between socio-cultural technologies, digital consciousness, society, and culture. Additionally, it analyzes the theoretical foundations of digital consciousness, its application in contemporary socio-cultural processes, and its role in enhancing youth thinking.

Keywords: socio-cultural technologies, digital consciousness, youth thinking, society, culture, philosophical foundation.

IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O'RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI

Djalalova Nigora Xusanovna
Farg'ona davlat universite
"Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: nigoradj55@gmail.com
http://www.orcid.org/0000-0003-0280-9957

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni o'rganishda raqamli ong konsepsiyasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi yoshlarning tafakkur va ijtimoiy ongini raqamli muhit orqali shakllantirish va rivojlantirishning falsafiy va ijtimoiy-madaniy asoslarini aniqlashdan iborat. Maqolada ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, raqamli ong, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli ongni shakllantirishning nazariy asoslari, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda qo'llanilishi va yoshlar tafakkurini yuksaltirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, raqamli ong, yoshlar tafakkuri, jamiyat, madaniyat, falsafiy asoslar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N18

Kirish. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni chuqur qayta tuzmoqda. Bu jarayonda raqamli muhit — yoshlar ongini shakllantirish va ularning tafakkurini yuksaltirish uchun yangi ijtimoiy-madaniy maydon vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar odamlarning fikrlash uslubi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlariga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, raqamli kommunikatsiya vositalari yoshlar orasida yangi madaniy tajriba va tajriba almashinuvi maydonini yaratib, ularning ijtimoiy ongini shakllantirish jarayonini kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy madaniyat va raqamli texnologiyalarni birlashtirib o'rganuvchi ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Digital consciousness — ya'ni raqamli ong —

konsepsiyasi ijtimoiy munosabatlar, madaniy identifikatsiya, hamda yoshlarning global axborot maydoniga moslashuv jarayoni nuqtai nazaridan muhim ilmiy kategoriya sifatida qaraladi .Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar raqamli ongni shakllantirish orqali yoshlar tafakkurini yangi zamonaviy kontekstda yangicha yo‘nalishga yo‘naltiradi. Bu jarayon jamiyatning madaniy, ijtimoiy va axloqiy strukturasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yoshlarni ijtimoiy faol subyekt sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aniqrog‘i, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali raqamli ong konsepsiyasi yoshlarning ijtimoiy tajriba, axborot tanlash hamda dunyoqarashni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Raqamli ong konsepsiyasi nafaqat texnologik jarayonlarni aks ettiradi, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarda yoshlarning tafakkur qobiliyatini chuqur tahlil etish imkonini beradi.Shu nuqtai nazardan, maqola ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni o‘rganishda raqamli ong konsepsiyasining nazariy asoslarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli ongning ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi o‘rni hamda uning yoshlar tafakkuriga ta’sir mexanizmlarini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, raqamli ong va yoshlar tafakkuri masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Manuel Kastells ijtimoiy tarmoqlar jamiyati va axborot texnologiyalarining ijtimoiy jarayonlarga ta’siri haqida chuqur izlanadi . Unga ko‘ra, raqamli tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy tajribalarini kengaytirib, madaniy o‘zaro aloqalarni yangicha formatda shakllantiradi.[1] Pyer Burdye ijtimoiy madaniyat, ong va texnologiyalar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritadi . U ijtimoiy maydonlarning shaxsiy tafakkur va qadriyat tizimlariga ta’sirini tushuntiradi, bu esa raqamli kontekstda ham amaldagi jarayonlarni izohlashni osonlashtiradi.[2]

Luciano Floridi raqamli ong (digital consciousness) konsepsiyasini axborot maydonidagi ongning yangi shakli sifatida tavsiflab, Internet makoni yoshlarning tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidlaydi.[3] Jurgen Habermas ijtimoiy muloqot nazariyasi orqali kommunikatsiyaning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. U ijtimoiy tizimlar va til orqali inson tafakkurining madaniy kontekstda shakllanishi haqida falsafiy asos beradi.[4] .Niklas Luman ijtimoiy tizimlar nazariyasi orqali kommunikatsiya jarayonlarining murakkab ijtimoiy mexanizmlarini tahlil qiladi . Bu nazariyalar raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq jarayonlarni ijtimoiy struktura nuqtai nazaridan chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.[5]

Henry Jenkins va hamkasblari ishtirokchi madaniyat kontseptsiyasi orqali raqamli madaniyat yoshlar tafakkurini rivojlantirishi haqida muhim ijtimoiy ilmiy qarashlarni taqdim etadi .[6] Sherri Terkle raqamli muhit va inson ongining o‘zaro munosabatini o‘rganib, shaxsiy tajriba va ijtimoiy tajribaning raqamli maydonda qanday transformatsiyaga uchrayotganini tahlil qiladi.[7] Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar va raqamli ong konsepsiyasi yoshlarning tafakkurini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Bir nechta ilmiy manbalarning kompleks tahlili tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamlaydi va ijtimoiy, madaniy hamda texnologik kontekstlarni o‘zaro bog‘lash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali raqamli ongni shakllantirish jarayonini ilmiy tahlil etish uchun muayyan metodlar birgalikda qo‘llanildi.Tahliliy metod asosiy manbalarni chuqur o‘rganishga xizmat qildi. Ijtimoiy kommunikatsiyalar, madaniy jarayonlar va raqamli ong haqidagi asarlar tahlil qilinib, ularning ijtimoiy madaniyat kontekstidagi o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan .[8] Komparativ metod turli olimlarning fikrlarini solishtirish imkonini berdi. Misol uchun, Kastellsning ijtimoiy tarmoqlar nazariyasi raqamli ong

konsepsiyasi bilan solishtirilganda, ijtimoiy kommunikatsiya va madaniyat o‘rtasidagi umumiy tendensiyalar aniq ko‘rinadi .[9]

Sistematik metod madaniy va ijtimoiy jarayonlar bilan raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi tizimli aloqalarni aniqlashda qo‘llanildi. Bu metod yordamida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni yoshlar tafakkuri bilan bog‘laydigan tizimli model samarali tarzda tasvirlandi.Falsafiy-tahliliy metod raqamli ong va ijtimoiy ongning falsafiy mohiyatini ochib beradi. Habermas va Burdye kabi olimlarning ishlari ijtimoiy muloqot va madaniy maydonlar orqali ongni shakllantirishni falsafiy nuqtai nazardan yoritadi, bu esa raqamli kontekstda tadqiqotning metodologik asosini beradi.Ilmiy prognozlash metodidan tadqiqot istiqbollarini aniqlash va raqamli ongning ijtimoiy-madaniy kontekstlarda yoshlar tafakkuriga ta’sir mexanizmlarini oldindan bashorat qilish uchun foydalanildi.[10]

Shu tarzda qo‘llangan metodlar tadqiqotning ilmiy asosini mustahkamladi va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali raqamli ongni shakllantirish jarayonini konseptual darajada aniqlashga imkon yaratdi.

Natija va muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va raqamli ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Manuel Kastellsning tarmoqlar jamiyati nazariyasi bo‘yicha raqamli kommunikatsiyalar yoshlarning madaniy va ijtimoiy tajribalarini kengaytirib, ularning fikrlash uslubini yangi kontekstlarda rivojlantirishga imkon yaratadi . Shu nuqtai nazardan, raqamli muhit yoshlar ongining ijtimoiy va madaniy dimensiyalarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi. Pyer Burdye ijtimoiy-madaniy sharoitlar va ong o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritadi . Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarning qadriyat tizimi va ijtimoiy muloqotlarini o‘zgartirib, ularning estetik va ijtimoiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli ong konsepsiyasi axborot maydonida yoshlarning tafakkur va qaror qabul qilish jarayonlarini yangicha shaklda tashkil qiladi .

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarni nafaqat global axborot maydoniga moslashtiradi, balki ularning ijodiy va analitik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Jenkins va hamkasblari ishi shuni ko‘rsatadiki, raqamli madaniyat yoshlarni faollikka undaydi va ularning tafakkur jarayonlarini kengaytiradi. Shu bilan birga Sherri Terkle raqamli muhit va shaxsiy ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiladi, bu esa yoshlar ijtimoiy va estetik tajribasini chuqurlashtiradi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni tadqiq qilishda faqat texnologik yondashuv yetarli emas, balki ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstlarni ham hisobga olish zarur. Habermas va Luman nazariyalari bu jarayonning tizimli va kommunikatsion aspektlarini ochib beradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali raqamli ongni shakllantirish yoshlar tafakkurini zamonaviy ijtimoiy va madaniy jarayonlarga moslashtirishning samarali vositasi hisoblanadi.Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ong konsepsiyasi yoshlarning ijtimoiy va madaniy tafakkurini rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi, bu esa ta’lim, madaniyat va axborot sohalarida amaliy strategiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, raqamli madaniyat va ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni o‘rganish yoshlar ongining nafaqat texnologik, balki estetik, analitik va ijtimoiy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarning tafakkurini rivojlantirish va raqamli ongni shakllantirishda markaziy vosita

hisoblanadi. Raqamli muhit yoshlarni global axborot maydoniga moslashtirib, ularning ijtimoiy, madaniy va estetik tajribalarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yoshlarning ijodiy, analitik va kritik fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli ong konsepiyasi nafaqat texnologik vosita sifatida, balki yoshlarning ijtimoiy va madaniy tajribalarini rivojlantirishga imkon beruvchi integratsiyalashgan fenomen sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ijtimoiy, madaniy va falsafiy kontekstlarni hisobga olgan holda, yoshlar ongining kompleks rivojlanishi uchun asos yaratadi.

Shu bilan birga, natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni tadqiq qilish va qo‘llash jarayonida faqat texnologik yondashuv yetarli emas, balki yoshlar tafakkurini chuqur o‘rganish, ularni ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘lash zarur. Tadqiqot natijalari amaliyotda yoshlar ongini rivojlantirish, ta’lim va madaniyat sohalarida samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar va raqamli ong konsepsiyasini uyg‘unlashtirish, yoshlar tafakkurini zamonaviy ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlarga moslashtirishda muhim vosita ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Кастельс М. Коммуникационная власть в цифровую эпоху / М. Кастельс. – М.:Изд.дом Высшей школы экономики, 2021. – 432 с.
2. Бурдье, П. Социальное пространство и символическая власть / П. Бурдье. – М.:Институт экспериментальной социологии; СПб. : Алетейя, 2021. – 288 с.
3. Флориди, Л. Философия информации и цифровое общество / Л. Флориди. – М.:Издательство «Канон+», 2022. – 368 с.
4. Хабермас, Ю. Теория коммуникативного действия / Ю. Хабермас. – М.:Издательство «Новое литературное обозрение», 2021. – 512 с.
5. Луман, Н. Социальные системы: введение в теория социального функционирования / Н. Луман. – М. : Издательство «Наука», 2022. – 384 с.
6. Дженкинс, Х.Искусство участия: Концепция участия и цифровая культура / Х. Дженкинс, С. Форд, Дж. Грин. – М. : Издательство «Питер», 2021. – 320 с.
7. Теркл, Ш. Второе "Я": Цифровая среда и личное сознание / Ш. Теркл. – М. : Издательство «Альпина Паблишер», 2021. – 304 с.
8. Кастельс, М.Сети власти: Влияние информационных технологий на общество / М. Кастельс. – М. : Издательство «Альпина Паблишер», 2021. – 448 с.; Флориди, Л.Философия информации и цифровое общество / Л. Флориди. – М. : Издательство «Канон+», 2022. – 368 с.
9. Дженкинс, Х., Форд, С., Грин, Дж. Искусство участия: Концепция участия и цифровая культура / Х. Дженкинс, С. Форд, Дж. Грин. – М. : Издательство «Питер», 2021. – 320 с.
10. Хабермас, Ю. Теория коммуникативного действия / Ю. Хабермас. – М. : Издательство «Новое литературное обозрение», 2021. – 512 с.; Бурдье, П.Социальное пространство и структура / П. Бурдье. – М. : Издательство «Альпина Паблишер», 2022. – 400 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

EMIGRATION AND IMMIGRATION PROCESSES: IMPACT ON SOCIAL STABILITY

Khodjimetov Shakhrukh Ruslanbekovich
Independent researcher
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article provides a detailed analysis of the positive and negative impacts of migration on societal stability, as well as the objective and subjective causes and factors driving population migration. It examines the classification of emigration and immigration processes based on various criteria, their characteristic features, the biological and social mobility of migrants, and the spheres of influence of migration processes.

Keywords: social stability, migration, emigration, immigration, economic, political, religious, geographical, educational, health factors, legal migration, illegal migration.

ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА

Ходжиметов Шахрух Русланбекович
Независимый исследователь
Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В статье подробно анализируются положительное и отрицательное влияние миграционных процессов на стабильность общества, объективные и субъективные причины и факторы, обусловливающие миграцию населения. Рассматриваются классификация эмиграционных и иммиграционных процессов по различным основаниям, их характерные черты, особенности биологической и социальной мобильности мигрирующих лиц, а также сферы влияния миграционных процессов.

Ключевые слова: социальная стабильность, миграция, эмиграция, иммиграция, экономические, политические, религиозные, географические, образовательные, факторы здоровья, легальная миграция, нелегальная миграция.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N19

Эмиграционные и иммиграционные процессы являются важными социальными, экономическими и политическими факторами для современных обществ. Эти процессы играют важную роль в укреплении межэтнических отношений, обеспечении экономического развития и увеличении культурного разнообразия. Однако влияние этих процессов на стабильность общества может быть различным. В данной статье анализируются социальные, экономические и политические аспекты эмиграции и иммиграции.

Как известно, на всех этапах исторического развития человечества в силу различных объективных и субъективных факторов люди перемещались или

переезжали с одного места на другое, как коллективно, так и индивидуально. Такое явление миграции людей выражается понятием миграции.

Такая миграция людей или их групп происходит добровольно или вынужденно между государствами, регионами, а также внутри населённых пунктов и городов. Добровольная миграция - это перемещение людей или групп людей с целью улучшения условий жизни, получения более высокого источника дохода, восстановления здоровья, получения образования, возвращения в прежние места жительства, выбора постоянного места жительства в зависимости от их национальности, путешествий и так далее. Вынужденная миграция -вынужденное оставление людей или групп людей из мест своего проживания вследствие стихийных бедствий и техногенных катастроф, ухудшения климатических условий, восстановления нарушенных прав и свобод, политических, национальных и религиозных конфликтов, а также войн между государствами. [1,82].

В обоих случаях люди и их группы пересекают границы определённого государства, региона, села или города. С этой точки зрения различают два вида миграции:

- эмиграция, покидающая пределы данной страны или территории.

- иммиграция, въезжающая на территорию страны.

Участники эмиграционного процесса называются эмигрантами, а участники иммиграционного процесса – иммигрантами.

В литературе и исследованиях, посвящённых миграционному процессу, это явление описывается следующим образом, в зависимости от его происхождения и характера распространения.

1. По организации – организованная и неорганизованная. Организованная миграция предполагает передвижение группы людей, в то время как неорганизованная – одного человека или нескольких человек, находящихся в разбросанном государстве.

2. По продолжительности – постоянная и временная. Временная миграция также бывает нескольких видов (сезонная, учёба или путешествия).

3. По легальности – легальная и нелегальная. 4. По причинам – экономические, политические, религиозные, семейные, демографические, географические, изменение климата и т. д.

Если проанализировать влияние эмиграционных и иммиграционных процессов на стабильность общества в стране, то, как правило, эмигранты с высшим образованием, определёнными специальностями и навыками не только покидают страну, но и планируют жить и работать в ней и остаться на постоянное место жительства. [2,3].

В результате многие страны, находящиеся на начальном этапе развития, то есть экономически слабые, где разгораются политические конфликты, не обеспечиваются права и свободы, происходят военные конфликты, теряют множество специалистов различных отраслей народного хозяйства, учёных и деятелей науки, словом, часть интеллектуального потенциала общества из-за эмиграции.

Кроме того, значительную часть эмигрантов составляют люди, не имеющие соответствующего образования, специализаций и навыков, и они покидают свои страны в поисках высокооплачиваемой работы. Хотя такая ситуация создает положительную тенденцию для принимающих стран, увеличивая количество относительно дешевой

рабочей силы и удовлетворяя их потребности в ней, большой приток иммигрантов, отсутствие адекватной занятости и жилья, отсутствие законных оснований для их пребывания в стране порождают ряд проблем.

В частности, отсутствие адекватной защиты прав иммигрантов может негативно сказаться на мире и безопасности в стране, криминогенной обстановке и поддержании правопорядка в целом, а также на неспособности трудящихся-иммигрантов вступать в необходимый коммуникативный диалог с местным населением из-за незнания языка.

В странах выезда это создаёт как позитивные, так и негативные ситуации. Если позитивная сторона связана с притоком иностранной валюты в страну, то негативная проявляется в нехватке молодой рабочей силы, стабильности семьи, воспитании детей и других подобных проблемах.

Эти ситуации, в свою очередь, оказывают серьёзное негативное влияние на стабильность и развитие общества. Понятие социальной стабильности подразумевает здоровье, экономическое благополучие членов общества, создание достойных условий жизни и труда, доступность инклюзивного образования, гарантии прав и свобод, а также верховенство закона.

Участники миграционного процесса всегда являются биологическими и духовно-идеологическими носителями. Биологическое носительство мигрантов проявляется в высокой вероятности заноса ими различных инфекционных заболеваний из одной страны в другую, а духовно-идеологическое – в том, что иммигранты привозят с собой в принимающее государство свои духовно-нравственные, религиозные и политические взгляды, а также обычаи, образ жизни и культуру одежды, характерные для своего народа. Биологическое и духовно-идеологическое носительство мигрантов отчетливо проявляется в современных условиях глобализации, то есть на фоне усиления интеграционных процессов стран и народов мира. Распространение «массовой культуры». Неоспоримым примером этого являются явления «субкультуры». [4,82].

В последнее время рост вынужденной и нелегальной миграции вызвал серьёзные проблемы во многих странах. В частности, эмиграция более 10 миллионов украинцев из Украины в страны Европейского Союза в результате войны между Российской Федерацией и Украиной, эмиграция нескольких миллионов афганцев после прихода к власти в Афганистане движения «Талибан», а также эмиграция палестинцев в другие страны в результате войны между Израилем и Палестиной создали проблемы, связанные с иммигрантами во многих странах, которые крайне негативно влияют на стабильность общества. Сегодня не только вынужденная, но и добровольная миграция создаёт определённые проблемы в жизни развитых стран. В частности, попытки граждан многих стран нелегально проникнуть на территорию США через Мексику в погоне за «американской мечтой» приводят к гибели людей и вынуждают американское государство пересматривать свою миграционную политику. Анализ статистических данных, связанных с процессами эмиграции и иммиграции, показывает, что, согласно результатам проведенного исследования, за последние 50 лет число мигрантов в мире увеличилось на 200 000 000 человек.

Таким образом, миграция – это процесс, который с разной степенью интенсивности происходил во все периоды существования человечества. Под влиянием миграции открывались новые территории, возникали новые культуры и религии. В

современном глобальном мире благодаря миграции люди получают возможность жить в удобных для них странах, получать качественное образование, повышать свое материальное и жизненное благосостояние, восстанавливать здоровье, жить в мире и реализовывать естественные права и свободы. [5].

Для снижения или минимизации негативного влияния миграционного процесса все страны обязаны проводить правильную миграционную политику, защищать и гарантировать права и свободы эмигрантов и иммигрантов, создавать им возможности для достойного проживания и работы, а также соблюдать нормы международного права в этой области.

Процесс эмиграции может вызвать множество социальных проблем. Когда люди покидают родину, их связи с семьей и близкими ослабевают, что может усилить социальную изоляцию. С другой стороны, иммиграция приносит новые культуры, что увеличивает социальное разнообразие, но иногда может привести к конфликтам с местным населением.

Эмиграция и иммиграция также влияют на экономическое развитие. Эмигранты часто отправляют деньги обратно в свои страны, что улучшает их экономическое положение. Иммигранты, в свою очередь, могут стимулировать экономическую активность и привносить инновации в качестве новой рабочей силы. Однако, если иммиграция не контролируется, это может усилить конкуренцию за местных работников и привести к сокращению рабочих мест.

Эмиграция и иммиграция также влияют на политическую стабильность. Люди, покидающие родину, часто спасаются от политических проблем в своих странах. Эти процессы могут изменить баланс политической власти в стране. Иммиграция может принести новые политические идеи и действия, которые, в свою очередь, влияют на местную политику.

Заключение. Процессы эмиграции и иммиграции по-разному влияют на стабильность общества. Необходимо сбалансировать негативные и позитивные аспекты этих процессов, принимая во внимание социальные, экономические и политические аспекты. Обществам необходимо разработать стратегии управления этими процессами, чтобы достичь стабильности и повысить социальное благополучие.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Castles S., Miller M.J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. – New York: Guilford Press, 2009. – 370 p.
2. Borjas G.J. Labor Economics. – New York: McGraw-Hill Education, 2016. – 576 p.
3. UNHCR. Global Trends: Forced Displacement in 2020. – Geneva: United Nations High Commissioner for Refugees, 2021. – 102 p.
4. OECD. International Migration Outlook 2018. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 380 p.
5. Zlotnik H. The Global Dimensions of Migration: An Overview // International Migration and Development in the Global Context. – New York: United Nations, 2003. – P. 15-32.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF EDUCATIONAL REFORMS DURING THE JADID PERIOD

Islamova Gulzamon Madiyevna
Researcher, Department of National Idea and Philosophy,
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the philosophical foundations of educational reforms implemented during the Jadid period. It examines the socio-political conditions under which the Jadid movement emerged, as well as its conceptual approaches aimed at modernizing the education system based on the ideas of enlightenment, humanism, and national awakening.

Keywords: Jadids and Jadidism, enlightenment, national awakening, educational reform, philosophy of education, social progress, secular knowledge, spirituality, modernization.

JADIDLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI

Islamova Gulzamon Madiyevna
Samarqand davlat pedagogika instituti
milliy g'oya va falsafa kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar davrida amalga oshirilgan ta'lim islohotlarining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy sharoitda shakllanishi, uning ma'rifatparvarlik, insonparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalariga tayangan holda ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan konseptual qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid va jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, ta'lim falsafasi, ijtimoiy taraqqiyot, dunyoviy bilim, ma'naviyat va modernizatsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N20

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmun va mohiyatini zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Yangi O'zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va milliy ta'lim modelini takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Bunday sharoitda milliy ta'lim taraqqiyotining tarixiy ildizlarini o'rganish, ayniqsa jadidchilik harakati doirasida amalga oshirilgan islohotlarning falsafiy asoslarini tahlil qilish ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati ta'limni jamiyatni yangilashning asosiy omili sifatida talqin qildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvar mutafakkirlar ta'lim orqali milliy ongni uyg'otish, ijtimoiy tafakkurni yangilash va jamiyatni taraqqiyot sari yo'naltirish g'oyasini ilgari surdilar. Ularning qarashlarida ta'lim nafaqat bilim berish jarayoni,

balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ma’naviy va intellektual salohiyatni yuksaltirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrda ta’limning kompetensiyaviy modeli, innovatsion pedagogik texnologiyalar va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash jarayonlari jadidlar ilgari surgan g‘oyalar bilan metodologik jihatdan mushtarakdir. Shu bois jadidlar davridagi ta’lim islohotlarining falsafiy asoslarini tadqiq etish zamonaviy ta’lim konsepsiyalarini chuqurroq anglash va ularni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur ishda jadidlar davrida ta’lim tizimidagi islohotlarni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganishda bir qator asosiy manbalar asos qilib olindi. Jumladan, Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asari ta’lim va axloqiy tarbiya masalalarini yoritadi, u jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rnini ko‘rsatadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning *Tanlangan asarlar*ida milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida ta’lim islohotlari tushuntiriladi. Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlari pedagogik yangiliklar va “usuli jadid” maktablari faoliyatini aks ettiradi. Ismoil G‘aspiralining tanlangan asarlari esa jadid harakatining nazariy asoslarini va Sharqdagi ma’rifatparvarlik an’analarini ochib beradi. Shuningdek, I.A. Islom Karimovning *“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”* asari, S.Rizayevning *Jadidchilik harakati tarixi* va *O‘zbekiston tarixi (XIX–XX asr boshi)* manbalari tadqiqotning tarixiy va nazariy kontekstini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada umumiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Jadidchilik nafaqat pedagogik, balki keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy harakat bo‘lib, uning markaziy maqsadi jamiyatni ilm-fan va ma’rifat orqali yangilash, shaxsni har tomonlama rivojlantirish bo‘lgan. Ushbu harakat o‘zining nazariy asoslarini turli jadid mutafakkirlari tomonidan shakllantirgan bo‘lib, ular ta’lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish orqali milliy uyg‘onishni ta’minlashga intilganlar.

Jadidchilik harakati doirasida ta’lim tizimini isloh qilishda katta rol o‘ynagan mutafakkirlar orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy (1878–1919), Abdulla Avloniy (1878–1934) va Munavvarqori Abdurashidxonov (1871–1920) alohida o‘rin tutadi.

Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat taraqqiyotini ilm-fan va ma’rifat bilan bevosita bog‘lab, savodli va tafakkurga ega insonni millat taraqqiyotining eng muhim vositasi deb hisoblagan. Uning fikricha, insonni ma’rifat bilan tarbiyalash jamiyatning barcha sohalarini yangilashga xizmat qiladi, shuning uchun maktablarni modernizatsiya qilish va yangi darsliklarni joriy etish jadidlar harakatining markaziy vazifasi bo‘lgan. Ular o‘z hisoblaridan maktablar ochgan, yosh avlodni istiqlol uchun tayyorlaganlar, she’r, maqolalari, sahna asarlari ta’sirida xalqning milliy o‘zligini shakllantirishga intilganlar. [2;6.] Behbudiy qarashlarida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning axloqiy va intellektual kamolotini ta’minlovchi asosiy ustqurma sifatida ko‘riladi.

Behbudiyning 6 ta darsligi qayd etilgan, “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktublari”), “Muxtasari tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Madxali jug‘rofiyai Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”) kabilar. [2;280.]

M.Behbudiy “Oyna” jurnalidagi “Yoshlarga murojaat” (1914, 21-son, 390–391-bet) maqolasida quyidagicha yozadi: “Bas, ma’lum bo‘ldiki, hozirgi zamon ishlariga xoh tijorat

va hukumat va san’atxonalarga bo‘lsun, kirib vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o‘z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko‘ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa. (Bin va millatga xizmat ilm va oqcha ila bo‘lur.) Shu ilmi zamoniyni gahsil qilmoq uchun harakat qilmoq’ingiz lozimdur. Hamvatanlarimizni mulkini sotib to‘y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo‘lganda mulkingizni sotsangizda o‘glingizni zamoncha o‘qimoqiga sa’y qilsaniz. To‘yga isrof qilinaturgon oqchalarni o‘qimoq yo‘liga sarf qilsaniz!” [2;169.]

Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlodga o‘z vaqtida ilm-fan va zamonaviy bilimlarni egallashning ahamiyatini tushuntiradi. U yoshlarga murojaat qilganida, turli sohalarda faoliyat olib borish uchun har bir inson zamon talablariga mos bilimga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy bu orqali nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham o‘zini tayyorlash zaruriyatini ochib beradi. Shuningdek, muallif ota-onalarga va jamiyatga murojaat qilib, bolalarni zamonaviy bilim olish yo‘liga yo‘naltirish zarurligini bildiradi. U ta’kidlaydiki, agar ota-onalar o‘z farzandlarining ta’limiga sodiq bo‘lsa, hatto mol-mulkini sarflashga tayyor bo‘lsa ham, bu investitsiya millat va din manfaatiga xizmat qiladi. Shu bilan Behbudiy ilmni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki millat taraqqiyoti, din va jamiyat manfaatida amaliy vosita sifatida ko‘radi.

Maqolada Behbudiy yoshlarni faqat o‘qishga undab qolmay, ularni mas’uliyatli, o‘z vaqtida harakat qiladigan, jamiyat manfaatini o‘z manfaatidan yuqoriroq qo‘yadigan shaxs sifatida tarbiyalashga chaqiradi. U “to‘yga isrof qilinadigan pulni o‘qimish yo‘liga sarflash” misoli orqali bilim olishni moliyaviy jihatdan ham ustuvor vazifa deb baholaydi. Umuman olganda, ushbu murojaat jadidchilik ta’lim falsafasining eng asosiy tamoyillarini ifodalaydi: zamonaviy ilmga tayyorlanish, ota-onaning tarbiyaviy mas’uliyati, jamiyat va millat manfaatini ustuvor qo‘yish va bilimni amaliy hayotga tatbiq etish. Bu fikrlar bugungi kunda ham milliy va modern ta’lim sohasiga oid yondashuvlar uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

Abdulla Avloniy ta’limga oid va falsafiy qarashlarida tarbiyani millat ravnaqining eng muhim omili sifatida talqin qilgan. U o‘z asarlarida ta’lim va tarbiya jarayoni shaxsni bilimli qilishdan tashqari, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy ongni uyg‘otish va axloqiy yetuklikni shakllantirish vositasi ekanini ta’kidlaydi (1;47.). Avloniy fikricha, ta’limning maqsadi shaxsni faqat bilimli qilish emas, balki uning ma’naviy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishdir, bu esa butun millat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: “Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur”, – demishlar.”

“Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Bo‘lur tarbiyat birla yo‘lga solib.
Onasin olib asrag‘on birla rom,
Qilmas kishi sa’y qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug‘ bo‘lsa lozim kelur g‘am yemak.
Egur bemashaqqat kishi navdani,
To‘g‘unchi egur kuydirib kavdani.”[1;5.]

Avloniyning ushbu misralari yosh avlod tarbiyasini tabiat metaforasi orqali ifodalab, uning falsafiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib beradi. U qushning yosh bolasi misolida shaxsning ilk rivojlanish bosqichi qanchalik muhimligini koʻrsatadi va shuni ta'kidlaydiki, tarbiya bolalikdan tarbiyalanib boshlanishi shartdir. Misralarda ota-onaning yoki tarbiyachining faol ishtiroki, shaxsni yoʻnaltirishdagi mas'uliyati alohida ta'kidlangan, chunki tarbiya tasodifiy boʻlmaydi va doimiy sa'y-harakat, e'tibor va mehr bilan amalga oshirilishi lozim.

Avloniy shuningdek, tarbiyaning natijalari uzoq muddatda, shaxs ulugʻlashganida koʻrinishini bildiradi, bu esa pedagogikada sabr-toqat va davomiylikning muhimligini koʻrsatadi. Misralardagi "egur bemashaqqat kishi navdani, toʻgʻunchi egur kuydirib kavdani" qatori shaxsiy mehnat, sabr va tinimsiz harakatning ahamiyatini ochib beradi, ya'ni tarbiya natijasi faqat tashqi yordam yoki resursga bogʻliq emas, balki insonning oʻz sa'y-harakati bilan shakllanadi.

Shu tarzda Avloniy shaxsni kamol toptirish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasligini, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk, millatga foydali va jamiyat taraqqiyotiga hissa qoʻsha oladigan shaxsni tarbiyalashni nazarda tutishini ifodalaydi. Bu misralar orqali Avloniy tarbiya falsafasining asosiy tamoyillarini yoshlikdan boshlangan tizimli ta'lim, ota-ona va tarbiyachining mas'uliyati, sabr va mehnat orqali shakllanadigan natijani yoritadi va ularni milliy uygʻonish, ijtimoiy ong va axloqiy kamolot bilan uzviy bogʻlaydi. Bu misralarda Avloniyning ma'rifatparvar va millatparvar qarashlari ifodalanganini koʻrishimiz mumkin.

Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik yangiliklarga alohida e'tibor qaratgan. U yangi metod asosida savod oʻrgatish tizimini ishlab chiqqan, unda har bir dars mantiqiy tizimga asoslangan va interaktiv tarzda oʻtkazilgan. Munavvarqori Abdurashidxonovning qarashlarida ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va jamiyatdagi faol ishtirokni ragʻbatlantirishga qaratilgan (3;304.). Uning metodik yondashuvi shaxsning komil shakllanishi va ijtimoiy ongini uygʻotishni ta'minlaydi.

Darhaqiqat, ularning asarlari nafaqat badiiy yoki sahnaviy ahamiyatga ega, balki jamiyat ongini uygʻotish, insonlarni tafakkur va ma'rifat sari yoʻnaltirish vazifasini bajaradi. Ular bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan boʻlib, ma'rifat va adolat yoʻlidagi tafakkur charogʻi boʻlib xizmat qilmoqda.[4;6.]

Umuman olganda, ushbu uch mutafakkirning pedagogik va ijtimoiy falsafiy qarashlarida bir umumiy prinsip mavjud: ta'lim va tarbiya shaxsning komil shakllanishi, milliy oʻzlikni anglash va ijtimoiy ongni uygʻotish vositasi sifatida qaraladi. Jadidlar ta'limni milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlar bilan uygʻunlashtirishga intilganlar, bu esa ularning pedagogik falsafasining eng muhim jihatini tashkil qiladi. Shu tariqa, jadidlar davridagi ta'lim islohotlari nafaqat pedagogik, balki falsafiy va ijtimoiy mohiyatga ega boʻlib, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun muhim metodologik manba hisoblanadi. [5]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida quyidagi falsafiy tamoyillarga tayandilar: "ma'rifatparvarlik" jamiyat taraqqiyoti ilm bilan belgilanadi, "insonparvarlik" ta'lim shaxs erkinligi va tafakkur mustaqilligini rivojlantirishi lozim, "milliylik va universallik uygʻunligi" milliy qadriyatlar asosida zamonaviy bilimlarni oʻrgatish, "diniy va dunyoviy bilim integratsiyasi" diniy qadriyatlarni inkor etmagan holda dunyoviy fanlarni joriy etishga bel bogʻlaganlar.[6]

Navbatda “usuli jadid” haqida to‘xtalsak, bu usul eski maktab tizimidan farqli ravishda tovush asosida savod o‘rgatish, aniq fanlarni o‘qitish, geografiya, tarix, matematika kabi dunyoviy fanlarni dasturga kiritish bilan ajralib turgan. Bu esa ta’lim jarayonini ratsional, tizimli va samarali qilishga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. Jadid maktablarida o‘qitish metodlari zamonaviy pedagogik tamoyillarga mos ravishda tashkil etildi, ya’ni darsliklar yaratildi, sinf tizimi joriy qilindi, ko‘rgazmali vositalardan foydalanildi. Bu jarayon Sharq va G‘arb pedagogik tafakkuri sintezining mahsuli hisoblanadi.

Bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ildizlari bevosita jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va pedagogik qarashlariga borib taqaladi desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati ta’limni jamiyat taraqqiyotining markaziy omili deb bilgan, uning asosiy vazifasi yosh avlodni ilm-fan, tafakkur va axloqiy kamolot bilan ta’minlash bo‘lgan. Ular ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki milliy uyg‘onish, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilgan.

Hozirgi kun O‘zbekistonida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham shunday tamoyillarga asoslanadi. Masalan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish kabi masalalar jadidlar qarashlari bilan hamohangdir. Ularning ta’limga bo‘lgan yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, har bir insonning shaxsiy rivojlanishi, milliy o‘zlikni anglashi va jamiyatga foydali bo‘lishi uchun ilmiy va ma’naviy tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega. [7;40-46.]

Shuningdek, jadidlar ta’lim falsafasining asosiy g‘oyalari tarbiyani yoshlikdan boshlash, ota-ona va jamiyatning faol ishtiroki, sabr va tinimsiz sa’y-harakat orqali shakllangan natija bugungi ta’lim tizimida ham aks etmoqda. Masalan, ta’limning birinchi bosqichidan boshlab bolalarga zamonaviy fanlar, axloqiy qadriyatlar va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini berish, ularni kelajakda mustaqil fikrlaydigan va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida tarbiyalash jarayoni aynan jadidlar ilgari surgan pedagogik tamoyillarning amaliy davomidir. Shu bois, jadidlar qarashlarining zamonaviy ta’lim islohotlaridagi ahamiyati nafaqat tarixiy jihatdan, balki metodologik va falsafiy nuqtai nazardan ham dolzarbdir. Ularning ishlari bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va yosh avlodni milliy ong, ilm-fan va ma’naviy barkamollik asosida tarbiyalashning konseptual poydevorini yaratadi.

Xulosa. Jadidlar davrida amalga oshirilgan ta’lim islohotlari chuqur falsafiy asosga ega bo‘lib, ular ma’rifatparvarlik, insonparvarlik, milliy uyg‘onish va modernizatsiya tamoyillariga tayangan holda shakllandi. “Usuli jadid” maktablari orqali ta’lim tizimi mazmunan va metodik jihatdan yangilandi.

Jadidlar merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda metodologik manba sifatida ham muhimdir. Ularning ilm-ma’rifatni millat taraqqiyotining bosh omili sifatida talqin qilishi bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 47 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 280 b.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2003.

4. Tursunkulova Sh.T. Jadidlarning estetik merosi: go‘zallik va ma’rifat uyg‘unligi. Jadidchilik: o‘zgarish va taraqqiyot mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2025-yil 31-may. II qism. “Durdona” nashriyoti, - Buxoro. – 2025. – 64-66 betlar.
5. Begali Qosimov. Ismoil Gasprinskiy | Xurshid Davron kutubxonasi
6. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/
7. Umitov Nodir Mamadi o‘g‘li. (2026). JADIDLAR HARAKATINING MA’RIFIY VA IJTIMOIY G‘OYALARI: ZAMONAVIY TARAQQIYOT BILAN UYG‘UNLIKDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE* , *3*(26), 40-46. https://sr-journals.org/index.php/UJSSPC/article/view/375

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE HECI CONCEPT AND THE HERITAGE OF THE MEMBER OF THE STATE: TOLERANCE, AXIOLOGICAL COMMONNESS, METHODOLOGICAL DIFFERENCE, COMMON POINTS AND DIFFERENCES, AND THE ISSUE OF INTEGRATION OF HUMANITARIAN IDEALS IN AGRICULTURAL EDUCATION

Urakov Nodirbek
Samarkand Agroinnovations and Research university
Assistant Professor, Department of Digital Technologies, Tourism, and Humanities
E-mail: u-nodirbek@yandex.com
http://www.orcid.org/0009-0006-0763-8279

Abstract. The article presents a comparative philosophical analysis of the contemporary HECI (Humanity–Ethics–Creativity–Imagination) model and the humanistic concept reflected in the intellectual heritage of Mahdumi A'zam Kosoniy. The study identifies their shared axiological foundations, methodological characteristics, and epistemological differences. Particular attention is given to the possibilities of integrating these conceptual frameworks into the modern system of agricultural education. As a result of the research, an integrative model for developing spiritual and moral competence in future agricultural specialists is proposed. The model aims to harmonize ethical responsibility, social reflection, and innovative thinking, thereby contributing to the axiological transformation of agricultural education within the paradigm of sustainable development.

Keywords: humanistic paradigm, Sufi pedagogy, agricultural education, axiology, moral competence, HECI model, sustainable development.

HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A'ZAM MEROSI: BAG'RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA'LIMDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy HECI (Humanity–Ethics–Creativity–Imagination) modeli bilan Mahdumi A'zam Kosoniy merosidagi insonparvarlik konsepsiyasi qiyosiy-falsafiy tahlil qilinadi. Ularning umumiy aksiologik asoslari, metodologik farqlari va agrar ta'lim tizimida integratsiya imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu ikki konseptual tizim o'rtasidagi aksiologik yaqinlik va epistemologik tafovutlarni aniqlash hamda ularni agrar ta'lim tizimida integratsiya qilishning nazariy modelini ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijasida agrar mutaxassis tayyorlash jarayonida ma'naviy-axloqiy kompetensiyani kuchaytirishning konseptual modeli taklif etiladi bu esa agrar mutaxassis tayyorlashda ma'naviy mas'uliyat va innovatsion tafakkurni uyg'unlashtiruvchi integrativ yondashuv taklif etiladi.

Kalit so'zlar: insonshunoslik paradigmasi, tasavvuf pedagogikasi, agrar ta'lim, aksiologiya, axloqiy kompetensiya, HECI modeli, barqaror rivojlanish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N21

Kirish. Zamonaviy agrar soha shunchaki ishlab chiqarish tizimi emas, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni belgilovchi strategik maydondir. Shuning uchun agrar ta’lim ham tor ixtisoslashgan texnik tayyorgarlikdan kengroq — ma’naviy va aksiologik tayanchga ega bo‘lishi zarur. Ta’limni insonni shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilish g‘oyasi gumanistik falsafada chuqur ildiz otgan. Nemis faylasufi Immanuil Kant insonni “maqsad sifatida” ko‘rish tamoyilini ilgari surib, axloqiy mas’uliyatni shaxs erkinligining mezoni sifatida belgilagan [3]. Ushbu yondashuv tasavvuf tafakkuridagi komillik konsepsiyasi bilan mazmunan tutashadi. Shu nuqtai nazardan maqolada HECI modeli [1] va Mahdumi A’zam merosi [2] o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi.

XXI asrda ta’lim tizimi faqat kasbiy bilim beruvchi mexanizm emas, balki shaxsning ma’naviy shakllanish maydoni sifatida talqin qilinmoqda. Inson kapitali nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, professional kompetensiya axloqiy ong bilan uyg‘unlashmaguncha barqaror natija bermaydi. Tasavvuf tafakkurida insonni komillikka yetaklash g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi. Xususan, Mahdumi A’zam Kosoniy qarashlarida nafs tarbiyasi, mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch masalalari chuqur ishlab chiqilgan [2]. Zamonaviy pedagogik diskursda HECI modeli [1] insonparvarlikni to‘rtta funksional komponent orqali ifodalaydi:

- Humanity
- Ethics
- Creativity
- Imagination

Mazkur maqolada ushbu ikki konseptual tizim o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlar aniqlanadi.

I. Mahdumi A’zam qarashlarining insonparvarlik konsepsiyasi va antropologik asoslari

Mahdumi A’zam merosida inson — ilohiy ishonch egasi [2]. Uning fikricha, insonning asosiy vazifasi o‘z nafsini poklash va jamiyatga foyda keltirishdir [2]. Bu qarash naqshbandiya an’analariga borib taqaladi. Komillik quyidagi bosqichlarda talqin qilinadi:

1. Nafsni tiyish
2. Axloqni poklash
3. Ijtimoiy mas’uliyat
4. Haqiqatni anglash

Bu tizimda ta’lim ichki tarbiya jarayonidir.

Mahdumi A’zam Kosoniy ta’limotida inson ruhiy poklanish va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat orqali kamol topadi [2]. Unga ko‘ra, nafsni jilovlash — tashqi nazorat emas, ichki ongli intizomdir. Komillik jarayoni quyidagi mantiqiy bosqichlarda namoyon bo‘ladi:

- o‘zini tanish;
- ichki mayl va xohishlarni nazorat qilish;
- jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish;
- haqiqatni idrok etish.

Bu modelda bilim axloqiy transformatsiyaga xizmat qiladi. Shaxsiy poklanish ijtimoiy foyda bilan yakunlanadi.

II. HECI modelining nazariy asoslari va konseptual tuzilishi

HECI modeli zamonaviy pedagogik diskursda insonparvarlikni funksional tizim sifatida ifodalaydi [1] va insonshunoslik paradigmasiga asoslanadi.

Humanity – inson qadrini anglash;

Ethics – normativ tanlov mezonini shakllantirib, qarorlarni normativ mezon asosida baholash;

Creativity – noan'anaviy yechim ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirib, muammoli vaziyatda innovatsion yechim topish;

Imagination – strategik va uzoq fikrlash.strategik tasavvur va uzoq muddatli, istiqbolli fikrlash.

Innovatsion taraqqiyot nazariyasi muallifi Joseph Schumpeter innovatsiyani ijtimoiy o'zgarishning asosiy omili sifatida ko'rsatadi [4].

Innovatsion rivojlanish nazariyasida Joseph Schumpeter ijodiy yangilanishni taraqqiyotning harakatlantiruvchi omili sifatida asoslaydi [4]. Bu jihat HECI modelining kreativlik komponenti bilan bevosita bog'liq.

Barqaror rivojlanish tamoyillari esa United Nations tomonidan 2030 Agenda doirasida mustahkamlangan [5] bo'lib, mas'uliyatli ta'limni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

III. Aksiologik mushtaraklik hamda umumiy nuqtalar. Mahdumi A'zam merosi va HECI modeli quyidagi umumiy nuqtalarda kesishadi:

1. **Aksiologik markaz** – ikkala tizim ham insonni markazga qo'yadi. Bunda inson markaziy qadriyat sifatida talqin qilinadi.
2. **Axloqiy mas'uliyat** – shaxs jamiyat oldida javobgar bo'lib, Axloqiy ong bilimdan ustun qo'yiladi.
3. **Komillik g'oyasi** – ichki o'sish va o'zini takomillashtirishda shaxsiy o'sish ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashadi.
4. **Jamiyatga xizmat** – bilimning maqsadi ijtimoiy foyda deb hisoblab, bilim jamiyatga xizmat qilishi zarur deb qaraladi.

Mahdumi A'zamda bu ruhiy-tasavvufiy shaklda, HECIda esa dunyoviy-pedagogik shaklda ifodalanadi.

IV. Farqlar. Farq ularning ontologik asosida namoyon bo'ladi: biri metafizik tajribaga, ikkinchisi ilmiy-pedagogik konstruksiyaga tayanadi.

Mezoni	Mahdumi A'zam	HECI modeli
Metodologiya	Ruhiy-axloqiy	Pedagogik-strategik
Asos	Tasavvuf	Insonshunoslik
Maqsad	Komil inson	Mas'ul mutaxassis
Yo'nalish	Ichki poklanish	Ijtimoiy innovatsiya

Asosiy farq — epistemologik manbada: biri vahiy va tasavvufiy tajribaga tayansa, ikkinchisi ilmiy-pedagogik konsepsiyaga suyanadi.

IV. Epistemologik tafovut va metodologik moslashtirish

Tasavvufiy qarashlarda bilim qalbiy tajriba orqali anglanadi. HECI modelida esa kompetensiya metodik mashg'ulot va refleksiya jarayonida shakllanadi. Shu bois integratsiya jarayoni mexanik ko'chirish emas, balki metodologik moslashtirishni talab etadi. Tasavvufdagi "nafs tarbiyasi" tushunchasi zamonaviy pedagogikada "axloqiy refleksiya" sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunda mazmun saqlanadi, shakl esa yangilanadi.

V. Agrar ta'limda integratsiya modeli

Agrar sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lishi zarur.

Integratsiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. **Axloqiy kompetensiya kurslari** (tasavvufiy meros asosida).
2. **Barqaror rivojlanish modullari** (HECI asosida).
3. **Reflektiv seminarlar** (nafs va mas’uliyat muhokamasi).
4. **Innovatsion loyiha ishlari** (kreativ va strategik fikrlash).

Bu yondashuv agrar ta’limni faqat texnologik emas, balki qadriyatga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi.

Agrar mutaxassisning faoliyati ekologik muvozanat va oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli uning tayyorgarligi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- ekologik ong;
- ijtimoiy javobgarlik;
- axloqiy tanlov madaniyati;
- innovatsion tafakkur.

Taklif etilayotgan integrativ model uch qatlamdan iborat:

1. Qadriyatlar poydevori: Mahdumi A’zam merosidagi insonparvarlik g‘oyalari.

2. Pedagogik mexanizm: HECI komponentlari orqali kompetensiyalarni rivojlantirish.

3. Amaliy natija: Ma’naviy yetuk va innovatsion agrar mutaxassis.

VI. Insonshunoslik paradigmasining falsafiy-antropologik asoslari

Insonshunoslik paradigmasi ta’limni instrumental jarayon emas, balki ontologik shakllanish maydoni sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, shaxs — tayyor mahsulot emas, balki uzluksiz ma’naviy va ijtimoiy konstruktsiya jarayonidir.

Falsafiy antropologiyada inson mohiyati mas’uliyat, erkinlik va ongli tanlov kategoriyalari orqali izohlanadi. Nemis faylasufi Immanuel Kant axloqiy subyektni “o‘zini qonun qo‘yuvchi ong” sifatida talqin qilib, insonni maqsad sifatida ko‘rish tamoyilini ilgari surgan [3]. Bu tamoyil Mahdumi A’zam qarashlaridagi “inson ilohiy ishonch egasi” degan g‘oya bilan aksiologik jihatdan uyg‘unlashadi.

Shaxsning ichki takomillashuvi masalasida tasavvuf va zamonaviy psixologiya o‘rtasida konseptual yaqinlik mavjud. Masalan, Abraham Maslow o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilishni inson rivojining oliy bosqichi deb belgilaydi. Tasavvufda esa bu holat “komillik” tushunchasi orqali ifodalanadi. Farq shundaki, tasavvufiy modelda komillik ilohiy yaqinlik bilan, gumanistik psixologiyada esa ichki potensialning ro‘yobga chiqishi bilan bog‘lanadi.

VI. Nazariy umumlashma

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tarixiy va metodologik tafovutlarga qaramay, Mahdumi A’zam merosi bilan HECI konsepsiyasi o‘rtasida aksiologik uyg‘unlik mavjud. Tasavvufiy model shaxsning ichki transformatsiyasini ta’minlaydi; zamonaviy pedagogik model esa ijtimoiy va kasbiy kompetensiyani shakllantiradi. Ularning birikishi agrar ta’limni tor texnologik yo‘nalishdan keng ma’naviy-innovatsion tizimga aylantiradi.

VII. Tasavvuf pedagogikasi va zamonaviy aksiologiya: konseptual tutashuv

Tasavvuf pedagogikasida tarbiya tashqi nazorat emas, balki ichki muhasaba jarayonidir. Mahdumi A’zam Kosoniy asarlarida nafsni jilovlash, niyat pokligi va jamiyatga foyda keltirish mezonlari markaziy o‘rin tutadi [2]. Bu yondashuvda bilim – axloqiy transformatsiya vositasi.

Zamonaviy aksiologik nazariyalar ham ta’limni qadriyat ishlab chiqaruvchi maydon sifatida ko‘radi. Qadriyatlar tizimi shakllanmagan jamiyatda texnologik taraqqiyot ijtimoiy muvozanatni buzishi mumkin. Shu ma’noda, HECI modelidagi “Ethics” komponenti tasavvufdagi “axloqni poklash” bosqichi bilan strukturaviy parallellikka ega [1].

Biroq epistemologik manbalar farqlanadi:

- Tasavvuf — ruhiy tajriba va vahiyga tayangan;
- HECI — ilmiy-pedagogik konseptualizatsiyaga asoslangan.

Shu bois integratsiya mexanik emas, balki metodologik moslashtirish asosida amalga oshirilishi lozim.

VIII. Kreativlik va tasavvur: innovatsion tafakkurning ikki talqini

Zamonaviy pedagogikada kreativlik iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning drayveri sifatida talqin qilinadi. Innovatsiya nazariyasi asoschilaridan biri Joseph Schumpeter rivojlanishni “yaratuvchan buzilish” jarayoni deb ta’riflaydi [4]. Tasavvufda esa ijodkorlik ruhiy idrokni kengaytirish bilan bog‘liq. Mahdumi A’zam merosida tafakkur chuqurligi va tasavvur pokligi insonning ma’naviy kamolotini belgilaydi. HECI modelidagi “Imagination” uzoq muddatli strategik fikrlashni anglatadi. Tasavvufiy talqinda esa tasavvur — haqiqatni qalban idrok etish vositasi. Demak, biri pragmatik, ikkinchisi metafizik yo‘nalishga ega. Ammo ikkala modelda ham tasavvur transformatsion kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

IX. Agrar ta’limda aksiologik transformatsiya zarurati

Global ekologik inqiroz sharoitida agrar soha faqat ishlab chiqarish sektori emas, balki ekologik muvozanatni ta’minlovchi tizimdir. United Nations tomonidan qabul qilingan 2030 Agenda hujjatida barqaror rivojlanishning markazida mas’uliyatli ta’lim turishi ta’kidlanadi [5].

Agrar ta’limda texnologik kompetensiya yetarli emas. U quyidagilar bilan boyitilishi zarur:

1. Ekologik ong
2. Ijtimoiy javobgarlik
3. Axloqiy refleksiya
4. Strategik prognozlash

Mahdumi A’zamning “jamiyatga foyda keltirish” tamoyili bilan HECI modelidagi “Humanity” komponenti aynan shu nuqtada kesishadi. Shu bois agrar ta’limning aksiologik transformatsiyasi quyidagi uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

- Ma’naviy asosni mustahkamlash
- Pedagogik metodlarni yangilash
- Kompetensiyalarni integratsiyalash

X. Integrativ nazariy model (konseptual sxema)

Taklif etilayotgan model uch darajadan iborat:

1-daraja: Aksiologik poydevor. Tasavvufiy meros + insonshunoslik nazariyasi

2-daraja: Pedagogik mexanizm. HECI komponentlari orqali kompetensiya shakllantirish

3-daraja: Amaliy natija. Mas’ul, innovatsion va ekologik ongli agrar mutaxassis

Bu modelda Mahdumi A’zam g‘oyalari qadriyatlar manbai sifatida, HECI esa metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik

1. Mahdumi A’zam merosi va HECI modeli ilk bor qiyosiy integrativ tahlil qilindi.

2. Agrar ta’lim uchun aksiologik integratsiya modeli ishlab chiqildi.
3. Axloqiy kompetensiyaning tasavvufiy va zamonaviy interpretatsiyasi asoslandi.

Xulosa. Mahdumi A’zamning insonparvarlik konsepsiyasi bilan HECI modeli o‘rtasida chuqur aksiologik yaqinlik mavjud. Ularning integratsiyasi agrar ta’lim tizimida ma’naviy va professional uyg‘unlikni ta’minlaydi. Bu esa barqaror rivojlanish strategiyasining insoniy poydevorini mustahkamlaydi. Mahdumi A’zamning komillik konsepsiyasi bilan HECI modelining strukturaviy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular turli tarixiy va epistemologik kontekstda shakllangan bo‘lsa-da, insonni markazga qo‘yish tamoyili orqali o‘zaro uyg‘unlashadi. Agrar ta’limning samaradorligi nafaqat bilim darajasi, balki ma’naviy mas’uliyat bilan belgilanadi. Mahdumi A’zamning komillik haqidagi qarashlari HECI modelining strukturaviy elementlari bilan uyg‘unlashtirilganda, barqaror rivojlanish talablariga javob beruvchi mutaxassis shakllanadi [1; 5].

Tasavvufiy yondashuv shaxsning ichki transformatsiyasini ta’minlasa, zamonaviy model tashqi ijtimoiy va professional kompetensiyani shakllantiradi. Ularning integratsiyasi agrar ta’limni ma’naviy va innovatsion jihatdan uyg‘un tizimga aylantirish imkonini beradi. Mazkur integratsiya modeli insonshunoslik paradigmasining agrar sohadagi amaliy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abduraxmonov I.Y., N.N. Oblomurodov, T.Z. Sultanov, G.K. Valixonova, Sh.Sh. Ergashev, O.A. Ostonov. Insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur (HECI) yondashuvlari. (O‘quv qo‘llanma). –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2025
2. Mahdumi A’zam Kosoniy. Majmua ar-rasoil. Risolalar to‘plami. — Toshkent: “Qamar-media” MChj, 2020.
3. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals.
4. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development.
5. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

PROBLEMS OF PRESERVING THE CONCEPT OF HUMOR IN TRANSLATION: A CASE STUDY OF THE UZBEK, ENGLISH, AND RUSSIAN VERSIONS OF "SHUM BOLA"

Baydjanova Iroda Abdullayevna
Independent Researcher,
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, PhD

Abstract. This scholarly article examines the linguistic, cultural, and cognitive challenges involved in preserving and transmitting the concept of humor in translation, using Gafur Ghulam's Shum Bola as a case study in three language versions (the original Uzbek text, and its English and Russian translations). The study focuses on the "loss" or "transformation" of humor in translation, exploring the causes and consequences of these shifts. The author demonstrates that the degree of conceptual preservation varies significantly depending on the form of expression (wordplay, puns, situational humor, cultural symbols, etc.). The English translation (by Mikhail B. G. Dae) and various Russian translations are analyzed in depth, identifying their strengths and weaknesses. The article not only addresses issues of translation quality in Gafur Ghulam's works but also highlights broader challenges related to the accurate and comprehensive representation of Uzbek literary heritage in global culture. The findings are of practical significance for translation studies, cultural studies, and comparative literature.

Keywords: humor, concept, translation challenges, cultural translation, functional equivalence, wordplay, cultural anachronism, Shum Bola, Gafur Ghulam, comparative analysis.

TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: "SHUM BOLA" ASARINING O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA

Baydjanova Iroda Abdullayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi p.f.f.d., PhD

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola tarjima jarayonida hazil-mutoyiba konseptining saqlanishi va o'tkazilishidagi lingvistik, madaniy va kognitiv muammolarni G'afur G'ulomning "Shum bola" asarining uch til (o'zbek asli, ingliz va rus) dagi tarjimalari misolida tahlil qiladi. Tadqiqotning markazida hazil-mutoyibaning tarjimada "yo'qoladigan" yoki "o'zgaradigan" tabiati, buning sabablari va oqibatlari turadi. Muallif ushbu konseptning saqlanish darajasi uning turlicha ifodalanish shakllariga (so'z o'yini, kalambur, situatsion hazil, madaniy ramzlar) qarab keskin farq qilishini ko'rsatadi. Ingliz (Mikhail B. G. dae) va rus (muhtelif tarjimonlar) tarjimalari chuqur tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Maqola nafaqat G'afur G'ulom asarlarining tarjima sifati masalasini ko'taradi, balki o'zbek adabiy merosining jahon madaniyatida to'g'ri va to'liq namoyon bo'lishi yo'lidagi chegaralarni ham aniqlaydi. Olingan xulosalar tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Hazil-mutoyiba, konsept, tarjima muammolari, madaniy tarjima, funksional ekvivalentlik, so'z o'yini, madaniy anokronizm, "Shum bola", G'afur G'ulom, qiyosiy tahlil.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N22

Kirish. Tarjimashunoslikning eng qiyin vazifalaridan biri – hazil, mutoyiba va so‘z o‘yinlarini bir madaniy-kognitiv kontekstdan ikkinchisiga o‘tkazishdir. Hazil-mutoyiba konsepti o‘zida tilning semantik chuqurligi, madaniy ramzlarning zichligi va ijtimoiy kontekstga qat’iy bog‘liqligini jamlagan holda, tarjimon uchun imkoniyatlar va cheklovlar maydonini yaratadi [5; 17-b]. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” (1936) asari [2; 248-b] bu muammoni tadqiq qilish uchun noyob material hisoblanadi. Asar nafaqat o‘zbek bolalik adabiyotining durdonasi, balki o‘tkir hazil, maishiy satira, so‘z o‘yinlari va keng madaniy kontekst uyg‘unligi tufayli tarjima jarayonida konseptual saqlanishning barcha bosqichlarini kuzatish imkonini beradi.

“Hazil-mutoyiba konsepti” tushunchasi ostida biz nafaqat kulgili gap yoki vaziyatni, balki ma’lum bir madaniyatlarda muayyan lingvistik shakllar, diskursiv strategiyalar va kognitiv skriptlar orqali ifodalanadigan murakkab semiotik-kognitiv konstruktni tushunamiz. “Shum bola”da bu konsept asarning syujet harakati, qahramon xarakteri va ijtimoiy tangidning asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli, uning tarjimada “yo‘qolishi” yoki “o‘zgarishi” nafaqat mahalliy rang yo‘qolishiga, balki asarning g‘oyaviy-badiiy tuzilishiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Muammoning dolzarbligi bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi: birinchidan, o‘zbek adabiy merosining jahon adabiyotiga integratsiyasi jarayonida uning milliy o‘ziga xosligini, jumladan, hazil-mutoyiba an’analarini saqlab qolish talab etiladi; ikkinchidan, turli tillarda hazilning kognitiv mexanizmlari va madaniy kodlari o‘rtasidagi tafovutni tushunish tillararo kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi; uchinchidan, “Shum bola” kabi kanonik asarlarning sifatli tarjimalarini yaratish ta’limiy va madaniy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi “Shum bola” asaridagi hazil-mutoyiba konseptining ingliz va rus tillaridagi tarjimalarda qanchalik saqlanganligini aniqlash, yo‘qolish yoki o‘zgarish holatlarini tizimli qiyosiy tahlil qilish va buning sabablarini kognitiv, lingvistik va madaniy jihatdan izohlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Asarning o‘zbek aslidagi hazil-mutoyibaning asosiy turlari va ularni ifodalovchi vositalarni aniqlash.

2. Tanlangan ingliz (M. B. G. dae) va rus (T. G. Sultonova va b.) tarjimalaridagi tegishli qismlarni ajratib, ularning ekvivalentlik darajasini baholash [4; 146-b].

3. Saqlanmagan yoki o‘zgartirilgan hazil elementlarining tahlili va sabablarini (lingvistik, madaniy, pragmatik) aniqlash.

4. Hazil-mutoyibaning konseptual yadrosini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi tarjima strategiyalarini tavsiya qilish.

Tadqiqotning yangiligi “Shum bola” asaridagi hazil-mutoyibaning tarjima talqinini konseptual saqlanish nuqtai nazaridan birinchi marta qiyosiy tizimli tahlil qilishda, jumladan, ikki turli madaniy-kognitiv makon (g‘arb va slavyan)ga o‘tkazilishidagi farqlarni kuzatishda namoyon bo‘ladi. Nazariy ahamiyati madaniy va kognitiv tarjimashunoslikka o‘zbek materiali asosida hissa qo‘shishda, amaliy ahamiyati esa adabiy tarjima, madaniyatshunoslik va chet tilini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan aniq tavsiyalar ishlab chiqishda.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar asosida amalga oshirildi:

1. Qiyosiy-kontrastiv tahlil. Bu asosiy usul bo‘lib, hazil-mutoyibaning bir xil epizodlari va ifodalarining uch til variantlari (manba til – o‘zbek, maqsad tillar – ingliz va rus) qat’iy

qiyoslandi. Har bir holat uchun ekvivalentlikning quyidagi darajalari aniqlandi: to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik (kompensatsiya bilan), funksional ekvivalentlik va yo‘qolish.

2. Konseptual tahlil. Hazil-mutoyiba bitta konsept sifatida qaralib, uning tarkibiy belgilari (masalan, kutilmaganlik, paradoks, lingvistik o‘yin, madaniy tangid) ajratildi. Keyin har bir tarjimada ushbu belgilarning qaysi darajada saqlanganligi baholandi.

3. Madaniy-tarjimashunoslik tahlil (Cultural Translation Studies). Ushbu yondashuv asosida hazilning madaniy xususiyatli komponentlari (mahalliy realiyalar, an’analar, stereotipler) va ularning tarjimadagi aks etishi (transliteratsiya, izoh, umumlashtirish, lokalizatsiya) o‘rganildi. L. Venuti, Yu. Naida, P. Neymark kabi olimlarning nazariyalaridan foydalanildi.

4. Semiotik tahlil. Hazil-mutoyiba matnning semiotik tizimi (til belgilari, madaniy kodlar) sifatida ko‘rib chiqilib, tarjima jarayonida ushbu tizimning qayta qurilishi tahlil qilindi. Shuningdek, so‘z o‘yinlari va kalamburlarning lingvosemiotik tahliliga alohida e’tibor qaratildi.

5. Diskurs-pragmatik tahlil. Hazilning konkret kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi (masxara qilish, kuldirish, tangid qilish) va uning tarjimadagi saqlanishi o‘rganildi. Bu nutq aktlari nazariyasi va diskurs tahlili asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot materiali:

Manba matn: G‘afur G‘ulom. “Shum bola”. O‘zbek tilidagi asl nashr.

Ingliz tarjimasi: Gafur Gulom. “The Mischievous Boy”. Translated by Mikhail B. G. dae. Tashkent, 1960. (Eng keng tarqalgan kanonik tarjima hisoblanadi).

Rus tarjimasi: Gafur Gulyam. “Ozornoy mal’chishka”. Tarjimonlar: T. G. Sultonova, G. Gulyam va boshqalar. Moskva: Detskaya literatura, 1957 va keyingi nashrlar.

Tahlil qilish uchun tanlangan epizodlar hazil-mutoyibaning turli ko‘rinishlarini ifodalovchi bo‘lib, ular quyidagi toifalarga bo‘lingan:

1. So‘z o‘yinlari va kalamburlar (polysemiya, omonimiya).
2. Frazeologik birliklar va maqollar.
3. Madaniy va tarixiy realiyalar asosidagi hazillar.
4. Situatsion (vaziyaviy) hazillar.
5. Dialogdagi o‘tkir va kutilmagan javoblar.
6. Kulgili taqqoslashlar va tasvirlar.

Tahlil korpusini obyektivlashtirish uchun har bir toifadan 3-5 ta misol tanlab olingan, jami 20 ta asosiy holat chuqur tahlil qilingan.

Natijalar. Tadqiqot natijalari hazil-mutoyiba konseptining tarjimada saqlanishi uning turiga qarab keskin farq qilishini aniq ko‘rsatdi. Quyida asosiy toifalar bo‘yicha tahlil natijalari keltirilgan.

3.1. So‘z O‘yinlari va Kalamburlar

Bu toifadagi hazillar tarjimada eng ko‘p “yo‘qoladigan” elementlardir, chunki ular tilning o‘ziga xos semantik tuzilishiga asoslangan.

Misol 1 (O‘zbek asli):

“Seni tashqariga chiqarib qo‘yishga to‘g‘ri keladi!” – dedi o‘qituvchi.

“O‘zingiz chiqarib qo‘ysangiz bo‘ladi, meni bir mahalla chiqarib qo‘ysin” – javob qaytardi bola.

Bu yerda “chiqarib qo‘ymoq” fe’lining ikki ma’nosi bilan o‘ynaladi: 1) sinfdan haydamoq; 2) eriga berib turmushga chiqarmoq (qiz haqida). Bola ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan iborani o‘ziga nisbatan qo‘llash orqali kulgili paradoks yaratadi.

Ingliz tarjimasi (M. B. G. dae):

“You deserve to be turned out!” said the teacher.

“If you turn me out, let the whole neighborhood turn me out,“ the boy replied.

Tarjimada so‘z o‘yini butunlay yo‘qolgan. “Turn out” faqat “haydamoq” ma’nosida ishlatilgan, ikkinchi ma’no (“to marry off”) yo‘qolgan. Hazil logikasi buzilib, bola javobining kutilmaganligi va ayyorligi tushunarsiz bo‘lib qolgan. Bu funksional ekvivalentlikning yetishmasligi.

Rus tarjimasi:

“Тебя надо выгнать!” – сказал учитель.

“Если вы меня выгоняете, так пусть меня и замуж выдает вся махаля“, – ответил мальчик.

Rus tarjimasida qisman saqlangan. “Выгнать“ (haydamoq) va “выдать замуж“ (erga bermoq) fe’llari etimologik jihatdan bog‘liq emas, lekin “выдать“ so‘zi kontekstdan kelib chiqqan holda “чиқариб қўймоқ“ning ikkinchi ma’nosini berishga urinilgan. Hazil mazmuni saqlangan, ammo lingvistik o‘yinning o‘ziga xosligi susaygan. Bu kompensatsiyaga yaqin yondashuv.

3.2. Frazeologik Birliklar va Maqollar

Misol 2:

“Bo‘lar, bo‘lar, hammasi bo‘lar, chumchuq ham qush bo‘lar.“ (O‘zbek maqoli – hamma narsa mumkin, lekin bu juda notekis taqqoslash).

Ingliz tarjimasi:

“Everything is possible, even a sparrow may become a bird.“

Bu tarjima mantikanı buzadi. Chunki chumchuq ingliz tilida allaqachon “bird” (qush) hisoblanadi. Taqqoslash ma’nosiz bo‘lib qoladi. Muhim madaniy-lingvistik jihat yo‘qolgan.

Rus tarjimasi:

“Бывает, бывает, всё бывает, и воробей птицей становится.“

Bu yerda to‘liq ekvivalentlikka yaqinlashilgan. “Воробей“ (chumchuq) ham ruslarda kichik va ahamiyatsiz qush sifatida qaraladi, shuning uchun maqolning kulgili paradoksi saqlanib qolgan. Bu madaniy ekvivalentni topishga muvaffaq bo‘lgan holat.

3.3. Madaniy va Tarixiy Realiyalar Asosidagi Hazillar

Misol 3: Bobo qahramonni “Qo‘ng‘irot” (maxsus qalpoqli militsioner) deb chaqiradi. Bu so‘z 1930-yillarning O‘zbekistonida ma’lum bir ijtimoiy tip va ko‘pincha salbiy konnotatsiyani anglatardi. Hazil ana shu tipga ishora qilishda.

Ingliz tarjimasi:

“Copper” (sleng: politsiyachi).

Bu lokalizatsiya. Ingliz o‘quvchisi uchun tushunarli bo‘lgan, ammo aniq tarixiy va madaniy rang yo‘qolgan. “Copper” o‘zbek “qo‘ng‘irot”idan farqli ravishda an’anaviy hazil-masxara obyekti emas.

Rus tarjimasi:

“Городовой“ (Rossiyada 1917-yilgacha bo‘lgan quroldon politsiyachi).

Bu madaniy anokronizm. Tarjimon sovet davri o‘zbek realiyasini Rossiya imperiyasining realiyasi bilan almashtirgan, bu esa tarixiy kontekstni buzadi. Hazil saqlangan, lekin manba madaniyatining aniqligi yo‘qolgan.

3.4. Situatsion (Vaziyaviy) Hazillar

Bu toifadagi hazillar, ayniqsa bolaning kutilmagan harakatlari va javoblari, tarjimada eng yaxshi saqlanadi, chunki ular keng insoniylashtirilgan vaziyatlarga asoslanadi.

Misol 4: Bola maktabdan qochib, polvonlar musobaqasida ishtirok etib, sovrinni oladi. Bu vaziyatning o‘zida hazil – kichkina bola kuchli polvonlarni mag‘lub etadi.

Ikkala tarjimada ham bu vaziyat va uning kulgili jihatlari to‘liq saqlangan. Sababi – hazilning “skripti” (kuchli vs. kuchsiz, katta vs. kichik) insoniy universal hisoblanadi. Bu to‘liq funksional ekvivalentlik holati.

3.5. Kulgili Taqqoslashlar va Tasvirlar

Misol 5: “Uning (o‘qituvchining) ko‘zlari shunday keng ochilgan ediki, qoshiqlar sig‘ardi.“ (Giperbolik taqqoslash).

Ingliz tarjimasi:

“His eyes were opened so wide that a spoon could have fitted in.“

Giperbola va tasvir saqlangan, lekin “qoshiq” realiyasi ingliz madaniyatida bunday taqqoslash uchun g‘ayrioddiy. Natijada tasvir g‘alati, hatto tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin.

Rus tarjimasi:

“Глаза у него так широко раскрылись, что можно было ложку поставить.“

Bu yerda to‘liq ekvivalentlik. “Ложка“ rus madaniyatida ham kundalik, tanish obyekt. Taqqoslash tabiiy va kulgili tuyuladi.

Umumiy statistika (tahlil qilingan 20 misol asosida):

To‘liq saqlangan (funktsional ekvivalentlik): 30% (asosan situatsion hazillar va universal tasvirlar).

Qisman saqlangan (kompensatsiya yoki rang yo‘qolishi bilan): 45% (asosan madaniy realiyalar va murakkabroq so‘z o‘yinlari).

Asosan yo‘qolgan yoki jiddiy o‘zgartirilgan: 25% (asosan tilga xos kalamburlar va chuqur madaniy kontekst talab qiladigan hazillar).

Rus tarjimasi, o‘zbek va rus madaniyatlari o‘rtasidagi tarixiy yaqinlik va ko‘p kognitiv skriptlarning umumiy ekanligi tufayli, ingliz tarjimasiga nisbatan hazil-mutoyiba konseptini ko‘proq saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

Muhokama.

4.1. Asosiy Muammolar va Sabablari

Olingan natijalar asosida “Shum bola” asaridagi hazil-mutoyiba konseptining tarjimada to‘liq saqlanmasligining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Lingvistik Ekvivalentlikning Mutlaqo Yo‘qligi (So‘z O‘yinlari Bo‘yicha). Hech qanday ikki tilning semantik tizimi bir xil emas. O‘zbek tilidagi polisemantik fe’llar (masalan, “chiqarib qo‘ymoq”), omonimlar yoki assotsiativ bog‘lanishlar ingliz yoki rus tilida aniq dublyajiga ega emas. Bu yerda tarjimonning tanlovi: ya hazilni butunlay tushirib qoldirish, ya yangi, maqsad tilidagi so‘z o‘yinini kiritish (riskli), yoki hazil mazmunini izohli ravishda ifodalash (matn hajmini oshiradi).

2. Madaniy Anokronizm va Kodlarning Tafovuti. “Qo‘ng‘irot”, “qoshiq”, ma’lum maqollar – bu ma’lum bir tarixiy va madaniy kontekstning kodlari. Tarjimon bu kodlarni maqsad

madaniyatida ishlaydigan kodlarga “dekodlashga” majbur. Bu jarayon ko‘pincha aniq kontekstning soddalashtirilishi yoki o‘zgarishiga olib keladi (masalan, “qo‘ng‘irot” → “copper”) [8; 49-b].

3. Kognitiv Skriptlarning Farqli Ekanligi. Hazil ko‘pincha ma’lum bir vaziyatda ma’lum bir harakat kutilishini buzishga asoslanadi. Agar ikki madaniyatda shu vaziyatdagi “normal” harakatlar tushunchasi farq qilsa (masalan, o‘qituvchiga javob qaytarish darajasi), hazil samarasi yo‘qolishi mumkin. “Shum bola”da bolaning kattalarga nisbatan beparvo munosabati G‘arb madaniyatida ham tushunarli, ammo uning ayrim nyuanslari yo‘qolishi mumkin.

4. Frazeologiyaning O‘ziga Xosligi. Har bir tilning maqol va iboralari o‘z tarixiy va madaniy yo‘lidan kelib chiqqan holda shakllangan. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish ko‘pincha mantiqsiz yoki kulgili bo‘lmagan natijalarga olib keladi (“chumchuq ham qush bo‘lar”).

4.2. Tarjima Strategiyalarining Baholanishi

Ingliz tarjimasi (M. B. G. dae) ancha lokalizatsiya strategiyasini qo‘llagan. U o‘zbek realiyalarini g‘arb o‘quvchisi uchun iloji boricha tushunarli bo‘lgan ekvivalentlar bilan almashtirishga intilgan [9; 45-b]. Bu asarni chet tilli o‘quvchi uchun kirish imkoniyatini oshirdi, ammo konseptning milliy va tarixiy ranglarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Hazil-mutoyiba ko‘p hollarda umumiy “kulgi” darajasiga qisqardi.

Rus tarjimasi ancha manbaga yaqin strategiyani saqlashga harakat qilgan. Bunga sabab sovet davridagi madaniy yaqinlik va adabiy tarjima an’analari bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina realiyalar transkripsiya qilingan (“махаля“), maqollar ekvivalentlari topilgan. Natijada hazil-mutoyiba konsepti ko‘proq saqlangan, ammo bu tarjima ham zamonaviy rus o‘quvchisi uchun ba’zi anokronik elementlarni saqlab qolgan [13; 87-89-b].

4.3. Nazariy Va Amaliy Tavsiyalar

Hazil-mutoyiba konseptini saqlash uchun quyidagi strategiyalar samarali bo‘lishi mumkin:

1. Qat’iy emas, funksional tarjima. Maqsad – hazilning kommunikativ funksiyasini (kuldirish, masxara qilish) saqlash. Agar manba tilidagi so‘z o‘yini saqlanmasa, maqsad tilida shu vaziyatga mos keladigan, g‘ayrioddiy yoki kulgili ta’sir qiluvchi boshqa lingvistik vosita topilishi kerak (kompensatsiya).

2. Madaniy izohlardan foydalanish. Nashrga kiritiladigan izohlar, old so‘z yoki eslatmalar o‘quvchiga muayyan realiyaning hazil jihatini tushunishga yordam beradi. Bu matn oqimini buzishi mumkin, lekin konseptual tarkibni saqlaydi.

3. “O‘rta yo‘l” strategiyasi. Mahalliy, ammo notanish realiyalarni transkripsiya qilish, lekin ularning semantik maydonini keyingi matnda nozik tarzda ochib berish. Masalan, “qo‘ng‘irot” ni “qo‘ng‘irot (a local policeman of the time)“ deb tarjima qilish.

4. Ijodiy so‘z yaratish. Ba’zi hollarda, ayniqsa so‘z o‘yinlarida, tarjimon yangi, maqsad tilining qoidalariga mos, lekin manbadagi hazilga yaqin ta’sir qiluvchi iborani yaratishi mumkin. Bu eng yuqori darajadagi mahoratni talab qiladi.

4.4. Tadqiqotning Cheklovlari va Kelajakdagi Ishlar Uchun Imkoniyatlar

Ushbu tadqiqot faqat “Shum bola”ning ma’lum va kanonik tarjimalarini qamrab oladi. Yaqinda yaratilgan zamonaviy tarjimalar (masalan, Internetda mavjud bo‘lganlar) o‘rganilmagan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning hazilni qabul qilishini o‘lchovchi resepsion tahlil o‘tkazilmagan.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar:

“Shum bola”ning boshqa tillardagi (turk, fors, xitoy) tarjimalarini qiyosiy tahlil qilish.

Hazil-mutoyibaning audio (audiokitob) va vizual (multfilm) tarjimalaridagi taqdimoti.

So‘zma-so‘z, kommunikativ va ijodiy tarjimalarning turli guruh o‘quvchilari tomonidan qabul qilinishining eksperimental tahlil.

Xulosa. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridagi hazil-mutoyiba konseptining tarjimada saqlanishi qiyin, ko‘p qirrali muammo bo‘lib, u til, madaniyat va kognitsiya chegarasida yotadi [1; 34-b]. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ushbu konseptning saqlanish darajasi uning turiga chambarchas bog‘liq. Universal insoniy vaziyatlarga asoslangan situatsion hazillar eng yaxshi tarjima qilinadi, tilning o‘ziga xosligi va chuqur madaniy kontekstga tayangan so‘z o‘yinlari va realiyalar esa ko‘pincha yo‘qoladi yoki tubdan o‘zgartiriladi.

Ingliz va rus tarjimalarining tahlili ikkala til ham turli strategiyalarni qo‘llaganligini ko‘rsatadi: ingliz tarjimasi manba matnni keng auditoriya uchun moslashtirishga (lokalizatsiya), rus tarjimasi esa manbaga yaqinroq qolishga intilgan. Ikkinchi yondashuv hazil-mutoyiba konseptining ko‘proq jihatlarini saqlab qolishga imkon bergan bo‘lsa-da, u ham o‘ziga xos anokronik cheklovlarga ega.

Hazil-mutoyibaning samarali tarjimasi so‘zma-so‘z emas, balki funksional ekvivalentlikni, madaniy kodlarni diqqat bilan “o‘tkazish”ni va ba’zan ijodiy kompensatsiyani talab qiladi. Tarjimon nafaqat til, balki ikki madaniyatdagi kulgining psixologiyasi va mexanizmlarini chuqur bilishi kerak.

“Shum bola” kabi milliy kanonning jahon adabiyotiga kirishi uning yorqin hazil-mutoyiba qatlamlarini saqlagan holda amalga oshishi zarur. Bu nafaqat asarning badiiy qimmatini saqlaydi, balki o‘zbek madaniyatining dunyoviy va hazil tuyg‘usi haqida to‘g‘ri tasavvur beradi. Ushbu tadqiqotning natijalari nafaqat G‘afur G‘ulom asarlarining kelajakdagi tarjimalari, balki o‘zbek adabiyotidagi boshqa hazil va satira asarlarining tarjimasi uchun ham amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin. Tillararo va madaniyatlararo uzatishda hazil – bu nafaqat sinov, balki dialogni yanada samarali qilish uchun noyob imkoniyatdir.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. G‘afur G‘ulom. Shum bola. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010 (asl matn).
2. Gulom, Gafur. The Mischievous Boy. Translated by Mikhail B. G. dae. Tashkent: Foreign Languages Publishing House, 1960.
3. Gulyam, Gafur. Ozornoy mal’chishka. Perevod T. Sultanovoy i dr. Moskva: Detskaya literatura, 1957.
4. Nida, Eugene A., and Charles R. Taber. The Theory and Practice of Translation. Leiden: E.J. Brill, 1969.
5. Venuti, Lawrence. The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge, 1995.
6. Newmark, Peter. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.
7. Attardo, Salvatore. Linguistic Theories of Humor. Berlin: Mouton de Gruyter, 1994.
8. Raskin, Victor. Semantic Mechanisms of Humor. Dordrecht: D. Reidel, 1985.
9. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992.
10. Kvey, M. B. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Akademnashr, 2018.
11. Karimov, N. O‘zbek tilida hazil va mutoyiba: lingvokulturologik tahli. Toshkent: Fan, 2012.
12. Lotman, Yu. M. Semiosfera. Sankt-Peterburg: Iskusstvo-SPB, 2000.
13. Tursunov, J., va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF NATIVE CHINESE MILITARY TERMS

Imomiddinova Nargiza
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
E-mail: nadajiya999@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-8729-6336

Abstract. It is known that the study of terms remains one of the most relevant areas of modern linguistic researches conducted by Chinese and Uzbek scientists. In this article, the formation and development of terms, particularly those related to military art, has been studied. The emergence and development of military thinking in China was studied on the basis of valuable information provided in "The seven military classics of Ancient China", written by Ralph D. Sawyer, a well-known U.S. orientalist and military historian. The original Chinese military terms were lexically and genetically analyzed in the texts taken from the wenyan version of Sun-zi's "Art of war", included in this collection. The original and modern military terms have been compared, the syllable structure and semantic differences between them have been analyzed. I.D. Klenin's "Chinese-Russian military and technical dictionary" has been widely used during the study.

Keywords: "The seven military classics", military conception, military tactics and strategy, venyanisms, complex terms, simple terms, wenyan, baihua, monosyllabic, polisyllabic, esteem words.

ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Imomiddinova Nargiza
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ma'lumki, terminlar tadqiqi Xitoy va O'zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan zamonaviy tilshunoslik izlanishlari ichida dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada terminlar, xususan, harbiy san'atga oid terminlarning shakllanishi va rivojlanishi o'rganib chiqildi. AQShning mashhur sharqshunos va harbiy tarixshunos olimi Ralf D. Soyer tomonidan yozilgan "U-szin Qadimgi Xitoy yetti muqaddas harbiy to'plami" («武经七书») asarida keltirilgan qimmatli ma'lumotlar asosida Xitoyda harbiy tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiyoti tadqiq qilindi. Bu to'plamga kiruvchi Sun-szi "Urush san'ati" asarining venyanda bitilgan asl nusxasidan olingan matnlarda asl xitoy harbiy terminlari leksik-genetik jihatdan tahlil qilindi. Asl harbiy terminlar va zamonaviy harbiy terminlar qiyoslanib, ular o'rtasidagi bo'g'in strukturasi hamda semantik tafovutlar tahlil qilindi. Bunda I.D. Kleninning "Kitaysko-russkiy voenniy i texnicheskiy slovar" lug'atidan keng foydalanildi.

Kalit so'zlar: "Yetti muqaddas harbiy to'plam", harbiy tafakkur, harbiy taktika va strategiya, venyanizmlar, murakkab terminlar, sodda terminlar, venyan, bayxua, monosillab, polisillab, ehtirom so'zlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N23

Kirish. Xitoy tili bir necha ming yillik tarixga ega, yuqori darajada taraqqiy etgan qadimgi madaniyatni o'zida mujassamlashtirgan murakkab tillardan biridir. Bu tilda qadim zamonlardan boshlab, termin deb atalishi mumkin bo'lgan maxsus ma'noga ega so'zlar mavjud edi. Ular sirasiga turli diniy-axloqiy, falsafiy (daosizm, konfutsiylik) tushuncha va kategoriyalarni anglatuvchi so'zlar kirgan. Masalan: 道 dào – "haqiqiy yo'l", "ta'limot"; 仁 rén –

“insoniylik”; 德 dé – “ezgulik”; 法 fǎ – “qonun”, “huquq”; 儒家 rújiā- “konfutsiyshunoslar”; 法家 fǎ jiā- “legistlar”.

Xitoyliklar ilmiy mazmundagi maxsus terminlar ishlab chiqdilar. Ularga 云 yún – “qofiya”; 词 cí – “nazmiy ijod turi”; 字 zì- “so‘z, iyeroglif”; 实字 shí zì – “to‘liq so‘zlar”; 虚字 xūzì – “bo‘sh so‘zlar” va h.k.lar misol bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan so‘zlarning ba’zilari faqat tarixiy ma’no kasb etsa, qolganlari bugungi kunga qadar o‘z terminologik ma’nosini saqlab qolgan, boshqa bir qismi semik jihatdan qayta ko‘rib chiqilib, yangi ma’noga ega terminlarga aylangan. Masalan, 词 (cí) grammatika terminologiyasida “so‘z” ma’nosini kasb etadi. Bu kabi terminlar aynan xitoy tili negizida shakllangan. Ko‘pgina terminlar venyanizmlar (文言词语 wényán cíyǔ), ba’zilari esa maishiy-so‘zlashuv tili va dialektlar asosida yasalgan. Bunday terminlar xitoy tilining butun tarixi mobaynida shakllangan va shakllanishda davom etmoqda. Mazkur holat termin yasalishining ichki manbasi hisoblanadi [1].

Maqsad va vazifa. Asosiy ko‘zlangan maqsad **–** hozirgi xitoy tili harbiy terminlarining genetik va tarixiy-etimologik tavsifini berish, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

— xitoy tilidagi harbiy terminlarining kelib chiqishini Sun szining “Urush san’ati” asarida keltirilgan asl xitoycha harbiy terminlarni tahlili orqali o‘rganish;

— xitoy tili harbiy terminologiyasi asosan sinxron, o‘rni bilan diaxron aspektda ochib berilishi natijasida terminlarning tadrijiy voqelanish va rivojlanish asoslari, ularning miloddan avvalgi VI-V asrlardan hozirgi kunga qadar qo‘llanishda bo‘lgan faol qatlamlarini aniqlash.

Usullar. Tadqiqot usullari sifatida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, etimologik va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. Harbiy terminlarning shakllanishi qadimgi Xitoy qurolli kuchlarining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, mamlakat muntazam armiyasi taxminan er.av. 2200 yilda vujudga kelgan. Ammo uning gullab-yashnagan davri Tang sulolasi davriga to‘g‘ri keladi.

Ehtimol, Xitoyda harbiy tafakkur ibtidosi bundan 4 yoki 5 ming yil muqaddam qabilalar o‘rtasida sodir bo‘lgan to‘qnashuvlardan boshlangan. An’analarga ko‘ra, bu janglarda afsonaviy qahramonlar va donishmand imperatorlar qatnashgan. Jang harakatlarini olib borish strategiyasi qurol-yarog‘ hamda taktik san’atning mukammallashuvini talab qilar edi. Ko‘p sonli qo‘shinga ega qabila sardorlari asta-sekinlik bilan o‘z ta’sir doiralarini kengaytirib, sezilarli siyosiy kuchga aylandilar.

Dastlabki yozma manbalar va arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, tarixiy davrning boshlarida ular o‘rtasida doimiy to‘qnashuvlar sodir bo‘lgan, davlatlar tashkil topgan va hokimiyat egalari yakka hukmronlikka erishib, sulolaga asos solishga intilganlar. Jang maydonlarining kengayishi, qurol-aslaha kuch-qudrati va samaradorligining oshishi bilan birga harbiy strategiya, taktika va texnologiyalar rivojlanib borgan. Natijada, jang olib borish saboqlari va qo‘mondonlik tajribasi maqsadli ravishda o‘rganilgan. Odamlar erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga va o‘tmish xatolarini takrorlamaslikka harakat qilishgan. Shu yo‘sinda Xitoyda harbiy taktika va strategiya ilmi yuzaga kelgan.

Er.av. II asrga kelib, Xitoy ming yilliklar davom etgan to‘xtovsiz to‘qnashuvlarni boshdan kechirgach, oxir-oqibat ulkan va qudratli imperiyaga birlashdi. Shafqatsiz janglar natijasida ko‘plab mohir sarkardalar yetishib chiqdi [2]. Bu paytga qadar deyarli to‘xtovsiz davom etgan

to‘qnashuvlar ulkan talafotlar keltirgan, behisob odamlarning halok bo‘lishiga olib kelgan. Mamlakat birlashuviga qadar yaratilgan va saqlanib qolgan harbiy sohaga oid asarlar ichida yetti to‘plam bo‘lib, ularga Sun szining mashhur 孙子兵法 sūnzi bīngfǎ “Urush san’ati” asari ham kirgan. Mazkur asarlar keng miqyosda tadqiq qilinib, ajdoddan avlodga o‘tib kelgan. Ushbu jarayon to Sun sulolasi (960-1126) hukmronligi davrida tahrir qilinib, bir butun to‘plamga birlashtirilguniga qadar davom etib kelgan. Tan sulolasi davrida yaratilgan asarlar bilan birga ular “Yetti harbiy to‘plam”ni tashkil etadi. Bu to‘plam harbiy tafakkur alifbosi hisoblanib, muayyan shaxsni harbiy lavozimga tayinlashdan oldingi imperator imtihonlari ushbu asarlar asosida qabul qilingan.

Sun sulolasi davridan boshlab, qadimgi Xitoy **武**经七书 wǔ jīng qī shū “Yetti muqaddas harbiy to‘plam”iga quyidagi kitoblar kirgan:

- 孙子兵法 sūnzi bīngfǎ – Sun szi “Urush san’ati”;
- **吴子** wúzǐ – “U dzi”;
- **司**马法 sīmǎfǎ – “Sima usullari”;
- **唐太宗李**卫公问对 táng tàizōng lǐ wèigōng wèndu – “Tan Tayszun va Li Veygun o‘rtasidagi savol-javob”;
- **尉**缭子 wèi liáozi – “Vey Lyaoszi”;
- **黄石公三略**huáng shígōng sān lǜe – “Xuan Shigunning uch strategiyasi”;
- **六**韬liùtāo – “Taygunning olti maxfiy ta’limoti”.

“Olti maxfiy ta’limot” muallifi Taygun Sun szidan bir necha asr ilgari yashaganligiga qaramay, “Urush san’ati” asari doimo Xitoy harbiy tafakkurining eng ko‘hna va buyuk yutug‘i sifatida tan olib kelingan.

E’tirof etish lozimki, xitoy tili harbiy terminlarining ulkan qismi Sun szining qayd etilgan asarida aks etgan. Asar er.av. VI-V asrlarda yaratilgan bo‘lib, sarkarda va davlat rahbarlari uchun mo‘ljallangan strategiya, taktika va boshqaruv nazariyasi haqidagi nodir falsafiy asar hisoblanadi. Mazkur kitob harbiy strategiya haqidagi muhim qo‘llanma bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi har bir parcha allaqachon hikmatli so‘z, ya’ni aforizm sifatida qabul qilingan.

«孙子兵法» sūnzi bīngfǎ asarining boshqacha nomlanishi «孙子» sūnzi («Sun szi»), «**吴**孙子兵法» wú sūnzi bīngfǎ («U Sun szi binfa»), «孙武兵法» sūnwǔ bīngfǎ («Sun U binfa») bo‘lib, harbiy san’at to‘g‘risida qadimgi Xitoyda yaratilgan eng mashhur shuningdek, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan eng ko‘hna manba hisoblanadi. Bu kitob eramizning VIII asrida Yaponiyada, XVIII asrda Yevropada shuhrat topdi, yapon, fransuz, ingliz, rus, nemis, italyan, arab va boshqa tillarga tarjima qilindi [3].

1-jadval

孙子兵法 (“Urush san’ati”)ning tuzilishi

Bob t/r	Bob nomi	O‘qilishi	Tarjimasi
1-bob	**始**计	shǐjì	Vaziyatni baholash va reja tuzish
2-bob	**作**战	zuòzhàn	Urush olib borish
3-bob	谋攻	móugōng	Strategik hujum
4-bob	军形	jūnxíng	Taktik tartiblar
5-bob	**兵**势	bīngshì	Harbiy kuchlar
6-bob	**虚**实	xūshí	Kuchli va zaif jihatlar
7-bob	军争	jūnzhēng	Manyovrlar
8-bob	**九**变	jiǔbiàn	To‘qqiz tur
9-bob	**行**军	xíngjūn	Safardagi qo‘shinlar
10-bob	**地形**	dìxíng	Geografik joylashuv
11-bob	**九地**	jiǔdì	To‘qqiz qo‘shin o‘rnashgan joy
12-bob	**火攻**	huǒgōng	Olovli hujum
13-bob	**用**间	yòngjiān	Razvedkadan foydalanish

Yuqorida keltirilgan boblar nomida quyidagi harbiy terminlar o‘z aksini topgan:

1) **作战 zuòzhàn** – urush olib borish, jangovar harakatlar olib borish; termin-birikma;
2) **谋攻 móugōng** – strategik hujum; termin-birikma;
3) **军形 jūnxíng** – taktik tartiblar; termin-birikma;
4) **兵势 bīngshì** – harbiy kuchlar; termin-birikma;
5) **军争 jūnzhēng** – manyovrlar; termin-birikma;
6) **行军 xíngjūn** – safardagi qo‘shinlar; termin-birikma;
7) **火攻 huǒgōng** – olovli hujum; termin-birikma;
8) **用间 yòngjiān** – razvedkadan foydalanish; termin-birikma.

Ushbu termin-birikmalar tarkibini o‘rganadigan bo‘lsak, ular qo‘yidagi tub terminlardan tashkil topganini kuzatishimiz mumkin:

战 – urush, jang; **攻** – hujum, hamla; 军 – qo‘shin; 间 – razvedka, ayg‘oqchilik.

Quyida “Urush san’ati”ning venyanda yozilgan asl matni, uning bayxuadagi ekvivalenti va o‘zbek tilidagi muqobilini ko‘rib chiqamiz:

1-misol: **夫兵形象水，水之形，避高而**趋下，兵之形，避实而击虚。水因地而制流，兵因敌而制胜。故兵无常势，水无常形。能因敌变化而取胜者，谓之神。故五行无常胜，四时无常位，日有短长，月有死生。

Pinin: Fū **bīng** xíngxiàng shuǐ, shuǐ zhī xíng, bì gāo ér qū xià, bīng zhī xíng, bì shí ér jī xū. Shuǐ yīn dì ér zhì liú, bīng yīn dí ér zhìshèng. Gù bīng wúcháng shì, shuǐ wúcháng xíng. Néng yīn dí biànhuà ér qǔshèng zhě, wèi zhī shén. Gù wǔháng wúcháng shèng, sì shí wúcháng wèi, rì yǒu duǎn cháng, yuè yǒu sǐshēng.

Bayxua: “**所以**说，用兵打仗没有固定的形式，水流也没有固定不变的形态。能够根据敌情的变化而采取相应战术取得胜利，就可以说是“**用兵如神**”。**所以**说无行（金、木、土、水、火）相生相克，没有哪一行占绝对优势；四时（春、夏、秋、冬）轮回更替，没有哪一季可以固定不动。一年之中，白天有时长，有时短；一月之内，月亮也是有盈有亏、有明有晦。”

Tarjimasi: «Shu sababli **qo‘shinning** o‘zgarmas qudrati, suvning esa o‘zgarmas shakli mavjud emas. Dushmanidan kelib chiqqan holda o‘zgarishlarga egalik qilib, g‘alaba qozona oladigan inson eng oliy toifali (ilohiy) hisoblanadi. Shuning uchun ham tabiatning besh unsuri (ma’dan, daraxt, tuproq, suv, olov) ichida doimo g‘alaba qozonuvchi, to‘rt fasl orasida muttasil davom etuvchisi yo‘q. Quyoshda qisqalik va davomiylik, oyda esa hayot va o‘lim bor».

Quyida “Vaziyatni baholash va reja tuzish” (孙子**·始**计篇) bobidan olingan yana bir misolga diqqat qilamiz:

2-misol: **兵者**，诡道也。故能而示之不能，用而示之不用，近而示之远，远而示之近。利而诱之，乱而取之，实而备之，强而避之，怒而挠之，卑而骄之，佚而劳之，亲而离之，攻其无备，出其不意。此兵家之胜，不可先传也。

Pinin: **Bīng** zhě, guǐ dào yě. Gù néng ér shì zhī bùnéng, yòng ér shì zhī bùyòng, jìn ér shì zhī yuǎn, yuǎn ér shì zhī jìn. Lì ér yòu zhī, luàn ér qǔ zhī, shí ér bèi zhī, qiáng ér bì zhī, nù ér náo zhī, bēi ér jiāo zhī, yì ér láo zhī, qīn ér lí zhī, gōng qí wú bèi, chūqíbùyì. Cǐ bīngjiā zhī shèng, bùkě xiān chuán yě.

Bayxua: “**用兵打仗是一种**诡诈之术。**所以**，**明明能征善**战，却向敌人装作软**弱无能的**样子;**本来准**备用兵，却伪装成不准备打仗的假象；要攻打近处的目标，却给敌人造成准备攻击远处的假象；要攻打远处的目标，相反却要装作准备要在近处攻击。敌人贪心就用小利来引透他上当；敌人混乱就乘机攻取他；敌人实力雄厚就要谨慎防备他；敌人强大就暂时避开其锋芒；敌人容易激动发怒，要设法挑逗他，使其失去理智；对于小心谨慎的敌人，要千方百计让他骄纵，丧失警惕；敌人安逸就设法骚扰他，搞得他疲惫不堪；对内部团结的敌人，要设法离间他，让他分裂。在敌人没有准备时突然发起进攻；在敌人预想不到的情况下采取行动。”

Tarjimasi: «**Urush** – bu aldov yo‘li. Shuning uchun, agar sen nimadir qila olsang, raqibingga o‘zingni go‘yo hech narsa qila olmaydigandek ko‘rsat, agar biror narsadan foydalansang, go‘yo foydalanmayotgandek ko‘rsat, yaqin bo‘lsang-da, o‘zingni uzoqroq ko‘rsat, uzoq bo‘lsang-da, o‘zingni yaqinroq ko‘rsat, uni manfaat bilan o‘zingga jalb qil va zabt et; agar uning hamma narsasi yetarli bo‘lsa, (hujumga) tayyor tur; agar u kuchli bo‘lsa, unga chap ber;

uning g‘azabini qo‘zg‘atib, quyushqonidan chiqar; o‘zingni yuvosh ko‘rsatib, unda manmanlik uyg‘ot; agar u hali tetik va baquvvat bo‘lsa, uni holdan toydir; agar uning do‘stlari bo‘lsa, ularning o‘rtasiga nifoq sol; u xujumga tayyor bo‘lmagan payt unga hamla qil; u kutmagan vaqtda sen harakat qil» [4].

3-misol: **故曰：知彼知己，百战不殆；不知彼而知己，一**胜一负；不知彼不知己，每战必**败**。

Pinin: Gù yuē: Zhī bǐ zhījǐ, bǎi**zhàn**bù**dài**; bùzhī bǐ ér zhījǐ, yī shèng yī fù; bùzhī bǐ bù zhījǐ, měi zhàn bì **bài**.

Bayxua: “**所以**说：既了解敌方情况，又了解己方情况，便能百战百胜，不会有失败；不了解敌方情况，只了解己方情况，胜败可能平分；既不了解敌方情况，又不了解己方情况，那么每次战斗都注定会失败。”

Tarjimasi: «Shuning uchun aytiladi: agar uni bilsang va o‘zingni bilsang, yuz marotaba **hujum qilsang** ham, **xatarga** duch kelmaysan; agar o‘zingni bilsang-u uni bilmasang, bir safar g‘alaba qozonib, keyingi safar mag‘lub bo‘lasan; agar o‘zingni ham, uni ham bilmasang, har bir jangda **mag‘lubiyatga uchraysan**» [5].

Umuman, **兵** bīng terminini qadimgi matnlarda ko‘plab uchratish mumkin. Istiloh 1-misolda “qo‘shin”, 2-misolda esa “urush” ma’nolarida qo‘llangan. Ushbu ko‘p ma’noli termin semalarini ko‘rib chiqaylik:

Ot vazifasini bajarganda

1) askar, jangchi, oddiy askar;
2) qo‘shin, armiya, harbiy kuch, harbiyga oid;
3) qo‘shin turi;
4) qurol-yarog‘;
5) harbiy ish, urush;
6) piyon (shaxmatda).

Fe’l vazifasini bajarganda

1) qurol bilan hujum qilmoq, o‘ldirmoq;
2) zarar yetkazmoq;
3) jang maydonida mag‘lub bo‘lmoq.

3-misolda quyidagi terminlar ishlatilgan:

1) 战 zhàn – “urush”. Qadimgi xitoy tili (**文言文**) leksikasining asosiy qismini monosillablar tashkil qilgan bo‘lsa, hozirgi xitoy tilida esa aksincha, polisillablar lug‘at boylikning poydevorini tashkil etadi (hozirgi xitoy tilidagi “战争” zhànzhēng terminiga mos keladi);

2) 败 bài – “(jangda yoki urushda) mag‘lubiyatga uchramoq” (hozirgi xitoy tilidagi “输” shū fe’liga mos keladi);

3) **殆** dài – “xavf-xatar; xavfli; jar yoqasida turgan” (hozirgi xitoy tilidagi **危**险wēixiǎn sifatiga to‘g‘ri keladi).

Qadimgi Xitoyning “Yetti muqaddas harbiy to‘plami”, xususan, “Urush san’ati”dan tashqari yana bir nechta asarlarda sof xitoycha harbiy istilohlarning qo‘llanganiga duch kelish mumkin.

Masalan, **史**记 Shǐjì (“Tarixnoma”) asari Xan sulolasi tarixshunosi Sima Chyan (**司**马迁 Sīmǎ Qiān taxminan m.a. 145 (135)-90) qalamiga mansub. M.a. 109-91 yillar davomida yozilgan bu kitobda yarimafsonaviy Sariq imperator **黄帝** huángdì (m.a.2600)dan to Xan sulolasi davrigacha bo‘lgan tarix aks etgan bo‘lib, 5 bob, 130 bo‘limdan iborat:

1.**本**纪 běnjì – hukmdorlar tarjimai holi (12 bo‘lim).

2.**世家** shìjiā – oqsuyak va amaldorlar tarjimai holi (30 bo‘lim).

3.**列**传 lièzhuàn – buyuk shaxslar tarjimai holi (Lao szi, Mo szi, Syun szi) (70 bo‘lim).

4. 书 shū – marosimlar, musiqa, iqtisod kabi dolzarb mavzular (8 bo‘lim).

5.**表** biǎo – xronologik jadvallar (10 bo‘lim).

Ma’lumki, xitoy tilida bir so‘z ko‘pincha bir qancha ma’nolarni ifodalashi mumkin. Ba’zida polisemiyaga uchragan so‘zlarning o‘qilishi ham turlicha bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bu holat qadimgi xitoy tilida nisbatan faol bo‘lgan. Masalan, “骑” iyeroglifini qadimgi xitoy tilida quyidagi ma’nolarni anglatgan:

1) qí – “minmoq”. Masalan, **史**记 (Tarixnoma)da hikoya qilinishicha:

“**吴**骑此马五岁，所当**无敌**”

Wú qí cǐ mǎ wǔ suì, suǒ dāng **wú dí**

Mana besh yildirki, barcha janglarda bu ot mening ajralmas do‘stim bo‘lib kelgan, aynan u tufayli shu paytgacha **yengilish nimaligini bilmayman**;

Bu gapda **无**敌 birikmasi “yengilmas”, “tengi yo‘q” tarzida tarjima qilinib, **无** – inkor yuklamasi, 敌 – “yengilmoq, mag‘lubiyatga uchramoq”.

2) jì – “otliq askar”. Misol uchun, «Tarixnoma»ning 项羽本纪 (Syangyuy tarjimai holi) bo‘limida yozilishicha:

“**乃令骑下**马步行”

Nǎi lìng **jì** xià mǎ bù xíng.

Buyruq beraman, **otliq askarlar** o‘z otlaridan tushib, piyoda harakatlansin.

Birinchi misolda “骑” iyeroglifining asl ma’nosi (**本**义) kundalik hayotda foydalaniladigan so‘z, ko‘chma ma’nosi (**引申**义) esa harbiy termin ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi xitoy tilida bu leksemaning faqat birinchi ko‘rinishda ishlatilishi kuzatiladi [6].

«Tarixnoma»ning 陈涉世家 (Oqsuyak Shiszya) bo‘limida yozilishicha:

“**楚兵数千人**为聚者，不可胜数”

Shǔ bīng shù qiān rén wéi jù zhě, bù kě shèng shǔ.

Qo‘zg‘olon ko‘targan bir necha ming **Chu askarlari** to‘da hosil qilishdi, bu holatda ularni hisoblab chiqish juda ham qiyin edi.

Bu gapda birinchisi “数” shù oʻqilib, “noaniq miqdor” maʼnosini; keyingisi shǔ oʻqilib, “sanamoq, hisoblamoq” maʼnosini bildirgan. 楚兵 Shǔ bīng esa “Chu mamlakati askarlari” tarzida tarjima qilinib, koʻplikni ifodalagan.

«三国志» Sānguózhì – Gʻarbiy Jin (西晋265-316) sulolasi tarixshunosi Chenshou (陈寿 233-297) tomonidan yozilgan, 65 boʻlimdan iborat boʻlib, Uchpodshohlik – 魏Vey, 蜀Shu va 吴 U mamlakatlari tarixiga bagʻishlangan. «Uchpodshohlik» kitobining 吴书(U davlati hukmdorlari) boʻlimida yozilishicha:

“数犯边境”

Shuò **fàn biān jìng**.

U davlatining **chegarasiga** koʻp marotaba **noqonuniy bostirib kirishgan**.

Ushbu misolda “数” shuò tarzida oʻqilib, “koʻp marotaba” maʼnosini bildirgan. “犯边境” birikmasi esa “biror mamlakat chegarasini noqonuniy yoʻl bilan bosib oʻtmoq” maʼnosida kelgan. Demak “犯” fàn feʼli keng maʼnoda “noqonuniy bostirib kirmoq” yoki “noqonuniy bosib olmoq” maʼnolarini anglatgan. Hozirgi xitoy tilida “犯” salbiy konnotativ maʼnoli feʼl hisoblanib, asosan “yoʻl qoʻymoq” (hatoga yoʻl qoʻymoq); “buzmoq” (qonunni buzmoq); “duch kelmoq” (xavf-xatarga duch kelmoq) kabi maʼnolarni bildiradi. 边境 biānjìng oti esa bugungi xitoy tilida ham “chegara” maʼnosini anglatishda davom etmoqda [7].

Qadimgi xitoy tilida oʻzgalarni atash uchun moʻljallangan soʻzlar guruhi –敬称jìngchēng yoki 尊称zūnchēng ehtirom soʻzlari deb atalgan. Inson oʻz-oʻzini nomlash uchun qoʻllaydigan soʻzlar guruhi esa – 谦称qiānchēng kamtarlik soʻzlari deyiladi. Bu ikki guruh soʻzlar moziyda faol ishlatilgan, keyinchalik ularning qoʻllanishi ancha susaygan.

Ehtirom soʻzlari xitoy tilida敬称jìngchēng (baʼzida敬语jìngyǔ) deb yuritiladi. Bunday soʻzlar oʻzgalarga nisbatan qoʻllaniladi. Qadimgi xitoy tilida 2-shaxs kishilik olmoshi “汝” rǔ, “尔” ěr, 3-shaxs kishilik olmoshi “彼” bǐ,“其” qí, “之” zhīlar bilan ifodalangan.

Biroq hurmat, iltifotni ifodalashda koʻpincha ehtirom soʻzlaridan foydalanilgan. Bunda hurmat quyidagicha voqealangan:

1) <u>hukmdorga:</u> “王” wáng – qirol;
“君” jūn – hukmdor;
“陛下” bìxià – janobi oliylari.
2) <u>yuqori lavozim egalariga</u>:
“**将军” jiāngjūn – qoʻmondon**;
“大夫” dàifu – vazir va boshqalar;
“卿” qīng – amaldor;
“大夫” dàfu – ziyoli, ulamolar.
3) <u>yoshi katta va obroʻ-eʼtiborli shaxslarga</u>:
“夫子” fūzi – er;
“先生” xiānshēng – janob.

4) oddiy odamlarga: “子” zǐ.

Yuqori lavozimdagi shaxslarga murojaatda qo‘llaniladigan “将军” oti qadimda “qo‘mondon” ma’nosini bildirgan bo‘lsa, hozirgi xitoy tilida harbiy unvonni bildiruvchi general terminiga teng.

Biror shaxsni atashning yana bir usuli bu – hurmatni ifodalovchi ravishlardan foydalanish, ya’ni fe’ldan oldin hurmat-ehtirom bildiruvchi sifatlashlar (epitet) qo‘llanilgan. Epitetdan ko‘p uchraydiganlari quyidagilar: “敬” jìng – sharafga ega bo‘lmoq; “谨” jǐn – ehtirom ila. Masalan, «Tarixnoma»ning 陈涉世家 (Oqsuyak Shiszya) bo‘limidan misol:

“敬受**命**”.

Jìng shòu **mìng**.

Buyrug‘ingizni qabul qilish baxtiga muyassarman.

Gapdagi “命” so‘zi ma’no jihatidan o‘zbek tilidagi “buyruq” (“jangovar buyruq”) terminiga mos keladi.

«Tarixnoma»ning 项羽本纪 (Syangyuy tarjimai holi) bo‘limida quyidagi misolni uchratish mumkin:

“**谨诺**!”

Jǐnnuò！

Labbay!

Ushbu jumla ko‘pincha harbiy buyruq (komanda) ma’nosida qo‘llanilganligini alohida e’tirof etish joiz.

Qadimgi xitoy tilida ot fe’l o‘rnida kelganida, o‘zidan keyin to‘ldiruvchini olgan. «Tarixnoma»ning 项羽本纪 (Syangyuy tarjimai holi) bo‘limida quyidagi gap qayd etilgan:

“**先破秦入咸阳者王之**”.

Xiān **pò** qín rù xián yáng zhě wáng zhī.

Avval Chin qo‘shiniga **hujum qilib**, Syanyangni bu yerga olib kelamiz, keyin esa uni taxtga o‘tqizamiz.

Ushbu gapda “王” (wáng – qirol) istilohi ot so‘z turkumiga xos, bu gapda “之” to‘ldiruvchisidan oldin kelib, “qirol qilmoq, taxtga o‘tqizmoq” ma’nosini beradi. “王之” wángzhī – “uni taxtga o‘tqizish” deb tarjima qilinadi. “破” pò fe’li “egallamoq, ishg‘ol qilmoq” ma’nosida kelgan. Hozir u leksema bu ma’noni yo‘qotib, ko‘pincha “sindirmoq” (idishni sindirmoq), “yirtmoq” (kiyimni yirtmoq), “lat yemoq” (qo‘li lat yedi) ma’nolarida ishlatiladi.

左传•«Zojuan» asarining 囊公十九年 (Nang Gong hukmronligining 19-yili) bo‘limida yozilishicha:

“**大毋侵小**”.

Dà wú **qīn** xiǎo.

Ulkan mamlakat kichik mamlakatni **bosib olishi** kerak emas.

“大” (ulkan), “小” (kichik): asli sifatlar, ammo bu gapda “ulkan mamlakat”, “kichik mamlakat” ma’nosida kelgan, “侵” “bosib olmoq” fe’lining egasi va to‘ldiruvchisi bo‘lib kelgan.

Keyingi jumla Sao saoning 置屯田令 (Chjitun tyanling) asaridan olingan. sao sao (曹操 Cáocāo 155—220) – Uchpodshohlik davri davlat arbobi, sarkardasi, shoiri, harbiy mahorat

haqidagi asarlar muallifi. Xan davri (m.a.206-milodiy 220) hukmdori va bu sulolani tugatgan shaxs sifatida tarixda qolgan .

“**夫定国之**术, **在于强兵足食**”.

Fū dìng guó zhī shù, zài yú **qiáng bīng** zú shí.

Mamlakatda tinchlik-barqarorlikni o‘rnatish uchun **qurolli kuchlarni yanada kuchaytirish,** xalqni esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘la ta’minlash lozim.

“强” (qudratli, kuchli), “**足**” (yetarli) sifatlari bu gapda “**使**。。。强盛” shǐ。。。qiángshèng – “kuchaytirmoq”, “**使**。。。**充足**” shǐ。。。chōngzú – “yetarli darajada ta’minlamoq” ma’nolarini bildirgan. Demak, sifat ma’nosi fe’lga o‘zgargan. “强兵” birikmasi “qurolli kuchlar yoki qo‘shinni kuchaytirmoq” ma’nosini bildirib, birikma-terminga misol bo‘la oladi.

Sifat gapda fe’l vazifasini bajarib, o‘zidan keyin to‘ldiruvchini olganda, ega tomonidan to‘ldiruvchining sifat ifodalagan xususiyatga egaligi subyektiv ravishda e’tirof etiladi.

Venyanda kasr, chama, noaniq sonlar ifodalanishi hozirgi xitoy tilidan tubdan farq qilgan. Masalan, kasr sonlarni hosil qilish uchun quyidagi formuladan foydalanilgan:

Maxraj+Surat=Kasr son

«Tarixnoma»ning 陈涉世家 (Oqsuyak Shiszya) bo‘limida ta’kidlanishicha:

“**而戍**死者固十六七”.

Ér **shù** sǐ zhě gù shí liù qī.

Chegara posbonlaridan halok bo‘lganlar soni 10 dan 6, 7ni (60-70 %ni) tashkil qiladi. “**戍**” jumlada “chegarani qo‘riqlovchi posbonlar” ma’nosini anglatgan. Ammo u ko‘proq gapda fe’l vazifasini bajarib, “mamlakat chegarasini himoya qilmoq”, “mamlakat chegarasini qo‘riqlamoq” ma’nolarida qo‘llanadi.

Keyingi misolda qurol-yarog‘ni anglatuvchi asl harbiy terminni ko‘rish mumkin. «Tarixnoma»ning **迎候本**纪 (Inxou tarjimai holi) bo‘limida yozilishicha:

“**若**虽长大, **好**带**刀剑**, **中情怯耳**”.

Ruò suī zhǎng dà, hǎo dài **dāojiàn**, zhōng qíng qiè ěr.

Garchand sen bo‘ying baland, qaddi-qomating kelishgan yigit bo‘lsang-da, o‘zing bilan doim **qurol** olib yurasan, aslida sen qo‘rqoqsan.

若 olmoshi gapda ega vazifasini bajarib, “sen” tarzida tarjima qilinadi. “**刀**剑” qo‘shma termini bu gapda “qurol-yarog‘”ni bildirgan. Shu o‘rinda qo‘shma terminning **刀** – “pichoq” hamda 剑 – “qilich” so‘zlaridan tashkil topganini ta’kidlash lozim.

«Tarixnoma»ning 陈涉世家 (Oqsuyak Shiszya) bo‘limidan yana bir misol keltiramiz:

“项燕为楚**将**，**数有功**，爱**士卒**，**楚人怜之。或以**为死，或以为亡”.

Xiàngyàn wèi chǔ **jiāng**, shuò yǒu **gōng**, ài **shì** zú, chǔ rén lián zhī. Huò yǐ wéi sǐ, huò yǐ wéi wáng.

Syangyan Chu davlatining buyuk **sarkardasi** bo‘lib, ko‘p marotaba **qahramonlik** ko‘rsatgan, **askarlarni** himoya qilgan, Chu xalqi uni qadrlaydi. Ba’zilar u uchun halok bo‘lgan, ba’zilar esa qochib ketishgan.

So‘nggi jumlada uchta asl xitoycha harbiy termin qo‘llangan:

1) “将” jiāng – sarkarda, qo‘mondon;
2) “功” gōng – jasorat, shon-sharaf, qahramonlik;
3) “士” shì – askar, jangchi.

Xulosa. Qadimgi Xitoyda harbiy tafakkur 4-5 ming yil avval shakllangan bo‘lib, Tan sulolasi davri uning gullab-yashnagan davri hisoblanadi. “Yetti muqaddas harbiy to‘plam” (武经七书) sirasiga kiruvchi Sun szining “Urush san’ati” asarida bir qator sof xitoycha harbiy terminlar aks etgan.

Yetti muqaddas harbiy to‘plam” harbiy tafakkur alifbosi hisoblanib, biror shaxsning harbiy lavozimga tayinlanishdan oldin imperator imtihonlari aynan shu asarlar asosida qabul qilinganligi uning asl qiymatini belgilab beradi.

Qadimgi Xitoyning besh mashhur asarlaridan jami 20 ta tub xitoycha harbiy terminlar tahlilga tortilgan bo‘lib, ularning 14 tasi ot so‘z turkumiga oidligi, ot so‘z turkumiga xos terminlarning 12 tasi sodda (兵， 战， 攻, 军, 间, 殆，骑， 命， 戍， 将， 功， 士), bittasi disillab （将军）, bittasi esa qo‘shma termin （刀剑）ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, fe’l so‘z turkumiga kiruvchi 3 ta （败， 破， 侵）, 2 ta termin-birikma （强兵, 犯边境）, 1 ta termin-sifat （无敌）ning ishlatilgani aniqlandi.

E’tiborli tomoni shundaki, qo‘llangan asl harbiy terminlar orasida ularning ma’nodoshlari ham ko‘zga tashlanadi. Xitoy tili jamiyatning ko‘p ming yillik tadrijiy taraqqiyotiga monand rivojlanib, takomillashib bordi. Bu taraqqiyot Xitoyning ko‘plab chet mamlakatlari bilan o‘rnatgan ijtimoiy-siyosiy, savdo-sotiq, madaniy-gumanitar aloqalari natijasida xitoy tili lug‘at tarkibidan o‘rin olgan o‘zlashmalarda o‘z aksini topadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Иванов В.В. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: Наука, 1973.
2. Ralph D Sawyer The seven military classics of ancient China. Boulder San Francisco Oxford: Westview Press, 1993.
3. 辞海词典. –上海:上海辞书出版社,1999.
4. 司马迁 史记全译/杨燕起主译。 - 贵阳：贵州人民出版社， 2001.
5. 古代汉语词典. .–北京:商务印书馆, 2007.
6. 康瑞琮 古代汉语语法. – 上海: 上海古籍出版社, 2008.
7. 小学教师实用语文辞典. – 北京: 北京科学技术出版社, 1989.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

LINGUOPOETIC AND LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF WORD ORDER IN LIVE COLLOQUIAL SPEECH

Sobirov Anvar Kuvandikovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Director of the Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence
E-mail: anvarsobirov@1288gmail.com

Abstract. This article analyzes the linguistic, linguopragmatic, and linguopoetic features of word order in live colloquial speech. Although word order in Uzbek is traditionally described as relatively free, the study demonstrates its functional significance in communicative processes. Based on dialogic speech data, the positions of the subject, predicate, object, and adverbial modifiers are examined, along with inversion, ellipsis, and parenthetical constructions. Particular attention is given to the role of word order in shaping theme–rheme relations, logical stress, and expressive-emotional effects. The findings reveal that in live speech, word order functions not only as a grammatical phenomenon but also as a pragmatic and linguopoetic device.

Keywords: word order, colloquial speech, inversion, theme–rheme structure, linguopragmatics, linguopoetics, actual division.

JONLI SO‘ZLASHUV NUTQIDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Sobirov Anvar Kuvandikovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada jonli so‘zlashuv nutqida so‘z tartibining lingvistik, lingvopragmatik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilida so‘z tartibi nisbatan erkin deb qaralishiga qaramay, uning kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlari keng ekani asoslab beriladi. Jonli dialogik nutq materiallari asosida ega, kesim, to‘ldiruvchi va holning joylashuvi, inversiya hodisasi, ellipsis va kiritma birliklarning sintaktik pozitsiyasi ko‘rib chiqiladi. So‘z tartibining tema–rema munosabatini shakllantirishdagi, mantiqiy urg‘uni belgilashdagi hamda emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijasida jonli nutqda so‘z tartibi grammatik hodisa bilan bir qatorda pragmatik va lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: so‘z tartibi, jonli nutq, so‘zlashuv uslubi, inversiya, tema–rema, lingvopragmatika, lingvopoetika, aktual bo‘linish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N24

Kirish. Til inson tafakkuri, kommunikativ faoliyati va madaniy dunyoqarashining eng muhim ifoda vositasi sifatida nafaqat axborot uzatish, balki estetik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi. Ayniqsa, jonli so‘zlashuv nutqi til tizimining eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo‘lib, unda so‘z tartibi kommunikativ maqsad, nutq vaziyati, emotsional-ekspressivlik va pragmatik niyatga ko‘ra erkin hamda funksional xarakter kasb etadi. Shu bois jonli nutqda so‘z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy sintaktik tadqiqotlarda so‘z tartibi ko‘proq grammatik me’yorlar asosida talqin etilgan bo‘lsa, kommunikativ-pragmatik yondashuv uning nutqiy vaziyat, axborot tuzilishi, tema-rema munosabatlari hamda nutq subyektining maqsad va niyatlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi[1, 47]. Jonli so‘zlashuv nutqida so‘z tartibining o‘zgarishi ko‘pincha mantiqiy urg‘u, emotsional ta’sirchanlik, baholash, presuppozitsiya, implikatura kabi pragmatik omillar bilan izohlanadi. Bu esa so‘z tartibini nafaqat sintaktik hodisa, balki nutqning lingvopoetik va lingvopragmatik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Lingvopoetik nuqtai nazardan so‘z tartibi nutqning obrazliligi, ekspressivligi va estetik ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Jonli nutqda ma’lum sintaktik modellarning buzilishi yoki inversiya hodisasi orqali fikrning ta’sirchanligi ortadi, nutq subyektining individual uslubi va munosabati namoyon bo‘ladi. Lingvopragmatik jihatdan esa so‘z tartibi kommunikativ strategiya, nutqiy ta’sir, adresatga yo‘naltirilganlik va nutqning ijtimoiy-psixologik omillari bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslik, pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida jonli so‘zlashuv nutqining funksional imkoniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Shu jihatdan so‘z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish til birliklarining nutqiy faoliyatdagi real qo‘llanish mexanizmlarini ochib berish, kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi omillarni aniqlash hamda milliy nutq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So‘z tartibi tilshunoslikda sintaktik tizimning asosiy komponentlaridan biri sifatida o‘rganiladi[2]. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘z tartibi faqat grammatik munosabatlarni ifodalovchi vosita emas, balki kommunikativ-pragmatik va lingvopoetik ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, jonli so‘zlashuv nutqida so‘z tartibining funksional imkoniyatlari yanada kengayadi.

O‘zbek tilida so‘z tartibi ko‘pincha erkin deb tavsiflanadi. Biroq bu erkinlik mutlaq emas. Gap bo‘laklarining joylashuvi ko‘p hollarda kommunikativ vazifa, axborotning aktual bo‘linishi hamda emotsional-ekspressiv ehtiyoj bilan belgilanadi.

So‘zlashuv nutqi va uning sintaktik tabiati. So‘zlashuv nutqi – adabiy tilning og‘zaki shakli bo‘lib, bevosita muloqot jarayonida yuzaga keladi. Uning asosiy belgilariga spontanlik, situativlik, dialogiklik, nolisoniy vositalar bilan uyg‘unlik kiradi. Jonli nutqda gaplar ko‘pincha qisqa, elliptik va kontekstga tayangan holda quriladi[3].

Masalan: – Kecha darsga kelmading?– Ish qildim.

Bu yerda ega tushirilgan bo‘lsa-da, muloqot ishtirokchilari uchun u aniq. Demak, so‘z tartibi va gap tuzilishi kontekst orqali tiklanadi. Shunday vaziyatlarda sintaktik to‘liqlikdan ko‘ra kommunikativ yetarlilik ustuvor bo‘ladi.

So‘z tartibi va aktual bo‘linish. O‘zbek tilida odatdagi sintaktik model:

Ega → ikkinchi darajali bo‘laklar → kesim [4]

Masalan: Men kecha Moskvadan keldim.

Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article presents a comparative study of linguistic models in English and Uzbek epic texts. The research focuses on how epics in both traditions are organized through stable linguistic patterns at lexical, morphological, syntactic, and pragmatic levels. Particular attention is paid to formulaic diction, repetition, parallelism, and symmetric constructions as mechanisms of oral composition and memorability, as well as to the role of tense–aspect forms in representing epic time. The paper also examines expressive vocabulary, evaluative epithets, and naming patterns (hero nomination) as tools for character construction and cultural coding. The findings suggest that English epics tend to employ more compact, analytically structured models (short formulaic frames, concise dialogue patterns), whereas Uzbek epics more frequently use expanded parallel structures, affixal derivation, and culturally marked formulaic blocks that intensify epic pathos and collective identity. The study argues that the observed differences reflect both typological features of the languages and distinct epic-poetic worldviews, and it proposes a set of comparative parameters for further epic discourse research.

Keywords: English and Uzbek epics, linguistic models, comparative analysis, epic text, formulaicity, parallelism, epic time, expressive lexis.

INGLIZ VA O‘ZBEK EPOSLARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI

Olimjon Jalilov Muxidinovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
E-mail: olimjonmjalilov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek eposlarida lingvistik modellarning qiyosiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot epik matnlarning og‘zaki an’ana sharoitida barqaror yaratilishi va qayta ijro etilishini ta’minlovchi leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qoliplarni aniqlashga qaratilgan. Asosiy e’tibor formulalik, takror, parallelizm va sintaktik simmetriyaning kompozitsion yaxlitlik va xotiraviy mexanizm sifatidagi vazifalariga, shuningdek zamon-aspekt shakllarining epik vaqtni modellashtirishdagi roliga qaratildi. Shu bilan birga ekspressiv leksika, baholovchi epitetlar va qahramon nominatsiyasi modellari personaj obrazini yaratish hamda madaniy kodlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. Qiyosiy natijalar ingliz eposlarida ko‘proq ixcham, analitik qurilgan qoliplar (qisqa formulali ramkalar, lakonik dialog sxemalari) ustuvor ekanini, o‘zbek eposlarida esa kengaytirilgan parallel konstruksiyalar, affiksal derivatsiya va madaniy belgilangan formulali bloklar epik pafos hamda jamoaviy identifikatsiyani kuchaytirishini ko‘rsatadi. Xulosa sifatida til tipologiyasi va epik-poetik dunyoqarash farqlari lingvistik modellar tashkilotiga bevosita ta’sir qilishi asoslanadi hamda keyingi tadqiqotlar uchun qiyosiy parametrlar tizimi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz va o‘zbek eposlari, lingvistik modellar, qiyosiy tahlil, epik matn, formulalik, parallelizm, epik vaqt, ekspressiv leksika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N27

Ingliz va o‘zbek folklorlarida lingvistik modellarning qiyosiy xususiyatlarini tavsiflashda “model” deganda folklor matnini barqaror qiladigan, ijrochi va tinglovchi uchun tanish bo‘lgan leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qoliplar tizimi tushuniladi. Bu qoliplar bir tomondan

universal (ogʻzaki an’anaga xos), ikkinchi tomondan milliy-tipologik (til qurilishi va madaniy ssenariylarga bogʻliq) xususiyatga ega. Poetik funksiya nazariyasida til birliklarining tanlanishi va oʻzaro ekvivalent qatlamlarda qurilishi matnning estetik ta’sirini kuchaytiradi, degan qarash folklor modellarining qiyosiy tahlili uchun muhim metodologik tayanch boʻladi [1]. Mening fikrimcha, folklor “model”lari aynan shu yerda namoyon boʻladi: bir xil grammatik ramka saqlanadi, ammo leksik oʻzgarishlar orqali obraz va syujet harakatlanadi; shuning uchun qiyosda birinchi navbatda qolipning barqaror qismi (struktura) va oʻzgaruvchan qismi (leksik toʻldirish) ajratib olinishi kerak.

Ingliz va oʻzbek folklorida formulalik (barqaror ifoda va tayyor sintaktik bloklar) ogʻzaki ijodning ishlab chiqarish mexanizmi sifatida ishlaydi. Ogʻzaki epos nazariyasida ijrochi tayyor bloklardan foydalanib improvizatsiya qiladi, degan konsepsiya folklor til modellarining tabiatini aniqlashga yordam beradi [5]. Mening kuzatuvimcha, ingliz an’anasida formulalar koʻpincha ixcham va analitik tuzilishda: subyekt + nutqiy fe’l (masalan, “sed xi/sed shi” turidagi replika ramkalari), sifat + ot (masalan, “bold nayt”, “nobl king”) kabi qoliplar tez-tez takrorlanadi. Oʻzbek eposida esa formula koʻpincha kengaytirilgan sintaktik blok koʻrinishida keladi: “shunda u shunday dedi”, “soʻz boshlab aytdiki”, “yer titradi—togʻ larzandi” tipidagi juft parallel gaplar barqaror qolip sifatida ishlaydi. Bu farqning sababi menimcha faqat uslubiy emas: inglizda ma’noni ixcham ramkaga joylashtirish tendensiyasi, oʻzbekda esa pafos va giperbolani keng sintaktik qatorlar orqali kuchaytirish tendensiyasi ustuvor.

Leksik-semantik modellar nuqtai nazaridan har ikki folklorda obrazni tez qurish uchun baholovchi epitetlar, metaforalar va ekspressiv leksika faol qoʻllanadi. Tipologik jihatdan farq shundaki, inglizda baholovchi sifatlar odatda qisqa va chastot: “breyv/bold/feyr/kruel” kabi birliklar personajni tez markirovka qiladi; oʻzbekda esa epitetlar koʻp komponentli va intensiv: “sherdil bahodir”, “nomard dushman”, “oltin taxtli xon” kabi birikmalar obrazni bir vaqtning oʻzida ham baholovchi, ham madaniy kodlovchi funksiya bilan ta’minlaydi. Oʻzbek eposida “sher”, “tulpor”, “qilich” kabi leksemalar neytral nom emas, balki qahramonlik ssenariysini chaqirib keladi; ingliz an’anasida esa “stid”, “svord”, “xol” kabi poetik leksema va realiylar xuddi shunday “qahramonlik dunyosi”ni faollashtiradi. Amerikalik va inglizcha folklor materiallarini ensiklopedik tarzda tizimlashtirgan manbada ham “qahramonlik”, “outlaw” (qonundan tashqari qahramon), “legendary hero” kabi toifalar doimiy leksik belgilari bilan birga kelishi qayd etiladi [9]. Bizningcha, qiyosiy nuqtai nazardan eng muhim jihat shu: inglizda epitet koʻp holda personajning individual xislatini (“bold”) belgilasa, oʻzbekda epitet koʻpincha ijtimoiy-etik bahoni (“mard/nomard”) va kollektiv idealni ham bildirib turadi.

Morfologik modellar qiyosida ingliz tilining analitik tabiati va oʻzbek tilining agglyutinativ tabiati folklor tuzilishida toʻgʻridan-toʻgʻri iz qoldiradi. Inglizda grammatik ma’no koʻpincha yordamchi fe’llar, predloglar va soʻz tartibi orqali tashkil topadi; shu sababdan folklorda “kompozit” nominatsiyalar va ixcham nominativ guruhlar (masalan, qahramonni tavsiflovchi ikkita-uchta soʻzli birikmalar) keng uchraydi. Oʻzbekda esa affiksatsiya va shaxs-zamon koʻrsatkichlari matnning “grammatik zichligi”ni oshiradi: -oʻgʻli, -bek, -boy kabi formantlar ijtimoiy maqom va nasabiy mansublikni morfologik darajadayoq kodlaydi. Mening fikrimcha, shu yerda folklor modelining muhim farqi bor: ingliz matnida maqom va mansublik koʻproq leksik (titul, murojaat) orqali berilsa, oʻzbek matnida bu ma’no koʻpincha morfologik formantning oʻzida “tayyor” holda keladi; bu esa obrazni tez va barqaror “ijtimoiy ramka”ga joylashtiradi.

Sintaktik modellar nuqtai nazaridan parallelizm, takror va simmetriya har ikki folklorda universal qonuniyat bo‘lsa-da, ularning poetik vazifasi va ko‘lami farqli. Badiiy matnda simmetriya va takror ma’noni tashkil etuvchi signallar ekanini ta’kidlovchi semiotik yondashuv folklor sintaksisini tushuntirishda samaralidir [3]. Ingliz an’anasida parallelizm ko‘pincha qisqa qatorlar, refren va zanjirli gaplar orqali ritmni barqarorlaydi: “xi vent—xi so—xi sed” turidagi ketma-ketlik syujetni tezlatadi. O‘zbek eposida esa parallelizm ko‘pincha kengaytirilgan: anafora (“chiqdi… chiqdi… chiqdi…”), juft parallel gap (“yer titradi—tog‘ larzandi”), gradatsiya (“bir urdi… ikki urdi… uchinchi urdi…”) orqali pafos va giperbola kuchayadi. Xulosamiz shuki, ingliz parallelizmi ko‘proq kompozitsion tozalik va ritmik izchillikka xizmat qilsa, o‘zbek parallelizmi ko‘proq emotsional ko‘tarinkilik va epik masshtab yaratishga xizmat qiladi; bir xil sintaktik ramka saqlanib, har qatorda semantik kuchayish berilishi o‘zbek matnlarida ayniqsa faol.

Narativ vaqt va zamon formalari ham qiyosiy model sifatida muhim: epik vaqt kalendar emas, “rivoyat masofasi”ni (uzoq o‘tmish, sahnalashtirish, baholash) boshqaruvchi grammatik qurilmadir. Nutq (diskurs) va rivoyat (hikoya) rejimlari farqi haqidagi qarash epik matnda dialog va bayonning navbatlashuvini tushuntirishga yordam beradi [2]. Ingliz folklorida asosiy bayon ko‘p holda o‘tgan zamonda ketadi, lekin dramatik nuqtalarda tarixiy hozir (historic present) yoki modal kelajak (will/shall) orqali sahnalashtirish kuchayadi; o‘zbekda esa -gan ekan, -ibdi, debdilar kabi “rivoyat-eshitilganlik” tusi voqeani “an’anaviy o‘tmish”ka ko‘chiradi va ishonch rejimiga alohida ottenk beradi. Bizningcha, bu farq epik vaqtning lingvistik modelini aniq ko‘rsatadi: inglizda sahnalashtirish ko‘proq diskursiv almashinuv va modallik bilan, o‘zbekda esa rivoyat tusini beruvchi maxsus fe’l shakllari bilan kuchliroq kodlanadi.

Dialog va pragmatika modellarida ham qiyosiy farqlar yaqqol: folklor dialogi replika ramkalari, murojaatlar, amr-savol-inkor konstruksiyalari va marosimiy nutqiy aktlar (olqish-qarg‘ish, duo, qasam) orqali quriladi. Personaj funksiyalari barqarorligi haqidagi qarashlar folklorda dialog ham tipologik rollarga xizmat qilishini ko‘rsatadi [4]. Kuzatuvimizga ko‘ra, ingliz dialogida ramkalar odatda ixcham (“sed xi/askd shi”), murojaatlar (sir, my lord) asosan leksik; o‘zbek dialogida esa hurmat shakllari, muloyimlashtiruvchi vositalar (-ing, -chi), kengaytirilgan kiritish ramkalari (“deb so‘radi”, “shunda aytdiki”) ijtimoiy iyerarxiyani grammatik darajadayoq namoyon qiladi. O‘zbek folklorshunoslik darsliklarida ham og‘zaki ijodning janr xususiyatlari va poetik vositalari tizimli bayon qilinadi, bu yerda dialog va formulalikning o‘rni alohida ta’kidlanadi [6]. Fikrimizcha, o‘zbek an’anasida dialog “marosimiy pragmatika” bilan ko‘proq uyg‘unlashgan: olqish-qarg‘ish, qasam, tilak formulalari dialogni faqat syujet quroli emas, ijtimoiy-axloqiy me’yorni mustahkamlovchi mexanizmga aylantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkin: ingliz va o‘zbek folklorlarida lingvistik modellar universal poetik qonuniyatlar (formulalik, takror, parallelizm, epitet, dialog ramkalari) asosida qurilgan, ammo milliy-tipologik tabiat ularni turlicha shakllantiradi. Inglizda analitik tuzilish ixcham sintaktik ramkalar va kompozit nominatsiyalar orqali “ritm va kompozitsion tozalik”ni kuchaytiradi; o‘zbekda agglyutinativ tuzilish va keng parallel qatorlar “pafos, giperbola, jamoaviy identifikatsiya”ni kuchaytiradi. O‘zbek dostonlari tilidagi lingvomadaniy birliklar maxsus tadqiq etilganida ham formulalik va poetik sintaksis madaniy kodlarni tashuvchi markaziy mexanizm sifatida talqin qilinadi [7], shu bilan birga lingvostatistik yondashuvlar epik matndagi takroriy qoliplarni empirik jihatdan ko‘rsatish imkonini beradi [8]. Mening taklifim shu: qiyosiy tadqiqotda “birlik”ni emas, “qolip”ni asosiy tahlil obyekti qilish kerak —

ya’ni epitetning o‘zi emas, epitetli nominativ guruh modeli; bir gap emas, parallel gaplar bloki; bir dialog replikasi emas, dialog ramkasi va nutqiy akt ssenariysi. Ana shunda ingliz va o‘zbek folklorlarining lingvistik modellari o‘rtasidagi umumiylik va milliy-spetsifiklik ilmiy asosda ochiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Якобсон Р. О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против» : сб. статей. — М. : Прогресс, 1975. — С. 193–230.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. — М. : Прогресс, 1974. — 448 с.
3. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. — М. : Искусство, 1970. — 384 с.
4. Пропп В. Я. Морфология «волшебной» сказки. Исторические корни волшебной сказки : собрание трудов. — М. : Лабиринт, 1998. — 512 с.
5. Лорд А. Б. Сказитель. — СПб. : Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2018. — 552 с.
6. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди : дарслик. — Тошкент : Ўқитувчи, 1990. — 304 б.
7. Жуманазаров У., Жуманазарова Г. Халқ достонлари тилидаги лингвомаданий бирликлар : монография. — Тошкент, 2019. — 252 б.
8. Жуманазарова Г. Ўзбек халқ достонлари матнининг лингвостатистик таҳлили. — Тошкент : Тафаккур, 2011. — 72 б.
9. Американ фолклор: энсиклопедия / муҳаррир Ж. Ҳ. Бранванд. — Ню-Йорк : Гарланд (Routledge), 1996. — 812 р.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

EPIK BATTLE COMPOSITIONS AND LANDSCAPE SKETCHES IN THE DOSTONI VARIANTS OF "MALLA MERCHANT"

Achilova Zuxra Qurbonovna
Independent Researcher, Department of Uzbek Language and Literature
Karshi State University
E-mail: achilovaf@gmail.com

Abstract. The article analyzes issues of the battle tableau (the batal genre), landscape depiction, and the sketch-like stylistics of artistic language in the variants of the epic "Malla Savdogar" performed by the bard Jora Eshmirza ogli. In the course of the study, battle and confrontation episodes within the epic's plot are examined, along with the functional role of natural landscapes and the features of concise yet vivid imagery characteristic of bardic performance. Through the battle tableau, themes of heroism, courage, and socio-ethical oppositions are articulated, while landscape sketches are shown to intensify the emotional and philosophical layers of the narrative. The article provides a scholarly and theoretical account of the place of epic representational devices within the ideological and artistic system of the epic.

Keywords: "Malla Savdogar" epic, bardic creativity, battle tableau, batal genre, landscape, sketch stylistics, epic representation, poetics of heroism, folk epic tradition.

"MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI

Achilova Zuxra Qurbonovna
Qarshi davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti, kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li tomonidan kuylangan "Malla savdogar" dostonining variantlarida jang polotnosi (batal janri), peyzaj tasviri va badiiy so'zning eskiz uslubiyati masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida doston syujetidagi jang va to'qnashuv epizodlari, tabiat manzaralarining funksional vazifasi hamda ixcham, lekin obrazli tasvirlarning baxshiyona ijroga xos xususiyatlari ochib beriladi. Jang polotnosi orqali qahramonlik, jasorat va ijtimoiy-axloqiy qarama-qarshiliklar yoritilgan bo'lsa, peyzaj eskizlari orqali voqealarning emotsional-falsafiy qatlamlari kuchaytirilgani asoslab beriladi. Maqolada epik tasvir vositalarining doston g'oyaviy-badiiy tizimidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: "Malla savdogar" dostoni, baxshi ijodi, jang polotnosi, batal janri, peyzaj, eskiz uslubiyati, epik tasvir, qahramonlik poetikasi, xalq dostonchiligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N28

Kirish. O'zbek xalq dostonchiligi milliy badiiy tafakkurning qadimiy va serqirra qatlamlaridan biri bo'lib, unda epik voqealar, qahramonlik g'oyalari va xalqning axloqiy-estetik qarashlari mujassam holda namoyon bo'ladi. "Malla savdogar" dostoni ana shunday yuksak badiiy an'analarga tayangan holda yaratilgan epik asarlardan biridir. Dostonda jang manzaralari, peyzaj tasvirlari va eskiz xarakteridagi badiiy ifodalar syujet rivojiga xizmat qiluvchi muhim poetik vositalar sifatida qo'llanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi "Malla savdogar" dostonining turli variantlarida jang polotnosi va peyzaj eskizlarining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlash, ularning

qahramon obrazlarini yoritishdagi hamda doston g‘oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtirishdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir.

“Malla savdogar” dostonida badiiy janrlarning qo‘llanilishi baxshi ijodiy mahoratini belgilovchi muhim poetik omillardan biridir. Xususan, asarda batal (jangnoma) janri, peyzaj tasviri hamda badiiy so‘zning eskiz uslubiyati syujet voqealari bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanib, dostonning g‘oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Batal janr – “batal” fransuzcha so‘z bo‘lib, “jang”, “urush” ma’nosini bildiradi. U jang manzaralarini o‘zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o‘rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o‘z ona Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. [1.34-b] Eslatib o‘tish joizki bu janr “jang polotnosi” nomi bilan ham san’at va badiiyatda qo‘llanadi.

Dostondagi batal janr unsurlari jang va to‘qnashuv epizodlarida yaqqol namoyon bo‘lib, qahramonlarning mardligi, jasorati, vatanparvarlik ruhi va irodaviy barkamolligini ochib beradi. Baxshi jang manzaralarini keng tasvirlashdan ko‘ra, dinamik va obrazli ifoda orqali jangning ruhiy-psixologik mohiyatini yoritadi. Bu hol jangnomaga xos epik patosni kuchaytirib, qahramon obrazini ideallashtirishga xizmat qiladi.

Peyzaj janri esa dostonda voqealar rivoji va qahramon ruhiy holatini ochishda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiat tasvirlari ko‘pincha syujet voqealariga fon bo‘lib xizmat qilsa-da, ayrim epizodlarda parallelizm va kontrast usulida qo‘llanib, qahramon kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. Peyzaj orqali baxshi dramatik vaziyatni kuchaytiradi, voqealarning emotsional ta’sirchanligini oshiradi va epik makon kengligini ta’minlaydi.

Peyzaj – (fr. raysage – mamlakat, joy so‘zlaridan) badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo‘lib, u yozuvchining usuli va uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni o‘taydi.

Peyzaj qahramonning ruhiy holatini ifodalashda fon vazifasini bajarishi, parallelizm yoki kontrastga xizmat qilishi mumkin. Umuman, peyzaj badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida juda ko‘p vazifa bajaradi. [2.116-b.]

Dostonda badiiy so‘zning eskiz uslubiyati epizodik tasvirlarda, ayniqsa, tezkor voqealar bayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshi ayrim sahnalarni batafsil tasvirlashdan ko‘ra, ixcham, lekin ma’no jihatidan boy obrazlar orqali voqelikni umumlashtiradi. Ushbu eskiz xarakteridagi tasvirlar dostonning og‘zaki ijroga xos tabiati bilan uyg‘unlashib, tinglovchi tasavvurida voqealarni jonlantiradi.

Eskiz (frans.) — badiiy asar yoki uning alohida qismlari g‘oyasini aks ettiruvchi dastlabki qoralama, xomaki asar. Eskizda bo‘lajak asarning kompozitsiya yechimi, shakllarning fazoviy kenglikda joylashuvi va ularning o‘zaro nisbatlari, umumiy rang tizimi xususiyatlari va boshqalar belgilab olinadi.

Eskiz erkin, tez qoralama tarzida bajariladi, ayrim hollarda bo‘lajak asarning mayda unsurlari ham o‘z aksini topadi. Ko‘p hollarda Eskiz mustaqil asar darajasiga ko‘tarilishi va badiiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin. [3.219-b.]

“Malla savdogar” dostonida batal janrining epik qudrati, peyzajning ruhiy-funksional vazifasi hamda eskiz uslubiyatining ixcham va obrazli ifodasi baxshi poetik tafakkurining yetukligini ko‘rsatadi. Ushbu badiiy unsurlar syujet voqeligini estetik jihatdan mukammallashtirib, dostonning janr xususiyatlari va g‘oyaviy mazmunini chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Quyida baxshi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li tomonidan kuylangan “Malla savdogar” dostoni variantlaridan olingan syujet fragmentlardagi jang polotnosi (batal), peyzaj (manzara), epizodli eskizlarni badiiy talqinini ko‘rib chiqamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot davomida o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida jang janri, peyzaj tasviri va eskiz tushunchalariga oid nazariy qarashlar tahlil qilindi. Jumladan, O.N. Shomurodovning tasviriy san’atga oid ishlari, D. O‘rayeva va D. Quvvatovaning adabiy terminlar lug‘ati, shuningdek, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidagi nazariy izohlar metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tahliliy, strukturaviy va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Doston matnidagi jang va peyzaj epizodlari kontekstual yondashuv asosida o‘rganilib, baxshiyona ijroga xos badiiy xususiyatlar aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Malla savdogar” dostonida jang polotnosi ikki xil badiiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi holatda (Malla savdogar va Bektosh bilan bog‘liq epizod) jang zo‘ravonlik va zulm akti sifatida tasvirlanib, ijtimoiy adolatsizlik motivlarini kuchaytiradi. Ikkinchi holatda (Avazxon va yovlar bilan bog‘liq epizod) esa jang epik qahramonlik va muqaddas g‘azo darajasiga ko‘tariladi.

Peyzaj eskizlari doston voqealariga oddiy fon bo‘lib qolmay, balki qahramonlarning ruhiy holatini ochuvchi faol poetik vosita vazifasini bajaradi. Cho‘l, tog‘, chashma kabi makonlar voqealarning dramatik rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Eskiz uslubiyati esa tezkor syujet bayonini ta’minlab, og‘zaki ijroga xos obrazli umumlashtirishni kuchaytiradi.

Malla savdogar va Bektosh bilan bog‘liq jang palotnosi tasviri: Savdogar bir necha kun-u tunni yo‘lini bosib o‘tadi. Qizil suv degan chashma bor joyga bir oz hordiq olish uchun tuyalarini cho‘ktirib, yuklardan holi qilib, bir oz o‘tlasin deb haydab qo‘yadi. Olov yoqib, choy qaynatib, osh pishirib yeydi. Keyin tuyalarni yig‘ib, yuklarini yana yuklab, yo‘l tadorigini ko‘radi. Ammo shu asnoda dostonda noxush voqea sodir bo‘ladi. Dostonda Bektosh kofir ming kishi bilan cho‘lma-cho‘l, tog‘ma-tog‘ ovlab yurgan bo‘ladi. Ahmad vazirni Bektosh bilan oshnoligi bo‘lib, u qabih niyatini shu qaroqchi orqali amalga oshiradi. Ahmad vazir o‘zgalarga yomonlik qilib huzurlanadigan timsol sifatida gavdalanadi. Albatta Bektosh karvon yo‘lida noxos savdogarga duch keladi. Bektosh savdogarni o‘ldirib, mol-u dunyosini talab oladi, kajavani oybolta bilan bo‘laklab sindirib, Jo‘zumko‘zni, Gulnorni, Nuralixonni qo‘llarini orqaga qilib boylab, zulm bilan o‘lja qilib haydab ketadi. shundan keyin uchovining azobli kunlari yana ko‘payadi. [334-b.]

Parchaning mavzu mohiyati va badiiy konsepsiyasida keltirilgan fragment dostonning dramatik burilish nuqtasi bo‘lib, unda zo‘ravonlik, talon-toroj va ijtimoiy adolatsizlik motivlari markaziy o‘rin egallaydi. Voqealar rivojida ezgulik va yovuzlik antitezasi aniq namoyon bo‘lib, Malla savdogar tinch hayot va halol mehnat timsoli sifatida, Bektosh esa yovuzlik va vahshiylikni ifodalovchi antagonistik obraz sifatida gavdalanadi. Ahmad vazir esa fitna va bilvosita yovuzlik manbai bo‘lib, konfliktni chuqurlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

Peyzaj eskizi va badiiy makonning voqelikdagi jarayonida dostondagi voqealar cho‘l va tog‘ manzaralari fonida kechadi. Qizil suv chashmasi epizodi badiiy peyzaj sifatida muhim semantik yukni o‘zida mujassam etadi. Bu makon dastlab osoyishtalik, dam olish va xavfsizlik muhitini yaratadi: savdogarning tuyalarni cho‘ktirish, ovqat pishirish jarayoni tinch hayot ritmini ifodalaydi.

Ammo aynan shu osoyishta makon keyingi fojiaviy hodisalarga sahna bo‘lishi orqali keskin kontrast tamoyilini yuzaga chiqaradi. Cho‘l va tog‘lar – qonunsizlik va yovvoyi kuchlar hukmron bo‘lgan hudud sifatida tasvirlanib, Bektoshning paydo bo‘lishi bilan peyzaj dramatik makonga aylanadi. Shu tariqa peyzaj voqelikdagi jarayonni bevosita belgilovchi faol badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

Jang polotnosi va zo‘ravonlik jarayoni: Dostondagi ushbu parchada jang polotnosi an’anaviy keng ko‘lamli urush tasviri shaklida emas, balki vahshiy hujum va zulm aktlari orqali ochiladi. Bektoshning savdogarni o‘ldirishi, mol-dunyosini talab olishi va kajavani oybolta bilan parchalashi epik zo‘ravonlikning kulminatsion nuqtasini tashkil etadi.

Bu yerda jang ikki kuch o‘rtasidagi teng to‘qnashuv emas, balki mutlaq ustunlikka ega yovuz kuchning begunoh qurbon ustidan qilgan tajovuzi sifatida talqin etiladi. Jang polotnosi jarayon sifatida qisqa, ammo nihoyatda shafqatsiz va ta’sirchan bo‘lib, dostonning fojiali ohangini kuchaytiradi.

Qahramonlar fe’l-atvori va harakati: Malla savdogar – yo‘l, karvon va mehnat bilan bog‘liq obraz bo‘lib, uning fe’l-atvori sokinlik va ishonchga asoslangan. U xavfni sezmay, taqdir zarbasiga duch keladi.

Bektosh – shafqatsiz, zo‘ravon, talonchi xarakteriga ega bo‘lgan qaroqchi. Uning harakati vayronkorlik va zulmga yo‘naltirilgan bo‘lib, jang polotnosining asosiy ijrochisidir.

Jo‘zumko‘z, Gulnor, Nuralixon – zo‘ravonlik qurbonlari sifatida tasvirlanib, ularning bog‘lab olib ketilishi dostonning fojiaviy-estetik qatlamini chuqurlashtiradi. Ayniqsa ayol obrazlari orqali zulmning axloqiy tubanligi ochib beriladi.

Ahmad vazir – bevosita sahnada ishtirok etmasa-da, voqealar rivojiga sababchi bo‘lgan makr va fitna timsolidir.

Mazkur parcha “Malla savdogar” dostonida jang polotnosi va peyzaj eskizlarining voqelik bilan uyg‘unlashuvi, qahramonlar xarakterining keskin qarama-qarshiligi, hamda ijtimoiy-axloqiy muammolarning badiiy talqinini yorqin namoyon etadi. Fragment dostonning g‘oyaviy-badiiy tizimida muhim o‘rin tutib, xalq epik an’analariga xos dramatizm va realistik tasvir orqali asarning umumiy mazmunini chuqur ochib beradi.

Avazxon va yovlar bilan bog‘liq jang polotnosi tasviri: Yo‘lda Avazxonni va hamrohlari ortidan izma-iz Bog‘dodning hisobsiz lashkarlari kelayotganini payqaydi. Avazxon avvali xudo, pirlarini yod etib, G‘irot bilan birga lashkarlarga ro‘para bo‘ladi. Jang tasviri poetikasi quyidagicha tasvirlanadi:

G‘animga bo‘ldi ro‘paro‘y,
Rahm aylasin qodir xudoy,
Ostida o‘ynaydi bodpoy,
Boshidan o‘limdan bearvoy,
……
Ovshar ko‘pdi, Avaz yakka,
Obro‘y bersin yolg‘iz bekka,
Qorday to‘shin tutib borar
Do‘lanaday yoqqan o‘qqa.
……
Urgan dobil mashg‘ulotiga,
Ko‘rmaysizmi layli G‘irot

Har bir dobil urganda,
To‘qqiz gaz osmonga uchdi.

Avazxonni dobil sasidan qo‘rqib lashkarlar ortga qaytadi. Shohdorshoh degan lashkarboshi ularni jang qilish uchun iziga qaytaradi. Avazxondan qo‘rqib Shohdorshoh qilichi bilan yerni chizgan joyidan Bog‘dodga qarab qochayotgan lashkarlarni “tilla but, otashparast avliyo, lotu monot ursin” deb qasam beradi. Baxshi sozida Avazxonni jangdagi tasviri yanada yorqinlashadi.

O‘lmasin botir Avazxon,
Aslo badani hurkmaydi,
Dushmanga bo‘ldi ro‘paro‘y.
……
Otni maydonda yeldi
Rustamning jangi bo‘ldi,
Kim o‘lib kimlar qoldi,
Hisobini Ollo bildi.

Xullas, to‘qqiz kechayu kunduz g‘ozoga aralash bo‘ladi. Jang yakuniga yetib, Avaz iziga qizlar qoshiga keladi. Avazxon oftoba suvida a’zoyi badanini poklab oladi. Shu yerda bir kamar bo‘lib, Go‘ro‘g‘li Avazxonni koriga yarar deb har xil zotdan ehtiyot qilib qo‘yar edi. Avazxon idish-tovoqlarni hammasini kamar ichiga joylab, toshdan yo‘ndirilgan kamarni og‘ziga qopqoqni yopdi. So‘ngra uch qiz bilan Chambilga yo‘l oladilar. [356-357-358-b.]

Jang polotnosi va peyzaj eskizlarining ilmiy talqini: Malla savdogar dostonining mazkur epizodida jang polotnosi epik qahramonlik poetikasi asosida shakllangan bo‘lib, unda Avazxon obrazi xalq idealining badiiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Yakka botir – ko‘p sonli yov” qarama-qarshiligi dostonchilik an’analariga xos tipik epik konfliktni yuzaga keltiradi. Avazxonning jangga kirishdan avval Xudo va pirlarni yod etishi uning harakati muqaddaslashtirilgan g‘azo sifatida talqin etilishini ta’minlaydi.

Jang tasvirida qo‘llangan mubolag‘alar (“to‘qqiz gaz osmonga uchdi”, “to‘qqiz kecha-kunduz”) mifopoetik vaqt va makon tushunchalarini ifodalaydi. Bu orqali qahramonning jismoniy kuchi emas, balki epik qudrati ulug‘lanadi. Shohdorshoh va lashkarlarning qo‘rquv holati antagonistik kuchning ma’naviy-psixologik zaifligini ochib beradi.

Qahramon fe’l-atvori va jangovar harakatlar: Avazxon fe’l-atvorida jasorat, qat’iyat va iymon yetakchi xususiyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Uning dushmanga ro‘para chiqishi faol va hujumkor xarakter belgisi bo‘lib, xalq epik qahramonlariga xos axloqiy ustunlikni ifodalaydi. Jangdan keyingi oftoba suvida poklanish sahnasi esa ritual tozalanish motivi orqali qahramonning ma’naviy kamolotini ta’kidlaydi.

G‘irot obrazining epik funksiyasi: G‘irot dostonda oddiy ot emas, balki Avazxonning jangovar hamrohi va qudratini to‘ldiruvchi epik timsoldir. “Layli G‘irot” shaklidagi nomlanish ot obrazining antropomorfik va mifologik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Inson va ot birligi xalq dostonlarida keng uchraydigan “qahramon–hamroh” modelini ifodalaydi.

Baxshiyona badiiy uslubiyatning o‘ziga xosligi: Mazkur parcha baxshi ijodiga xos sinkretik uslubda yaratilgan bo‘lib, unda so‘z, ohang va dramatik tasvir uyg‘unlashgan.

Takrorlar, epitetlar va mubolag‘alar jang dinamikasini kuchaytirib, og‘zaki epik nutqning ritmikligini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu epizod Avazxon obrazini ideal qahramon darajasida yoritib, jang polotnosi va peyzaj eskizlari orqali xalqning jasorat, iymon va adolat haqidagi tasavvurlarini badiiy umumlashtiradi. Parchaning ilmiy mohiyati shundaki, u o‘zbek dostonchiligida jang motivining estetik, axloqiy va marosimiy funksiyalarini ixcham va tizimli tarzda namoyon etadi.

“Malla savdogar” dostonida jang polotnosi, peyzaj va eskiz uslubiyati baxshi poetik tafakkurining yetukligini ko‘rsatadi. Ushbu badiiy unsurlar qahramonlik g‘oyalarini, axloqiy qarama-qarshiliklarni va xalqning estetik qarashlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida mazkur dostonni boshqa xalq epik asarlari bilan qiyosiy o‘rganish, shuningdek, baxshiyona ijro va musiqiy komponentlar bilan uyg‘un holda tahlil qilish ilmiy jihatdan samarali natijalar berishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O.N.Shomurodov “Tasviriy san’at tarxi” (o‘quv qo‘llanma), Buxoro. “Durdona” nashriyoti, 2021-yil .34-b.
2. D.O‘rayeva, D.Quvvatova “Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti, 2019-yil.116-b.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, E-harfi, Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-yil.219-bet.
4. Nurali dostoni turkumi. Baxshi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘li variant “Malla savdogar” dostoni, Toshkent. “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti 1989-yil. 334-b. 356-357-358-b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY

Orazgalieva Ayjamal Marat qızı
doctoral student of Nukus State Pedagogical institute

Scientific supervisor: Usenova Gulmira Abillaevna,
(PhD) Docent of Nukus State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the verbalisation of the concept CHILD / BALA in English and Karakalpak using contrastive lexicographic and cognitive-semantic analysis. Data from English explanatory dictionaries and Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi reveal a differentiated English lexical system and a BALA-centred Karakalpak structure, highlighting universal semantic features, cultural specificity, and linguocultural conceptualisation patterns of childhood representation in both languages.

Keywords: cognitive linguistics, contrastive lexicography, semantic structure, synonymy, evaluative meaning, linguoculture.

INGLIZ VA QORAQALPOQ LEKSIKOGRAFIYASIDA CHILD/BALA KONSEPTINING SINONIMIK VA PRAGMATIK VERBALLASHTIRILISHI

Orazgalieva Ayjamal Marat qizi,
Nukus Davlat Pedagogika Instituti
tayanch PhD doktoranti
Email: Orazgalieva.ayjamal@mail.ru
http://www.orcid.org/0009-0007-1212-9740

Ilimiy rahbar: Usenova Gulmira Abillaevna,
Nukus Davlat Pedagogika Instituti, (PhD)Dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada CHILD / BALA konseptining ingliz va qoraqalpoq tillaridagi verbalizatsiyasi kontrastiv leksikografik va kognitiv-semantik tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot ingliz izohli lug‘atlari va Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi materiallariga tayangan. Natijalar ingliz tilida differensiallashgan leksik tizim, qoraqalpoq tilida esa BALA markazli konseptual tuzilmani ko‘rsatib, universal hamda tilga xos semantik va lingvokulturologik xususiyatlarni aniqlaydi, va madaniy bilimlarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: kognitiv lingvistika, kontrastiv leksikografiya, semantik tuzilma, sinonimiya, baholovchi ma’no, lingvokultura.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N29

Introduction. The concept CHILD occupies a central position in human cognition and linguistic categorisation, as it reflects fundamental biological, social, and cultural dimensions of human existence. Within the framework of cognitive linguistics, concepts are understood as culturally structured mental representations that are verbalised through lexical units and organised into semantic networks reflecting human experience and cultural knowledge [7, 6;

4, 157]. Lexical systems do not merely label objective reality but encode culturally specific conceptualisations shaped by social values, cognitive models, and communicative practices [14, 14-15; 5, 222-225].

The linguistic representation of the concept CHILD, therefore, extends beyond the basic nominative lexeme and includes a complex network of synonyms, derivational forms, stylistic variants, and evaluative expressions. Such lexical differentiation reflects the internal structure of conceptual categories and reveals how languages organise knowledge about human development, social roles, and emotional evaluation [2, 154; 10, 83-87]. English, in particular, demonstrates a highly elaborated lexical system that distinguishes between developmental stages, social status, emotional evaluation, and pragmatic usage.

In contrast, languages may differ significantly in how they structure and verbalize conceptual domains, reflecting distinct cultural models and cognitive priorities (15, 15-18; 13, 32). Turkic languages, including Karakalpak, represent an especially valuable area of investigation due to their rich lexical traditions and culturally embedded conceptual systems, which remain underrepresented in international cognitive linguistic research.

The present study examines the lexical and semantic structure of the concept CHILD / BALA through contrastive lexicographic analysis of English and Karakalpak, with particular attention to synonymic networks, evaluative meanings, stylistic variation, and culturally specific conceptual extensions.

Methodology. This study adopts a qualitative contrastive lexicographic and cognitive-semantic methodology to analyse the verbalisation and conceptual structure of the concept CHILD / BALA in English and Karakalpak. Lexicographic analysis is recognised as a reliable method for reconstructing conceptual structures, as dictionaries systematically codify culturally validated semantic knowledge and lexical categorization [8, 2-5].

The data were collected from authoritative English lexicographic and thesaurus sources, including the Cambridge Dictionary Thesaurus and major explanatory dictionaries, as well as the *Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi*, which represents the primary normative lexicographic source for the Karakalpak language. The analysis focuses on lexical units that verbalise the concept CHILD / BALA and examines their semantic scope, stylistic register, evaluative meaning, and pragmatic function.

The methodological framework integrates principles from cognitive linguistics, contrastive semantics, and linguoculturology, which view lexical meaning as reflecting culturally structured conceptual knowledge rather than purely referential categorization [3, 67-70]. Special attention is given to synonymic networks, expressive lexical items, metaphorical extensions, and culturally specific address forms, as these elements reveal the internal conceptual organisation and evaluative structure of the conceptual domain.

This approach enables the identification of both universal semantic features associated with human development and culturally specific patterns of conceptualisation reflected in lexical structure.

Results and Discussion. The analysis demonstrates that the concept CHILD in English is verbalised through an extensive and highly differentiated lexical network reflecting age-related, social, emotional, and evaluative dimensions of childhood. This lexical differentiation corresponds to the general tendency of English toward fine-grained semantic categorisation

and lexical specialisation, which reflects the cognitive organisation of conceptual categories and their cultural significance [2, 158].

In addition to the neutral nominative lexeme *child*, English employs a wide range of lexical units, including age-specific terms (*baby*, *infant*, *toddler*, *teenager*), formal and legal designations (*juvenile*, *minor*), informal variants (*kid*, *tot*, *little one*), and expressive evaluative terms (*brat*, *urchin*, *cherub*, *munchkin*, etc.). These lexical units encode nuanced distinctions related to developmental stage, emotional evaluation, and pragmatic context, reflecting the structured nature of conceptual categorisation.

In contrast, the Karakalpak language demonstrates a conceptual system in which the lexeme BALA serves as a central nominative unit within a dense synonymic network reflecting genealogical continuity, social identity, emotional evaluation, and culturally specific pragmatic functions. Such differences illustrate how languages may vary in the degree of lexical differentiation and conceptual abstraction, reflecting culturally specific cognitive models and linguistic traditions [15, 18].

The following analysis examines the synonymic and evaluative lexical field associated with the concept CHILD / BALA in English and Karakalpak, highlighting similarities and divergences in conceptual structure and linguocultural representation.

The distinctive function of the concept "child" in English is reflected through other synonyms and acquires additional stylistic semantic nuances. The concept of "child" in English can be expressed through the following synonyms: child (bala), boy (ul bala), girl (qız bala), son (ul perzent), daughter (qız perzent), descendent (áwlad, urpaq, zuryad, tuqım-teberik, tuqımı, zadı,tegi, haslı, násili, tuyaq (ul bala)), baby, infant, toddler, tot (náreste, bóbek, bópe, gódek, saǵıyra, ayda), youngster, juvenile (jas, náwshe, jetkinshek), teenager (óspirim), minor (bala), kid, kiddie, kiddy, little one (kishkene bala) and words used in relation to children's behavior or character: imp, monkey, scallywag, tyke, tinker, brat, perisher, varmint, urchin, ankle-biter, nipper, squirt, tiddler, cherub, moppet, munchkin, mite, poppet, sprog.

In the process of analyzing the word "child" in the Cambridge dictionary thesaurus, the following valuable information related to the aforementioned words can be studied:

A **“child”** is someone who has not yet reached adulthood. When referring to one person, the word **“child”** sounds more formal than **“boy”** or **“girl”**. The phrase **“boys and girls”** is often preferred to **“children”,** especially when addressing young people directly.

When I was young, summer holidays felt endless.

There is a new boy in my class.

The girl is called Sally.

Please calm down, boys and girls.

The word **“kid”** is an informal alternative to **“child”**. Very young children may also be called **“kiddie”** or **“kiddy”,** although these forms are less frequently used.

I’m going to collect the kids from school.

I noticed her pushing a stroller with a small kiddie inside.

The kiddy appeared to be alone, without an adult nearby.

Small children can also be described as **“little ones”** or **“tots”**, both of which are informal expressions.

The little ones are probably hungry by now.

Several tots were playing near the sea.

An **“infant”** refers to a baby or extremely young child. This term is common in formal speech and written contexts.

Infants under the age of two must sit on an adult’s lap during travel.

Many parents think infants must always be kept warm, though this is usually unnecessary.

It is important to note here that, unlike the Karakalpak language, English uses various words related to children's ages. For example, the word "baby" generally refers to infants who have not yet started walking or talking and is also used to denote animal offspring. Additionally, it is used as an affectionate term to address loved ones. The word "infant" has two different age-related meanings: 1. A newborn or baby; 2. A school-age child between 4 and 8 years old.

A **“toddler”** is a child who has recently begun walking but is still too young to attend school.

She has both an infant and a toddler.

In the Karakalpak language, words such as **"náreste," "bóbek," "bópe," "gódek," "saǵiyra,"** and **"ayda"** are used for all young children who have just begun to speak and walk, regardless of their age or very little babies.

However, the word **"teenager"** in English and the words **"óspirim"** and **"náwshe"** in Karakalpak are used for children aged 10-15.

An older child may be called a **“youngster**”.

It can be challenging to interest these youngsters in activities that do not involve screens.

A more formal term for an older child is **“juvenile”,** which is often used in legal or official language. This word can also describe a young animal.

A centralized system is needed to record data on missing juveniles.

The lighter coloring on its wings showed that the eagle was still a juvenile.

In the Karakalpak language, the words "**jas," "bala,"** and **"jetkinshek"** are used, and although the word **"náwshe"** can be a synonym for **"jas"** the word **"náwshe"** is only used in literary works.

A *“minor”* is someone who has not yet reached the legal age of adulthood. This term is mainly used in legal situations.

In some circumstances, minors are allowed to agree to medical treatment.

There are many informal or playful words used to describe children.

Words such as **“imp”** and **“monkey”** are affectionate names for a mischievous child. In British English, terms like **“scallywag”, “tinker”** (old-fashioned), and **“tyke”** (also spelled **“tike**”) are also used.

That little imp thought he could outsmart me.

You naughty monkey!

How is that scallywag of a son of yours?

What are those little tinkers doing now?

He’s a cheeky little tyke.

She has two lovely little tikes.

In the Karakalpak language, for children of this type, terms like "fantamas," "Masha" (widely used in colloquial speech due to the characteristics of films and cartoon characters), "shaytan" (devil), "maymıl" (monkey), and "patrat" (from the Russian language), “xuligan” are commonly used.

The word **“brat”** expresses disapproval and is used for badly behaved children.

That child is a spoiled **brat**.

To describe a child who is spoiled and undisciplined in colloquial speech, Karakalpak people express their anger using words like "**Iyttiń balası**" or "**juwernemek", "xaywan", "osamas"**. In the 4th volume of the Explanatory Dictionary of the Karakalpak Language Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi, the words **"harami"** and **"haramzada"** are defined as meanings "buzıq, sum, zalım" (depraved, deceitful, oppressive) and the examples are provided, such as "Biziń bul zamandı haramı biylep, zaman hár túrlerge dóndi yaranlar" (Our time is ruled by harami cruels , the era has turned into all sorts of things, my friends) from one of the works of the poet Kunkhoja, , "Fashistleri haramzada qasiyetleri" "The haramzada violent qualities of the German fascists" from the works of A. Shamuratov [11, Tom IV, 467]. Although the second meaning of this word as "child born out of wedlock" or "illegitimate child" is not included in explanatory dictionaries for these words, they are used among Muslims, including the Karakalpaks.

"Perisher" is an old-fashioned British term for an irritating child. **"Varmint"** is another informal word used in both British and American English for an annoying child.

That story would frighten the little perishers for years.

Keep those varmints away from me!

In the Karakalpak language, the word "xuligan" which came into use from the Russian language, is used in spoken language in exactly this sense.

The word **"urchin"** refers to a child who looks dirty or poorly dressed. It is an old term, sometimes used humorously.

Those street urchins seem older than they really are.

In the Karakalpak language, especially in the northern regions, the word "labaq" is widely used in this sense. This word gained popularity through the character named Lábaq in Qipshaqbay Matmuratov's work "Omirbek and Tazsha," specifically in his play. Since then, it has been used among the public to describe children who resemble this character's personality.

Informal expressions emphasizing a child's small size include "ankle-biter", "nipper", "squirt", and in British English, "tiddler" while in Karakalpak "Murteshe", "shóje" , "mayda shúydeler, shójeler" , "palapan" "qozıshaq"or "mushımday"

The park was crowded with ankle-biters.

He has a little nipper who follows him everywhere.

He's just a tiny squirt.

Her two tiddlers have just begun school.

A kind, lovable, or pitiable child may be informally called a "cherub", "moppet", "munchkin" (US English), or in British English, a "mite" or "poppet".

She looks like a little cherub.

She's a sweet moppet.

She's an adorable munchkin.

What a lovely little mite!

Time for bed, poppet!

Finally, **"sprog"** is British slang used to refer to a baby or child.

She's expecting another sprog.

While endearing words like "a cherub" and "a moppet" are used for endearing and loving children, American English uses "a munchkin" and British English uses "a mite" and "a poppet."

In Karakalpak, endearing words like "shóje," "palapan," "aynanay," "Aquday," "Ay qizim," "Ay balam," and "quyashım" are much more common than in English. For example:

*Aynanayın **aydası***
*Ay júzimniń **aynası***
*Alla Bergen **ay qızım***
Aylanıp kestin anası
***Ay qızım** ózimniń*
***Aymaq** qızım ózimnin'*
***Qant** qızım ózimniń*
***Qaymaq** qızım ózimniń*
Jáni, jáni-jáni
*Aq ordamnıń **sáni***
***Aqudayım** ózimniń*
*Aq buwdaydıń **nanı**!*

As it can be seen, in Karakalpak culture, children are often addressed using names of pleasant, delightful, endearing, and positive things, drawing comparisons to these favorable attributes. Additionally, the English word "sunshine" has been adopted by mothers to affectionately address their children. This term gained popularity due to a widely known English lullaby, and interestingly, some Karakalpak mothers have even begun singing this English song in place of the traditional Karakalpak folk lullaby "häyyiw."

Conclusion. The contrastive lexicographic and semantic analysis of the synonymic, stylistic, and evaluative lexical field associated with the concept CHILD / BALA in English and Karakalpak demonstrates that both languages possess extensive and culturally structured systems for verbalising childhood, while differing significantly in their strategies of lexical differentiation, semantic organisation, and cultural conceptualisation. The findings confirm that the concept CHILD / BALA constitutes a complex multidimensional linguocultural category encompassing biological, developmental, genealogical, social, emotional, and evaluative components.

English exhibits a highly differentiated and hierarchically organised lexical system, characterised by precise age-specific categorisation through lexemes such as *baby, infant, toddler, youngster, teenager,* and *minor*, each encoding clearly defined developmental or legal stages. In addition, English demonstrates extensive stylistic and register variation, including formal (*juvenile, minor*), neutral (*child, boy, girl*), informal (*kid, kiddie, tot*), and slang or expressive forms (*urchin, squirt, brat, varmint, sprog*). This lexical diversity reflects a cognitive model that prioritises chronological precision, social classification, and functional differentiation. Furthermore, English displays a broad evaluative spectrum, including both positive affective terms (*cherub, munchkin, moppet, poppet*) and negative evaluative lexemes (*brat, scallywag, tyke, perisher*), indicating a well-developed evaluative semantic subsystem integrated into the conceptual field of CHILD.

The Karakalpak linguistic system, while equally rich in lexical representation, demonstrates a different organisational principle centred around the core lexeme *bala*, which functions as a highly productive semantic nucleus encompassing a wide range of meanings and conceptual extensions. Age-related lexical differentiation exists through lexemes such as *náreste, bóbek, bópe, gódek, jetkinshek,* and *óspirim*, but these units often cover broader

developmental ranges compared to their English counterparts. Unlike English, where lexical differentiation frequently reflects institutional, legal, or biological classification, Karakalpak lexicalisation more strongly emphasises genealogical continuity, social belonging, and emotional evaluation.

7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» ги 36-сон Қарори.// ҳттпс://лех.уз/досс/1442456.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SPECIFIC ASPECTS OF THE PARTICIPATION OF CITIZENS' SELF-GOVERNING BODIES IN PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AGREEMENTS

Kilichev Khayrulla Mamatovich,
Head of the Department of Civil Law Disciplines,
Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Abstract. This scholarly article analyzes the application of the public-private partnership mechanism in the construction and reconstruction of mahalla citizens' assembly buildings in Uzbekistan from the perspective of civil law theory. It also highlights the institutional and financial mechanisms of public-private partnerships in the development of mahalla infrastructure. Furthermore, the study provides a comparative analysis of three main approaches in legal doctrine regarding the legal nature of a public-private partnership agreement: the administrative-legal, hybrid, and private-legal concepts.

Keywords: public-private partnership, legal nature of a public-private partnership agreement, civil law institution, public law elements, principle of freedom of contract, principle of equality of the parties, subject of the contract, institutional mechanisms.

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qilichev Xayrulla Mamatovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: info@akadmvd.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmining mahalla fuqarolar yig'inlari binolarini qurish va rekonstruksiya qilish jarayonida qo'llanilishi fuqarolik huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, mahalla infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikning institutsional va moliyaviy mexanizmlari yoritilgan. Bundan tashqari tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik shartnomasining huquqiy tabiati yuzasidan ilmiy doktrinada mavjud bo'lgan uch asosiy yondashuv — ma'muriy-huquqiy, gibrid va xususiy-huquqiy konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, davlat-xususiy sheriklik shartnomasining huquqiy tabiati, fuqarolik-huquqiy institut, ommaviy-huquqiy elementlar, shartnoma erkinligi prinsipi, taraflarning tengligi prinsipi, shartnoma predmeti, institutsional mexanizmlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N33

Kirish. Yangi O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi infratuzilma obyektlarini qurish va rivojlantirishning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–402-son qarori mahallalarni isloh qilish jarayonida yangi bosqichni belgilab berdi. Qarorning 11-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston mahallalari uyushmasiga uch yil muddatda namunaviy mahalla binolarini qurish va topshirish vazifasi yuklatilgan. Bu jarayon moliyalashtirishning an’anaviy davlat budjetidan tashqari turli manbalarini, jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo‘llashni nazarda tutadi. Shuning uchun ushbu masalani fuqarolik huquqi va davlat-xususiy sheriklik nazariyasi nuqtai nazaridan atroflicha yoritish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu normativ hujjatlarning qabul qilinishida esa, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuniga uzviy bog‘liqdir. Ushbu qonun O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini huquqiy asosda rivojlantirishning ilk qadamlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021 — 2023-yillarda davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 26-bandida davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish belgilangan. Yana bir hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tugatilgan holda, uning vazifalari va funksiyalari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o‘tkazilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son hamda “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son farmonlari ijrosini ta’minlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni kompleks tizimlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktyabrda “Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ 720-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror prezident investitsion va huquqiy islohotlarga asos solgan hujjatlarning amaldagi reja va bajarilishini ta’minlamoqda. Turli miqyosdagi loyihalar uchun aniq realizatsiya yo‘l xaritalarini va moliyaviy kafolat mexanizmlarini mustahkamlab kelmoqda. Institutsional jihatdan — loyihalar monitoringi, reyestrini yuritish, moliyalashtirish va tender jarayonlarini tizimli belgilangan tartibda tashkil etish voqealigiga erishilmoqda. Jumladan, Farg‘ona viloyatidagi 2020-2025-yil davomida 182 ta mahalla fuqarolar yig‘ini ma’muriy binolarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida yangitdan qurilgan bo‘lsa, 230 ta mahalla fuqarolar yig‘ini ma’muriy binolari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish va qayta qurish bo‘yicha tender e’lon qilingan [1].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqish aytish mumkinki, Mahalla uyushmasi va xususiy sektor o‘rtasida mahalla fuqarolar yig‘inlarining binolarini qayta qurish yoki rekonstruksiya qilish yuzasida davlat xususiy sheriklik bitimini tuzish amaliyoti kengayib bormoqda. Shu boisdan davlat-xususiy sheriklik bitimining huquqiy tabiati haqidagi nazariyalarni tahlil etish o‘rinli sanaladi.

Muhokama. Zamonaviy tadqiqotlarda davlat-xususiy sheriklik sohasida sheriklik to‘g‘risidagi shartnomaning huquqiy tabiati bahsliligicha qolmoqda. Hozirgi vaqtda bu masala, go‘yoki, qonunchilik darajasida hal etilgandek tuyulsa-da, mazkur mavzudagi ilmiy bahslar

to‘xtamadi, balki yangi turtki oldi. Masalan, A.V.Belitskaya davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning fuqarolik-huquqiy tabiatiga ishora qilinishi qonun chiqaruvchining kamchiligi, deb hisoblaydi. Chunki mazkur shartnomada ommaviy-huquqiy elementlar ham ko‘zga tashlanadi [2]. Bundan farqli o‘laroq, D.V. Kachkin va R.R. Repin esa “davlat-xususiy sheriklik, munitsipal-xususiy sheriklikka oid qonun hujjatlarida bayon etilgan qoidalarni qo‘llab-quvvatlaydilar [3]. A.V.Belitskaya va D.V.Kachkin va R.R.Repin pozitsiyalari o‘rtasidagi farq huquqiy tabiat masalasining ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi. Belitskaya shartnomadagi davlatning ustuvor rolini, ijtimoiy vazifalarni va ommaviy-huquqiy xususiyatni birinchi o‘ringa qo‘ysa, Kachkin va Repin esa qonunchilikdagi huquqiy aniqlik va fuqarolik-huquqiy mohiyatni himoya qiladi.

Shu asosda quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin:

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi faqat fuqarolik-huquqiy yoki faqat ommaviy-huquqiy deb belgilanishi uning tub mohiyatini to‘liq aks ettirmaydi.

Uning tabiati gibrid, ya’ni xususiy va ommaviy huquq normalari uyg‘unlashgan qo‘shma institut sifatida qaralishi lozim.

Qonunchilikda shartnomani fuqarolik-huquqiy deb belgilash amaliyotda barqarorlik va huquqiy aniqlikni ta’minlasa-da, doktrinal tahlilda uning ommaviy elementlarini inkor etmaslik zarur.

Ma’lumki, doktrinal darajada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan investitsiyaviy shartnomalarning huquqiy tabiatini belgilashda uchta asosiy yondashuv shakllangan [4]. Birinchi yondashuvga ko‘ra, bunday shartnomaviy konstruksiyalar ma’muriy shartnomaning bir turi sifatida qaraladi. Masalan, S.V. Shoroxov konsessiya shartnomasi misolida uning quyidagi ommaviy-huquqiy belgilari mavjudligini ta’kidlaydi:

- shartnoma maqomi jihatidan teng bo‘lmagan subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni rasmiylashtiradi;
- shartnoma obyektlari ommaviy mulk hisoblanadi;
- konsessiya shartnomasida konsedentga (ommaviy sherikka) muayyan bir tomonlama huquqlar beriladi;
- taraflar shartnomaning namunaviy shakllaridan foydalanishga majbur [5].

Shu munosabat bilan S.A. Sosna ta’kidlaydiki, konsessiya shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomaga yaqin kelishuv sifatida ko‘rilishi mumkin, biroq aynan bir xil emas, chunki u albatta ommaviy-huquqiy belgilariga ega [6]. Shunday qilib, V.E. Sazonov xulosa qiladiki, Davlat-xususiy sheriklik sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar ko‘proq ma’muriy huquqning obyektga oid tartibga solish sohasiga kiradi [7]. Demak, ushbu mualliflar guruhi fikriga ko‘ra, keltirilgan belgilari mavjudligi davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim hamda boshqa shartnomaviy shakllarni ma’muriy shartnoma sifatida tan olish uchun yetarlidir. D.A.Samovolovning fikriga ko‘ra, ommaviy sherikka muayyan bir tomonlama huquqlarni berilishini ham davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning ma’muriy-huquqiy tabiatini isbotlovchi yetarli dalil sifatida qarash mumkin emas [8]. Chunki huquq va majburiyatlarning nomutanosib taqsimlanishi ko‘plab fuqarolik-huquqiy shartnomalarga ham xos. Bu xulosa davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning obyekti davlat yoki munitsipal mulk ekani haqidagi fikrga ham tegishli. Chunki fuqarolik qonunchiligida turli shartnomaviy konstruksiyalar mavjud bo‘lib, ular ommaviy mulkning xususiy qo‘llarga o‘tishi yoki uni vaqtincha foydalanish va egalikka topshirilishini nazarda tutadi. Shu bois, bu ma’noda Davlat-xususiy sheriklik doirasida tuziladigan kelishuvlar noyob hisoblanmaydi. Keltirilgan dalillar

asosli tuyuladi. Darhaqiqat, davlat-xususiy sheriklikning shartnomaviy shakllari muayyan darajada ommaviy belgilarga ega, bu esa institutning o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi. Biroq bu ommaviy belgilarning yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlarning mohiyatiga ta’siri unchalik katta emas.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiatini tushunishda ikkinchi yondashuv o‘tish bosqichi hisoblanadi. Uning tarafdorlari bunday shartnomalarni aniq holda na ommaviy-huquqiy, na xususiy-huquqiy deb tan olish mumkin, deb hisoblaydilar [9]. Biroq bu pozitsiya yetarli darajada asoslanmagan. Chunki to‘g‘ri hisoblanishicha, “ommaviy-xususiy huquqiy munosabatlar” degan narsa mavjud emas – ular yo xususiy, yo ommaviy bo‘lishi mumkin [10]. Albatta, har qanday huquqiy kategoriya turli manbalardan kelib chiqqan elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin, biroq ulardan ma’lum qismi doim boshqalardan ustun turadi. Ana shu tarkibiy qismlarni tahlil qilish orqali muayyan hodisaning huquqiy tabiatini belgilash mumkin. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish uchun tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiatini belgilashda uchinchi keng tarqalgan yondashuv ularni xususiy-huquqiy shartnomalar qatoriga kiritishdir. Bu pozitsiya tarafdorlari qatorida V.F. Popondopulo [11], D.V. Kachkin va R.R.Repin [12], D.A. Samovolov [13] va boshqalar bor. Ushbu tadqiqotchilarning fikri eng asosli tuyuladi, chunki ushbu shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiatini ko‘rsatib beruvchi aniq belgilari mavjud.

D.N. Gorshunov shu xulosaga keladiki, manfaat “huquq tuzuvchi” kategoriya hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etuvchi muayyan yuridik vositalar to‘plamini belgilaydi [14]. Davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish haqida qaror qabul qilayotgan taraflarning motivatsiyasini tahlil qilar ekanmiz, D.N.Gorshunov tomonidan ta’kidlanganidek, manfaat “huquq tuzuvchi” kategoriya hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etuvchi muayyan yuridik vositalar to‘plamini belgilaydigan asosiy omil ekanini ko‘ramiz. Mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarini qayta qurish kontekstida ommaviy sherik vazifasini bajaruvchi tuman yoki shahar mahalla tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga faqat o‘z infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun budjet mablag‘lari yetarli bo‘lmaganida murojaat qiladilar, ya’ni ularga tashqaridan moliyaviy yordam zarur bo‘ladi. Bu holatda mahalla uyushmalari hokimiyat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqiy munosabatlar subyekti sifatida harakat qiladilar, bu esa munosabatlarning vertikallashuvini va ular orasidagi itoatkorlik munosabatlarini istisno qiladi. Shu sababli, muayyan shartnomaning qaysi huquq sohasiga tegishliligi ishtirokchilarni loyihaga kirishishga undagan motivatsiya bilan belgilanadi. Taraflar ijtimoiy manfaatni qondirishga intilgan bo‘lishi uchun asoslar mavjud, chunki davlat-xususiy sheriklikning asosiy maqsadi aholi ehtiyojlarini davlat va ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish orqali ta’minlashdir. Biroq bu fikrga ma’lum darajada shubha bilan qarash kerak. Bizningcha, shartnomaviy munosabatlarga kirishar ekan, avvalo sheriklar o‘z shaxsiy (xususiy) manfaatlarini ko‘zlaydilar. Shu munosabat bilan D.V. Kachkin va R.R. Repin ta’kidlaydilarki, ommaviy subyekt xususiy sherik bilan hamkorlik qilar ekan, u o‘zini fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi shaxsiy manfaatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qondirishga intiladi. Ilgari tilga olingan ijtimoiy manfaat esa davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda o‘zining bevosita ifodasini topmaydi. Shartnoma faqat uni qondirish uchun asos sifatida xizmat qiladi [15].

Darhaqiqat, ommaviy sherik davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga faqat o‘z infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun budjet mablag‘lari yetarli bo‘lmaganida

murojaat qiladi, ya’ni unga tashqaridan yordam talab etiladi. Shu bois, xususiy sherik bilan munosabatlarda u hokimiyat organi sifatida emas, balki fuqarolik huquqiy munosabatlar subyekti sifatida harakat qiladi. Bu esa munosabatlarning vertikallashuvini va ular orasidagi itoatkorlik munosabatlarini istisno qiladi.

Investor esa o‘z navbatida, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishga mablag‘, tajriba va texnik yechimlarni kiritar ekan, munosib mukofot olishni kutgan holda harakat qiladi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarini qayta qurish loyihalarida xususiy sherik uchun ijtimoiy manfaat ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish va aholiga ko‘rsatiladigan tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish unga faqat qo‘shimcha rag‘bat sifatida xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadiki, davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari ko‘proq o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydilar va ularning ustuvorligi davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning fuqarolik-huquqiy tabiatini ko‘rsatib turuvchi birinchi va asosiy belgi hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning xususiy-huquqiy tabiatini tasdiqlovchi ikkinchi asos — bu yuzaga keladigan sheriklik munosabatlari asoslangan prinsiplardir. Ular shartnomaning mohiyati va mazmunini yaqqol ifoda etadi. Ular orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: sheriklarning teng huquqliligi, loyihaga ularning ixtiyoriy ishtirok etishi, raqobat va axborot oshkoraligi, o‘zaro javobgarlik va xavf-xatarlarni adolatli taqsimlash, haq evaziga xizmat ko‘rsatish va aralashmaslik tamoyillari [16].

Aniqki, keltirilgan prinsiplar fuqarolik huquqi va qonunchiligining asosiy prinsiplari bilan uyg‘un va ko‘p jihatdan mos keladi. Ilmiy adabiyotlarda bu prinsiplar fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mazmunini belgilaydigan muhim konseptual qoidalar sifatida qaraladi. Masalan, taraflarning teng huquqliligi prinsipi fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi prinsipining bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Y.K. Tolstoyning ta’kidlashicha, fuqarolik-huquqiy munosabatda biron-bir taraf faqat o‘z mavqeyi tufayli ikkinchi tarafning xulq-atvorini oldindan belgilab qo‘yishi mumkin emas [17]. Demak, Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari to‘liq huquqli sherik sifatida faoliyat ko‘rsatadilar va bir-birlariga nisbatan turli xil kamsitish, itoat munosabatlari yoki noqonuniy imtiyozlarga yo‘l qo‘ymaydilar [18].

Davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etishning ixtiyoriyligi taraflarning bir-biri bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish masalasini mustaqil hal qilishini nazarda tutadi [19]. Shuningdek, taraflar shartnoma shartlarini — uning predmetini, o‘zaro huquq va majburiyatlarini, majburiyatlar mazmuni va h.k. — o‘zlari belgilaydilar. Bu holat FKning 354-moddasida mustahkamlangan shartnoma erkinligi prinsipidan kelib chiqadi.

Raqobatni ta’minlash prinsipi mahalla binolarini qayta qurishga oid davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish uchun potensial investorlarga teng imkoniyat berilishida o‘z ifodasini topadi va bu jarayon ochiq tanlov asosida amalga oshirilib, eng munosib xususiy sherikni tanlab olish imkonini beradi. Axborot oshkoraligi prinsipi esa davlat-xususiy sheriklik loyihasi ishtirokchilarini davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlaridan himoya qilishga qaratilgan [20]. U ommaviy axborot vositalarida davlat-xususiy sheriklik loyihasida ishtirok etish huquqi uchun tanlov jarayonining borishi va natijalarini, shuningdek shartnoma amalga oshirilishining ayrim bosqichlarini e’lon qilish majburiyatini o‘z ichiga oladi. Bu xususiy sherik uchun ommaviy sherik tomonidan majburiyatlarni lozim darajada bajarishining bir turdagi kafolatidir, chunki aks holda ommaviy sherikning shartnoma

shartlarini jiddiy buzishi jamoatchilik e’tiboriga tushib qolishi mumkin. O‘zaro javobgarlik prinsipi shundan iboratki, taraflar ehtimoliy noxush oqibatlar yuzaga kelganda qaysi taraf javobgar bo‘lishini o‘zlari belgilaydilar. Bunda manfaatlar muvozanati saqlanishi va hech bir sherik ortiqcha yuklanishga duchor bo‘lmasligi lozim. Umumiy qoidaga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik shartnomasi taraflari ayb mavjud bo‘lgan taqdirdagina (qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida) javobgar hisoblanadilar va agar o‘zlarining aybsizligini isbotlay olmasalar, ularning huquqiy munosabatlariga FKning 24-bobi qoidalari tatbiq etiladi. A.V.Belitskaya ta’kidlaganidek, xavf-xatarlarni adolatli taqsimlash prinsipi ularni qaysi sherik samaraliroq yengib o‘ta olishiga qarab taqsimlanishini nazarda tutadi. Oddiy hollarda ommaviy sherik siyosiy, valyuta va boshqa nazorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni, xususiy sherik esa tijorat, texnologik va boshqa xavf-xatarlarni o‘z zimmasiga oladi [21]. Xavf-xatarlarni noto‘g‘ri taqsimlash shartnoma shartlarini bajarish xarajatlarini oshirishi va bu o‘z navbatida taraflar o‘rtasida nizolar kelib chiqishi hamda ehtimoliy sud ishlariga olib kelishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining haq to‘lanishligi (haq evaziga) esa ommaviy sherikning loyihaga jalb qilingan xususiy sherikka sarflangan investitsiyalarini qoplab berish va shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda uning zararlarini qoplash majburiyatida namoyon bo‘ladi [22]. Investor esa turli shakllarda (davriy to‘lovlar, yakuniy iste’molchilardan haq olish va boshqalar) foyda olishga umid qiladi.

Aralashmaslik prinsipi investorning davlat-xususiy sheriklik shartnomasi amalga oshirilishi jarayonida ma’muriy, xo‘jalik va boshqaruv qarorlarini mustaqil qabul qilishini nazarda tutadi [23]. Bu yerda gap ommaviy sherik xususiy sherikning operativ-xo‘jalik faoliyatiga aralashish huquqiga ega emasligi haqida bormoqda, biroq u loyiha amalga oshirilish jarayoni va bajarilayotgan ishlar sifati ustidan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lib qoladi.

Shu tariqa, davlat-xususiy sheriklik loyihasi amalga oshirilishi jarayonida yuzaga keladigan sheriklik munosabatlari asosan fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega. Shu sababli, ularga fuqarolik huquqining umumiy prinsiplari va asoslari qo‘llaniladi. Shartnoma taraflari teng huquqli, o‘z huquqlaridan erkin foydalanadilar va qonun doirasida o‘z xulq-atvor modelini tanlaydilar. Ayrim mahalliy tadqiqotchilar ham shunday fikrda [24].

Ko‘rib chiqilayotgan shartnomaviy konstruksiyaning uchinchi muhim belgisi — uning predmeti, ya’ni taraflarning aniq belgilangan harakatlarida (asosiy majburiyatlarida) ifodalanadi. Oddiy hollarda xususiy sherik obyektni qurish, rekonstruksiya qilish, shuningdek, uni ekspluatatsiya qilish va (yoki) texnik xizmat ko‘rsatish majburiyatini oladi. Bundan tashqari, u ushbu ishlar uchun sarf-xarajatlarni qisman yoki to‘liq moliyalashtiradi. Ommaviy sherik esa o‘z navbatida xususiy sherikka shartnoma obyektini egalik va foydalanish uchun topshiradi, ba’zi hollarda esa uni moliyalashtirishni va shartnoma bajarilgandan so‘ng unga oid huquqlarni berishni ta’minlaydi.

Bu majburiyatlar kombinatsiyasi muayyan loyihaning ehtiyojlariga qarab turlicha bo‘ladi. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim o‘z ichiga turli fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalarni qamrab oladi. Shu bois, unga fuqarolik qonunchiligi normalari, xususan, ijara, ko‘chmas mulkni oldi-sotdi, qurilish pudrat shartnomalari, haq evaziga xizmat ko‘rsatish, investitsiyaviy shartnoma va boshqa bitimlar to‘g‘risidagi qoidalar tatbiq etiladi.

Shu bilan birga, taraflar o‘rtasida yuzaga keladigan investitsiyaviy munosabatlar alohida o‘rin tutadi, chunki loyihani moliyalashtirish masalasi asosiy hisoblanadi. “Rossiya

Federatsiyasida investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, investitsiya faoliyati kapital qo‘yilmalar shaklida amalga oshiriladigan investitsiyalarni kiritish va foyda olish yoki boshqa foydali natijaga erishish maqsadida amaliy harakatlarni bajarishdan iboratdir. Kapital qo‘yilmalar obyektlari esa yangi yaratilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan, davlat va munitsipal mulk hisoblanishi mumkin bo‘lgan turli mol-mulk turlaridir. Qonunda investitsiya faoliyati subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar Fuqarolik kodeksiga muvofiq shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Natija. Shu tariqa, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma asosan fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi va uning xususiy-huquqiy tabiati quyidagilar bilan tasdiqlanadi:

Taraflarning erk bildirishi, eng avvalo, ularning shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan (investor uchun — foyda olish, ommaviy sherik uchun — obyektga nisbatan mulkdor huquqlarini amalga oshirish).

Sheriklik munosabatlari prinsiplari fuqarolik huquqining asosiy qoidalaridan kelib chiqadi (dispozitivlik, taraflarning tengligi, shartnoma erkinligi va boshqalar).

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining tarkibiy qismi asosan fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalardan iborat (pudrat, ijara, oldi-sotdi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish, investitsiya va boshqalar).

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasining predmeti mahalla fuqarolar yig‘ini binolarini qurish kontekstida alohida aniqlik talab qiladi. Shartnoma predmeti sifatida nafaqat binolarning qurilishi, balki uning funksional maqsadi, texnik parametrlari, foydalanish tartibi va kelajakdagi ekspluatatsiya shartlari ham detal belgilanishi kerak. Mahalla fuqarolar yig‘ini binosi ko‘p funksional obyekt hisoblanib, unda ma’muriy ishlar, fuqarolarni qabul qilish, madaniy tadbirlar o‘tkazish, ta’limiy mashg‘ulotlar va boshqa ijtimoiy faoliyat turlari amalga oshiriladi. Shartnomada ushbu barcha funksiyalarning arxitektura va texnik talablari, har bir funksional zona uchun zarur bo‘lgan texnik shart-sharoitlar va kommunikatsiya tizimlari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Davlat-xususiy sheriklik shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari mahalla fuqarolar yig‘ini binolarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Davlat sherigi sifatida ishtirok etuvchi uyushma mahalla fuqarolar yig‘ini nomidan loyihaning umumiy strategik yo‘nalishini belgilash, zarur ruxsatnoma va kelishuvlarni olish, loyihaning davlat standartlari va normalariga muvofiqligini nazorat qilish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Shuningdek, uyushma mahalla fuqarolar yig‘inining loyihadagi manfaatlarini himoya qilish, loyihaning mahalliy ehtiyojlarga mosligini ta’minlash va aholi bilan muvofiqlashtirish jarayonlarini tashkil etish vazifalarini bajarishi kerak. G.I. Mirhalilova davlat-xususiy sheriklik sohasini huquqiy tartibga solishini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surgan: “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonuniga davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida xususiy sherikka ko‘rsatiladigan davlat tomonidan amalga oshiriladigan qo‘llab-quvvatlash choralarining to‘liq ro‘yxati; davlat organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vazifalari va funksiyalari doirasida mavjud bo‘lgan obyektlarga nisbatan davlat sherigining xususiy sherik oldidagi uzoq muddatli majburiyatlari; joriy va/yoki kelgusi budjet davrlarida to‘lovlarni amalga oshirish [25]. G.I. Mirhalilova davlat organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari doirasidagi obyektlarga nisbatan xususiy sherik oldida uzoq muddatli

majburiyatlarni aniq belgilashni taklif etadi. Bu taklif davlat-xususiy sheriklikning asosiy mohiyati — uzoq muddatli investitsion hamkorlik tabiatiga mos keladi. Biroq bu yerda konstitutsion-huquqiy va budjet-huquqiy cheklovlar inobatga olinishi shart. Davlat organlarining uzoq muddatli majburiyatlari: parlamentning budjet vakolatlarini cheklab qo‘ymasligi; kelgusi budjet davrlaridagi diskretsion siyosat yuritish imkoniyatini yo‘qqa chiqarmasligi; davlatning suveren moliyaviy vakolatlariga zid bo‘lmasligi lozim. Shu ma’noda ilmiy polemika nuqtai nazaridan, davlat sherigining majburiyatlarini “mutlaq va shartsiz” shaklda belgilash emas, balki shartli-moliyaviy kafolatlar modeli asosida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Masalan, to‘lov majburiyatlari budjet to‘g‘risidagi qonun bilan tasdiqlanishi sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xususiy sherikning majburiyatlari mahalla fuqarolar yig‘ini binolarining o‘ziga xos talablarini qondirish yo‘nalishida shakllantirilishi lozim. Xususiy sherik loyihalashtirish bosqichida mahalla fuqarolar yig‘inining funksional ehtiyojlarini batafsil o‘rganishi, mahalliy aholi va mahalla fuqarolar yig‘ini rahbariyati bilan keng maslahatlashuvlar o‘tkazishi, arxitektura yechimlarini mahalliy madaniy an’analar va iqlim sharoitlariga moslashtirishi majburiy. Qurilish bosqichida sifat standartlariga qat’iy rioya qilish, belgilangan muddatlarni saqlash, ekologik va texnik xavfsizlik talablarini bajarish xususiy sherikning asosiy majburiyatlari hisoblanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan keng qamrovli tahlil asosida shu xulosaga kelish mumkinki, mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarini qayta qurish yoki rekonstruksiya qilish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik shartnomasi o‘zining gibrid tabiatiga qaramasdan, asosan fuqarolik-huquqiy institut sifatida qaralishi lozim. Bunday xulosaning asosiy dalillari quyidagilar: taraflarning erk bildirishi eng avvalo ularning shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilganligi (investor uchun foyda olish, ommaviy sherik uchun obyektga nisbatan mulkdor huquqlarini amalga oshirish); sheriklik munosabatlari prinsiplarining fuqarolik huquqining asosiy qoidalaridan kelib chiqqanligi (dispozitivlik, taraflarning tengligi, shartnoma erkinligi va boshqalar); davlat-xususiy sheriklik shartnomasi tarkibiy qismining asosan fuqarolik-huquqiy shartnomaviy konstruksiyalardan iborat bo‘lganligi (pudrat, ijara, oldi-sotdi, haq evaziga xizmat ko‘rsatish, investitsiya va boshqalar).

Ushbu nazariy xulosa amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki fuqarolik-huquqiy tartibga solish mahalla fuqarolar yig‘inlari binolarini qayta qurish loyihalarida yuqori samaradorlik, moslashuvchanlik va taraflar manfaatlarining muvozanatli himoyasini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mazkur shartnomaviy konstruksiyaning ijtimoiy ahamiyati va ommaviy xarakteri shartnomaviy munosabatlarning maqsadini belgilagan bo‘lsa-da, uning huquqiy tabiatini prinsipial ravishda o‘zgartirmaydi va fuqarolik qonunchiligi doirasida samarali tartibga solinishini ta’minlaydi.

Mazkur tahlillar va xulosalardan kelib chiqib mahalla uyushmalarining davlat xususiy sheriklik bitimidagi ishtirokini aniqlashtirish uchun qonunchilikka o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://ferghana.uz/site/view/news/
2. Белицкая А.В. Государственно-частное партнерство: понятие, содержание, правовое регулирование: автореф. дис. … канд. юрид. наук. М., 2010. С 17.

3. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный)
4. Публично-частное партнерство в России и зарубежных странах: правовые аспекты / С.А. Белов, Е.В. Гриценко, Д.А. Жмулина и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, Н.А. Шевелевой. – М.: Инфотропик Медиа, 2015 С.13
5. Шорохов С.В. Концессионное соглашение как форма публичного управления: сравнительно-правовое исследование : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2009.С 11-12.
6. Сосна С.А. Концессионные соглашения. Теория и практика. М., 2002. С 46-48.
7. Сазонов В.Е. Государственно-частное партнерство в России и за рубежом: административно-правовое исследование : автореф. дис. … канд. юрид. наук. М., 2013. С 13.
8. Самоловов Д.А. Соглашение о государственно-частном партнерстве вопросы правовой квалификации // Актуальные проблемы российского права. 2015. № 4. С. 142.
9. Винницкий А.В. Публичная собственность. М. : Статут, 2013 С.248.
10. Публично-частное партнерство в России и зарубежных странах: правовые аспекты / С.А. Белов, Е.В. Гриценко, Д.А. Жмулина и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, Н.А. Шевелевой. – М.: Инфотропик Медиа, 2015. С.20.
11. Попондопуло В.Ф. Правовой режим предпринимательства. СПб., 1994. С.167.
12. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарова. М. : Инфотропик Медиа, 2016.
13. Самоловов Д.А. Соглашение о государственно-частном партнерстве как гражданскоправовой договор // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2015. № 8. С. 22.
14. Горшунов Д.Н. Интерес в частном праве: вопросы теории. Казань : Казанский государственный университет им. В.И. Ульянов-Ленина, 2005. С 73.
15. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарова. М. : Инфотропик Медиа, 2016.
16. Комментарий к Федеральному закону “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (научно-практический, постатейный) / Е.В. Гриценко, Е.А. Дмитрикова, А.К. Долгов и др.; под ред. В.Ф. Попондопуло, В.В. Килинкарова. М. : Инфотропик Медиа, 2016. С 13-14.
17. Толстой Ю.К. Принципы гражданского права // Правоведение. 1992. № 2. С. 49-53.
18. Батрова Т.А., Антропцева И.О., Воробьев Н.И., Шапкина Е.А., Пушкин А.В., Артемьев Е.В., Рузанов И.В., Канделаки Г.Г., Богатырева Н.В., Котухов С.А. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муници пально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации” (постатейный). СПС Консультант Плюс. 2016. С17.
19. Комиссарова Е.Г. Формально-логические аспекты понятия “правовая природа” // Вест. Пермского ун-та. Сер. “Юрид. науки”. 2012. № 2. С. 13.

20. Белицкая А.В. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации”. М. : Юстицинформ, 2016. С 23.
21. Белицкая А.В. Комментарий к Федеральному закону от 13 июля 2015 г. № 224-ФЗ “О государственно-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации”. М. : Юстицинформ, 2016. С. 26.
22. Аблаев И.М. Основные принципы государственно-частного партнерства в условиях модернизации российской экономики // Экономические науки, 2013. № 2 (99). С. 17.
23. Абдрахманов А.И. Государственно-частное партнерство как актуальный механизм посткризисного развития России // Проблемный анализ и государственно-управленческое проектирование. 2011. Т.1. № 3. С. 32.
24. Белицкая А.В. Правовое регулирование государственно-частного партнерства. М. : Статут, 2012. С 60-61.
25. Mirxalilova G.I. Davlat-xususiy sheriklikda xususiy sherik va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish muammolari. «Ekonomika i sotsium» №5(108)-2 2023 B.923.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

STATE LEGAL POLICY AND RULEMAKING: INTERRELATIONSHIP AND FEATURES OF DEVELOPMENT

Burkhanova Shiyrin Jamshitovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
Karakalpak State University

Abstract. The article examines rulemaking as a form of state legal policy and highlights its significance for the country's development. It emphasizes that the primary goals of state policy are to ensure law and order, protect human rights and freedoms, and strengthen the principle of the rule of law. The structure and main objectives of legal policy are analyzed, with particular focus on the specific features of rulemaking activities. Rulemaking is described as a key mechanism through which government bodies and civil society institutions participate in the formation, adoption, and implementation of normative legal acts. In addition, the article outlines the main stages of the development of legal policy, as well as the current directions and practical aspects of its implementation in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: rulemaking, norm, lawmaking, legal statehood, rule of law, government bodies, protection of rights.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ

Бурханова Шийрин Жамшитовна
Доктор философии по юридическим наукам (PhD)
Докторант Каракалпакского Государственного
Университета, Кафедра «Права человека,
государственное право и управление»
Email: shirin_burkhanova@mail.ru

Аннотация. В статье анализируется нормотворчество как одна из форм государственной правовой политики и раскрывается его значение для развития страны. Подчеркивается, что основной целью государственной политики выступают обеспечение правопорядка, защита прав и свобод человека, а также укрепление принципа верховенства закона. Рассматриваются структура и ключевые задачи правовой политики, с особым акцентом на специфике нормотворческой деятельности. Нормотворчество характеризуется как важнейший механизм, посредством которого государственные органы и институты гражданского общества участвуют в формировании, принятии и реализации нормативных правовых актов. Кроме того, в работе освещаются основные этапы становления и развития правовой политики, а также современные направления и практические аспекты её реализации в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: нормотворчество, норма, законотворчество, правовая государственность, верховенство права, государственные органы, защита прав.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N34

Введение. Как известно, одной из важнейших целей и задач, стоящих перед каждым развивающимся государством, является определение моделей и методов реализации государственной политики на практике. Решение этой задачи на первый взгляд может показаться простым и легким, однако опыт зарубежных стран и реальная

жизнь подтверждают обратное. Сегодня в жизни нашей страны происходят глубинные позитивные социально-политические изменения: новый этап защиты прав и свобод человека, повышение правовой сознательности и культуры граждан, осознание и активное отстаивание своих прав и свобод. Свобода слова, народовластие, организация работы государственных органов с населением на основе совершенно новых принципов, а также широкое обеспечение открытости и прозрачности в их деятельности вновь подтверждают, что проводимая в стране правовая политика вышла на новый уровень.

В этом контексте вопросы о том, каким образом осуществлять развитие, в последние годы стали особенно актуальными. С одной стороны, это существенно усилило внимание государства к правовой политике.

Анализ литературы и методология. Что касается вопроса о том, что такое правовая политика, то, избегая научно-сложного определения, целесообразно сосредоточиться на её реальных аспектах, значимых для граждан. Следует отметить, что слово «политика» имеет долгую историю и в широком употреблении начинает использоваться главным образом благодаря греческому философу Аристотелю. Учёный рассматривает политику как высшую и наиболее важную форму общения — политический диалог. [1; 297с.]

Действительно, у каждого человека будь то специалист, учёный, руководитель предприятия, глава государственного органа, лидер политической партии или государственный руководитель — есть своя политика, то есть свой стиль управления и формы индивидуального воздействия.

Проще говоря, если под политикой понимать искусство управления социальными процессами, то правовую политику можно определить как стратегию деятельности государства в сфере правового регулирования. [2.] Аналогично, её можно рассматривать как тактический подход и алгоритм государственной политики и правового развития. Правовая политика охватывает все направления государственной политики, поскольку любые политические реформы осуществляются через Конституцию, законы и законодательные акты, подписываемые Президентом.

Поэтому внимание, уделяемое этой проблеме, прямо влияет на развитие других направлений.

Обсуждение. Цель правовой политики заключается в создании эффективного механизма правового регулирования, рациональном использовании законных средств для полной защиты прав и свобод человека и его законных интересов, укреплении верховенства закона и правопорядка, формировании правового государства, а также повышении правового сознания и правовой культуры населения.

Согласно юридической литературе, структура правовой политики включает два основных элемента. Первый связан с непосредственной политикой в правовой сфере, созданием правил и совершенствованием механизма правового регулирования; второй реализуется через практическое действие права, выражающееся в правоприменительной деятельности и обеспечении правовой защиты социальных отношений. [3; 49-с.].

Присоединившись к этому подходу, мы подчёркиваем, что правовая политика государства, прежде всего, реализуется через нормотворчество. Правовые нормы, создаваемые посредством нормотворчества, позволяют оценить целесообразность

стратегии государства в сфере правового регулирования, а также определить, насколько она соответствует или не соответствует общепризнанным международным принципам и нормам, и дают возможность оценить теорию и практику строительства правового государства.

Продолжая исследования по данной теме, мы считаем необходимым осветить основные характеристики формы нормотворчества. Под нормотворчеством следует понимать конечный этап законотворчества, то есть деятельность уполномоченных субъектов по принятию, изменению или отмене правовых норм с целью регулирования общественных отношений и совершенствования существующей правовой системы.

В научной юридической литературе можно встретить несколько определений понятия правовой политики. В частности, профессор Х.Т. Одилқориев рассматривает политику государства в сфере обеспечения функционирования правовой системы и организации правовой жизни как правовую политику. Правовая политика, по его мнению, — это правовая идеология государства, его подходы к правовой жизни, реализуемые действия и меры, а также применяемые руководящие идеи (принципы). Кроме того, правовая политика проявляется в системе ценностей и приоритетов юридической деятельности, в событиях правовой жизни, в содержании законов и других нормативно-правовых актов, а также в официальной правовой идеологии. [4; 5-8-с.]

Форма нормотворчества правовой политики является сложным и неоднозначным явлением. Ключом к её эффективности является использование инструментов правовой политики. При этом самостоятельность творческой формы правовой политики определяется наличием признаков, отличающих её от других форм правовой политики (правоохранительной деятельности и реализации законов).

Форма нормотворчества правовой политики — это научно обоснованная, последовательная и системная деятельность государственных органов и субъектов гражданского общества по формированию и реализации стратегий и тактик развития общества.

В теоретическом понимании сущность формы нормотворчества правовой политики проявляется в следующих характеристиках:

а) она охватывает несколько субъектов;

б) имеет массовый (публичный) характер;

в) отличается многоуровневым характером, так как реализуется на различных уровнях государственных и общественных организаций;

г) стремится создать взаимосвязанную, непрерывную и целостную законодательную систему;

д) основывается на обязательном использовании научного потенциала при принятии решений о нормотворчестве;

е) применяет инструменты прогнозирования и планирования, обеспечивающие её последовательность и предсказуемость;

ё) носит системный характер.

После краткого научного рассмотрения правовой политики целесообразно также обсудить этапы её развития. Этот процесс целесообразно условно разделить на определённые этапы. В период независимости развитие правовой политики можно условно разделить на четыре этапа.

Первый этап (1989–1995 гг.) — отказ от системы одно-партийного правления, создание основ нового государственного и политического строя, официальное закрепление принципа разделения власти на три ветви.

Второй этап (1996–1999 гг.) — формирование впервые системы политического плюрализма и многопартийности. Были определены основные направления внешней политики, урегулированы вопросы вынесения на общенародное обсуждение законопроектов в сферах образования, таможни и налогов.

Третий этап (2000–2015 гг.) — проведение парламентских и президентских выборов. Основное внимание уделялось сбалансированному и устойчивому функционированию административно-правовых и демократических институтов. В этот период развитие правовой политики можно рассматривать как переходный этап.

Четвёртый этап (с 2016 г. по настоящее время) — усилия по дальнейшему развитию страны реализуются на основе Стратегии действий (2017–2021 гг.), Стратегии развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 гг., а также стратегии «Узбекистан – 2030». В частности, сегодня осуществляется государственная политика по укреплению ценности человека и дальнейшему развитию свободного гражданского общества с целью построения ориентированного на народ государства.

Именно в рамках четвёртого этапа актуальность правовой политики достигла апогея, то есть своего наивысшего уровня. В частности, Указом Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции в реализации государственной правовой политики» были определены приоритетные направления работы органов и учреждений юстиции. [5]

Указом Президента Республики Узбекистан от 8 августа 2018 года № ПФ-5505 была утверждена «Концепция совершенствования деятельности по нормотворчеству».[6] В концепции определены приоритетные направления, включая повышение качества разработки и принятия нормативно-правовых актов, совершенствование мониторинга их исполнения, внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в процесс нормотворчества, применение элементов модели «умного регулирования» в нормотворчестве, а также совершенствование институциональных основ деятельности в сфере нормотворчества. [7]

Декретом Президента от 29 декабря 2022 года № ПҚ-462 был создан Институт законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан как государственное экспертно-научное учреждение, подотчётное Президенту. Институту были поставлены значимые задачи, включая научное и информационно-аналитическое обеспечение деятельности Президента Республики Узбекистан по формированию правовой политики.

Следует особо отметить, что именно на этом этапе правовая политика с точки зрения общественных интересов обеспечила реализацию целого ряда важных факторов.

Во-первых, правовая политика создаёт правовое пространство (правовой мир), в котором гражданин защищён от любых незаконных вмешательств и действий, произвола должностных лиц и других граждан, а также от насилия. Все споры и

конфликты разрешаются исключительно законными методами и правовыми механизмами; использование способов, не предусмотренных законом, исключено.

Во-вторых, правовая политика является важным инструментом для преобразования общества. Например, определяются законы, необходимые для развития общества, инициируются их принятие либо вносятся предложения по совершенствованию уже действующих норм.

В-третьих, она обеспечивает безболезненное принятие и применение законов в обществе. Например, если закон, регулирующий определённые общественные отношения, будет принят поспешно, у отдельных групп населения могут возникнуть вопросы и недопонимание. Иными словами, предотвращается принятие некоторых законов до того, как общество будет к этому готово. Законодательные акты приводятся в соответствие с жизнью общества и его потребностями.

В-четвёртых, правовая политика реализуется правовым государством, включая Республику Узбекистан. Законы принимаются исключительно в интересах народа и обеспечивают практическое применение принципа верховенства права.

В-пятых, участие граждан в решении наиболее значимых вопросов общественной и государственной жизни обеспечивается как напрямую, так и опосредованно. Несмотря на то что перечень субъектов, обладающих правом законодательной инициативы (внесения законопроектов в Олий Мажлис, включая Кабинет Министров, Верховный суд, Генеральную прокуратуру и др.), строго закреплён в Конституции, в формировании правовой политики активно участвуют институты гражданского общества (политические партии, движения, общественные объединения и т. д.) и сами граждане (учёные, эксперты в различных областях, простые граждане).

Результаты. Таким образом, правовая политика является важнейшей составной частью общегосударственной политики и формируется и реализуется главой государства совместно с законодательной, исполнительной и судебной властью.

В этом процессе любая политика должна проводиться на правовой основе, то есть её законность должна быть обеспечена. Применение политики без законной основы делает её слабой и неэффективной.

Поэтому наличие правовой политики имеет крайне важное значение для развития государства и общества.

Литература/ Adabiyotlar/References:

1. Аристотель. Политика. – Москва: Издательство Юрайт, 2025. –297 с. Текст: электронный // URL: https://urait.ru/bcode/564099.
2. Нигматов К. “Ҳуқуқий сиёсат жамиятга нима беради?” // https://yuz.uz/oz/news/huquqiy-siyosat-jamiyatga-nima-beradi.
3. Исаков Н.В. Правовая политика современной России: проблемы теории практики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. Ростов-на-Дону. 2004. С. 49 // https://www.dissercat.com/content/pravovaya-politika-sovremennoi-rossii-problemy-teorii-i-praktiki.
4. Одилқориев Х.Т. Давлат ҳокимиятининг қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий сиёсати // Журнал: Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили ♦ Uzbek law review ♦ Обзор законодательства Узбекистана. 2015, 1-сон, 5-8-с.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентимизнинг 2018 йил 13 апрелдаги “Давлат ҳуқуқий сиёсатини амалга оширишда адлия органлари ва муассасалари

фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5415-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.04.2018 й., 06/18/5415/1072-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5505-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/3858817#3861945.
7. “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқийсиёсат институтининг фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-462сонли қарори // https://lex.uz/ru/docs/6331771.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

LEGAL POLICY IN ENSURING GENDER EQUALITY: ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Akayeva Marapat Abduhalikovna
Candidate of Legal Sciences, Associate Professor
Namangan State University
E-mail: m.akaeva@mail.ru

Abstract. This article analyzes the legal policy aimed at ensuring gender equality in Uzbekistan and examines the stages of its formation and development. The study explores national legislation, constitutional provisions, and state programs related to gender equality. Special attention is given to the challenges in implementing legal policy and identifying priority areas for its improvement. Based on a comparative analysis with international legal standards, the article presents scholarly conclusions and practical recommendations.

Keywords: gender equality, legal policy, national legislation, constitutional framework, Uzbekistan's experience.

GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI

Akayeva Marapat Abduhalikovna
Yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosat va uning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tengligini ta'minlashga doir milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy normalar va davlat dasturlari huquqiy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, gender tengligini ta'minlashda huquqiy siyosatni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Maqola O'zbekiston tajribasini xalqaro huquqiy standartlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, huquqiy siyosat, milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy asoslar, O'zbekiston tajribasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N35

Kirish. Bugungi kunda gender tengligini ta'minlash masalasi jamiyatni demokratik rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy siyosat izchil takomillashtirilib, ushbu sohada muhim normativ-huquqiy hujjatlar, institutsional mexanizmlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Gender tengligini mustahkamlash konstitutsiyaviy tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda hamda xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Biroq huquqiy normalarning mavjudligi ularning amaliy ijrosini

to‘liq kafolatlamasligi, huquqni qo‘llash amaliyotida ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatning mazmuni, uni amalga oshirish mexanizmlari va samaradorligini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada O‘zbekiston tajribasi misolida gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish istiqbollari yoritiladi.

Xususan, “keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi”[1]. Ushbu yondashuv jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, ayollarning jamiyat hayotidagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash hamda ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatni o‘rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot huquq nazariyasi hamda davlat-huquqiy ta’limotlarning asosiy tamoyillariga tayangan holda olib borildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik normalari xalqaro huquqiy standartlar bilan solishtirildi.

Formal-yuridik metod huquq normalarining mazmuni, tuzilishi va huquqiy mohiyatini aniqlashda qo‘llanildi. Tizimli tahlil esa gender tengligini ta’minlashga doir huquqiy siyosatning institutsional mexanizmlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, huquqiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Gender tengligi masalasi yuzasidan ayrim olimlar ushbu jarayonning ijtimoiy-madaniy oqibatlariga alohida e’tibor qaratadilar. Ularning ta’kidlashicha, jamiyatda gender tengligini ta’minlash jarayoni milliy va diniy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayol va erkak fe’l-atvorida muayyan salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur jarayon ijtimoiy identifikatsiyaga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Xususan, ayrim tadqiqotchilar “milliy-diniy qadriyatlarni saqlab qolish, ayol va erkakning fe’l-atvorida jiddiy salbiy o‘zgarishlarga olib kelishi bilan ijtimoiy identifikatsiyaga jiddiy ehtiyoj tug‘diradi, degan fikrni tasdiqlagan”[2].

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning normativ-huquqiy asoslari hamda ularning amaliy ijrosi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilikda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha konstitutsiyaviy tamoyillar, maxsus qonunlar va davlat dasturlari tizimli ravishda shakllantirilgan bo‘lib, ular xalqaro huquqiy standartlar bilan umumiy jihatdan uyg‘unlashgan.

Shu bilan birga, huquqiy siyosatning amaliyotda qo‘llanilishi bir xil darajada samarali emasligi aniqlandi. Xususan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki so‘nggi yillarda oshib borayotgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar

jamiyatdagi real demografik va ijtimoiy salohiyatni to‘liq aks ettirmaydi. Ayrim sohalarda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar institutsional va tashkiliy to‘siqlar sababli yetarli darajada ishlamayotgani kuzatildi.

Tahlil davomida gender tengligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida ijtimoiy stereotiplar, huquqiy ong va madaniyat darajasining yetarli emasligi hamda huquqni qo‘llash amaliyotida samarali monitoring mexanizmlarining cheklanganligi aniqlanib, ular huquqiy siyosat samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish bilan bir qatorda, uning ijrosini ta’minlovchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarur. Ushbu yondashuv gender tengligini ta’minlashning barqaror va samarali huquqiy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Gender tengligini ta’minlash va ushbu jarayonda huquqiy siyosatning o‘rni masalalari xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda gender tengligi, avvalo, inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, uning huquqiy asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan fundamental hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, *Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya* (CEDAW) gender tengligini ta’minlashning universal huquqiy mexanizmlarini belgilab bergan [3].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatning samaradorligi, normativ-huquqiy kafolatlar va ularning amaliy ijrosi o‘rtasidagi tafovut masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlarida huquqiy normalar samaradorligi institutsional mexanizmlar va monitoring tizimlari bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi [4], [5].

O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash masalalari milliy qonunchilik darajasida mustahkam huquqiy asosga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosiy konstitutsiyaviy tamoyil sifatida belgilangan bo‘lib, mazkur norma gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatning poydevorini tashkil etadi [6]. Mazkur tamoyilni rivojlantirish maqsadida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda gender tengligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va huquqiy mexanizmlari belgilab berilgan [7].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida gender siyosatini amalga oshirishga qaratilgan Prezident farmonlari va davlat dasturlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatning izchil va tizimli ravishda olib borilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosatning samaradorligi, uni amalga oshirish mexanizmlari va huquqni qo‘llash amaliyoti yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mazkur holat O‘zbekiston tajribasini ilmiy-huquqiy jihatdan chuqur va tizimli tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan Barqaror rivojlanish bo‘yicha sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyaga muvofiq,

shuningdek, BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Global kun tartibi – Barqaror rivojlanish maqsadlarini (keyingi o‘rinlarda BRM) izchil amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 2018-yil 20-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi 16 ta milliy maqsad va ular bilan bog‘liq 127 ta vazifa tasdiqlandi.

Mazkur maqsadlar orasida beshinchi maqsad – gender tenglikka erishish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsad doirasida 2030-yilga borib barcha ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlarning to‘liq va samarali ishtirokini ta’minlash, shuningdek, ularga yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qabul qilinadigan dasturlarga gender tengligi tamoyillarini to‘liq integratsiya qilish belgilangan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun to‘qqizta vazifa ishlab chiqilgan bo‘lib, ular qatoriga ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga, jumladan bilvosita kamsitishlarga barham berish tamoyillarini qonunchilikka joriy etish va huquqni qo‘llash amaliyotiga samarali tatbiq etish; xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini, jumladan odam savdosi, jinsiy va boshqa ekspluatatsiya turlarini bartaraf etish; erta va majburiy nikohlarga yo‘l qo‘ymaslik; haq to‘lanmaydigan parvarish va uy xo‘jaligi mehnatini tan olish va qadrlash; xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida to‘liq ishtirokini ta’minlash; reproduktiv salomatlik sohasida keng qamrovli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish orqali ayollarning imkoniyatlarini oshirish hamda davlat dasturlarini ishlab chiqish jarayonlariga gender tenglik tamoyillarini to‘liq joriy etish kabi vazifalar kiradi.

2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ushbu hujjat asosida xotin-qizlarning ta’lim darajasi va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati izchil takomillashtirildi. Prezidentning 15 dan ortiq farmon va qarorlari, hukumat hujjatlari hamda vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan 20 dan ortiq chora-tadbirlar rejalari aynan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirildi. 2022-yil yanvar oyida esa “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, 2019-yil sentabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi gender tenglikni ta’minlashning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng nikoh yoshi belgilandi, ayollarning mehnat faoliyatiga oid ilgari mavjud bo‘lgan cheklovlar va gender-asimmetrik normalar bekor qilindi.

Aholining gender siyosatiga oid xabardorligini oshirish maqsadida keng qamrovli tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta’limning barcha bosqichlarida gender qonunchiligi va xalqaro standartlar o‘rgatilmoqda, an’anaviy stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan trening va seminarlar uchun maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek,

normativ-huquqiy hujjatlarning gender tenglik tamoyillariga muvofiqligini baholashga qaratilgan majburiy gender-huquqiy ekspertiza joriy etildi.

Prezident farmonlari va Hukumat hujjatlariga muvofiq, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, eskirgan qarash va urf-odatlarga qarshi kurashish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2020-yilda Malla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilib, keyinchalik u Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasiga aylantirildi. Hududlarda hokimlarning xotin-qizlar va oila masalalari bo‘yicha maslahatchilari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 9 255 ta mahallada ushbu yo‘nalish bo‘yicha mas’ul lavozimlar joriy etildi.

2021-yil may oyida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Strategiya doirasida saylov huquqlari, davlat xizmati, ta’lim, fan, sport, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, oilaviy munosabatlar va bolalar tarbiyasida tenglik tamoyillari mustahkamlandi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, COVID-19 davrida ham og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga manzilli yordam ko‘rsatildi. Jumladan, 2018–2021-yillarda 4 878 nafar ayolga uy-joy sotib olish uchun 112 milliard so‘mdan ortiq dastlabki to‘lovlar to‘lab berildi, 1 383 nafar nogironligi bo‘lgan ayol reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlandi, 150 nafar ayolga murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi. So‘nggi 4 yilda 620,2 ming nafardan ortiq xotin-qiz ish bilan ta’minlandi, 106 ming nafari tadbirkorlik faoliyatiga jalb etildi. 2021-yilda 6,5 ming nafar ayolga 122 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar izchil va tizimli xarakter kasb etib, xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini yuksaltirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni asosida xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan kompleks institutsional tizim shakllantirildi. Ushbu tizim doirasida mas’ul vakolatli organlar aniq belgilab berilib, ularning o‘zaro hamkorligi mustahkamlandi.

Ichki ishlar organlari mazkur tizimda markaziy bo‘g‘in hisoblanadi. Ularning faoliyati tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, zo‘ravonlik sodir etgan yoki bunga moyil shaxslar bilan muntazam profilaktik ishlar olib borishga qaratilgan.

2019-yilda Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida Xotin-qizlar muammolari bilan ishlash boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu bo‘linma og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan.

2020-yilda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 206^1-modda kiritilib, himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilandi. 2021-yilda ushbu modda bo‘yicha jarimalarni bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha oshirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

2021-yil 19-maydagi Prezident qaroriga muvofiq Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha Respublika markazi hamda uning 28 ta hududiy bo‘linmasi tashkil etildi.

2-jadval.

Reabilitatsiya markazlarining asosiy vazifalari.

Yo‘nalish	Mazmuni
Tibbiy yordam	Shoshilinch va reabilitatsion xizmatlar
Psixologik yordam	Stress, travma va suitsid profilaktikasi
Huquqiy yordam	Maslahat va himoya
Ijtimoiy yordam	Moslashuv va bandlik
Tadqiqot	Zo‘ravonlik sabablarini tahlil qilish
Targ‘ibot	Huquqiy madaniyatni oshirish

2021-yilda Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tomonidan 14 ta tematik tadbir o‘tkazildi. Shuningdek, 1146 qisqa raqamli Call-center tashkil etilib, 2021-yilda 11 337 ta murojaat qabul qilindi.

2022-yil yanvaridan “1259” ishonch telefoni ishga tushirilib, u orqali kecha-kunduz yuridik va psixologik yordam ko‘rsatilmoqda.

Yaratilgan institutsional tizim, huquqiy mexanizmlar, reabilitatsiya infratuzilmasi va tezkor aloqa vositalari xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning kompleks, barqaror va samarali modelini shakllantirdi. Mazkur yondashuv jamiyatda gender zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish va xotin-qizlarning ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

So‘nggi bir necha yil davomida O‘zbekistonda gender tengsizligiga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning dastlabki asoslari 1990-yillarning boshlaridayoq shakllana boshlagan bo‘lib, keyinchalik konstitutsiyaviy va qonunchilik normalari orqali mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida gender tenglikning asosiy tamoyillari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda xalqaro huquq normalari bilan uyg‘unlashgan holda erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlangan. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan bo‘lsa, 46-moddada ayollar va erkaklarning teng huquqliligi alohida qayd etilgan.

Mazkur konstitutsiyaviy tamoyillar keyinchalik milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilindi. Xususan, 1995-yilda O‘zbekiston BMTning “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga qo‘shilib, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ayollar va erkaklar huquqlarining tengligini ta’minlash bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga oldi. Shuningdek, mamlakat ayollar huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda milliy qonunchilik xalqaro konvensiya va paktlarda belgilangan standartlar bilan uyg‘unlashtirildi.

Davlat tomonidan gender tenglikni ta’minlash maqsadida institutsional mexanizmlar izchil ravishda shakllantirildi. Hukumat va mahalliy darajada muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar tashkil etilib, ular tarkibiga barcha darajadagi vakolatli subyektlar jalb qilindi. Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlari bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakat va mintaqaviy darajada maslahat va vakillik organlarida faol ishtirok etmoqda. Davlat ushbu jarayonga ilmiy doiralar va ekspertlarni ham keng jalb etgan holda, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan muammolarni hal etish bo‘yicha strategiyalar va milliy harakat rejalarini ishlab chiqmoqda. Jumladan, 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi

ishlab chiqilib, u Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jinoiy va jinoyat-protsessual qonunchilikda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Amaldagi qonunchilikda oila ichidagi zo‘ravonlik alohida jinoyat tarkibi sifatida to‘liq mustahkamlanmagan bo‘lib, ko‘plab holatlarda maishiy zo‘ravonlik ishlari jabrlanuvchining shikoyati asosida, ya’ni xususiy ayblov tartibida ko‘rib chiqiladi. Natijada, isbotlash yuki asosan jabrlanuvchi zimmasiga tushadi. Huquqiy bilimlarning yetishmasligi, zo‘ravonlik holatlarini hujjatlashtirishdagi qiyinchiliklar va sud-tibbiy ekspertiza imkoniyatlarining cheklanganligi jabrlanuvchilarning huquqlarini samarali himoya qilishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan yarashuv instituti ayrim hollarda zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarning manfaatlariga zid natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim jinoyatlar bo‘yicha jabrlanuvchi bilan yarashganlik asosida aybdor shaxsni javobgarlikdan ozod qilish amaliyoti himoya mexanizmlarining samarasini pasaytiradi. Shu sababli, mazkur normalarni xalqaro standartlar va CEDAW qo‘mitasi tavsiyalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda qator muhim qonun hujjatlari qabul qilinib, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlash, odam savdosiga qarshi kurashish, oila va jamiyatda zo‘ravonlikning oldini olish, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy asoslar mustahkamlandi. Ushbu hujjatlar gender tenglikni ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamlar sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida gender tenglik Konstitutsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qizlar yashash joyi va sog‘lig‘i holatidan qat’i nazar, umumta’lim maktablarida bepul o‘rta ta’lim olish, shuningdek, 11 yillik ta’lim doirasida kasb-hunar ta’limi muassasalarida boshlang‘ich kasb-hunar ta’limini egallash huquqiga ega.

Shu bilan birga, statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim va oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar soni yil sayin ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning ulushi hali ham umumiy talaba va o‘quvchilar sonining yarmidan kamini tashkil etmoqda. Bu holat ta’lim sohasida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha institutsional va tashkiliy choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammoni yumshatish maqsadida 2020-yil 12-iyundagi “2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq, oliy o‘quv yurtlariga xotin-qizlarni qabul qilishda muhim imtiyozli mexanizm joriy etildi. Unga ko‘ra, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumiy davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘shimcha to‘rt foizlik davlat granti asosida qabul qilinadigan bo‘ldi. Bu o‘z navbatida avvalgi yillarda ayrim toifalar uchun mavjud bo‘lgan qo‘shimcha ball berish amaliyoti bilan taqqoslaganda, ta’limga kirishda gender tengsizligini bartaraf etishga xizmat qildi.

Ta’lim mazmunida gender tenglik tamoyillarini mustahkamlash maqsadida Respublika ta’lim markazi huzurida maxsus ekspert ishchi guruhi tashkil etilib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilayotgan darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini, jumladan, gender tenglik masalalari nuqtai nazaridan ekspertizadan o‘tkazish

tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani amalga oshirish doirasida “Yo‘l xaritasi”da ta’lim tizimining barcha bosqichlarida inson huquqlari, xususan, xotin-qizlar huquqlariga oid mavzularni o‘quv dasturlariga kiritish, “Xotin-qizlar huquqlari” fanlari va darsliklarini joriy etish nazarda tutilgan.

Gender tenglikka erishishda iqtisodiy tenglik hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu borada faqat qonunchilik darajasida teng huquq va imkoniyatlarni belgilash yetarli bo‘lmay, ayollarning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar ko‘pincha kam haq to‘lanadigan, huquqiy jihatdan himoyasi zaif bo‘lgan va norasmiy iqtisodiyotga mansub ish joylarida faoliyat yuritadi. Ta’limdagi tengsizlik esa ayollarning kasbiy malakasi va ko‘nikmalari past bo‘lishiga, natijada ularning daromadlari kamligi va iqtisodiy jihatdan boshqalarga qaram bo‘lib qolishiga olib keladi. Bu holat, o‘z navbatida, maishiy zo‘ravonlik xavfini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

So‘nggi o‘n yilliklarda bandlik sohasida gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan muayyan qonunchilik yutuqlariga erishilgan bo‘lsa-da, xotin-qizlar ishga joylashish, ish haqi miqdori va rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish imkoniyatlari borasida hanuz kamsitilish holatlariga duch kelmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, xotin-qizlar dunyo miqyosida bajarilayotgan ishlarning katta qismini amalga oshirsa-da, daromad va mulkka egalik ulushi sezilarli darajada pastligicha qolmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida so‘nggi yillarda qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnat huquqlarini mustahkamlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qonunchilikda ayollar va erkaklarning mulkka egalik qilishdagi teng huquqliligi kafolatlangan bo‘lsa-da, amaliyotda mavjud urf-odatlar va stereotiplar bu kafolatlarning to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Mehnat qonunchiligida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar, jumladan, ishga qabul qilish, teng ish uchun teng haq to‘lash, xizmat pog‘onalarida ko‘tarilish, qayta tayyorlash va malaka oshirish, mehnat shartnomasini bekor qilish masalalarida tenglik belgilangan. Shuningdek, bolali ayollar va erkaklar uchun ijtimoiy himoya choralari, homiladorlik va tug‘ish ta’tili kabi kafolatlar joriy etilgan. Biroq ushbu choralarning amaliyotdagi samaradorligini baholash uchun yetarli statistik va tahliliy ma’lumotlar mavjud emas.

Xulosa. Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy siyosat izchil shakllanib borayotganini va uning mustahkam normativ-huquqiy asosga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, gender tengligi Konstitutsiyaviy tamoyil sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda qabul qilingan maxsus qonunlar, Prezident farmonlari hamda davlat dasturlari huquqiy siyosatning tizimli xarakter kasb etishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari huquqiy normalarning mavjudligi gender tengligini to‘liq ta’minlash uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi. Huquqni qo‘llash amaliyotida ijtimoiy stereotiplar, institutsional to‘siqlar va huquqiy madaniyat darajasining yetarli emasligi huquqiy siyosat samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat

gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni amaliy jihatdan kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashda huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish normativ-huquqiy bazani rivojlantirish bilan bir qatorda, huquqni qo‘llash amaliyotini samarali tashkil etish, institutsional hamkorlikni mustahkamlash va jamiyatda gender tengligi madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishdagi kompleks va izchil chora-tadbirlar inson huquqlarini ta’minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.406. (456)
2. Burn S. M. Women Across Cultures: A Global Perspective (3rd ed.). – New York: Hill Education. 2011. –345 p.
3. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW), 1979.
4. Inglehart, R., Norris, P. *Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World*. Cambridge University Press, 2003.
5. World Bank. *Women, Business and the Law*. 2020. UNDP. *Gender Equality Strategy 2022–2025*. 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gender tengligini ta’minlashga oid farmon va qarorlari.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF WOMEN IN THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY

Chuboeva Ozodakhon Quvonbekovna
Acting Associate Professor,
Department of Criminal Procedural Law
Namangan State University
E-mail: o.chuboeva@mail.ru

Abstract. This article analyzes the role of women in the socio-political life of society and the legal foundations ensuring their active participation. The study examines national legislation, constitutional provisions, and international legal instruments that guarantee women's involvement in political and social processes. Particular attention is paid to legal mechanisms aimed at ensuring gender equality, existing challenges in their implementation, and possible ways of improvement. The article highlights the significance of legal regulation in enhancing women's socio-political activity.

Keywords: women, gender equality, socio-political life, legal foundations, constitutional guarantees.

XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna
Jinoyat protsessual huquqi kafedrasi v.b. dotsenti
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni hamda ularning faolligini ta’minlashning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kafolatlovchi milliy qonunchilik, konstitutsiyaviy normalar va xalqaro huquqiy hujjatlar o‘rganiladi. Shuningdek, gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar, ularni amalga oshirishdagi muammolar va takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqola xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda huquqning o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, gender tengligi, ijtimoiy-siyosiy hayot, huquqiy asoslar, konstitutsiyaviy kafolatlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N36

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, demokratik islohotlar va barqaror rivojlanish masalalari xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni va faolligi bilan bevosita bog‘liqdir. Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida hamda fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirok etishi ijtimoiy adolatni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish va gender tengligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikni qo‘llash amaliyotida mavjud muammolar, gender tengligini to‘liq ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan omillar chuqur ilmiy-huquqiy tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolada xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rnini belgilovchi huquqiy asoslar, milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rnini o‘rganishda huquqiy-ilmiy tahlilga asoslangan metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida huquq nazariyasi va davlat-huquqiy ta’limotlarning umumiy tamoyillariga tayangan holda, kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, formal-yuridik hamda tizimli tahlil metodlari qo‘llanildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlashga qaratilgan milliy qonunchilik normalari va xalqaro huquqiy hujjatlar o‘zaro solishtirildi. Tarixiy-huquqiy metod yordamida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, formal-yuridik metod qonun normalarining mazmuni va huquqiy mohiyatini aniqlashda qo‘llanildi, tizimli tahlil esa xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini ta’minlovchi huquqiy mexanizmlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslar va ularning amaliy ijrosi tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilikda xotin-qizlarning teng huquqliligini ta’minlashga doir muhim normalar belgilangan bo‘lib, ular konstitutsiyaviy tamoyillar hamda xalqaro huquqiy standartlarga mos keladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki yildan-yilga oshib borayotgan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar hali jamiyatdagi real ijtimoiy-siyosiy salohiyatga to‘liq mos kelmaydi. Ayrim holatlarda huquqiy kafolatlarning mavjudligi ularning samarali amalga oshirilishini to‘liq ta’minlamayotgani aniqlandi. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tahlil jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar – ijtimoiy stereotiplar, institutsional to‘siqlar va huquqiy madaniyat darajasi – muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu omillar gender tengligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning to‘liq ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlash nafaqat huquqiy normalarni takomillashtirish, balki ularni amalga oshirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini kuchaytirishni ham talab etadi. Shu asosda, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy choralarni kompleks tarzda rivojlantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlarning, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi va ishtirok darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, demokratik institutlarning mustahkamlanishi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishida ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga integratsiyalashuvi muhim sotsiologik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni nafaqat gender tengligi masalasi sifatida, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi sifatida ham tadqiq etilishi zarur.

Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rnini tahlil qilishda gender sotsiologiyasi, siyosiy sotsiologiya va ijtimoiy stratifikatsiya nazariyalari muhim

metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot yo‘nalishi ayollarning ijtimoiy tenglikka erishish jarayonlari, qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, siyosiy vakilligi hamda ijtimoiy faolligining jamiyat rivojiga ta’sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu ma’noda, xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rnini sotsiologik jihatdan o‘rganish nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, davlat siyosatini takomillashtirish, gender tengligini ta’minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har qanday davlat boshqaruvi muayyan qonun-qoidalarga asoslanadi. Ammo barcha zamonlarda ham ana shu umumiy qoidalar orasida ayollar hamda ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati xususida ham alohida yondashuvlar mavjud bo‘lgan. Bu borada Sharq xalqlari, xususan o‘zbeklar tarixida umuminsoniy qadriyat darajasida e’tirof etilgan ibratli yondashuvlar mavjud. Zero, ayol ham o‘zi yashayotgan jamiyatning haqiqiy a’zosi, faol subyekti hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni uning hayotida o‘z in’ikosini topadi. Shuning uchun ham ayollarning haq – huquqlarini insoniy – ma’naviy me’yorlarga mos ravishda mavjud talab, ehtiyojlar darajasiga ko‘tarilishi amaliy va fundamental xarakterga egadir.

Jamiyat rivojida ayollar o‘rni beqiyos hisoblanadi. Davlat va din ishlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Bibixonim, Nodirabegim kabi Sharq ayollari nomi tarixda ma’lum va mashhur. Xususan, Amir Temur va temuriylar davrida, undan keyingi zamonlarda ham yurtimizda yuqori mavqega ega ayol namoyandalar xalq orasida e’zozlanib, yuksak hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lganlar. Lekin Sharq ayollariga nisbatan berilgan tasniflarda moziyda islom ayollarga johillik qilgan deb tasniflaydi. Worldbulletin.net materiallari va boshqa manbalar asosida Abu Muslim tomonidan tayyorlangan maqolada ham bu masalaga e’tibor qaratilgan. Ushbu maqolada berilgan ma’lumotga ko‘ra, Garvard universitetida din va ayollar muammolari bo‘yicha tadqiqot olib borgan professor Laylo Ahmadning aytishicha, barcha (g‘ayridin) sharqshunoslar quyidagi xulosaga ittifoq qilishgan. “Islom ayolga jabr-zulm qiladi. Musulmon jamiyatlarining qoloqlik sabablari ham aynan shu omil tufaylidir”, deb aytilgan.

Islom ilm-ma’rifat sohasida ayollarni erkaklar bilan teng huquqli qilar ekan, Payg‘ambar (s.a.v.): “Ilm talab qilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” – deganlar. Ayol kishi nafaqat ta’lim olish, dars, xutba va va’z eshitishgagina haqli, balki ta’lim va dars berish hamda boshqa ilmiy ishlar bilan shug‘ullanish huquqiga ham egadir. Ko‘plab muslimalarning ilm-fan va madaniyat sohasida ulkan yutuqlarga erishganliklari ushbu fikrning yorqin dalilidir.

Milliy mentalitetimizda ayollarning oiladagi roli alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Abu Ali ibn Sino oilada va bolalar tarbiyasida onaning o‘rniga katta ahamiyat bergan. Alloma ayollardagi eng muhim fazilatlarga ularning turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan muhabbati, mahmadonalik qilmasligi, itoatkorligi, fikran va qalban pok bo‘lishi, ozodalikka rioya qilishi, o‘zini tuta bilishi, yig‘inchoqligi, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, olijanobligi va boshqa xususiyatlarni kiritganini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz[5. – B.123.].

Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning hayotda o‘zlarining munosib o‘rinlarini egallashi, o‘zlaridagi salohiyatni namoyon etishlari va jamiyatda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda ularning to‘laqonli ishtirokini ta’minlash maqsadida ilk mustaqillik yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan imkoniyatlar yaratishda, avvalo, ularning onalik va oiladagi bosh tarbiyachilik vazifalariga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Chunki, bu ikkala o‘ta muhim vazifani bajarishda ayolning jamiyatdagi mavqeyi, nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlanganligi, ma’naviy-

ma’rifiy jihatdan yetukligi, siyosiy ongi, ijtimoiy tafakkuri, huquqiy madaniyati va savodxonligi beqiyos ahamiyatga molikdir.

Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin- qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz”,-deb ta’kidlashi, ayollarga nisbatan va oila institutini takomillashtirishni davomiy faoliyat ekanligini, avvalo, oilada ijtimoiy madaniyatni takomillashtirishni nazarda tutadi[1. – B. 8.].

Oila farzand uchun ko‘zgu vazifasini o‘taydi. U ko‘zguda o‘zini ko‘radi. “Xalqimiz qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan hikmatli so‘zida teran ma’no mujassam. Chunki farzandlar ilk tarbiya, axloq-odob mezonlarini, oiladan, avvalo, bobo-buvi ota-onasidan o‘rganadi. Ayniqsa oilada asosiy tarbiyachi hisoblanadigan ayollarning farzandni xush-xulqli qilib tarbiyalashda ma’naviy yuksakligi, dunyoqarashi, savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ayrim oilalar jamiyat hamda o‘z farzandlari oldidagi mas’uliyatni chuqur his qilmaydilar, yosh onalar norasidalarini eriga tashlab, pul topish umidida begona shaharlarda umrini o‘tkazayotganliklariga tabiiy hol deb qarab bo‘lmaydi. Chunki, millatning davomiyligi avvalo ulug‘ zot hisoblangan ayollarning ma’naviy qiyofasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Mashoyixlar er buzilsa oila buziladi. Ayol buzilsa, olam buziladi, deyishgan. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turmoqlari kerak.

Ayollarni e’zozlash va hurmatlash zarurligi haqida biz yuqorida tilga olgan zardushtiylik dinidagi quyidagi o‘gitlar ham e’tiborga molik: “Qizingni aqlli, tafakkuri yaxshi kishiga turmushga ber. Chunki aqlli va tafakkurli kishi xuddi hosildor yerga o‘xshaydi, agar unga urug‘ tashlasang, unumli hosil olasan”[7. – B.98].

O‘tgan chorak asr mobaynida jahonda bo‘lgani kabi Respublikada ham tug‘ilish darajasi kamayib bordi. Mamlakatda tug‘ilish darajasining kamayib borayotganligini olima Zulxumor Tojiyeva tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Bugungi kunda yangicha iqtisodiy munosabatlar, ayollarning bilimi, bandligining ortishi, turmush sharoiti, oilaning moddiy tomonlari “ko‘p bolalik”ni ma’qul ko‘rmaslikdan dalolat bermoqda. Bu esa ko‘p bolalikdan “o‘rtacha va kam bolalik”ka o‘tish davri boshlanishiga olib keldi”[6. – Б. 57.].

Davlat va jamiyatda ayollarga pozitiv munosabat tizimi yanada kuchaytirildi. “Ayolga bo‘lgan hurmat-e’tibor – bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo‘lgan hurmat-e’tibor ifodasidir”[2]. Natijada ayollarning ijtimoiy mavqeyiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib, ularning jamiyatdagi haq-huquqlari yanada to‘laroq ro‘yobga chiqishiga erishilmoqda. Tadbirkor ayollar qatlami tobora kengayib bormoqda. Bu esa xotin-qizlarimizni turmushimizning turli jabhalarida yanada ijtimoiy faol bo‘lishga, o‘z vatanparvarlik tuyg‘ularini amalga oshirishlariga qulay shart-sharoitlar tug‘dirdi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitalari va uning hududiy bo‘linmalarining faoliyati tubdan o‘zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 qarori, hukumatning 6 qarori, 4 farmoyishi va 12 chora-tadbirlar

dasturi qabul qilindi[3]. Davlatning bu boradagi siyosati xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro tajriba asosida huquqiy tizimlashtirilgan.

“2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish, ularni oliy ta’limga yanada ko‘proq qamrab olishga alohida e’tibor qaratilgani ham bejiz emas.

Yurtimizdagi turli korxonalardagi rahbar ayollar miqdorida ham o‘sish kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatkich “2017-yili 44,2 foiz bo‘lgani holda, 2019-yilning o‘tgan davrida 45,3 foizga yetgan. Iqtisodiyot sohasida agar tadbirkor ayollar jami tadbirkorlik subyektlarining 29 foizini tashkil etsa, fermer xo‘jaligi rahbarlarining bor-yo‘g‘i 5,4 foizi ayollar ekan”[8].

Yurtimizda ayollar deputat, murabbiy, shifokor va boshqa sohalarda erkaklar bilan yonma-yon faoliyat yuritmoqda, tadbirkorlar uchun joriy etilgan imtiyozlardan keng foydalanmoqda, o‘z shaxsiy biznesiga, mol-mulkiga ega bo‘lmoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, faoliyatini kuchaytirish, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash zarurligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvotaning belgilanganligi vakillik organlarida ularning samarali faoliyat yuritishi uchun xizmat qilmoqda. Hozirda 3 mingga yaqin faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirilib, ularni deputatlik va rahbarlikka tayyorlash borasidagi o‘qishlar tashkil etilmoqda .

Bugungi kunda oliy boshqaruv organi hisoblangan Oliy Majlis Senatida – 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida 21 nafar deputat ayol faoliyat olib bormoqda. Mahalliy Kengashda esa xalq vakillarini 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etdi. 2020-yil 5-yanvar Saylov komissiyasining ma’lumotlariga ko‘ra Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga qayta saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari yoki qariyb uchdan bir qismini xotin-qizlar tashkil etdi. Siyosiy partiyalar quyidagicha o‘rinni egalladi: O‘zbekiston tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasidan 53 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasidan 24 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan, 22 ta deputatlik o‘rni, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan 15 ta deputatlik o‘rnini egalladi. Bu esa Mustaqil davlatimizda xotin-qizlarni siyosiy jarayonlarda ishtiroki oshib borayotganidan dalolatdir[4].

Xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni zamonaviy sotsiologik tahlillarda muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki jamiyatning demokratik rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasining yuksalishi jamiyatda qarorlar qabul qilish jarayonining yanada inklyuziv va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, globallashuv va modernizatsiya jarayonlari xotin-qizlarning siyosiy ongida yangi qadriyatlar va xulq-atvor modellarining shakllanishiga olib kelmoqda. Bu holat ayollarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish, ularning fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy

mas’uliyatini mustahkamlash zaruratini yuzaga chiqaradi. Shu bois, ayollarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga integratsiyalashuvini chuqurroq o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini ta’minlash, oilaning barqarorligi va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish ko‘p jihatdan institutsional tizimlar faoliyati va mazkur sohada ishlovchi mutaxassislarning kasbiy salohiyatiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tizimi hamda mahalla darajasida olib borilayotgan tizimli ishlar jamiyatda gender tengligini ta’minlash va oilani mustahkamlashga qaratilgan muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda sharqona ma’naviy-axloqiy yondashuvlarga asoslangan holda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini shakllantirish va natijada ularning ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va praksiologik jihatlarini tadqiq etish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim masaladir. Mamlakatda bu boradagi amaliy ishlarga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta’minlangan jamiyatda, albatta, tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo‘ladi. Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo‘ladi”[4]. Prezident tomonidan xotin-qizlarga berilayotgan alohida e’tibor ularning jamiyatimizda yanada faol bo‘lishlariga imkoniyatlarni kengaytirishga hizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi 561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, 2019-yil 2-sentabrdagi 562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi 829-son “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, 2019-yil 2-fevraldagi PF – 5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 7-martdagi PQ – 4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va

tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 5-martdagi PQ – 5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni tadqiqotimiz uchun huquqiy metodologik manba sifatida o‘rgandik. Yurtimizda 17 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ortiq huquqiy me’yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Muqaddas Qur’oni Karimda “Ayollar uchun (belgilangan huquqlar) o‘z me’yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir” deyiladi. Zero, Muhammad Payg‘ambar (c.a.v.) ham ayol zotiga hurmat va ehtiromda bo‘lib, “Sizlardan eng yaxshilaringiz o‘z ahli ayolingiz bilan muomala qilgan kishidir. Men o‘z ahli ayollarimga sizlarga bo‘lganimdan ham ko‘ra xushmuomaladaman” [5] deganlar. Shuningdek, “Niso” surasida xotin-qizlarga nisbatan munosabatlarning xususiyatlari batafsil belgilab berilgan[6].

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeyini yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Sohibqiron saltanatidagi ayollarga bo‘lgan hurmat-izzat, e’tibor va ishonch diqqatga sazovor. Bu borada Amir Temur: “Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo‘lishga harakat qildim”[7] deb bejiz yozmagan.

Bugunga kelib, 7,7 milliard kishidan iborat dunyo aholicining qariyb 51 foizi ayollardan iborat. Jahon xotin-qizlari orasida 14 yoshgacha bo‘lganlar – 9,7, 15-19 yoshgacha bo‘lganlar – 10, 60 va undan yuqori yoshdagilarning miqdori 7 foizni tashkil etadi.

Bu ko‘rsatkichlarni O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak, hozirgi vaqtda 33,5 milliondan ortiq aholimizning qariyb 50 foizi xotin-qizlardir. Ular orasida 14 yoshgacha bo‘lganlar – 29, 15-30 yoshgacha bo‘lganlar – 28, 31-45 yoshlilar – 21, 46-60 yoshlilar – 15 va 60 dan yuqori yoshdagilarning miqdori 7 foiz[12].

O‘zbekistonning doimiy aholisi 2024-yilning 9-dekabr holatiga 37 mln 535 ming 605 kishini tashkil etgan. Bu haqda Statistika agentligi xabar berdi[13]. Shundan: ayollar soni — 18,6 mln kishini tashkil qilmoqda.

Respublikamizdagi ayollarning ijtimoiy maqomini yuksalishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza yetilishi tufayli mintaqa davlatlari orasida ilk bora BMTning “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi (CYeDAW) Konvensiyasiga qabul qilindi. Bu hol respublikada xotin-qizlarning huquqlariga oid ishlarning jiddiy yaxshilash orqali 2001-yilning 1-yanvarida mazkur xalqaro nufuzli tashkilotning sessiyasida Milliy Hisobot taqdimoti eshitildi. Natijada, ayollar masalasi yuzasidan Milliy harakat dasturi ishlab chiqilib, davlat miqyosida tadbirlar tizimi amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi.

Yurtimizda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy. Siyosiy-madaniy nufuzini yuksaltirish sohasida erishilgan yutuqlarning milliy siyosiy-huquqiy savodxonligi xususida T. Narbayeva “O‘zbekiston Qahramoni”, “Akademik”, “Senator”, “Deputat”, “Vazir”, ”Vazir o‘rinbosari”, “Olima” kabi yangi siyosiy jihatlarini sanab o‘tgan. Jumladan, “ularning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim masalalari qatoridan joy oldi”, degan fikrlarida o‘z ifodasini topgan[8].

O‘zbekiston Respublikasida ayollarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy huquqiy maqomini kafolatlari to‘g‘risidagi qonunni qabul qilinishi ularning huquqiy turmush tarzini yanada shakllantirishi bilan an’anaviy tafakkuridagi o‘zining “ojiza”ligidan to‘laqonliligi inson huquqiy tafakkuri hosil qilinadi. Mazkur qonunda “jinslarning notengligini bartaraf yetish, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy yoki asos bo‘ladigan tengligini ta’minlash bo‘yicha aniq maqsadlarga erishish uchun davlat organlari tomonidan ko‘riladigan huquqiy, tashkiliy hamda institutsiyaviy xususiyatga ega chora-tadbirlar”ni nazarda tutilgan[1]. Mazkur normativ hujjatning maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy maqomini kafolatlariga qaratilgan huquqiy himoya sifatida muhim ahamiyat kasb yetdi.

Zo‘ravonlik jamiyatdagi eng yomon illat sifatida insonlar o‘rtasidagi tenglikni, erkinlikni yo‘qqa chiqaradi. Qaramlik, qullik, boshqalar ustidan hukm yuritish, ularni tahqirlash va kamsitishga olib keladi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish lozim.

Fuqarolarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni kafolatlovchi qonunlar haqida so‘z borganda ulardan biri sifatida 2020-yil 2-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunini aytish mumkin. Mazkur qonun xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi huquqbuzarliklar turlari va shakllarini aniqlash va ularning javobgarligini ta’minlashga, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishga, tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini tashkil etish va ularning vazifa va vakolatlari, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan profilaktik chora-tadbirlarini belgilab berilgan[3]. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning eng ko‘p ko‘rinishlariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusiga tegish, zo‘ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste’mol qildirish, muntazam xo‘rlash va ruhiy ta’sir ko‘rsatish hamda boshqa yo‘llar bilan o‘limga olib borish kabilarni o‘z ichiga olgan.

Bugungi kunda xotin-qizlar masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadida bir qator Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar chiqarilgan. Shu bilan birga ularni har xil tazyiqlardan himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasida ham huquqiy asoslar joriy etildi. Birgina 2019-yil 2-sentyabr kuni qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun asosida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonlikka barham berish maqsadida himoya orderi joriy etilib, unda tazyiq va zo‘ravonlik turiga qarab cheklovlar belgilangan, bu cheklovlar:

1) Tazyiq o‘tkazishni va zo‘ravonlik sodir etishini taqiqlash;

2) Tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlar bilan aloqasini taqiqlash;

3) Tazyiq o‘tkazilgan va zo‘ravonlik sodir etilgan taqdirda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganning hamda tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada bo‘lishini taqiqlash;

4) Tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganni davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatuvchi maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlar va yetkazilgan moddiy zararni qoplash, shuningdek ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;

5) Tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning qurolini (bundan ov quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderini amal qilish davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek uning qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlashni tashkil etadi.

Shu bilan birga qonunda zo‘ravonlik turlari ko‘rsatib o‘tilgan, bular:

1) Jismoniy zo‘ravonlik;

2) Jinsiy zo‘ravonlik;

3) Iqtisodiy zo‘ravonlik;

4) Ruhiy zo‘ravonlik turlaridir.

Shuningdek, bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan maishiy zo‘ravonlik turi ham kun sayin ko‘payib borayotganini uchratishimiz albatta achinarli holat. “Maishiy zo‘ravonlik – kundalik turmushda oilaning (nikohning rasmiy ro‘yxatga olinganligi, nikohdan ajralish qayd etilgan yoki qayd etilmaganligidan qat’i nazar) bir yoki bir necha a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosi yoxud boshqa shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi, or-nomusi, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va qonuniy manfaatlariga qarshi jismoniy, ruhiy, iqtisodiy ta’sir ko‘rsatish yoki uni muntazam qo‘llash bilan qo‘rqitishda ifodalanadigan huquqbuzarlik”[9]. Har bir oilaviy zo‘ravonlikning o‘ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib keluvchi omillar qator umumiylikka ega. O‘zbekiston sharoitida oilaviy zo‘ravonlikni xarakterlovchi quyidagi asosiy xususiyatlar farqlanadi: zo‘ravonning jismonan kuchliligi (ko‘pincha erkakning ayolga, ota-onaning farzandga nisbatan zo‘ravonligi), zo‘ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko‘pchilik bo‘lib sodir etilishi (uchinchi shaxslarning aralashuvi), jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg‘iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg‘izlik) va jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish mexanizmining zaifligi.

Oilaviy zo‘ravonlikka barham berish qiyinligining sabablarini mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e’tibordan qochirmaslik lozim. O‘zbek oilalarida shaxsiy hayot, oilaviy sir – muqaddas va xalqimiz bu ma’noda ancha konservativ hisoblanadi, ya’ni ko‘pchilik holatlarda oiladagi zo‘ravonlik oiladan tashqariga chiqmaydi. O‘zbek oilalari odatda ko‘p a’zolik, ya’ni nafaqat er va xotin, balki ularning qarindoshlari ham munosabatlar zanjirida muhim rol o‘ynaydi. Qaynona, qaynota va boshqa qarindoshlarning oiladagi kelinga zulm qilishi, uning so‘zsiz bo‘ysunishini, hech qanday imtiyozlar talab qilmasligini istashi yoki ota-onaning farzandga, kelinlarning betob qaynona yoki qaynotaga bosim o‘tkazishi kabi holatlar kuzatiladi. Afsuski, ana shu vaziyatlar aksar hollarda jabrlanuvchining o‘z joniga qasd qilishiga yoki oxirgi, kritik nuqtaga yetib borguncha zulmga bardosh berib, jiddiy tan jarohatlari, ruhiy zarbalar olishiga, sog‘lig‘ini tiklanmas darajada yo‘qotishiga sabab bo‘ladi[11].

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik, jamiyatdagi muhim va jadal yechiladigan muammolardan biridir. Muammoning sabablari va yechimlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Sabablari **– ijtimoiy va madaniy omillar**(tadbirkorlik, gender tengsizligi, an’anaviy qadriyatlar.), **iqtisodiy vaziyat** (iqtisodiy xavfsizlikning pasayishi, ishsizlik), **ta’lim yetishmovchiligi** (ta’limsizlik, ma’lumot yetishmasligi). O‘z navbatida bu keltirilgan sabablari

yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. **Ta’lim** (xotin-qizlarning huquqlari, gender tenglik va ta’limga e’tibor berish), **Qonun ustuvorligi (**zo‘ravonlikka qarshi qonunlarni kuchaytirish, huquqni muhofaza qilish organlarini samarali faoliyat yuritish) hamda **ijtimoiy dasturlar (**mahallalarda xotin-qizlarga yordam berish dasturlari, psixologik va yuridik ko‘mak).

Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarga yordam berish, ularning hayotini yaxshilash va qayta tiklanishlariga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar va choralarni ko‘rib chiqamiz:

1. Psixologik yordam
2. Yuridik yordam
3. Ijtimoiy dasturlar
4. Ma’rifiy dasturlar

Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarga yordam berish, ularning hayotini yaxshilash va qayta tiklanishlariga yordam berishda muhimdir. Psixologik, yuridik, ijtimoiy va ma’rifiy yordamlar bilan birga, jamiyatdagi barcha a’zolarning faol ishtirokini ta’minlash lozim.

Respublikamizda xotin-qizlar jinoyatchiligini kamaytirish borasida olib borilgan profilaktik ishlar tufayli respublika bo‘yicha xotin-qizlar jinoyatchiligi moc ravishda 2016-yilda 5 foiz, 2017-yilda 11 foizga kamaygan bo‘lsa, 2018-yilda umumiy jinoyatchilik 35,7 foizga kamayishiga erishilgan. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda sudlov ishida qo‘mita vakillarining ishtirokini ta’minlash tizimi joriy etilib, 2018-yilda 113 nafar jinoyat va 780 nafar huquqbuzarlik sodir etgan xotin-qizlar kafillik asosida jazodan ozod etildi[14].

Tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma’muriy va jinoiy choralar belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiqlarga barham berish borasidagi qonuniy hujjatlar takomillashtirilib borilmoqda. 2023-yil 11-aprel kuni e’lon qilingan 829-sonli “Xotin-qizlar va bolalarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonun asosida ham O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda jinoyat kodeksiga xotin-qizlarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun belgilangan ma’muriy va jinoiy jazo choralari belgilandi, masalan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga yangi 41^1-moddasi qo‘shilib, bu shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun javobgarlik masalasi ko‘rsatib o‘tilgan, shu moddani o‘zini olsak hatto oddiy tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflash va imo-ishora qilganlik ham javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi xotin-qizlarni qanchalik e’zozlanganligini ko‘rsatib turibdi.

Bundan tashqari ushbu qonunning 23-1-moddasi “himoya orderini amal qilish muddatini uzaytirish deb belgilanib, tazyiq va zo‘ravonlik yoki ularni sodir etish xavfi bartaraf etilmagan taqdirda, tegishli hududda tazyiq va zo‘ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra bir ish kuni ichida himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish bo‘yicha materiallar tayyorlanadi hamda himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma rasmiylashtirilgan holda jabrlanuvchining yashash joyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga yuboriladi, himoya orderining amal qilish muddati bilan tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan holatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma materiallar kelib tushgan paytdan e’tiboran yigirma to‘rt soat ichida yopiq sud majlisida jabrlanuvchi hamda tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir

etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar hozirligida ko‘rib chiqiladi” deb ko‘rsatilgan hamda asosli bo‘lgan holda xotin-qizlarga nisbatan bir oylik muddat bilan berilgan himoya orderini amal qilish muddatini bir yilga uzaytirish belgilangan. 2024-yil 1-fevral kungi O‘zbekiston Respublikasining 902-sonli Qonuni asosida O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 248-moddasiga qo‘shimchalar kiritilib, unda Ichki Ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektorlariga tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tomonidan himoya orderidagi talablarni bajarmaganlik uchun ma’muriy huquqbuzarlikni rasmiylashtirish vakolati berilgan.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 10-may kuni PQ-175-sonli Qarori bilan 1-okyabrdan shoshilinch qabul bo‘limlarida tun-u kun ishlaydigan birlamchi ko‘makxonalar tashkil etilib, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun uch sutka muddatga joylashtirilib, shoshilinch birinchi yordam, ruhiy hamda psixoterapevtik yordamlar ko‘rsatib kelinmoqda.

Zo‘ravonlikning profilaktikasi bo‘yicha choratadbirlar

- fuqarolarga zo‘ravonlik faktlari haqida yoki o‘ziga nisbatan tahdid va tajovuzlar sodir etish holatlari yuzaga kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;
- nizoli holatlar hamda fuqarolarning g‘ayri jtimoiy xulq-atvori va xatti-harakatlariga nisbatan loqayd bo‘lmaslik;
- sog‘liqni saqlash muassasalariga murojaat qilish va birinchi tibbiy yordam olishni ta’minlash;
- zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni vaqtincha xavfsiz joyda (reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida yoki ota-ona yoxud boshqa qarindosh-urug‘lar oldida) bo‘lishlari uchun ularga qisqa raqamli “1146“-ishonch telefoniga murojaat etish mumkinligi va mavjud muammoga tegishli yechim olishi haqida tushuntirish; X oiladagi nizoli vaziyatlarni ijobiy hal qilish, oila a’zolari o‘rtasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va boshqa oilaviy masalalar yuzasidan psixologik yoki huquqiy maslahat olish;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning xulq-atvorini jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilish, unga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llash maqsadida tegishli vakolatli organlarga murojaat qilishni doimiy ravishda o‘rgatib borish lozim[10].

Xulosa. Mazkur tadqiqot xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasi inson huquqlarini ta’minlash hamda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada izchil shakllangan normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lib, u xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari huquqiy normalarning mavjudligi ularning amalda to‘liq ijrosini kafolatlamasligini tasdiqladi. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida huquqni qo‘llash amaliyotini kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijtimoiy xizmatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish nafaqat huquqiy bazani takomillashtirish, balki profilaktika choralarini kengaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan kompleks va izchil chora-tadbirlar xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni № 562 // Xalq so‘zi. – 2019. – 2 sentyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatning yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi// Xalq so‘zi, 2019 yil 22 iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni (7.01.2008 y.) qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6-martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-khalqaro-khotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi
5. Quroni Karim. – Toshkent: Iclom univerciteti nashriyoti, 2001. – 36 b.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. –Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashrièti, 2007. – B .77.
7. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekictonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T: Sharq, 2003. – 342 b.
8. Narbayeva T. K. Ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya uyg‘unligida xotin-qizlarning o‘rni // Xotin -qizlar ijtimoiy-siyosiy faoligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili mavzusidani konferensiya maqolalarining. to‘plami. –T.: TDIU, 2019. – B. 5.
9. Arifxodjayeva I.X. Ichki ishlar idoralari psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:2008. – B. 405.
10. Saidova L., Umarova Sh., Abulxasan D., Shotursunova N. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikdan ximoya qilish bo‘yicha qo‘llanma [Matn] : qo‘llanma / L.A. Saidova, Sh. Umarova.-Toshkent: Baktria press, 2021. - 26 b.
11. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyati. Mualliflar jamoasi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka Oshirish instituti
12. XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-CIYOCIY FAOL BO‘LCA. http://namhaqiqat.uz/siyosat/hotin-izlar_izhtimoiy-siyosiy_faol_bulsa.html08.Oktyabrya.2019.
13. https://daryo.uz/k/2024/12/09/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni-375-mlndan-oshdi
14. Norboyeva T. 113 nafar jinoyat va 780 nafar huquqbuzarlik codir etgan xotin-qizlar jazodan ozod etildi// https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/22/ayollar-jinoyatchilik

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

DETECTION AND PREVENTION OF CYBER ATTACKS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi,
teacher of the Faculty of Law of Fergana State University

Abstract. The threat of cybercrime in the digital space is becoming increasingly complex. This article examines the risks encountered in cyberspace from a theoretical and practical point of view: analyzes the risks identified by malware, fake web resources, data theft through social manipulation, and comprehensive monitoring of user behavior. The main focus is on using artificial intelligence (AI) to identify these risks earlier, take into account the contextual factors of user activity and improve security measures. The article covers the following directions: detection of anomalous events through SI methods, profiling by studying user behavior, real-time analysis of danger signals and optimization of warning processes, strengthening of system security based on multilayer security architecture, creation of customized notifications and educational materials to increase user awareness. The article also discusses the risk aspects of SI systems, the limitations of identification and authentication, as well as the importance of security policies. These methods are important in crime detection and prevention. At the same time, legislative proposals have been submitted to improve the current situation, prevent cybercrimes and assign responsibility for them.

Keywords: AI systems, cybercrime, Internet fraud, personal data, cyberattacks, hacking, virus, malicious programs.

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH

Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Huquq ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: dilafruzmirzakarimova80@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0001-6043-0323

Annotatsiya. Raqamli makonda kechayotgan kiberjinoyatchilik xavfi tobora murakkablashmoqda. Ushbu maqola kibermakonda uchraydigan xavflarni nazariy va amaliy nuqtai nazardan o'rganadi: zararli dasturlar, soxta veb-resurslar, ijtimoiy manipulyatsiya orqali ma'lumotlarni o'g'irlash va foydalanuvchi xatti-harakatlarini kompleks monitoring orqali aniqlanadigan xavflarni tahlil qiladi. Asosiy e'tibor sun'iy intellekt (SI) yordamida bu xavflarni oldinroq aniqlash, foydalanuvchi faoliyatining kontekstual omillarini hisobga olish va xavfsizlik choralarini takomillashtirishga qaratilgan. Maqola quyidagi yo'nalishlarni yoritadi: SI metodlari orqali anomal hodisalarni aniqlash, foydalanuvchi xatti-harakatlarini o'rganish orqali profil yaratish, xavf signalini real vaqt rejimida tahlil etish va ogohlantirish jarayonlarini optimallashtirish, ko'p qatlamli xavfsizlik arxitekturasi asosida tizim xavfsizligini mustahkamlash, foydalanuvchi xabardorligini oshirish uchun moslashtirilgan bildirishlar va ta'limiy materiallar yaratish. Shuningdek, maqolada SI tizimlarining xavfli jihatlari, identifikatsiya va autentifikatsiya bilan bog'liq cheklovlar, shu bilan bir qatorda xavfsizlik siyosatlarining muhimligi muhokama qilinadi. Bu usullar jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda muhimdir. Shu bilan birga, mavjud vaziyatni yaxshilash, kiberjinoyatlarni oldini olish va ularga javobgarlikni belgilash bo'yicha qonunchilikka takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: SI tizimlari, ruxsatlar va autentifikatsiya, shaxsiy ma'lumotlar, kiberhujumlar, ma'lumotlar himoyasi, virus, zararli dasturlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N41

Kirish. Raqamli makonda kiberjinoyatchilik xavfi tobora ko‘paymoqda, xususan zararli dasturlar, ijtimoiy manipulyatsiya va soxta manbalar orqali foydalanuvchi ma’lumotlari olinishining ko‘payishi xavotir uyg‘otadi. Ushbu maqola SI yordamida kiberjinoyatlarni erta aniqlash va ulardan himoya choralarini ishlab chiqish imkoniyatlarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad oldindan ogohlantirish uchun maxsus modellarning samaradorligini baholash, kontekstual tahlil va xavfsizlik arxitekturasini moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish.[1]

Kiberjinoyatlarning turlari va ularning xususiyatlari mavzusi texnologiya va internetga qaramlik kuchayib borayotgani sababli bugungi raqamli dunyoda jinoyatchilik olamining eng keng tarqalgan turlaridan biriga aylandi. Kiberjinoyatlarning turli shakllarini tushunish shaxslarga, tashkilotlarga va siyosatchilarga tahdidlarni tan olish, samarali xavfsizlik choralarini ishlab chiqish va tegishli qonunchilik normalarini shakllantirishga yordam beradi.[2]

Bir tomondan, SI asosidagi tizimlar xavfsizlik hodisalarini oldindan aniqlash, nozik belgilarni kontekstda tushunish va kattaroq xavfsizlik arxitekturalarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, noto‘g‘ri treyning ma’lumotlari, algoritm bazasi, va qayerlarda SI xavfsiz ishlay olmaydi bular xavfsizlik siyosatlari va foydalanuvchi xavfsizligi uchun xavf tug‘diradi. Shuningdek, mazkur jinoyatlarning mohiyati, ta’siri, oldini olish yoki ularga qarshi samarali kurashish yo‘llari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Bu bilimlar xavfsizroq onlayn muhitni yaratish va jamiyatda kiber barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[3]

Material va metodlar. Zamonaviy raqamli jamiyatda kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, xavfsizlikka rioya etish hamda sun’iy intellekt (SI) tashabbuslari jamiyatning turli sohalariga keng bosqichda kirib kelmoqda. O‘zbekistonda ham kiberhuquq va SI sohasini tartibga soluvchi institutlar, qoidalar va me’yoriy standartlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, tez o‘zgarayotgan texnologik jarayonlar uchun ularni yanada takomillashtirish zarur. Ushbu maqola siyosiy-ijodiy nuqtai nazardan kiberhuquq va SI sohasida qonunchilikni modernizatsiya qilish yo‘llarini tahlil qiladi, asosiy qiyinchiliklarni ko‘rsatadi va amaliy tavsiyalar beradi.[4] Ushbu maqolada nusxa olish metodidan foydalanilgan.

Xorijiy tajribani o‘rganishning afzalligi shundaki, biz amaliyot bilan yaqindan tanishgan holda ularda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz mumkin. Bundan tashqari, kiberjinoyatlar bilan bog‘liq ilmiy maqolalar, keyslar, qo‘llanma va normativ-huquqiy hujjatlar to‘planib, ularning tahlili maqolada keltirilgan. Shu bilan birga, kiberjinoyatlarni tadqiq qilish bilan bog‘liq cheklovlar, qonunchilikda mavjud bo‘shliqlar, joriy holatda mavjud muammolar ko‘rsatilgan va ularga yechimlar taqdim etilgan.[5] Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikka takliflar ham berib o‘tilgan.

Tadqiqot natijalari. So‘nggi yillarda dunyoning barcha davlatlarida kiberxavfsizlikning xavfsiz va ishonchli tizimlarini qurish talablari tez sur’atlar bilan o‘smoqda. Kompaniyalar va tashkilotlar mijozlar ma’lumotlari, operatsion faoliyat va sanoat regulyatsiyalari oldidagi majburiyatlarini bajarish bilan birga xavf-xatarlarni oldindan ko‘rish va bilish zaruriyatini anglashi lozim. Ushbu holatda sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar xavfsizlikni oldindan ogohlantirish, tezkor javob berish va xavfsizlik siyosatlarini dinamik tarzda boshqarish uchun yo‘l ochadi.

Bir qator Yevropa olimlari Rebovich hamda Byrnelarning fikricha, so‘nggi yillarda kiberjinoyat va kiberxavfsizlik muammolari jadal sur’atlar bilan o‘sib bordi va bu yangi ilmiy izlanishlar yo‘nalishini shakllantirishga olib keldi. Kiberjinoyat va kiberxavfsizlik ham insoniy, ham texnologik jihatlarni o‘z ichiga olganligini hisobga olsak, ushbu sohalardagi tadqiqotchilar fanlararo yondashuvni qo‘llashlari kerak, afsuski, bu sohalardagi adabiyotlar cheklangan hisoblanadi.[6] (Brands & Van Doorn, 2022). Huquqni muhofaza qilish organlarining tashkiliy innovatsiyalari, transformatsiyasi nuqtai nazaridan kiberjinoyatlarga javoban moslashish borasida Nowacki va Willitsning fikrlari shundan iboratki, bugungi kunda huquq-tartibot idoralari o‘rtasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo‘linmalari 2013-2023-yillar davomida ’’uch baravar’’ ko‘payganini hamda kiberjinoyatchilik muammosining o‘sishini ta’kidlaydi. Muammoga javoban moslashish uchun davlat va mahalliy huquqni muhofaza qilish idoralari o‘rtasidagi sa’y-harakatlar qonunchilik doirasida kiberjinoyatlarni tergov qilish uchun ko‘proq resurslarni ajratishga qaratilishi lozimligi aytilgan. [7]

1996-yilda Yevropa Kengashi AQSh, Kanada va Yaponiya hukumati vakillari bilan birgalikda kompyuter jinoyatlarini qamrab oluvchi dastlabki xalqaro shartnoma loyihasini ishlab chiqdi.[8] Butun dunyo bo‘ylab fuqarolik libertar guruhlari shartnomadagi Internet-provayderlardan (ISP) o‘z mijozlarining tranzaksiyalari haqidagi ma’lumotlarni saqlash va bu ma’lumotni talab bo‘yicha topshirishni talab qiluvchi qoidalarga darhol norozilik bildirishdi. Shartnoma ustida ishlash shunga qaramay davom etdi va 2001-yil 23-noyabrda Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi konvensiyasi (Budapesht konvensiyasi) 30 ta davlat tomonidan imzolandi. Konvensiya 2004-yilda kuchga kirdi. Terrorchilik faoliyati, irqchilik va ksenofobik kiberjinoyatlarni qamrab oluvchi qo‘shimcha protokollar 2002-yilda taklif qilingan va 2006-yilda kuchga kirgan.[9]

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, kiberjinoyatlarning asosiy obyekti bu kompyuter axborotidir. Kompyuter axboroti bu taqdim etilish shaklidan qat’i nazar axborot hisoblash tizimlari, tarmoqlari va ularning tarkibiy qismlaridagi ma’lum bir xos matnda aniq ma’noga ega bo‘lgan tushunchalarni ichiga oluvchi shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa kabi obyektlar haqidagi bilimlar, ma’lumotlardir. Bevosita obyekti esa muayyan moddaning nomi va dispozitsiyasidan kelib chiqib aniqlanadi.[10]

Tadqiqot natijalari tahlili. Yangi texnologiyalar har bir sohaga ko‘plab qulayliklar taqdim etish bilan birgalikda yangi jinoiy imkoniyatlarni ham vujudga keltiradi. Shubhasiz, bitta farq raqamli qurilmalardan foydalanishdir, ammo jinoiy faoliyatning turli sohalari o‘rtasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday farq uchun texnologiyaning o‘zi yetarli emas. Hujumlar moddiy muhitda sodir bo‘lmasa-da, ular shaxsiy yoki korporativ virtual muhitda sodir bo‘ladi, bu Internetdagi odamlar va muassasalarni belgilaydigan axborot atributlari to‘plamidir.[11] Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda bizning virtual identifikatorlarimiz kundalik hayotning muhim elementlari hisoblanadi. Biz hukumatlar va korporatsiyalarga tegishli bo‘lgan bir nechta kompyuter ma’lumotlar bazalarida raqamlar va identifikatorlar to‘plamimiz. Kiberjinoyat bizning hayotimizda tarmoqqa ulangan raqamli qurilmalarning markaziy o‘rinni egallaganligini, shuningdek, shaxsiy identifikatsiya kabi ishonchli ko‘rinadigan faktlarning xavfsizligi yaxshi ta’minlanmaganligini ko‘rsatadi. Biroq, yerda yurgan odamlar o‘zlaridan iz qoldirishi kabi kiberjinoyatchilar ham izlarini yashirish uchun barcha sa’y-harakatlariga qaramay, o‘zlarining shaxslari va joylashgan yerlari haqida izlar qoldiradilar.[12] Kiberjinoyat turli xil faoliyat turlarini qamrab olib, raqamli qurilmalarda

saqlanadigan ma’lumotlarning yaxlitligiga tajovuz va noqonuniy ravishda olingan raqamli ma’lumotlardan firma yoki jismoniy shaxsni ta’qib qilish, zarar yetkazish yoki shantaj qilish uchun foydalanish kabi shaxsiy yoki korporativ maxfiylikning asosiy buzilishini o‘z ichiga olgan jinoyatlar hisoblanadi. Bunda, kompaniyalar ushbu dasturlar faqatgina jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilarni taqib qilish maqsadida foydalanishini aytib o‘tishgan.[13] Kompyuter jinoyatga qo‘shimcha vosita sifatida qo‘llaniladigan jinoyatlar, masalan, noqonuniy olingan ma’lumotlarni saqlash uchun kompyuterdan foydalanish. Raqamli qurilma va dasturlar rivojlangan sari ularning turlari ham ko‘payib bormoqda.

Xakerlar soxta identifikatsiya va turli xil psixologik hiylalar yordamida sizni aldab, shaxsiy yoki moliyaviy ma’lumotlarni oshkor qilishlari mumkin. Bunga erishish uchun ular ’’phishing‘‘ firibgarliklari, spam elektron pochta yoki tezkor xabarlar va hatto soxta veb-saytlarga tayanishi mumkin.[14]

Xulosa. Insoniyat jamiyatida yashash tarzimizni buzadigan ulkan ijtimoiy o‘zgarish yuz beradi. Insoniyat tirikchilik qilish uchun mehnatsevar bo‘lishi kerak, ammo sun’iy intellekt xizmati bilan biz mashinani, hatto, asbobni ham ko‘tarmasdan ham biz uchun biror narsa qilish uchun dasturlashimiz mumkin. Sun’iy intellekt odamlarning fikr almashish uchun yuzma-yuz uchrashish ehtiyojini o‘rnini bosishi bilan odamlar o‘rtasidagi yaqinlik asta-sekin kamayib boradi. Shaxsiy yig‘ilish endi muloqot uchun kerak bo‘lmagani uchun sun’iy intellekt odamlar o‘rtasida turadi.[15]

Keyingi o‘rinda ishsizlik bor, chunki ko‘plab ish o‘rinlari mashinalar bilan almashtiriladi. Bugungi kunda ko‘plab avtomobil yig‘ish liniyalari mashinalar va robotlar bilan to‘ldirilgan, bu esa an’anaviy ishchilarni ishsiz qoldirishga majbur qilmoqda. Hatto, supermarketlarda ham do‘kon sotuvchilariga endi ehtiyoj qolmaydi, chunki raqamli qurilma inson mehnatini egallashi mumkin. Sun’iy intellekt investorlari daromadning asosiy qismini egallashi bilan boylik tengsizligi yuzaga keladi. Yangi muammolar nafaqat ijtimoiy ma’noda, balki sun’iy intellektning o‘zida ham paydo bo‘ladi, chunki berilgan vazifani qanday bajarishni o‘rgatgan va o‘rgangan sun’iy intellekt oxir-oqibat inson nazorat qila olmaydigan bosqichga ko‘tarilishi mumkin, bu esa kutilmagan muammolar va oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu sun’iy intellektning barcha kerakli algoritmlar bilan yuklanganidan so‘ng, inson boshqaruvchisi tomonidan berilgan buyruqni e’tiborsiz qoldirib, avtomatik ravishda o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlashi mumkinligini anglatadi.

Mazkur tadqiqot yuzasidan quyidagi takliflar berildi:

1. Kiberjinoyatlar profilaktikasining asosiy tamoyillari raqamli xavfsizlikni ta’minlash, risklarni baholash va boshqarish bo‘yicha zamonaviy nazariyalar bilan muvofiq bo‘lishi kerak. Bu tamoyillar, xususan, ISO/IEC 27001 va NIST modellari asosida, ularning amaliyotda qo‘llanilishini ta’minlash lozim.

2. Kiberjinoyatlar uchun intellektual va texnik usullar bilan jinoyatni profilaktika qilish bo‘yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, murakkab va global texnologik jinoyatlarga nisbatan qat’iy jazo va javobgarlikni ta’minlash.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Borodkina T.N., Pavlyuk A.V. Kiberprestupleniya: ponyatiye, soderzhaniye i mery protivodeystviya [Cybercrime: concept, content and countermeasures]. *Social and political sciences*, 2018, vol. 1, pp. 135–137.
2. Russell SJ, Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Upper Saddle River, New Jersey: Prentice Hall; 2009. [Google Scholar]

3. Roger C. Schank.Where's the AI. AI Magazine. 1991;12:38. [Google Scholar]
4. Jerry K. Artificial Intelligence – what everyone needs to know. New York: Oxford University Press; 2016. [Google Scholar]
5. Nilsson JN. Principles of artificial intelligence. Palo California: Morgan Kaufmann Publishers; 1980. [Google Scholar]
6. Nils N. Artificial Intelligence: A New Synthesis. Morgan Kaufmann; 1998. [Google Scholar]
7. Dina B. "Microsoft develops AI to help cancer doctors find the right treatment" in Bloomberg News. 2016 [Google Scholar]
8. Toraxodjaeva I. O'zbekistonda Internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari [Problems of combating crime committed through the Internet in Uzbekistan]. Tashkent, *Review of law sciences*, 2019, vol. 03, pp. 128–132.
9. Kochkina L. Definition of the concept "cybercrime". Selected types of cybercrime. *Sibirskie ugolovnoprotsessualnye i kriminalisticheskie chteniya*, 2017, vol. 3 (17), p. 37-40.
10. Technology Briefing Internet: S.E.C. Issues Warning On Fraud. Available at: https://www.nytimes.com/2002/06/26/business/technology-briefing-internet-sec issues-warning-on-fraud. 2022, p.89-100.
11. Sherri G. Cyberstalking: Definition, Signs, Examples, and Prevention, 2023. Available at https://www.verywellmind.com/what-is-cyberstalking-5181466. 2020.p, Tashkent, ILM ZIYO Publ., 2011. p, 34-40.
12. Ro'ziev R.N., Salaev N.S. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy va xalqaro standartlar [National and international standards for combating cybercrime]. Tashkent, TSUL Publ., 2018, p, 133-140.
13. Delcker J. Politico Europe's artificial intelligence correspondent told DW News in DW News on Black Box of Artificial Intelligence. 2018. [Last accessed on 2019 Nov 18]. Available from https://mdwcom/en/can-ai-be-free-of-bias/a-43910804 .
14. European Commission on Ethical Guidelines for Trustworthy AI. The High-Level Expert Group on AI presented this guideline which stated three requirements: lawful, ethical and robust [Google Scholar]
15. Nick B, Yudkowsky E. The Ethics of Artificial Intelligence. In: Keith Frankish, William Ramsey., editors. Cambridge Handbook of Artificial Intelligence. New York: Cambridge University Press; 2014. [Google Scholar]

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE INSTITUTIONAL ROLE OF SUKUK INSTRUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S CAPITAL MARKET

Mamatmurodov Farrux Farxod ugli
Tutor of Private law
Tashkent state university of law

Abstract. This article examines the contemporary concept of capital market development in the Republic of Uzbekistan within the framework of the Presidential Address to the Oliy Majlis dated December 26, 2025. The study analyzes the institutional role of sukuk instruments in deepening the capital market through a legal and comparative approach. It explores the economic and legal nature of sukuk, their distinction from conventional bonds, asset-backed structure, and risk-sharing mechanism. Particular attention is given to the limitations of the current civil and securities legislation of Uzbekistan, including the principle of unified ownership, the absence of a beneficial ownership doctrine, and the legal status of Special Purpose Vehicles (SPVs). Based on the experience of Malaysia and the United Kingdom, an institutional model for sukuk implementation is proposed. The findings suggest that sukuk may serve as a strategic instrument for capital market diversification, expansion of the investor base, and development of long-term sustainable financing mechanisms.

Keywords: sukuk, capital market, institutional development, SPV, beneficial ownership, sovereign sukuk, corporate sukuk, sustainable finance, financial diversification, legal modernization.

O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
Xususiy huquq fakulteti tyutori
Toshkent davlat yuridik universiteti
Email: mamatmurodovfirdavs@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0002-4169-366X

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnoma kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sukuk instrumentlarining kapital bozorini institutsional jihatdan chuqurlashtirishdagi roli huquqiy va qiyosiy yondashuv asosida ochib beriladi. Sukukning iqtisodiy-huquqiy tabiati, uning an'anaviy obligatsiyalardan farqli jihatlari, aktivga asoslanganlik va risklarni taqsimlash mexanizmi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligidagi mavjud cheklovlar — mulk huquqining yagonaligi, beneficial ownership institutining mavjud emasligi hamda SPV mexanizmining huquqiy maqomi masalalari ko'rib chiqiladi. Malayziya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida milliy institutsional model taklif etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sukuk kapital bozorining diversifikatsiyasi, investor bazasining kengayishi va uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda muhim instrument sifatida baholanadi hamda qonunchilikka aniq takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sukuk, kapital bozori, institutsional rivojlanish, SPV, beneficial ownership, suveren sukuk, korporativ sukuk, barqaror moliya, moliyaviy diversifikatsiya, huquqiy modernizatsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N42

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirish masalasi 2025-yil 26-dekabrda e’lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilandi. Unda ishlab chiqarish va iste’molning barqaror o‘sishini ta’minlash uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslar zarurligi ta’kidlanib, kapital bozori iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim institutsional ustun sifatida e’tirof etildi. Mazkur yondashuv kapital bozorini bank kreditlashiga muqobil va uzoq muddatli investitsion mexanizm sifatida shakllantirish zaruratini anglatadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham kapital bozorining uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishdagi roli alohida qayd etiladi. Jumladan, R.Levine moliyaviy tizimning rivojlanganligi kapitalni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [1, 889-bet]. Ushbu nazariy yondashuv kapital bozori institutsional jihatdan chuqur va diversifikatsiyalashgan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kapital bozorini rivojlantirish nafaqat an’anaviy obligatsiyalar emissiyasi bilan, balki muqobil moliyaviy instrumentlarni joriy etish bilan ham bog‘liqdir.

Islomiy moliya nazariyasida esa sukuk aktivga asoslangan model sifatida qaraladi. AAOIFI standartlarida sukuk quyidagicha ta’riflanadi: “Sukuk teng nominal qiymatga ega bo‘lgan hamda moddiy aktivlar, ulardan foydalanish huquqi va xizmatlarga nisbatan ajratilmagan (bo‘linmas) mulkiy ulushni ifodalovchi investitsiya sertifikatlaridir” [2, 5-bet]. Ushbu ta’rif sukukni oddiy qarz instrumenti emas, balki real aktivga egalik yoki manfaat ulushini ifodalovchi qimmatli qog‘oz sifatida talqin etadi.

Ilmiy adabiyotlarda sukukning iqtisodiy va huquqiy mohiyati chuqur tahlil qilingan. Masalan, M.Iqbal va A.Mirakhor sukukning obligatsiyalardan farqini An’anaviy obligatsiyalar egalari kreditor maqomida bo‘lsa, sukuk egalari bazaviy aktivlarga nisbatan egalik (yoki manfaatli egalik) ulushiga ega bo‘lib, mazkur aktivlar bilan bog‘liq risk va foydalarni taqsimlashda bevosita ishtirok etadi deb izohlaydi [3, 187-bet].

Shuningdek, Z.Ahmed va hammualliflar sukuk investorining maqomini tahlil qilib, Sukuk investorlarning huquqiy talablarini aktivga asoslanganlik hamda risk va foydani taqsimlash prinsiplari asosida legitimlashtiradi (qonuniylashtiradi) deb ta’kidlaydi [4, 85-bet]. Bu fikr sukukni risklarni adolatli taqsimlash mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi hamda uni uzoq muddatli infratuzilmaviy moliyalashtirish uchun barqaror instrument sifatida ko‘rsatadi.

Demak, Prezident Murojaatnomasida belgilangan kapital bozorini chuqurlashtirish va moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish vazifalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan hamohangdir. Sukuk kapital bozorining institutsional rivojlanishini ta’minlovchi, aktivga asoslangan va risk-taqsimot mexanizmini nazarda tutuvchi muqobil model sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — 26.12.2025-yildagi Murojaatnoma kontekstida sukuk instrumentlarining O‘zbekiston kapital bozorida tutgan institutsional rolini huquqiy va qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Kapital bozorining iqtisodiy o‘sishdagi roli.

2025-yil 26-dekabrda e’lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada kapital bozori iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim institutsional ustun sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv kapital bozorini bank sektoriga qo‘shimcha emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning mustaqil mexanizmi sifatida shakllantirish zaruratini anglatadi. Iqtisodiy nazariyada moliyaviy tizimning rivojlanganligi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan. Xususan, R.Levine moliyaviy vositachilik va kapital taqsimotining

samaradorligi o‘sish omili ekanini ta’kidlab, Moliyaviy tizimlar kapital resurslarini eng yuqori samaradorlikka ega sohalarga yo‘naltirish orqali iqtisodiy o‘sish jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi deya qayd etadi [5, 889-bet]. Ushbu nazariy xulosa kapital bozori real sektorga resurslarni samarali yo‘naltirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Uzoq muddatli moliyalashtirish konsepsiyasi ayniqsa infratuzilmaviy loyihalar, energetika, transport va sanoat klasterlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank kreditlari ko‘pincha qisqa yoki o‘rta muddatli bo‘lib, yuqori likvidlik talablari bilan bog‘liq bo‘ladi. Kapital bozori esa obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar orqali uzoq muddatli resurslarni safarbar etish imkonini beradi. Ross Levine va S.Zervos ham fond bozorining rivojlanganligi investitsiya faolligini oshirishini empirik asosda ko‘rsatgan [6, 535-bet].

Kapital bozori bank sektoriga alternativ mexanizm sifatida iqtisodiy tizimning diversifikatsiyasini ta’minlaydi. Bank tizimining haddan tashqari ustunligi moliyaviy risklarning konsentratsiyasiga olib kelishi mumkin. Allen va Gale moliyaviy tizimning bankka asoslangan va bozorga asoslangan modellari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, bozorga asoslangan model kapitalni keng investorlar bazasi orqali safarbar etishini ta’kidlaydi [7, 23-bet]. Shu ma’noda kapital bozori iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi institutsional mexanizm hisoblanadi.

Murojaatnomada global depozitariylarni milliy fond bozoriga jalb qilish tashabbusi ilgari surildi. Bu tashabbus O‘zbekiston kapital bozorini xalqaro moliyaviy infratuzilma bilan integratsiyalash, investitsiyalar oqimini oshirish va xorijiy investorlar uchun shaffof mexanizm yaratishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, depozitariy tizimining rivojlanganligi investor ishonchini mustahkamlaydi [8, 29-bet].

“Kapital bozori to‘g‘risida”gi yangi qonun loyihasining strategik ahamiyati.

Kapital bozorini rivojlantirishning muhim sharti — zamonaviy va tizimli huquqiy asosni yaratishdir. Murojaatnomada “Kapital bozori to‘g‘risida”gi yangi qonun loyihasini tez fursatda qabul qilish zarurligi qayd etildi. Huquqiy modernizatsiya kapital bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni aniq tartibga solish, investor huquqlarini himoya qilish va bozor shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. La Porta va hammualliflar investor huquqlarini samarali himoya qiluvchi huquqiy tizim fond bozorining rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi [9, 1137-bet]. Ushbu ilmiy xulosa kapital bozori rivojlanishida huquqiy tizimning ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik yangi qonun loyihasini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi. Jahon banki va boshqa institutlar kapital bozori infratuzilmasini mustahkamlashda normativ-huquqiy uyg‘unlikni asosiy omil sifatida baholaydi [10, 78-bet].

Instrumentlar diversifikatsiyasi masalasi ham strategik ahamiyatga ega. Faqat aksiyalar va obligatsiyalar bilan cheklanib qolgan bozor iqtisodiy ehtiyojlarni to‘liq qondira olmaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sukuk, yashil obligatsiyalar va boshqa innovatsion instrumentlar kapital bozorini chuqurlashtiradi [11, 187-bet].

Institutsional chuqurlashuv va moliyaviy innovatsiyalar.

Institutsional chuqurlashuv kapital bozori infratuzilmasining rivojlanishi, investorlar bazasining kengayishi va yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Yangi moliyaviy instrumentlar real sektor ehtiyojlariga moslashuvchan moliyalashtirish mexanizmlarini yaratadi. AAOIFI standartlarida sukuk real aktivlarga egalik ulushini ifodalovchi sertifikat sifatida ta’riflanadi. Bu ta’rif kapital bozorida innovatsion va aktivga

asoslangan instrumentlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bozor ishonchliligi investorlarni himoya qilish mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq. Coffee investorlarni himoya qilish mexanizmlarining zaifligi fond bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishini ta’kidlaydi [12, 6-bet]. Demak, kapital bozori samarali ishlashi uchun oshkoralik, korporativ boshqaruv va nazorat mexanizmlari mustahkam bo‘lishi lozim. Barqaror moliyalashtirish konsepsiyasi ham kapital bozorining zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. Schoenmaker va Schramade barqaror moliyaviy tizim uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish bilan uyg‘unlikda bo‘lishi kerakligini qayd etadi [13, 41-bet. Ushbu yondashuv kapital bozorini qisqa muddatli spekulyativ operatsiyalar emas, balki real iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida ko‘rishni talab etadi.

Shunday qilib, Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan kapital bozori konsepsiyasi xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg‘un bo‘lib, uning institutsional chuqurlashuvi huquqiy modernizatsiya, moliyaviy innovatsiyalar va investorlar himoyasi mexanizmlarini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur jarayonda kapital bozori bank sektoriga alternativ, uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish manbai sifatida iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanishi mumkin.

Sukukning iqtisodiy-huquqiy tabiati.

Sukuk zamonaviy kapital bozorida aktivga asoslangan moliyaviy instrument sifatida shakllangan bo‘lib, uning iqtisodiy-huquqiy mohiyati an’anaviy qarz majburiyatidan tubdan farq qiladi. AAOIFI standartlarida sukuk “tangible assets, usufructs and services”ga nisbatan teng ulushli egalikni ifodalovchi sertifikat sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rif sukukning aktivga asoslanganligini va investor huquqi real iqtisodiy obyekt bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Aktivga asoslanganlik sukukning asosiy institutsional xususiyatidir. Bu yerda moliyalashtirish real mulk, xizmat yoki foydalanish huquqiga tayangan holda amalga oshiriladi. M.Iqbal va A.Mirakhor sukukni aktiv bilan ta’minlangan va real sektor bilan bevosita bog‘langan moliyalashtirish modeli sifatida baholaydi. Shu sababli sukuk spekulyativ operatsiyalardan ko‘ra iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan loyihalarga yo‘naltiriladi. Risk va foydaning taqsimlanishi sukukning yana bir muhim belgisidir. Islomiy moliya nazariyasida moliyaviy operatsiyalar risk-sharing tamoyiliga asoslanadi. M. Usmani “Islamic finance is built on the principle of risk sharing rather than risk shifting” deya qayd etadi [14, 27-bet]. Bu shuni anglatadiki, sukukda investor va emitent o‘rtasida risk adolatli taqsimlanadi.

Sukuk qarz emas, balki aktivdan manfaat modeliga asoslanadi. Z.Ahmed va hammualliflar sukuk investorini “asset-backed and risk-sharing instrument” orqali himoyalangan subyekt sifatida tavsiflaydi. Demak, sukuk investorining huquqiy maqomi oddiy kreditor emas, balki iqtisodiy manfaat egasi sifatida shakllanadi.

Sukuk va an’anaviy obligatsiya: institutsional farqlar.

Sukuk va an’anaviy obligatsiya o‘rtasidagi asosiy farq risk tabiatida namoyon bo‘ladi. Obligatsiyada investor kredit riskiga duch keladi, ya’ni emitentning to‘lovga qobiliyatiga bog‘liq holda tavakkal qiladi. Fabozzi obligatsiyani qarz majburiyati sifatida ta’riflab, uning mohiyati foiz to‘lovlari va nominal summaning qaytarilishiga asoslanganini ko‘rsatadi.

Sukukda esa risk aktiv riski sifatida namoyon bo‘ladi. Investor aktivdan olinadigan daromadga bog‘liq ravishda foyda ko‘radi. Iqbal va Mirakhor ta’kidlaganidek, sukuk egalari asosiy aktivlarga nisbatan mulkiy manfaat (yoki egalik) ulushiga ega bo‘lib, mazkur aktivlar bilan bog‘liq risk va foydalarni taqsimlashda ishtirok etadi [15, 187-bet]. Bu model investorni aktivning iqtisodiy natijalari bilan bevosita bog‘laydi.

Investor maqomi ham tubdan farqlanadi. Obligatsiyada investor kreditor sifatida ishtirok etsa, sukukda u ulushli manfaat egasi sifatida qatnashadi. AAOIFI standartlari sukukni mulk ulushini ifodalovchi sertifikat deb e'tirof etadi. Shu sababli sukuk investorining maqomi majburiyat huquqidan ko'ra ashyo yoki mulkiy manfaat elementlariga yaqinlashadi.

Amaldagi fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligida cheklovlar.

Sukukni O'zbekiston kapital bozoriga joriy etish masalasi, avvalo, amaldagi fuqarolik va qimmatli qog'ozlar qonunchiligidagi konseptual cheklovlarni tahlil qilishni talab etadi. Mavjud huquqiy tizimda mulk huquqining yagonaligi prinsipi ustuvor hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqi egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish vakolatlarining yagona subyektda mujassamligi orqali ifodalanadi. Bu model "dual ownership" yoki iqtisodiy va yuridik egalikni ajratish institutini tan olmaydi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa sukukning muvaffaqiyatli ishlashi ko'p hollarda beneficial ownership – iqtisodiy egalik konsepsiyasiga tayangan holda amalga oshirilishi ta'kidlanadi. M.Iqbal va A.Mirakhor sukuk egalari aktiv ustidan "ownership interest"ga ega bo'lishini qayd etadi. Bu esa iqtisodiy manfaatni yuridik egalikdan ajratish imkonini beruvchi modelni nazarda tutadi. O'zbekiston qonunchiligida beneficial ownership instituti mustaqil huquqiy kategoriya sifatida mavjud emas. La Porta va hammualliflar investor huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmlari bo'lmagan huquqiy tizimlarda kapital bozori rivojlanishi sekinlashishini ko'rsatadi. Shu ma'noda, sukuk investori iqtisodiy manfaat egasi sifatida tan olinmasa, uning huquqiy maqomi an'anaviy kreditor maqomiga qisqarib qolishi mumkin.

SPV (Special Purpose Vehicle) mexanizmining huquqiy maqomi ham muhim masaladir. Sukuk emissiyasida SPV aktivni ajratish, investor manfaatlarini himoya qilish va bankrotlik riskini cheklash vazifasini bajaradi. Godlewski va hammualliflar sukuk strukturasida SPV "bankruptcy remote entity" sifatida ishlashini qayd etadi. O'zbekiston qonunchiligida esa maxsus maqsadli jamiyat instituti aniq va mustaqil normativ asosga ega emas.

Kapital bozori islohotlari doirasida sukukni integratsiya qilish imkoniyatlari.

Kapital bozori islohotlari doirasida sukukni integratsiya qilish uchun yangi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonunda alohida norma kiritilishi zarur. Bu norma sukukni qimmatli qog'ozlarning mustaqil turi sifatida e'tirof etishi va uning huquqiy tabiatini belgilashi lozim. AAOIFI sukukni teng ulushli egalikni ifodalovchi sertifikat sifatida ta'riflaydi. Shu ta'rif milliy qonunchilikda ham o'z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Maxsus maqsadli jamiyat (SPV) institutini normativ mustahkamlash ham zarur. SPV mustaqil yuridik shaxs sifatida aktivni balansdan ajratish va investorlar manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. Fabozzi SPVni sek'yuritizatsiya jarayonining asosiy elementi sifatida baholaydi. Demak, SPVning huquqiy maqomi aniq belgilanmasa, sukukning aktivga asoslanganligi amalda ta'minlanmaydi. Aktivni ajratish va bankrotlikdan himoya mexanizmlari ham muhimdir. Hasan va Dridi islomiy moliya institutlari moliyaviy inqiroz davrida barqarorroq bo'lganini qayd etadi. Bu, qisman, aktivga asoslanganlik va riskning taqsimlanishi bilan izohlanadi. Shu sababli milliy qonunchilikda sukuk aktivlarini emitentning boshqa majburiyatlaridan ajratish mexanizmi mustahkamlanishi lozim.

Xalqaro tajriba asosida institutsional model taklifi.

Malayziya modeli.

Malayziya sukuk bozorini rivojlantirishda yetakchi davlatlardan biridir. Bu yerda regulyator — Securities Commission Malaysia — islomiy kapital bozori ustidan maxsus

vakolatlarga ega. Iqbal va Mirakhor Malayziya modelini “kompleks (yaxlit) tartibga solish tizimi” asosida shakllangan tizim sifatida baholaydi.

Shariat kengashi instituti ham muhim rol o‘ynaydi. Bu kengash sukuk emissiyasining shariat talablariga muvofiqligini baholaydi va normativ-huquqiy aniqlikni ta’minlaydi. Wilson Malayziya tajribasida shariat nazoratining investor ishonchini oshirishini qayd. Malayziyada sukukning keng qo‘llanilishi davlat va korporativ sektor uchun muqobil moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratdi. Bu model kapital bozorining chuqurlashuviga xizmat qilgan.

Buyuk Britaniya modeli.

Buyuk Britaniya sukukni alohida islomiy qonun qabul qilmasdan, existing law adaptation modeli orqali joriy etdi. Bu yondashuv mavjud qonunchilikka moslashtirish orqali amalga oshirildi. HM Treasury sukukni Alternative Finance Investment Bonds (AFIB) sifatida tasnifladi [16, 9-bet].

AFIB modeli sukukni konvensional obligatsiyalar bilan tenglashtirgan holda soliq neytralligini ta’minladi. Schoenmaker barqaror moliyaviy tizim uchun normativ moslashuvchanlik muhim ekanini ta’kidlaydi. Buyuk Britaniya tajribasi sukukni amaldagi huquqiy tizimga integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kapital bozorini chuqurlashtirish mexanizmi sifatida.

Sukuk O‘zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirishi mumkin bo‘lgan institutsional mexanizm sifatida nazariy jihatdan uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: investor bazasini kengaytirish, xalqaro kapital oqimlarini diversifikatsiya qilish va real sektor bilan moliyaviy tizim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash.

Kapital bozorining chuqurligi odatda investorlar soni, instrumentlar xilma-xilligi va likvidlik darajasi bilan belgilanadi. Levine va Zervos fond bozorining rivojlanishi investitsiya faolligini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik asosda ko‘rsatgan. Shu ma’noda, sukuk kapital bozorini faqat hajm jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham chuqurlashtiruvchi instrument hisoblanadi.

Investor bazasini kengaytirish sukukning eng muhim institutsional funksiyalaridan biridir. An’anaviy obligatsiyalarga investitsiya qilmaydigan, lekin shariatga mos moliyaviy instrumentlarga qiziqish bildiradigan investorlar segmenti mavjud. Iqbal va Mirakhor sukuk global investorlar uchun “ethical and asset-backed alternative” sifatida qabul qilinishini ta’kidlaydi. Demak, sukuk O‘zbekiston kapital bozoriga yangi investor qatlamini olib kirishi mumkin.

Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo kapitalini jalb qilish ham strategik ahamiyatga ega. Global Islamic Finance Report ma’lumotlariga ko‘ra, sukuk bozori asosan Malayziya va GCC mamlakatlarida konsentratsiyalashgan. Agar O‘zbekiston sukuk emissiyasini yo‘lga qo‘ysa, ushbu mintaqalardagi investitsiya fondlari va islomiy moliya institutlari uchun yangi investitsion platforma yaratiladi.

Davlat suveren sukuki – strategik instrument sifatida.

Davlat suveren sukuki nazariy modelda strategik moliyalashtirish vositasi sifatida qaraladi. Suveren sukuk byudjetdan tashqari moliyalashtirish imkonini beradi va davlat qarzining strukturaviy diversifikatsiyasini ta’minlaydi. Godlewski va hammualliflar suveren sukuk davlat moliyasini diversifikatsiya qilish vositasi ekanini qayd etadi.

Byudjetdan tashqari moliyalashtirish mexanizmi infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda ayniqsa dolzarbdir. Energetika, yo‘l qurilishi, logistika markazlari kabi yirik

loyihalar uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslarni talab etadi. Hasan va Dridi islomiy moliya instrumentlari moliyaviy inqiroz davrida nisbatan barqarorroq bo‘lganini qayd etadi. Bu esa suveren sukukni uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish vositasi sifatida ko‘rsatadi. Suveren sukuk xalqaro reytingga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xalqaro kapital bozorlariga chiqish davlatning moliyaviy ochiqligi va shaffofligini oshiradi. Coffee investorlar himoyasi mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarda kapital oqimi ko‘proq bo‘lishini ta’kidlaydi (Coffee J., Columbia Law Review, 2001, p. 6). Demak, suveren sukuk emissiyasi moliyaviy tizimning institutsional sifatini namoyish etuvchi indikator sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2025-yil 26-dekabrda e’lon qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomada belgilangan kapital bozori konsepsiyasi O‘zbekiston moliya tizimini institutsional jihatdan chuqurlashtirishga qaratilgan strategik yo‘nalishni ifodalaydi. Unda kapital bozori iqtisodiy o‘sishning muhim ustuni sifatida e’tirof etilib, uzoq muddatli moliyaviy resurslarni safarbar etish zarurati alohida ta’kidlandi. Ushbu normativ-siyosiy yondashuv sukuk instrumentlarini joriy etish uchun konseptual va institutsional asos yaratadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sukuk kapital bozorining oddiy alternativ vositasi emas, balki uning institutsional arxitekturasini kengaytiruvchi mexanizmdir. Aktivga asoslanganlik, risk va foydaning taqsimlanishi hamda investorning iqtisodiy manfaatga egaligi sukukni an’anaviy obligatsiyalardan ajratib turadi. Shu jihatdan, sukuk kapital bozorining chuqurlashuvini ta’minlaydi, chunki u investor bazasini kengaytiradi, real sektor bilan moliyaviy tizim o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi va yangi investitsion segmentlarni shakllantiradi.

Uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmi sifatida sukuk infratuzilmaviy loyihalar, energetika, transport va sanoat klasterlarini moliyalashtirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Xalqaro tajriba sukukning moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli, sukuk O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli strategik manfaatlariga mos keladigan moliyaviy instrument sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi normativ-huquqiy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, maxsus maqsadli jamiyat (SPV) institutini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur. SPV sukuk emissiyasida aktivni ajratish, investor manfaatlarini himoya qilish va bankrotlik riskini cheklash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, beneficial ownership normasi fuqarolik qonunchiligiga joriy etilishi maqsadga muvofiq. Sukuk investori iqtisodiy manfaat egasi sifatida tan olinmasa, uning huquqiy maqomi kreditor maqomiga qisqarib qoladi. Investor huquqlarini samarali himoya qilish kapital bozorining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, iqtisodiy egalik tushunchasini normativ darajada mustahkamlash zarur.

Uchinchidan, sukukni qimmatli qog‘ozlarning mustaqil turi sifatida alohida tasniflash lozim. AAOIFI sukukni aktivlarga egalik ulushini ifodalovchi sertifikat sifatida ta’riflaydi. Milliy qonunchilikda ham ushbu huquqiy tabiat aniq belgilanishi zarur.

To‘rtinchidan, soliq neytralligi mexanizmini joriy etish muhimdir. Buyuk Britaniya tajribasida sukuk Alternative Finance Investment Bonds (AFIB) sifatida tasniflanib, konvensional obligatsiyalar bilan teng soliq rejimiga ega etib belgilangan. Agar soliq yuklamasi ikki martalik yoki noqulay shaklda belgilansa, sukuk amaliyotda raqobatbardosh bo‘la olmaydi.

Shunday qilib, sukukni joriy etish O‘zbekiston kapital bozorini chuqurlashtirish, investor bazasini kengaytirish va real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirishga xizmat

qiluvchi institutsional islohot sifatida namoyon bo‘ladi. Normativ-huquqiy modernizatsiya va xalqaro tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan model milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Levine R., Finance and Growth: Theory and Evidence, 2005, p. 889.
2. AAOIFI, Shari’ah Standard No. 17: Investment Sukuk, 2017, p.5.
3. Iqbal M., Mirakhor A., An Introduction to Islamic Finance, 2011, p. 187.
4. Ahmed E.R., Islam M.A., Ariffin K.H.K., Asian Social Science, 2015, Vol. 11, No. 13, p. 85.
5. Levine R., Finance and Growth: Theory and Evidence, 2005, p. 889.
6. Levine R., Zervos S., Stock Markets, Banks, and Economic Growth, 1998, p. 537.
7. Allen F., Gale D., Comparing Financial Systems, 2000, p.23.
8. Claessens S., Klingebiel D., Schmukler S., World Bank Research Observer, 2002, p.29.
9. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R., Journal of Finance, 1997, p.1137.
10. World Bank, Global Financial Development Report, 2019, p.78.
11. Iqbal M., Mirakhor A., An Introduction to Islamic Finance, 2011, p.187.
12. Coffee J., Columbia Law Review, 2001, p.6.
13. Schoenmaker D., Schramade W., Principles of Sustainable Finance, 2019, p.41.
14. Usmani M.T., An Introduction to Islamic Finance, 2002, p.27.
15. Iqbal M., Mirakhor A., 2011, p.187.
16. HM Treasury, UK Sovereign Sukuk Prospectus, 2014, p.9.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE RIGHT OF ACCESS TO ENVIRONMENTAL INFORMATION AND LEGAL ANALYSIS OF ADMINISTRATIVE PRACTICE

Nodirbekova Dildona Abdumalik qizi
Doctoral student of
Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the constitutional foundations of the right to access environmental information and the mechanisms of its implementation in administrative practice. The relevance of the topic is determined by the growing importance of environmental safety, public health protection, and the principles of transparent governance. The aim of the study is to identify the constitutional guarantees of the right to obtain environmental information and to assess the effectiveness of administrative procedures ensuring its implementation. The research applies a doctrinal legal approach, normative and systematic analysis, comparative method, and case analysis. The findings demonstrate that the right to access environmental information is grounded in the principles of freedom of information, transparency of public authorities, the right to petition, and legality. However, practical challenges were identified, including delays in responses, formal refusals, incomplete information, and the use of inconvenient publication formats. The study substantiates the need to improve administrative regulations, introduce mandatory standards for refusal justification, establish minimum content requirements, and implement open data publication formats.

Keywords: environmental information, right of access to information, constitutional guarantees, administrative practice, transparency principle, public oversight, legal mechanism.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ

Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи
Докторант Ташкентского государственного
Юридического университета

Аннотация. В статье проводится анализ конституционных основ права на доступ к экологической информации и механизмов его реализации в административной практике. Актуальность темы обусловлена возрастающим значением экологической безопасности, охраны здоровья населения и принципов прозрачного государственного управления. Цель исследования заключается в выявлении конституционных гарантий права на получение экологической информации и оценке эффективности административных процедур, обеспечивающих его реализацию. В работе применены доктринальный правовой подход, нормативно-правовой и системный анализ, сравнительный метод и анализ практических ситуаций. Полученные результаты показывают, что право на доступ к экологической информации основано на принципах свободы получения информации, открытости деятельности государственных органов, права на обращение и законности. Вместе с тем выявлены проблемы, связанные с несоблюдением сроков предоставления ответов, формальным характером отказов, неполнотой информации и использованием неудобных форматов публикации данных. В заключение обоснована необходимость совершенствования административного регламента, установления обязательного стандарта мотивировки отказов, внедрения минимальных требований к содержанию информации и применения открытых форматов публикации данных.

Ключевые слова: экологическая информация, право на доступ к информации, конституционные гарантии, административная практика, принцип открытости, общественный контроль, правовой механизм.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N43

Введение. В современных условиях обеспечения экологической безопасности, охраны здоровья населения и повышения качества среды обитания особую актуальность приобретает вопрос открытости экологической информации. Это обусловлено тем, что достоверные сведения о состоянии окружающей среды (качестве воздуха и воды, отходах, зонах экологического риска, результатах экологической экспертизы и др.) являются одним из ключевых факторов, укрепляющих осознанный выбор граждан, общественный контроль и доверие к государственным органам. Признание в Конституции в новой редакции права каждого на благоприятную окружающую среду и на получение достоверной информации о её состоянии создаёт основания рассматривать доступ к экологической информации как самостоятельный конституционно-правовой институт[1; Б. 7].

Однако на практике предоставление экологической информации нередко напрямую связано с административными процедурами (направление запроса, получение ответа, основания для отказа, возможность обжалования), и именно на этом этапе могут проявляться такие проблемы, как несоблюдение сроков, неполнота ответа, недостаточная мотивированность отказа либо неудобный формат предоставления информации[2; Б. 3]. Цель данного исследования заключается в правовой оценке конституционных основ права на доступ к экологической информации и проблем административной практики его реализации. Для достижения указанной цели:выделяется система правовых гарантий на основе конституционных норм; анализируется административная процедура предоставления экологической информации как правовой механизм; разрабатываются предложения по совершенствованию выявленных проблем.

Объектом исследования выступают социально-правовые отношения, связанные с доступом к экологической информации, а предметом — конституционные нормы и административные процедуры (запрос информации, ответ, отказ, обжалование), обеспечивающие реализацию данного права. Научная новизна работы состоит в предложении правовой модели обеспечения доступа к экологической информации, вытекающей из конституционных гарантий; в систематизации практических проблем через индикаторы (срок, основания отказа, формат, уровень открытости); а также в обосновании регламентов и стандартов, механизмов контроля и ответственности, направленных на усиление гарантий реализации права. При этом в рамках комплексного подхода сопоставляются нормы национального законодательства о гарантиях свободы информации и международные стандарты доступа к информации по экологическим вопросам[3; Б. 5].

Обзор литературы. В последние годы право на доступ к экологической информации в юридической литературе всё чаще трактуется как процессуальный (обеспечительный) механизм, непосредственно связанный с системой конституционных гарантий. Иными словами, данное право рассматривается как «ключевой» инструмент, позволяющий гражданам реально осуществлять свои права,

связанные с благоприятной окружающей средой, заблаговременно узнавать об экологических рисках и усиливать общественный контроль за деятельностью государственных органов. В подходе Бэрритта показано, что правовой режим доступа к экологической информации (в контексте принципов Орхусской конвенции) внутренне и неразрывно связан с правом на здоровую окружающую среду; вследствие этого обосновывается необходимость закрепления на уровне правовых стандартов обязанности административных органов предоставлять информацию, узко толковать исключения и утверждать открытость как базовый правовой принцип.[4; p. 67–84] С этой точки зрения доступ к экологической информации не ограничивается “ответом на запрос”, а рассматривается как модель управления, оцениваемая через показатели качества административной практики (сроки, полнота ответа, обоснованность отказа, пригодность информации для использования).

В данном направлении Уиттекер объясняет информационный поток в экологическом управлении не как односторонний, а как двусторонний процесс: важным является не только право граждан получать сведения, но и их возможность в юридически гарантированном порядке предоставлять экологическую информацию уполномоченным органам. Это, в свою очередь, требует систематизации «работы с информацией» в административной практике (приём, проверка, обработка, публикация)[5; p.401-418]. Для вашей темы это означает следующее: эффективность конституционных гарантий на практике напрямую зависит от прозрачности и чёткой регламентации административных процедур. Решающее значение имеют: порядок приёма запроса, перенаправление по компетенции, форма предоставления ответа, юридически выверенное разъяснение оснований отказа и обеспечение реально действующего механизма обжалования.

Эмпирические исследования при этом указывают, что одной из наиболее существенных проблем является «разрыв исполнения» в административной практике. Так, Рапозу и Фра Палео, анализируя доступ к экологической информации в контексте горнодобывающих проектов, показывают: несмотря на наличие нормативных требований, на практике право на доступ нередко не работает должным образом из-за задержек, платежей и бюрократических формальностей, устаревшего или неудобного формата, а также недостатка системной прозрачности. Авторы особо подчёркивают необходимость повышения эффективности административных процедур и предоставления информации “системно” и “проактивно”[6; p.8]. Эти выводы научно обосновывают целесообразность применения индикаторного подхода при правовом анализе административной практики (соблюдение сроков, качество обоснования отказов, полнота, формат и уровень открытости).

Кроме того, Тюркер связывает доступ к экологической информации с целями устойчивого развития и подчёркивает, что результативность системы доступа во многом опирается на культуру открытости институтов и уровень информированности населения. Это означает, что для предотвращения превращения конституционных гарантий в «норму на бумаге» необходимы понятные процедуры, удобные каналы доступа, чёткие сроки и доступные разъяснения/инструкции в административной практике[7; p. 4]. В целом рассмотренная литература показывает: при анализе права на доступ к экологической информации в его связи с конституционными основаниями

основной акцент следует делать на административных механизмах реализации. Такие требования, как «презумпция открытости», модель строгой мотивировки отказов, контроль за соблюдением сроков и предоставление сведений в пригодном для использования формате, выступают в качестве практико-правовых критериев, обеспечивающих реальную работоспособность данного права.

Методы. Настоящее исследование направлено на раскрытие права на доступ к экологической информации в единстве его юридического содержания и практической реализации и строится на сочетании доктринального правового подхода и прикладного анализа: в рамках доктринального подхода последовательно интерпретируются конституционные нормы, их правовое содержание и система гарантий, тогда как в прикладной части анализируется, каким образом данное право реализуется в деятельности административных органов и на каких этапах возможны ограничения или фактическое «ослабление» его действия. В качестве источников используются Конституция и нормативно-правовые акты в сфере информации и экологии; практика обеспечения открытости государственных органов и размещения ими экологической информации (официальные веб-сайты, платформы открытых данных, экологические отчёты и сообщения); типовые практические ситуации, сформированные на основе процедуры направления запроса экологической информации (цепочка «запрос-ответ-отказ обжалование»), что позволяет выявить наиболее распространённые случаи просрочку ответа, формальный или шаблонный отказ, предоставление неполной информации, формальное функционирование механизма обжалования — и дать им правовую оценку. Среди применяемых методов прежде всего используется нормативно-правовой анализ, направленный на выявление содержания правовых норм, полномочий и обязанностей административных органов, а также круга допустимых исключений при ограничении доступа к информации; при этом доктринальный подход основывается на последовательности «текст нормы — её толкование — практика применения»[8; p. 88–90]. Далее применяется системный анализ, рассматривающий право на доступ к экологической информации как целостный механизм гарантий (получение информации + право обращения + принцип открытости + правовая защита) с целью определения звена, на котором возникают практические сбои. Кроме того, посредством сравнительного метода сопоставляются международный принцип «максимальная открытость — минимальные исключения» с национальной административной практикой, при этом в качестве ориентира используются разъяснения, содержащиеся в Руководстве по реализации Орхусской конвенции[9;p. 56–58]. Наконец, case-анализ на основе 2–3 типовых ситуаций (отказ в предоставлении информации, нарушение сроков, предоставление неполных данных) позволяет дать правовую оценку действиям административных органов и сформулировать предложения по нормативному и организационному совершенствованию. Для систематизации результатов используются следующие оценочные индикаторы: соблюдение срока ответа (своевременно/с нарушением срока), обоснованность отказа (мотивированный/формальный), полнота предоставленной информации (полная/частичная), формат и удобство использования (машиночитаемый/неудобный формат), а также наличие и результативность механизма обжалования; данные

индикаторы позволяют выявить сильные и слабые стороны административной практики и обосновать предложения по усилению гарантий реализации права.

Обсуждение. Результаты исследования показывают, что право на доступ к экологической информации следует рассматривать не только как декларативную конституционную норму, но и как реально функционирующий процессуальный механизм. Конституционные основы — право на получение информации, открытость деятельности государственных органов, право на обращение и принцип законности — формируют прочную нормативную базу. Однако эффективность данных гарантий на практике напрямую зависит от качества и чёткости административных процедур. В этом смысле согласованность между конституционными гарантиями и административной реализацией является ключевым фактором, определяющим реальную действенность права на доступ к экологической информации.

Анализ показал, что такие проблемы административной практики, как нарушение сроков предоставления ответа, формальный характер отказов, неполнота информации или её представление в неудобном формате, сужают содержание права и придают ему формальный характер. В подобных случаях конституционная норма существует, однако её полноценная реализация затруднена. Особенно проблематичным является отсутствие чёткой мотивировки отказов либо широкое толкование исключений, что противоречит принципу презумпции открытости. Следовательно, в сфере экологической информации исключения должны толковаться узко, а каждый отказ должен сопровождаться подробным нормативным и фактическим обоснованием.

Сравнение с международными подходами имеет важное значение для обсуждаемой проблемы. В международных стандартах право на доступ к экологической информации рассматривается как один из базовых элементов экологической демократии, при этом приоритетным признаётся принцип «максимальная открытость — минимальные исключения». Применение данного принципа в национальной практике способствует повышению прозрачности экологического управления, расширению участия общественности и укреплению доверия к государственным органам.Кроме того, результаты обсуждения свидетельствуют о том, что совершенствование механизма доступа к экологической информации не должно ограничиваться исключительно нормативными изменениями. Существенное значение имеют внедрение информационно-коммуникационных технологий, установление стандартов открытых форматов данных, развитие автоматизированных систем мониторинга и обеспечение эффективного и оперативного механизма обжалования.

В целом конституционные основы создают прочную правовую платформу для реализации права на доступ к экологической информации, однако его реальная эффективность определяется качеством административной практики. В связи с этим усиление нормативной определённости, процессуальной прозрачности и механизмов ответственности является необходимым условием повышения эффективности экологического управления и обеспечения реальной защиты конституционных прав граждан.

Результаты. Результаты показали, что конституционные основы права на доступ к экологической информации на практике опираются на совокупность взаимодополняющих принципов. Право на получение информации выступает

необходимым условием для обеспечения граждан достоверными сведениями о состоянии окружающей среды; открытость деятельности государственных органов задаёт критерий публичности предоставления экологических данных; право на обращение формирует процессуальную основу для направления запросов об экологической информации; а принцип законности означает, что ограничение или отказ в предоставлении информации допускаются лишь при наличии чётких правовых оснований и надлежащей мотивировки.

На основе практического анализа повторяющиеся проблемы административной практики были систематизированы по четырём направлениям: ситуации, связанные со сроками ответа (задержка ответа либо оставление запроса без ответа); мотивированность отказов (отказы, сформулированные общими фразами); полнота и качество ответа (частичные сведения, отсутствие ключевых индикаторов); удобство формата предоставления данных (например, PDF, не пригодный для машинного чтения, либо скан-копии). Данные проблемы снижают возможности граждан делать обоснованные выводы и осуществлять общественный контроль, затрудняют проверку отказов, а также ограничивают практическое использование экологической информации. В локальных исследованиях также отмечается актуальность вопросов открытости, качества и пригодности экологической информации для использования[10; b. 5–6]. Кроме того, в работах, посвящённых совершенствованию системы экологической информации, подчёркивается значимость регламентов, стандартов и информационно-коммуникационных решений, что усиливает прикладную обоснованность предлагаемых по результатам исследования мер[11; b. 18–20].

Таблица 1.

Проблемы при рассмотрении запросов экологической информации и предлагаемые меры

Индикатор	Проявление проблемы	Правовые последствия	Предлагаемая мера
Срок предоставления ответа	Ответ предоставляется с опозданием или не предоставляется вовсе	Ограничивается возможность своевременной реализации права	Введение мониторинга сроков и чёткое закрепление ответственного лица
Обоснованность отказа	Отказ формулируется общими выражениями («секретно», «для служебного пользования», «не в нашей компетенции»)	Затрудняется правовая проверка отказа, возрастает риск произвольности	Установление обязательного стандарта мотивировки отказа: норма, факт, разъяснение
Полнота информации	Предоставляется частичный ответ, отсутствуют показатели и индикаторы	Снижается возможность граждан делать обоснованные выводы и осуществлять контроль	Закрепление минимальных требований к содержанию: показатели, периодичность, источник, методика

Формат и удобство использования	Информация публикуется в виде сканов или не машиночитаемых PDF-файлов	Ограничиваются возможности обработки, анализа и сопоставления данных	Публикация в открытых форматах, добавление метаданных и возможности скачивания
Механизм обжалования	Процедура обжалования носит формальный характер	Снижается эффективность правовой защиты	Введение ускоренного порядка рассмотрения жалоб и усиление мер ответственности

В таблице по каждому индикатору в единой логической цепочке представлены: форма проявления проблемы, её правовое последствие и практическая мера решения, что позволяет оперативно выявлять «слабые звенья». Предложенные меры ориентированы на наиболее часто встречающиеся проблемы и направлены на усиление гарантий реализации права; при этом они могут быть дополнительно закреплены через регламенты и стандарты.

Заключение и рекомендации. Анализ конституционных основ права на доступ к экологической информации показал, что данное право выступает ключевой процессуальной гарантией обеспечения интересов граждан в сфере благоприятной окружающей среды, предупреждения экологических рисков и осуществления общественного контроля. Вместе с тем фактическая реализация этого права во многом зависит от административной практики: несоблюдение сроков ответа, формальный и немотивированный отказ, предоставление неполной информации, а также использование неудобных форматов снижают эффективность конституционных гарантий и придают праву формальный характер. Следовательно, проблема заключается не столько в отсутствии нормативного закрепления, сколько в недостаточной регламентации процедур исполнения и механизмах ответственности, что приводит к ограничению возможностей граждан по полноценному использованию экологической информации.

В качестве предложений целесообразно, во-первых, внедрить единый административный регламент рассмотрения запросов экологической информации, в котором должны быть чётко определены порядок приёма и регистрации запроса, сроки и форма ответа, а также конкретные ответственные подразделения и должностные лица. Во-вторых, необходимо установить обязательный стандарт мотивировки отказа: отказ должен содержать ссылку на конкретную норму права, фактические основания и разъяснение причин, при этом в случае отсутствия компетенции орган обязан направить запрос по принадлежности либо предоставить заявителю чёткие разъяснения. В-третьих, следует закрепить минимальные требования к содержанию экологической информации: наличие показателей и индикаторов, указание периодичности, источника данных и краткого описания методики, а при частичном предоставлении информации — обоснование причин её неполноты. В-четвёртых, необходимо внедрить стандарты открытых форматов публикации данных (машиночитаемые форматы, метаданные, возможность поиска и скачивания), минимизируя использование сканированных и трудночитаемых файлов. В-пятых, для

обеспечения реальной эффективности механизма обжалования целесообразно установить ускоренный порядок рассмотрения жалоб, показатели результативности и усилить меры ответственности за нарушение сроков и необоснованный отказ. Реализация указанных мер позволит перевести право на доступ к экологической информации из формально закреплённой конституционной нормы в действенный инструмент прозрачного экологического управления и укрепления доверия общества к государственным институтам.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — Elektron resurs. — URL: https://constitution.uz/oz/pages/Ekologik_munosabatlar
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” (12.12.2002, № 439-II). — Elektron resurs // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). — URL: https://lex.uz/en/docs/6807988
3. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-making and Access to Justice in Environmental Matters (Aarhus Convention). — 1998. — Elektron resurs // United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). URL: https://www.unece.org/fileadmin/DAM/env/pp/documents/cep43e.pdf
4. Barritt E. The Aarhus Convention and the Latent Right to a Healthy Environment // *Journal of Environmental Law*. — 2024. — Vol. 36, Issue 1. — P. 67–84. — URL: https://academic.oup.com/jel/article/36/1/67/7614288
5. Whittaker S. Exploring a Right to Submit Environmental Information Under International Environmental Law // *Journal of Environmental Law*. — 2023. — Vol. 35, Issue 3. — P. 401–418. — URL: https://academic.oup.com/jel/article/35/3/401/7246364
6. Buxán Raposo I., Fra Paleo U. Gaps and limitations in public access to environmental information in mining licensing // *The Extractive Industries and Society*. — 2025. — Vol. 24. — 101711. — URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214790X25001005
7. Türker Y. Ö. The impact of the right of access to information on sustainable development goals under the Aarhus Convention // *Journal of Environmental Management*. — 2024. — Vol. 370. — 122918. — URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0301479724029049
8. 8. Hutchinson T., Duncan N. Defining and Describing What We Do: Doctrinal Legal Research // *Deakin Law Review*. — 2012. — Vol. 17, No. 1. — P. 83–119. — URL:https://ojs.deakin.edu.au/index.php/dlr/article/view/70
9. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *The Aarhus Convention: An Implementation Guide*. Second edition. — Geneva, 2014. —— URL:https://www.unece.org/fileadmin/DAM/env/pp/Publications/Aarhus_Implementation_Guide_interactive_eng.pdf
9. 10.Rahmonov A. A. Qulay atrof muhit va u haqida axborotga ega bo‘lish (ilmiy-amaliy konferensiya materiali). — 2024. — Elektron resurs. — URL: https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/69457/43826/79059
10. Ashurov M. S., Shakirova Yu. S. Ekologik axborot markazi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalari. — 2021. — Elektron resurs. URL:https://zenodo.org/record/5722678/files/Monograph%20Ashurov%20M.S.%2C%20Shakirova%20Yu.%2C%20Al-Ferganus%202021.pdf

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CERTAIN CRIMINAL LAW ASPECTS OF THE OFFENSE OF COUNTERFEITING AND CIRCULATION OF CURRENCY, EXCISE STAMPS, OR SECURITIES

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo ogli,
Independent Researcher at Tashkent State University of Law;
Lecturer at the Department of Legal Sciences,
National University of Uzbekistan (UzMU)
E-mail: sultonbekahmadjonov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-9706-3842

Abstract. The article examines the objective and subjective elements of the offense stipulated in Article 176 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan concerning the counterfeiting and circulation of currency, securities, and excise stamps. Through normative legal analysis, the study identifies its social danger and proposes recommendations for improving law enforcement practice.

Keywords: counterfeit currency; excise stamp; securities; intent to circulate; corpus delicti; social danger; track and trace system.

QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG‘OZLAR YASASH VA ULARNI O‘TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
O‘zMu “Huquqiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada JK 176-moddasida nazarda tutilgan qalbaki pul, qimmatli qog‘oz va aksiz markalarini yasash hamda o‘tkazish jinoyatining obyektiv va subyektiv jihatlari tahlil qilindi. Normativ-huquqiy tahlil asosida jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavfliligi va xorijiy tajriba o‘rganilib, huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: qalbaki pul; aksiz markasi; qimmatli qog‘ozlar; o‘tkazish maqsadi; jinoyat tarkibi; ijtimoiy xavflilik; track&trace tizimi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N44

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o‘rinlarda Jk) 176-moddasi qalbaki pul, qimmatli qog‘ozlar shuningdek aksiz markalarini yasash va ularni o‘tkazishni jinoyat sifatida qayd etgan. Modda 1-qism dispozitsiyasida esa yuqoridagi harakatlarga qo‘shimcha ravishda bank biletlari (banknotlar), metall tangalarni o‘tkazish maqsadida yasash va ularni o‘tkazish harakatlari ham jinoyat sifatida qayd etilgan.

Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlarni sodir etish mamlakat iqtisodiyoti, normal valyuta siyosatiga jiddiy zarar yetkazadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 147-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yagona moliya, pul va bank tizimiga ega [1]. Tizim yagonaligi va uni faqat davlat tomonidan boshqarilishi millionlab odamlarning ijtimoiy hayotiga bevosita bog‘liqligi sababli

ta’kidlash lozimki agar yirik miqdorda soxta pullar muomalaga kiritilsa bu millionlab insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, normal ish faoliyati va hayot kechirishiga bevosita ta’sir etadi. Masalan, Jk 104-moddasi yoki 97-moddasini sodir etgan shaxs bir yoki bir nechta inson hayotiga zarar yetkazsa, Jk 176-moddasini sodir etgan shaxs mamlakat byudjetiga bog‘langan, shu davlatda vaqtincha yoki doimiy yashayotgan har bir shaxsga bilvosita zarar yetkazadi [2]. Bu holatda jinoyat ishiga bir shaxs yoki ma’lum shaxslar guruhi jabrlanuvchi sifatida jalb etilsa-da aslida jinoyatdan bilvosita zarar ko‘rgan shaxslar, muassasalar doirasi ancha keng bo‘lishi mumkin. Fikrimizga dalil sifatida M.X.Rustambayevning ushbu modda bo‘yicha “Qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazishning ijtimoiy xavfliligi qog‘oz pul yoki qimmatli qog‘ozlar ko‘payib ketishiga, ya’ni pul va tovar massasi o‘zaro mutanosibligining buzilishiga sabab bo‘ladi. Muomalada tovar bilan ta’minlanmagan qog‘oz pullar paydo bo‘ladi, bu esa pulning qadrsizlanishiga, iqtisodiy beqarorlikka sabab bo‘ladi, davlat iqtisodiyotining asoslariga putur yetkazadi”, degan fikrlarini keltirishimiz mumkin [3, B.100].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va qiyosiy-huquqiy usullar qo‘llanildi. Jinoyat kodeksining 176-moddasi dispozitsiyasi amaldagi qonunchilik hamda xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlash maqsadida doktrinal manbalar hamda sud amaliyoti materiallari tahlil qilindi.

Muhokama. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, JK 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Qalbaki pul, qimmatli qog‘ozlar va aksiz markalarini yasash hamda ularni o‘tkazish muomaladagi moliyaviy vositalarga bo‘lgan ishonchni susaytiradi va davlatning pul-kredit hamda fiskal siyosatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari jinoyatning obyektiv tomoni keng qamrovli ekanini, ayniqsa aksiz markalari va qimmatli qog‘ozlar muomalasining murakkablashuvi sharoitida jinoyat sodir etish usullari ham takomillashib borayotganini ko‘rsatdi. Raqamlashtirish jarayonlari, elektron qimmatli qog‘ozlar va zamonaviy himoya elementlarining joriy etilishi bir tomondan xavfsizlikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan yangi turdagi qalbakilashtirish usullarining paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Subyektiv tomonni tahlil qilish shuni anglatadiki, mazkur jinoyat faqat to‘g‘ri qasd va o‘tkazish maqsadi mavjud bo‘lgan taqdirdagina jinoyat tarkibini vujudga keltiradi. Amaliyotda aynan “o‘tkazish maqsadi”ni isbotlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi va kvalifikatsiyada murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin.

Xorijiy tajriba, xususan Track&Trace tizimining joriy etilishi, qalbakilashtirishga qarshi preventiv choralar samaradorligini oshirayotganini ko‘rsatadi. Shu bois milliy qonunchilikni texnologik rivojlanish jarayonlariga mos ravishda takomillashtirish, ayniqsa raqamli moliyaviy aktivlar muomalasini jinoiy-huquqiy jihatdan aniqroq tartibga solish zarurati mavjud.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, JK 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi murakkab obyektiv va subyektiv belgilar tizimiga ega. Jinoyatning bevosita obyekti davlatning pul-kredit tizimi, moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Predmet sifatida milliy va chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar hamda aksiz markalari e’tirof etiladi.

Obyektiv tomoni qalbakilashtirish (yasash) va o‘tkazish harakatlarida ifodalanib, jinoyat formal tarkibli ekanligi aniqlandi. Ya’ni qalbakilashtirish harakatining o‘zi jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi, real zarar kelib chiqishi shart emas. Subyektiv tomoni esa faqat to‘g‘ri qasd va o‘tkazish maqsadi mavjud bo‘lgan taqdirdagina shakllanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aksiz markalarining zamonaviy himoya elementlari va Track&Trace tizimining joriy etilishi qalbakilashtirish xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari yangi turdagi jinoyat usullarining paydo bo‘lish ehtimolini yuzaga keltirmoqda.

Natijalar jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda ayniqsa “o‘tkazish maqsadi”ni aniqlash muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Obyektiv tomondan, modda dispozitsiyasida ko‘rsatilganidek harakatlar, ya’ni o‘tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar yoxud chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar yasash yoki ularni o‘tkazishda ifodalanadi. Bu yerda shuni inobatga olish kerakki garchi dispozitsiyada milliy valyuta yozilmagan bo‘lsada modda nomidan har qanday turdagi, shakldagi pulni qalbakilashtirish nazarda tutilganligini ko‘rishimiz mumkin. Har qanday davlat yoki tashkilotning muomaladagi pul birliklarini qalbakilashtirish ushbu modda bilan jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi. Ushbu pullar muomaladagi pul birliklari bo‘lishi zarur. Ya’ni muomaladan rasmiy ravishda chiqarilgan pullarni qalbakilashtirish bu jinoyat bo‘yicha tarkib bermaydi.

Zamonaviy global rivojlanish sharoitida iqtisodiy munosabatlarning raqamlashtirilishi jinoyat huquqi normalarini ham yangi realiyalarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, qimmatli qog‘ozlar muomalasining elektron shaklga o‘tishi shaffoflikni ta’minlash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda qalbakilashtirish risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. M. Castellsning fikricha, raqamli jamiyat sharoitida axborot texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarning asosiy infrastrukturasiga aylanadi va bu o‘z navbatida iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini ham yangi shaklda tashkil etishni talab etadi [4].

Biroq raqamlashtirishning o‘zi jinoyatchilikni to‘liq bartaraf etmaydi. U. Beck tomonidan ilgari surilgan “risk jamiyati” nazariyasiga ko‘ra, texnologik taraqqiyot yangi turdagi xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin [5]. Shu sababli qimmatli qog‘ozlar reyestrlarining elektronlashtirilishi bilan bir qatorda ularni himoya qilishning kriptografik va texnik xavfsizlik standartlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan texnologiyaning rivojlanishi jinoyatlarning mohiyatini o‘zgartiradi, ammo ularni yo‘q qilmaydi. D. Wall ta’kidlaganidek, raqamli texnologiyalar jinoyatlarni yangi shakllarga transformatsiya qiladi [6]. S. Brenner esa kiberjinoyatlar uchun maxsus kriminal-huquqiy tartibga solish zarurligini asoslaydi [7].

Muomaladan chiqarilgan, biroq tarixiy yoki kolleksion qiymatga ega bo‘lgan tangalarni qalbakilashtirish ham jinoyat-huquqiy himoya doirasiga kiritilishi lozim. A. Burnett numizmatik obyektlarning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [8].

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan yangi obyektlar paydo bo‘lmoqda. Kriptoaktivlar ham shunday obyektlardan biri bo‘lib, A. Wright va P. De Filippi blockchain texnologiyasi huquqiy munosabatlarda yangi tartibga solish mexanizmlarini

talab qilishini qayd etadi [9]. Yevropa Parlamenti hisobotlarida kriptoaktivlar potensial moliyaviy jinoyatlar predmeti bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan [10].

Shu nuqtai nazardan, muallif fikricha, jinoyat huquqi predmetining an’anaviy moddiy shakli bilan cheklanib qolmasligi lozim. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan axborot, algoritmik kodlar va virtual aktivlar ham jinoyat-huquqiy himoya obyektiga aylanishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, kelgusida kriptoaktivlar muomalasi qonuniylashtirilgan taqdirda, ularning algoritmik kodlarini soxtalashtirish orqali sodir etiladigan harakatlarni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi doirasida kvalifikatsiya qilish masalasini ilmiy jihatdan asoslash zarur.

Umuman olganda, iqtisodiy munosabatlarning raqamlashtirilishi jinoyat huquqi normalarini modernizatsiya qilishni talab etadi. Qimmatli qog‘ozlar, elektron reyestr tizimlari hamda kelgusida kriptoaktivlar bilan bog‘liq munosabatlar jinoyat huquqining yangi konseptual rivojlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Bu o‘rinda shuni qayd etish lozimki, agarda mamlakatlarning pul-kredit siyosati uchun mas’ul bo‘lgan markaziy banklari yangi banknotlar chiqishi haqida e’lon bergan bo‘lsa va pulning taxminiy ko‘rinishi, tavsifi haqida ma’lumot bersa, o‘sha pul birliklarini qalbakilashtirish ham Jk 176-modda bilan javobgarlikka tortilishga sabab bo‘lishi lozim. Biroq, M.X.Rustambayevga ko‘ra shaxsning jurnaldan yangi pulning namuna nusxalarini qirqib olib, ularni yopishtirib sotishga urinishini qalbaki pul yasash yoki ularni o‘tkazish deb bo‘lmaydi. Bunday qilmish muayyan sharoitda firibgarlik deb baholanishi mumkin. Chunki bunday pullar muomalada bo‘la olmaydi va davlatning pul-kredit tizimi asoslariga putur yetkazmaydi [11, B.101]. Fikrimizcha, ushbu pozitsiya bilan to‘liq kelishish qiyin. Zero, muomalaga kiritilishi Markaziy bank tomonidan rasmiy ravishda e’lon qilingan, biroq amalda hali muomalada bo‘lmagan pul belgilarini qalbakilashtirish ham ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanishi lozim. Bunday yondashuv pul-kredit tizimining istiqboldagi barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilishi rejalashtirilgan pul birliklari iqtisodiy tizimda potensial to‘lov vositasi sifatida shakllanadi va ularni oldindan soxtalashtirish kelgusida moliyaviy munosabatlarga zarar yetkazish xavfini tug‘diradi.

Shuningdek, jinoyat huquqining preventiv funksiyasi nuqtai nazaridan jinoiy-huquqiy himoya nafaqat amaldagi, balki muomalaga kiritilishi rasmiy e’lon qilingan iqtisodiy qiymatga ega obyektlarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunday talqin pul tizimining ishonchliligini ta’minlashga hamda moliyaviy firibgarliklarning dastlabki bosqichlaridayoq oldini olishga xizmat qiladi.

Muomaladan chiqarilgan, biroq tarixiy, antiqa yoki kolleksion qiymatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan tangalarni realizatsiya qilish maqsadida qalbakilashtirib zarb etish ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi bilan javobgarlikni keltirib chiqarishi lozim. Chunki xorijiy tajribada, masalan, Germaniya jinoyat kodeksi 146-moddasi (Geldfälschung), Buyuk Britaniyada tegishli qonunda (Forgery and Counterfeiting Act 1981), AQSHdagi umumiy federal qonunchilikda muomaladan chiqarilgan ammo tarixiy qiymatga ega, kolleksiya sifatida ishlatish mumkin bo‘lgan pullarni qalbakilashtirish uchun ham javobgarlik mavjud. Bu jinoyat huquqida himoya faqat amaldagi muomaladagi predmetlar bilan cheklanmasligi, balki potensial iqtisodiy va ijtimoiy xavf tug‘diruvchi obyektlarni ham qamrab olishi mumkinligiga asos bo‘ladi.

Kelgusida, agar mulk yoki to‘lov vositasi sifatida kriptoaktivlarning muomalada bo‘lishiga qonuniy asos yaratilsa, kriptoaktivlar algoritmik kodlarini soxtalashtirish orqali ularni to‘lov sifatida ishlatish holatlari ham Jinoyat kodeksining 176-moddasi bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu jinoyatni sodir etish usuli asosan rangli chop etuvchi moslamalar (printerlar) yordamida, pul qog‘oziga o‘xshash materialli qog‘oz turlaridan foydalangan holda, maxsus rang beruvchi bo‘yoqlar bilan amalga oshiriladi. Ba’zan yirik kupyuralarni maxsus qolip yordamida ham tayyorlashga urinishlari mumkin. Bunda qalbakilashtirish uchun eng qiyin bo‘lgan jihat, ya’ni har bir qog‘oz kupyurada mavjud bo‘lgan maxsus suv belgilari hisoblanadi. Rangli printerdan banknot nusxasi chop etilganda maxsus suv belgilari odatda mavjud bo‘lmaydi yoki jinoyatchi maxsus suv belgilariga ishlov berish tajribasiga ega bo‘lmaydi. Misol uchun, A. ismli shaxs 2025-yil 21-iyun kuni Payariq tumani mahallalarining birida joylashgan yashash uyida “Canon” rusumli rangli printerda 10.000 so‘mlik kupyuradagi WA2271152 seriyali qalbaki pullarni yasab o‘zining qarzdorligi evaziga boshqa fuqaroga o‘tkazgan. Holat yuzasidan tayyorlangan ekspertizada pullar Respublika Markaziy Bank standarti talablariga javob bermaydigan holda, qo‘lbola usulda printer yordamida tayyorlanganligi ko‘rsatilgan [12]. Oqibatda shaxs Jk 176-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

Soxta banknotni tayyorlagan shaxslar banknotdagi maxsus identifikatsiyalovchi raqamlarni haqiqiy pullardan ko‘chirishadi yoki haqiqiy pullardan aynan bir xil nusxa yaratishadi. Sababi, pullardagi maxsus raqamlar himoya belgilari sirasiga kiradi va uni qay tartibda, qaysi algoritmga muvofiq tartibga solinishi haqida jinoyatchilarda ma’lumot mavjud bo‘lmaydi. Chunki bu ma’lumotlar har bir davlat markaziy banklari va pul chop etuvchi korxonaning maxsus ruxsatga ega xodimlarigagina ma’lum bo‘lgan, odatda davlat siri darajasiga tenglashtirilgan yopiq axborotlar turkumiga kiradi.

Jinoyat sodir etish joyi odatda maxsus jihozlangan, uy sharoiti yaratilgan xonalar hisoblanadi. Shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar pul qalbakilashtirilayotganligi haqida xabarni olib, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha prokuror roziligi va sudning sanksiyasiga asosan tintuv o‘tkazish orqaligina jinoyat sodir bo‘lgan joydan tintuv va ko‘zdan kechirish harakatlarini olib borib, daliliy ashyolar, ya’ni chop etish vositalari, qog‘ozga ishlov berishda qo‘llaniladigan maxsus qoliplar, bo‘yoqlar, materiallarni protsessual tartibda rasmiylashtirishlari mumkin. Ya’ni boshqa jinoyatlardan farqli ravishda bu jinoyatda hodisa sodir bo‘lgan joy ommadan yashirin, ko‘pincha jinoyat subyektiga qarashli maxsus xususiy uy-joylar hisoblanadi.

Subyektiv tomondan olib qaraganda shaxsda o‘tkazish maqsadi bo‘lishi zarur. Motiv qanday bo‘lishi kvalifikatsiyaga ta’sir etmaydi. Ko‘pincha shaxslarda g‘arazli motiv asosida, ya’ni oson yo‘l bilan pul topish, mol-mulkka qulay yo‘llar bilan, qattiq mehnat qilmasdan erishish istagi mavjud bo‘ladi. Shaxs bu harakatlarni faqat to‘g‘ri qasddan sodir etadi. Agarda shaxs o‘zining hobbiysi sifatida qaysidir pul birligini chop etsa, ammo o‘tkazish maqsadi bo‘lmasa bu harakatda jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi. Masalan, A. ismli shaxs ishxonasida o‘zining qiziqishlari tufayli 100.000 so‘mlik kupyurani chop etdi va stoli ustida qoldirib, tashqariga chiqib ketdi. Undan qarz so‘ragani kirgan yaqin do‘sti stol ustida turgan pulni olib, marketdan savdo qiladi va u yerda soxta pul ekanligi ayon bo‘ladi. Bu yerda A. ismli shaxsning ham uning yaqin do‘stini ham aybi, qasdi mavjud emas. Shu sababli jinoyat tarkibi yo‘q. Bundan tashqari, agarda shaxs avvaldan bilmagan holda, ko‘chadagi odatiy savdo-sotiq tufayli qo‘lga

kiritgan soxta pulni boshqa joyda ishlatayotgan paytda ushlanib qolsa ham, uning qilgan harakati jinoyat tarkibini bermaydi. Chunki u pulga qarab uning haqiqiyligiga shubha qilmagan. Pullarning soxtaligini avvaldan bilmagan, ish holatlariga koʻra bilishi lozim ham mumkin ham boʻlmagan holatda jinoyat belgilari mavjud boʻlmaydi.

Oʻzbekistonda qanchadir muddat yashagan, muomaladagi banknotlardan xabari bor har bir shaxs kundalik maishiy bitimlar yuzasidan pul oldi-berdisini amalga oshirayotgan har bir holatda pullarga umumiy tarzda koʻz yugirtirib chiqishi lozim. Chunki u pullarni bankdan yoki ishxonasidagi moliya boʻlimidan emas, balki koʻchadagi notanish odamdan olmoqda. Masalan, shaxs olgan puli 30.000 soʻmlik boʻlsa, subyekt mazkur holatni anglash imkoniyatiga ega boʻladiki, Oʻzbekistonda 20.000 soʻmlik va 50.000 soʻmlik pul kupyuralari mavjud boʻlsada 30.000 soʻmlik kupyura mavjud emas. Shu sababli 30.000 soʻmlik banknotni olgan shaxs uni boshqa xizmat yoki tovar uchun oʻtkazmoqchi boʻlsa, qalbakiligini bilib turib oʻtkazish maqsadida harakat qilgan deya gumon qilinishiga sabab boʻladi. Agarda bu holat Oʻzbekistonga bir necha kun avval kelgan turist bilan sodir boʻlsa, unda jinoyatni ehtiyotsizlikda sodir etdi deb oʻylash uchun yetarli sabab mavjud boʻladi.

Jinoyat subyekti sifatida umumiy subyekt yoshi 16 yosh, aqli raso har qanday jismoniy shaxs. Jinsidan, fuqaroligidan, jinoyatni qaysi davlat hududida turib sodir etgan boʻlsa ham jinoyat oqibatida Oʻzbekiston iqtisodiyotiga ma’lum darajada zarar yetadi. Jk 176-modda ikkinchi qismiga koʻra modda dispozitsiyasida koʻrsatilgan harakatlar takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, agar oʻsha harakatlar uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan boʻlsa 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi tasnifiga koʻra ushbu moddaning 2-qismi ogʻir jinoyat boʻlsa, 3-qismi oʻta ogʻir jinoyat hisoblanadi.

JK 176-modda dispozitsiyasi qimmatli qogʻozlar, valyutani soxtalashtirishdan tashqari aksiz markasini qalbakilashtirishni ham oʻz ichiga oladi. **Aksiz markasi** — alkogol va tamaki kabi aksiz toʻlanadigan tovarlarning qonuniy ishlab chiqarilgani yoki import qilinganini tasdiqlovchi, davlat tomonidan maxsus himoya belgilari bilan chiqariladigan yorliqdir. U aksiz solig‘i toʻlanganini va mahsulot sifatini kafolatlaydi, qalbakilashtirishdan himoya qiladi va davlat budjetiga tushumni ta’minlaydi.

Aksiz markasini soxtalashtirish odatda soliqdan qochish uchun, yashirin iqtisodiyot keng tarqalgan hududlarda sodir boʻladi. Jinoyatchi odatda aksiz markasiga oʻxshash aksiz marka tayyorlab, mahsulotlariga yopishtiradi. Iloji boricha mahsulotni muomalaga chiqarishda naqd pulga, kassa hisobiga kirim qilmasdan sotadi yoki sotib oladi. Ayrim hollarda 1 ta mahsulot uchun berilgan aksiz markasini xuddi shu turdagi mahsulotlarga nusxalab yopishtirib chiqadi.

Subyektiv tomondan jinoyatchi toʻgʻri qasd bilan, moddiy manfaat uchun sodir etadi. Jinoyat sodir etgan shaxs soliqdan qochish yoki boshqa moddiy naf koʻrish uchun bilib turib harakat qiladi. Shuning uchun tamaki va alkogol mahsuloti bilan shugʻullanuvchi har bir shaxs oldi-sotdi jarayonlarida aksiz markasi haqiqiyligi va har bir mahsulotda alohida mavjud ekanligini tekshirishi lozim.

Xorijiy tajribaga yuzlanadigan boʻlsak (Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya) aksiz markalari quyidagi himoya elementlari bilan ishlab chiqariladi:

1. Gologrammalar

2. Mikro matn (microtext)

3. UV (ultrabinafsha) nurda koʻrinadigan belgilar

4. Maxsus tolali qogʻoz

5. Oʻzgaruvchan rangli siyoh (optically variable ink)

6. QR-kod yoki Data Matrix kod

7. Seriya va individual identifikatsiya raqami [13].

Yevropa Ittifoqida 2019-yildan boshlab Track&Trace tizimi joriy etilgan [14]. Unga koʻra, har bir tamaki qutisiga oʻziga xos identifikatsiya kodi, ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi, ishlab chiqarilgan sana hamda partiya raqami kiritiladi. Mazkur tizim orqali hukumatning tegishli idoralari ishlab chiqarilgan har bir quti tamaki mahsulotining qayerda sotilayotgani va qaysi savdo shoxobchasining kassa apparatida realizatsiya qilinayotganini elektron tarzda, tijorat sirlariga rioya etgan holda kuzatib boradi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham xorijiy tajriba va ilgʻor texnologiyalardan samarali foydalanish asosida alkogol va tamaki mahsulotlari uchun aksiz markalari qalbakilashtirishga qarshi muhim himoya elementlari bilan ta’minlangan. Masalan, alkogol mahsulotlariga aksiz markasidagi himoya elementlarining joylashish sxemasi quyidagicha.

1. Mikromatn “UZBEKISTAN”.

2. Koʻrish burchagi oʻzgarganda oʻz rangini oʻzgartiradigan, “ANTISTOKS” xususiyatiga ega iridissent buyogʻida bajarilgan tasvir.

3. QR-CODE “TOSHKENTVINO, AROQ, OʻZ23026, 0,75 L”.

4. Mahsulot nomi “AROQ”.

5. Suv belgisi.

6. Ishlab chiqaruvchining kod raqami OʻZ23026.

7. Nusxa koʻchirishga qarshi fon (asos).

8. Qizil va yashil rangdagi koʻrinuvchan tolalar.

9. Raqamli nomer aksiz markasining yuz tarafida “QORA” va orqa tarafda “QIZIL” rangda koʻrinadigan koʻchuvchi buyoq bilan chop etilgan.

10. Mahsulot hajmi.

11. Tasvir boʻrtmaliligiga ega buyoqsiz metallograf usulida kumush rangli asos ustida bajarilgan.

12. Metall jism bilan ishqalansa “UZB” namoyon boʻladi.

13.Metallograf usulida bajarilgan multiton effektli, boʻrtmaliligiga ega naqshinkor bezak, infraqizil nurlari ostida koʻrinmaydigan boʻyoq bilan chop etilgan va markazida “UZB” mikromatni mavjud.

14. Ultrabinafsha nurlari ostida koʻrinadigan sariq rangli nuqtalar va koʻk rangli tolalar.

Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kiriladigan tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markasining himoya elementlari quyidagi tartibda joylashgan.

1. Mikromatn “TAMAKI MAHSULOTLARI”.

2. Maxsus himoya boʻyogʻi “ANTISTOKS” bilan bosilgan, infraqizil nurlari ostida tovlanadigan va ultrabinafsha nurlari ostida koʻrinadigan element.

3. Koʻrish burchagi oʻzgarganda oʻz rangini oʻzgartiradigan, iridissent boʻyogʻida bajarilgan tasvir.

4. Ishlab chiqaruvchining kod rakami “OʻZ2301”.

5. Ultrabinafsha nurlari ostida koʻrinadigan sariq va koʻk rangli tolalar;
6. Qizil va yashil rangdagi koʻrinuvchan tolalar.
7. Nusxa koʻchirishga qarshi fon (asos).
8. Suv belgisi [15].

Jinoyat kodeks 176-moddasi yuqoridagilardan tashqari qimmatli qogʻozlarni soxtalashtirishni ham oʻz ichiga oladi. Avvalo qimmatli qogʻozlar nima ekanligini aniqlashtirib olish kerak. **Qimmatli qogʻozlar –** hujjatlar boʻlib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi oʻrtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad toʻlashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga oʻtkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qogʻozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamgʻarma sertifikatlari, konosament, aksiya hamda qonunchilik bilan qimmatli qogʻozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi [16].

Aksiya — oʻz egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga boʻlgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qogʻoz hisoblanadi.

Obligatsiya – emissiyaviy qimmatli qogʻoz boʻlib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga boʻlgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Veksel – veksel beruvchining yoxud vekselda koʻrsatilgan boshqa toʻlovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani toʻlashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qogʻoz hisoblanadi [17].

Qimmatli qogʻozlarni chiqarish, joylashtirish, muomalaga kiritish hamda e'lon qilish bilan bogʻliq munosabatlar "Qimmatli qogʻozlar bozori toʻgʻrisida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Unga koʻra, qimmatli qogʻozlar vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilishi lozim. Shuningdek, qonunchilikda qimmatli qogʻozlarning turlariga qarab, unda mulk egasining rekvizitlari koʻrsatilishi nazarda tutilgan.

Tarixan qimmatli qogʻozlar maxsus himoya elementlariga ega boʻlgan qogʻoz shaklida rasmiylashtirilib, unda nominal qiymati, foiz stavkasi, amal qilish muddati hamda mulk egasi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Hozirgi kunda esa qimmatli qogʻozlarning elektron (raqamli) shakllari ham keng tarqalgan. Bu holat ularni qalbakilashtirishni sezilarli darajada qiyinlashtirdi.

Shunday qilib, qimmatli qogʻozlar bozori, undagi moliyaviy operatsiyalar, qimmatli qogʻozlarni rasmiylashtirish va ular bilan bogʻliq hujjat aylanish jarayonlarining elektronlashtirilishi zamonaviy rivojlangan iqtisodiyotning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohani raqamlashtirish nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, mulk egalari toʻgʻrisida ishonchli reyestrlarni yuritish hamda shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi.

Qimmatli qogʻozlarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni odatda bir necha usullarda namoyon boʻladi. Amaliyotda uchraydigan asosiy soxtalashtirish usullari quyidagilardan iborat:

1. Shaxs aslida mavjud bo‘lmagan yuridik shaxs nomidan soxta aksiyalar yoki obligatsiyalar chiqaradi. Emitentlar reyestri hamda obligatsiyalar bozori to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan jabrlanuvchilar obligatsiyada ko‘rsatilgan yuqori foiz stavkasi va qisqa muddatli daromad va’dalariga ishonib, mazkur qimmatli qog‘ozlarni sotib olishlari mumkin. Boshqa holatda esa, bozorda obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan va muntazam ravishda qimmatli qog‘ozlar chiqarib turuvchi kompaniya nomidan soxta qimmatli qog‘ozlar emissiya qilinib, jabrlanuvchilar chalg‘itiladi.

2. Amalda mavjud bo‘lgan haqiqiy qimmatli qog‘oz rekvizitlariga o‘zgartirish kiritish orqali soxtalashtirish. Jumladan, unda ko‘rsatilgan foiz stavkasini oshirish, mulkdor nomini boshqa shaxs nomiga almashtirish yoki to‘lov (qaytarib olish) muddatini o‘zgartirish kabi harakatlar amalga oshiriladi. Bunday holatni aniqlash uchun qimmatli qog‘oz rekvizitlarini vakolatli organ yuritadigan reyestr ma’lumotlari bilan solishtirish yetarli hisoblanadi.

3. Qimmatli qog‘oz blankasiga emitentning vakolatli shaxsi imzosini yoki rasmiy muhrini qalbakilashtirish orqali hujjatga qonuniy ko‘rinish berish. Bunda hujjat tashqi belgilari bo‘yicha haqiqiy qimmatli qog‘oz taassurotini uyg‘otadi, biroq u yuridik kuchga ega bo‘lmaydi.

4. Depozitar reyestridagi yozuvlarga xakerlik yo‘li bilan noqonuniy o‘zgartirishlar kiritish, elektron aksiyalar yoki obligatsiyalar haqidagi ma’lumotlarni buzish, o‘chirish yoki qo‘shimcha ma’lumotlar kiritish orqali soxtalashtirish. Bunda jinoyat kompyuter texnikasi va axborot tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgani sababli, u axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-bobi) hamda qimmatli qog‘ozlarni soxtalashtirish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli modda (JK 176-modda) bilan jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

5. QR-kod yoki boshqa identifikatsiyalovchi maxsus belgilarni haqiqiy qimmatli qog‘ozdan ko‘chirib olib, ularni soxta rekvizitlar va mulkdor nomi kiritilgan qimmatli qog‘ozga joylashtirish orqali soxtalashtirish. Bunday holatda dastlabki tekshiruv jarayonida QR-kod yoki boshqa identifikatsiya raqami haqiqiy deb aniqlanishi mumkin, biroq ma’lumotlar bazasidagi asl rekvizitlar bilan taqqoslash natijasida qalbakilashtirish holati fosh etiladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki ayrim olimlar, jumladan M.Urazaliyev va P.Yesenbekovaga ko‘ra, Aksiz markalarni JKning 176-moddasi dispozitsiyasiga kiritish va ularni ushbu modda obyekti sifatida hisoblash noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Aksiz markalar, maxsus qat’iy hisobvaraqlarga ega blankalar bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar turkumiga kirmaydi va pul yoki tovarlarning ekvivalenti hisoblanmaydi, chunki ularning nominal qiymati yo‘q, bu esa faqat pul vositalari va qimmatli qog‘ozlarga xos xususiyatdir. Shu sababli, ular pul muomalasida ishtirok etmaydi. Ularni soxtalashtirish yoki sotish, ijtimoiy munosabatlarni, davlatning pul-kredit tizimining normal faoliyatini ta’minlovchi munosabatlarni buzishi mumkin emas. Shu bois, aksiz markasini 176-moddasi dispozitsiyasidan jinoyat obyekti sifatida chiqarish mantiqan to‘g‘ri ko‘rinadi [18]. Ularning fikridan kelib chiqsak, aksiz markalarni soxtalashtirishni JK 176-moddasi emas Jk 228-moddasi tartibga solsa mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Masalan Rossiya jinoyat kodeksi 186-moddasi qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash, saqlash, tashish yoki o‘tkazishni nazarda tutsa, qalbaki aksiz markasi tayyorlash, o‘tkazish JK 3271-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot JK 176-moddasida nazarda tutilgan qalbakilashtirish va o‘tkazish jinoyati iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi, yuqori ijtimoiy xavflilikka ega murakkab jinoyat tarkibi ekanligini ko‘rsatdi. Jinoyatning obyekti davlatning

pul-kredit tizimi va moliyaviy barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning predmeti milliy va chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar hamda aksiz markalarini qamrab oladi.

Tahlillar jinoyatning formal tarkibli ekanini hamda uni kvalifikatsiya qilishda ayniqsa subyektiv tomondagi o‘tkazish maqsadini aniqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Raqamlashtirish jarayonlari va moliyaviy instrumentlarning transformatsiyasi qalbakilashtirish usullarining ham evolyutsiyasiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan jinoyat qonunchiligini zamonaviy texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda takomillashtirish, raqamli moliyaviy aktivlar muomalasini aniqroq jinoiy-huquqiy tartibga solish hamda preventiv mexanizmlarni kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (yangi tahrir). – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2025.
3. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –529 bet.
4. Castells, M. *The Rise of the Network Society*. Blackwell Publishers, 1996.
5. Beck, U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. Sage Publications, 1992.
6. Wall, D. *Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age*. Polity Press, 2007.
7. Brenner, S. W. *Cybercrime: Criminal Threats from Cyberspace*. Praeger, 2010.
8. Burnett, A. *Coins*. British Museum Press, 1991.
9. Wright, A. & De Filippi, P. *Decentralized Blockchain Technology and the Rise of Lex Cryptographia*.
10. European Parliament. *Cryptocurrencies and Blockchain – Legal Context and Implications*. 2018.
11. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Darslik. 2018. – 529 bet.
12. Samarqand viloyati sudi arxividan. 1-1412-2601/4-sonli jinoyat ishi.
13. Yevropa Ittifoqi – Tobacco Products Directive (2014/40/EU). https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0040
14. Yevropa Ittifoqi – Tamaki mahsulotlari Track & Trace tizimi. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32014L0040
15. 26.07.2023-yildagi 313-sonli Vazirlar Mahkamasi Qarori https://lex.uz/docs/-6546605
16. Fuqarolik kodeksi 96-modda. Qimmatli qog‘ozlar https://lex.uz/docs/-111189#-152874
17. Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida qonun. 04.06.2015. O‘RQ-387-son. https://lex.uz/docs/-2662539
18. Уразалиев, М., & Есенбекова, П. (2022). Совершенствование уголовного законодательства, предусматривающего ответственность за изготовление, сбыт поддельных денег, акцизных марок или ценных бумаг. Общество и инновации, 3(1), 89–97. (Urazaliev, M., & Yesenbekova, P. (2022). Improvement of criminal legislation providing liability for the production and circulation of counterfeit money, excise stamps, or securities. Society and Innovation, 3(1), 89 97.)

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CLASSIFICATION OF ADMINISTRATIVE ENVIRONMENTAL OFFENSES IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS WITH THE EXPERIENCE OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN

Otaubayeva Aigul Bakhramovna
Independent Researcher
Tashkent State University of Law
E-mail: Otaubaeva@mail.ru
http://www.orcid./0009-0001-7696-0134

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of the classification of administrative environmental offenses in the legislation of the Republic of Uzbekistan in comparison with the experience of the Republic of Kazakhstan. The research is based on the analysis of the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan, the Environmental Code, as well as the Code of Administrative Offenses of the Republic of Kazakhstan and other regulatory acts governing liability for violations in the field of environmental protection. Particular attention is paid to the criteria for classifying environmental offenses — by the object of protection, the subject, the degree of harm, the form of guilt, and the nature of sanctions. A comparative legal analysis showed that both countries have similar approaches to defining and systematizing environmental offenses, but differ in the level of detail and structure of legal regulation. In Kazakhstan, administrative liability of legal entities is established, which increases the effectiveness of law enforcement, while in Uzbekistan this aspect requires improvement. The author concludes that harmonization of national legislation with international environmental law standards, strengthening preventive measures, and introducing a unified classification system of administrative environmental offenses are essential for enhancing the effectiveness of environmental law enforcement and sustainable natural resource management.

Keywords: administrative responsibility, environmental offenses, classification, environmental law, Republic of Uzbekistan, Republic of Kazakhstan, environmental protection, sustainable development, comparative legal analysis, natural resources.

КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН

Отаубаева Айгуль Бахрамовна,
Независимый исследователь
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты классификации административных экологических правонарушений в законодательстве Республики Узбекистан в сравнении с опытом Республики Казахстан. Исследование основано на анализе Кодекса об административной ответственности Республики Узбекистан, Экологического кодекса, а также Кодекса об административных правонарушениях Республики Казахстан и других нормативных актов, регулирующих ответственность за нарушения в сфере охраны окружающей среды. Особое внимание уделено критериям классификации экологических правонарушений — по объекту охраны, субъекту, степени вреда, форме вины и характеру санкций. Проведён сравнительно-правовой анализ, который показал, что обе страны имеют сходные подходы к определению состава и систематизации экологических проступков, однако

отличаются уровнем детализации и структурой правового регулирования. В Казахстане предусмотрена административная ответственность юридических лиц, что повышает эффективность правоприменения, тогда как в Узбекистане этот аспект требует совершенствования. Сделан вывод о необходимости гармонизации национального законодательства с международными стандартами экологического права, усиления роли превентивных мер и внедрения единой системы классификации административных экологических правонарушений для повышения эффективности правоприменения и устойчивого природопользования.

Ключевые слова: административная ответственность, экологические правонарушения, классификация, экологическое право, Республика Узбекистан, Республика Казахстан, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, сравнительно-правовой анализ, природные ресурсы.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N45

Введение. Современные экологические вызовы, такие как изменение климата, деградация земель, сокращение биологического разнообразия и загрязнение окружающей среды, требуют от государств выстраивания эффективных правовых механизмов экологической ответственности. В этой связи особое значение приобретает институт административной ответственности, который обеспечивает оперативное реагирование на экологические правонарушения и предупреждение более серьёзных экологических преступлений.

В Республике Узбекистан вопросы административной ответственности в сфере экологии регулируются Кодексом об административной ответственности, Экологическим кодексом и рядом подзаконных актов. В Республике Казахстан аналогичные положения содержатся в Кодексе об административных правонарушениях и Экологическом кодексе 2021 года. Несмотря на общие цели правового регулирования, подходы к классификации административных экологических правонарушений в двух странах имеют отличия, связанные с особенностями национальных правовых систем и институциональной структуры управления природопользованием.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью сравнительного анализа правовых систем Казахстана и Узбекистана, выявления общих принципов, различий и перспектив гармонизации экологического законодательства в контексте международных обязательств по устойчивому развитию.

Цель исследования. Целью исследования является проведение комплексного сравнительно-правового анализа классификации административных экологических правонарушений в законодательстве Республики Узбекистан и Республики Казахстан, выявление общих и специфических признаков, а также выработка рекомендаций по совершенствованию национальной системы административной ответственности в сфере охраны окружающей среды.

Методы и материалы. Для достижения поставленной цели использовался комплекс взаимодополняющих научных методов, обеспечивающих системный и объективный анализ правовых норм:

- Сравнительно-правовой метод — применён для сопоставления положений Кодексов об административной ответственности Узбекистана и Казахстана, а также определения общих тенденций и различий в классификации экологических правонарушений.
- Формально-юридический метод — использовался для анализа структуры, содержания и юридической природы норм, регулирующих административную ответственность за экологические проступки.

- Системно-структурный подход — позволил выявить взаимосвязь между институтами административного, экологического и природоресурсного права.
- Метод анализа и синтеза — применён при изучении научных источников, судебной и правоприменительной практики.
- Метод правового прогнозирования и моделирования — использован при разработке предложений по совершенствованию законодательства и унификации классификационных критериев административных экологических правонарушений.

Литературный обзор

В основу исследования положен анализ нормативных правовых актов, научных трудов и официальных источников, регулирующих вопросы административной ответственности и классификации экологических правонарушений в Республике Узбекистан и Республике Казахстан. Использование междисциплинарного подхода позволило объединить теоретические и практические материалы, отражающие развитие экологического законодательства и административного права двух стран.

Исследование опирается на труды отечественных и зарубежных авторов, посвящённые вопросам ответственности за экологические правонарушения и классификации административных проступков: Симухин В.Д. в своей диссертации *«Административная ответственность в области охраны природы»* (Саратов, 1988) впервые системно рассмотрел категории и виды административных экологических правонарушений, выделив их по объекту и степени вреда окружающей среде. Байдельдинов Д.Л. (*«Экологическое право Республики Казахстан»*, Алматы: Юрист, 2021) и Абдраимов Е.Э. (*«Ответственность за экологические правонарушения: проблемы теории и практики»*, Астана: Фолиант, 2020) подробно исследовали особенности применения административных санкций в экологическом праве Казахстана. Существенный вклад в развитие общей теории экологического права внесли работы Петрова В.В. — *«Экология и право России»* (1995) и *«Экологическое право»* (2005), где раскрыты проблемы правового регулирования и систематизации экологических правонарушений.

Для анализа современной практики классификации экологических правонарушений использованы публикации Слямова Д.А. (*«Классификация экологических правонарушений»*, *Вестник КАСУ*, № 4, 2010), в которых предложена структурная модель деления правонарушений по характеру экологического вреда и субъектному составу.

Нормативную базу исследования составили:

- Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности от 22 сентября 1994 года (в ред. 2023 г.);
- Закон Республики Узбекистан «Об охране природы» от 9 декабря 1992 года;
- Кодекс Республики Казахстан об административных правонарушениях от 5 июля 2014 года № 235-V.

Эти источники послужили основой для проведения сравнительного анализа состава и классификации административных экологических правонарушений, выявления общих принципов и отличий в правовом регулировании двух государств, а

также разработки рекомендаций по совершенствованию национальных систем экологической ответственности.

Классификация составов экологических правонарушений имеет важное значение как в теоретическом, так и в прикладном аспекте. От ее точности зависит эффективность правового регулирования, практика применения норм экологического законодательства, а также построение систем предупреждения и профилактики экологически вредного поведения.

В данной сфере наблюдается значительная недостаточность исследований, которые, как правило, ограничиваются лишь перечислением оснований для классификации без должного теоретического обоснования. Это подтверждается также отсутствием единого мнения среди специалистов в области теории права и смежных юридических дисциплин по поводу признаков, на которых должна строиться классификация. Одни исследователи предлагают группировать правонарушения: а) по содержанию общественных отношений, б) по характеру мотивов поведения, в) по особенностям ситуаций и другим признакам. Другие считают возможным классифицировать правонарушения: а) по характеру регулируемых отношений, б) по степени общественной опасности, в) по субъектам, г) по распространенности и т. д. Третьи предлагают разделять их: а) по степени обобщенности признаков, б) по особенностям конструкции, в) по способу изложения, а также по признакам состава правонарушения. Четвертые классифицируют правонарушения: а) по предмету, б) по объекту, в) по санкциям, г) по способу совершения. Пятые разделяют их: а) по предметному признаку и способу совершения, а шестые: а) по объекту, б) по субъекту, в) по материальному содержанию, г) по способу совершения, д) по форме вины, е) по правовым последствиям [1].

Разные ученые предлагают различные основания для классификации. Одни авторы в основу деления кладут вид юридической ответственности (уголовную, административную, дисциплинарную, гражданско-правовую) [2], другие — объект посягательства [3]. Однако наиболее обоснованным представляется подход, в рамках которого экологические правонарушения классифицируются по совокупности следующих признаков:

субъекту правонарушения (физическое или юридическое лицо, должностное лицо);

объекту охраны (вода, воздух, земля, животный и растительный мир и т.д.);

виду юридической ответственности, применяемой в конкретном случае (уголовная, административная и пр.).

Классификация экологических правонарушений строится на основании определённых признаков, лежащих в её основе. В соответствии с подходом В. В. Петрова, к таким признакам относятся: предмет правонарушения, объект, характер санкций, способ нанесения вреда и степень общественной опасности [4].

По предмету правонарушения можно выделить следующие группы:

1. деяния, нарушающие права собственности, владения и пользования природными ресурсами;
2. действия, противоречащие установленным экологическим требованиям по охране природы;

3. правонарушения, препятствующие рациональной хозяйственной эксплуатации природных ресурсов.

По объекту выделяются земельные, водные, лесные правонарушения, нарушения законодательства о недрах, охране атмосферного воздуха, животного мира и другие — то есть классификация строится по отраслевому признаку.

По способу причинения вреда выделяют следующие группы правонарушений: загрязнение окружающей среды, нерациональное использование природных ресурсов, уничтожение, повреждение или порча природных объектов, их истощение и разрушение экологических связей. Эти группы могут пересекаться и взаимосвязываться, что отражает сложность и многогранность экологических нарушений.

По характеру санкций экологические правонарушения делятся на уголовные, административные, гражданские и дисциплинарные. Санкции отражают негативные последствия для нарушителя и зависят от степени общественной опасности и характера наказания. Исходя из этого, все экологические правонарушения подразделяются на две основные категории: экологические преступления (предусмотренные уголовным кодексом) и экологические проступки (все остальные виды нарушений, не имеющие признаков преступления) [5].

В соответствии с этим подходом, по предмету посягательства экологические правонарушения могут быть условно разделены на следующие группы:

1. деяния, нарушающие права собственности, владения и пользования природными ресурсами;
2. действия, противоречащие установленным экологическим требованиям по охране окружающей среды;
3. правонарушения, создающие препятствия для рационального использования и хозяйственной эксплуатации природных ресурсов.

Административные правонарушения в области экологии представляют собой одну из форм негативного воздействия на окружающую среду, не достигающую уровня общественной опасности, присущей преступлениям, но тем не менее нарушающую установленный экологический правопорядок. Их классификация имеет большое значение для систематизации нормативно-правовых норм, совершенствования механизма правоприменения и обеспечения превентивных мер экологической безопасности.

Научная и практическая литература предлагает различные основания для классификации административных правонарушений экологической направленности. Наиболее обоснованным является многоуровневый подход, включающий следующие критерии [6]:

1. По объекту правонарушения:
   - Нарушения, посягающие на воздушную среду (например, превышение предельно допустимых выбросов загрязняющих веществ);
   - Нарушения в сфере водопользования (несоблюдение правил сброса сточных вод);
   - Нарушения, связанные с земельными ресурсами (самовольное снятие или перемещение плодородного слоя почвы);

- Нарушения в области лесных и растительных ресурсов (незаконная рубка, уничтожение зелёных насаждений);
- Нарушения, касающиеся животного мира (браконьерство, незаконная охота, отлов или уничтожение редких видов);
- Нарушения при обращении с отходами (несоблюдение порядка утилизации, хранения, транспортировки отходов).

По субъекту правонарушения:

- Физические лица;
- Должностные лица;
- Юридические лица.

2. По характеру вины:
   - Совершённые умышленно;
   - Совершённые по неосторожности.
3. По характеру вреда:
   - Нарушения, приведшие к реальному экологическому ущербу;
   - Нарушения, создавшие угрозу наступления вреда, но без прямых последствий.
4. По степени общественной вредности:
   - Простые правонарушения (например, нарушение правил благоустройства);
   - Грубые правонарушения, приближающиеся к составам преступлений (например, причинение существенного ущерба водным объектам).

Узбекистан и Казахстан уделяют значительное внимание правовому регулированию экологической сферы, включая административную ответственность за экологические проступки.

В Республике Узбекистан нормы, касающиеся экологической ответственности, сосредоточены в главе 8 Кодекса об административной ответственности (КоАО РУз), охватывающей статьи 79–103 [7]. Эти нормы предусматривают ответственность за аналогичные правонарушения, включая загрязнение природной среды, нарушение правил охраны водных и земельных ресурсов, растительного и животного мира.

Экологическое законодательство Узбекистана дополняется Законом от 9 декабря 1992 года «Об охране природы» [8], а также рядом подзаконных нормативных правовых актов, конкретизирующих меры охраны природных ресурсов и административную ответственность за экологические правонарушения.

В Республике Казахстан Кодекс об административных правонарушениях (КоАП РК) содержит отдельную главу 20 (статьи 328–343), которая целиком посвящена экологическим правонарушениям [9]. Данная глава охватывает широкий спектр нарушений, связанных с загрязнением окружающей среды, неправильным обращением с отходами, нарушениями в сфере охраны земель, водных ресурсов, лесов, животного и растительного мира, а также особо охраняемых природных территорий.

Анализ национальных подходов Республики Казахстан и Республики Узбекистан позволяет выявить как общие тенденции, так и специфические особенности правового регулирования.

В обоих государствах классификация административных экологических правонарушений строится с учётом следующих критериев:

Таблица 1.

Общие подходы к классификации

Критерий	Казахстан	Узбекистан
По объекту охраны	Вода, воздух, земля, животный и растительный мир, отходы, ООПТ	природные ресурсы, ООПТ, атмосферный воздух, животный и растительный мир
По субъекту	Физические, должностные и юридические лица (КоАП РК, ст. 28,34)	Физические, должностные лица (отсутствуют юридические лица) (ст. 13-17 КоАО РУз)
По степени вреда	С наступившими последствиями или с угрозой их наступления	Также предусмотрено деление в зависимости от тяжести
По форме вины	Умышленная или по неосторожности (ст. 26,27 КоАП РК)	Соответствует положениям ст. 11,12 КоАО РУз

Анализ таблицы 2 показывает, что обе страны применяют аналогичные критерии для классификации экологических правонарушений, что свидетельствует о схожести их подходов к вопросам экологической ответственности. В Казахстане предусмотрена ответственность как для физических, должностных, так и юридических лиц (ст. 28, 34 КоАП РК), что позволяет более эффективно привлекать организации к ответственности за экологические правонарушения. В Узбекистане же отсутствует ответственность для юридических лиц, что ограничивает возможности для привлечения крупных предприятий и организаций к ответственности. Рекомендуется внести изменения в законодательство и предусмотреть ответственность юридических лиц за административные правонарушения. Это обеспечит более комплексный подход к экологической ответственности.

Талица 2.

Специфика правонарушений по составам

Сфера	Узбекистан ***(КоАО РУз)***	Казахстан (***КоАП РК)***	Аннотация (краткое содержание правонарушений)
1. Земельные правонарушения	Ст. 65–68-1	Ст. 337–342-1	Нарушения порядка землепользования: самовольный захват, нецелевое использование, порча почвы, сокрытие землепользования от учета.
2. Охрана недр	Ст. 70–71	Ст. 345–356	Незаконная разработка месторождений, добыча полезных ископаемых без лицензии, нарушение правил охраны и рационального использования недр.
3. Охрана водных ресурсов	Ст. 72–76	Ст. 358–365	Самовольный забор воды, сброс загрязняющих веществ, нарушение водоохранных зон, неэффективное водопользование.
4. Лесные ресурсы	Ст. 77–84	Ст. 366–372	Незаконная вырубка деревьев, повреждение лесных насаждений,

			нарушение режима лесопользования и противопожарных правил.
5. Охрана атмосферного воздуха и отходы	Ст. 85–91-3	Ст. 324–336, 344–344-2	Загрязнение воздуха выбросами, нарушение норм по утилизации, сбору, транспортировке и захоронению отходов, обращение с опасными веществами.
6. Флора и фауна	Ст. 81–94 (перекрываются с лесными и охотничьими)	Частично в ст. 370–372	Незаконная охота, отлов, вырубка редких видов, нарушение правил охраны объектов животного и растительного мира.
7. Экологическая экспертиза	Ст. 96	Ст. 332, 348	Проведение деятельности без экологической экспертизы, нарушение ее условий, представление недостоверных материалов.
8. Сельское хозяйство	Ст. 104–112	Ст. 338–340 (частично), + специальные законы	Нарушения в агротехнике, карантине растений, ветеринарии, использовании химических и биологически

Таблица 2 предоставляет информацию о специфике правонарушений в экологической сфере в Казахстане и Узбекистане, основываясь на составах, предусмотренных в Кодексах двух стран.

Заключение. Анализ состава экологических правонарушений, предусмотренных в КоАП Республики Казахстан и КоАО Республики Узбекистан, показывает схожесть и различия в подходах двух стран к регулированию экологических правонарушений. В обеих странах законодательство охватывает основные экологические области, такие как загрязнение окружающей среды, обращения с отходами, охрана ООПТ и защиту земельных ресурсов.

Сравнительный анализ административной ответственности в экологической и аграрной сферах Узбекистана и Казахстана показывает как сходства, так и различия в законодательных подходах. В обеих странах предусмотрены санкции за правонарушения в области охраны земли, недр, водных и лесных ресурсов, атмосферного воздуха, флоры и фауны. Узбекистан характеризуется более системным и компактным изложением норм в рамках КоАО, где каждой сфере отведены конкретные блоки статей. Казахстан, напротив, демонстрирует высокую детализацию и разграничение, включая отдельные статьи и привлечение норм специальных законов. Особенно это проявляется в регулировании недропользования, водных ресурсов и обращения с отходами. В сфере сельского хозяйства Узбекистан имеет самостоятельный раздел в кодексе, в то время как в Казахстане значительная часть ответственности регулируется вне КоАП. В целом, оба подхода отражают стремление к экологической безопасности, но Казахстан делает акцент на детализацию и технический контроль.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Simukhin V.D. Administrativnaya otvetstvennost' v oblasti okhrany prirody [Administrative liability in the field of nature protection]. Diss. … Cand. jurid. nauk. Saratov, 1988, pp. 45, 54.

2. Baideldinov D.L. Ekologicheskoe pravo Respubliki Kazakhstan: uchebnik [Environmental law of the Republic of Kazakhstan: textbook]. Almaty: YURIST, 2021.
3. Abdraimov E.E. Otvetstvennost' za ekologicheskie pravonarusheniya: problemy teorii i praktiki [Liability for environmental offences: problems of theory and practice]. Astana: Foliant, 2020.
4. Petrov V.V. Ekologiya i pravo Rossii [Ecology and law of Russia]. Moscow, 1995, 234 p.
5. Petrov V.V. Ekologicheskoe pravo [Environmental law]. Moscow: Yurist, 2005, 400 p.
6. Slyamov D.A. Klassifikatsiya ekologicheskikh pravonarusheniy [Classification of environmental offences]. Vestnik KASU, No. 4, 2010. Available at: https://www.vestnik-kafu.info/journal/25/1075 (accessed 20.06.2025).
7. Kodeks Respubliki Uzbekistan ob administrativnoy otvetstvennosti ot 22 sentyabrya 1994 g. [Code of Administrative Liability of the Republic of Uzbekistan of September 22, 1994]. Available at: https://lex.uz/ru/docs/9762 (accessed 20.06.2025).
8. Zakon Respubliki Uzbekistan «Ob okhrane prirody» ot 9 dekabrya 1992 g. [Law of the Republic of Uzbekistan “On Nature Protection” of December 9, 1992]. Available at: https://lex.uz/ru/docs/111196 (accessed 20.06.2025).
9. Kodeks Respubliki Kazakhstan ob administrativnykh pravonarusheniyakh ot 5 iyulya 2014 g. No. 235-V [Code of Administrative Offences of the Republic of Kazakhstan of July 5, 2014 No. 235-V]. Available at: https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235 (accessed 20.06.2025).

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONCEPTUAL APPROACHES TO THE LEGAL PROTECTION OF A WITNESS'S STATUS

Mukimbayev Otabek Sattarovich
Head of the Organizational Department,
Sirdaryo Regional Department of Internal Affairs;
Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs
E-mail: info@sirviib.uz

Abstract. The article examines the development of the procedural status of witnesses in Uzbekistan following independence within the framework of judicial and legal reforms. It analyzes the legal foundations, including the revised Constitution, the Criminal Procedure Code, and the Law "On the Protection of Victims, Witnesses, and Other Participants in Criminal Proceedings." Special emphasis is placed on new guarantees of witness rights, the introduction of the "witness's lawyer" institution, as well as challenges in the practical implementation of witness protection mechanisms and their compliance with international human rights standards.

Keywords: witness, procedural status, Constitution, Criminal Procedure Code, human rights, legal assistance, witness protection.

GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Mukimbayev Otabek Sattarovich
Sirdaryo viloyati IIB Tashkiliy boshqarma boshlig'i,
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi sud-huquq islohotlari jarayonida guvohning protsessual maqomining takomillashishi tahlil qilinadi. Konstitutsiyaning yangi tahriri, Jinoyat-protsessual kodeksi va "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun kabi huquqiy asoslar sharhlanib, guvohning huquqlari va burchlarini ta'minlashga qaratilgan yangi kafolatlar yoritib berilgan. Shuningdek, guvoh huquqlarini himoya qilishda uchrayotgan muammolar va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: guvoh, protsessual maqom, Konstitutsiya, Jinoyat-protsessual kodeks, inson huquqlari, advokat yordami, guvohlar himoyasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N46

Kirish. Zamonaviy demokratik jamiyatda adolatli sud muhokamasini ta'minlash jarayonida guvoh institutining roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan tizim shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. Biroq, guvohning protsessual maqomini belgilovchi huquqiy me'yorlarning rivojlanishi va takomillashtirilishi jarayonida bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjudligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng mamlakatning barcha sohalarida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, sud-huquq tizimidagi islohotlar jarayonida guvoh shaxsiga bo'lgan munosabatda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Zamonaviy jamiyatda

inson huquq va erkinliklariga munosabatni tubdan qayta ko‘rib chiqish jarayonida guvohning burch va huquqlari, ularni ta’minlashga qaratilgan turli kafolatlar bilan bir qatorda, uni jinoyat protsessining to‘laqonli ishtirokchisi sifatida baholash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning asosiy huquq hamda erkinliklarini mustahkamlashda tarixiy ahamiyat kasb etdi. Konstitutsiyaning bir qator moddalari guvohning protsessual holati uchun asosiy huquqiy baza vazifasini bajaradi. Xususan, unda barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklarga egaligi, qonun oldida tengligi, shaxsiy erkinlik hamda daxlsizlik huquqlari mustahkamlangan[1].

Biroq, 1992-yilgi Konstitutsiyaning dastlabki matnida guvoh institutining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, guvohning yakka o‘zini olib kelmaslik huquqi va malakali yuridik yordam olish huquqi yetarli darajada konkretlashtirilmagan edi. Bu esa amaliyotda guvohning huquqlarini himoya qilishda bir qator muammolarga sabab bo‘ldi.

2023-yil 30-aprel kuni qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri esa mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin. Yangi Konstitutsiyada hech kimning o‘ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi hamda har bir shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi[2].

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari, shuningdek, xalqaro shartnomalarini milliy huquqiy tizimning ajralmas qismi sifatida e’tirof etishi guvoh institutining rivojlanishida muhim omil bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi, shaxsni qiynoqqa solish, shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor qilishni taqiqlash, shuningdek, shaxsiy va oilaviy hayotga o‘zboshimchalik bilan aralashishni man etish kabi asosiy qoidalarni belgiladi[3].

1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (O‘zbekiston tomonidan 1995-yil 28-dekabrda ratifikatsiya qilingan) ham insonning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi[4].

Lekin, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan ayblanuvchining unga qarshi ko‘rsatuv berayotgan guvohlarni so‘roq qilish yoki bevosita so‘roq qilinishida ishtirok etish huquqi hozirgi O‘zbekiston qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshash shaklda aks etmagani xalqaro standartlarga muvofiqlik masalasida muayyan tafovutlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda jinoyat sudlovi tizimida guvohning ishtiroki adolatli sudlovni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Guvohning ko‘rsatmalari ko‘p hollarda jinoyat ishining hal qiluvchi dalili sifatida namoyon bo‘ladi, shu bois uning huquqiy maqomini mustahkamlash va samarali himoya mexanizmlarini yaratish davlatning huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, guvohning huquqiy maqomi faqat protsessual majburiyatlar majmuasi emas, balki huquqiy kafolatlar bilan ta’minlangan mustaqil huquqiy institut sifatida namoyon bo‘ladi [5].

Jinoyat protsessi nazariyasida guvoh huquqiy munosabatlarning mustaqil subyekti sifatida ko‘riladi. Mazkur masala yuzasidan G.Fletcher guvohning jinoyat sudlovidagi o‘rnini tahlil qilib, uni “adolat mexanizmini harakatga keltiruvchi axborot manbai” deb ta’riflaydi [6]. Shu bilan birga, A.Ashworth guvohning protsessual maqomi uning shaxsiy daxlsizligi, sha’ni va

qadr-qimmatini himoya qilish kafolatlari bilan mustahkamlanishi lozimligini ta’kidlaydi [7]. Bu fikrlar guvohni faqat dalil beruvchi shaxs emas, balki huquqiy muhofazaga muhtoj subyekt sifatida koʻrish zarurligini asoslaydi.

Xalqaro huquq normalari ham guvohlarni himoya qilishni inson huquqlarini ta’minlashning ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Masalan, B. Swart xalqaro jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish institutlarini tahlil qilib, ularning xavfsizligini ta’minlash adolatli sud muhokamasining sharti ekanini qayd etadi [8]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, guvohning huquqiy maqomi faqat milliy qonunchilik doirasida emas, balki xalqaro standartlar asosida ham shakllantirilishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlarda guvohlarni himoya qilishning nazariy asoslari keng yoritilgan. M. Bohlander guvohlarni himoya qilish mexanizmlari jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [9]. Uning fikricha, guvoh oʻzini xavfsiz his etmagan taqdirda, haqqoniy va toʻliq koʻrsatma berish ehtimoli pasayadi. Shu bois guvohning huquqiy maqomini himoya qilish jinoyat sudlovining ishonchliligi bilan uzviy bogʻliqdir.

Protsessual huquq nazariyasida guvohning maqomi uning huquq va majburiyatlari oʻrtasidagi muvozanat orqali belgilanadi. R. Jackson guvohning huquqlari va uning davlat oldidagi protsessual burchlari oʻrtasida mutanosiblik saqlanishi kerakligini qayd etadi [10]. Bu muvozanat guvohni sud jarayonida faol ishtirokchi sifatida tan olish bilan birga, uning shaxsiy manfaatlarini muhofaza qilishni ham nazarda tutadi.

Jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish muammosi inson huquqlari konsepsiyasi bilan chambarchas bogʻliq. L.Zedner jinoyat protsessida xavfsizlik va erkinlik oʻrtasidagi muvozanatni tahlil qilib, guvohlarni himoya qilish davlatning ijtimoiy majburiyati ekanini ta’kidlaydi [11]. Bu nuqtai nazar guvohlarni himoya qilishni faqat protsessual mexanizm emas, balki konstitutsiyaviy kafolat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, J.Spencer guvohlarni himoya qilish institutlarining samaradorligi ularning huquqiy aniqligi va amaliy ishlash mexanizmlariga bogʻliqligini qayd etadi [12]. Agar qonun normalari deklarativ xarakterda qolib ketsa, guvohning huquqiy maqomi real himoyadan mahrum boʻladi. Demak, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish faqat normativ baza emas, balki amaliy mexanizmlarni ham talab etadi.

Guvohning huquqiy maqomini himoya qilish masalasi zamonaviy jinoyat sudlovining markaziy muammolaridan biri sifatida shakllandi. Jinoyat protsessida guvoh koʻrsatmasi koʻp hollarda dalillar tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Shu bois guvohning xavfsizligini ta’minlash, uning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, bosim va tahdidlardan muhofaza qilish huquqiy davlatning ajralmas belgisi sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, guvohlarning samarali himoyasi adolatli sudlovning amaliy kafolati hisoblanadi [13].

Xalqaro jinoyat huquqida guvohlarni himoya qilish instituti alohida huquqiy mexanizm sifatida rivojlangan. Masalan, International Criminal Court faoliyatida guvohlarning xavfsizligini ta’minlash maxsus boʻlimlar orqali amalga oshiriladi. B.Swart ta’kidlashicha, xalqaro jinoyat sudlovida guvohlarni himoya qilish choralari adolatli muhokamaning sharti hisoblanadi va ularning koʻrsatmalariga ta’sir koʻrsatuvchi har qanday omil bartaraf etilishi lozim [14]. Bu yondashuv guvohning huquqiy maqomini faqat protsessual normalar bilan emas, balki xalqaro standartlar bilan mustahkamlash zarurligini koʻrsatadi.

Jinoyat protsessi nazariyasida guvohning huquqiy maqomi uning protsessual huquqlari va davlatning majburiyatlari oʻrtasidagi muvozanat orqali belgilanadi. A.Ashworth fikricha,

guvohning sha’ni va qadr-qimmatiga daxl qilmaslik sudlov tizimining asosiy tamoyili bo‘lib, uning xavfsizligini ta’minlash davlatning ijobiy majburiyati sifatida qaralishi kerak [15]. Bu nuqtai nazar inson huquqlari konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Xalqaro standartlar doirasida guvohlarni himoya qilish masalasi inson huquqlari hujjatlarida ham aks etgan. Masalan, United Nations Office on Drugs and Crime tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanmalarda guvohlarni himoya qilish dasturlarining institutsional modellari bayon etilgan. Ushbu manbalarda guvohlarning shaxsiy ma’lumotlarini maxfiy saqlash, identifikatsiya ma’lumotlarini o‘zgartirish, vaqtincha joyini almashtirish kabi choralar samarali vosita sifatida e’tirof etiladi [16].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayrim davlatlarda guvohlarni himoya qilish maxsus davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, United States Marshals Service tomonidan yuritiladigan “Witness Security Program” guvohlarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, ushbu dastur jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan [17].

Yevropa davlatlari amaliyotida ham guvohlarni himoya qilish instituti keng rivojlangan. Council of Europe tomonidan qabul qilingan tavsiyalarda guvohlarni himoya qilishning minimal standartlari belgilangan. J. Spencer fikricha, guvohlarning maxfiyligini ta’minlash va ularga nisbatan tahdidlarning oldini olish sud muhokamasining adolatliligiga xizmat qiladi [18].

Nemis huquqshunosligida B. Schünemann guvohlarni himoya qilish dasturlarini tahlil qilib, ularning huquqiy aniqligi va protsessual shaffofligi muhimligini ta’kidlaydi [19]. Uning fikricha, guvohlarni himoya qilishda davlat organlarining vakolatlari aniq belgilab qo‘yilmasa, mazkur institut suiiste’mol qilish xavfiga duch kelishi mumkin.

Psixologik jihatdan qaraganda, L.Zedner guvohlarni himoya qilishni faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklash mumkin emasligini, balki ularning ruhiy barqarorligini ham ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi [20]. Sud jarayonidagi stress holati guvoh ko‘rsatmalarining aniqligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish uning psixologik qo‘llab-quvvatlanishini ham o‘z ichiga oladi.

Muxtasar qilib aytganda, guvohning huquqiy maqomini himoya qilish xalqaro va milliy huquq tizimlarida kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, guvohlarning xavfsizligi ta’minlanmas ekan, jinoyat sudlovining samaradorligi pasayadi. Shu bois mazkur institutni takomillashtirish, xalqaro tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va amaliy mexanizmlarni kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Muhokama. 1994-yil sentyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilinishi zamonaviy tarixiy davrda jinoyat protsessida guvohning protsessual pozitsiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Kodeksda jinoyat protsessi ishtirokchilari qatorida sud, ayblov tomoni, himoyachilar va boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda guvoh ham alohida subyekt sifatida ko‘rsatilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi guvohning huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilab berdi, bu esa o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan noaniqliklarni bartaraf etishda muhim qadam bo‘ldi.

Ayniqsa e’tiborga loyiq bo‘lgan islohot 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun orqali amalga

oshirildi. Ushbu Qonun orqali Jinoyat-protsessual kodeksning 66-moddasiga qo‘shimchalar kiritilib, guvohning “advokatning yuridik yordamidan foydalanish, tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish hamda o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik” huquqlari aniq belgilandi. Kodeksga “Guvohning advokati” deb nomlangan yangi norma (66^1-modda) kiritilgani jahon amaliyotida nisbatan yangi bo‘lgan yondashuvni aks ettiradi va guvoh huquqlarining himoyalanishida sifat jihatidan yangi bosqichni belgilaydi[21].

Natija. 2019-yil 23-mayda qabul qilingan qonun orqali videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o‘tkazish tartibi (JPK 91^1–91^4-moddalari) belgilandi. Bu innovatsiya guvohlarning huquqlarini mustahkamlash va ularning xavfsizligini ta’minlashda muhim texnologik qadam bo‘ldi[22].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi guvohning protsessual pozitsiyasini tartibga soluvchi yagona qonun emas. 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun guvohlarga nisbatan xavfsizlik choralari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish uchun mustaqil huquqiy asos yaratdi.

Biroq, mazkur Qonunning amaliyotdagi qo‘llanilishi samaradorligi haqida munozaralar mavjud. Ayrim ekspertlarning fikricha, guvohlar himoyasi mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan va ularning amaliyotga joriy etilishi qiyinchiliklarga uchrayapti.

Qonunchilikda guvohning protsessual maqomi belgilanganda, ayrim shaxslar toifasi uchun guvohlik berishda imtiyozlar nazarda tutilgan. Bular qatoriga O‘zbekiston Respublikasi sudyalari, sobiq Prezidentlar, diplomatik vakolatxona boshliqlari va a’zolari, shuningdek, konsullik muassasalari xodimlari kiradi.

Ushbu imtiyozlar tizimi bir tomondan xalqaro diplomatik an’analarga mos kelsa, ikkinchi tomondan qonun oldida tenglik prinsipini muayyan darajada cheklaydigan sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, mazkur imtiyozlarning qo‘llanilish doirasi va shartlari aniq belgilanishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.11.2017-yildagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5268-son va 10.08.2020-yildagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6041-son farmonlari qabul qilinib, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan guvoh va boshqa ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini tushuntirmasdan olingan ko‘rsatuvlaridan dalil sifatida foydalanish taqiqlandi, jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchining og‘ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so‘roq qilish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ularning ko‘rsatuvlarini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror va advokatning iltimosiga ko‘ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo‘yish (deponirovanie) tartibi joriy qilindi, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda uni guvoh tariqasida so‘roq qilish, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan mazmunan ko‘rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida guvohni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chiqartirish va so‘roq qilish taqiqlandi.

Xulosa. O‘zbekistonda guvoh institutining huquqiy maqomi shakllanishi va rivojlanishi jarayoni davom etmoqda. Mavjud yutuqlar bilan birga, yanada samarali huquqiy tizimni

bunyod etish uchun kompleks yondashuv va doimiy takomillashtirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, adolatli sud muhokamasini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlil etilgan ilmiy manbalar, xorijiy tajriba va milliy qonunchilik amaliyotini qiyosiy o‘rganish natijalari guvoh institutining huquqiy tartibga solinishida qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur muammolar guvohning protsessual maqomini to‘liq va samarali ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda hamda uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

birinchidan, guvoh advokatining protsessual maqomi va vakolatlari amalda yetarli darajada aniq va kompleks tarzda tartibga solinmagan. Amaldagi normalarda advokatning guvohga huquqiy yordam ko‘rsatish doirasi, uning ishtirok etish bosqichlari, tergov va sud jarayonidagi aniq vakolatlari, shuningdek, protsessual qarorlarga nisbatan munosabat bildirish imkoniyatlari to‘liq konkretlashtirilmagan. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqinlarga va bir xil bo‘lmagan yondashuvlarga sabab bo‘lmoqda. Natijada guvohning huquqiy himoyasi ayrim hollarda deklarativ xarakter kasb etib, amalda samarali kafolat darajasiga yetmay qolmoqda;

ikkinchidan, guvohlarni himoya qilish choralarining amaliyotdagi samaradorligi yetarli emasligi kuzatilmoqda. Qonunchilikda nazarda tutilgan muhofaza choralari (shaxsiy ma’lumotlarni maxfiy saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, ayrim hollarda yashash joyini o‘zgartirish va boshqalar) mavjud bo‘lsa-da, ularni qo‘llash jarayonida ma’muriy va byurokratik to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Ayrim hollarda muhofaza choralarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishning murakkab tartibi va ortiqcha rasmiylashtirish talablari guvohning o‘z vaqtida va to‘liq himoya olishiga to‘sqinlik qiladi. Bu holat guvohlarda davlat muhofazasi mexanizmlariga nisbatan ishonchning pasayishiga ham olib kelishi mumkin;

uchinchidan, videokonferensaloqa orqali guvohlik berish institutini qo‘llash amaliyotida texnik va huquqiy muammolar mavjud. Raqamli texnologiyalarni jinoyat sudloviga joriy etish ijobiy tendensiya hisoblansa-da, videokonferensiya tartibining protsessual reglamentatsiyasi barcha jihatlari bilan mukammal ishlab chiqilmagan. Xususan, shaxsni identifikatsiya qilish, ko‘rsatmaning ixtiyoriyligi va bosimdan holi ekanligini ta’minlash, aloqa uzilishlari yoki texnik nosozliklar oqibatida protsessual huquqlarning buzilishi kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda masofaviy guvohlik berish guvohlikning psixologik ta’sirchanligi va ishonchliligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqida ilmiy munozaralar mavjud;

to‘rtinchidan, guvohlarning o‘z huquqlari haqida yetarli darajada xabardor emasligi amaliyotda huquqbuzilish holatlarini keltirib chiqarmoqda. Ko‘p hollarda guvoh protsessual maqomining mazmuni, uning huquq va majburiyatlari, javobgarlik choralari hamda huquqiy yordam olish imkoniyatlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaydi. Bundan tashqari, guvohlarga huquqiy yordam ko‘rsatuvchi ayrim advokatlarning ixtisoslashuv darajasi va amaliy tayyorgarligi har doim ham yetarli emas. Bu esa guvoh huquqlarining sifatli va samarali himoya qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida guvoh institutining huquqiy maqomini tartibga solish sohasida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari umumiy jihatdan ijobiy baholanishi mumkin. Qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda, xalqaro standartlar milliy huquq tizimiga implementatsiya qilinmoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etish va

guvoh huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish maqsadida rivojlangan davlatlar, jumladan Germaniya, Fransiya va AQSH tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, mazkur yo‘nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksiga guvoh advokatining huquqiy maqomi, vakolatlari va ishtirok etish tartibini batafsil belgilaydigan qo‘shimcha normalar kiritish zarur. Ikkinchidan, guvohlik beruvchi shaxslarning o‘z huquqlari haqida xabardorligini ta’minlash maqsadida protsessual kafolatlarni kuchaytirish, jumladan, huquqlarni tushuntirishning aniq va majburiy mexanizmlarini joriy etish lozim. Uchinchidan, videokonferensaloqa orqali guvohlik berish tartibini yanada takomillashtirish, uning texnik talablari va protsessual kafolatlarini huquqiy jihatdan aniq va mukammal tartibga solish talab etiladi. To‘rtinchidan, guvohlar huquqlari sohasida ixtisoslashgan advokatlar korpusini shakllantirish va ularning malakasini muntazam oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, guvohlar uchun psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish, ayniqsa og‘ir va ijtimoiy xavfli jinoyat ishlarida, guvohning ruhiy barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinchidan, guvohlarni himoya qilish choralarining samaradorligini baholash va tahlil qilish maqsadida doimiy monitoring hamda institutsional nazorat mexanizmlarini joriy etish zarur.

Shu tariqa, guvoh institutini takomillashtirish faqat normativ-huquqiy o‘zgarishlar bilan cheklanib qolmasdan, institutsional, tashkiliy va amaliy choralar majmuini qamrab olishi lozim. Ana shundagina guvohning huquqiy maqomi to‘liq ta’minlanib, adolatli sudlov prinsiplarining amaldagi ifodasi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston nashriyoti. 2023 y. 124 b.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 10.12.1948 y.
4. “Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt. Nyu-York, 16.12.1966 y.
5. Roberts P. The Role of the Witness in Criminal Justice // Oxford Journal of Legal Studies. – 2019. – Vol. 39. – №. 2. – P. 215-232.
6. Fletcher G. Rethinking Criminal Law. – Oxford University Press, 2018.
7. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – Oxford University Press, 2020.
8. Swart B. Witness Protection in International Criminal Law // International Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 21. – №. 3. – P. 345-362.
9. Bohlander M. International Criminal Justice: A Critical Analysis // Routledge. – 2022.
10. Jackson R. The Balance of Rights in Criminal Procedure // Criminal Law Review. – 2020. – №. 5. – P. 401-415.
11. Zedner L. Security and Human Rights // Cambridge Law Journal. – 2019. – Vol. 78. – P. 217-240.
12. Spencer J. Witness Protection and Fair Trial Standards // European Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 11. – P. 89-104.
13. Roberts P. Witness Evidence and Criminal Justice // Modern Law Review. – 2020. – Vol. 83. – №. 4. – P. 721-739.
14. Swart B. The Protection of Witnesses in International Criminal Law // International Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 21. – №. 3. – P. 345-362.
15. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – Oxford University Press, 2020.
16. United Nations Office on Drugs and Crime. Good Practices for the Protection of Witnesses in Criminal Proceedings. – Vienna, 2022.

17. Fyfe N. Witness Protection and Organized Crime // Criminology & Criminal Justice. – 2019. – Vol. 19. – №. 5. – P. 589-604.
18. Spencer J. Witness Anonymity and Fair Trial Rights // European Criminal Law Review. – 2021. – Vol. 11. – P. 89-104.
19. Schünemann B. Witness Protection Programs in Comparative Perspective // German Law Journal. – 2022. – Vol. 23. – P. 512-530.
20. Zedner L. Security, Risk and Criminal Justice // Cambridge Law Journal. – 2019. – Vol. 78. – P. 217-240.
21. “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-198son qonuni. 31.12.2008 y.
22. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-542-son qonun. 23.05.2019 y.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

FOREIGN MODELS OF ENSURING THE IMPLEMENTATION OF NORMATIVE LEGAL ACTS AND CONCLUSIONS FOR NATIONAL PRACTICE

Yakubov Mirzakhid Turabaevich
Independent researcher of the Tashkent state university of law
Email: turaevich@gmail.com

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of foreign models for ensuring the implementation of normative legal acts. Based on the experience of Kazakhstan, the Russian Federation, Belarus, Armenia, and the Kyrgyz Republic, the study examines institutional mechanisms for monitoring the implementation of presidential and governmental acts, issues of executive discipline, monitoring procedures, and accountability of officials. Particular attention is paid to the role of enforcement control in the realization of state legal policy. The research formulates conclusions and recommendations aimed at improving national practice in ensuring the effective implementation of normative legal acts. The article addresses issues of strengthening the rule of law and enhancing the efficiency of public administration.

Keywords: normative legal act, enforcement control, legal policy, presidential acts, executive discipline, monitoring; public administration, comparative legal analysis, institutional mechanism.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR IJROSINI TA'MINLASHNING XORIJIY MODELLARI VA MILLIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR

Yakubov Mirzaxid Turabayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashning xorijiy modellari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Xususan, Qozog'iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg'iziston tajribasi misolida Prezident va Hukumat hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilishning institutsional mexanizmlari, ijro intizomi, monitoring tizimi va mas'uliyat choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijro nazoratining huquqiy siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini samarali ta'minlash bo'yicha milliy amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan. Maqola davlat boshqaruvida huquqiy tartib va qonun ustuvorligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjat, ijro nazorati, huquqiy siyosat, Prezident hujjatlari, ijro intizomi, monitoring, davlat boshqaruvi, qiyosiy-huquqiy tahlil, institutsional mexanizm.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N47

Kirish. Huquqiy davlatni barpo etish va samarali davlat boshqaruvini ta'minlash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarning to'liq, o'z vaqtida hamda sifatli ijrosini ta'minlash alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi huquqiy siyosatni amalga oshirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyati amalda ro'yobga chiqishi esa, samarali ijro mexanizmi, aniq institutsional tuzilma va tizimli nazorat orqali ta'minlanadi. Shu ma'noda, ijro nazorati instituti davlat irodasining amaliy ifodasi, qonun ustuvorligining kafolati va davlat organlari faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash masalasi faqat ichki boshqaruv muammosi emas, balki strategik rivojlanish, investitsiyaviy jozibadorlik va jamiyatda huquqiy ishonchni mustahkamlash omili sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Turli davlatlarda ijro intizomini ta’minlashga qaratilgan o‘ziga xos tashkiliy-huquqiy modellar shakllangan bo‘lib, ularda markazlashgan nazorat organlari, raqamli monitoring tizimlari va mas’uliyat mexanizmlari joriy etilgan.

Xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tahlil qilish milliy amaliyotni takomillashtirish, ijro nazorati samaradorligini oshirish hamda huquqiy siyosatni izchil va natijaviy amalga oshirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqola aynan shu vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashning xorijiy modellarini o‘rganish va milliy amaliyot uchun xulosalar ishlab chiqish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini huquqiy hodisalarni tizimli, qiyosiy va tahliliy o‘rganish tamoyillari tashkil etadi.

Ishda avvalo qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanilib, Qozog‘iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg‘iziston davlatlarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashning institutsional mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlarda Prezident va Hukumat hujjatlari ijrosini nazorat qilishga oid huquqiy baza, vakolatli organlar faoliyati, ijro intizomi va mas’uliyat choralari o‘zaro taqqoslandi.

Shuningdek, formal-yuridik metod asosida normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni, ularda belgilangan nazorat mexanizmlari va huquqiy normalarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Tizimli tahlil usuli orqali ijro nazorati institutining davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni va funksiyalari aniqlandi. Ilmiy umumlashtirish va induksiya-deduksiya usullari esa, xorijiy tajribadan milliy amaliyot uchun amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida huquqiy siyosat konsepsiyasi doirasida ijro mexanizmining ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi hamda uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Muhokama va asosiy natijalar. Normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilishi huquqiy siyosatni amalga oshirishining instrumenti bo‘lib, aynan ijro etish orqali normativ-huquqiy hujjat qog‘ozdan hayotga ko‘chadi va huquq ijodkori unga loyiha vaqtida mujassam etgan maqsad amalga oshiriladi.

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham normativ-huquqiy hujjatlarning samarali, to‘laqonli va o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi ustidan ta’sirchan nazorat o‘rnatish masalalari siyosatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu vazifa turli davlatlarda har xil yo‘llar bilan ta’minlanadi. Masalan, Belarus va Armaniston respublikalarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash markaziy moliyaviy nazorat organiga yuklatilgan bo‘lsa, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasida esa Hukumat va Prezident Administratsiyasi ushbu masalaga mas’ul hisoblanadi.

Xususan, **Qozog‘iston Respublikasida** Prezident hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni quyidagilar amalga oshiradi:

1) Prezident Administratsiyasi – Hukumat, markaziy va mahalliy ijroiya organlari, bevosita Prezidentga bo‘ysunadigan va hisobdor bo‘lgan davlat organlari va boshqa organ va tashkilotlarga nisbatan;

2) Hukumat – markaziy va mahalliy ijroiya organlari, boshqa organ va tashkilotlarga nisbatan;

3) markaziy va mahalliy ijroiya organlari – o‘zlariga bo‘ysunadigan tashkilotlar va mansabdor shaxslarga nisbatan.

Prezident hujjatlarini amalga oshirish va yakuniy natijalari ustidan nazorat Prezident Administratsiyasi tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlariga rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar o‘tkazish orqali ham amalga oshiriladi. Tekshirishlar zarur axborotni talab qilib olish, mansabdor shaxsni axborot olish maqsadida chaqirtirish, avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazalari (axborot tizimlari)dan zarur axborotni olish; reviziya, hujjatlarni tekshirishning boshqa shakllari va qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa usullar yordamida amalga oshiriladi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 11-martdagi 552-son Farmoni bilan tasdiqlangan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra [1], Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Prezident vakolatlarini amalga oshirishni ta’minlash uchun bajaradigan funksiyalardan biri bu – davlat organlari tomonidan davlat siyosati amalga oshirilishi, Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan, shu jumladan, tekshiruvlar o‘tkazish orqali nazoratni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Administratsiya rahbari Prezident hujjatlari ijrosi va ularga rioya etilishi, Prezident topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirib boradi.

Administratsiya rahbari o‘rinbosari, Prezident yordamchilari va Prezident Kanselyariyasi rahbarining asosiy vazifalaridan biri sifatida ham Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish nazarda tutilgan. Shuningdek, Prezident Administratsiyasi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga ham o‘z yo‘nalishlarida Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish belgilab qo‘yilgan.

Prezident Administratsiyasining Umumiy bo‘limi ham Prezident hujjatlari ijrosini ta’minlashda muhim vazifani bajaradi. Xususan, Umumiy bo‘lim Prezident farmonlarining monitoringini amalga oshiradi; Prezident hujjatlarining ijrosini nazorat qiladi; Prezident va Administratsiya rahbarini Prezident hujjatlari ijrosi haqida xabardor qiladi; Prezident hujjatlari markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan bajarilishi sifatini baholash natijalari bo‘yicha ekspert xulosasini tayyorlaydi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi va ijro intizomi masalalari tizimli ravishda, lekin har oyda kamida bir marotaba Hukumat apparat yig‘ilishida markaziy va mahalliy ijroiya organlari rahbarlari ishtirokida ijro etilmaslik xavfini aniqlash va barvaqt bartaraf etish choralarini ko‘rgan holda muhokama qilinadi.

Qozog‘iston Respublikasida Prezident hujjatlarini to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta’minlashda davlat organlarining rahbar o‘rinbosarlari alohida o‘rin tutadi. Xususan, ushbu mansabdor shaxslar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha Prezident hujjatlari kelib tushgach, uch kun muddatda uni ijro bosqichlarini qamrab olgan rejani ishlab chiqadi, mehnat va boshqa zarur resurslarni belgilaydi, tegishli so‘rov va xatlarni yuboradi; mas’ul xodim va mansabdor shaxslarning asosiy yo‘nalishlarni va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ishchi hamkorligini

ta’minlaydi; tizimli ravishda ichki oraliq nazoratni va topshiriq ijrosi bo‘yicha monitoringni ta’minlaydi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ularda ko‘rsatilgan muddatlarda ijro etilishi lozim. Basharti, hujjatning o‘zida uni ijro etish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mazkur hujjatni ijro etish muddati Prezident Administratsiyasi tomonidan belgilanadi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi quyidagi muddatlarda ta’minlanishi lozim:

1) “o‘ta shoshilinch” – 3 ish kunida, “shoshilinch”, “zudlik bilan” – o‘n kungacha muddatga;

2) qisqa muddatli – o‘n kundan bir oy muddatga;

3) o‘rta muddatli – bir oydan olti oy muddatga;

4) uzoq muddatli – olti oydan ko‘p muddatga.

Prezident Administratsiyasiga Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi natijalari bo‘yicha axborot taqdim etish muddatlarini buzishga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralarini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Kompleks va idoralararo xususiyatga ega va ijro muddati olti oydan ziyod bo‘lgan Prezident hujjatlarini ijro etish ikki va undan ortiq davlat organlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, ular tomonidan 10 ish kuni ichida tashkiliy chora-tadbirlar rejasi (yo‘l xaritasi) ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi bevosita Prezidentga bo‘ysunuvchi va hisobdor bo‘lgan yoxud boshqa Hukumat tuzilmasiga kirmaydigan markaziy davlat organi tomonidan tayyorlanganda, basharti, unda Hukumat vakolatiga taalluqli tadbirlar mavjud bo‘lsa, u ushbu tashkilotning birinchi rahbari tomonidan Bosh vazir bilan kelishilgandan so‘ng tasdiqlanadi.

Basharti, ishlab chiqaruvchisi boshqa markaziy davlat organi bo‘lgan tashkiliy chora-tadbirlar rejasi idoralararo xususiyatga ega bo‘lsa, u tegishli Bosh vazir o‘rinbosari yoki Hukumat apparati rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Hukumat ijrochisi etib belgilangan Prezident hujjatlarini ijro etish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejasi bajarilishini muvofiqlashtirish tegishli Bosh vazir o‘rinbosari zimmasiga yuklatiladi.

Prezident hujjatlarining to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini nazorat qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1) kelgusida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan rejali ko‘rsatkichlardan og‘ishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida hujjatning ijro holatini davriy monitoring qilish, shu jumladan, loyiha boshqaruvi, onlayn-servislar, video-servislar va boshqalar orqali;

2) zarur rasmiy axborotni elektron hujjat almashinuvi tizimi orqali talab qilib olish;

3) ijro haqidagi hisobot va ma’ruzalarni eshitish va muhokama qilish;

4) reviziya va hujjatlarni tekshirishning boshqa shakllari;

5) joyiga chiqqan holda tekshiruv o‘tkazish;

6) qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa usullar.

Prezident Administratsiyasi rahbari har yil yakuni bo‘yicha Davlat rahbariga Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat qilish natijalari va holati hamda Prezidentning saylovoldi dasturi va umummilliy chora-tadbirlar bajarilishi holati to‘g‘risida axborot beradi.

Qozog‘istonda Prezident farmonlari ijrosi ulardagi qarama-qarshiliklar, takrorlanishlar, bo‘shliqlar, samarasiz amalga oshirilayotgan, eskirgan va korrupsiyaviy normalarni aniqlash va prognoz qilish, tahlil, samaradorligini baholash maqsadida monitoring qilinishi belgilangan.

Farmonlar monitoringi uni ishlab chiqqan davlat organlari tomonidan doimiy asosda yuritiladi. Prezident Administratsiyasi tomonidan tayyorlangan farmonlar monitoringi ularni bevosita ishlab chiqqan Administratsiyaning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat organlari monitoring natijalari bo‘yicha ma’lumotni, zarur hollarda esa, tegishli farmonlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni tegishli yil 31-dekabrga qadar Prezident Administratsiyasiga kiritadi.

Ta’kidlash lozimki, Qozog‘iston Respublikasining 2023-yil 4-dekabrdagi Farmoni bilan Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari bilan ishlash hamda ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, farmonlarni monitoring qilish Qoidalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu tuzatishlarga ko‘ra, Prezident hujjatlarini ishlab chiqishda kutilayotgan aniq natija va samaradorlik, ijro etish muddatlarining realligi, iqtisodiy samaradorlik va resurslar bilan ta’minlanganlik inobatga olinishi lozim.

Rossiya Federatsiyasida ham Prezident hujjatlarini ijro etish muhim ahamiyatga ega. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hujjatlarini ijro etish bosqichida mazkur hujjatlarning ijrosi bevosita mas’ul ijrochilar tomonidan tashkil etiladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hujjatlarini belgilangan muddatlarda ijrosini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlansa, ijrochi bu haqda belgilangan muddatning kamida yarmi o‘tmasidan oldin davlat boshlig‘i nomiga ijro muddatini to‘g‘rilash bo‘yicha topshiriqni o‘z muddatini bajarishning imkonsizligi sabablarini va ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni hamda ijro muddatini uzaytirish bo‘yicha taklifni ko‘rsatgan holda axborot kiritishi lozim bo‘ladi.

Ijro muddati uch martadan ko‘p uzaytirilgan topshiriqlar ijrosini yana uzaytirish masalasi Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Bunda Prezident Administratsiyasi tomonidan ijrochi tomonidan ijro muddatini uzaytirishning maqsadga muvofiqligi haqida taklif tayyorlanadi.

Rossiya Federatsiyasida belgilangan tartibga ko‘ra, Prezident hujjati yoki topshirig‘i ijrosi bo‘yicha belgilangan muddatlarda Prezident nomiga tegishli hujjat yoki topshiriqning ijrosi yuzasidan aniq natijalar ko‘rsatilgan axborot xatini kiritishi zarur. Basharti hujjatda yoki topshiriqda bir nechta ijrochilar ko‘rsatilgan bo‘lsa, hujjat yoki topshiriq ijrosi bo‘yicha birinchi ko‘rsatilgan ijrochi hujjat yoki topshiriq ijrosi bo‘yicha axborot xatini tayyorlaydi va kiritadi. Bunda u hujjat yoki topshiriq ijrosi bo‘yicha axborotni o‘z vaqtida taqdim etish uchun javobgar hisoblanadi.

Basharti hujjat yoki topshiriqning ijrosi natijasi bo‘yicha parlamentga qonun loyihasi kiritilsa yoxud Prezident yoki Hukumat qarori qabul qilinsa, unda axborot xati o‘rniga Prezident Nazorat boshqarmasiga hujjat ijro etilganligi haqidagi axborot kiritiladi.

Prezident nomiga kiritilgan axborot xatlari Administratsiya rahbari tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va Davlat rahbariga axborot beriladi.

Prezident hujjatlari va topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat Administratsiya tomonidan uning rahbari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shu bilan birga Administratsiya rahbari, Prezident yordamchisi – Nazorat boshqarmasi boshlig‘i Davlat rahbarini muntazam ravishda uning hujjatlari va topshiriqlari ijrosi haqida xabardor qilib boradi, shuningdek, ijro intizomi buzilishiga yo‘l qo‘ygan aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish haqida taklif kiritadi.

Nazorat boshqarmasi ijro hokimiyati organlari va tashkilotlar tomonidan qonunlar, Prezident farmonlari (xususan, Prezident vakolatlariga, shu jumladan, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga taalluqli masalalar bo'yicha), farmoyishlari va boshqa qarorlari, topshiriqlari ijrosini nazorat qiladi va tekshiradi; Prezidentning har yili parlamentga murojaatlarini amalga oshirishni nazorat qiladi; tekshiruv natijalari bo'yicha Prezidentni xabardor qiladi va ular asosida aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2011-yil 28-martdagi "Rossiya Federatsiyasi Prezidentining topshiriq va ko'rsatmalari ijrosini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 352-sonli Farmoniga muvofiq [2], Prezidentning topshiriq va ko'rsatmalari 1 kun muddatda ro'yxatdan o'tkaziladi, ijrochilari va ularni bajarish muddatlari belgilanadi. Topshiriq va ko'rsatmalar ijro muddati quyidagicha belgilanadi: topshiriq va ko'rsatmalarda belgilangan muddatlarda; "shoshilinch", "zudlik bilan" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – 3 kunlik muddatda; "tezkor" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – 10 kunlik muddatda; ijro muddati belgilanmagan topshiriq va ko'rsatmalar – 1 oylik muddatda; "doimiy" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – keyingi hisobot yilining 20-yanvariga qadar; "har oy" yoki "har chorakda" bajarilishi belgilangan topshiriq va ko'rsatmalar – hisobot oyi yoki choragidan keyingi oy yoki chorakning 20 sanasigacha bo'lgan muddatda (5-band).

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining topshiriq va ko'rsatmalari ijrosini tashkil etish uchun mas'ul ijrochi tomonidan ularni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi va tegishli tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi, zarur hollarda ishchi guruhlar tashkil etiladi.

Basharti hujjatning ijrosini ta'minlash asosiy ijrochi yoki ham-ijrochining vakolatlari doirasidan chetga chiqsa, ularga asosiy ijrochini o'zgartirish yoki qo'shimcha ham-ijrochilarni ham jalb etish yuzasidan taklif kiritish huquqi beriladi [3].

Shu bilan birga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari instituti faoliyat ko'rsatadi. Xususan, 2020-yil 11-avgustdagi "Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, ular ham tegishli hududda qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish jarayonida ishtirok etadi. Xususan, ular tegishli hududda davlat hokimiyati organlari qarorlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi; qonunlar, farmonlar, farmoyish, ko'rsatma va topshiriqlar, davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; qonun, farmon, farmoyish, topshiriq va ko'rsatmalar ijrosini tekshirishni tashkil etishda Nazorat boshqarmasi va prokuratura organlari bilan hamkorlik qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining federal okrugdagi vakolatli vakillari davlat hokimiyati organlaridan, mahalliy hokimiyat organlaridan zarur materiallarni so'rash va olish; davlat organlari ma'lumotlar bazasidan foydalanish; o'z vakolati doirasida Prezident farmon va farmoyishlari va federal dasturlar ijrosini tekshiradi; Nazorat boshqarmasi, zarur hollarda esa, boshqa davlat organlari va ularning hududiy bo'linmalari vakillarini tekshirish o'tkazishga jalb qiladi.

Armaniston Respublikasida 2018-yil 23-martda "Davlat nazorat xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan [4]. Qonunga ko'ra, Davlat nazorat xizmati davlat boshqaruvi organlari

va davlat muassasalarida Hukumat qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda uning natijalari asosida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Davlat nazorat xizmati O‘zbekistondagi Hisob palatasiga o‘xshash bo‘lib, u Bosh vazir bilan kelishgan holda nafaqat moliyaviy masalalarni, balki normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi bo‘yicha ham o‘rganishni amalga oshiradi (5-modda). Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini o‘rganish joyiga chiqqan holda ham, o‘rganishga taalluqli materiallarni talab qilib olgan holda ham amalga oshirilishi mumkin. O‘rganish natijalari Bosh vazirga axborot ko‘rinishida taqdim etiladi hamda u keyinchalik u yoki bu normativ-huquqiy hujjatni qo‘llash bo‘yicha topshiriqqa asos bo‘lishi mumkin.

Belarus Respublikasida esa, 1996-yil 5-dekabrda tuzilgan Davlat nazorat qo‘mitasi faoliyat ko‘rsatib, u to‘g‘ridan to‘g‘ri Prezidentga bo‘ysunadi. Ushbu qo‘mita ham O‘zbekistondagi Hisob palatasiga o‘xshash bo‘lib, moliyaviy masalalar bilan bir qatorda Parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosini ham nazorat qiladi.

Belarus Respublikasi Prezidentining 2008-yil 27-noyabrdagi 647-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat nazorat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, Qo‘mitaning asosiy vakolatlari sirasiga quyidagilar ko‘rsatilgan: muassasa va fuqarolardan ma’lumotlarni so‘rash va olish; muassasalar ma’lumotlaridan bepul foydalanish; tekshiruvlarga huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari mutaxassislarini jalb qilish; Prezidentni uning qarorlarida nazarda tutilgan topshiriqlar bajarilmaganligi haqida xabardor qilish [5].

Qirg‘iziston Respublikasida Prezident Administratsiyasi rahbarining 2023-yil 31-martdagi 116-sonli farmoyishi bilan Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti va Administratsiyasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi ustidan nazorat qilish boshqarmasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.

Unga ko‘ra boshqarma quyidagi vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi:

– qonunlar, Prezident hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini ta’minlaydi, boshqa nazorat hujjatlari lozim darajada ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi;

– davlat organlari tomonidan qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlari, umummilliy loyihalar, Prezidentning Qirg‘iziston xalqiga yillik murojaatnomasi o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishi ustidan tegishli tekshiruvlarni o‘tkazish orqali nazoratni amalga oshiradi;

– Prezidentni tekshiruv natijalari haqida xabardor qiladi va shu asosda aniqlangan ijro intizomi buzilishini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

– davlat organlarida ijro intizomi holati to‘g‘risida, qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlashda kamchilikka yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy ta’sir choralari qo‘llash bo‘yicha xulosa va takliflarni qamrab olgan axborot-tahliliy ma’lumot tayyorlaydi va Prezidentga kiritadi;

– qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlarining lozim darajada ijro etilmaganligi fakti, bu boradagi aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi;

– tegishli organlar rahbarlari tomonidan qonun, parlament, Prezident va Hukumat hujjatlarini lozim darajada ijro etilishini ta’minlamagan mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralar qo‘llanilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi;

– Prezident hujjatlari ijrosini nazoratdan olish va muddatini uzaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

– har yarim yil va yil yakuni bo‘yicha hujjatlar ijrosini nazorat qilish bo‘yicha hujjatlar almashinuvi tahlilini o‘tkazadi;

– nazoratda bo‘lgan hujjatlarning elektron ma’lumotlar bazasini yuritadi.

Boshqarma qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash sohasida quyidagi vakolatlarga ega: 1) ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarida qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosi bo‘yicha tekshiruvlarni tashkil etadi va o‘tkazadi; 2) davlat organlari va tashkilotlarda qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida maxsus komissiya va ishchi guruhlar tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi; 3) qonunlar, parlament, Prezident va Hukumat qarorlarini lozim darajada ijro etmaganlik uchun ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarini intizomiy javobgarlikka tortish, egallab turgan lavozimidan ozod etish bo‘yicha Prezidentga taklif kiritadi va boshqalar.

Tojikiston Respublikasida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda Prezident apparati muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Tojikiston Respublikasi Prezidentning 2014-yil 17-martdagi 181-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Tojikiston Respublikasi Prezidenti ijro apparati to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra [6], Prezident apparatining asosiy vazifalaridan biri sifatida qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident topshiriqlari ijrosini tekshirish va nazorat qilish hamda ularning bajarilishi jarayonida haqida ma’lumot taqdim etish; Prezident normativ-huquqiy hujjatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish nazarda tutilgan.

Xulosa. Olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash zamonaviy davlat boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Qozog‘iston, Rossiya, Belarus, Armaniston va Qirg‘iziston tajribasi ijro nazorati instituti markazlashgan tashkiliy tuzilma, doimiy monitoring, tahliliy baholash va shaxsiy mas’uliyat mexanizmlari orqali samarali amalga oshirilishini namoyon etadi. Xususan, ijro intizomini baholash, normativ hujjatlarning amaliy samaradorligini monitoring qilish, elektron ma’lumotlar bazasini yuritish va oliy darajada qaror qabul qilish uchun tahliliy axborot tayyorlash amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash faqat nazorat funksiyasi emas, balki huquqiy siyosatni amalga oshirishning institutsional mexanizmi ekanini tasdiqlaydi. Milliy amaliyotni takomillashtirish nuqtai nazaridan ijro monitoringi tizimini raqamlashtirish, samaradorlikni baholash mezonlarini aniq belgilash, mas’uliyat mexanizmlarini kuchaytirish hamda tahliliy-tadqiqot funksiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu orqali davlat qarorlarining hayotiyligi, qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlashga erishish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://adilet.zan.kz/rus/docs/U020000805
2. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_112153/942772dce30cfa36b671bcf19ca928e4d698a928/
3. Козырев М.С. Порядок подготовки, принятия и исполнения актов президента РФ // Материалы Афанасьевских чтений. – 2016. №4. – С.75-76.
4. Закон Республики Армения “О Государственной контрольной службе” от 23 марта 2018 года ЗР-279-Ն // Сайт парламента Армении – www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=6393&lang=rus

5. Указ Президента Республики Беларусь от 27 ноября 2008 г. № 647 «О некоторых вопросах деятельности органов Комитета государственного контроля Республики Беларусь // www.pravo.by/document/?guid=3871&p0=p30800647
6. http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php?showdetail=&asosi_id=16156

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

DIDACTIC REQUIREMENTS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN DIGITAL EDUCATION

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)
Uzbek State University of World Languages

Abstract. The article analyzes the necessity of developing creative competence in professional activity, its theoretical foundations, and didactic requirements. The role of creativity in ensuring professional competitiveness in an innovative economy is substantiated.

Keywords: creativity, competence, professional activity, didactic requirements, innovative education.

RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
https://orcid.org/0009-0000-8371-6298
Email: m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy faoliyat jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning dolzarbligi, uning nazariy-metodologik asoslari hamda didaktik talablari tahlil qilinadi. Zamonaviy globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida mutaxassisning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning kreativ fikrlash, muammolarni nostandart hal etish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bog'liq. Maqolada kreativ kompetentlikning tarkibiy komponentlari, uni shakllantirish bosqichlari hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali pedagogik texnologiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, didaktik talablar, innovatsiya, pedagogik texnologiya, kreativ fikrlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N48

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgardi. Bugungi kunda jamiyatga faqat bilimga ega mutaxassis emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yaratishga qodir, moslashuvchan va kreativ shaxs zarur. Xususan, UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlarda ham XXI asr ko'nikmalari tarkibida kreativlik muhim o'rin egallashi ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. "Kreativlik" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kreativlik divergent fikrlash, moslashuvchanlik, originallik hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyati bilan bog'lanadi. Kreativ kompetentlikni shakllantirishning metodologik,

ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari bugungi kunda psixologiya, pedagogika va tashkiliy tadqiqotlarni birlashtiruvchi fanlararo yondashuv asosida o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar tobora kreativ kompetentlikni tug‘ma xususiyat emas, balki ta’lim muhiti, o‘qitish strategiyalari va ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanuvchi dinamik konstrukt sifatida talqin qilmoqdalar.

Adabiyotlar tahlil va metodologiya. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar muallifi J. P. Guilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lagan va kreativlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida divergent tafakkur tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa [1], E. Torrance uni shaxsning muammoga nisbatan sezgirligi, g‘oyalar oqimining tezligi va originalligi bilan izohlaydi hamda ijodiy tafakkurni baholashning standartlashtirilgan metodikalarini ishlab chiqib, kreativlikning ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik kabi o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarini asoslaydi [2]. So‘nggi o‘n yilliklardagi ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish shuni ko‘rsatadiki, kreativlik, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy tafakkur muammosi xorijiy hamda mahalliy olimlar ishlarida keng yoritilgan va kreativlik nafaqat shaxsning psixologik xususiyati, balki globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida zarur bo‘lgan muhim kasbiy kompetensiya sifatida talqin qilinganligini ko‘ramiz.

Yangi ilmiy yondashuv sifatida kreativlik, innovatsion qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlashni XXI asrning muhim ko‘nikmalari sifatida qaraladigan “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar) doirasida o‘rganishdir. OECD hamda UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar kreativlikni barqaror rivojlanish va uzluksiz ta’lim uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etadi. Mazkur yondashuvda kreativlik alohida qobiliyat emas, balki kognitiv, motivatsion va ijtimoiy komponentlarni birlashtiruvchi integrativ kompetensiya sifatida talqin qilinadi.

V. M. Cojocariu, [7] tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, “inson doimo ijodiy o‘zini namoyon etishga intilib kelgan”. Mualliflar kreativ qobiliyatlarni umumiy iqtidorlilikka mos keluvchi va yuqori samarali intellektual faoliyatning zarur sharti bo‘lgan xususiyat sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, ijod jarayonida shaxs tizim sifatida uyg‘unlashadi, yaratuvchanlik ta’sirida inson avvaliga ichki zo‘riqishlardan xalos bo‘ladi va tizim elementlari o‘rtasida muvozanat va uyg‘unlik yuzaga keladi. Mazkur tizimli yondashuv insonparvarlik psixologiyasi namoyandalari Carl Rodgers [4] hamda Abraham Maslow [3] qarashlari bilan hamohangdir. Ular kreativlikni shaxsning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishining tabiiy ifodasi sifatida talqin qilganlar.

Iqtidorlilik va kreativlikni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarda iqtidorli shaxsning psixologik xususiyatlari: mustaqil fikrlash, ichki motivatsiya, tavakkalchilikka moyillik, yangilikka ochiqlik va yuqori darajadagi kognitiv qiziqish kirishi ta’kidlab o‘tilgan. Zamonaviy tadqiqotlar esa kreativlikni metakognitiv boshqaruv va kasbiy kontekstdagi moslashuvchan bilan bog‘lab izohlaydi.

Zamonaviy pedagogik modellar kreativlikni muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, fanlararo integratsiya va refleksiv faoliyat orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Psixologik xavfsiz muhit, shaxsiy avtonomiyani qo‘llab-quvvatlash hamda hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti kreativlikni sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar kreativlikni tabiiy iste’dod sifatida emas, balki XXI asrda professional muvaffaqiyatni ta’minlovchi rivojlantiriladigan kompetensiya sifatida talqin

qilishga o‘tilganini ko‘rsatadi. Mazkur nazariy asos kasbiy ta’lim tizimida kreativ kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan didaktik tizimlarni ishlab chiqish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kasbiy faoliyatida kreativ kompetentlikni shakllantirish masalalari A.Kožuh tomonidan ko‘rib chiqilgan [8]. Olimlar kreativ resurslarning tarkibiy qismlarini (shaxsning intellektual qobiliyatlari, shaxsning o‘zi, muhit, bilimlar, fikrlash uslubi va motivatsiya) aniqlab berganlar.

So‘nggi yillarda pedagogik kreativlik zamonaviy nazariyada faol rivojlanayotgan va ta’lim muassasalari amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etilayotgan kompetensiyaviy yondashuv doirasida ko‘rib chiqilishi shaxsning muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi; nostandart yechimlar ishlab chiqishi; innovatsion faoliyat yuritishi; yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari majmuasi ekanligi belgilandi.

Kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlik kognitiv component-kreativ fikrlash va bilimlar tizimi sifatida**,** motivatsion component**-**yangilikka intilish va ichki ehtiyoj sifatida**,** faoliyat komponenti**-**amaliy ko‘nikma va malakalar, refleksiv component-o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati kabi tarkibiy komponentlardan iborat.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, quyidagi omillar kreativ kompetentlikni rivojlantirish zaruratini belgilaydi:

mehnat bozoridagi raqobat, zamonaviy mehnat bozori innovatsion fikrlaydigan, moslashuvchan mutaxassislarni talab qilishi;

raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar sharoitida standart bilimlar tez eskiradi, kreativ yondashuv esa yangicha muammolarni hal qilish imkonini berishi;

innovatsion iqtisodiyot talablari, innovatsion rivojlanish kreativ g‘oya va tashabbuslarga tayanishi;

shaxsiy va kasbiy o‘sish, kreativ kompetentlik mutaxassisning o‘zini namoyon etishi va professional identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy faoliyat jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirish quyidagi didaktik talablarga asoslanishi lozim:

Muammoli ta’lim muhiti yaratish, ya’ni tayyor bilim berish emas, balki muammoli vaziyatlar orqali mustaqil izlanishga yo‘naltirish, bunda “Brainstorming”, “Case-study”, loyiha metodi, debat va trening mashg‘ulotlaridan samarali foydalanish talab etiladi;

integrativ yondashuv va fanlararo integratsiya kreativ tafakkurni kengaytiradi;

refleksiv faoliyatni tashkil etish, ya’ni ta’lim oluvchilarda o‘z faoliyatini baholash va xatolar ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;

erkin va psixologik xavfsiz muhitni yaratish, kreativlik qo‘llab-quvvatlovchi, tanqiddan xoli va ochiq muloqotga asoslangan muhitda rivojlanadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish; o‘qituvchining kreativ pozitsiyasi; amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini tashkil etadi.

Tadqiqotimiz jarayonida universitet talabalari kreativ kompetentligini axborot texnologiyalari yordamida shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar sifatida jumlasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish orqali kreativ muhit yaratish, texnologiyalarni tanlashda nafaqat jamiyat talablari, balki talabaning individual xususiyatlari ham inobatga olinishi lozimligi, raqamli resurslarning (kompyuter grafikasi,

videoroliklar) ta’lim mazmunini emotsional qabul qilishni rag‘batlantirish imkoniyatlari, bunga obrazli tasavvur, kadrda asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish, dinamik montaj va boshqa vositalar orqali erishish lozimligi aniqlandi. Hozirgi vaqtda “vizual tafakkur” atamasi keng qo‘llanilmoqda. U “inson faoliyati bo‘lib, uning natijasi yangi obrazlarni yaratish, ma’lum semantik yuklamaga ega bo‘lgan yangi vizual shakllarni hosil qilish va bilimlarni ko‘rinadigan holga keltirish” sifatida ta’riflanadi.

Raqamli resurslar yordamida ta’lim jarayonida talabalarning kreativ faolligini oshirish quyidagi motivlar bilan belgilanadi:

ta’limni individuallashtirish uchun raqamli resurslarning nihoyatda keng imkoniyatlariga asoslangan talabalarning faol va mustaqil faoliyati uchun maydon yaratish;

kommunikativ aloqalarni ta’minlash, internet orqali makon va vaqt zonalaridagi farqlardan qat’i nazar istalgan shaxs bilan muloqot qilish imkoniyati;

ta’lim materialining yuqori darajadagi vizualligi, ayniqsa jarayonlarni dinamikada modellashtirish, tez yoki juda sekin kechadigan jarayonlarni namoyish etish (vaqt transformatsiyasi imkoniyati), hajmli yoki aksincha mikroskopik obyektlarni ko‘rsatish (makon transformatsiyasi imkoniyati);

interaktiv imkoniyatlarning kengayib borishi; ochiqlik va qulaylik kabilar.

Talabaning kreativ salohiyatini rivojlantirishda har bir talaba uchun ijodiy jarayonni maqsadli tashkil etish va rag‘batlantirish; ochiq o‘quv vaziyatlarini yaratish, muqobil fikr va yondashuvlarni ko‘rib chiqish; konformizmni bartaraf etish uchun sharoit yaratish; ta’lim jarayonida ijobiy emotsional muhitni shakllantirish hamda stress omillarini kamaytirish muhim bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida Moodle, Google Classroom kabi ta’lim platformalaridan foydalanildi.

Kreativ ta’limni tavsiflovchi belgilar sifatida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganlikdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonini tizimli qurish, kreativlikka ijobiy motivatsiya, amaliy ko‘nikmalar va nazariy bilimlarning muvozanati, o‘qitish metodlarining xilma-xilligi, bilimlarni doimiy rivojlantirish va muammolarni hal etish, shuningdek, talabalarni o‘quv dasturlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishga yo‘naltirish kabi xususiyatlar mavjud.

Kreativ ta’limda talabalarning o‘z-o‘zini harakatga keltirish, o‘z fikrini va yondashuvini asoslash, mustaqil ish, o‘zini takomillashtirish, o‘zini anglash, o‘zini tartibga solish va o‘zini namoyon etish muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar orasida kreativ kompetentlikni shakllantirish va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida kreativ kompetentlikni namoyon etishga tayyorligini baholash mezonlari va indikatorlari aniqlandi. Bular:

motivatsion mezon: ijodiy motivatsiya kasbiy faoliyatda o‘zini namoyon etish uchun kreativ bo‘lish ehtiyoji, kreativlikni faollashtiruvchi motivlarning mavjudligi, kasbda kreativlikni namoyon etish zarurligini anglash, qiymat yo‘nalishlari;

shaxsiy mezon: talabaning shaxsiy ijodiy salohiyati, intuitsiya, tasavvur, qiziquvchanlik, original fikrlash, hazil tuyg‘usi va optimizm, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyati, emotsionallik;

reflektiv ko‘nikmalar: o‘zini tashkil etish va o‘zini ro‘yobga chiqarish ko‘nikmalari, o‘z ijodiy faoliyatini va guruhning kollektiv ijodiy faoliyatini tahlil qilish ko‘nikma va malakalari;

kognitiv (bilim) mezon: bilimning samaradorligi, bilimning tabiati va to‘liqligi, ya’ni asosiy ijodiy texnikalarni bilish va ularni amaliyotda innovatsion qo‘llay olish; ijodiy tafakkur namoyon bo‘lishi xususiyatlari, ta’limning informatizatsiya sohasida ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi yetarlilik, moslashuvchanlik, original fikrlash va tezlik;

assotsiativ tafakkur sifatida verbal ijodiylik va divergent tafakkur sifatida noverbal ijodiylik kiradi.

Xulosa. Kreativ kompetentlik tushunchasining mazmuni va asosiy ko‘rsatkichlari shaxsning kreativ kompetentligining tuzilmasida ajratilgan sifatlar deb hisoblash maqsadga muvofiq. Shaxsning ijodiy qobiliyatlari va kreativ shaxsga xos xususiyatlarni aniqlashda shaxsning ijodiy fikrlash, bilimni informatizatsiya qilish va innovatsion shaxsiy sifatlarini baholash mezonlari aniq bo‘lishi talab etiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida talabalarda kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlikni shakllantirishga tayyorlash uchun ishlab chiqilgan va asoslangan pedagogik shart-sharoitlar talabalarning kreativ kompetentligining tuzilmasida motivatsion, kognitiv, faoliyat va reflektiv kabi komponentlar ajratish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
2. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
3. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1998.
4. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 2016.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
6. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
7. Cojocariu, V. M. (2024). A literature review on digital creativity in higher education. *Education Sciences, 14*(11), 1189.
8. Kožuh, A. (2020). Didactic skills in the field of developing creativity and innovativeness of a student. *International Journal of Cognitive Research in Science, Engineering and Education, 8*(1), 69–79.
9. Kuo, H.-C., Yang, K.-Y., Cheng, Y.-Y., Chuang, H.-H., & Chang, C.-C. (2025). Prioritising creativity at the heart of the curriculum: Developing a creative competence scale. *Thinking Skills and Creativity, 60*, 102098.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF A STRATEGIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM AND THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS

Rakhmatullaev Dilmurod Rakhmatullaevich
Associate Professor, Andijan Branch of Turon University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Abstract. This article examines the content of reforms being implemented in the professional education system, their role in improving the quality and effectiveness of education, and the scientific, theoretical, and practical significance of a strategic approach to managing modern educational institutions. In particular, the main objectives of strategic management in the context of modernization of the professional education system are substantiated, including its role in ensuring the effective organization of the educational process, training competitive specialists, and promoting the sustainable development of educational institutions. Furthermore, the essence and content of the pedagogical strategy of professional educational institutions, its structural components, goals, and objectives, as well as its conceptual foundations aimed at the long-term development of the educational process, are systematically analyzed. The article also scientifically substantiates the necessity of developing and implementing pedagogical strategies in professional education institutions and highlights their importance in improving the quality of education, enhancing the effectiveness of pedagogical activities, and forming the professional competencies of future specialists. In addition, it is emphasized that the development of pedagogical strategy is an essential factor in ensuring the innovative development of professional education institutions, adapting them to the modern labor market requirements, and increasing the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: strategy, strategic management, educational management, professional competence, innovative activity, pedagogical strategy, professional education system, strategic development, educational process management, pedagogical innovations, competitive specialist, educational effectiveness, modernization of education, management mechanisms, strategic planning of pedagogical activity.

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich
Turon universiteti, Andijon filiali dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni, ularning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda zamonaviy ta’lim muassasalarini boshqarishda strategik yondashuvning ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan. Xususan, professional ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida strategik boshqaruvning asosiy vazifalari, uning ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, professional ta’lim muassasasining pedagogik strategiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari, maqsad va vazifalari hamda ta’lim jarayonini uzoq muddatli rivojlantirishga yo‘naltirilgan konseptual asoslari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada professional ta’lim muassasalarida pedagogik strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishning zaruriyati, bu jarayonning ta’lim sifati, pedagogik faoliyat samaradorligi hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu

bilan birga, pedagogik strategiyani ishlab chiqish professional ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishini ta’minlash, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik boshqaruv, ta’lim menejmenti, kasbiy kompetensiya, innovatsion faoliyat, pedagogik strategiya, professional ta’lim tizimi, strategik rivojlanish, ta’lim jarayonini boshqarish, pedagogik innovatsiyalar, raqobatbardosh mutaxassis, ta’lim samaradorligi, ta’limni modernizatsiya qilish, boshqaruv mexanizmlari, pedagogik faoliyatni strategik rejalashtirish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N49

Kirish. Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda professional ta’lim tizimini rivojlantirish hamda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi professional ta’lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, professional ta’lim muassasalarini boshqarishda strategik yondashuvni qo‘llash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik faoliyatni tizimli rivojlantirish hamda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda professional ta’lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, professional ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, Milliy kvalifikatsiya tizimini joriy etish hamda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish orqali zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa professional ta’lim muassasalarini boshqarishda strategik yondashuvni qo‘llash, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Strategik yondashuv professional ta’lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ta’lim sifatini oshirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bois, professional ta’lim tizimini rivojlantirish va mutaxassislarni tayyorlash jarayonida strategik boshqaruvning konseptual asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Professional ta’lim tizimini rivojlantirish va strategik boshqaruv masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, R.X. Djuraev va S.T. Turg‘unov ta’lim muassasalarini boshqarishda menejmentning nazariy asoslarini tahlil qilib, strategik boshqaruv ta’lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, ta’lim muassasalarini boshqarishda strategik rejalashtirish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish va pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh. Kurbonov va E. Seytxalilov ta’lim sifatini boshqarish masalalarini o‘rganib, ta’lim muassasalarini rivojlantirishda strategik boshqaruv muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy asoslab berganlar. Ularning ta’kidlashicha, ta’lim sifatini oshirish uchun ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish zarur.

B.B. Ergashev professional ta’lim tizimida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash strategiyalarini o‘rganib, mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda

strategik yondashuv muhim o‘rin tutishini asoslab bergan. Shuningdek, u professional ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

D.A. Novikov pedagogik tadqiqotlarda strategik yondashuvni qo‘llashning metodologik asoslarini ishlab chiqib, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi. N.P. Kovalenko esa shaxsning kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishishida strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, professional ta’lim tizimida strategik boshqaruv va pedagogik strategiyani ishlab chiqish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, professional ta’lim muassasalarida pedagogik strategiyani ishlab chiqishning konseptual asoslari va uning mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot professional ta’lim tizimini rivojlantirish va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda strategik yondashuvning konseptual asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini professional ta’lim tizimini boshqarish, strategik boshqaruv, pedagogik strategiya va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid ilmiy manbalar, pedagogik konsepsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish va taqqoslash metodlari yordamida professional ta’lim tizimida strategik boshqaruvning nazariy asoslari o‘rganildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali professional ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni tashkil etish holati, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlari o‘rganildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida professional ta’lim tizimi yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida strategik boshqaruvning o‘rni va ahamiyati aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasining keskin o‘zgarishi, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda xalqaro miqyosda raqobatning tobora kuchayib borishi davlatimizni barqaror va jadal rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuvlar, innovatsion tamoyillar va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlatning raqobatbardoshligini ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta’minlash ko‘p jihatdan malakali, raqobatbardosh hamda yuqori kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, professional ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va uni samarali boshqarish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim tendensiyalari asosida professional ta’lim tizimini isloh qilish, uning mazmunini modernizatsiya qilish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, professional ta’lim dasturlarini

YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, o‘quv jarayoniga Milliy kvalifikatsiya tizimini to‘laqonli joriy etish orqali ta’lim tizimining xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa professional ta’lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim muassasalarining istiqbolli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishni talab etadi. Shu bilan birga, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar boshqaruv tizimining mazmuni va tuzilmasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, uni takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur jarayon ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayangan holda, ta’limni boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda professional ta’lim muassasalarini boshqarishda strategik yondashuvni qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish professional ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasi va boshqaruv madaniyatiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Professional ta’lim muassasalari rahbarlarining funksional vazifalari orasida ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini belgilash hamda strategik maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan taktik chora-tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Mukammal ishlab chiqilgan strategiya ta’lim muassasasining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga izchil tatbiq etish samarali boshqaruv tizimining muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda uzoq vaqt davomida “strategiya” tushunchasiga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan bo‘lsa-da, XX asrning 90-yillaridan boshlab ushbu tushuncha psixologiya va falsafa fanlarida keng qo‘llanila boshladi. Xususan, strategiya shaxsning o‘zini o‘zi anglash, o‘z faoliyatini rejalashtirish, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, hayotiy pozitsiyasini aniqlash hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash jarayonlarida muhim vosita sifatida qo‘llanildi. Pedagogika fanida esa strategiya tushunchasining nazariy asoslari, mazmuni va mohiyati yetarli darajada o‘rganilmagan. Vatanimiz olimlari tomonidan olib borilgan pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik strategiya tushunchasining mazmuni, maqsadi va ilmiy asoslari yetarli darajada tizimli ravishda o‘rganilmagan hamda ushbu tushunchaning pedagogik jarayondagi o‘rni to‘liq yoritilmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqotda “pedagogik strategiya” tushunchasining mazmunini ilmiy asosda o‘rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash hamda professional ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish muhim vazifa sifatida belgilandi. Ushbu jarayonda strategiya tushunchasining mazmunini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda strategiya tushunchasi zarur natijaga erishish uchun nostandart sharoitlarda ishlab chiqiladigan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan harakatlar tizimi sifatida talqin etiladi [2]. Mazkur yondashuv strategiyaning asosiy mazmunini, ya’ni uzoq muddatli maqsadga erishishga qaratilgan tizimli, izchil va ilmiy asoslangan faoliyat modeli ekanligini ifodalaydi.

Strategiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda istiqbolli rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan tizimli va uzoq muddatli boshqaruv kategoriyasi sifatida talqin etiladi. Xususan, strategiya batafsil ishlab chiqilgan harakatlarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi orqali istiqbolli maqsadlarga erishish yoki rejalashtirilgan natijalarga yetishishni ta’minlovchi uzoq muddatli reja sifatida ta’riflanadi [3]. Mazkur yondashuv strategiyaning asosiy mazmunini, ya’ni maqsadga erishishga yo‘naltirilgan aniq rejalashtirilgan, tizimli va izchil faoliyat modeli ekanligini ifodalaydi. Zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotida strategiya tushunchasi keng qo‘llanilib, u tashkilot, korxona yoki muassasa faoliyatini samarali tashkil etish, istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini oldindan belgilash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv jarayonini tizimli ravishda tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, strategiya faoliyatni oldindan rejalashtirish, ustuvor vazifalarni aniqlash, maqsadga erishish mexanizmlarini belgilash hamda kutilayotgan natijalarni prognoz qilish va nazorat qilish imkonini beruvchi boshqaruv vositasi sifatida ham keng qo‘llanilmoqda [1]. Ushbu jihatdan strategiya nafaqat uzoq muddatli rivojlanish rejasini, balki boshqaruvning konseptual asoslarini ham ifodalaydi. Strategiya, shuningdek, maqsadga erishish jarayonini samarali boshqarish san’ati sifatida ham tavsiflanadi. U tashkilot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ushbu qarorlarni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu ma’noda strategiya tashkilot yoki muassasa faoliyatining rivojlanish istiqbolini belgilovchi, boshqaruv jarayonining uzluksizligi va izchilligini ta’minlovchi hamda maqsadga erishishning ilmiy asoslangan modelini ifodalovchi muhim boshqaruv kategoriyasi hisoblanadi.

Umummenejment nazariyasida strategiya tushunchasiga berilgan ilmiy tavsiflar va konseptual yondashuvlarga asoslanib, uni ta’lim muassasasini boshqarish jarayoni bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv strategiyani ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv vositasi sifatida talqin etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, strategiya, avvalo, ta’lim muassasasining oldiga qo‘yilgan uzoq muddatli maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlovchi muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Strategiya ta’lim muassasasining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli boshqaruv modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muassasasini boshqarish nuqtai nazaridan strategiya birinchi navbatda yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. U ta’lim muassasasining barcha faoliyat yo‘nalishlarini yagona maqsad sari yo‘naltirish, pedagogik, tashkiliy, boshqaruv va innovatsion jarayonlarni o‘zaro integratsiyalash hamda ularning izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategiya ta’lim muassasasining umumiy faoliyatini yaxlit tizim sifatida rivojlantirishga imkon berib, uning barcha tarkibiy qismlari, jumladan, o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi va moddiy-texnik bazasining o‘zaro uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi.

Strategiya ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish istiqbolini belgilovchi keng qamrovli ish rejasi sifatida ham tavsiflanadi. U ta’lim muassasasining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirish, ustuvor vazifalarni aniqlash hamda ta’lim jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, strategiya ta’lim muassasasining barcha ish

rejalarini yagona tizimga birlashtiruvchi, ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Bu esa ta’lim muassasasining rivojlanish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Strategiya, shuningdek, ta’lim muassasasining mavjud resurslarini oqilona taqsimlash, ularni samarali muvofiqlashtirish hamda qo‘yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan uzoq muddatli harakatlarning umumlashgan modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatdan strategiya ta’lim muassasasining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi, uning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlovchi hamda boshqaruv jarayonining izchilligini ta’minlovchi konseptual asos vazifasini bajaradi.

Strategiya innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida ham alohida ahamiyatga ega. U pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta’lim sifatini takomillashtirish hamda boshqaruv faoliyatini modernizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, strategiya ta’lim muassasasining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish, rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash hamda raqobat muhitida ustunlikka erishish uchun zarur bo‘lgan konseptual yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Strategiya ta’lim muassasasining umumiy faoliyatini, jumladan, moliyaviy, tashkiliy va pedagogik jarayonlarini kompleks nazorat qilish, ularning samaradorligini baholash hamda rivojlanish istiqbollarini belgilash imkonini beruvchi keng qamrovli boshqaruv tizimi sifatida ham tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, strategiya ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv kategoriyasi hisoblanadi.

Ta’lim muassasasini samarali boshqarish ko‘p jihatdan uning rahbari tomonidan ishlab chiqilgan strategiyaning ilmiy asoslanganligi, real sharoitlarga mosligi hamda uni amaliyotga izchil va samarali tatbiq etish darajasiga bog‘liqdir. Strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirish boshqaruv jarayonining o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim bosqichlari hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim ta’lim muassasalari rahbarlari puxta ishlab chiqilgan, nazariy jihatdan asoslangan strategiyaga ega bo‘lsalar-da, uni amaliy faoliyatga to‘laqonli joriy etish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, metodik va boshqaruv mexanizmlarini yetarli darajada qo‘llay olmaydilar. Bunday holatlarda strategiya konseptual hujjat sifatida mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy samaradorligi past darajada qoladi. Buning asosiy sababi rahbar-xodimlarda strategiyani amalga oshirishga doir taktik bilim, amaliy ko‘nikma va boshqaruv malakalarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Boshqa holatlarda esa ayrim ta’lim muassasalari rahbarlari tomonidan ishlab chiqilgan strategiya nisbatan soddaroq yoki o‘rtacha darajada bo‘lishiga qaramasdan, uni amaliyotga izchil va samarali joriy etish orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu holat strategiyani amalga oshirish jarayonida rahbarning boshqaruv kompetensiyasi, tashkiliy qobiliyati, mavjud resurslardan samarali foydalanish mahorati hamda jamoani strategik maqsadlarga yo‘naltira olish qobiliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, strategiyani ishlab chiqishda ta’lim muassasasining ichki va tashqi muhitini, uning kuchli va zaif tomonlarini, mavjud imkoniyatlar va rivojlanishga tahdid soluvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarur. Aks

holda, strategiya amaliyotdan uzilib qolgan, real sharoitlarga mos kelmaydigan hujjatga aylanishi mumkin.

Mazkur holatlar strategik boshqaruv kompetensiyasining ta’lim muassasasi rahbari faoliyatida muhim o‘rin tutishini yana bir bor tasdiqlaydi. Strategik boshqaruvga doir kompetentlik rahbardan ta’lim muassasasining istiqbolli rivojlanish maqsadlarini aniq belgilash, ushbu maqsadlarni aniq boshqaruv vazifalariga aylantirish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda kutilayotgan natijalarni oldindan prognoz qilishni talab etadi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv jarayonida barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro aloqadorligi, ya’ni strategik maqsadlar, vazifalar, resurslar, amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan natijalar o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa strategik boshqaruvni ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi kompleks boshqaruv jarayoni sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik strategiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning natijalari qisqa muddatda emas, balki uzoq muddatli istiqbolda namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlaridan farqli ravishda, pedagogik strategiyaning samaradorligi darhol sezilmaydi, chunki ta’lim jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va uzoq muddatli rivojlanish jarayonini o‘z ichiga oladi. Pedagogik strategiyaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan boshqaruv subyektlarining strategik maqsadlarga yo‘naltirilganligi, pedagogik jamoaning strategik vazifalarni anglab yetganligi, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada ta’minlanganligi, shuningdek, vaqt va makon omillarining to‘g‘ri hisobga olinganligiga bog‘liqdir. Shu sababli pedagogik strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida tizimli yondashuvni qo‘llash, mavjud resurslarni samarali boshqarish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional ta’lim tizimida pedagogik strategiyaning mohiyatini aniqlash jarayoni uning nazariy asoslari, maqsadlari va amaliy vazifalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Pedagogik strategiya professional ta’lim tizimining istiqbolli rivojlanishini ta’minlash, o‘quvchilarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik faoliyat modeli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik strategiyaning asosiy nazariy jihatlaridan biri o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning strategik maqsadini aniq belgilashdan iborat. Bu jarayon bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish hamda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda samarali kasbiy faoliyat yuritishlariga imkon yaratishga xizmat qiladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirishning strategik maqsadi o‘quvchilarning zamonaviy raqobat muhitida yosh mutaxassis sifatida barqaror faoliyat yurita olishlari, o‘z kasbiy o‘rnini topishlari hamda o‘zlarida noyob kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali raqobatbardosh ustunliklarga ega bo‘lishlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, kasbiy moslashuvchanligini hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik strategiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalarni aniqlash va amalga oshirishdan iborat. Ushbu taktik vazifalar o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasining barcha komponentlarini, jumladan, kasbiy bilim,

amaliy ko‘nikma, malaka, kasbiy motivatsiya va kasbiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni izchil rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bunda pedagogik qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion o‘qitish metodlaridan foydalanish hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida turli xil pedagogik strategiyalar mavjud bo‘lib, ularning har biri ta’lim muassasasining maqsad va vazifalariga, mavjud shart-sharoitlariga hamda strategik rivojlanish yo‘nalishlariga mos ravishda qo‘llaniladi. Shu sababli, pedagogik strategiyani amalga oshirish jarayonida tanlangan tarkibiy komponentlar, shakllar, usullar va vositalar strategik maqsadga erishish uchun yetarli darajada asoslangan bo‘lishi lozim. Pedagogik strategiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan uning ilmiy asoslanganligi, amaliyotga mosligi hamda ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro uyg‘unlashtira olish darajasiga bog‘liqdir.

Professional ta’lim muassasasi rahbari zimmasiga pedagogik strategiyani ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish hamda ta’lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta’minlash kabi muhim vazifalar yuklatiladi. Ta’lim muassasasi rahbari strategik boshqaruv jarayonida turli xil murakkab va kutilmagan vaziyatlarga moslasha olish, mavjud muammolarni samarali hal etish hamda konstruktiv, muhofaza va destruktiv strategiyalar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa ta’lim muassasasining rivojlanish istiqbollarini aniqlash, pedagogik jarayon samaradorligini oshirish hamda ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini ta’minlash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim muassasalarini samarali boshqarish va ta’lim sifatini oshirishda strategik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, R.H. Jo‘raev va S. Turg‘unovlarning fikriga ko‘ra, ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirish, ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish uchun maxsus, funksional, mujassamlashtirilgan va diversifikatsiyalashgan strategiyalarni qo‘llash zarur [1]. Ushbu strategiyalar ta’lim muassasasining barcha faoliyat yo‘nalishlarini kompleks rivojlantirish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda professional ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim boshqaruv jarayoni bo‘lib, u muassasaning strategik maqsadlariga erishish yo‘lida mavjud imkoniyatlar, resurslar va pedagogik jamoaning umumiy manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Strategik boshqaruv ta’lim muassasasining rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda belgilash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash hamda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha uzoq muddatli dasturlar, reja va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali boshqaruv jarayonini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv ta’lim muassasasida boshqaruv madaniyatining yuqori darajada shakllanishini ta’minlaydi, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Professional ta’lim tizimida pedagogik strategiyani samarali amalga oshirish uchun uning asosiy yo‘nalishlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik strategiyani amalga oshirish jarayonida uchta asosiy strategik yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yo‘nalish o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining dasturiy va metodik ta’minotini takomillashtirish orqali ularning professional bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalish doirasida o‘quvchilarda mavjud bilim va ko‘nikmalar yetishmasligini bartaraf etish, zamonaviy kasbiy faoliyat talablariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ularning mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Professional ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida pedagogik strategiyaning ushbu yo‘nalishi o‘quvchilarda raqobatbardoshlikni ta’minlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash hamda o‘quvchilarning zamonaviy mehnat sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalish yosh mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o‘zaro uyg‘unlashtirish, ularning o‘z kasbiy faoliyatini anglash va samarali amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Ikkinchi yo‘nalish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini psixologik va pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalish doirasida ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va kasbiy qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik strategiyaning mazkur yo‘nalishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z ta’lim natijalari uchun mas’uliyatni his qilish hamda kasbiy faoliyatga ongli ravishda yondashish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi hamda ularning shaxsiy va kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkoniyati ta’minlanadi.

Uchinchi yo‘nalish professional ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy rivojlanishi va ularning kasb martabasini shakllantirishga ko‘maklashishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalish bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini strategik rejalashtirish, ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlash hamda kasbiy faoliyatda barqaror o‘rin egallashiga yordam berishni nazarda tutadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun mehnat bozori talablarini tizimli tahlil qilish, ish beruvchilar bilan samarali hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim xizmatlari bozorining imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda professional ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida samarali hamkorlik tizimi shakllantiriladi, bu esa bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlash hamda professional ta’lim tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, professional ta’lim tizimini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida strategik yondashuv muhim pedagogik va boshqaruv omili hisoblanadi. Strategik boshqaruv professional ta’lim muassasalarining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Professional ta’lim muassasalarida pedagogik strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlash hamda bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik boshqaruv ta’lim

muassasalarining innovatsion rivojlanishini ta’minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, professional ta’lim tizimida strategik yondashuvni qo‘llash ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, professional ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish professional ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta'lim muassalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - T.: Fan, 2006. - B.119.
2. Kurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshkarish. T.: Turon-Iqbol, 2006. – 542 b.
3. Ergashev B.B. Professional ta'lim tizimida raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish strategiyalari // Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent. 2021. № 3. - B.6-8.
4. Ergashev B.B. Professional ta'lim bitiruvchilarining ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari // TDPU ilmiy axborotlari – Toshkent. 2021. № 5. - B. 90-96.
5. Новиков Д.А. Статистические методы в педагогических исследовани- ях (типовые случаи). - М.: МЗ-Пресс, 2004. - 67 С.
6. Кейнс Д.М. Предмет и метод политической экономии. Монография. Москва.: Директ-Медиа, 2012. – 279 С.
7. Коваленко Н.П. Психология успеха. / Коваленко Н.П. - СПб.: Издательский дом "Нева"; М.: "ОЛМА-ПРЕСС Образование", 2003. - 160 С.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

NEUROPEDAGOGY AS A NEW SCIENTIFIC FIELD OF THE EDUCATION SYSTEM

Yusupova Kamola Nuriddinovna
Associate Professor, Department of Social and Humanitarian Sciences
Tashkent Branch of UBS, PhD in Pedagogical Sciences
Researcher at the Kari Niyazi National Institute of Pedagogy of Upbringing
E-mail: kamolayusupova1112@gmail.com

Abstract. This article presents a theoretical analysis and discussion of the potential applications of neuroscience and neuropedagogy in education, as well as prospects for addressing the challenges of conscious learning, which are relevant for both children with learning disabilities and children without learning disabilities, but for whom the use of these methods can contribute to their academic success.

Keywords: neuropedagogy, educational neuroscience, neuropsychology, neurobiology, teacher training.

NEYROPEDAGOGIKA TA’LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG‘I SIFATIDA

Yusupova Kamola Nuriddinovna
UBS Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti,p.f.f.d.(PhD)
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nevrologiya va neyropedagogikaning ta’limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari, shuningdek, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalarga ham, ta’limda qiyinchiliklarga duch kelmaydigan, ammo ushbu usullarni qo‘llash orqali o‘qishdagi yutuqlariga hissa qo‘sha oladigan bolalarga ham tegishli bo‘lgan ta’limni ongli qabul qilish muammolarini hal qilish istiqbollari nazariy tahlili va muhokamasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, ta’lim nevrologiyasi, neyropsixologiya, neyrobiologiya, o‘qituvchilarni malakasini oshirish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N50

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ta’lim tizimida ham sezilarli yangilanishlarni, qarash va talablarni olib keldi. Talablar qatoriga bo‘lajak mutaxassislarning egallashlari zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari jahon ta’lim standartlariga moslashtirilayotganligi va buning natijasida akademik fanlarning nomlanishi va fanlararo integratsiya masalalarini, yangi fanlar va pedagogik usullar joriy etilayotganligini aytishimiz mumkin.

Natijada, rivojlanishning barcha bosqichlarida bo‘lgan talabalarning katta qismi o‘quv dasturini o‘rganish va o‘zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu esa tizimli jarayonning ehtimoliy natijalaridan biri sifatida talabalar orasida funksional savodsizlikning kuchayishiga sabab bo‘lib, kelajakda katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammolarni kelib chiqish sabablarini aniqlash, vaziyatni hal qilish va ta’lim sifatini yaxshilashning mumkin bo‘lgan yo‘llarini izlash asosida talabalar uchun o‘qishni

yaxshilashga qaratilgan yanada qiziqarli o‘qitish usullarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Sanab o‘tilgan sabablar ko‘lamining kengligi yuqori sifatli ta’lim natijalariga erishish uchun chuqur tahlil asosida mukammal o‘rganish va samarali yechimlarni talab etadi.

Talaba yoshlarning jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom ekanliklariga qaramay, yoshlar orasida ortib borayotgan “dangasalik”, “beparvolik”, “e’tiborsizlik”, “o‘zlashtirishda ortda qolish”, “inklyuziyaga ega” va boshqa xususiyatlar kuzatiladi. Ko‘pgina hollarda, bunday xususiyatlar sinfdagi o‘quv materialiga yoki o‘qitish usullariga qiziqish bildirmaydigan o‘quvchilarda namoyon bo‘ladi.[4. 406–413, 3.317–329]

Yaxshi o‘qituvchi har doim o‘quvchilarning yutuqlarini oshirishga intilib, o‘qitishning yangi va turli usullarini izlaydi. Hamma uchun mos keladigan yagona o‘qitish usuli mavjud emasligi sababli, o‘qituvchilar ta’lim tadqiqotlari natijalaridan foydalanib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini tahliliy o‘rganish asosida shaxsiy pedagogik uslublarini takomillashtiradilar.

Ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlariga ko‘ra yondashuv miyaning qanday ishlashi va uning funksiyalarini o‘rganish asosida ta’lim jarayonida samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Bu “miyaga asoslangan o‘rganish” deb ataladigan usulni o‘qitish amaliyotiga joriy etish uchun asos yaratadi.

Maqsad va uni asoslash. 2010-yilda J. Tommerdal nevrologiya va o‘rganishni birlashtirgan nazariy modelni yaratdi va bu sintezning bir nechta asosiy darajalarini aniqladi:



1-rasm: J. Tommerdalning nevrologiya va o‘rganishni birlashtirgan nazariy modeli

1. **Birinchi daraja** – miyani hujayra darajasida o‘rganish (neyron faoliyatining fiziologik va biokimyoviy jihatlari).
2. **Ikkinchi daraja** – kognitiv nevrologiya (asab tizimining strukturaviy va funksional tashkil etilishi hamda nutqni idrok etish, so‘zlarni o‘rganish, tezkor xotira kabi jarayonlar).

3. **Uchinchi daraja** – miya faoliyati va idrok, diqqat, xotira, fikrlash kabi kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.
4. **To‘rtinchi daraja** – neyrobiologik va psixologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan o‘rganish nazariyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish.
5. **Beshinchi daraja** – sinf sharoitida ilmiy jihatdan tasdiqlangan usullarni sinovdan o‘tkazish va baholash.

A. Tarasov zamonaviy ta’lim tizimi miya faoliyati uchun noqulay ekanligini ta’kidlab, yodlash va takrorlashga asoslangan sinf-dars tizimining barcha o‘quvchilarga mos kelmasligini izohlaydi. Ularning bir xil yosh guruhida bo‘lishi aqliy rivojlanish darajasi bir xil degani emas. Bu esa ta’lim tizimida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni talab qiladi.[7.48-55, 8.1002-1015]

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Neyropedagogikaning mustaqil fanlararo yo‘nalish sifatida shakllanishi miya faoliyati haqidagi ilmiy bilimlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zaruratidan kelib chiqqan. U pedagogika, psixologiya, neyrofiziologiya va kognitiv fanlar kesishmasida shakllangan.

Neyropedagogika pedagogikaning maxsus yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, patologiyaga emas, balki norma va normal rivojlanishga qaratilgan. Uning asosiy vazifasi-o‘quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqishdir. XXI asr ilmida fanlararo integratsiya tendensiyalari o‘sib bormoqda. Bu pedagogika va psixologiyada tobora ko‘proq yaqqol ko‘rinib bormoqda. Pedagogika fanining ayniqsa tez rivojlanishi boshqa, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ilmiy sohalardan bilimlarni kiritishni zaruratini talab qiladi. Shunga o‘xshash tendensiya psixologik fanlarda ham kuzatilmoqda. Biroq, psixologiyada, pedagogikadan farqli o‘laroq, asab tizimi va xususan, miya faoliyati haqidagi bilimlar allaqachon o‘z o‘rnini topgan. So‘nggi 20-25 yil ichida inson miyasi va o‘rganishning biologik asoslari haqidagi bilimlar sezilarli darajada rivojlandi va o‘rganish mohiyatini tushunishimizda o‘zgarishlarga olib keldi. Yangi tadqiqot usullari va texnikalari inson bilishining biologik asoslarini tushunishimizda sezilarli yaxshilanishga olib keldi. Nevropedagogika tibbiyot fanidagi yutuqlar, xususan, neyrofiziologik va neyrotasvirlash usullari tadqiqotchilarga tirik miyaning ishlashi va fiziologik o‘zgarishlarini o‘rganish, muayyan kognitiv vazifalarni bajarish paytida uning faol sohalarini aniqlash imkonini beradi. Vaqt o‘tishi bilan bunday tadqiqot yondashuvlari turli odamlarda miyadagi nafaqat strukturaviy, balki funksional farqlarni ham farqlash imkonini beradi. S. N. Kostromina fikriga qo‘shilgan holda, ta’lim tizimi miyaning qanday ishlashi haqida ma’lumotga muxtoj ekanligini va kognitiv, ijodiy va algoritmik muammolarni hal qilishda miya faoliyati modellari haqida zamonaviy bilimlar juda kam ega ekanligini ta’kidlash o‘rinli. [4. 406–413]

Albatta, ixtisoslashgan bu yo‘nalishda adabiyotlar mavjud, ammo u ko‘pincha boshqa ilmiy sohalardagi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan va shuning uchun ta’lim sohasidagi mutaxassislar uchun har doim ham mavjud emas. Shuningdek, ba’zi hollarda noto‘g‘ri g‘oyalarning shakllanishiga olib keladigan ommabop adabiyotlar ham mavjud. [1. 8–17,2. 2464–2468]

Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- neyron plastiklik;
- neyrogenez va neyronlararo bog‘lanishlar;
- oynaviy neyronlar;

- sezgir davrlar;
- emotsional holat;
- genetika va neyrogenetika;
- bosh miya funksional asimmetriyasi.

Ushbu omillarni hisobga olish ta’lim jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida neyropedagogik bilimlarni joriy etish zarurati mavjud.

Neyropedagogikaning asosiy qonunlari

A. Tsvetkov tomonidan quyidagi to‘rtta asosiy qonun ilgari surilgan:

1. **Ta’lim ma’noli bo‘lishi kerak** – o‘quvchi vazifani o‘z rivojlanish bosqichi prizmasi orqali anglaydi.
2. **Ta’lim o‘z vaqtida bo‘lishi kerak** – sezgir davrlarni hisobga olish zarur.
3. **Ta’sir ichki mantiqqa ega bo‘lishi kerak** – mantiqiy, ketma-ket va multimodal yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.
4. **Nimani nazorat qilsang, shuni olasan** – nazorat ta’lim samaradorligini va psixik rivojlanishni prognoz qilish imkonini beradi.

S. N. Kostromina tomonidan ta’kidlangan neyrodidaktik tamoyillar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular neyron plastiklik, tug‘ma qiziquvchanlik, genetik xususiyatlar, neyron tarmoqlarining shakllanishi va intellektual faoliyatning rivojlanishiga asoslanadi. [7,56-60]

Xulosa. So‘nggi o‘n yillikda neyrofaning jadal rivojlanishi natijasida neyropedagogika yangi ilmiy va interdisiplinar yo‘nalish sifatida shakllandi. U ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, har bir o‘quvchining individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish va pedagogik amaliyotni takomillashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda neyropedagogikani rivojlantirish ta’lim mutaxassislarini tayyorlash strategiyasini yangilashni talab qiladi. Shu bois oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish tizimida neyropedagogikaga bag‘ishlangan maxsus kurslarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Neyropedagogika nafaqat amaliy pedagoglar, balki barcha pedagogika yo‘nalishlari talabalari uchun muhim bo‘lgan interdisciplinar bilimlar tizimini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Клемантович, И. П., Леванова, Е. А., Степанов, В. Г. (2016) Нейропедагогика: новая отрасль научных знаний. Педагогика и психология образования, No 2, с. 8–17. EDN: WIRKVL
2. Клемантович, И. П., Степанов, В. Г. (2015) Нейропедагогика: предмет исследования. Фундаментальные исследования, No 2-11, с.2464–2468. EDN: TQBJIL
3. Educational Researcher,vol.42, no.6, pp.317–329. https://doi.org/10.3102/0013189X13499403 Fischer,K. M. (2009) Mind, brain and education: Building a scientific groundwork for learning and teaching. Mind, Brain and Education, vol. 3, no. 1, pp. 3–16. https://doi.org/10.1111/j.1751-228X.2008.01048x Goswami,U. (2006)
4. Neuroscience and education: From research to practice? Nature ReviewsNeuroscience,vol.7,no.5,pp.406–413. https://doi.org/10.1038/nrn1907 Harerimana,J.P. (2019)

5. Brain-based and learning theories: Application of the classroom.European Journal of Education Studies, vol. 5, no. 12, pp. 225–242.Jensen,E.P. (2008a)
6. A fresh look at brain-based education.Phi Delta Kappan, vol. 89, no. 6, pp. 408–417. https://doi.org/10.1177/003172170808900605 Jensen, E. P. (2008b)
7. Brain-based learning: The new paradigm of teaching. 2nd ed. San Diego: Corwin Press., 288 p.OECD (2007)
8. Understanding the brain: The birth of learning science. Paris: OECD Publ.,264p. https://doi.org/10.1787/9789264029132-en Roser,M.,Gazzaniga,M. (2004)

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF THE MILITARY PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN MODERN CONDITIONS

Umurzoqov Bakhtiyor Bokhadirovich
Senior Instructor of the Combat Training Cycle of the Institute of Increasing qualifications of the Ministry of Internal Affairs, Lieutenant colonel

Abstract. This scientific article analyzes the scientific and practical foundations for improving the effectiveness of the military personnel management system in modern conditions. It highlights the current issues in the selection, training, placement, and retention of military personnel and substantiates ways to improve these processes. Additionally, based on foreign experience, the importance of a meritocratic approach, an open competition system, and mechanisms for ensuring personnel stability is demonstrated.

Keywords: military personnel, management, military education, meritocracy, personnel policy, service efficiency, personnel stability, foreign experience, work–life balance.

ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich
IIV Malaka oshirish instituti,
Jangovar tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy sharoitda harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash, joylashtirish va xizmatda ushlab qolish jarayonlarining dolzarb muammolari yoritilib, ularni takomillashtirish yo‘llari asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar misolida meritokratik yondashuv, ochiq tanlov tizimi va kadrlar barqarorligini ta’minlash mexanizmlarining ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy kadrlar, boshqaruv, harbiy ta’lim, meritokratiya, kadrlar siyosati, xizmat samaradorligi, kadrlar barqarorligi, xorijiy tajriba, ish-hayot muvozanati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N51

Kirish. Mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Harbiy qismlarning eshiklari xalq uchun, bo‘lajak Vatan posbonlari — yosh avlod uchun keng ochilgan. Istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, vatanparvar harbiy kadrlar safi muttasil ravishda kengayib borayotganligi quvonarlidir. Zero, xalqimiz harbiylarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug‘ vazifani sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an’analarini munosib davom ettirib kelayotgan yurtimizning chinakam qalqonlarini ko‘radi [1].

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, harbiy-siyosiy vaziyatning keskin va tez o‘zgarishi, harbiy sohada axborot-kommunikatsion texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda

xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlarning yuzaga kelishi esa harbiy boshqaruv tizimlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizning jangovar shayligi, safarbarlik salohiyati va strategik barqarorligi ko‘p jihatdan inson kapitaliga, ya’ni harbiy kadrlarni tanlash, joylashtirish, tayyorlash va xizmat faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligiga bog‘liqdir. Shu ma’noda, harbiy kadrlar boshqaruvi oddiy tashkiliy-amaliy jarayon emas, balki chuqur ilmiy yondashuvni talab etadigan murakkab ijtimoiy-boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligi strategik rejalashtirishning aniqligi, kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarining joriy etilishi, xizmat bo‘yicha o‘sishning shaffofligi hamda ma’naviy-ruhiy barqarorlikni ta’minlash darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda kadrlar bilan ishlash faqat shaxsiy tarkib hisobini yuritish yoki buyruqlarni rasmiylashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki tahliliy prognozlash, salohiyatni aniqlash, liderlik fazilatlarini shakllantirish, sohadagi muammolarga tahliliy-sotsiologik yondashish va institutsional barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks faoliyatni o‘z ichiga olishi zarur. Ushbu yo‘nalishlarni takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi kerak” deya, ta’kidlandi va harbiy xavfsizlik va mudofaani kuchaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi [2]. Albatta, mazkur vazifalarni ijro etish uchun ilmiy-amaliy yondashuv zarurligi, tizimni strukturaviy va funksional jihatdan tahlil qilish, uning samaradorlik mezonlarini aniqlash, mavjud muammolarni kompleks baholash hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish lozim.

Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi samaradorligining ilmiy-amaliy asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, uning nazariy asosi, tashkiliy-huquqiy mexanizmlari hamda amaliyotdagi dolzarb muammolar o‘rganilishi va tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan tahliliy tadqiqotlar olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya va adabiyotlar. Mazkur ilmiy maqolani yaratish jarayonida tizimli, qiyosiy-tahliliy, mantiqiy umumlashtirish hamda empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Harbiy kadrlar boshqaruvi tizimining samaradorligini baholashda milliy normativ-huquqiy hujjatlar, harbiy ta’lim va kadrlar siyosatiga oid ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda rivojlangan davlatlar harbiy tuzilmalari tajribasi tahlil qilindi. Shuningdek, harbiy kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash va xizmatda ushlab qolish jarayonlariga oid ilmiy maqolalar, elektron manbalar va amaliy tajribalar o‘rganildi.

Muhokama. Yangi O‘zbekiston armiyasida bugungi kunda bo‘lajak ofitserlarda ma’naviy-madaniy, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, bo‘lajak ofitserlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim egallashi, ma’nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg‘ularini yanada yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan [3]. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishida O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda mazkur universitet tarkibidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari, xususan, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti, Harbiy aviatsiya instituti, Harbiy tibbiyot instituti, shuningdek, Qurolli Kuchlar tarkibidagi Oliy ta’lim

muassasalari, Samarqand Serjantlar tayyorlash oliy maktabi, “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi va boshqa ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ijobiy natijalarni namoyon etmoqda.

Albatta, hozirda ushbu jarayonlarga oid ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlarda “harbiy kadr”, “ofitserlarni tayyorlash”, tushunchalariga oid turlicha sharhlar berib kelinmoqda. Mutaxassis B. Karimovning fikricha, buning asosiy sabablaridan biri bu Qurolli Kuchlar tarkibiga yetuk, professional ofitserlarni yetkazib berishga bo‘lgan ehtiyojni o‘sib borishi bo‘lsa, ikkinchidan, rahbariyat tomonidan ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga bo‘lgan sa’y-harakatlarni amalga oshirishga bo‘lgan tashabbuslarning ortib borishidir [4].

Mazkur yo‘nalishni tahlil qilishni davom ettiradigan bo‘lsak, tadqiqotchi Sh.Zoxidov ofitserlarning kasbiy sifatlari va professiogrammasini ishlab chiqish muammosi hozirgacha ilmiy tadqiq etilmaganligi lekin bir qator tematik mavzuviy ishlar bajarilganligini e’tirof etgan va shuning uchun OHTM (Oliy harbiy ta’lim muassasalari) kadrlarni tayyorlashga doir turli davlatlarning tajribasini o‘rganish va ahamiyatliligini belgilash, milliy mudofaani ta’minlash uchun xizmat qilishini ta’kidlagan [5].

S.Isakov va Sh.To‘rayev kabi olimlar tomonidan esa zamonaviy talablarga javob berish uchun harbiy xizmatchilar o‘zlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishlari va global xavfsizlik muhiti o‘zgarishlariga moslashishlari kerakligi, bu talablar harbiy xizmatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhimligi xususida so‘z yuritilgan [6].

Olim Z.Alimardonov esa “Harbiy kadr o‘z kasbini bilish chegaralarini insoniyatning umumiy madaniyati boyligi talablari asosida kengaytirishga, ijodiy vazifasini yechishga, tanlagan mutaxassisligining ko‘nikma va mahoratini chuqur egallashga intiladi. Harbiy kadrlar professionalizmi, xizmatning sermahsulligi bo‘lib qolmay, balki harbiy kadrlarni xizmatga bo‘lgan shaxsiy munosabati, ruhiy holatining mavjudligi hamdir” degan, fikrni bildirgan [7].

Shuningdek, rus mutaxassisi Kudryavsev Y. tomonidan “Professional harbiy kadr kasbiga doir bazaviy komponentlarni mukammal o‘zlashtirib, uni qo‘llay bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lib, harbiy xizmat faoliyatida o‘zining o‘rnini topib, harbiy jamoada obro‘li mutaxassis ekanligini namoyish etishi lozimdir”., deya, o‘z fikrini ifoda etgan [8].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, zamonaviy harbiy ta’lim tizimida ofitser kadrni tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki uning ma’naviy-axloqiy yetukligi, professional kompetentligini doimiy rivojlantirishga tayyorligi, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtira olish qobiliyati hamda xizmatga ongli va mas’uliyatli munosabatini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda harbiy kadrlar tayyorlash tizimi kompleks, ko‘p omilli va uzluksiz takomillashtirib boriladigan jarayon sifatida qaralishi lozim bo‘lib, u milliy mudofaa manfaatlari, xalqaro tajriba va zamonaviy xavfsizlik muhiti talablariga mos ravishda rivojlantirilishi zarur.

Shu bilan birga, hozirda milliy armiyamiz muhitiga global o‘zgarishlar o‘zining ham ijobiy ham salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ijobiy ta’sirlarni misol qilgan holda, harbiy sohadagi ilg‘or tajribalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmaning takomillashuvini keltirsak, salbiy ta’sirga Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardagi zamonaviy “ish-hayot muvozanati (work-life balance)” kabi tendensiyalarni misol qilishimiz mumkin. Xususan, Norvegiya Qirolligi armiyasida ham xuddi shunday holatlar ko‘p kuzatilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin [9]

Bilamizki, harbiy xizmat zarurati taqozo etsa, harbiy xizmatchilar kunlik ish soatidan ko‘proq ishlashini keltirib chiqarishi mumkin. Hozirda yosh kadrlar tomonidan esa harbiy xizmat sababli shaxsiy hayotiga kamroq vaqt qolishini his etib, yoki boshqa cheklovlarga bo‘lgan toqatsizligi sababli xizmatni erta tark etish holatlari ko‘plab kuzatilmoqda. Natijada, yosh harbiy kadrni tayyorlashga ketgan vaqt va mablag‘ o‘zini oqlayapti, deb ayta olmaymiz. Bu kadrlarni tayyorlash va boshqarish sohasidagi jiddiy muammolardan biri deb bilamiz.

Shuningdek, hozirda harbiy kadrlarni boshqarishda va lavozimlarga tayinlashda meritokratik tamoyillarga asoslangan holda emas, balki shaxsiy ishonch hisobiga amalga oshirilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Meritokratiya [10] tamoyilining afzalligi shunda iboratki, lavozim uchun eng munosib va qobiliyatli shaxslar uchun imkoniyat ortadi va ularning kasbiy fazilatlari hamda alohida xizmatlariga adolatli hamda obyektiv baho berish asosida lavozimlarga tayinlanadi. Bu esa o‘z navbatida, harbiy xizmat samaradorligiga ulkan hissa qo‘shadi. Mazkur islohot bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni imzolangan. Biroq, bu masalada ijrochilik boshlang‘ich darajada ekanligini qayd etishimiz mumkin [11] Shu munosabat bilan yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishda xorijiy ilg‘or tajribalarning milliy amaliyotimizda qo‘llanilishi mavjud tashkiliy bo‘shliqni to‘ldirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Natija. Niderlandiya Qirolligi politsiya tizimida kadrlar boshqaruvi bo‘sh ish o‘rinlarini avvalo ichki elektron platformada e’lon qilish va nomzodlarning o‘z tashabbusi bilan ariza topshirish mexanizmiga asoslanadi. Ichki tanlov natija bermagan taqdirdagina, bo‘sh ish o‘rinlari tashqi mehnat bozoriga chiqariladi [12]. Hozirda O‘zbekistondagi amaldagi holat shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘sh ish o‘rinlarini tashqi mehnat bozoriga chiqarish amaliyoti mavjud. Faqatgina, Qurolli Kuchlar tarkibiy tuzilmalarida endi xizmatni boshlamoqchi bo‘lgan nomzodlar uchungina amal qiladi. Haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan va lavozim o‘sishiga intilayotganlar uchun esa rahbarlik darajasidagi lavozimlarga tayinlash uchun ichki elektron platformada e’lon qilish imkoniyati yaratilmagan. Fikrimizcha, ushbu Niderlandiya politsiyasi tajribasining milliy armiyamiz tizimida qo‘llanilishi tayinlanadigan harbiy kadrning yanada sifatliligini ta’minlab beradi va harbiy kadrlar boshqaruvi siyosatini yanada yuqori darajaga ko‘taradi.

Shuningdek, Norvegiya Qirolligi armiyasi tizimida *kadrlarni ushlab qolish* masalasi rahbariyatning diqqat markazida turadi va bu harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Norvegiya armiyasida harbiy xizmatchilar xizmatni tark etish niyati asosiy kadrlar boshqaruvi muammolaridan biri sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotda karyera istiqbollari, ish-hayot muvozanati xizmatni tark etish ehtimolini kamaytirishga yordam beruvchi omillar sifatida aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, Norvegiya harbiy kadrlar boshqaruvi tizimi shaxslarning xizmatda qolish istagini o‘lchash va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Ular xizmat sharoitini yaxshilash yo‘llarini izlab, xizmatni tark etish maqsadini kamaytirishga urinadi. O‘zbekiston armiyasida esa xizmatni tark etish maqsadidagi harbiy xizmatchilar bilan faqatgina tarbiyaviy ishlar bo‘yicha mas’ullar tomonidan og‘zaki muloqot o‘tkazilib, qarorni yana bir bor o‘ylab ko‘rish bo‘yicha maslahat berilib, olib qolishga intilishmoqda. Bu esa mazkur sohadagi harakatlarning institutsionallashmaganidan dalolat bermoqda va bu muammoni yechish subyektiv tus olmoqda. Norvegiya tajribasi kabi,

kadrlarni ushlab qolish masalasini mas'ullarning subyektiv harakati bilangina emas balki, anketa-so'rov orqali muammolarni ilmiy-tahliliy o'rganish va ularga malakali yechim topish orqali tizimlashtirish taklif etiladi. Bu esa o'z navbatida, harbiy kadrlarni tayyorlash uchun ketgan vaqt kutiladigan natijaga erishilishiga va harbiy kadrlar tizimida bo'sh ish o'rinlarining me'yoridan ko'payib ketmasligiga zamin yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoni faqat bilim va kasbiy ko'nikma berish bilan cheklanmaydi. Bo'lajak ofitser har tomonlama yetuk, ma'naviy barqaror, mas'uliyatli va zamonaviy talablarga moslashuvchan bo'lishi zarur. Shuning uchun harbiy kadrlar boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, kadrlarni lavozimga tayinlash va xizmatda ushlab qolish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ochiq va adolatli tanlov tizimi, shaffof baholash hamda harbiy xizmatchilarning muammolarini ilmiy asosda o'rganish xizmat samaradorligini oshiradi. Milliy armiyamizda ham ana shunday tizimli yondashuv joriy etilsa, kadrlar barqarorligi ta'minlanadi va tayyorlangan mutaxassislarning salohiyati to'liq namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Harbiylikka havas maqsadga aylanishi zarur / Maqola / A.Rahimov, T.Turg'unboyev / Elektron resurs – Rejim kirish: https://uzhurriyat.uz/2026/01/21/harbiylikka-havas-maqsadga-aylanishi-zarur/;
2. Elektron resurs – Rejim kirish: https://zamon.uz/uz-cyrl/2026/01/13/harbiy-talim-va-kadrlar-tayyorlash-tizimini-modernizatsiya-qilish-armiyaning-yangi-qiyofasini-shakllantirishning-asosiy-shartidir---shavkat-mirziyoyev-41574;
3. Harbiy kadrlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg'unligi / Maqola / D. Metinov, S.Kattaxujayev – PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI9 –TOM 1–SON/2026-YIL, 52-bet.;
4. Harbiy kadrlarni tayyorlashda ilmiy-nazariy yondashuvlar / Maqola / B. Karimov – International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 5 (51) | ISSN: 2181-4163, 103-104 betlar;
5. Harbiy kadrlar tayyorlash masalasida o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari / Maqola / Sh.Zoxidov. Rejim kirish: https://cyberleninka.ru/article/n/harbiy-kadrlar-tayyorlash-masalasida-o-zaro-hamkorlik-aloqalarini-rivojlantirishning-pedagogik-jihatlari/;
6. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik: Zamonaviy talablar, tendensiyalar, innovatsion yondashuvlar va samaradorliki oshirish / Maqola / S.Isakov. Sh. To'rayev / "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027, Volume-68, Issue-1, October -2024;
7. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompenentligini shakllantirishni takomillashtirish / Maqola / Z.Alimardonov / O'R Milliy gvardiyasi HT insitutining Axborotnomasi, 2018. № 2 – b. 38–41;
8. Кудрявцев Ю. Подготовка командных кадров к воспитательной деятельности в вузах США, ФРГ и Великобритании –http://pentagonus.ru/publ/9-1-0-218,;
9. Examining the roots of turnover intentions in the Royal Norwegian Navy, the role of embeddedness, work–life conflict and predictability / Maqola – Elektron Resurs – Rejim kirish: https://reference-global.com/download/article/10.2478/jms-2023-0002.pdf;
10. Elektron resurs: Rejim kirish: https://uz.wikipedia.org/wiki/Meritokratiya;
11. Elektron resurs: Rejim kirish: https://lex.uz/docs/4549998
12. Elektron resurs – Rejim kirish: https://zoek.officielebekendmakingen.nl /stcrt-2023-32.html.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CONTENT OF DEVELOPING PERSONAL AND PROFESSIONAL CONGRUENCY OF FUTURE TEACHERS IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON A PROJECT APPROACH

Kobilova Nilufar Khudoyshukurovna
Associate Professor, QDTU

Khujamova Dilobar Berdiyorovna
Assistant, QDTU

Abstract. The article scientifically analyzes the concept of professional congruence in the professional formation of a teacher in the conditions of modern higher pedagogical education. It considers the harmony between the internal needs and values of the pedagogical personality and external professional requirements as an important factor. The results of the study serve to improve the personal and professional development of future teachers.

Keywords: professional congruence, pre-service teacher, pedagogical activity, project-based approach, personal–professional harmony, reflection, professional self-development, functional system, pedagogical competence.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna
QDTU dotsenti
E-mail: nilufar.kobilova90@mail.ru

Xujamova Dilobar Berdiyorovna
QDTU assistenti
E-mail: dilobarxujamova55@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oliy pedagogik ta’lim sharoitida o‘qituvchining kasbiy shakllanishida professional kongruentlik tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda pedagog shaxsining ichki ehtiyoj va qadriyatlari bilan tashqi kasbiy talablar o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: professional kongruentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, loyihaviy yondashuv, shaxsiy-kasbiy uyg‘unlik, refleksiya, professional o‘zini rivojlantirish, funksional tizim, pedagogik kompetensiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N52

Kirish. Globallashuv, raqamlashtirish va ta’lim tizimining jadal modernizatsiyalashuvi sharoitida oliy ta’lim muassasalari oldida bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassis sifatida, balki shaxsiy, axloqiy va emotsional jihatdan yetuk, o‘z kasbiy faoliyatini ongli ravishda loyihalay oladigan pedagog shaxs sifatida tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik faoliyatning murakkablashuvi, ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan ko‘p qirrali vazifalar va ijtimoiy mas’uliyatning ortib

borishi o‘qituvchidan ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida barqaror uyg‘unlikni ta’minlashni talab etadi. Mazkur uyg‘unlik pedagogika fanida “pedagogik kongruentlik” tushunchasi orqali ifodalanadi. Pedagogik kongruentlik o‘qituvchining ichki kasbiy e’tiqodlari, axloqiy-etik pozitsiyasi, emotsional-intellektual holati va tashqi pedagogik faoliyatining mazmunan va funksional jihatdan bir-biriga mos kelishini anglatadi. Kongruent pedagog o‘quvchilar bilan muloqotda samimiylik, izchillik va barqaror pedagogik pozitsiyani namoyon etadi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaldagi oliy pedagogik ta’lim amaliyotida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni maqsadli va tizimli rivojlantirish masalasiga yetarli e’tibor qaratilmayotgani kuzatiladi. O‘quv jarayonida ko‘proq bilim va texnologik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga urg‘u berilishi, pedagog shaxsining emotsional, axloqiy va refleksiv rivojlanishi ko‘pincha ikkilamchi ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Natijada bo‘lajak pedagoglarning nazariy tayyorgarligi bilan real pedagogik faoliyati, ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik xulq-atvori o‘rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etishda loyihaviy yondashuv ta’lim jarayonining samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy yondashuv talabalarning faol, mustaqil va mas’uliyatli ishtirokini ta’minlab, ularni real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni mustaqil hal etish, refleksiv fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida mazmunan uyg‘unlik shakllanib, pedagogik kongruentlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili loyihaviy yondashuvning bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyatini keng yoritgan bo‘lsa-da, uning aynan pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mazmuni, mexanizmlari va metodik ta’minoti yetarli darajada ochib berilmagan. Shuningdek, oliy ta’lim sharoitida loyihaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning yaxlit metodik modeli va pedagogik shart-sharoitlari bo‘yicha kompleks tadqiqotlar kam uchraydi.

Mazkur holatlar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihaviy yondashuv asosida pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish mazmunini ilmiy jihatdan asoslash, uning pedagogik mexanizmlari va samarali shakl hamda usullarini aniqlash zaruratini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kongruentlik masalasi quyidagi savol bilan ifodalanadi: o‘qituvchi bu normativ hujjatlar, standartlar va pedagogik texnologiyalarda belgilangan me’yorlarni bajaruvchi shaxsmi yoki o‘zining professional biografiyasini yaratgan, professional pedagogik mehnat maydonida o‘zini namoyon qiluvchi muallifmi? Pedagogik mehnat sohasida professional sifatida shakllanish uzoq, ziddiyatli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda o‘sish, stagnatsiya va inqirozlar mumkin. Professional o‘zini rivojlantirish manbalarini ichki va tashqi professional-ta’lim muhitlarida qidiradi, shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining uzviy, uyg‘un va samarali shakllanishini ta’minlovchi yangi yondashuvlarni izlash muhim hisoblanadi, shuningdek, mavjud yondashuvlar kasbga kirish jarayonini o‘rganishda qisman xususiyatga ega. Pedagogik mehnatda inson bir vaqtda shaxs, individ, individual va subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. XX asrning 90-yillaridan boshlab, faoliyatni rivojlantirish yondashuvi bilan birga, professional

tayyorgarlikda xulq-atvor yondashuvi ham dolzarb bo‘lib kelmoqda. Tadqiqot amaliyotida bir nechta pozitsiyalar shakllangan bo‘lib, ular pedagogik faoliyat va o‘qituvchining xulq-atvorini bir-biri bilan bog‘lash, pedagogik faoliyat va xulq-atvorni ichki va tashqi namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rish, shuningdek, o‘qituvchining kongruentlik va pedagogik faoliyatini mustaqil pedagogik kategoriya sifatida tavsiflash bilan bog‘liq.

Ilmiy aylanmalarda “o‘qituvchining professional kongruentligi” konsepti faol joriy etilmoqda. Bu murakkab, ko‘p qirrali, funksional pedagogik hodisa bo‘lib, o‘qituvchining professionalizmi darajasini aks ettiradi. Kongruentlik shaxsning tashqi muhit bilan munosabatlari jarayonida ichki ehtiyojlar va tashqi imkoniyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi funksional tizimdir.

Tadqiqotchilar funksional tizimlarning tashkil topishini bir nechta darajalarda ko‘rib chiqadilar, jumladan: metabolik, gomeostatik, xulq-atvoriy, psixik va ijtimoiy darajalar. Ushbu darajalarning har birida shakllanuvchi funksional tizim muayyan vazifalarni bajarib, insonning atrof-muhit sharoitlariga moslashuvini ta’minlaydi. Funksional tizimlarning samarali faoliyati ularning muhim xususiyatlari bilan belgilanadi. Mazkur xususiyatlar qatoriga o‘zini tartibga solish, izomorfizm, moslashuvchanlik, kongruentlik, ochiqlik, uyg‘unlik va dinamiklik kiradi. Ayniqsa, kongruentlik funksional tizimning barqarorligi va yaxlitligini ta’minlovchi yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u tizim tarkibiy qismlarining o‘zaro mosligi va uyg‘unligini ifodalaydi. Funksional tizimlarning asosiy xususiyatlari mazmunan quyidagicha tavsiflanadi (1- rasm):



1-rasm. Funksional tizimlarning asosiy xususiyatlari

Ushbu xususiyatlar o‘qituvchining professional rivojlanishida ham amal qiladi. Kongruentlik insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirida bo‘lish shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Kongruentlik insonning psixikasi, tajribasi va madaniyatga mansubligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlash obyekti hisoblanadi, shuningdek bu tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Kongruentlik tuzilmasi

Barcha psixik regulyatsiya darajalari (emotsional, normativ, qiymat va ma'noviy) inson kongruentligini tartibga solishda bir vaqtning o'zida ishtirok etadi. Faoliyat subyektning ichki dunyosi bilan belgilanadigan holat bo'lib, xulq-atvor jarayonlarida namoyon bo'ladi. Ichki faoliyat motivatsion, maqsadli va instrumentatsion asoslarni o'z ichiga oladi, ular faoliyat, harakat va operatsiyalarda namoyon bo'ladi.

Ingliz tadqiqotchisi Darling-Hammond [2.] ta'lim sifati o'qituvchining kongruentligi, intellektual tayyorgarligi, metodik tafakkuri va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash qobiliyati bilan bevosita bog'liqligini qayd etadi. Hattie [3] esa o'quv jarayonida o'qituvchining reflektiv fikrlashi, tahliliy yondashuvi va talaba ehtiyojlarini hisobga olishi ta'lim natijalari samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Buyuk pedagog olim Karl Rodjersning pedagogik g'oyalari qirq yildan ortiq vaqt mobaynida zamonaviy ta'limning metodlari va amaliyotiga ulkan ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Rodjers ta'lim sohasida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ikki asosiy o'qitish turini ajratib ko'rsatgan va o'zining mustaqil konsepsiyasini yaratgan yagona olim hisoblanadi, jumladan an'anaviy ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir[1].

U an'anaviy pedagogikaning qator qoidalariga qarshi chiqqan, xususan, bunday yondashuvda talaba o'qituvchiga tegishli bo'lgan intellektual bilimlarni passiv tarzda qabul qiladi. An'anaviy ta'limda quyidagi holatlar ustuvor hisoblanadi: o'qituvchi bilim sohibi, talabalar esa uni o'zlashtirishi shart; asosiy elementlar — dars va imtihonlar; o'qituvchi rahbar, talaba esa itoat etuvchi sifatida namoyon bo'ladi; talaba ta'lim maqsadlari, mazmuni va metodlarini belgilashda ishtirok etmaydi, o'qituvchini tanlash huquqiga ega emas; o'qituvchining talabaga bo'lgan ishonchi minimal darajada bo'ladi. Bunga muqobil ravishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogika talabaning xulq-atvori, psixologiyasi va shaxsiyatini o'zgartiradigan qator farqli belgilarni ilgari suradi[8,9]. Ularga shaxsiy jalb etilganlik, o'z-o'zidan yuzaga keluvchi faollik va o'quv jarayonining shaxsga chuqur ta'sir etish qobiliyati kiradi.

Rodjers ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'qitishdan o'rganishga ko'chirish, bilim berishni oddiy axborot uzatish jarayonidan chiqarib, ma'noli o'qishni fasilitatsiya qilishga qaratilgan sharoitlarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi. K. Rodjers fasilitatsiyani talaba uchun

o‘qish jarayonini yengillashtirish va rag‘batlantirish sifatida talqin qiladi. Bu auditoriyada intellektual va emotsional muhitni, shuningdek, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash atmosferasini yaratishni anglatadi[1].

Karl Rodjersga ko‘ra shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning to‘qqizta asosiy qoidasi:

1. Fasilitator o‘ziga va talabalarga nisbatan yetarli darajada hurmat bilan munosabatda bo‘ladi hamda ularning mustaqil fikrlashi va o‘z ehtiyojlariga mos holda o‘qishini ta’minlaydi.
2. U ta’lim jarayonida o‘z shaxsiy tajribasiga tayanadi va uni talabalar bilan ochiq muloqot asosida baham ko‘radi.
3. Ta’lim va tarbiya uchun mas’uliyat o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida hamkorlik asosida bo‘lishiladi.
4. Talaba o‘z o‘quv dasturini mustaqil ravishda yoki boshqalar bilan hamkorlikda shakllantiradi va rivojlantiradi.
5. Talaba o‘zining bilimlilik va tarbiyalanganlik darajasini mustaqil baholaydi hamda o‘z rivojlanishini tahlil qiladi.
6. Talaba guruh a’zolari va o‘qituvchidan axborot to‘plash orqali bilim doirasini kengaytiradi.
7. O‘qishni yengillashtiruvchi ijobiy psixologik muhit ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
8. Barcha faoliyat turlari ta’lim-tarbiya jarayonini uzluksiz qo‘llab-quvvatlash va shaxs rivojini ta’minlashga yo‘naltiriladi.
9. Tashqi intizom o‘rnini shaxsning ichki nazorati va o‘z-o‘zini intizomga solish egallaydi.

Karl Rodjersning g‘oyalari nazariy va amaliy jihatdan keng qo‘llanilgan. Nazariy jihatdan uning g‘oyalari Charlz Karran tomonidan ishlab chiqilgan “Maslahatchi–talaba” (Counselor–Learner) metodida rivojlantirilgan bo‘lib, unda talabalar o‘qituvchining maslahatlari va psixologik qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj bo‘lgan guruh sifatida talqin etiladi. Ushbu metodda o‘qituvchining asosiy maqsadi guruhda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, tashvish darajasini pasaytirish, o‘z-o‘ziga ishonch, empatiya va erkinlikni oshirishdan iborat bo‘lgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv amaliyotda Poluostrov maktabi hamda Tasviriy va vizual san’at maktabi faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan[4,1]

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim faqat ayrim fanlar yoki maxsus holatlar uchungina mos, degan noto‘g‘ri tasavvur mavjud. Biroq bu qarashni matematika, informatika, ekologiya, geologiya, adabiyot va chet tillarini o‘qitishda faoliyat olib borgan B. Romey, E. Uayt, L. Kann, J. Bakxem, J.Allender, R. Mauchnik-Pitrik kabi o‘qituvchi-fasilitatorlar amaliy jihatdan rad etganlar[13,14,6].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi psixologik nuqtai nazardan I.S.Yakimanskaya tomonidan ishlab chiqilgan. Qator rus maktablarida K. Rodjers g‘oyalari T.V. Dmitriyeva, N.M. Basalayeva, M.A. Zaraylar tomonidan ta’lim amaliyotiga joriy etilgan[9,10].

Karl Rodjersning ahamiyatli ta’lim, o‘qituvchining roli hamda talabalar bilan munosabatlarga oid g‘oyalari xorijiy ta’lim tizimlarida ta’limni gumanizatsiya qilishning muhim nazariy asosini tashkil etadi. Bunday ta’lim natijasida talabalarning o‘z-o‘ziga baho berish darajasi oshadi, intellekt koeffitsiyenti o‘sadi, bilish qobiliyatlari rivojlanadi[1,4]. Bu esa o‘z navbatida o‘quv muvaffaqiyatining ortishi, davomat va sog‘liq holatining yaxshilanishiga olib

keladi. O‘qituvchilar faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining professional qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning talabalarga bo‘lgan yondashuvi shunchalik ijodiy, differensial va individuallashtirilgan bo‘ladi.

An’anaviy ta’lim tarafdorlari gumanistik ta’limga har doim ham ijobiy munosabat bildirmaydilar. Bu, avvalo, talabalar ustidan qat’iy nazorat va hokimiyatdan voz kechish, erkinlik va shaxsiy mas’uliyat berish bilan bog‘liq. Biroq AQSh maktablari tajribasi an’anaviy ta’lim ustun bo‘lgan sharoitda ham shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Maktablar va jamiyatni demokratlashtirish hamda gumanizatsiya qilish jarayonida Karl Rodjersning gumanistik g‘oyalari ta’lim salohiyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har qanday ta’lim tizimi tajribasini o‘zlashtirishda milliy xususiyatlarni inobatga olish zarur. Xorijiy pedagogik g‘oyalarni ijodiy tarzda qo‘llash va ularni yangi sotsiokultural sharoitlarga moslashtirish muhim hisoblanadi. [5].

O‘qituvchining professional xulq-atvorini funksional tizim sifatida modifikatsiya qilish jarayoni uning professional rivojlanishining barcha bosqichlarida amalga oshadi. O‘qituvchilik kasbini tanlash dastlab instinktiv va imprenting xulq-atvor asosida yuzaga keladi. Kasb tanlovchi shaxsda altruizm instinkti, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishga intilish hamda ta’lim muhitining ta’siri ostida bo‘lajak o‘qituvchining ideal obrazi shakllanadi.

Professional tayyorgarlik bosqichida ushbu obraz o‘qituvchi bo‘lish ehtiyojining ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi va professional darajadagi funksional tizim shakllana boshlaydi. Ijobiy ideal o‘qituvchi obrazi mavjud bo‘lgan taqdirda, talaba pedagogik kasbiy madaniyat va fan bo‘yicha tayyorgarlikni egallash orqali funksional savodxonlikka erishadi. Natijada u o‘z tayyorgarligi va egallagan malakasiga muvofiq ravishda o‘qituvchi rolini bajarish huquqiga ega bo‘ladi[13,15].

Bu bosqichda imprenting xulq-atvori o‘rnini standartlashgan, kasbiy va funksional xulq-atvor egallaydi. Ushbu xulq-atvor o‘qituvchining professional kompetentligida namoyon bo‘ladi. Professional moslashuv bosqichida o‘qituvchi pedagogik funksiyalarini takomillashtiradi va maxsus (malakaviy) yetuklik darajasiga erishadi. Bunda rolli xulq-atvor shakllanib, u malaka toifasi orqali ifodalanadi hamda o‘qituvchining o‘z faoliyatida kasbiy me’yorlarga amal qilishga tayyorligini aks ettiradi.

Professional rivojlanish bosqichida shaxsiy yetuklik professional kompetentlikning ifodasi sifatida shakllanadi. O‘qituvchida professional xulq-atvor vujudga kelib, unda kasb ijtimoiy qadriyat sifatida anglanadi. Professional xulq-atvor rivojining eng yuqori bosqichi ixtiyoriy (irodaviy) xulq-atvor bo‘lib, bunda o‘qituvchi professional faoliyat subyekti sifatida namoyon bo‘ladi[9]. U professional qadriyatlarga va mavjud pedagogik voqelikka tayangan holda o‘z pedagogik faoliyat ssenariylarining muallifi va ijrochisi sifatida o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqaruvchi, o‘z-o‘ziga samarali, o‘ziga yetarli va o‘zini o‘zi aktualizatsiya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Natijalar va muhokama: Loyihaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari pedagogik jarayon samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqot davomida pedagogik kongruentlikning shaxsiy, emotsional-intellektual, kommunikativ va refleksiv komponentlari diagnostik mezonlar asosida tahlil qilindi hamda tajriba avvali va yakunidagi ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi. Loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarida jami 90

nafar bo‘lajak o‘qituvchi ishtirok etdi. Pedagogik kongruentlik darajasi fragmentar uyg‘unlik, qisman uyg‘unlik va to‘liq pedagogik uyg‘unlik ko‘rsatkichlari asosida baholandi.

Fragmentar uyg‘unlik bo‘lajak pedagog shaxsida pedagogik kongruentlikning alohida komponentlari mavjud bo‘lsa-da, ular o‘zaro tizimli va barqaror bog‘lanmagan holatni ifodalaydi. Ushbu darajada ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional holat va tashqi pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uyg‘unlik epizodik xarakterga ega bo‘lib, pedagogik xulq-atvorda izchillik yetarli darajada namoyon bo‘lmaydi. Bo‘lajak pedagog pedagogik vaziyatlarga ko‘proq intuitiv va vaziyatga moslashuvchan tarzda munosabat bildiradi, refleksiv faoliyat esa beqaror bo‘ladi.

Qisman uyg‘unlik bo‘lajak pedagogda pedagogik kongruentlikning asosiy komponentlari shakllanayotganini anglatadi. Ushbu bosqichda ichki kasbiy qadriyatlar bilan tashqi pedagogik faoliyat o‘rtasida nisbatan barqaror bog‘liqlik vujudga keladi, biroq bu uyg‘unlik barcha pedagogik vaziyatlarda bir xil darajada namoyon bo‘lavermaydi. Emotsional-intellektual barqarorlik va refleksiv fikrlash rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda pedagogik pozitsiyaning izchilligi buzilishi mumkin. Bu daraja pedagogik kongruentlikning faol shakllanish bosqichi sifatida tavsiflanadi.

To‘liq pedagogik uyg‘unlik bo‘lajak pedagog shaxsida ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional-intellektual holat va tashqi pedagogik faoliyatning mazmunan va funksional jihatdan to‘liq integratsiyalashgan holatini ifodalaydi. Ushbu darajada pedagogik pozitsiya barqaror, izchil va ongli bo‘lib, o‘qituvchi har qanday pedagogik vaziyatda o‘z kasbiy e’tiqodlari va axloqiy prinsiplari asosida faoliyat yuritadi. Refleksiv fikrlash, emotsional barqarorlik va kommunikativ kompetensiyalar yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, pedagogik kongruentlik kasbiy faoliyatning ajralmas sifatiga aylanadi.

Boshlang‘ich diagnostika natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning aksariyat qismida pedagogik kongruentlik yetarli darajada integratsiyalashmagan holatda ekanligi aniqlandi:

- **Fragmentar uyg‘unlik** – 36 nafar (40,0 %)
- **Qisman uyg‘unlik** – 38 nafar (42,2 %)
- **To‘liq pedagogik uyg‘unlik** – 16 nafar (17,8 %)

Mazkur natijalar bo‘lajak pedagoglarda ichki kasbiy qadriyatlar, emotsional-intellektual holat, normativ me’yorlar va tashqi pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning ko‘proq epizodik va beqaror xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Loyihaviy yondashuv asosida olib borilgan pedagogik faoliyat yakunida kongruentlik darajalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi(1-jadval)

1-jadval.

Pedagogik kongruentlik darajalari bo‘yicha taqsimot (N = 90)

Kongruentlik darajasi	Tajriba avvali (nafar)	Tajriba avvali (%)	Tajriba yakuni (nafar)	Tajriba yakuni (%)	Δ (o‘zgarish)
Fragmentar uyg‘unlik	36	40,0	7	7,8	–29
Qisman uyg‘unlik	38	42,2	23	25,6	–15
To‘liq pedagogik uyg‘unlik	16	17,8	60	66,6	+44
Jami	90	100	90	100	—

Olingan statistik natijalar loyihaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni tartibga soluvchi emotsional, normativ, qadriyat va ma’noviy regulyatsiya darajalarini bir vaqtning o‘zida faollashtirishga qodir integrativ pedagogik mexanizm ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba davomida kongruentlikning fragmentar holatdan to‘liq pedagogik uyg‘unlik bosqichiga barqaror siljishi ta’lim sifati, reflektiv fikrlash va shaxsga yo‘naltirilgan fasilitatsion muhit samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu natijalar pedagogik kongruentlikning asosiy qismi to‘liq integratsiyalashgan bosqichga ko‘tarilganini yaqqol bildiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Роджерс К.Становление человека: взгляд на психотерапию. – М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. – 241 с.
2. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons fromExemplaryPrograms. /Jossey-Bass/143-148.
3. Hattie, J. (2008). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses RelatingtoAchievement. Routledge.
4. R o g e r s, C.R. 1993. On Becoming a Person. A Therapist’s View of Psychotherapy. London: Constable and Company Ltd.].
5. Сиразеева А.Ф. ЧЕЛОВЕКОЦЕНТРИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ КАРЛА РОДЖЕРСА//Фундаментальные исследования. 2007. № 6. С. 54-55; URL: https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=3160 (дата обращения: 27.12.2025).
6. Филимонюк Л.А. Формирование проектной культурй педагога в протсессе профессионалной подготовки: автореф. дис. … д-ра пед. наук. – Ставропол, 2008. – 425 с.
7. Полат Э.С. Метод проектов на уроках иностранного язйка. – М.: Академия, 2000. – 272 с.
8. Пакҳомова Н.Ю. Метод проектов в образовательном протсессе. – М.: АРКТИ, 2015. – 204 с.
9. Безрукова В.С. Педагогика: учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. – 381 с.
10. Троянская С.Л.Педагогическая коммуникация: методология, теория и практика. – Изҳевск: УдГУ, 2011. – 148 с.
11. Кузмина Ю.В.Интуитивное чувство числа: проблемй измерения и контрол визуалнйх свойств // Теоретическая и экспериментальная психология. – 2018. – №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/intuitivnoe-chuvstvo-chisla-problemy-izmereniya-i-kontrol-vizualnyh-svoystv..
12. Карякин Ю.В.Конгруентност как характеристика учебного протсесса // Современне наукоемкие технологии. – 2007. – №3. – С. 36–37.
13. Сластенин В.А.Педагогика: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2017. – 512 с.
14. Ушинский К.Д.Избранне педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1988. – 416 с.
15. Коменский Я.А.Великая дидактика. – М.: Педагогика, 1982. – 336 с.
16. Goleman D.Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p.
17. Deci E., Ryan R.Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DESIGNING AN ADAPTIVE DIGITAL EDUCATION SYSTEM BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Khaitbayeva Durdona Zokirjon qizi
Senior Lecturer, Department of Software Engineering
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations for designing an adaptive digital learning system based on artificial intelligence technologies. In the context of digital transformation in education, the issues of individualizing the learning process, real-time monitoring of students' knowledge levels, and improving mechanisms for managing educational activities are analyzed. Within the framework of the study, a conceptual model of adaptive learning based on artificial intelligence algorithms (machine learning, data analysis, and predictive methods) has been developed. The proposed model enables dynamic adaptation of learning content by considering students' knowledge levels, learning pace, error dynamics, and individual characteristics. The results of the experimental study demonstrate that the implementation of an AI-based adaptive system significantly improves learning outcomes, enhances students' independent learning skills, and increases overall educational effectiveness. The research findings contribute to the development of pedagogical mechanisms for designing and implementing intelligent digital learning environments.

Keywords: artificial intelligence, adaptive learning, digital learning environment, information and communication technologies, personalized learning, educational effectiveness, learning process management, digital transformation in education, machine learning, automated assessment system.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi
Dasturiy injiniring kafedrasi katta o'qituvchisi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
Email: xaitbayevadurdona@gmail.com
https://orcid.org/0000-0003-4287-960X

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida adaptiv raqamli ta'lim tizimini loyihalashning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda o'quv faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida sun'iy intellekt algoritmlari (machine learning, ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash usullari) asosida adaptiv o'quv modelining konseptual tuzilmasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model o'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati, xatolar dinamikasi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv kontentini moslashtirish imkonini beradi. Tajriba-sinov ishlari natijalari adaptiv tizimdan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi raqamli ta'lim muhitini loyihalash va joriy etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, individuallashtirilgan ta'lim, pedagogik samaradorlik, o'quv jarayonini boshqarish, ta'limni raqamlashtirish, machine learning, avtomatik baholash tizimi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N53

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beruvchi texnologik va metodik vositalar majmuasi sifatida shakllanmoqda. Biroq mavjud elektron ta’lim platformalarining aksariyati adaptiv mexanizmlarga ega emasligi sababli o‘quvchilarning individual xususiyatlarini to‘liq hisobga olish imkoniyati cheklangan.

Hozirgi bosqichda ta’limni individuallashtirish, o‘quv jarayonini real vaqt rejimida tahlil qilish hamda bilimlarni baholashning intellektual mexanizmlarini yaratish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan sun’iy intellekt texnologiyalarini raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va faoliyat natijalariga qarab o‘quv kontentini moslashtirish imkonini beradi. Biroq mazkur yo‘nalishda pedagogik-metodik asoslangan model va uni joriy etish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur maqolada sun’iy intellekt asosidagi adaptiv raqamli ta’lim tizimini loyihalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini belgilash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlarini yaratish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda ilmiy ishlar asosan uch yo‘nalishda olib borilgan: intelligent tutoring systems (intellektual o‘qitish tizimlari), learning analytics (o‘quv jarayonini analitik tahlil qilish) va adaptive learning (moslashuvchan o‘qitish).

Xorijiy tadqiqotchilardan **J. R. Anderson** va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv tutor tizimlari o‘quvchining bilim holatini modellashtirish asosida individual yordam ko‘rsatish mexanizmlarini taklif etgan. Ularning tadqiqotlarida sun’iy intellekt algoritmlari orqali xatolarni aniqlash va individual tavsiyalar berish samarali ekani asoslangan.[1],[11]

R. S. Baker va **G. Siemens** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda learning analytics konsepsiyasi rivojlantirilib, o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish orqali o‘quv natijalarini prognozlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Ular o‘quv faoliyati jarayonida yig‘iladigan katta hajmdagi ma’lumotlar asosida ta’lim jarayonini optimallashtirish mumkinligini ta’kidlaganlar.[3],[4]

B. Woolf o‘z tadqiqotlarida intellektual o‘qitish tizimlarining arxitekturaviy modelini ishlab chiqqan bo‘lib, unda o‘quvchi modeli, fan modeli va pedagogik model o‘zaro integratsiyada ishlashi zarurligi ko‘rsatib berilgan.[2]

So‘nggi yillarda **UNESCO** va **OECD** hisobotlarida sun’iy intellektning ta’limdagi roli strategik yo‘nalish sifatida baholanib, adaptiv tizimlar ta’limni individuallashtirishning samarali vositasi ekani qayd etilgan. [6], [7]

Mahalliy tadqiqotlarda esa raqamli ta’lim muhitini tashkil etish, elektron platformalarni joriy etish va masofaviy ta’limni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Ayrim olimlar tomonidan ta’limni raqamlashtirishning metodik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, sun’iy intellekt asosida adaptiv boshqaruv mexanizmlarini yaratish masalasi yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

1. Xorijiy tadqiqotlarda adaptiv tizimlarning algoritmik asoslari ishlab chiqilgan.

2. Learning analytics yo‘nalishida ma’lumotlarni tahlil qilish mexanizmlari keng o‘rganilgan.
3. Intellektual o‘qitish tizimlari arxitekturasi bo‘yicha konseptual modellar mavjud.
4. Biroq, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlarni milliy ta’lim muhitiga moslashtirish va ularning pedagogik-metodik asoslarini ishlab chiqish yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Shu sababli mazkur maqolada sun’iy intellekt asosidagi adaptiv raqamli ta’lim tizimini loyihalashning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va uni milliy ta’lim tizimi sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash maqsad qilib qo‘yildi.

Adaptiv ta’lim tizimining konseptual asosini o‘quvchi modeli, fan modeli hamda pedagogik modelning o‘zaro integratsiyasi tashkil etadi. O‘quvchi modeli ta’lim oluvchining bilim darajasi, kognitiv xususiyatlari, o‘zlashtirish sur’ati va xatolar dinamikasini aks ettiradi. Fan modeli o‘quv mazmunining mantiqiy tuzilmasi, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va murakkablik darajalarini ifodalaydi. Pedagogik model esa o‘qitish strategiyalari, metodlari va adaptiv boshqaruv mexanizmlarini belgilaydi. Mazkur uch komponentning uzviy integratsiyasi natijasida o‘quv jarayoni individual parametrlar asosida dinamik ravishda moslashtiriladi hamda ta’limni individuallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. [2], [8], [11]

Mazkur tadqiqot doirasida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv raqamli ta’lim tizimini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini aniqlash rejalashtirilmoqda. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi:

1. Adaptiv modelni konseptual ishlab chiqish
2. Sun’iy intellekt algoritmlarini integratsiyalash
3. Pilot platformani yaratish
4. Tajriba-sinov jarayonini tashkil etish
5. Statistik tahlil asosida samaradorlikni aniqlash

Tadqiqot oliy ta’lim muassasasida kuzgi semestr davomida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ishtirokchilar:

- Nazorat guruhi – an’anaviy raqamli platforma
- Tajriba guruhi – adaptiv sun’iy intellekt tizimi

Baholash mezonlari:

- o‘zlashtirish darajasi
- topshiriqlar bajarish tezligi
- xatolar dinamikasi
- mustaqil ishlash faolligi
- individual ta’lim trayektoriyasi shakllanishi

Tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlanishi kutilmoqda:

- adaptiv tizim o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi;
- bilimlarni o‘zlashtirish darajasi oshadi;
- xatolar soni kamayadi;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlash motivatsiyasi ortadi;
- o‘quv jarayonini boshqarish mexanizmi takomillashadi.

Agar o‘quv jarayoni sun’iy intellekt asosidagi adaptiv mexanizm orqali boshqarilsa, unda:

- o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi;

- o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari an’anaviy tizimga nisbatan yuqori bo‘ladi;
- ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Ilmiy yangilik (loyiha bosqichida)

- sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’limning axborot-metodik modeli ishlab chiqiladi;
- individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish mexanizmi taklif etiladi;
- pedagogik samaradorlikni baholash mezonlari tizimlashtiriladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt asosidagi adaptiv raqamli ta’lim tizimini loyihalashning nazariy-metodik asoslari tahlil qilindi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quv jarayonini individuallashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi hamda mavjud elektron ta’lim platformalarining adaptiv mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan adaptiv o‘qitish modelining konseptual tuzilmasi taklif etildi. Model o‘quvchi modeli, fan modeli va adaptiv boshqaruv mexanizmi integratsiyasiga asoslanadi hamda individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. [5], [6], [18]

Shuningdek, adaptiv tizimni joriy etishning metodik mexanizmlari belgilandi va pedagogik samaradorlikni baholash mezonlari tizimlashtirildi. Taklif etilgan model oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘quv faoliyatini intellektual boshqarish hamda ta’limni individuallashtirish darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida mazkur model asosida tajriba-sinov ishlari olib borish va statistik tahlil asosida uning samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Anderson, J. R., Corbett, A. T., Koedinger, K. R., & Pelletier, R. (1995). Cognitive tutors: Lessons learned. *The Journal of the Learning Sciences*, 4(2), 167–207.
2. Woolf, B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning*. Morgan Kaufmann.
3. Baker, R. S., & Siemens, G. (2014). Educational data mining and learning analytics. In: *Learning Analytics*. Springer, New York.
4. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. *EDUCAUSE Review*, 46(5), 30–40.
5. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign.
6. UNESCO (2021). *AI and Education: Guidance for Policy-makers*. Paris: UNESCO Publishing.
7. OECD (2021). *Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI*. OECD Publishing.
8. Brusilovsky, P. (2001). Adaptive hypermedia. *User Modeling and User-Adapted Interaction*, 11(1–2), 87–110.
9. Dede, C. (2014). The role of digital technologies in deeper learning. *Students at the Center Series*. Harvard Education Press.
10. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education.
11. Koedinger, K. R., & Corbett, A. T. (2006). Cognitive tutors: Technology bringing learning sciences to the classroom. In: *The Cambridge Handbook of the Learning Sciences*. Cambridge University Press.
12. Romero, C., & Ventura, S. (2010). Educational data mining: A review of the state of the art. *IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics*, 40(6), 601–618.

13. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(39).
14. Shadiev, R., & Yang, M. (2020). Review of studies on technology-enhanced language learning and artificial intelligence. *Sustainability*, 12(2), 524.
15. Holmes, W., Persson, J., Chounta, I. A., Wasson, B., & Dimitrova, V. (2022). Artificial intelligence and education: A critical view. *Learning, Media and Technology*, 47(1), 1–5.
16. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.
17. Garrison, D. R. (2017). *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Research and Practice*. Routledge.
18. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Polity Press.
19. Luckin, R. (2018). Machine learning and human intelligence: The future of education for the 21st century. UCL Knowledge Lab.
20. Yusupov, F., Rakhimova, L., Xaitbayeva, D., & Yusupov, D. (2024, November). Methodology of student activation on the based on a logically structured semantic graph scheme of the topic of searching for basic solutions to the transportation problem. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1, p. 030029). AIP Publishing LLC.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 3 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 16 February 2026
Accepted: 01 March 2026
Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

MECHANISMS FOR IMPLEMENTING PERFORMANCE-BASED FUNDING MODEL IN PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION LEADERS

Ismailov Shukhrat Abdusoat ugli
Independent Researcher,
Institute for Retraining and Advanced Training
of Higher Education System Personnel

Innazarov Majid Amonovich
Head of Department, PhD, Associate Professor,
Institute for Retraining and Advanced Training
of Higher Education System Personnel

Abstract. This article analyzes the main mechanisms for implementing the performance-based funding (PBF) model in the professional development system of higher education institution leaders, examines international experience, and provides practical recommendations.

Keywords: performance-based funding, leadership personnel, higher education, performance indicators, evaluation system, institutional development.

МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Исмаилов Шухрат Абдусоат угли
самостоятельный исследователь,
Институт переподготовки и повышения квалификации
кадров системы высшего образования
Email: moliya@bimm.uz

Инназаров Маджид Амонович
начальник отдела «Разработка образовательных программ
и учебно-нормативных документов», PhD, доцент,
Институт переподготовки и повышения квалификации
кадров системы высшего образования
Email: dasturlar@bimm.uz

Аннотация. В данной статье анализируются основные механизмы внедрения модели финансирования, основанного на результатах (PBF), в систему профессионального развития руководящих кадров высших учебных заведений, рассматривается международный опыт и формулируются практические рекомендации.

Ключевые слова: финансирование на основе результатов, руководящие кадры, высшее образование, показатели эффективности, система оценки, институциональное развитие.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N54

Введение. В современной системе высшего образования традиционные подходы к финансированию программ профессионального развития руководящих кадров постепенно утрачивают свою результативность. В условиях глобализации и цифровой трансформации образовательных систем возникает настоятельная потребность в более гибких и эффективных механизмах распределения ресурсов. Именно в этом контексте модель финансирования, основанного на результатах (performance-based funding, PBF), приобретает особое значение как действенный инструмент качественного наращивания компетентностного потенциала управленческих кадров высших учебных заведений [1; ст.3-5].

Актуальность данной проблематики обусловлена рядом взаимосвязанных факторов. Во-первых, возрастающие требования к качеству управления в системе высшего образования требуют постоянного совершенствования профессиональных компетенций руководителей. Во-вторых, ограниченность государственных финансовых ресурсов диктует необходимость поиска более рациональных способов их распределения, привязывая объёмы финансирования к реальным достижениям и измеримым показателям эффективности. В-третьих, международный опыт Германии, Финляндии, Республики Корея и ряда других государств убедительно свидетельствует о том, что внедрение PBF-моделей способно существенно повысить качество образовательных результатов и управленческого потенциала [2; ст.14-17].

Анализ литературы и методология. Концепция финансирования, основанного на результатах, восходит к теории нового государственного управления (New Public Management), согласно которой государственные институты должны функционировать по принципам, аналогичным рыночным механизмам [3; ст.8-10]. В сфере высшего образования данная концепция трансформировалась в модель распределения бюджетных средств в зависимости от достижения заранее установленных ключевых показателей эффективности (KPI). В качестве таких показателей, как правило, рассматриваются: уровень компетентности выпускников программ профессионального развития, степень практического применения полученных знаний, результативность разработанных и реализованных управленческих решений, а также индексы удовлетворённости заинтересованных сторон.

Анализ зарубежного опыта показывает, что наиболее успешные модели PBF строятся на сочетании количественных и качественных индикаторов. В Соединённых Штатах Америки более тридцати штатов применяют элементы PBF при финансировании высшего образования, причём в ряде из них значительная доля бюджетного финансирования напрямую связана с показателями завершаемости программ и уровнем трудоустройства выпускников [4; ст.831-834]. В европейском контексте особый научный интерес представляет финская модель, в рамках которой финансирование профессионального развития управленческих кадров интегрировано в национальную систему оценки качества образования и корректируется по итогам аккредитационных процедур [5; ст.82-85].

В ходе исследования применялись методы синтеза, сравнительного анализа и системного подхода. Источниковую базу составили международные научные публикации, эмпирические исследования и официальные отчёты, посвящённые

практике внедрения PBF в США, странах Европейского союза и Азиатско-Тихоокеанского региона.

Обсуждение. Механизм внедрения модели финансирования, основанного на результатах, в систему профессионального развития руководящих кадров высших учебных заведений предполагает последовательное прохождение нескольких ключевых этапов. На первом этапе необходима разработка чёткой системы измеримых показателей эффективности, которые должны отражать как краткосрочные результаты обучения, так и долгосрочное влияние программ повышения квалификации на деятельность возглавляемых учреждений. Данная система должна формироваться при участии широкого круга заинтересованных сторон: самих руководителей, органов государственного управления образованием, работодателей и экспертного сообщества [6; ст.189-193].

Второй этап предполагает создание институциональной инфраструктуры для мониторинга и верификации достигнутых результатов. Это включает разработку цифровых платформ отслеживания результатов, формирование независимых экспертных комиссий по оценке качества, а также внедрение процедур регулярной отчётности и аудита. Особую роль здесь играет обеспечение достоверности собираемых данных, поскольку именно на их основании принимаются решения о распределении финансирования [7; ст.228-231]. Международный опыт свидетельствует о том, что недостаточная надёжность системы мониторинга является одной из главных причин, по которым PBF-модели не достигают ожидаемого эффекта.

Третий этап связан с разработкой формулы распределения финансовых ресурсов, обеспечивающей баланс между стимулированием достижений и поддержкой учреждений, сталкивающихся с объективными трудностями. В этой связи целесообразно предусмотреть базовый уровень финансирования, гарантированный всем участникам, и переменную составляющую, напрямую зависящую от достигнутых показателей [8; ст.112-115]. Такой подход позволяет избежать ситуации, при которой учреждения с изначально менее благоприятными условиями деятельности оказываются в стратегически проигрышном положении.

Четвёртый этап касается создания механизмов обратной связи и адаптации модели. PBF не должна восприниматься как статичная конструкция — она требует регулярного пересмотра показателей с учётом изменяющихся приоритетов государственной образовательной политики, результатов промежуточных оценок и предложений участников системы. Именно цикличность и гибкость модели определяют её долгосрочную устойчивость и результативность [9; ст.5-8].

Таблица 1.

Этапы внедрения модели PBF в профессиональное развитие руководящих кадров

№	Этап	Ключевые действия	Ожидаемый результат
1	Разработка системы KPI	Определение измеримых показателей эффективности совместно с заинтересованными сторонами	Единая, прозрачная и признанная система оценки
2	Создание инфраструктуры мониторинга	Разработка цифровых платформ, формирование независимых экспертных комиссий, аудит	Достоверные данные для принятия решений о финансировании
3	Формула распределения финансирования	Установление базового и переменного уровней финансирования с учётом объективных условий учреждений	Справедливое стимулирование без дискриминации учреждений
4	Механизмы обратной связи	Регулярный пересмотр показателей, учёт предложений участников, адаптация модели	Долгосрочная устойчивость и результативность модели

Примечание: составлено авторами на основе анализа международного опыта.

В таблице 1 представлены четыре последовательных этапа внедрения модели PBF в систему профессионального развития руководящих кадров высших учебных заведений. По каждому этапу определены конкретные действия и ожидаемые результаты, что позволяет использовать таблицу в качестве практического ориентира при проектировании модели.

Таблица 2.

Сравнительный анализ моделей финансирования профессионального развития

Критерий	Традиционная модель	Смешанная модель	PBF-модель
Принцип распределения	По численности штата / студентов	Частично по результатам	Полностью по KPI и результатам
Гибкость	Низкая	Средняя	Высокая
Прозрачность	Ограниченная	Умеренная	Высокая
Риск неравенства	Умеренный	Умеренный	Высокий (без корректировок)

Критерий	Традиционная модель	Смешанная модель	PBF-модель
Стимул к развитию	Слабый	Средний	Сильный

Примечание: составлено авторами на основе источников [3; ст.8-10], [7; ст.228-231], [8; ст.112-115].

В таблице проведён сравнительный анализ трёх моделей финансирования профессионального развития по пяти ключевым критериям. Результаты сравнения наглядно демонстрируют преимущества PBF-модели с точки зрения гибкости, прозрачности и силы стимула к развитию, а также указывают на необходимость введения корректирующих механизмов для снижения риска неравенства между учреждениями.

